

Jahongir Muhammad

TARIXIY ROMAN

[BIRINCHI KITOB]

Bu kitobni ismi Munavvaru o'zi yorug' kunlarni ko'rmagan, dardlarga qul bo'lgan, o'n gulidan bir guli ochilmay so'lgan onaizorimning qalbimga otash, shuurimga nur, irodamga kuch, bardoshimga madad va ustin bo'lmish muborak ruhlariga bag'ishlayman. Muallif.

K I S H A N [1]

Yong'oqning kurtaklari quyoshni to'sib turgan barglarni turtib, "qornini silash" uchun joy qidirayotgan payt. Novcha, mo'ylovdor bir yigit yong'oq bargini uzib oldi-da, qo'lida aylantirib yerga tashladi. So'ng yo'lakning o'zi kelgan va qarshi tomonlariga alangladi.

"Nima gap?"

Qo'ltig'idagi ovoz uzatgichdan kelgan sasdan u cho'chib ketdi. "Darvozani taqillat!" U qo'llari titrayotganini sezdi. Nega qo'rqayapti? Ilgarilari bunday topshiriqlarga ko'p borgan. Nega bugun o'zini boshqacha sezayapti?

U Mirtemirni televizorda ko'p ko'rgan. Dastlab moziyga bag'ishlab ko'rsatuv olib borishgandi. Keyin uning felʼetonlarini o'qib turdi. Bir kun ishxonasida visir-visir boshlandi. Viloyat ichki ishlar boshqarmasiga yangi tayinlangan boshliqni Mirtemir gazetada tanqid qilib yozibdi.

So'ng Oliy Kengash majlisida ko'rdi uni. Karimovga: "Bu yurtni onangiz tuqqan emas! Nega hammani quvg'in qilasiz?!" deganda uni tinch qo'ymasliklari ko'nglidan kechgandi. La'nat shaytonga, deyish kerak ekan. Mana endi...

Sharq etib darvozaning eshigi ochildi.

-Assalomu -alaykum, keling o'g'lim,-dedi oltmishni qoralagan, istarasi issiq bir ayol mehribonchilik bilan.

-S...salomalaykum. Men "Lenin yo'li"danman, gazetdan. Mirtemir aka kerak edilar...

-U kishi poytaxtdalar. Men qaynonalari bo'laman. Biror gapingiz bor edimi?

-Shunday...birga ishlaganmiz. Bugun uchrashuvga kelishgan edik.

-Agar va'da bergan bo'lsalar, keladilar, bolam, ichkariga kiring.

-Mayli, keyinroq kelaman.

-Ismingiz nima edi? Nima deb qo'yay?

-Abdulla, Abdulla keluvdi, deb qo'ying.

U shunday dedi-yu zippilaganicha muyulish tomonga ketdi.

-Nima gap?-dedi uni mashinada kutib o'tirgan o'ris yigit.

-Yo'q ekan. Hali kelmapti.

O'ris yigit ovoz uzatgichning tugmasini bosdi: "Men to'rtinchi. Ob'ekt uyida yo'q", dedi.
"To'rtinchi. Panaroqda kut! Ob'ekt hozir shaharga kirdi. Senga yordamchilar yuborayotibman".

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas oq rangli "Jiguli" yong'oq ostiga kelib to'xtadi. Mirtemir sport kiyimida edi. Salom-alikdan so'ng qaynonasi:

-Abdulla degan yigit bilan uchrashuvingiz bor ekan. "Lenin yo'li"da ishlarkan, kechroq keling, deb qo'yibman, -dedi.

-Abdulla... "Lenin yo'li" dedimi yo ...

-"Lenin yo'li" dedi.

Gazetaning nomi o'zgarganiga bir yil bo'ldi, qolaversa Abdulla degan yigit yo'q. Abdulla aka, degan qorovul bo'lardi. U ham bo'shab, nonvoylikka o'tib ketganiga ko'p bo'ldi.

-Aya, men bolalarni olib ketishim kerak. Meni yo'qotishga azm qilishibdi.

-O'g'lim, vahima qilmang, birovni yo'qotish oson ish bo'ladimi?

-Aya, uni bilmaysiz. Jinniligi tutsa o'z bolasini ham yo'qotadi, hali-ku men...

-Yanabirorta gap o'tdi-mi, bolam?

-Ayajon, keyin tushuntirarman, ko'nglim sezib turibdi, kech bo'ladi. Tezroq poytaxtga ketishimiz kerak. Mayli o'sha yerda ushlab qamashsin. Bu yerda menda xusumati bo'lganlar bor.

-Oshdamlaganman. Mehmoningizni chaqiring, bir chimdimdan yeb olinglar, aylanay bolam, qo'rqmang, Xudoning o'zi asraydi.

-Mayli bolalar kiyinaverishsin. Siz oshni suzing.

Mirtemir shunday deb tashqariga chiqdi va "Jiguli" ichida o'tirgan yigitni ichkariga chorladi.

-Mirtemir aka, men ovqatlanganman, agar biroz vaqtimiz bo'lsa, mashinaga benzin quyib kelay. Yo'lda bormi, yo'qmi?-dedi haydovchi yigit.

-Benzinni yoʻldan topamiz. Qani ichkari kiraylik,oshtayyor!-Mirtemir shunday deb koʻcha boshiga qaradi. Ikkita mashina turardi.

-Kuzatishayapti, ablahlar. Hech boʻlmasa koʻrinmasdan kuzatishsa ekan. Qancha-qancha oʻgʻri, muttahamlar bor, ularni kuzatishsa-chi?!-dedi biroq qizishib.

-Qoʻyavering, ularning yegan noni halol emas,-shofer yigit ham oʻsha yoqqa qaradi.

Mashinada oʻtirganlar miltiqqa oʻxshagan narsani koʻrsatib qoʻyishganday boʻlishdi.

-Suratga olishdi. “Fotorujyo” degani shu,-tushuntirdi Mirtemir.

Ular ichkariga kirishganda darvozaxonadagi stol ustiga bir tovoqoshqoʻyilgandi. Yirik-yirik toʻgʻralgan sariq sabzisi gurunchning ustiga tortilgan oshdan bir qoshiqdan olib ulgurmaslaridan toʻs-toʻpolon boshlanib ketdi. Mashinalar birin- ketin katta tezlikda kelib, “gʻiyillagan”cha toʻxtab, ichidan baquvvat-baquvvat yigitlar otilib tushib, ichkariga bosib kirishardi. Bir zumda darvozaxona odamga toʻldi. Hovlining atrofi mashinalar bilan “oʻrab” olindi.

-Hech kim qimirlamasin,-dedi ichkariga kirgan boʻyi uzun kishi.

-Nima gap, Rustam?-deya oʻrnidan turdi Mirtemir.

-Rustam, pustam yoʻq. Sen qamoqqa olinding! Qani qoʻliga kishanur! Ikki yigit bir hatlab Mirtemirning qoʻllarini qayirgancha oldinga tortishdi.

-Dadajon, dada,-deb yugurib chiqishdi egiz qizlar Fotima va Zuhra.-Dadamni qoʻyib yubor, dada...dada...

-Bolalarni ichkariga olib kir!-buyruq berdi Rustam oʻris yigitlardan biriga. U goʻdaklarni chinqiratgancha ichkariga itardi.

-Bolalarga tegma, nomard,-dedi koʻz yoshlarini artishga ulgurmagan ayol. U Mirtemirning umr yuldoshi -Rohila.

-Nomard kimligini koʻrsatib qoʻyaman! Oʻchir ovozingni!-dedi Rustam unga.

-Ayolga baqirmang,-Mirtemir Rustamga yuzlandi.

-Ayolmish...Ayolini oʻylagan erkak uyida jim oʻtiradi. Kim qoʻyibdi senga arboblilar bilan oʻynashishni?!

-Siz avval menga sanksiyani koʻrsating! Tintuv qarori qani?

-Bu jinni-pinni boʻlganmi? Balki, hali advokat ham soʻrar. Qani tintuvni boshlanglar!

-Avval bular qoʻllarini, choʻntaklarini koʻrsatishsin. Nashsha yo qurol uloqtirib, keyin topdik, deydigand odatlari bor,-Mirtemir chetda indamay turgan polkovnikka qaradi.

-Qo‘rqmang, nashsha yoki qurol topish kerak bo‘lsa, keyin ham qog‘ozga qo‘shib qo‘yaveramiz, -dedi u masxaraomuz ohangda.

-Unda qo‘shnilarni chaqiring.

-Bizning o‘z “qo‘shnilarimiz” bor,-deb kuldi u yana.

Bosqinchilar oyoq kiyimlari bilan xonalarga otilib kirib hamma yoqni tita boshlashdi.

-Sizlar nega qarab turibsizlar?-Rustam ichkariga kirishga iymenib turgan uch- to‘rt o‘zbek yigitiga o‘dag‘ayladi. Yoki, sizlarga alohida taklif kerakmi?

Yigitlardan biri oyoq kiyimini yechdi-da, “Uzr, yanga” deb ichkariga kirdi. Qolganlari ham xuddi yo‘qotgan narsasini topgan bolalarday yengil tortib shu holni takrorlashdi.

Fotima goh dadasiga, goh mirshablarga qaray-qaray, qo‘rqa-qo‘rqa dadasining yoniga keldi. Mirtemir jajji ko‘zlarida yosh halqalanib turgan, rangi oqargan, kulcha yuz qizalog‘ini bag‘rigabosib, silliq, mayin sochlarini silagisi keldi. Kishan...Shunda ham ikki qo‘lini birvarakayiga ko‘tarib qiziga intildi.

-Qo‘lingni tort!-o‘shqirdi Rustam.

Fotima cho‘chib tushdi. “Hiq-hiq” etib yig‘lay boshladi.

-Sen payg‘ambarning nevarasimisan, nega baqirasan?-Mirtemir anchadan buyon jilovlab turgan jahlini “qo‘yib” yubordi.

-Sansirama!

-Sizlashga arzimaysan! Seni odam deb yurgandim. “Aka, aka” deb likanglab

kelarding-ku! Bu qizaloqning tug‘ilgan kunida aytilmagan mehmon bo‘lib kelmaganmiding?! Seni tuz uradi!

-Men seni tanimayman! Hali tuhmatga ham ustaman, degin. Tag‘in millat, Vatan haqida gapirarmish bu kishi!

-Dasturxonimizdan yegan nonlaringiz ko‘r qiladi sizni,-dedi Rohila. -Eh, dadasi, ana sizga do‘stu birodar, ana sizga xalqingiz.

-Bular xalq emas, bular xalqning chiqindisi, qo‘y, yig‘lama, Rohil, hammasi yaxshi bo‘ladi.

-Yaxshi bo‘ladi... Qani kel bu yoqqa qizim. Endi dadangni olib ketishadi...

U qizini bag‘rigabosib, yum-yum yig‘lar edi. Mirtemir ezilib ketdi. Eh, Rohil, seni qiynab yubordim. Men bilan qancha azoblarga sherik bo‘lding? Azob, tahqir ko‘rish uchun tug‘ilgan

ekansan-da. Uyimizni yondirib yuborishganda, ikki qizing bilan qor ustida qolding. Toshkentda eshikni buzib, narsalarni yomg'ir ostiga chiqarib tashlashganda to'rt bolang bilan jahannam azobini chekding. Men majlisda so'zlayotganimda uyga bostirib kirib, sizlarni qo'rqitishganda, dunyo ko'zingga olov bo'lib ko'rindi. Hammasiga chidading, bunga ham bardosh topasan!

Balki, sen borliging uchun men bu yo'lga kirdim, sen borliging uchun bu yo'ldan qaytmadim. Agar yonimda sen bo'lmasang, senga ishonmasam boshqalar kabi indamas bo'lib qolarmidim?

Lekin sening aybing nima? Sochlaringga oq oraladi. Xastalik orttirding. Sen ham boshqa ayollar kabi bashang kiyinib, mehmondorchiliklarda, to'yma-to'y, tomoshama-tomosha yurishni istarsan, balki?! Yo'q, sening baxting, shodliging to'rt bolang! Ularning tabassumi to'y, qahqahasi tomosha. Bilaman, hozir ham o'zing haqingda emas, men to'g'rimda o'ylayapsan. Qurib qolgan lablarimga qarab qo'yishingdan sezayapman, "Ishqilib, yuragingiz bardosh bersin" deyapsan. Tangridan iltijo qilib, menga omonlik istayapsan.

Onang, Salomat ayaga o'xshaysan. Dono ayol. Bir chetda kuzatib turibdilar. Faqat mening ko'zimga boqadilar. "Bolam, qo'rqmang", dedilar, boya. Nahotki qo'rqqanga o'xshadim. Rangim o'zgardimi? Faqat, faqat labim qurib qolayapti. Biror aybim, jinoyatim bo'lsa-ki, qo'rqsam. Shunday bo'lishini bilardim. Mana bular allaqanday qog'ozlar qidirishayapti. Bilishmaydiki, ularni qiziqtirgan hujjatlar uyda saqlanmaydi...

Ikki yigit Mirtemirning xonasidan allaqanday qog'ozlarni olib, bosh siltab o'qib chiqishdi. Keyin Mirtemirga ko'z qisib, ularni "keraksiz" uyumga qo'shishdi.

...Imo-ishora bilan xayrixohliklarini bildirishmoqda, o'yladi Mirtemir. Ha, bu yigitlar gap nimadaligini tushunishadi. Lekin fikrlarini aytolmaydilar. Nima ham qilishsin?! Bu

ishga osonlikcha o'tishmagan. "G'ing" deyishsa, pattalarini qo'llariga tutqazishadi. Ular shoshmasdan, beparvolik bilan tintishardi. Rustam esa jonbozlik ko'rsatib, xonadan-xonaga o'tar, yigitlarni do'qlardi.

Bir o'ris yigit muhim hisoblangan qog'ozlarni ro'yxatga ola boshladi. Gazetachining nimasi ko'p, qog'oz. Ba'zilarini erinmay oxirigacha qiziqib o'qishardi. Oltita papkada odamlardan kelgan xatlar bor edi. Uch soatlar chamasi o'qishdi.

Rustam Mirtemirning yoniga kelib, unga eshittirib:

-Bular bir piyola choy ham berishmaydi,-dedi.

-Anaohsuzilgan, o'tirib yeb olinglar,-dedi qaynonasi,-Hozir choy ham damlayman.

Mirtemir miyig'ida kulib qo'ydi. Rustam tik turgancha sovub qolgan oshdan ikki-uch qoshiq yedi. Keyin qo'ltig'ida papka tutgan polkovnikka ishora qildi. U indamadi.

Tintuv sakkiz soat davom etdi. Bu orada ellikka yaqin mashina kelib ketdi. Mirtemirning qarindosh-urug'lari kelishdi. Ularni hovliga kiritishmadi.

Polkovnikning qoʻlidagi ovoz uzatgich ishlab turardi. “Obʻektni generalning huzuriga olib kelinglar. Tintuvni yakunlanglar. Nima, tillo topdingizlarmi, buncha choʻzilib ketdi?”, degan ovoz keldi undan oqshom chogʻi.

Ular Mirtemirni darvozadan olib chiqishayotganda koʻzi qaynotasiga tushdi. Bir kunda bukchayib qolibdi. Chiroq yorugʻida yuzi tundlashgani sezilib turardi. U Mirtemirni quchoqlab oldi.

-Oʻgʻlim, bardoshli boʻling. Erkak kishi bukilmaydi. Bolalardan xavotir olmang. Sizni ota-onangizning arvohlari qoʻllasin...

“Ota-onangiz... “Bu soʻzlar Mirtemirning qalbini eritib yubordi. Qalbi tomchilarga aylanib, koʻziga yugurdi. Oʻzini arang tutdi. Ota...Otasini oʻldirishganiga yigirma yildan oshdi. Qotillar qolib, boshqalar qamalib ketdi. Onasi qirq ikki yoshida kamqonlik kasalligidan koʻz yumdi. Minglab onalar juvon yoshida ana shu darddan olamdan oʻtishgani unga tinchlik bermasdi. Uni siyosatga boshlagan ham shu dard. Onalar sogʻlom boʻlmas ekanlar millat sogʻlom boʻlmaydi, degan fikr uni hech tark etmasdi.

-Mirtemir aka, uzr, biroz qoʻpollik qildim. Ana u iflos polkovnik boshliqqa “Bu ikkalasi doʻst”, deb aytibdi.

Rustamning gapi Mirtemirning xayollarini boʻldi. Nima deyapti? Shu qadar

qoʻrqoq, ojiz edimi u? Oʻzi qanday tanishishgandi? Ha, Payariqda. Bir kishining boʻhton bilan qamalgani bois borgandi, Mirtemir. Oʻshanda Rustam unga qoʻshilib yurdi. Haqiqatgoʻy yigitga oʻxshagani uchun Mirtemirga maʼqul boʻldi. Keyin u viloyatga ishga oʻtganda Mirtemirnikiga kelib-keta boshladi. Kishi shu qadar ham oʻyinchi boʻlarkan-da?! Asli oʻyinchi boʻlmaganlarga ogʻir. Yurgan yoʻlda kaltak yeydilar. Bundaylar esa...

T O ‘ X T A Y E V [2]

Mirtemir Rustamga javob qilmadi. Mashina bir zumda viloyat Ichki ishlar boshqarmasiga yetib keldi. Oldinda, orqada bir necha mashinalar kuzatib keldi. Mirtemirni olib tushisharkan, mirshablar tomoshaga chiqishganini koʻrdi. Ular bosh iringʻab unga salom bergan boʻlishar, keyin hech kim koʻrmadimi, deb atrofga alanglashardi.

Rustam “5 raqami yozilgan tugmani bosdi. Liftga yana ikki qurolli yigit ham chiqdi. Nega bu qadar vahima, oʻyladi Mirtemir. Bularning boshqa ishi yoʻq-mi? Bugun yuzdan ziyod kishi u bilan ovora.

General oʻtiradigan xona eshigi ochiq ekan. Boshliq oʻrnidan turib, eshik tomonga yurdi.

-Kishanni yech,-dedi. Soʻng:

-Salom,-deb qo'lini uzatdi Mirtemirga.

Mirtemir generalning yuzida allaqanday horg'inlik sezdi. Kun bo'yi xonasidan chiqmay o'tirgani, "operatsiya"ga boshchilik qilgani sezilib turardi.

Ilgarilari bu xonaga Mirtemir ko'p kelgan. General har qanday shoshilinch ishi bo'lsa ham uni darrov qabul qilardi. Tugmani bosib qahva buyurardi. Keyin ish og'irligidan nolirdi.

Mirtemirning esida, ikki yil avval bu xonada Gayran degan armani o'tirardi. Bokuda ozarbayjonlar bilan armanlar o'rtasida to'qnashuv chiqqanida Gayran bir kechada 200 nafar qochqinni shaharga g'ayri rasmiy yerashtirib, hujjatlarini qonunlashtirib bergan.

O'shanda viloyatga Po'lat Majidovich "birinchi" bo'lib kelgan kunlar edi. Mirtemir katta yig'inda masalani ochdi. Janjallar boshlandi. Oxiri Gayranni qo'shni viloyat ichki ishlar boshqarmasiga boshliq muovini qilib ko'chirishdi. Viloyat deputatlari sessiyasida Uyg'un To'xtayevning nomzodi uning o'rniga ko'rsatildi.

Sessiya bahslar bilan o'tayotgan edi. Deputatlar Rossiyadan kelgan "mehmon" kadrlarni tasdiqlamaslik kayfiyatida. Viloyat ijroiya qo'mitasi raisining muovini Leonov birinchi bo'lib "sindi".

-Bu kishi Rossiyadan emas,-kuldi Po'lat Majidovich,-Poytaxtdan. Biz birga ishlaganmiz.

Keyin To'xtayev o'zi haqida gapirdi.

-Men ham san'atkor oilasidanman,-dedi u,-Radio, televizorda klassik ashulalarni aytadigan xalq artisti Nilufarxon To'xtayeva umr yo'ldoshim bo'ladilar.

Zalda yengil kulgi bo'ldi. Mirtemirning unga rahmi keldi. Nima bo'lsa ham tasdiqlanishini istayapti. Balki odamlarda rahm-shafqat uyg'otmoqchidir? Balki mehr qozonmoqchidir? Axir biz mashhur odamlarga boshqacha qarab o'rganmaganmizmi? U ko'p istiholaga borib, so'zga chiqmadi.

Sessiyadan so'ng unga nohaq qamalgan saylovchilari va tumandagi jinoyatchiliklar haqida takroran deputat so'rovi kiritdi. To'xtayev bir haftadan keyin javob qildi. Javob ilgari Gayran yozgan javobning nusxasi edi. Shundan keyin u gazetada To'xtayevning ish usuli haqida tanqidiy chiqish qildi.

Bir kun To'xtayev sim qoqib:

-Mirtemir aka, bu yerda ishlash og'ir ekan. Iltimos, menga maslahatlar berib turing,-dedi.

Tushunadigan odam ekan deb, tez-tez uchrashib turdi. Oralarida samimiyat bor edi. Faqat poytaxtda Mirtemirga nisbatan tazyiq boshlanganda u ham o'zgardi. Mirtemir surgunga uchrab, shahriga kelishi hamonoq ortidan kuzatuvchilar, ayg'oqchilar qo'yadigan odat chiqardi.

Bir kuni Mirtemir kuzatuvchini ushlab oldi. U haqiqatdan ham To‘xtayevning odami ekan. Mirtemir Islom Karimovga, Oliy Majlisga va Bosh Prokurorga deputatlik so‘rovi yozdi. Xalq deputati haqidagi va boshqa qonunlarda qayd etilgan huquqlari toptalgani uchun To‘xtayevga chora ko‘rilishini so‘radi.

Oradan hafta kechib, To‘xtayevga general unvoni berildi. Mirtemir tushundiki, To‘xtayev ijrochi. O‘zi bilmasdan uning “yaxshi” ishlayotganini yuqoridagilarga qayd etibdi.

-O‘shanda generallik unvonimga qo‘l qo‘ymay qaytarishgandi. Sizning shikoyatingizdan keyin o‘zlari so‘rab olishdi,-dedi To‘xtayev unga o‘tiring ishorasini qilib.-Agar siz Gayranga qarshi chiqmaganingizda bu joy menga nasib qilmasdi.

Qarangki, taqdir ekan, uka, endi siz bilan mashg‘ulmiz.

-Har holda bu safar qahva buyurmasangiz kerak, taqsir.-dedi Mirtemir.

-Hozir buyuramiz-da, uka...

U eshik yonida tik turgan yordamchisiga qaradi:

-Okangga qahva olib kel, achchiqroq bo‘lsin,-dedi.

-Xo‘sh...o‘zi yomon yigit emassiz. Xalq deb kayg‘urib yuribsiz. Kuyunchaksiz. Lekin uka, odamlar yaxshilikni bilishmaydi. Siz qancha-qancha odamlarni himoya qildingiz, asrab qoldingiz, bilishdimi? Bilishmaydi. Do‘stingiz hatto yomonlab maqola yozdi. Bu dunyo shunaqa. Mansabda bo‘lsangiz qulluq qilishadi. Yiqilgan kuningiz ustingizga chiqib tepishadi. Qani endi sizni birov himoya qiladimi?!

Sizga bitta hikoya aytib beraman. Bir boy odam bor ekan. Dunyo kezib bir shaharga kelsa, odamlar ochdan o‘layotganmish. Butun boyligini sarflab ularni saqlab qolibdi. Hamma kuch yig‘ib, ish-ish bilan ketibdi. Haligi boy birdan xastalanib qolibdi. Tabiblar dori-darmonga ko‘p pul surashibdi. Yurtiga qaytib ketishga ham imkoni yo‘q. Xastaligi kuchayib ketaveribdi. Tabiblar tashvishga tushibdilar. Chunki xastalik yuqumli ekan. Keyin xalq ham tashvishga tushibdi. Yig‘ilib bir qarorga kelibdilar. Tunda u yotgan joyga bostirib kirib, uni o‘ldirib, keyin kuydirib, kulini daryoga oqizibdilar.

Ana shunaqa, o‘zini uylagan odamgagina bu dunyoda yer bor, uka, siz bo‘lsangiz hovliqib ketdingiz. Mansab, ishonchni xalq yo‘lida sarflayman, dedingiz. Ham mansabsiz, ham ishonchsiz qoldingiz...

Mirtemir javob qilmadi. Uyg‘un To‘xtayev uzoq gapirdi. Nasihat ustiga nasihat. O‘zini oqil, dono ko‘rsatib, Mirtemirni ahmoq, adashgan ko‘rib, uning “ko‘zini ochmoq” istardi.

Mirtemir hayron. Bu gaplar nimaga kerak? Nima istaydi bu odam? Nega vaqtni cho‘zayapti? Yoki shu qadar bekorchimiki, suhbatdoshga zoriqib o‘tirgan ekan? Yo‘q, bu yerda boshqa gap bor. U nimanidir yo kimnidir kutayotibdi...

Shu orada telefon jiringladi.

-Nega bermaydi? Boshi nechta? Bu kattaning topshirig'i ekanligini biladimi, o'zi?
– u shunday deb jahl bilan telefon dastagini qo'ydi. So'ng Mirtemirga yuzlandi.

-Qarang-a, prokuror sanktsiyaga imzo chekmabdi. Baxtingiz bor ekan, shekilli? Shunaqa mardlar ham topiladi.

U qayergadir sim koqa boshladi.

-Po'lat Majidovich keldilarmi? – deb so'radi.-Yaxshi. Kelishlari bilan menga xabar qilsangiz. Davlat ahamiyatidagi muhim masala bor.

Keyin ko'p nuqtali dastagning bir tugmasini bosdi.

-Kattalar qayerda?-deb so'radi.

-Hozir Kattaqo'rg'ondan Adliya vaziri Alisher Mardiyevning ma'rakasidan qaytishdi. Shu damda hokimning dala hovlisida. Vazirimiz o'rtoq Almatov, respublika MXX raisi Aliyev ham o'sha yerdalar, o'rtoq general!

-Yaxshi meni xabardor qilib tur!-General o'zi aylanadigan stulda "liq" etib yana Mirtemirga yuzlandi:

-Ko'rdingizmi uka, sizni deb odamgarchilikdan ham qoldik. Vazirimizning yonlarida yurishim kerak edi, siz bilan bachakilashib o'tirishga majburman...

Mirtemirning xayoli oilasida. Nima qilishayotgan ekan?

Xavotirlanmasa ham bo'ladi. Qaynotasining gaplari unga dalda bo'ldi. Aqlli, ko'pni ko'rgan odam. Gapirishni emas, eshitishni yaxshi ko'radi. Odamni bir ko'rganda taniydi. Olma artishiga qarab kishining fe'l atvori haqida xulosa chiqara oladi.

Esida millat vakili bo'lgan kunlari edi:

“Bolam poytaxtga borayapsizu ko'nglim behuzur,-dedi u.-Oddiy odamlarni sevmaydilar. Umuman hukumatga ko'p yaqin yurmang.”

O'shanda Mirtemir qaynotasidan biroz ranjigandek bo'lgandi. Vaqt kechgani sayin qaynotasi haq ekanligi isbotlandi.

Uning xayolini generalning gapi bo'ldi.

-Sizni ba'zilar yo'ldan ozdirishdi. Ishonuvchan yigit bo'lganingiz uchun aldashdi. O'zlari chetda qolib, sizga o'xshaganlarni ilgari surishdi.

-Bu masalada siz haq emassiz, taqdir...-Mirtemir nihoyat javob qildi. Shu payt telefon jiringladi.
-Eshitaman! Labbay!-general o'rnidan turib gaplasha boshladi. U "xo'p", "xo'p" der ekan rangi biroz o'zgardi. Jahli chiqqan boshladi.

Telefon dastasini yeriga qo'ydi-da Mirtemirga o'dag'aylay ketdi:

-Sen jo'jaxo'rozga kitob yozishni kim qo'ydi? Qachondan beri yozuvchi bo'lib qolding? Mard bo'lsang otingni qo'yib yozmaysanmi? Qanaqa terror haqida yozding? Almatov senga nima yomonlik qildi?

Savollar toshdek yog'ila boshladi. General boshqa odamga aylandi. Shu paytgacha ko'rsatib o'tirgan iltifoti tugadi. Endi u ishga kirishgandi.

Kim bilan gaplashdi ekan? Vazir bilanmi? Qaysi kitob haqida so'rayapti? Ha, "Erk yo'li" kitobi. Uni Mirtemir yozgan emas. Lekin ichida uning xotiralari ham bor.

-Sendan so'rayapman, kitobni qachon yozding? Qayerda chiqdi?

-Bu so'roqmi?

-So'roqmi – po'roqmi, javob ber!

-Oldin menga qamoqqa olinishim haqidagi hujjatni, uyimni tintuv qilish haqidagi qog'ozni ko'rsating!

-Sen baqirma, bola!

-Baqiraman. Bu yer Chili emas. Har bir harakatingizga javob beradigan kun yaqin...

-Javob beradigan kun keldi. Faqat men emas, sen javob berasan!

-Men javob bermayman sizga. Oldin hujjatlarni ko'rsating...

-Hujjat!-general "mana hujjat" deb unga tarsaki tortib yubormoqchi bo'ldi-yu, bunga jasorati yetmadi, shekilli, qo'llari Mirtemirning boshida to'xtab qoldi.-Hali tilingni sug'irib olaman seni!

Yanatelefon jiringladi.

-Assalomu-alaykum,Po'lat Majidovich, general yana yumshoqqina bo'lib qoldi.-Ha, men qo'ng'iroq qilgandim.... Gaplashdim, kattakon maslahatchilariga ko'rsatma beribdilar. Lekin... keyin gap-so'z bo'lib ketmasmikan? Bularni qiynab- qiynab odam qilish kerak. Balki o'zingiz oqsoqol yoki maslahatchilari bilan gaplashasizmi? Hech bo'lmasa bir-ikki oy vaqt kerak. Ertagayok bu xabar chiqsa, odamlar ko'tarilib ketishi mumkin. Kremenogen sharoit og'ir. Uyining yonida ham ancha-munchasi o'ralashib yuribdi. Ularni "obrabotka" qilish, tayyorlash kerak...

Po‘lat Majidovich nimadir dedi. General:

-Yaxshi, men kutaman. O‘zimda bo‘laman. Ha, hamma yoqda odamlarimiz bor,- deb suhbatni yakunladi.

U gapini tamomlab, yana Mirtemir o‘tirgan tomonga o‘tdi:

-Ko‘rdingizmi, yana men joningizga aro kirayapman. Hayotingizni saqlab qolayapman, siz bo‘lsangiz allaqanday qog‘ozlarni so‘raysiz.

Birdan esiga nimadir tushdi-yu, u shoshib telefon yoniga bordi. Uch raqamli nomerni terdi.

–Allo! Kechirasiz,Po‘lat Majidovich! Bu prokuror sanktsiya bermayotganmish... Yaxshi...yaxshi... kutaman.

U tugmali dastagni bosdi. Qizil chiroq yondi.

-Eshitaman, o‘rtoq general!

-Hozir tezda tayyoragohga yetib bor! Vazir qog‘oz beradilar. Tezda olib kel!

-Ketdim, o‘rtoq general!

-Ko‘rdingizmi, sizni deb vazirni ham kuzatishga chiqolmadim. O‘zi qanaqa kitob edi? Tag‘in chet elga boribsizmi? Nima bor edi? U yerda sizga non pishirib berisharmidi? Gazetaga yozibsiz, yana. O‘zimizda gazeta kamlik qiladimi? Chetga borib, Vatanga tosh otishga or qilmadinglarmi? Endi mustaqil bo‘lganimizda uni yo‘qotmoqchimisizlar? Yo‘q, yo‘l qo‘ymaymiz. Bunga osonlikcha erishganimiz yo‘q. Moskva degan balodan arang qutildik...

Qutilganmish, o‘yladi Mirtemir. Hamma gap shunda-ku! Moskvaning quli bo‘lib o‘tirishibdi. O‘zimizning milliy pulimizni tezroq chiqaraylik, chegaramizni o‘rnataylik, armiyamizni yarataylik, deb baloga qoldik-ku?! Bular kechagina “Mustaqillik – ofat” deb o‘tirishgan edi. Darrov o‘zgarib qolishdi-ya? O‘zgarishadi-da! Shu bir soatning ichida necha marta turlandi-yu...

Odamzot qiziq! Uni tushunish amri mahol. Kunimiz ana shundaylarga qolgani uchun ham ahvol og‘irlashib ketayapti. Qancha-qancha ishlar bor. Kimningdir uyiga o‘g‘ri tushayapti. Kimnidir o‘ldirishdi. Bular esa nima bilan mashg‘ul? Davlat ahamiyatidagi masala emish...

Yanatelefon jiringladi.

-Eshitaman,Po‘lat Majidovich! Xo‘p...xo‘p... Kechirasiz... Xo‘p... xo‘p...

General telefon dastagini sharaqlatib qo‘ydi-yu, birdan tutoqib ketdi:

-Ko‘rdingmi, sen badbaxt uchun shunday ulug‘ odamni “onangni” deb so‘kibdilar. Oraga tushgan odam til tortmay o‘ladi-ya...

“Onangni” deb kim so‘kishini Mirtemir yaxshi biladi. Bu general uchun yangilik. Ammo poytaxtdagi hamma rahbarlarning kunlik eshitadigan “rahmati” bu. Esida... Uni oynai jahonga rahbar etib tayinlashdi.

-Oq yo‘l!-dedi o‘sha hammani onangni deb so‘kadigan katta.

-Rahmat, lekin ikki shartim bor,-dedi Mirtemir.

-Shart bilan tug‘ilgansiz-da, qani nima ekan?

-Avvalo, boshqa rahbarlarga o‘xshatib meni ham “onangni”, deb so‘kmaysiz. O‘sha kuni televizordan javob qilaman... keyin otib tashlasangiz ham. So‘ng... Ertadan boshlab meni yomonlab kelishadi. Darrov xulosa chiqarmasdan, yuzma- yuz qo‘yib, keyin chora ko‘rsangiz...

-Men (...) emasman, bildingizmi? Kimni so‘kishni bilaman, uka. Sizga bitta misol aytib beray: Gossnab boshlig‘ini bilasiz, Sharipov. Shuni so‘kkandim, ertasiga ariza yozib, ishdan bo‘shatishimni so‘rab xat yuboribdi. Kasal bo‘lib qolibdi. O‘g‘il bola ekan, qo‘ng‘iroq qilib kechirim so‘radim...

General hamon savol yog‘dirardi. Mirtemir javob qilmayotganidan achchig‘i chiqib, xonada u yokdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa borib kelardi. Bo‘yi past, qorni katta odam qaysi bir hayvonchaga o‘xshab pildirab yurganga o‘xsharkan, tez yurganda. Mirtemirning kulgisi qistadi. Lekin kuladigan payt emas. Masala jiddiy. Prezident fikridan qaytmabdi.

Bu fikr unda ikki yil avval paydo bo‘lgandi. O‘shanda Oliy Kengash majlisidan keyin ustози Ahmadjon akani chaqirib, “Bu bolangni qamoqda chiritaman, o‘ldirib yubortiraman” degan ekan. Keyin ham yana aytgan. O‘ziga ham bir marta aytdi. Ikki-uch topshiriq berdi-yu, aytgan odamlari uddalamadi. Nahotki, endi uning niyati amalga oshsa?! Naxotki bu general shunga boradi? Qo‘rqayapti, qo‘rqadi ham. Bir kishini o‘ldirib yuborish osondir balki, unga. Lekin bugungi shov-shuvlardan keyin qiyin. Hamma tushunadi. Bildirmasdan qilishganda bu ishni, balki bo‘lardi? U ham qiyin. O‘tgan yili kasalxonada urinishdi. Yaqinda poytaxtda nomersiz mashina bilan “turtib” ketmoqchi bo‘lishdi. Qirq yil qiron kelsa ham ajali yetgan o‘ladi, deydilar. Xudo ko‘rib turibdi hammasini.

O‘lim...o‘lim nima o‘zi? U qachon keladi? Qanday keladi? O‘limdan qo‘rqish kerakmi? O‘limni sevish kerakmi? Bu dunyo azob deymiz? Lekin yashashni yaxshi ko‘ramiz. U dunyo haqiqiy hayot deymiz. Ammo o‘limdan qo‘rqamiz. Nega?

Barcha chalkashliklar, adolatsizliklar o‘lim oldidagi qo‘rquv sabab dunyoga kelmaydimi? Agar bu general o‘limdan qo‘rqmasa, yashashni sevmasa bu qadar turlanarmidi?!

O‘lim kishi bilan yonma-yon yuradi. Faqat uni ko‘rmaymiz. Yonimizda ekanligini his qilmaymiz. Uni eslashdan qo‘rqamiz, hatto. Xayolan, ruhan o‘limning ichiga kira olamizmi? Kira olsak, uning “uyi”dan o‘ta olsakkina erkin yashay olamiz.

Balki hayot o'limdan so'ng boshlanar? Balki kishining ruhi bu dunyoda "kezib yurar"? Balki...To'xta, nimalar haqida uylayapsan? Darrov o'limni buyningga oldingmi? Insondek ko'nikuvchan jonzot yo'q. Shuncha tez o'limga ko'nikdingmi? O'z odamligini unutgan bir kishi sening o'limingga ko'nika olmayapti-yu sen rizo bo'lasanmi? U o'z o'limidan qo'rqqani uchun sening o'limingga ko'nika olmayapti?! Sen esa...

To'xta! Hali kurashmoq uchun vaqt tugamadi. O'limning ham vaqti, joyi bor. Bularning qo'lida o'lish badbaxtlik emasmi? O'lsang ham mardning qo'lidan o'lmok kerak. Hozir esa bu haqda o'ylashning fursati emas. Darrov o'ldirib yubormaydi. Uning o'z o'limidan qo'rquvi bunga yo'l bermaydi. Uning qo'rquvi – sening fursating....

Eshik taqillab, novcha yigit kirdi:

-Ruhsat eting, o'rtoq general!

-Olib keldingmi? Qani...

General papkani ochib qog'ozlarni titkilay boshladi. "Erk yo'li" kitobi. Uni ko'paytirishibdi. Tavba, bular erinmay kitobni ham ko'paytirishadi. Satrlarning ostiga chizilgan, chetiga savollar qo'yilgan. General erinmay o'qiy boshladi.

Orada:

-Butun dunyo tarixini yozibsan-ku!-dedi-Bu zanjirlar nimaning belgisi? Ha, haqorat bu! Tuzumga, Vatanga, millatga haqorat. O'ho', she'ri ham bor-ku! Xo'sh, she'rini keyin o'qiyimiz. Qani-qani...

U avval pichirlab o'qiy boshladi. Keyin varaqlarni tez-tez o'tkazib nimanidir qidira boshladi.

-Eh-he. O'zlaring shaxsga sig'inishni yomonlab, bu prezident bo'laman degan ho'qqinirosamaqtabsanlarku-a? Qizik... Qizik...

Rostdan ham u qiziqib ketdi. Tugmani bosib, qahva buyurdi. Keyin yaltayib

o'tirgancha o'qishni davom ettirdi. Kitobdan boshini ko'tarolmay qoldi. Keyin birdan o'midan turib ketdi:

-Ha, mana topdik. 75-bet,-u ovoz chiqarib o'qiy boshladi: "Shu o'rinda Oliy Kengash 10-sessiyasi hakida batafsilroq to'xtash kerak, deb o'ylaymiz. Sessiya arafasida muxolifat liderining boshini yorib, kasalxonaga yotqizishdi". To'g'ri qilishgan yotqizib,-o'zidan qo'shdi general.-Xo'sh... Xo'sh...

U osti chizilgan satrlarni o'qiy boshladi:

-Mamlakatda diktatura o'rnatildi... Muxolifat vakillarini ochiqchasiga terror qilishmoqda... Mana bu guvohnoma, ihm, ihm, mana bu ovoz uzatgich... Bu buyumlar qo'lga tushib qolgan fuqaro kiyimidagi Izzatillo Sulaymonov degan mirshabning yonidan chiqqan...Tak Tak... Bilasanmi? –

general Mirtemirga ko'rsatgich barmog'ini niqtadi.-Hozir ana shu Izzatillo ariza yozadi, tamom, prokuror ham (...) bo'ladi.

U tugmani bosdi. Hech kim javob bermadi. Boshqasini bosdi.

-Semerka qani?-deb so'radi.

-Shu yerda edi...

-Soat necha bo'ldi?-uning qo'lida tillo soat yaltirab turgan bo'lsa-da qarashga fursati yo'q edi, shakilli.

-Soat 21.15.

-Yaxshi. Top uni, menga kirsin! Xo'sh davom etamiz: "Muxolifat rahbariyati sessiya ochiladigan kun yuz ming kishilik miting qilaylik, degan taklif bilan keldi. Hurmatli millatvakillari bu masalani mening uyimda muhokama qilishdi. Uzoq bahs, munozaradan keyin 2-iyul kuni poytaxtda miting o'tkazishga qaror qilindi". Yaxshi... yaxshi... Yanabitta ayb bor...

Mirtemirning yodiga uyida to'planishgani tushdi. Muxolifat rahbarlaridan biri "Mitingga qo'shilasizlarmi?", deb so'radi. Ular muhokama qilishgani, hozir miting o'tkazishga imkon yo'qligi, hukumat talvasada ekanligi, bu harakat yigitlarimiz qamoqlarga olinishiga yo'l ochajagi, nima bo'lsa ham parlamentda bosh ko'tarish zarurligini aytishdi. Deputatlar mitingga qo'shilmaymiz, foydasiz, baribir yo'l berishmaydi, degan qarorga kelishdi. Mirtemir ham shunday yozgandi. Kitob tahririda o'zgartirishibdi.

Aslida kitobni bir olim yozgan va Mirtemir ham o'qib bergandi. Keyin uni Turkiyaga olib borib, nashr etishdan oldin Iso Xolis tuzatib chiqqan.

-Nega bunday qildingiz?-deganda,

-Shu kerak bo'ldi,-dedi Iso Xolis.

O'shanda qattiq ranjigan edi. Nega o'zgartirdi? Do'stlari o'qiganda Mirtemir yolg'on yozibdi, deb o'ylashadi. Qolgan gaplarga ham ishonishmaydi, deb xijolat bo'lgandi.

Ilgari ham bir marta shunday bo'lgandi. "Kundaga ko'yilgan bosh" sarlavhali maqola yozib, "Iltimos, tahrir qilinmasin" degan qayd bilan jumxuriyat gazetasiga bergandi. Bir kun maqola chiqdi. Qarasa, sarlavhaning ostiga Karimovning so'zlari qo'yilgan. Boshidan qaynoq suv to'kilgandek bo'ldi. Bosh muharrir "Uka, shunday qilmasak, chiqmasdi" dedi. Mirtemir ancha vaqt bosh ko'tarolmay yurdi. Har ikki holda ham g'isht qolipdan ko'chgan, u "qo'lsiz" edi.

General ovozi qo'yib yuborib o'qiyotgan edi. Birdan to'xtab qoldi. Keyin tarsakidan cho'chib qolgan boladay qaltiroq ovozda, asta-sekin o'qiy boshladi.

“Hokimiyat tinchimas edi, Oliy Kengashga chaqirishdi. Parlament raisi, Ichki ishlar vaziri, xavfsizlik qo‘mitasi raisi qo‘rqitishga urindilar. U terrorni to‘xtatishni, oshkoralik va demokratiyaga rioya qilinishini talab etdi. Deputatlar bilan jiddiy “ishlash” boshlandi. Avval viloyatlarga maxsus guruhlar yuborildi. So‘ng Bosh vazir o‘rinbosari Jo‘rabekov va maslahatchi Umurzoqov joylarga borib deputatlarni yakkama-yakka va to‘da-to‘da holida “bo‘yra” ustiga chiqardilar. Hukumatda qo‘rquv va jonsaraklik aralashib ketdi. Tili burro deputatlar maxsus nazorat ostiga olindilar.”

-Hm, hm... Pishib qolibsən, bola. Men ahmok, o‘rtaga tushib yuribman-a?

General boshini silkita-silkita yana ikki-uch sahifani o‘qidi. Shu payt bir urus yigit kirib keldi.

-Sulaymonovni top, o‘sha arizasini qayta yozsin. Yaxshilab yozsin. Deputat urgani, kaltaklagani hakida ham yozsin... ,-dedi unga general.

Yoppiray, o‘yladi Mirtemir. Urgani... kaltaklagani... Devday yigitni-ya... Ha, endi bular hech narsadan qaytishmaydi.

-Keyin, shaharga boshliqqa ayt, qarorni qayta yozsin, demak, deputatlikni suiiste‘mol qilib, xizmatdagi militsiya xodimini urgan, so‘roqsiz chet elga ketgan, chet el radiosiga, gazetasiga intervyu bergan. Buni 62-moddaga kvalifikatsiya qilsin, Vatan xoini, xo‘sh, keyin hukumatga qarshi kitob yozib, tuzumni ag‘darishga uringan, keyinsessiyada, yo‘q, matbuotdadaegin, sessiyatelevizordanko‘rsatilgandi, Karimovni haqorat qilgan... Yetarli, tez yozib kelsin. Avval, prokurorga olib borsin, keyin menga keltirsin. Tasdiqlaydigan hujjatlar yetarli, degin... Ha, uyidan chiqdimi

biror narsa?

-Bitta videokasetada o‘zining hukumatga qarshi gaplari, bittasida Karimovning gaplari to‘plangan... Keyin ikki-uchta hajviyalar...

-Yaxshi, kerak bo‘ladi. Mana bu kitobga tegishli hech gap yo‘qmi?

-Qanday kitob ekan?

-Bilmaysanmi? “Erk yo‘li”. Ma, ko‘r! U tugmani bosdi yana:

-Rustam, bu yoqqa kel!

Rustam ichkariga kirib serrayib turib oldi.

-Ertalab, soat oltida uyini qayta tintuv qilasan. Mana bu kitobga oid biror narsa topasan. Soat yetti yarimda poytaxtga uchasan. Men aytib qo‘yaman, Vazirlikda kutishadi. Hukumat shifoxonasidan uning kasallik varaqasini olib qaytasan.

-Ertaga yakshanba...

-Ular ishlashadi, yakshanba kuni ham. Ulgurmasang, bolalarni olib borib qo'y, tintib turishguncha qaytib kelasan.

-Xo'p, o'rtoq general!

-Sergeyga ayt, mahbusni olib ketsin! Ko'rdingmi, sendan yashiradigan gapimiz yo'q. Haqiqatni bilishga juda qiziqasan. Mana hamma gapni bilib olding. Qalay, rozimisan, mendan xafa emasman?

-Sizdan nega xafa bo'lay. O'ringizda boshqa birov bo'lsa ham farq bo'lmasdi. Bilaman, ichingizni it tirnayapti, lekin noilojsiz,-Mirtemir gapi sal ko'pol chiqqanini sezdi-yu, indamadi.

-Tiling boshingga yetdi, bola. Hali sen nonni "mamma" deb yuribsan. Bu dunyoda men bilan gaplashishing oxirgisi ekanligini sezmayapsanmi?

-Qo'ying-e, hali ko'p yashaysiz...

-O'h-hu, masxaraboz ham ekansan-ku... Seni odam deb o'tiribman-a? Jamiyat senga o'shaganlardan qancha tez qutilsa shuncha tez tozalanadi!

-Jamiyatni tozalashni siz va biz emas, Tangri hal qiladi.

-Bore, taqdiringni ham Tangri hal qilsin!

-Rahmat! Hali ham umidim Tangridan...

-Olib ket buni, Tangrisini yoniga!

General qizarib ketgandi. Mirtemir xonadan chiqar ekan, u televizorni qo'yishga urinayotganini ko'rdi. Qo'rqayapti. Nimadan? O'ldirish qaroriga kelganidanmi? Bir kechada hali necha marta o'zgaradi fikri. Qo'rqqinng fikri qat'iy bo'lmaydi.

Qabulxonada to'rt-besh kishi sigaret tutatib o'tirishardi. Hammasini tanidi. o'rinbosarlar, yordamchilar...

-Salomaleykum... Sizlarni ham kuttirib qo'ydik,-dedi Mirtemir. Ular indashmadi. Yuzlarida horg'inlik, cho'chish alomatlari bor edi.

-Gapirma,-dedi urus yigit Mirtemirning yelkasidan turtib.

Rustam mushkul ahvolda qoldi. Ertalab ishga kelganda boshliq o‘rinbosari chaqirdi.

-Generalning huzuriga kiramiz,-dedi. Ularni general darrov qabul qildi.

-Muhim topshiriq bor. Mirtemir bugun safardan qaytdi. Uni qo‘lga olish kerak. Shaxsan vazir shug‘ullanayapti bu ish bilan! Shahardan, rayonlardan odam olinglar! Bilasizlar, ichimizda uning odamlari bor. Agar operatsiya barbod bo‘lsa, boshlaringiz bilan javob berasizlar. Bu yerda men o‘zim rahbarlik qilaman operatsiyaga. Daqiqa- daqiqa ma‘lumot berib turasizlar,-dedi. O‘rinbosar o‘ylab turdi-da:

-Rustam shu yerda qolaqolsin,-dedi.-Mirtemir bilan do‘stligi bor.

-Bilaman,-dedi general,-mana, “semyorka”ning suratlari. Og‘iz-burun o‘pishib turgan paytida suratga olingan. Endi Rustam o‘zini oqlashi kerak. Agar operatsiya yaxshi o‘tsa unvonini oshirishga imzo chekaman. Ozgina orqaga ketishini sezsam, Mirtemir bilan birga yotadi. Lekin sening chaqqonliging, jonkuyarliging yoqadi

menga, bildingmi, bola.

-Bildim, o‘rtok general!-dedi Rustam.

-Sen, Vagif, uni shaxsan kuzatasan.

-Xo‘p o‘rtoq general.

-Mana uyining xaritasi. Orqada kichik eshik bor, suvning yonida. Ikkita mashina orqada tursin, hozirdanoq. Tepada institut binosi bor. Yuqori qavatdagi kuzatuvchilarni almashtiringlar. Bir oydan beri bekorchilikka o‘rganishdi. Hovlida, hammomdan qo‘shninikiga tuynuk bor. Uni e‘tibordan chetda qoldirmanglar. O‘sha rayonni butunlay o‘rab olinglar. Mashina kirmasin. Har qanaqa odamlar o‘tishmasin. Telefoni mutloq ishlab tursin. Bir gruppani qishlog‘iga jo‘natinglar. Yaqin qarindosh-urug‘larini kuzatuvga olinglar. Davlat avtonazorat xizmatiga topshiriq bering, qarindoshlarining mashinalari olib qo‘yilsin. Ha, telefonni Samarqanddan chetga chiqmaydigan qilib qo‘yinglar...

General bir zum o‘ylab qoldi-da yana davom etti:

-Tintuv paytida vahima Alinglar. Pachakilashib o‘tirsangizlar, xujjat talab qiladi. Hujjat so‘rashga og‘iz ochirmanglar. Qarshisidagi qo‘shnisi Mikrtchyan uyida o‘tirsin, o‘zimizning odam. Kerak bo‘lsa foydalanasizlar. Rustam, butun umid sendan! Seni odam qilmoqchiman, o‘zingni ko‘rsatadigan payt keldi. Vatan, millat takdiri turganda do‘st-ku do‘st, ota-onadan ham voz kechish mumkin, bildingmi?

-Bildim, o‘rtoq boshliq!

-Unda oq yul!

Rustam shu lahzada bu suhbatni eslar ekan, o'shanda tizzasi qaltirab ketganini o'yladi. Mirtemirning ko'ziga qanday qaraydi? Xuddi tug'ishgan akasiday yaxshi ko'rardi uni.

Samarqandga kelishi bilan uchrashardi. Uning uyida qancha mehmon bo'ldi. Qizaloqlarining tug'ilgan kunida ham faqat u bor edi. Tag'in umr yo'ldoshi Ra'no eshitib kolsa, nima deydi? U axir Mirtemirning xotini haqida haligacha havas bilan gapirib yuradi.

Nima qilish kerak? Boshqa iloji yo'q. Unga qanday yordam qiladi? O'zi gunohi nima ekan? O'sha Karimovga qarshi gapirgani uchun endi payti keldi, shekilli, javob berilayapti. O'zi to'g'ri odamga joy yo'q ekan bu dunyoda.

Yodiga birga reydgacha chiqishgani tushdi. Shahardagi o'n beshta yirik magazinni tekshirishgandi o'shanda. O'zi ham "kit"larning do'konlari edi. Ertasiga uni boshliq

chaqirib, "tinchit" dedi. Do'konlardan yuz ellik ming so'm yig'ildi. Rustam uning uyiga bordi. Mirtemirning jahli chiqmadi.

-Nima qilaman, buni?-dedi kulib.-Men qimmatrok turaman.

-Yanagaplashaymi?,-dedi Rustam jiddiy ohangda.

-Ularning puli yetmaydi. Men o'zimni sotmayman. Maqola tayyor, albatta chiqadi,- dedi Mirtemir qat'iyatini buzmay.

Rustam o'shanda "oramizga xafachilik tushdi", deb o'ylagandi, yo'q, Mirtemir:

-Bilaman, Sizga topshiriq bo'lgan,-deb qo'yaqoldi.

Keyin gazeta tahririyatini "qo'lga olish" topshirildi. Qancha pul suvga oqdi. Mirtemir janjal qilib bo'lsa ham maqolani chiqardi. Shahar qalqib ketganday bo'ldi. Shov-shuv shu qadar kuchaydi-ki yangi kelgan viloyat "birinchisi" Nazir Rajabov katta majlis o'tkazdi.

Lekin baribir, tergov jarayonida tinchitildi, faqat bir yil cho'zildi bu ish.

O'shanda Mirtemir "tuzum o'zgarmas ekan, hamma ishimiz befoyda" degandi.

Balki ana shunday voqealar uni kurashchiga aylantirgandir? Nima bo'lganda ham nomi og'izga tushdi. Mansabdorlar uning oldida xushomad qilib, orqasidan so'kishar, oddiy odamlar esa maqtab yurishardi...

Rustam shu xayollar bilan uning uyining yoniga kelganda:

-Rustam,-degan ovozni eshitdi. Atrofga qaradi, hech kim yo'q. Kim bo'ldiykan? Qulog'imga eshitildi shekilli, deb uyladi.

-Rustam, men daraxat orqasidaman!

Tanish ovoz. Kim bo'ldiyan? Iye, bu ikkinchi o'rinbosarninng ovozi-ku! U nima qilib yuribdi? Balki topshiriq bilan bog'liq gap bordir?! U atrofga allanglab daraxt panasaga o'tdi.

-Qo'rqma,-dedi o'rinbosar.-Yur, narigi ko'chaga o'taylik. Ular indamasdan qorong'u yo'lakdan ko'chaga o'tdilar. (DAVOM ETADI).

L U T F I L L O [4]

Lutfillo boshliqlarichidaunchalikko'zgatashlanmasdanyuradigankishi. Moskvada akademiyani bitirib kelgan kezlari majlislarda shartta-shurta gapirib, bir-ikki tanbeh olgandan so'ng indamay yuradigan bo'ldi. O'zi aqlli, ko'p narsaga farosati yetadi. Gayran ketganda ko'pchilik uning boshliq bo'lishini kutgandi. Qo'polligi yo'q. Qo'l ostidagilarni tinglashni biladi. Ishning "ko'zi"ni ko'radigan odati bor. Murakkab masalalarda eng oxir gapiradi va ko'pincha haq bo'lib chiqadi. Yuqoridagilar nimagadir uni o'stirishmaydi. Hozir nega keldiykin?! Boshliq yubordimikan?!

Rustam bilan barobar Lutfillo ham xayol surib borardi... Balki ertalab unga aytishim kerakmidi? Kechasi bilan o'ylab, ertalab sotsa-chi? Yo'q, bunaqa yigit emas. Necha marta sinovdan o'tgan. Undan boshqasi eplolmaydi. Buning ustiga Mirtemir bilan yaqin...

Ular hiyla pana joyga borishganda Lutfillo so'z ochdi:

-Rustam, sening oldinga kelishdan avval ko'p o'yladim. Ishonganim uchun keldim. General seni chiqarib yuborgach, uch o'rinbosarini chaqirdi. Karimov: "Bu jo'jaxo'roz jonga tegdi, tinchitinglar" debdi. Vazifa senga yuklatiladigan bo'ldi. Ertaga poytaxtdan qaytishing bilan... Bilaman, o'zing ham qiynalayapsan. Lekin bu narsalar uzoq davom etmaydi. Ne-ne imperiyalar qulab, hamma sirlar ochilayapti. Qancha-qancha topshiriq bajargan kishilarning umri xazon bo'ldi bugungacha. Ko'rsatma berganlar esa yana minbarga chiqib, adolatdan gapirib yurishibdi. Gapning pust kallasi shu: Mirtemirni qutqazish kerak. Bunday yigitlar hali kerak. Nima deysan?

Rustam indamadi. Balki bu tuzoqdir? Balki yonida diktofoni bordir? Balki... yo'q, hamma borsa ham bu qabihlikka Lutfillo bormaydi.

-Ikkalamiz ham olov bilan o'ynashayapmiz. Yo yonib ketamiz, yo ishni pishiramiz,- qo'shimcha qildi Lutfillo.

Oraga pul oraladimikan, o'yladi Rustam. Yo'q. Lutfilloning puli yetarli. Pul uchun o'zini olovga tashlamaydi. Unda nima majbur qildi uni? Vijdonmi? Iymonmi? Ertangi kundan umidmi?

-Lutfillo aka, nima qilishim kerak?

-Avval roziliging kerak. Undan keyin nima qilishni gaplashamiz.

-Bu fikrni yana birov biladimi?

-Yo‘q! Sen, men va Alloh... Men kuysam, bolalarim sening bo‘yningda, sen kuysang...

-Bu ishga kattalar aralashgan. Kuysak ham birgalikda tamom bo‘lamiz. Uni o‘ldirisholmaydi, baribir.

-Senga yuklashadi, ertaga. Keyin kech bo‘lib qolishi mumkin.

...Menga! Meni nishonga olish uchun bu gapni aytayaptimi? Nega menga yuklashadi? Boya general “Senga ishonaman” deganda shunga sha‘ma qildimi?

-Biror joydan gap chiqmasligi uchun senga to‘xtashdi. Nima bo‘lganda ham Mirtemir bilan do‘st ekanligingni ko‘pchilik yaxshi biladi. Gap chiqsa ham ishonishmaydi, degan xulosaga kelindi.

-Qanday qutqazamiz?

-Sen avval o‘ylab ko‘r, qo‘rqsang rozilik berma! Gap shu yerga ko‘miladi. Qo‘rqmasang, bir fikrga kelamiz. Senga ochig‘ini aytaman. O‘tgan yili meni ishdan ketkazishmoqchi bo‘lishdi. Sababini bilmayman. Vazir buyruqqa imzo chekkandan keyin borib Mirtemirga uchrashdim. U mehmonxonada yashar ekan. Meni olib bordi xonasiga. Uzoq dardlashdik. Ertalab vazirning yoniga bordik. Vazir Karimovtopshiriq bergan, deb aytibdi. Bilmadim, nima qildi, buyruq uch kundan keyin bekor bo‘ldi. Vazir “Bu deputatga necha million berding?” deb so‘radi o‘shanda. Shundan bildimki, bitmaydigan ishni bitkazgan ekan. Keyin borimni yig‘ishtirib, uyiga olib bordim. Olmadi. “Sizga ming-ming odamning ishi tushadi. Shularning yarmi nohak ayblanganlar bo‘ladi. Shu yarimning yarmiga men uchun yordam qilsangiz, bas. Xudo menga ko‘maklashadi”, dedi. Uyalib ketdim. Shunda pulni oldi-da ichidan bir dona o‘n so‘mlikni so‘g‘irdi. “Buni metroga kiraverishdagi gadoyga beraman, savobi ikkimizniki”, dedi...

Lutfillo bu hakda Mirtemirdan biroz eshitgandi, lekin boshqarmada hech qanday so‘z aylanmagani uchun u qadar qiziqmagandi.

Lutfillo hikoyasini davom etdi:

-Meni vazirning gapi cho‘chitdi. U orqamdan odam qo‘yishi mumkin, deb Mirtemirning yoniga boshqa bormadim. Buning ustiga u uy olib mehmonxonadan chiqqan va oilasi bilan poytaxtda yashardi. Keyin eshitishimcha, bir kishiga “Lutfillo nomard yigit” debdi. Suroqlab turmaganim uchun shunday degan, shekilli. Mana endi qarzni uzadigan payt keldi.

Rustamning qo‘ngli yorishdi. Shu damda Lutfilloni quchoqlab olgisi keldi. Mard odam ekan.

-Bilasizmi, ichim yonib ketayapti. Agar ular aytgandek bo‘lsa, bosh ko‘tarib yurolmayman. Hatto xotinim ham “nomard ekansan” deydi. Men roziman. Faqat juda puxta o‘ylashimiz kerak.

-Hali prokuror hibis qaroriga qo‘l qo‘ymagani uchun ham ehtiyotdan Mirtemirni shahar KPZsiga olib ketishdi. U yerda mening yigitlarim bor. Ularni qamay olishmaydi. Juda nari borsa ishdan chetlatishadi. Mirtemir o‘shanda olmagan pulni shularga berarman. Og‘izlari yopiladi. Vaqt o‘tib, keyin ularni yana tiklaymiz yoki boshqa ish topib beramiz.

-Men nima qilishim kerak?

-Sen sahar soat olti yarimda Mirtemirning uyiga borishing kerak. Demak, oltida shaharga kirib, uni olasan.. Uyiga keltirasan. Qo'shnilarinikiga o'tib, o'sha yerdan qochib ketadi.

-KPZdagi yigitlar meni ko'rishadimi?

-Yo'q. Qo'l oyoqlari, ko'zlari bog'langan bo'ladi. Kalit yonlarida turadi. Men yotoqxona tarafdin kuzataman. O'sha paytda chiroqni, aloqani bir zumga o'chiramiz. Bu mening ishim.

-U qo'lga tushsachi?

Tushmaydi. Qo'shnilardan biri bizning odam. U tayyor turadi. Orqa yo'ldan mashinasi bilan olib chiqib ketadi. Sen fakat Mirtemirga. "Vasya"nikiga o't, keyin qayerdaligingni ikki kundan so'ng Lutfilloga yetkaz, pochchasi orqali", degin.

Ular yana qaytadan hamma ikir-chikirlarni gaplashdilar.

-Olti yarimda, albatta, Mirtemirning uyida bo'li! Sezdirma. Do'q-po'pisaqil oila a'zolariga. Keyin qo'nalg'aga ketaverasan...,-dedi Lutfillo.

Ular quchoqlashib, "Alloh qo'llasin" deya xayrlashdilar.

B A C h C H A G ' A R [5]

...Mirtemirni tergovchi o'z xonasiga olib keldi. Tergovchi armani edi, shu sabab o'rischa gapirdi:

-Sen kim bilan o'ynashayapsan?

Mirtemir savolga javob berish o'rniga xayolga tildi. Nima qilish kerak? Hozir u bilan o'chakishsa, xo'rlashadi. Savollarga javob bersa, past ketgan bo'ladi. Ona tilida ish yuritilsin, deya dod-faryod qilganlardan biri o'zi emasmidi? Endi tergovchiga rus tilida javob beradimi?

Darvoqe, uni nega bunga topshirishdi? Bu Gayranning odami emasmikan? Yodiga Karimovning bir gapi tushdi. O'shanda sobiq Bosh vazirni quvginga olgandi: "U ishdan bo'shatgan odamlarni topinglar, ana o'shalarning qo'lga topshiringlar, onasini ko'rsatadi", degandi. Keyin uning boshqalar haqida ham shunday xulosaga kelganini ko'p eshitdi. Bu ham prezidentning buyrug'i degan xulosaga keldi.

Tergovchi unga qarab aftini bujmaytirib turardi. Xonada chirog' yonayotganiga qaramay, stol ustidagi tunchiroqni ham yoqib qo'ygandi. Shu bois ikki tarafda ham soyasi bor edi. Biri xira, biri yorqinroq. Mirtemir xuddi yangilik ixtiro qilgan kishidek yengil tortdi. Oldin sezmagani ekan.

Insonning bitta soyasi bo'ladi, deb yurardi. Qarangki, soya ham ikkita bo'lishi mumkin ekan. Ha, sharoit insonni, balki uning soyasini ham o'zgartirishi mumkin.

Soyalar egasining oviga tashlanmoqchi bo'lgan kalxatdek edi. Ko'zlari "lovullab" yonayotgandi:

-Gapirasanmi? Yoki...

Yoki nima? Uradimi, xo'p ursin! So'kadimi, xo'p suksin! Ursa uradi, so'ksa so'kadi. Lekin buning oldida o'zini yerga urmaydi.

-Tergov qilishga haqqing yo'q! Hali ish qo'zg'atilgan emas!,-dedi nihoyat u.

-To'g'ri,-negadir tergovchi yumshoq ovozda javob qildi. – Hozir, azizim, birgalashib seni qamoqqa olish haqida qaror yozamiz. Qolganiga keyin ulguramiz.

-Meni boshim og'riyapti,-dedi Mirtemir.

Bu o'ylamay aytilgan va to'g'ri gap edi. Faqat boshi og'riyotgani endi yodiga kelgandi.

-Unda qahva ichamiz!-tergovchi farmonni kutib turgandek, stoli yonidagi elektr choynakning simini qo'liga oldi.-Ikki daqiqada qaynaydi.

U juda madaniyatli va ayni paytda juda madaniyatsizga o'xshardi. Gaplari ham samimiy, ham masxaraomuz edi. Shu lahzada ajratib olish mushkul.

-Bilasanmi,-dedi u uzoq jimlikdan keyin,-nega bu ishni menga topshirishganini o'ylayapman? Sen nega bizni yomon ko'rasan?

-Nega yomon ko'rar ekanman. Hatto yurtingda yer qimirlaganda ota-onasiz

qolgan bolalardan ikkitasini olib boqishga ariza berganman.

Endi tergovchi bu gapning samimiyligi yoki masxaraomuzligi haqida o'ylay boshladi.

So'ng:

-Ikki bolani musulmon qilish bilan ish bitadimi?-dedi.

-Majburan musulmon qilish dinimizda yo'q.

-Ammo kuch, zo'ravonlikka qaramay diningizni qabul qilmaganmiz.

-Dinimizning hozirgi masalaga nima aloqasi bor?

-Qahva hozir bo'lguncha mavzu topildi. Senga ko'ra men nohaqmi?

-Sizlar hech qachon o'zingizni nohaq deb hisoblamagansiz.

-Siz ozarbayjonlarga yordam berganda haqsiz, biz o‘zimiznikilarni qo‘llasak nima qilibdi?

-Afsuski, yordam berolmadik, yo‘l qo‘yishmadi.

-Mana bu nima?

U Turkiyadagi gazetada bu xususda bosilgan suhbatni Mirtemirning oldiga qo‘ydi.

Buni elchi yuborgan deb o‘yladi. Antaliyada, qurultoy ziyofatida ko‘rishgandilar. O‘shanda O‘zbekistonning Turkiyadagi elchisi Ubaydulla Aburazzoqov u bilan quchoqlashib, turkchasiga bosh urishtirib ko‘rishdi-da qulog‘iga “Butun dunyo sizni gapirayapti. Ablahlar qish kuni quvishdimi, uydan?” dedi.

Ha, ablahlik har turli ko‘rinishda bo‘lar ekan! Aks holda kichik bir gazetada bosilgan suhbatni darhol bularga yetkazadimi? Yetkazmasa, boshqa birov yetkazadi. U esa yonadi. Ammo u holda ham yonadi, bu holda ham. Chunki Karimov hech kimning xizmatini qadrlamaydi. Buni bilishadi, ammo balki qadrlab qolar deb o‘ylashsa kerak-da.

Keyinchalik ma‘lum bo‘ldiki, tergovchi vaqt o‘tkazayotgan, topshiriqni kutayotgan ekan. Shu bois gapni aylantirib, masalaning o‘ziga tegishli tomonlarini kovlatayotgandi. Bu bilan “Shunaqa! Elga navbat, sherga navbat!” demoqchi bo‘lardi.

-Qo‘shningni nega yozding? – dedi yana osmondan tosh tushgandek qilib.

-Qo‘shnimni...

-Ha, Mikirtchyanni!

-Men emas, u yozgandi, men ishlagan tahririyatga va Moskvaga.

-Nega?

-Nega bo‘lardi, biz boshqalarga yo‘l bermayotgan ekanmiz. Qarang-a, yo‘l bermaslik shunchaki, bir yilda yangi mashina oldi, dang‘illama uy qurdi, shahar kasalxonasida bosh hakim muovini bo‘ldi...

-Unda nega senning ustingdan xat yozdi?

-Topshiriq bilan. Yozishga yozdi-yu, keyin boshqa topshiriq bilan uzr so‘rab yozdi. Lekin u qachondir jazolanishi kerak. Uyida qurol sotadi. Tog‘li Qarabog‘dagi urushga yordam pulini ham u yig‘adi.

-Bas, bu sizga Oliy Kengash majlisi emas!

-Bu yer Oliy Kengash majlisidan yaxshiroq. U yerda bu gaplarni gapirib ko‘r-chi, darrov vatan xoini bo‘lasan.

-Shunday ham vatan xoinisan.

-Ha, endi Karimov va birodarlaringiz vatan bo‘lishsa, men vatan xoiniman-da.

-Aybini bo‘yniga olish yaxshi fazilat. Ertaga bularni birgalashib yozamiz.

-Men ruscha yozishni bilmaymanda,-kesatdi Mirtemir.

-Hechqisi yo‘q, men ham davlat tilini bilmayman, – tergovchi ham kesatdi. – Men yozaman, sen qo‘l qo‘yasan!...

Tergovchi “topshiriq” kutib turgani tez-tez telefonga qarashidan ham sezilardi. Nihoyat u kutgan qo‘ng‘iroq chalindi.

-Eshitaman, o‘rtoq general! – dedi u telefon trubkasiga yopishib qolgudek bo‘lib.- Xo‘p, xo‘p, xo‘p...

U telefon dastagini qo‘ydi-yu, biroz o‘ylanib, keyin boshqarma navbatchisiga sim qoqdi:

-Shahar KPZsiga xabar berdingiz-mi? Yaxshi! Borayapmiz,-dedi.

So‘ng Mirtemirga yuzlandi:

-Baxting bor ekan. Prokurorni topishmabdi. Bu kechani shaharda o‘tkazasan. Qani ketdik.

Ular yo‘lakka chiqishganda Mirtemir hayratda qoldi. Yarim kecha bo‘lishiga qaramasdan o‘n-o‘n besh kishi qatorlashib turishgandi.

Ular “xayriyat” degandek, yengil tortishdi. Demak, bir necha soatdirki, kutishmoqda.

-Ikki kishi men bilan, qolganlarga javob,-dedi tergovchi. “Askarlar” apal-tapal tarqalishdi. Mirtemirni temir panjarali mashinaga chiqarishdi. Besh daqiqada shahar mirshabxonasiga yetishdi. Tergovchi avval o‘zi ichkariga kirib hujrani aylanib chiqdi.

Keyin:

-Qalay? Oliy kengashning ishxonasiga o‘xshaydimi? Yoki hukumat sanatoriysigami?-dedi.-Har holda xalq orasiga kirib-chiqqan yaxshi-da!

Yaxshi gap! Mirtemirning xayolida nimadir yilt etdi. Bular o‘zlari bilmasdan yangi gap aytib qo‘yishadi. Darhaqiqat, xalq qamoqxonada. Mamlakat shu kecha- kunduz ulkan qamoqxonaga aylangan. Mahbuslarni istasalar uradilar, istasalar ishlatadilar. Har holda urmasdan, so‘kmasdan, ishlatmasdan, haqini yemasdan boqmaydilar.

-Ha, qamoq xalq bilan birga yashash demakdir,-kinoyaga kinoyamuz javob qildi Mirtemir.

-Mana bu ham xalqning nasibasidan bir parcha!

Tergovchi kutilmaganda uning biqiniga mushtladi. Bachchag‘ar, urishga usta ekan. Mirtemirning nafasi orqasiga qaytib, “hiq” degancha bukchaydi. Go‘yo uni birov baland tepalikdan uloqtirib yubordi-yu uchib ketayapti, tushib ketayapti... uh, zamin buncha uzoq bo‘lmasa? Qachon yetadi? Qachon? Birdan “sharaq” etib ko‘zi ochildi. Hammayoqda oq yulduzchalar kezib yuribdi. Yananimadir “sharaq” etdi. Endi sezdi, bachchag‘ar urishda davom etayapti ekan.

-O‘...lib qol...adi! Bu...lar nim...jon kel...adi!-Mirtemirning qulog‘iga uzoqdan kelgan tovush uzuq-yuluq eshitilar edi.

-O‘l...sa, mukofot ola...san!

Tergovchi har qancha “bachchag‘ar” bo‘lsa ham, darrov hansirab, arang so‘kindi. Mirtemir javob qilaman, degandi, tili komiga yopishib aylanmay qoldi.

O‘rnidan turmoqchi bo‘ldi. “Sharq” etib ketdi suyaklari... Bu tepkidan keyin yuzi bilan betonga urildi...

Mirtemir boshini ko‘targanda yelkasiga nimadir bog‘lab qo‘yilganu bu og‘ir yuk uni ezayotganini his qildi. Nima bu? Tergovchi oyog‘i bilan bosib turibdimi? Yoki tegirmon toshi kabi bir narsani bostirib qo‘yishdimi? Yanabiroz qo‘zg‘algandi, “yuk” ko‘kragining ichida ekanligini sezdi.

Bu og‘riq edi. Og‘riq ham deyish qiyin. Bu yong‘in kabi bir narsa edi. Ko‘kragini ichida yong‘in boshlangandi. Alanga asta-sekin kengayib butun ko‘krak qafasini o‘rab oldi. U “yordam!” deya qichqirmoqchi bo‘ldi, lekin alanga uning tovushini ham yutib yubordi. Dori berishdimi? Ukol qilishdimi? Nima bo‘ldi?

U o‘z savollariga o‘zi javob berolmasdi. Tamom-mi? Yashash, hayot shu yerga qadarmi? Qiziq u jon berayaptimi?

Ilgari odam o‘layotganda nimalarni his etarkan, deya o‘ylardi. Demak, o‘lim oldidan odam yonar ekan. Alanga ko‘krakda boshlanib, butun vujudni o‘rab olarkan...

Z I N D O N [6]

Darvoqe, Mirtemir o‘lim arafasida kishining ko‘z oldidan umr yo‘llari kechadi, degan gapni eshitgandi. Yolg‘on ekanda-a? Nega o‘tgan kunlar yodiga tushmayapti? Naqadar qiziq, rohatbaxsh va alamli xotiralari bor. Qani ular? Qani?

Birdan issiq qo'l boshini silagandek bo'ldi. Kim? Hech kim yo'q. So'ng "Bolam!" degan sas quloqlariga urildi. Uzoqdan kelgan bu sas onasining tovushi edi.

"Bolam, nima bo'ldi senga?"

"Onajon, hech narsa bo'lgani yo'q. Bolaligimda boshimdagi soch girdoblariga qarab mahzun bo'lardingiz".

"Ha, bolam, u belgilar kishining qamalishidan darak, deyishardi".

"Seni birovlar qamaguncha o'zim qamayin, deb tandirga kiritib qo'ygandingiz".

"Biroz bo'lsa-da o'tir degandim, qo'rqqanding! O'shanda tandirda biroz o'tirganing-da balki boshingga bu kunlar kelmasmidi?"

"Peshonada bori, onajon. Doim peshonamni silab, "Bittayu bitta o'g'limsan, peshonang tor, og'ir kunlar bilan yuzma-yuzsan" derdingiz. Tangrining yo'lidan qochish mumkin emas. Har kim yozilganini ko'radi".

"Ha, bolam, Xudoning amri amrdir! Bo'lmasa, men sizlarni yetim qoldirib ketishni istarmidim?"

"Sizdan keyin dadam ham ketdilar Men askarlikda edim. Kechikib keldim. Mozorlarini quchoqlab yig'ladim... Mana endi ko'rishsak kerak!"

"Bolam, dadang ham shu yerda! Ammo sen bilan ko'rishishni istamayaptilar. U yashashi kerak, deyaptilar. Sen yashashing kerak, bolam!"

"Onajon, yashashga qo'yishmayapti".

"Unday dema, yashashga qo'yish, qo'ymaslik ularning qo'lida emas. Ularga qolsa olovlarning ichida yonib ketarding..."

"Ha, onajon uyimiz yonib ketdi. Chiroqlaringizni yoqay, degandim, bo'lmadi. Me'rozingiz nasib etmadi".

"U joy bizga ham nasib etmadi. Ammo u uy-joyni tiklaguncha jigarlarimiz ezildi. Ko'chib kirish bilan g'amga botdik. Birin ketin tashlab ketdik. Sizlarga ham nasib bo'lmadi!"

"Balki yonib ketgan uy-joyni tiklab, u yerda yashamaganim uchundir bu jazolar..." "Yo'q, bolam! Qayerda bo'lsang ham bizni unutmading, duo qilib turding. Biz sen bilan. Qayerda bo'lsang biz yoningdamiz!"

"Onajon, unda qanday xato qildim?"

"Qilishing kerak bo'lgan xatoni qilding! Agar shu xatoni qilmaganingda biz seni tark etardik. Otangning ruhi ham shod bo'ldi. Agar badbaxt shoh "Bu xalqning onasini..." deb haqorat

qilganida jim qolsang, sendan rozi bo‘lmasdik. Balki jim qolsang, bu kunlarga tushmasding. Lekin biz seni unutardik, bolam! Tur, o‘ksinma! Tur! Tur! Bolam, bolaginam!...”

Tovush uzoqlashib ketgandek bo‘ldi. Mirtemir o‘rnidan turib tizzalab o‘tirdi. Tush ko‘rdimi? Xayolga botdimi? Nima bo‘ldi? Ha, ko‘kragi yonayotgandi. Qani olov? Qayoqqa yo‘qoldi? Nega birdan yengil tortgandek bo‘ldi? Demak, ota-onasining ruhi oldida gunohkor emas.

Darvoqe, bu yerga tushishining sababi o‘sha haqoratga javobmi yoki majlisda aytgan gapimi? Aslida bu gap ham o‘sha haqoratning javobi emasmidi?

Oradan uch yil o‘tibdi. Lekin o‘sha dahshatli haqoratni hali unutgani yo‘q. Hayotini ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi. Bir gap dunyoni bor qiladi, bir gap yo‘qotadi, deganlarida aytilishi uchun aytilganda, deb qo‘ygandi.

Inson hayoti o‘zgarib ketishi uchun bir gap kifoya ekan. Ba‘zan uni o‘zi aytishi mumkin. Ba‘zan esa boshqa. Farq qilmaydi. Agar o‘shanda e‘tibor qilmaganda nima bo‘lardi? E‘tibor qilmasligi mumkin edimi? Yo‘q. Nega? Mana-man degan shoir, xalqning nazarida ilohiy kuchga ega bo‘lgan odam eshitmaslikka oldi-ku! U sen uchun ham bir paytlar ilohiy edi. Keyin sariq chaqaga arziyas ekan, degan xulosaga kelmaganmiding?! Lekin hozir u davralarning to‘rida. Doim shunday edi, hech qachon surilgan emas. Bu dunyoda doim hurmatda bo‘lish, mansabda turish uchun inson bulish kifoya qilmaydi. Gohida tulkilik qilish kerak, gohida ilonga aylanish, ba‘zan esa to‘tiqush kabi yashamoq lozim. Sen esa buni bilmas eding!

U buyuk shoir! Bularni biladi! Qaysi gapdan keyin qanday voqea kelishi unga ma‘lum. Qolaversa, ko‘rganini unutib, o‘ylaganini yozgan shoirlar tarixda qoladilar. Boshqalar unutiladilar. Chunki tarixni ular, ya‘ni o‘ylaganlarini yozadiganlar bitishadi.

Esingdami, bir kun suhbatlashib o‘tirgan edingizlar, u: “Ikki yil xastalanib qoldim. Qolaversa, siyosatdan uzoq turdim. Bunday qaragam xalq meni unutayapti. Xalq juda tez unutar ekan, bu qo‘rqinchli narsa” degandi. Uning bitta-yu bitta maqsadi bor. Unutilmaslik!

Darvoqe, haqoratni ham unutilmaslik uchun unutdimi?

H A Q O R A T [7]

Mirtemir o‘sha mudhish voqeani esladi.

Matbuot qo‘mitasi raisi, shoir Erkin Vohidov bilan Karimovning ustidan kelgan shikoyatlar xususida suhbatlashib o‘tirishgandi. Har holda odamlar demokratiya, so‘z erkinligi shamolini sezib qolishgandi. Vodiyluk san‘atkor Nosir Zobir xatida: “Karimov uxlayotganga o‘xshaydi. Dunyo oshkoralik haqida gapirib turgan paytda u bo‘g‘moqda. Biz mustaqillik bayonoti bilan bog‘liq bo‘lgan gaplarni eshitdik. Lekin nega bu gaplarni xalq bilmaydi?” deya yozgan.

Bunday xatlar ustiga qizil belgilar qo'yilgandi. Ularni Vohidov Mirtemirga o'rganish, tekshirish yoki javob yozish uchun berardi. Shu kuni stoli ustida bunday xatlardan

o'ttizga yaqini turgandi.

Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi, deydilar. Birdan eshik shiddat bilan ochildi. Karimov, Oliy kengash raisi va Bosh vazir kirib kelishdi. Eshik yonida Iqtisodiy islohot qo'mitasi, Sanoat, transport va yo'l qurilish qo'mitasi raislari va boshqalar turishardi.

Karimov salom-alikdan keyin stolning chetiga yengilgina "ilashib" o'tirdi. Mirtemir o'tiradigan qo'ltiqqa esa Bosh vazir "yoyildi". Kengash raisi Vohidovga yaqinroq joyda qo'lini orqasiga qilib turardi. Hammalarining kayfiyati yaxshi edi. Bir ikki qochiriq gaplar aylandi o'rtada. Mirtemir esa ular nimaga kirishganini uylar edi.

Bir kun avval oynaijahonda "Deputat minbari" rukni bilan beriladigan ko'rsatuvda sud sistemasini ag'dar-to'ntar qilgandi. Balki shu sabab bo'ldimi? Balki Karimov Oliy Kengashdagi ish sharoitlari bilan tanishish uchun kelgandir? Xullas, savollar xayolidan "g'irillab" o'tib turganda, Karimov stol ustidagi xatlarni qo'liga oldi.

Allohnig qudratini qarang: bu xatlarni olib borib, "o'qing", deb iltimos qilganda ham u yo qo'liga olardi yo yo'q. Kutilmaganda o'zi kirib kelib, o'zi haqida yozilgan shikoyatlar, norozilik xatlarini o'qimoqda. Mirtemir avvaliga yengil tortdi. Keyin negadir ko'ngli g'ashlandi. Xuddi, Karimovning ustidan hujjat to'playotganga o'xshab qoldimmi, deb o'yladi. Chunki uning qo'lidagi barcha maktublarda odamlar matbuot qo'mitasi yoritadi, deya yozishayotgandi, shekilli?! Qolaversa, boshqa joylarda yuz berayotgan oshkoralik ularni ham qitiqlayotgani sezilib turardi.

Karimovning avzoyi buzildi. Buni sezgan "sherik"lari jim bo'lib qolishdi.

-Sizlar shikoyat tekshirish bilan bosh og'ritmanglar! Pastda xatlar bo'limi bor, o'sha yerdan kerakli joyga qaytarib jo'nataversin,-dedi u va o'qishda davom etdi.

Ikki -uch xatni o'qigandan keyin shartta o'rnidan turdida:

-He, bu nonko'r xalqning onasini (s...y)! -deya so'kinib, qo'lidagi xatlarni o'rtasidan yirtib axlat qutisiga otib, chiqib ketdi. Qolganlar ham uning orqasidan tashqariga "uchdilar".

Mirtemir og'ir ahvolda qoldi. Karimov xalq barobarida uni ham haqorat qildi. Vohidov tortmasidan asabni sokinlashtiradigan doridan olib ichdi. So'ng Mirtemirdan sigaret so'radi-da, chiqib ketdi.

Shu payt qo'mita kotibasi Toyiba kirib keldi.

-Nima gap? -dedi u. Mirtemir indamadi.

-Nega rangingiz oqarib ketgan? -so‘radi Toyiba.

-Karimov butun xalqni, hammamizni haqoratlab ketdi, -dedi. Keyin bor gapni aytib berdi.

-Dahshatku! -dedi Toyiba, -qanday chidab o‘tiribsizlar?! Biror chorasini ko‘rish kerak!

-Nima qilamiz? Orqasidan yugurib borib, so‘kish kerakmi?

-Imkoniyatingiz ko‘p, xalqqa ma‘lum qilish kerak, -dedi u.

Xalqqa qanday ma‘lum qilishni o‘ylashdi. Nihoyat, matbuot konferentsiyasi o‘tkazish kerak, degan fikrga kelishdi. Bir kun oldin shahar jurnalistlar uyushmasidan qo‘ng‘iroq qilib “Qo‘mita rahbarlari bilan qalam ahlining uchrashuvini tashkil qilsak” deyishgandi. Qo‘l keldi, darrov uyushmaga sim qoqib, ertaga peshin chog‘i vaqtlari borligini ma‘lum qilishdi. Keyin o‘zlari bosh muharrirlarga, muxolifat liderlariga, faollariga, diniy idoraga ham telefon qilib, vakillari qatnashishini so‘rashdi.

Ertasiga Vohidov:

-Salomatligim yomon, do‘xtirga ko‘rinishim kerak edi. Sizlar o‘tkazaveringlar, -dedi.

-Siz bormasangiz bo‘lmaydi, -deb turib olishdi. Xullas, “Mayli, yetib kelaman” dedi u. Uchrashuvni Jurnalistlar uyushmasi raisi ochdi. Mirtemir qo‘mita faoliyati haqida gapirdi. So‘ng: -Yaqinda rahbarimiz ishxonamizga kelib, tasodifan shikoyat xatlarini ko‘rib qoldi. Aksariyat xatlar uning faoliyati haqida edi. Shunda xatlarni o‘qib, yirtib, axlat qutisiga otdi-da “Bu nonko‘r xalqning onasini...!”, -deb haqoratladi..., -deya voqeani hikoya qila boshladi.

U bu gapni eshitgan ziyolilar oyoqqa qalqib ketadi, balki matbuot uyidan prezident devoniga qarab yurish boshlashar, deb o‘ylagandi. Umuman bu gapni oshkor qilishga ko‘p istihola qilgandi. Katta to‘s-to‘polon boshlanadi, muxbirlar gazetaga yozishadi, odamlar oyoqqa turadi, degan xayolga borgandi. Chunki mushtga yoki kaltakka chidash mumkin, lekin “onangni...” degan haqoratga chidash mumkin emas. Shu sabab, butun vujudini mas‘uliyat, yuz beradigan voqealar uchun

mas‘uliyat yuki bosgandi. Hali gapiradigan gapi oxiriga yetmasdan, muxolifat partiya kotibi Abdulhay Abdumavlonov o‘tirgan joyidan baqirdi:

-Ismini ayting, qani oshkoralik, nega xaspo‘shlab gapirasiz! Mirtemirning xayolidan “boshlandi” degan gap o‘tdi.

-Ismini aytnasam ham kimligini sezib turibsizlar. Kim bo‘lardi, prezidentda, -dedi u.

O‘tirganlarga qarasa, umumiy loqaydlik ruhi hukmron. Birov ajablanmadi ham, birovning jahli chiqmadi ham. Millatning gullari -oydinlar, shoirlar, kurashchilar... Ularni birdan qo‘rquv bosdimi? Yoki avvaldan qo‘rqoqmidilar? Balki qulliklarini tan olgan qullarmi bular? Xullas, na dindorlar va na maydonlarda xalqning oldida boradigan faollar bir so‘z demadilar.

Bu orada Vohidov yetib keldi. Unga “Yurtda diktatura boshlandimi?” degan savol tushdi.

U diktatura nima ekanligini tushuntirib berdi. So‘ng Toyiba so‘zga chiqdi. U ancha dadil gapirdi. Haqiqatni ochib tashladi.

-Menga qiyin, -dedi Vohidov.-Ilgari Mirtemir gapirganda so‘zlarini andavalab turishga to‘g‘ri kelardi, endi Toyiba xonimni ham tekislashim kerak.

O‘rinsiz “askiya” va o‘rinsiz kulgi bo‘ldi. Uchrashuv kechga yaqin yakunlandi. Uy- uyga tarqalishdi.

Mirtemir ertalab ishga kelsa, doim soat 10-11dan keyin keladigan Vohidov hali soat to‘qqiz bo‘lmasidan xonada sigaret tutatib o‘tirardi. Salom-alik sovuq bo‘ldi.

-Kechqurun aka uyga telefon qildilar,-dedi u har doimgidek Karimovni “aka” bilan almashtirib. - Men unaqa gap aytganim yo‘q, bunday deguncha o‘zimni otmaymanmi, dedilar. Xullas, osmon uzilib yerga tushgan...

-O‘zingiz eshitdingiz-ku?! -dedi Mirtemir hayratda qolib.

-Kengash raisi bir narsalar gapirib turuvdilar menga. O‘shanda eshitmay qolgan bo‘lsam kerak. O‘zi, rostdan ham shunday dedilarmi? -Vohidov bolalarga xos samimiyat bilan tikilib qoldi.

Mirtemir o‘yga toldi. Uning xayolga botganini Vohidov boshqacha tushundi, shekilli:

-Hozir nima bo‘lsa ham olovni o‘chirish kerak, -dedi. -Borib akaga uzr, deb

qo‘yish kerak. Bo‘lmasa, hamma narsa teskari aylanib ketadi...

Allaqachon, hamma narsa teskari aylanib ketgandi. Markaziy qo‘mita Karimovning sha‘nini himoya qilish uchun Mirtemirni sudga berish kerak, degan qarorga kelgandi. Shu kuni kechga yaqin Markazqo‘m ikkinchi kotibi uni chaqirayotganini aytishdi. Borsa, tashkiliy bo‘lim mudiri O‘tkir Obidov kutib oldi.

-Oldin ikkalamiz suhbatlashsak, nima bo‘lganda ham hamkasbmiz. Keyin u kishiga kirasiz, -dedi u.

Mudir mashinkada yozilgan olti-etti sahifali xatni o‘qib, unga savol bera boshladi.

-Bu savolni Qismatga berasiz, -dedi Mirtemir.

Qismat qalamkashlar orasida “Kattaning Sottixononi” nomini olgan edi.

-Nega?

-Chunki qo‘lingizdagini u yozgan.

-Qayerdan bildingiz u yozganini?

-Oxirgi sahifasini teskari ushlab qolibsiz.

-I, i, -u darrov sahifalarni to'g'rilab oldi.

-Ammo, rahmat, nima bo'lganda ham hamkasbsiz-da, sotqin kimligini sezdirib qo'ydingiz, -dedi Mirtemir.

-Bu sotqinlik emas, bu yurtni, Vatanni sevisish belgisi.

-Yurt, Vatan faqat bitta odamdan iborat bo'lsa, aslo sevmadik!

Keyin mudir Mirtemir saylangan tuman rahbari imzosi bilan kelgan shoshilinchnomani ko'rsatdi.

-Xalq ham sizdan norozi, -dedi u shoshilinchnomani o'qib.

-Bechora xalq telegramma yuborsa, bir oyda ham yetib kelmaydi. Buni qush bilan yuborishgan shekilli, bir kunda qo'lingizga tegibdi. Topshirig'ingizni vaqtida bajarishibdi, -kinoya qildi Mirtemir.

Mudirning ikki oyog'i bitta etikka tiqildi.

-Bilasizmi, men sizni anchadan beri kuzataman. Ilgari doim tanqidiy maqolalar

yozardingiz. Millatvakili bo'lib ham doim kamchilik qidirasiz. Umuman, shunday dunyoqarashdagi kishi uchun bora-bora hamma narsa nuqsonli ko'rinadi. Bu ham bir xastalik. Shunga iqrar bo'lsangiz, davolanishga yordam beramiz, ham sud tashvishidan qutulasiz, -dedi u.

Mirtemir kuldi:

-Balki, shundaydir, -dedi.-Sizlarning ko'zlaringizga hamma narsa yaxshi bo'lib ko'rinadi. Hammayoq to'kin-sochin, muammo yo'q. Bu holda davolashni bu idoradagilardan, jumladan kattangizdan, so'ng partiya rahbarlaringiz va o'zingizdan boshlamoq kerak. Sudga kelsak, osmon qo'lingizda bo'lsa, tashlab yuboring!

U mudirning eshigini yopib ketdi-yu, lekin ko'ngli tinchimadi. O'zini yolg'iz his qildi. Asablari chatnay boshlaganga o'xshab tuyuldi. Uygacha piyoda keldi.

“Voqea” tafsiloti darhol Karimovga yetib borgan shekilli, Oshkoralik qo'mitasi faoliyatini taftish qilish boshlandi. To'g'rirog'i, Mirtemir va Toyibaning “daftar, qamlari”ni tekshirishga kirishildi.

Ko'p o'tmay Oshkoralik qo'mitasining favqulodda majlisi belgilandi. Majlisdan bir kun oldin millatvakillari Karimovning huzurida “maslahat”, “topshiriq” oldilar. Majlis kuni Oliy Kengash

qo'mitalaridagi millatvakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ham ishtirok etish uchun to'planishdi. Oliy Kengash raisining o'rinbosari Bugrov ularga "javob" berib, majlis yopiq o'tishini aytdi. Ba'zi millatvakillari qatnashamiz, deb zaldan o'rin olishdi. Lekin ularni ham chiqarib yuborishdi.

Majlis "sovuq" boshlanib "sovuq" tugadi. Mirtemirni ishdan haydash ovozga qo'yilganda bitta ovoz kamlik qildi. Toyibaga kelganda esa ovozlar tenglashdi. Shunda Vohidov:

-Men ovoz bermadim. Toyiba partiyamiz idorasi sha'niga tuhmat gaplar aytdilar. Shu bois qarshi ovoz qo'llanaman, -dedi.

Toyiba yig'lab chiqib ketdi.

Millatvakillari tarqala boshlashgandi ularni Karimov chaqirayotganini aytishdi. "Nega Mirtemirni ham haydamadingiz" deb ularni qiynadi Karimov.

Arbob arbobda, yo'lini topadi. Ko'p o'tmay qo'mitani "qisqartirib" turishga qaror berishdi. Ya'ni Mirtemirdan qutulish lozim edi. U ketgach, yana tiklaymiz, deb Vohidovni ishontirishgandi. Shu sabab qo'mita qisqarishiga Vohidov munosabat bildirmadi.

Mana, endi Vohidov huzur qilib uxlayapti.

Mirtemir esa tor xonaqohda betonning devor sassiq hidini hidlab o'tiribdi. Darvoqe, devorning ham hidi bo'lar ekan. U hozir sezdi buni...

DEVONA XONA [8]

Mirtemir xayolning ming bir ko'chasiga kirib chiqdi. Karimov bilan so'ng uchrashuv qayta-qayta ko'z oldiga kelaverdi. U uyida edi. Kotib qo'ng'iroq qildi. Odatda yordamchisi qo'ng'iroq qilardi. Nega bu safar kotib "safarbar" bo'ldi? Karimov atrofga yoyilmasligini istasa ishni kotibiga topshirardi. Kotib "tosh" kabi odam. Borib urilgan joyidan qon oqardi. O'ziga dog' ham yuqmasdi.

-Sizni so'rayaptilar! -dedi u Mirtemirga salom-alikdan keyin.

-Men borganda qabul qilmadilar. Endi nega so'raydilar?

-Oka, xuddi begonaga o'xshab gapirasiz-a? Bilasiz-ku, bu savollarga biz javob bera olmaymiz.

-Bilaman, lekin "yo'q" degan qarorimni yumshatib aytmoqchi edim. Ya'ni sizga og'ir botmasin deb...

-Ha, boplaysiz-a?! Bilasiz-ku "yo'q" degan so'zni kirib ayta olmayman. Hatto "topolmadim" degan so'z ham boshimizning ketishiga sabab bo'ladi.

-Sizning boshingiz ketsa, keyin o‘zlari ham boshsiz qoladilar.

-Faqat o‘zimni-o‘zimga maqtaysizu o‘t bilan ro‘baru qilib qo‘yasiz. Agar do‘stligimiz hurmati bor bo‘lsa, yo‘q demaysiz.

Mirtemir kotibni biladi. Gapni yana biroz cho‘zsa, o‘zi yugurib kelishdan ham qaytmaydi. Shundayligi uchun ishlayapti. Aks holda allaqachon “yumalok yostiq” bo‘lib ketardi.

-Oka, eshik yonida “07” turibdi. Iltimos kutayaptilar...

“07 – bu ” 10-07 degani edi. Saroy mashinalarining nomerlari “10 raqamidan boshlangani uchun ikkinchi bo‘lagi aytilardi va buni hamma tushunardi.

Mirtemir mashinaga chiqarkan, ovoz uzatgichdan kotibning tovushi eshitildi:

-Chiqdilarmi?

-Borayapmiz! -deb javob qildi haydovchi. Bu “tezroq kel” degan ishorat ekanligini

bilgan haydovchi yo‘l qoidalariga qaramay mashinani “elday” uchirib ketdi.

Mirtemir nega Karimov chaqirganligini tahlil qila boshladi. Ertalabdan bu “ishga” kirishgani uchun kechagi kungi voqealarga nazar Alishi kerak edi. Ha, topdi. Kecha Matbuot vazirligiga borishgandi. “ERK” gazetasiga bosh muharrir bo‘lganidan keyin, eski muharrir Ibrohim Haqqul bilan vazir huzuriga borishdi. Qoida shunaqa. Tanishmoq qoidasi.

Vazir bilan eskidan tanishliklari bor. Shunday bo‘lsa-da begona kabi qabul qildi. Ikki oydir u gazeta chiqishini to‘xtatib turgandi. “Tanishuv”ni tazyiq deb qabul qildi, shekilli xayrlashuv oldidan “Gazetani men to‘xtatib turganim yo‘q, maslahat qilib, keyin sizlarga natijasini aytaman” degandi.

Mana, oradan hech narsa o‘tmay “Natija” uchun borayapti. Chunki u vazirlarni yaxshi taniydi. Bundan avvalgi Matbuot vaziridan ham shunday “natija” olgandi. Unda o‘n bir nafar millatvakili o‘z mablag‘lari hisobiga “Yuzma-yuz” nomli gazeta chiqarishga qaror qilishdi. Bu qarorni Oliy Kengash qo‘mitalari tasdiqlashdi. Shundan keyin uni rasmiy pochta orqali Matbuot vazirligiga yuborishdi. Ro‘yxatdan o‘tkazish cho‘zilib ketdi. Shunda Mirtemir yangi gazetaning Bosh muharriri sifatida vazir huzuriga bordi. U xayrlashar ekan “Maslahatlashib, natijasini sizga aytaman” degandi. “Natija” ertasigayoq suv yuziga chiqqandi.

O‘shanda Mirtemir ertalab ishga kelsa, “osmon qulab tushgan-u” shoir Vohidov tutib olgandilar.

-Nima qilib qo‘ydingiz? -dedi u Mirtemirga salom-alik o‘rniga.

-Nima qilibman?

-Uka, kimdan -kimdan, Sizdan kutmagandim, Vazirni ham urasizmi?

-Vazirni... Qaysi vazirni uribman?

-Nima, bir nechasini urganmidingiz-ki, qaysi birini deb so'raysiz?

-Hazilni qo'ying, Erkin aka...

-Hazili bormi, dunyo teskari bo'lib ketdi. Oqsoqol ot ustida, qamchini mahkam tutganlar. Soat 10.00da rayosat majlisi bor.

-Biror anglashilmovchilik bo'lganga o'xshaydi.

-Kecha rostdan ham "Matbuot vaziri bilan ko'rishaman" deb chiqib ketgandingiz. Shu bois men ham oqsoqolga hech narsa deya olmadim.

-To'g'ri, ko'rishdim, lekin...

Xullas, suhbatga aniqlik "aralashmasdan" ularni Oliy Kengash raisi Mirzaolim Ibrohimov chaqirtirdi.

-Ha, bolama-a, hech tinch yurmading-da! – dedi u Mirtemirni quchoqlab.

Lekin negadir u xursand edi. "Oqsoqol"dan topshiriq olgani uchunmi? Yoki Mirtemirdan qutilish soati kelgani uchunmi?

-Men majlisdan oldin o'zimiz gaplashib olaylik, deb, sizlarni chaqirdim. Nima bo'lganda ham bu ukamizni qutqarib qolishimiz kerak. Yosh, jahli chiqishi mumkin. Qolaversa, o'zi yomon bola emas, -dedi rais Vohidovga qarab.

-To'g'ri, to'g'ri..., -deya Vohidov boshini chayqab qo'ydi.

-Lekin men hech narsani tushunmayapman, -dedi Mirtemir masala jiddiyligidan andisha etib.

-Biz ham yosh bo'lganmiz. Bilasanmi, Dunyo komsomol-yoshlari qo'mitasiga rais bo'lganimda sen tengi edim, – rais o'ziga xos yengil kayfiyatda gapirardi.

-Adashmasam, Olmoniyada edi. Polshadan kelgan yoshlar rahbari bilan qizishib qoldik. Shunday urib yuboribmanki, sho'rlik, o'lib qolay dedi. Qo'rqib ketganimdan darrov quchoqlab oldim. Nima bo'lsa ham, Ovro'palikda, uzurimni qabul qildi. Bizda uzurni qabul qilish biroz og'irroq. Shunday bo'lsa-da, vazirdan iltimos qilamiz, ukamizning uzurini qabul qilsin. Ammo Erkinjon, oqsoqol bilan o'zingiz bir uchrashmasangiz bo'lmaydi. Yuraklari keng, balki kechirarlar.

-Hozir olov bo'lib turibdilar...

-Bilasiz-ku, yonadilaru o'chadilar, endi masala ham jiddiy-da. Millatvakili vazirni ursa... To'g'ri yosh. Demokratiya, deb saylab qo'ydik. Ba'zan mas'uliyat ham kishini yo'ldan chiqaradi...

So‘ng rais Vohidovga latifa aytib berdi. Mirtemirga esa bir piyola choy uzatib, “Ma, ol, bizning qo‘ldan choy ichish ham tabarruk, hali eslab yurasan” dedi. Bu orada rais o‘rinbosari va qo‘mita raislari kirib kela boshladilar.

-Qaror tayyormi? -deb so‘radi rais o‘rinbosaridan..

-Tayyor! Faqat Mirtemir “tanishdim” deb imzo qo‘yishlari kerak!

-Bu qarorga imzo shart emas. Mazmunini biz tanishtirdik hisob. Qolaversa, oqsoqol kutib o‘tiribdilar. Qani boshlaylik bo‘lmasa. Ha, vazir kelgan bo‘lsa, chaqiring, kirsin! -dedi rais va o‘rnidan turib, kostyumining tugmasini o‘tkazib,

yengil yo‘talib oldi-da majlisni ochdi.

-Hurmatli Rayosat a‘zolari, kecha hayotimizdagi eng xunuk voqea yuz berdi. Millatvakili Mirtemir o‘z mas‘uliyati va vazifasini suiste‘mol qilib, Matbuot vazirining xonasiga bostirib kirib, uni do‘pposladi...

Mirtemir vazirga qaradi. U jilmayib o‘tirardi. “Nima gap?” degandek Mirtemirga savolomuz bosh qimirlatdi. Mirtemir “bilmasam” degandek, boshini yelkasining ichiga tortdi.

Rais uzoq gapirmadi. So‘zni vazirga berdi.

-Men nima gapligini tushuna olmadim, -dedi vazir.

-Nega tushuna olmaysiz. Kecha Mirtemir sizni urdimi?

-Yo‘q! Kecha huzurimga keldi, gazit haqida so‘radi, shu...

-Unda oqsoqol qayerdan bildilar? Nega haqiqatni yashirasiz? Bilasizmi, shu holingizda oqsoqolni va bizni noqulay vaziyatga tushurmoqdasiz. Nima bo‘ldi, o‘zi?

-Nima bo‘lganini aytdim, -dedi vazir.

-Oqsoqol “Mirtemir vazirni uribdi” dedilar-ku! Vazir birdan kulib yubordi:

-Men oqsoqolga “Mirtemir yoqamdan olayapti, gazetani nima qilaylik?” degandim. Balki shundan....

-Yoqangizdan oldimi, axir!

-Yo‘g‘-e, bu bir ibora, biz gazeta xususida javob berolmadik. Mirtemir ikki marta qo‘ng‘iroq qildilar, keyin o‘zlari bordilar...

Mirtemirning kulgisi qistadi. U hozir hamma kulib yuborsa kerak, deb o‘yladi. Chunki Karimovning “hovliqmaligi” ayon bo‘lib qolgandi-da.

-Shuni oqsoqolga aytish kerakmidi?-Iqtisod qo'mitasi raisi kulish o'rniga jahl bilan so'ray boshladi. -Biz imzo chekkandik, nega bizni qora otli qilasiz. Yarim kechasi oqsoqol uyga qo'ng'iroq qilib, na otamiz, na onamiz qolmay haqoratladilar...

Barcha qo'mita raislari ajablanib qaradilar. Chunki ular ham "poy"larini olgandilar. Ammo masalani bu qadar ochish shartmidi? (Darvoqe, ikki kundan keyin rayosat Iqtisod qo'mitasi raisini "kuzatib" qo'yish uchun yig'iladi. Shu damda u vazifasi

bilan vidolashuv hukmini chiqargandi o'ziga).

-Qayoqdan bilay? Gazetani oqsoqolning maslahatchisi Ziyomov to'xtatib turgandi. Men masalani unga aytdim. U oqsoqolga anglatibdi. Keyin o'zlari telefon qildilar. Bo'lgan gap shu!, -dedi vazir.

Rayosat raisi nima qilishini bilmay koldi. Piyoladagi choyni ho'pladi-da, o'rinbosariga "Nima qilamiz?" deya bosh chayqadi. O'rinbosari Bugrov o'zbek tilini tushunmas edi. U "Menga so'z berildi" deya o'rnidan turib, ruschalab gapira boshladi:

-Mirtemir Oliy Kengashga kelgan kunlardan oq kimligi ayon edi. Biz uni kuzatdik, o'rgandik, tartibga chaqirdik. Lekin bo'lmadi, qolgan gap qarorda yozilgan. Ijzatingiz bilan o'qib beraman...

-To'xta-e, sen ham xol qo'yding! – deb kulib yubordi rayosat raisi. Boshqalarning ham kulgisi qistab turgan ekan, unga qo'shilishdi. O'rinbosarning yuzi tundlashdi.

-Men ertalab qarorni Karimovga ko'rsatganman. U kishi tahrir qilib berganlar. Kuladigan joyi yo'q!

So'ng rais masalani ruschalab o'rinbosariga tushuntirgan bo'ldi. U rangini o'zgartirmadi. Balki qulay fursat qo'ldan chiqib ketayotganidan afsuslandi. Bilganda- ku, vazir bilan "gaplashib" qo'yardi. Ha, endi borib Karimovga tushuntirishdan vazir bilan kelishib, qarorni "yugurtirish" osonroq edi-da unga.

-Xo'p, -dedi rais -aybdorni ham eshitib kuraylik. Mirtemir o'rnidan turdi.

-Devonaxonada ham bunaqa hodisa yuz bermasa kerak! -dedi u.

-Bas, -dedi rais. -Shunaqa sovuq gaping boshingga yetadi. Senga o'xshaganlar bilan devona bo'lish u yoqda tursin jinni ham bo'ladi kishi.

"Yoppiray, devona bilan jinnining farqi nima ekan?", -deb o'yladi Mirtemir.

-O'tir, bolam, -Rais "gup" etib cho'kdi -Tilim bor deb gapiraverma. Boya majlisdan oldin seni nega chaqirgandim. Bunday tushuntirib bermaysanmi, o'shanda. Ha, mayli. Biribir qaror qilishimiz kerak. Qaror bunday: Vaqtini topib, masalani oqsoqolga yetkazib qo'yish menga topshirilsin. Bu xususda Vohidov menga yordamchi bo'lsin. Tamom.

U kaftini kaftiga ishqab, "qars" etib qo'llarini bir-biriga urdi-da "Kelganlaringiz

uchun rahmat” ishorasini qildi.

Ha, bu televizion miniatyuralar teatri emas, butun boshli bir mamlakatning Oliy kengashidagi ahvol edi. Million-million odamlarning, xalqning taqdiri ana shularning qo‘lida edi. Shuncha voqeadan keyin ham ular korridorga chiqib xaxolab kulishmoqda.

Mirtemirning tirsagidan kimdir ushladi. Qarasa vazir:

-Do‘stim, hayotingizni saqlab qoldim. Mendan qarzdorsiz. Hozir, yolg‘ondan bo‘lsa-da bir tarsaki tortib yuborgandi, desam, ketdingiz edi...

-Rahmat, taqsir, -dedi Mirtemir. – Oralarida bitta vijdonlisi siz ekansiz. Ba‘zan devonaxonaga soppa-sog‘lar ham tushadi.

-Siz ham sog‘siz...

-Ikki kishi bir-biriga “sog‘siz” deya xulosalashi devonaxonadagina yuz beradi.

-Sekin, sekin, uka, hozir qaytadan chaqirib qolishlari mumkin...

P O ‘ P I S A [9]

Mirtemir mashinadan tushib oltinchi qavatga ko‘tarilarkan “Bu safargi natija qanday bo‘larkin?” deb o‘yladi. Uni kotib ichkariga boshladi. Eshikni ochdi-da o‘zi tashqarida qoldi. Karimovnimanidir yozib o‘tirardi. Mirtemirning kirganini sezmay qoldi.

Mirtemir uning yoniga yetib borgach:

-Assalomu-alaykum! -dedi. U cho‘chib tushdi.

-Osmondan tushdingizmi, yerdan chiqdingizmi? -deya o‘rnidan turdi. Qo‘lini uzatib ko‘risharkan, chap qo‘li bilan Mirtemirning qorniga niqtab “He, geroy, nima qilib yuribsiz?” dedi.

-Yuribmiz, -dedi Mirtemir.

-Tabriklaymiz, bosh redaktor bo‘libsiz. Ish kerak bo‘lsa, topardik. O‘shalar bilan ishlashingiz shartmidi? Ular tugab bitdi. Sizga o‘xshaganlarning nomi bilan tirilmoqchi!

-Men ilgari dan birgaman-ku...

-To‘g‘ri, ilgari dan bosh redaktor emas edingiz. Kotib ham bo‘libsiz. Lekin gazetasiga siz boshchilik qilishingiz kerakmidi? Bilaman, qalamingiz o‘tkir, ammo boshqa gazetalarga yozing!

-Shunday ham gazetani chiqarishga ruxsat bermayapsiz-ku!

-Ruxsat bermoqchi edik. Endi butunlay yopamiz. Qaror bilan.

-Agar men gazetadan ketsam-chi?

-Qayerga ketasiz!

-Siz biror ish bersangiz. Ya'ni, biror gazetaga muharrir etib tayinlasangiz...

-Gazetalarga tayinlash mening qo'limda emas-da. Biri Oliy Kengashniki, boshqasi partiyalarniki, yana biri komsomolga oid...

-Unda nega bizning gazetaga aralashayapsiz?

-Nega aralashmayin. Men qovunchi emas, prezidentman. Siz sessiyada aytgan kabi hammasi onamning mahriga tushgan!

-Bunday deganim yo'q!

-Iye, allaqachon unutdingizmi, lentani qo'yib beraymi? -u shunday deb o'rnidan turdi-da stolning narigi tomonidagi videomagnitofon tugmasini bosdi. Keyin "qo'l tugmani" olib joyiga o'tirdi. – Bu sizlarning davlat to'ntarishga urinishlaringiz...

Lenta Mirtemirning nutqi yozilgan joyga qadar aylantirib qo'yilgan ekan:

"Bu voqea bugun Ro'zimurodovning boshiga tushgan bo'lsa, ertaga har birimiz shunday hol bilan yuzlashamiz. Ertaga navbat menga, keyin sizga keladi. Unda, afsuski, kech bo'ladi. Prezident va Oliy Kengashdagilarning ishlariga qarasangiz, bolakayning harakati ularnikidan mantiqliroq tuyuladi. Shu qadar maydalashib ketishdiki, Oliy kengashdan ishdan hayday olishmagach, ish xonamdagi stol- stul, telefonlarni olib qo'yishdi. Qiziq, bu narsalar ularning mulkimi? Yoki biz o'z shaxsimiz uchun ishlayapmizmi?

Bugun Oliy Kengash raisidan tortib vazirga qadar hamma-hamma prezidentning quli. Qonun -u. U kishi istasa vazirlik ochiladi, istasa yo'qotiladi. Istasa odamlar qamaladi, istasa ozod etiladi. Istasa birov maosh oladi, istasa birovning maoshi kesiladi. Muhtaram prezident, O'zbekistonni sizning onangiz tuqqan emas, u sizning xususiy mulkingiz emas! Va, biling-ki, Siz uning doimiy ustuni bo'lib

qololmaysiz!"

Karimov lentani shu joyida to'xtatdi:

-Unutgan bo'lsangiz, esingizga keldimi?

-Men “onangizning mahriga tushganmi?” deganim yo‘q, balki...

-Balki, malkini qo‘ying. Sizning adabiyotdan xabaringiz yo‘q bo‘lsa, bizning xabarchilarimiz bor.
-U shunday deb radio so‘zlashuv tugmasini bosdi:

-Ulug‘bek!

“Labbay, xujayin!”, deya ovoz keldi naryoqdan. “Onangiz tuqqanmi, degani adabiyotda nima deyilardi?”

“Onangizning mahriga tushganmi, iborasining og‘zaki aytilishi bu”. “Bu ibora nima degani?”

“Onangni falon degani!” “Odamlar nima deyapti?”

“Bu jo‘jaxo‘roz Oqsoqolni onangni deya haqorat qildi-yu, nega u jim? Agar natija bo‘lmasa, o‘zimiz javob beramiz, deyishmoqda.”

“Xatlar, telegrammalar kimda?”

“Menda xo‘jayin. Soni mingdan oshib ketgan. Nima qilaylik?” “To‘plab qo‘yaber!”

Karimov radio so‘zlashuvni o‘chirdi-da, Mirtemirga yuzlandi:

-Mening onamni (...)adiganni onasi tuqqan emas!-deya baqirdi.

-Oradan yarim yil o‘tib...

-Oradan o‘n yil o‘tsa ham unutmayman. Bilib qo‘y, men sen o‘ylagan odam emas, hamma narsa xayolimda turadi. Esingdami, o‘zingni yig‘ib ol, bo‘lmasa qamoqda chiritaman degandim. Hali bu gap esimda turibdi. Seni qamoqda yo‘qotaman, bildingmi?

-Qamashingiz mumkin, lekin...

-Lekin, yo‘qotaman ham!

-Yo‘qotish sizning ishingiz emas, Janobi Haqning qo‘lida!

-Bugun Janobi Haq menman!

-Shak keltirmang, Alloh kechirmaydi bu gunohni!

-Ko‘ramiz, Alloh kimni kechirmaydi. Istaysanmi, ertaga mufti televizorga chiqib, seni dinsiz deb e‘lon qilsin! Ustozingni dinsiz deb e‘lon qildirganim senga dars bo‘lmadimi?

-Mufti ham sizning mulkingiz...

-Ha, u ham onamning mahriga tushgan. Istasam, ertaga meni “Xudoning yerdagi soyasi” deb e‘lon qiladi. Din – bu mening aytganim. Istasam machit ochib beraman, istasam mufti-puftisi bilan portlatib yuboraman.

-Bu bilan nima demoqchisiz? Ertaga mening ham uyimga bomba tushadimi?

-Seni oldin uyingdan quvib chiqaraman. Keyin deputatlikdan haydataman. So‘ng qamayman!

-Peshonaga yozilgani bo‘ladi.

-Peshonangga shularni men yozdim. Sen esa o‘qi!

-Xullas!

-Xullas, oramiz ochiq! Ketaverishing mumkin!

-Rahmat! Baribir biling-ki, jonim Jabborning qo‘lida, sizning emas!

-Ko‘ramiz! Ko‘ramiz! -Karimov baqira-baqira qoldi. Mirtemir eshikni jahl bilan yopgandi, yopilmadi, chunki eshik sekin yopiladigan qilib qo‘yilgandi.

Ha, shuni ham e‘tibordan qochirishmagan...

P O M U Q Q A L ‘ A [1 0]

Mirtemir hali boshini silagan onaizorining ruhi bilan gaplashgisi, xayolan bo‘lsa- da dardlarini unga yoygisi keldi. Lekin ruhni topolmadi. Nahotki, tark etdilar? Yo‘q, demak holati yaxshi. Ruhlar og‘ir damda madadga keladi... O‘tirgan joyida ko‘zlari yumilib, mudray boshladi u...

... Sharshara. Go‘zal qizning sochlariga o‘xshaydi. Tog‘ oppoq. Adirlar oppoq. Bu yerni Pomuqqal‘a, ya‘ni Paxtaqal‘a deyishadi. Tog‘ ostidan issiq suv oqib chiqadi. Qishda ham, yozda ham bu yer sayyohlar bilan to‘la. Lekin shu damda undan boshqa odam yo‘q.

“Oyoq kiyimingni chiqar!” “Nega?”

“Bu yerda oyoqyalang yurish kerak, bo‘lmasa musaffolikka g‘ubor tushadi.” “Sen kimsan?”

“Men Pomuqqal‘a!” “Nega tanhosan?”

“Men tanho emasman. Quhog‘imda ming-ming odamlar bor”. “Qani ular?”

“Pomuqqal‘aga kelsang ko‘rasan. Antaliyaga kelding. Lekin ilgari borgan edim, deya Pomuqqal‘aga o‘tmading.”

“Hozir keldim-ku!”

“Yo‘q, hozir men keldim. Seni ziyorat etib ketmoqchiman”. “Nega meni ziyorat etasan?”

“Atrofing korong‘ulik, zulmat bilan to‘ldi.. Yorug‘lik bor ekanini ham eslatmoqchiman”.

“Sen nega bu qadar go‘zalsan?”

“Chunki sen go‘zallikni sog‘inganing uchun!”

“Nega bu qadar mehribonsan?” “Chunki mehrga tashnasan”. “Nega bu qadar yaqinsan?” “Chunki sen juda uzoqdasan”.

“Buncha yaqinlashma, oydinlikdan bo‘g‘ilayapman”. “Oydinlikdan bo‘g‘ilish hammaga ham nasib etmaydi”. “Ko‘zlarim oydinlikdan yonmoqda”.

“Ko‘zlaringni och, shunda yonmaydi”.

Mirtemirning birdan oyog‘i toyib ketdi. Pomuqqal‘a tepaligidan pastga emas yuqoriga uchib ketdi. Cho‘chib tushdi. Ko‘zlari ilinib, tush ko‘rayotgan ekan.

Temir eshikning panjarasidan yonib turgan chiroqning nuri ko‘zlariga tushib turibdi. Bir lahza tushini eslamoqchi bo‘ldi-yu, bir uchini eslasa, ikkinchi “uchi” yodidan chiqib ketaverdi.

Nima bo‘lganda ham yorug‘lik, oqlik... yaxshi bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. O‘zining bu bolalarcha xulosasi yana vujudini rohatladi. Ko‘zlari sekin yumila boshladi...

V A H I M A [1 1]

Karimov odatiga ko‘ra kech uyg‘ondi. Boshi qovoqdek tuyuldi o‘ziga. Qovoqning ichiga son-sanoqsiz ari kirib olgan-u “ving‘ir”lashda musobaqa o‘ynayotgandek edi. Yotgan joyidan qo‘l uzatib, tortma ustiga qo‘yilgan dorini olaman degandi bardoq ag‘darilib, apelsin suvi to‘kilib ketdi. U jon-jahdi bilan tugmani bosdi. Doktor yugurib kirdi.

-Kim qo‘ydi buni bu yerga? Necha marta aytdim sizlarga, kerak bo‘lsa o‘zim aytaman, deb.

-Kechqurun biroz ...

-Biroz-mirozni qo‘y, kechqurun nima qilganimni yaxshi bilaman. Menga bosh og‘rig‘i dorisini ber.

-Och qoringa mumkin emas. Hozir sut olib kelaman, hech bo‘lmasa sut bilan...

Doktor orqasiga qadam tashlab eshikdan chiqdi. Karimov boshini ushlagancha xayolga toldi. Kecha kechqurun nega bu qadar ko‘p ichdi? Har oqshom ichardi- yu ammo bu qadar ko‘p emasdi. Shomga yaqin MXX raisi G‘ulom Aliyev keldi. Shukrullo Mirsaidov millatvakillarini atrofiga yig‘ib uni yiqitish uchun hozirlik ko‘ribdi.

-Nega oldinroq aytmadingizlar? -so‘radi u MXX raisidan.

-Yubileylar bilan ovora edingiz.

-Yubileylarni go‘rga olib ketamanmi, yoki senlar ham unga sherikmi?

Uning bir gapi tugamasdan ikkinchisiga o'tib ketishi har qanday suhbatdoshni shoshirib qo'yardi. MXX raisi "yubiley" bilan go'r orasidagi bog'lanishni topib ulgurmasdan o'zining taqdiri "stol ustiga" tushdi.

-Agar... agar... Sizga...

-Tiling tutilmasin. Sen hech kim eding. Hali ham hech kim emassan! Nari borsa palov pishirishga yaraysan, xolos. Seni men odam qildim. To'n kiyib, belbog' bog'lab yurarding. Men senga kostyum-shim kiyishni o'rgatdim...

-Sizga xiyonat qilsam ko'zim ko'r, tilim soqov bo'ladi, Xudo uradi meni. Men siz uchun yashayapman. Moskvadan kelganlar meni ham turmada chiritishmoqchi edi. Lekin siz qutqarib qoldingiz.

Bu gaplar ko'p takrorlangan bo'lsada Karimovga yoqdi. U iqromni sevardi. Birovga qilgan yaxshiligi uchun har kuni javob olib turishni istardi. Shu bois biroz yumshadi.

-Xo'p! Men ham sizga ishonmasam bitta imzo yetarli, eshikni yopishga ham ulgurmay chiqib ketasiz. Qani o'tiring! Nima gap o'zi?!

-Shukur Rahmatovich...

-O'shaning otini ayt mang, menga!

-Xo'p... Oliy Kengashdagi deputatlar bir uyga to'planib, "Sessiyaga maktub" hozirlashgandi.

-Bilaman. Ha, kim boshlagandi bu ishni?

-Yozgan odamni aniqladik. Mutaxassislarning rasmiy xulosasi ham bor.

-Mutaxassislaringni bilmaymanu uni Mirtemir yozgan, jo'jaxo'roz!

-Qoyil sizga! Biz haftalab o'ylaganni Siz bir lahzada topasiz.

-Aksi bo'lganda bu yerda men emas, sen o'tirarding...

-Bu Ollohning ishi, Olloh Sizga ravo ko'rgan bu ishni.

-Hali MXX ham Ollohga ishonadi deng.

-Ishonishga ishonmaymizu...

-Lekin siyosat qilamiz, shundaymi?

-...

-Bo‘pti, masalaga qaytaylik. Deputatlar yig‘ilgan uydagi suhbat matnini tashlab yuboribman.

-Menda bor...

-O‘sha yerda Shukrullo haqida gap bor edimi?

-U yerda yo‘q. Deputatlar uch marta to‘planishdi, lekin Shukrullo haqida gap yo‘q.

-Demak hammasi keyin boshlangan. Oxirgi kunlarda Shukrulloning huzuriga deputatlardan kimlar kirdi?

-Biz shubha qilganlardan uch kishi...

-Suhbatni yozib oldingizlarmi?

-...

MXX raisi papkasini kovlab bir necha sahifali matnni Karimovga berdi. Karimov biroz o‘qidi-da zerikkan kishidek qog‘ozlarni MXX raisining oldiga otdi.

-Muhim joylarini o‘qi.

MXX raisi qizil qalam bilan ostiga chizilgan satrlarni o‘qiy boshladi:

“-Shukrullo aka, biz bir guruh deputatlar Karimovga qarshi chiqmoqchimiz.

-Nima uchun? Karimov yaxshi odam. Qolaversa bugun unga o‘xshagan odam kerak.

-Yaxshilikka yaxshi-yu, lekin... Chet davlatlar bilan munosabatlarni buzayapti. Masalan, siz borib Rossiya bilan shartnoma imzolab keldingiz, u esa buzdi”.

-Voy, iflosey, kim bu, qaysi biri?

-Toshpo‘lat Jo‘rayev degani bor. O‘tgan sessiyada ruslarga qarshi chiqqandi. Boplab yeriga o‘tirtirgandingiz.

-Hm... Kecha ruslar yomon edi. Bugun esa...

Karimov stol yonidagi telefon qutisining ustidagi tugmalardan biriga bosdi:

-Eshitaman, o‘rtoq...

-Toshpo‘lat Jo‘rayev degan jo‘jaxo‘rozni top! Oliy Kengashdan.

-Xo‘p, o‘rtoq...

Karimov yana MXX raisiga yuzlandi. U o'qishda davom etdi: “-Bizga sizning roziligingiz kerak. -Bunaqa gaplarni qo'yinglar. Tanqid qilish, qarshi chiqish – demokratiyaning bir bo'lagidir. Men ham Islom akaning ba'zi kamchiliklarini bilaman. O'ziga aytdim. Tuzatmadi. Endi sessiyada o'rta tashlayman. Asta-sekin demokratiyaga ham o'rganishimiz kerak. Darvoqe, sizlar Oliy Kengash sharoiti haqida ham unutmanglar.

-Unutishga unutmaymiz. Lekin...”

-Ko'rdingmi, u juda ustakor odam. Toshni uzoqqa otayapti.

-Hatto gapirayotganda radioni balandlatib qo'ygan. Ammo biz ovozni har turli tovushlardan tozalaydigan asboblarni olganimizni bilmaydi.

-Shukr qil. Jo'mrakdan suv oqizib qo'ysa nima qilarding?

-Xonasida jo'mrak o'rnatishga ijozat yo'q. Ichkari xonada bor, ammo. Juda yaqinlari bilan o'sha yerda gaplashadi.

-Bir-ikki kundan keyin u yerga kirmaydigan qilib qo'yamiz. Yana kimlar bilan gaplashdi?

-O'qiyinmi?

-Yo'q. Gapirib ber, muhim joylarini.

-Deputatlardan biri “Xizmat mashinamiz yo'q, agar bizga yengil mashina ajratsangiz sotib olardik. Boshqa davlatlarda ham shu tajriba qo'llanilmoqda” degandi darrov rozi bo'ldi. Oltita mashina ajratishga qaror berdi. Shundan foydalanish kerakmi?

-Kimlar olmoqchi?

-Orasida Toshpo'lat Jo'rayev ham bor...

-Mirtemir-chi?

-Yo'q. Ammo u ilgari viloyatda mashina olgan. Shuni kovlashtirish mumkin.

-Yana kim bor?

-Oygul Mamatova ham bor!

-Hm... Bular topishib olishibdi...

Karimov yana tugmaga bosib, Oygulni ham topishni buyurdi. Keyin Jo'rabekovga telefon qildi:

-Mirtemir degan bola bilan o'zingiz gaplashing, hamyurtingiz. Kerak bo'lsa sotib oling, kerak bo'lsa qo'rqiting. Menga ro'baru qilmangki, uni urib, qo'lini sindiraman, tilini kesib olaman!

Shundan so‘ng Karimov MXX raisidan so‘radi:

-Masala jiddiymi?

-Jiddiy. Deputatlarning bu tayyorgarligi Shukrulloqa qo‘l keldi. Yoki bu voqeadan foydalanib qolishni o‘ylaydi. Shogirdi Nusratovni bilasiz. Uni ishga soldi. Poytaxt va viloyat deputatlari bilan bir-bir gaplashib chiqishdi. Ba‘zi hokimlar ham Shukrulloning yoniga qatnay boshlashdi. Mana ro‘yxati va suhbat matnlari.

Karimov deputatlarning suhbatlari matniga unchalik e‘tibor qilmagandi. Ammo hokimlarnikini erinmay o‘qib chiqdi. Keyin tutoqib ketdi.

-Bu onangni..... lar, bu nonko‘rlar, bu xoinlar, bu sotqinlar....Hammasini yo‘qotaman, qamataman, chiritaman yertulalarda!...

-Ammo ular hozir birlashganlar. Ustalik bilan ish qilishimiz kerak. Biz ham

o‘z odamlarimizni to‘plab qarshi tadbirlar olmog‘imiz zarur. Siz juda samimiy, ishonuvchan odamsiz. Sizning yaxshiligingizdan bular foydalanib qolishmoqda. Hatto sizga eng yaqin odamlar ham o‘sha tomonga qatnab yurishibdi...

Karimov ikki qo‘lini cho‘ntakka tiqqancha xonada u tarafdan bu tarafga yura boshladi.

-Bugungi programma qanday? -dedi tugmani bosib. Yordamchi darrov javob qildi.

-Soat 20.00 da chet eldan kelgan vatandoshlarga ziyofat beriladi. O‘sha yerga borishingiz kerak.

-Bekor qil! Boshqasi borsin!

-Xo‘p, o‘rtoq..., -Yordamchi gapning dovomini “yutib” yuborishga odatlangandi.

-Alimov, Umurzoqov, Jo‘rabekovni chaqir, tez kelishsin!

-Ho‘p, o‘rtoq....

Alimov tashqarida eshik yonida poylab o‘tirgan ekanmi, darrov ichkariga kirdi.

-Xabaringiz bormi? – so‘radi Karimov.

-Bor. Uch kundan buyon ertalabki hisobotnomalarni o‘qishga vaqtingiz bo‘lmayapti.

-Nima qilish kerak? Qaysi biriga ulguray. “Navoiy yubileyi bilan chet ellik vatandoshlar qurultoyini birga o‘tkazaylik” degan sizlar emasmi? “Bir qancha davlat rahbarlarini chaqiraylik, bu obro‘yimizni oshiradi”, degan sizlar emasmi? Mana endi... Agar hokimiyatga u kelsa mendan avval sizlarni yo‘qotadi. Oilangiz, qarindosh – urug‘ingiz bilan birga.

-To'g'ri.

-To'g'ri bo'lsa, nega qarshi tadbir olmadingizlar?

-Oldik. Lekin ko'p masalada Sizning oldingizdan o'tish kerak edi.

-Sizga qachon ishonmadim? Biz bir komandamiz, bir oilamiz. Birimiz yo'qolsak, hammamiz yo'qolamiz.

-Ammo u Bosh vazir. Imkoniyatlari....

-Imkoniyatlarini qo'lidan oling, demaganmidim? Yaqinda umuman imkoniyatsiz qoladi. Quritaman uni, yo'qotaman, bidingizmi, yo'qotaman! -Karimov shunday deb stolni mushtlagan edi taxta – oyna parchalanib ketdi. U faqat mushtiga bir qarab qo'yganidan "qonamadimi" degan shubha ko'nglidan o'tganini sezish mumkin edi.

Eshik ochilib Jo'rabekov, Umurzoqov ham kirib kelishdi. Karimov ularning fikrini so'rab ham o'tirmasdan topshiriq bera boshladi.

-Siz Ismoil aka, har bir deputat bilan yakkama – yakka gaplashasiz. Ha, Mirtemirni topdingizmi?

-Uyiga mashina yubordim.

-Bular soat besh bo'lmasdan ishdan qochishadi. Ana u "Ho'kiz" nima qilayapti? Nega deputatlarni nazoratsiz qoldiradi?...

Karimov yangilik kashf qilgan kishidek telefon trubkasini ko'tardi : -"Ho'kizni" bog'la!

Telefon bog'lovchi ham Oliy Kengash raisi Shavkat Yo'ldoshevning laqabini bilar ekan, darrov bog'ladi :

-Qo'ling qonligini bilasanmi yoki unutdingmi? Sendan so'rayapman, unutdingmi, yo'qmi? Gap qaytarma dedim senga...

Karimov Oliy Kengash raisini bo'ralab so'ka boshladi. Uning boshqalarni qo'rqitish uchun birovni kurakda turmaydigan so'zlar bilan so'kadigan odati bor edi.

Atrofidagi "komandasi" Yo'ldoshevni sevishmaydi, "Ho'kiz" deb laqab qo'ygan ham ular. Hozir u Oliy Kengash raisini qancha ko'p so'ksa, bular shuncha xursand bo'ladilar va shunday g'azabga uchramaslikdan hayiqadilar.

-Seni botqoqdan tortib chiqardim. Odam qildim. Boshimga balo bo'lding! Nega deputatlarning joyida o'tirmaydi? Nega menga qarshi fitna tayyorlashadi-yu sen bilmaysan? Nega davlat ishxonasida o'tirib davlatga qarshi ishlashadi? Hammasini quv! Xonalardan stol – stullarni olib chiq! Telefonlarini uz. Xizmat mashinasini olib qo'y. Kerak bo'lsa qaror chiqarib qo'mitalarni yop! Hammasiga ikki soat vaqt. Ikki soatdan keyin raport berasan!

Karimov telefon dastasini joyiga qo‘ymoqchi edi, tushmadi, otib yuborgandi sim tortilib qaytib – kelib qo‘liga urildi. U tugmani bosdi-da Umumiy Ishlar boshqarmasi rahbari Zelemxon Haydarovga :

-Bu yerdan telefonlarni yo‘qot, deya necha marta aytishim kerak. Stol ustiga

mikrofon o‘rnat, demaganmidim?!

-O‘rnatamiz, lekin...

-Gap qaytarma, hoziroq ishdan quvaman... xoinlar!

U yana xonada yura boshladi. Hamma jim, oraga sukunat cho‘mdi. Birozdan keyin Karimov yana topshiriq berishda davom etdi:

-Sen Mavlon Umurzoqov, muxolifat bilan gaplashasan! Sessiyada bizni qo‘llasin! Dindorlar bilan ham gaplash. Shoirlarni matbuot kotibiga topshiramiz.

-Siz o‘rtoq Alimov, Prokuror, Ichki ishlar vaziri, Sud bilan gaplashing. Oyog‘ini egri olgan hokimlarga qarshi har biriga alohida “delo” hozirlang.-Siz o‘rtoq Aliyev, xavfsizlik xizmatini oyoqqa turg‘azing. Har bir deputatning, har bir xokimning harakatlarini soatma – soat qayd eting, raport berib turing, menga. Javob hammangizga!

Karimov tortmasidan bitta yangi yon daftarcha olib, yirik – yirik harflar bilan nimadir yoza boshladi. Yozgani yoqmadi shekilli, sahifani yirtib, majaqlab oyoq ostiga otdi va yana qaytadan yoza boshladi. Bu hol uch-to‘rt bor takrorlandi. Keyin kimgadir telefon qilmoqchi bo‘ldi. Ammo telefon polda ikki bo‘linib yotardi. Stol ostiga o‘rnatilgan tugmani bosdi.

K R A Y N O V [1 2]

Yordamchi yugurib kirdi. Karimov unga parvo ham qilmasdan yana yoza boshladi. Yordamchi xuddi simyog‘ochdek tik turardi. Oradan hiyla vaqt o‘tgach, Karimov boshini ko‘tardi.

-"Nima gap?" degandek yordamchiga bosh irg‘adi.

Yordamchi unga qadar ham to‘rtta “Katta”ni ko‘rgan, bu xonada yuz beradigan voqealarni oldindan biladigan kishi edi.

U o‘n besh yil yordamchiligini qilgan Sharof Rashidov olamdan o‘tgach, “Poraxo‘r edi, tillo-yu oltinlar yiqqan” degan gaplar tarqaldi. Hamma “Katta”lardan keyin boshlanganidek, bu safar ham jinoiy ish ochildi. Yordamchi o‘z “Katta”siga balchiq otdi. Yangisi kelgach, u bilan opoq-chapoq bo‘lib ishladi. Nishonov, Usmonxo‘jayevni ham “ko‘rdi”.

Ular ketishdi, ammo Kraynov birinchi “no‘mirli” meros sifatida devonda qolaverdi. Mana endi bunisi bilan ham orasi yaxshi. Ba‘zi bashoratchilar Karimov har olti oyda kadrlarni almashtiradi, buning ham supurgisini quyrug‘iga bog‘laydi, deb yurishdi. Lekin yillarga yillar bog‘landiyu uning supurgisi qo‘lida. Aksincha u Karimovga yordamlashib, boshqalarning supurgisini quyrug‘iga bog‘lab yuribdi.

Undan qo‘rqmagan odam oz. “Kraynov” degan otini eshitganlarning labiga uchuq chiqadi yo tizzasi qaltiraydi. Uning yonida hatto Jo‘rabekov, Alimovlar ham qo‘rqib turishadi. Uning oldi-qochdi gaplarini eshitib o‘tiradilar, qarshi gap aytolmaydilar.

Vazirlar, hokimlar ham Kraynov bilan o‘pishib ko‘rishadilar, uning ko‘nglini topishga urinadilar, xursand qilib turishga intiladilar. Har kuni ikki-uch karra sim qoqib, uning hol-ahvolidan, oilaviy tashvishlaridan so‘z ochib, diliga iliqlik kiritib turadilar.

Darvoqe, Kraynov nega bu qadar “katta kuch”ga aylangan? Buni har kim har xil talqin kiladi. Ammo shu narsa aniqki, Kraynov ishga hammadan oldin keladi va hammadan keyin ketadi. Ba‘zan mamlakat uxlayotgan yarim tunda ham u ishxonasida o‘tiradi. Karimovning yotog‘idan “uxladilar”deb xabar kelgach, u uyiga yo‘l oladi.

Prezidentning huzuriga kim kirishi, kim kirmasligini ham u hal qiladi. Maxsus kitobi bor. Unda Karimov kimlarni, qaysi lavozimdagi kishilarni qabul qilishi kerakligi asosida ro‘yxat tuzgan. Uni Karimovning kayfiyati yaxshi paytlari o‘zgartirib, tasdiqlatib turadi. Bu ro‘yxatga kirmagan kishi kim bo‘lishidan qat‘iy nazar Karimov bilan uchrasha olmaydi. Kraynovga yoqqan kishi esa hovli supuruvchi bo‘lsa ham ro‘yxatga kirishi mumkin.

U Karimovning fe‘l-atvorini mukammal o‘rganib olgan. Gapini ikki qilib yurganlarni Karimovning jahli chiqib turganda ro‘baru qiladi. O‘sha odamning boshiga qora bulut yog‘iladi. Agar hovli supuruvchi Kraynovga oid yo‘laklarni ham tozalab, e‘tiborini qozongan bo‘lsa, Karimovning kayfi chog‘ligi paytida uchrashtirib, uni vazir o‘rinbosarligiga o‘tkazib yuborishi ham hech gap emas.

Karimovning o‘nga yaqin yordamchisi bor. Lekin asosiysi Kraynov. U ayni paytda eshik og‘asi ham. Karimov kirib-chiqadigan eshikning qarshisida uning xonasi bor. Shkaflar orasidan kiriladi bu xonaga. Mamlakatning ko‘zga ko‘ringan hamma odamlari bu xonaqohda mehmon bo‘lishgan.

Kraynov birovga sim qoqsa, orqasidan qanday shamol kelishini bilib olish qiyin emas. “Oka”, sho‘rva ichayapsizmi, osh yeyapsizmi?” desa demak yomon xabar yo‘q, agar “Yotaverasizmi, do‘ppayib” desa Karimovning kayfiyatiga o‘t ketgan bo‘ladi.

“Paxan” ba‘zan “falonchini so‘kib qo‘y” deb unga buyuradi. U xuddi Karimovning o‘ziga o‘xshatib chunonam baqiradiki, tovushi qabulxonada eshitilib turadi.

Karimov biror odamga xush boqsa, Kraynov unga shunaqa shirin so‘zlar topib muomala qiladiki, haligi odam uchun dunyoda yolgiz Kraynovgina sodiq do‘st bo‘lib ko‘rinadi.

U “Katta” bugun kimni qidirishi kerakligini oldindan bilgandek odamlarning harakat nuqtalarini belgilab boradi. Barcha rahbarlar qaysi soat, qaysi daqiqada qayerda bo‘lishlari haqida uni xabardor qilib turadilar. Rahbarlardan biri kerak bo‘lib qolsa, uni o‘ynashining uyidan ham topadi. Kraynov uchun dunyoda “yo‘q” degan so‘z yo‘q.

Agar Karimovni yomon ko‘rgan odam kelsa, unga qo‘shilib yomonlaydi. Keyin oqizmay-tomizmay xo‘jasiga yetkazadi. Bundan Mirtemirning ham og‘zi kuygan. Mirtemir bir kun Karimovni kutib o‘tirganda, Kraynov bilan dardlashib qoldi. Kraynov unga oldingi “Katta”larning yumshoqligi, xalqparvarligi, hozirgisining esa badjahl, so‘kag‘on, hatto nevarasi bor odamlarni ham kabinetida urib, quvlab yurishi haqida gapirib berdi.

Mirtemirning unga rahmi keldi shekilli: “Yaqin orada undan hammamiz qutilamiz” deb yubordi. Bir haftadan keyin Karimov bilan majlis zalida yuzma-yuz keldi. Karimov tirjaygancha Mirtemirning yelkasiga turtib “Qanday qilib qutilasiz, kuch bormi?” deb o‘tib ketdi. O‘shanda Mirtemir qaynoq sutni qatiq deb xo‘plaganini angladi.

Bunga qaramay Kraynovning qoyil qoladigan hislatlari ham bor. Masalan, odamlarga laqab qo‘yishda shu qadar ustaki, qabr ustiga tosh o‘rnatgan ustadek nozik harakat qiladi. Ya‘ni u otgan o‘q nishonga aynan tegadi. Jo‘rabekovga “Botsman”, maslahatchi Alimovga “Beriya”, boshqa maslahatchilarga “Artist”, “Devor”, “Tryapka” deb laqab qo‘ygan. Oliy Kengash raisi Yo‘ldoshev “Ho‘kiz”ga aylanishida ham uning hissasi bor.

-Menga ham laqab qo‘ygandirsan? -deb so‘raydi Karimov undan ba‘zan.

-Siz bittasiz “Katta”, -deydi u kulib. Bu ham o‘zi qo‘ygan laqabga ishora.

Xullas, hozir ham Karimovning yonida jilmayib turibdi. Uning jilmayib turishidan Karimov yumshagandek bo‘ldi.

-Nima gap? -deb so‘radi o‘zi chaqirgani esidan chiqib.

-Bugun “Toshkent oqshomi”da yaxshi maqola chiqibdi, -dedi u tavakkal qilib.

-Yana Mirtemirning maqolasimi?

-Mirtemir kim bo‘pti? Shoirmi, yozuvchimi, jurnalistmi, kimligini birov bilmaydi. Siz tufayli mashhur bo‘ldi. Yana siz bilan o‘chakishib yuribdi, ajali yetganga o‘xshaydi.

-Nima meni Azroil demoqchimisan?

-Yo‘g‘e, “Katta”, siz bizning farishtamizsiz... Ha-ya, hurmatli akademigimiz Ahmadali Asqarovning maqolasini aytayotgandim...

Karimov qiziqish his etgandek kresloga yastandi.

Z I Y O F A T [1 3]

-Nima deb yozibdi?

-Mamlakat vujud, Karimov esa uning yurak va aqlidir. Devonni aql, hukumatni yurakka o'xshatmoqchi... Keyin... Mufti hazratning "Podshoh Allohning yerdagi soyasi" degan gaplarini misol keltiribdi.

-Mufti shu gapni rostdan ham aytganmi?

-Mening o'zimga aytgan, Asqarali akaga ham aytgan.

-Sening foydali yolg'onlaring bor, lekin mufti bilan o'ynashma. Aytadigan bo'lsa, o'zi televizorga chiqib aytsin.

-Ayttiramiz! Aytmasa ham ayttiramiz, -dedi va Kraynov yengil tortgandek kulib yubordi.

-Nimaga kulding? Biror latifa esingga tushdi-mi? -so'radi Karimov latifa eshitgisi kelganini yashirmay. Yordamchi ham darrov "ishga tushdi".

-Bir kun ulamolar podshohga qarshi bosh ko'tarishibdi. Podshohni mayxo'rlikda, dinsizlikda ayblashibdi. Podshoh hech narsani bilmagandek ulamolarni ziyofatga chaqiribdi. Sharbat suviga sharob aralashtirib hammasiga ichiribdi. Ulamolarning kayfi chog' bo'lgach, ulardan fatvoga imzo so'rabdi. Hammasi barmoq bosibdi. Fatvoda "Biz ulamolar mayxo'rlik qilib, dindan yuz o'girdik. Gunohimizni yuvish uchun podshoh hazratlariga keldik. Hukmi podshoh biz uchun vojib" deb yozilgan ekan. Fatvo deyilgan bu narsa fitna ekanligidan xabardor bo'lgan ulamolar podshohga yolvoribdilar, lekin u avf etmabdi. Ilonning boshini ezmasang, zahardan o'lasan, deganlaridek ularni toshbo'ron qildiribdi...

-Xo'sh, nima demoqchisan?

-Ziyofatga oz vaqt qoldi. Borsangiz yaxshi bo'lardi. Shoirlar ham, yozuvchilar ham, muxolifat ham o'sha yerda.

-Muxolifatni kim chaqirtirdi?

-Men. Sizdan so'ramasdan gunoh qildim.

-Sening gunohing doim foyda keltiradi.

-Muxolifat boshlig'i xorijda edi. Hech gapdan xabari yo'q. Bugun deputatlar qilayotgan harakatlarini unga ham sezdirishdi. "Qo'llayman" deganmish ularga.

-Bu yog'i MXXnikimi?

-Yo‘q, o‘zimizning slujbamiz bor. Kecha kechqurungacha MXX ham Shukrullo tarafda edi. Agar bugun uni sizga yuzma-yuz qilmasam... Ha, mayli, keyin gaplashamiz buni. Hozir esa ziyofatga borib muxolifat raisini, shoirlaru yozuvchilarni qo‘lga olish kerak. Yuz deputatning ming baqirgani, ularning bir gapirgani...

-Aqlli tulkisan. Bilaman meni emas, o‘zingni ham o‘ylaysan.

-Ikkalamizni ham o‘rtoq...

-Mashinani chaqir. Aytmasdan boramiz. Sen esa jiddiyoq shug‘ullan, sharbat va mayning ta‘mi qochmasin. Ayniqsa ana ularga quyuqroq qorishtiringlar...

-Bu yog‘idan ko‘nglingz to‘q bo‘lsin....

Karimov kirib kelganda ziyofatga taklif qilinganlar uni oyoqda turib qarshiladilar. U qisqagina qilib “Xush kelibsiz” nutqini gapirdi-da qadah ko‘tardi. “Kuch” olish uchun ketma-ket ikki qadah konyakni ichdi-da, uchinchisini qo‘lida saqlab “kerakli odamlar” o‘tirgan tomonga yurdi.

Erkin Vohidov o‘rnidan turib, Karimovga tavoze bilan “Rahmat, ulug‘ ish qildingiz. Vatandoshlarimiz o‘z ona yurtlariga qadam bosdilar. Tarix bu kunni alohida yozgay” dedi.

Karimov yonidagilarga ishorat etib ulgurmasdan stul olib kelishdi. U Vohidov bilan akademik Asqarovning o‘rtasiga o‘tirdi va muxolifat raisi Iso Xolisga qo‘l uzatdi. Mezbonlar rejaga ko‘ra ularni yonma-yon o‘tqazishgandi.

-Xush keldingiz Isojon. Qalay Frantsiya go‘zal ekanmi?

-Har narsadan xabaringiz bor,-dedi do‘rillagan ovozda Iso Xolis. -Nima bo‘lganda ham MXXngiz yaxshi ishlaydi. -Keyin u bir qo‘li bilan og‘zini yumib xirillab kuldi.

Karimov esa atrofga alanglab, muxolifatning boshqa bir raisini qidirdi. Ko‘rinmadi.

-Raisdoshingiz yo‘qmi? -so‘radi Karimov Iso Xolisdan.

-Birimiz borgan joyga ikkinchimiz bormaymiz.

-Hay, hay, raisdoshlar yonma-yon yurishi kerak emasmi?

-Siz bilan yonma-yon yurishimiz mumkin, u bilan aslo, -deya masalaga nuqta qo‘ygan bo‘ldi Iso Xolis.

Lekin Karimov tashabbusni o‘z qo‘liga olmoqchi bo‘ldi va nuqtani o‘zi qo‘ydi.

-Biz baribir bundan keyin Shavkat Temurni ham birga da‘vat etamiz. Sizlarni yarashtira olmasak nima qilib yuribmiz, shunday emasmi, Erkin aka?

-Shunday, hazrat, shunday. Lekin narigisi biroz janjalchiroq. Uni janjalchilarga, Isojonni esa janjalsevmaslarga rais qilganmiz.

-Demak, Shukrullo aka janjalchi ekanlarda-a? -"Katta" askiya qilgan kishidek kuldi. -Chunki bu kishi ham u tomonda.

-Biz Siz tomondamiz, -dedi Shukrullo ham askiya ohangida.

Karimov biroz muxolifat haqida o'yladi. Narigisi janjalchi bo'lsa ham pishiq. MXX yaxshi ishladi. Oralarini buzmaganda katta kuch edilar. Bunisini ham qo'lga olish oson emas. Lekin aldash mumkin. Sodda. Darrov ishonadi qo'yadi. Davlat rahbari yolg'on gapirmaydi, deb o'ylaydi. Bundaylarning burniga ip Alib boshqarish mumkin. Faqat ipni uzdirmaslik kerak. Ip uzildimi, keyin bog'latmaydi.

Karimov qo'lga qadahni oldi-da o'rnidan turdi. G'alag'ovur zalga bir zumda sokinlik indi. Yordamchi mikrofonni yaqin keltirdi.

-Shu qadahni, aytaylik, xalqimizning sevimli o'g'li, aytaylik, Erkin aka uchun ko'tarishni so'rayman. Barcha vatandoshlar uning "O'zbekim" degan she'rini yoddan bilishadi. Kamina ham bir paytlar, aytaylik, bu she'rni o'qib, sizlarni eslab, ko'zga yosh olganman. Umuman Erkin akamiz, aytaylik, kabi insonlar yuz yilda bir tug'iladi. Ismi Erkin, aytaylik, fikri erkin. Bu erkinlik Sizga, aytaylik, bizga muborak bo'lsin!

Karimov o'rnidan turib qulliq qilib turgan Vohidovni quchoqlab, cho'pillatib ikki yuzidan o'pdi. Vohidov qizarib ketdi.

Karimovning xayolida esa hamon Iso Xolis edi. U ham shunday maqtovga intiq, deb o'yladi u. O'rnimdan turganimda o'zi haqida gap bo'ladi, deb o'ylagandi, yanglishdi. Hozir, uni ham boplayman...

Karimov xayolidagi fikri labiga yugurgani uchun yana o'rnidan turdi.

-Yonimda yana bir yosh, jasoratli, mard, qo'rqmas yigit bor. Kelajak uniki. Uning uchun ham qadah ko'tarishingizni iltimos qilaman.

Iso Xolis o'rnidan turmadi. Karimov ham uni o'pmadi. Ammo Iso Xolis Karimovni o'pgisi kelganday unga egildi. Karimov esa ko'rmaganga olib yana o'rnidan turdi va akademik Asqarovni maqtay boshladi:

Uch-to'rt qadahdan keyin hamma "o'zi"ga kelib qoldi. Xorijlik vatandoshlarning ko'pchiligi namozxon edi, ziyofatni tark etishdi. Odam hiyla ozayib qoldi. Bu orada Karimov o'rnidan turib boshqalarning ham ko'nglini olish uchun davrani bir aylanib keldi.

So'ngra:

-Uchchalangizdan bitta iltimosim bor, -dedi va Iso Xolisga engashib davom etti: -Ertaga kommunistlar meni ag'darmoqchi. Uka yordamingiz kerak. Bir-ikki sog'lom yigitlar ham ularga qo'shilgan. Gapning po'st kallasi bu toshkentliklarning o'yini. Qo'ynimda ilon olib yurgan ekanman, Shukr Rahmatovich joyimni olmoqchi. Men unga saylov qilaylik, nomzodingni qo'y, yutib chiqsang, marhamat, dedim, ammo ko'nmadi. Ertaga saylov haqida qonun qabul qilamiz. Keyin erkin saylov o'tkazamiz. Aslida bu joy sizning haqqingiz. Ko'p kurashdingiz. Xalq sizga ovoz bersa, men maslahatchi bo'lib qolaman, uka, iqtisodni ko'tarib beraman...

-Kommunistlar dedingizmi? -so'radi Iso Xolis.

-Ha, Moskva bilan ham aloqalari bor. Kuchni o'sha yoqdan olishayapti. Bizni sotishmoqchi.

-Ko'nglingiz to'q bo'lsin. Bir hamlada shashtlarini sindiraman. Osonlikcha bizni buka olishmaydi, -dedi Iso Xolis.

U xorijdan kuni kecha qaytgani va voqealardan uncha xabardor bo'lmagani uchun darrov "girdob"ga tushdi.

Aslida bugun deputat do'stlaridan biri -Samandar unga telefon qilib

-Ertaga Karimovga hujum qilayapmiz. Siz ham tayyorgarligingizni ko'ring,- deganda, "Men hamma vaqt tayyorman" deb javob qilgandi.

Demak, Samandar ham toshkentliklarning musiqasiga o'ynabdi-da, aslida Shukrullo shum odam, ko'p o'tirib-turganmiz u bilan, muloyim bo'lib ko'rinadi. Demak-ki, maqsadi hokimiyatni olish ekan. Yo'q, unga ishonib bo'lmaydi. U yer osti dunyosi bilan bog'liq. Hammamizni quritadi, deb o'yladi Iso Xolis.

Bu orada Karimov Vohidovni "ovlayotgan" edi. Vohidovga qiyin. Chunki uning o'zi bu ishning boshida turganlardan biri. Mirtemir bilan hamma narsani birgalikda kelishib olishgandi. Buning ustiga bugun Shukrulloning qo'lini ham qisib chiqdi. Ertaga majlisda ikkinchi bo'lib u, uchinchi bo'lib Asqarov, keyin Mirtemir so'zga chiqishi kerak. Nima qilish kerak? Nahotki hammasi barbod bo'lsa?

-Bitta taklifim bor, -dedi Vohidov Karimovga. -Kechasi bo'lsa ham Shukr Rahmatovichni chaqirib, gaplashib oling. Uni ko'ndirsangiz olam guliston. Biz esa siz bilan.

Karimov yana uni quchoqlab o'pdi-da:

-Iltimosingiz yodimda. Birinchi qiladigan ishim sizni Londonga elchi qilib jo'natish. Ammo sizni doimo yonimda ko'rishni istardim. Nima qilayki, yozadigan narsalarim bor deyapsiz. Yozishingiz kerak. Bu oltin konlaridan ham qimmat!

Akademikni qarmoqqa ildirish yanada oson kechdi. Unga institut ochib berishga va'da qildi va so'zini oldi.

Karimov ular bilan o'pishib xayrlashar ekan, hammaning ko'zi shu tomonda edi. Vohidov, Iso Xolis, Asqarov o'zlarini mag'rur tutib turardilar...

Karimov mashinadan Shukrullo Mirsaidovning uyiga sim qoqdi.

-Nega ziyofatga kelmadingiz? -dedi.

-Sizga aytishmadimi, biroz mazam qochib turgandi...

-Mazani ushlab turgan narsadan qochasiz-a?-dediyu lekin "Ha, tulkilik qilayapti", deb o'yladi Karimov.

Ayni fikr Mirsaidovning ham xayolidan kechdi. Lekin sir boy bermadi:

-Buning ustiga ertaga majlis, yotib qolmayin, dedim, -Mirsaidov gap nimadaligini bilish uchun ataylab "majlis" kalimasiga urg'u berdi.

-Majlis deganini oz ko'rdikmi, jo'ra? -"Katta" jo'shib ketgan kishidek gapira boshladi. U har qancha o'zimni idora qilayapman, deb o'ylasa-da ichkilikning ta'siri bor edi. -Ikkalamiz o'tirib otamlashmaganimizga ham oylar bo'ldi. Oramizga mushuk oraladi. Bularning dumini bog'lab qo'ydim. Sizni menga, meni sizga yomonlashdan boshqa ishlari yo'q...

Demak, har narsadan xabar topibdi, deb o'yladi Mirsaidov. U Karimovni yaxshi biladi. Oz emas, ko'p emas o'ttiz yildan beri taniydi. Qancha-qancha yaxshi yomon

kunlarni birga yashashdi. U xabar topgan bo'lsa, tamom, oldini oladi. Bunga yetarli mahorati bor. Lekin mendan nima istayapti?

-Ertaga ertaroq boraman, -dedi Mirsaidov nihoyat.

-Ertasi qoldimi? Soat yarim tundan o'tgani qachon edi? -dediyu Karimov, demak u ham uxlamabdi, oldida odamlari bor, vaqt o'tganini ham bilishmabdi, deb o'yladi.

-Shukrullo, og'ayni, gap bor, ko'rishishimiz kerak, -dedi lo'nda qilib.

-Nima gap ekan?

-Telefonda bo'lmaydi, oltinchi qavatdagi oshxonada kutaman, tezroq keling!

-deb Karimov telefon tugmasini bosdi. Mashinasi allaqachon devonga yetib kelgandi. U "sakrab" tushdi-da serrayib turgan mirshablarga ko'z qisib liftga mindi. Bu kayfiyati yaxshiligining alomati edi. Ammo negadir shoshayotgandi. Shu bois liftning "odimi"ga qanoat etmayotgandi. Qo'llari lift eshigidagi tirqishda edi. Guyo lift to'xtaganda u ham eshik ochilishiga ko'maklashsa vaqt yutadigandek... Nofila. Lift birdan to'xtab qoldi. Lip etib chiroq o'chdi. U nima qilishini bilmay qoldi. Zim-ziyo qorong'ulik bir zumda boshidan oyog'iga qadar singdi. Boshi guvillay boshladi, ko'zi bormi – yo'qligini o'zi ham sezmay qoldi, oyoqlari lattadek bo'shashib ketdi. Ko'kragida nimadir pildiray boshladi, keyin bu "duk-duk" beliga ko'chdi va u nimaga shoshayotganini angladi. Hojatxonaga yetib olish tuyg'usi uni boshqarayotgandi.

Xayriyat lift qo‘zg‘aldi. Oltinchi qavatda lift eshigi ochilganda u qarshisida yordamchisi, ikki mirshab va kotibni ko‘rdi. Ular o‘zlarini shoshib qolgan, gunohkor kishi qiyofasida ko‘rsatish uchun yuzlarini bujmaytirib, boshlarini egib olishdi.

-Hammang lattasan, bir tiyinga arzimaysan?-baqirdi u. -Yo‘qoling ko‘zimdan. -U sochlari to‘kilib, boshi yaltirab qolgan kotibni turtib ilgari yurdi.

Qabulxonada Oliy Kengash raisi turgandi.

-Sen nima qilib o‘tiribsan? Lift buzilganiga mazza qilayapsanmi? Rais boshini egdi.

-Bo‘pti, kel!

Karimov xonasiga kirdiyu ichkaridagi hojatxonaga o‘tdi.

Rais esa oyoqda turib qoldi. Yarim soatlardan keyin Karimov ho‘l qo‘lini iyaklariga surgancha ichkaridan chiqdi:

-Nega o‘tirmayapsan?

-Sizni kutayapman.

-Nima, sen uchun hali ham prezidentmiman?

-Nega unday deyapsiz?

-Bilmaganga olasan-a, meni xayolingda bo‘shatib qo‘ydingu meni sezmadi deb o‘ylaysanmi? Nonko‘r!

-Unday demang oqsoqol...

-Nima? Nima deding? He, seni odam qilganni...

Karimov birdan raisga hamla qilib, uni tepdi. Rais o‘zini eshik tomonga otdi.

-Aba, Aba, -deya baqirgancha eshikdan “uchib” chiqdi. Karimov esa orqasidan quvib borardi. Binoning narigi chetiga yetganda rais zinapoyadan pastga yugurdi. Karimov to‘xtab, so‘kinishda davom etdi. Oz masofaga yugurgan bo‘lsada yuragi bilan o‘pkasi go‘yo bo‘g‘ziga kelib tiqilgandi. Yo‘q yuragi boshining orqa qismiga “ko‘chgan” ekan. O‘sha yerda ura boshladi. U “uf-uf” deya o‘zini sokinlatgan bo‘ldi-yu orqaga qaytdi. Qabulxonada hech kim yo‘q. Hamma qochib qolgandi.

-Xoinlar, sotqinlar, men ketsam hammang ham ketasan, qo‘rqoqlar! -deya baqirdi. Keyin xonasiga kirmay o‘rtadagi kichik oshxonaga o‘tdi. Uning bu tomonga o‘tganini sezgan Zelemxon Haydarov oyoq uchida eshik yoniga qadar yurib keldi va ichkariga bosh suqdi.

-Konyakni ol! -dedi Karimov ruschalab.

Haydarov “lip” etib ichkari kirdi va muz do‘lobidan konyak va shokolad qutisini oldi. Ammo stol ustida ham konyak va shokolad turgandi. U buni Karimovga ayta olmasdi. “Ol” dedimi, olishi kerak.

-Quy, -dedi unga. -O‘zingga ham. Nega qo‘ling qaltirayapti, o‘tgan safar senga qo‘rqma, degandim. Yana qo‘rqayapsan. Bilaman, bu binodan quvilishdan qo‘rqasan va to‘g‘ri qilasan. Bo‘pti, sen uchun ichamiz!

Karimov ichib bo‘lgach, qo‘liga shokoladdan oldi-da hidlab, yana joyiga tashladi.

-Mirtemirni taniysanmi?-so‘radi birdan Karimov.

-Taniyman.

-Qanday bola!

-Ana uning yo‘liga yurayapti, shekilli...

-Shukrullo deyishga ham qo‘rqasan-a?

-...

-Jo‘rabekovdan so‘ra u Mirtemir bilan gaplashdimi? Nima bo‘lganda ham u ertaga so‘zga chiqmasin. So‘zga chiqadigan bo‘lsa, uyidan biror hodisa chiqaringlar, ovora bo‘lsin. Urrib-purib yurmanglar o‘zini...

-Xo‘p, bo‘ladi.

-Bor, menga raport berib tur. Hozir “ana u” keladi, bu yoqqa boshlagin....

Y O ‘ L B A R S [1 4]

Karimov ertalabdan beri cho‘ntagida turgan yozuvni oldi. Uni shaxsiy folbini bergandi. Undan yulduzlarga ko‘ra o‘zining va Mirsaidovning folini so‘ragandi. Mana endi uning ko‘zlari satrlar ustida “yugurib” borardiyu xayoli boshqa yoqda edi. Shu sabab diqqatini ko‘lidagi qog‘ozga qaratish uchun o‘zining folini ovoz chiqarib o‘qiy boshladi:

“Sharq muchali buyicha tug‘ilgan yili -Yo‘lbars.

G‘arb goroskopi bo‘yicha tug‘ilgan oyi -Ko‘za (Vodoley).

Fasli -Havo. Saturn, Venera sayyorolari ta‘siri ostida yashaydi. Baxtli kun -shanba.

Omadsiz kun -yakshanba.

Yo'lbars g'ayratli odam demakdir, qiziqqon, ishchan. U inqilobchi va daholar yaratiladigan matohdandir. Baxtga qarshi, hamma vaqt ham o'ziga ko'rsatilgan ishonchni oqlamaydi. Ishda, urushda va muhabbatda "Olg'a" deb chiqqanida, unga qo'shilishdan avval o'ylab ko'rmoq va uni iloji boricha orqada tutmoq kerak. Yo'lbars boshqalarni falokatga, o'ylamasdan ish qilishga boshlaydi. Uning ta'siriga qarshi kurashish og'ir. Hokimiyat qo'lga tegsa, chiqarib yubormaslikka tirishadi. Ayblarini tan olishni istamaydi. O'zini eshitishlariga majbur qiladi. Unga hech kim haqiqatni aytishga jur'at etolmaydi.

Yo'lbarsning qancha yashashi uning qay soatda tug'ilishiga bog'liq. Yarim tunda

tug'ilgan yo'lbars doim tuzoqlardan yiroqda bo'ladi. Quyosh chiqqanidan so'ng tug'ilgan yo'lbarsni esa doim xavf – xatar kutadi. Yo'lbars o'z uyini o'g'rilar, olov va ayyorlardan saqlaydi. Maymun bilan do'st, ilondan qochishi, buqaga qarshi biror- bir harakat qilmasligi, mushuk bilan kelishuvi uning qoidasi bo'lishi kerak.

Ojiz joylari: to'pig'i, boldirlari, sinishi yoki lat yeyishi mumkin. Unga issiq yoqmaydi, ovqat hazm qilish yo'llarida, xotirasida zaiflik, oshqozonida kuchli zarda va yuqumli kasalliklarga moyil bo'lishi mumkin.

Tomoshalarni yoqtirmaydi. Doim o'ziga yoqadigan ishni qiladi. Birovga o'xshashni istamaydi. Hamma uni sevishini, moddiy dunyo og'irliklaridan ozod yurishni, hokimiyatni olishni, yuqori lavozimda va yaxshi yashashni istaydi.

Har qanday yangiliklar uni juda qiziqtiradi. U mulohazakor. Bu oyda tug'ilganlarda o'ziga xos nozik tuyg'ular bor. Ular o'z hayajonlariga begonadirlar. Ishonuvchan, ba'zan juda ishonuvchan. Yo'lbars nafaqat tenglikka, balki yana ham yuqoriroqqa intiladi. Agar unga biror narsa qilishni ko'rsatsangiz, rashk, hasaddan yonadi. Aytganimni qil, qilganimni emas -bu uning shioridir.

Mansab ishtiyoqi va kek saqlash xastaligi yoshligida ko'zga tashlanmaydi. Jamoat ishlarini sevadi. Mustaqil bo'lishga intiladi. Kutilmaganda mansabga ko'tarilaveradi. Qanday buyruq berishni, ishni qanday tashkil qilishni tushuntirishni yaxshi biladi. U o'z maqsadiga erishish uchun yo'l topa oladi.

Bu oyda tug'ilganlar: Galiley, Edison, Berns, Linkoln, Ruzvelt, Yeltsin." Karimovqaynab toshgan sut qozonidek "ko'pirib" ketdi.

-Folbinni quv saroydan, avval infarkt bo'lguncha qiyna, keyin quv! -deya buyruq berdi yordamchisiga.

Birozdan so'ng Shukrulloning yulduz foliga ko'z tashladi. "Sharq muchali bo'yicha tug'ilgan yili -Quyvon.

G'arb goroskopi bo'yicha tug'ilgan oyi -Ko'za (Vodoley). Fasli -Havo, Saturn, Oy sayyoralari ta'siri ostida yashaydi. Baxtli kun -chorshanba

Omadsiz kun -yakshanba.

Omadli, sharafigini saqlaydigan, ulfat, vazmin, o'zini tutgan, hotamtoy odam. Yaxshi gapiradi va o'zligini biladi. Bitta kamchiligi bor, hamma narsaga yuzaki qaraydi. U

jamoani, jamoa uni yaxshi ko'radi. Shohona yig'inlarni yoqtiradi. Ba'zan ehtiyotlikda ham ustalik qiladi. Mehmon qabul qilishdan qochmaydi. O'zini yo'qotmaydi, darrov qizishib ketmaydi. O'zining omadsizligidan qayg'uradi.

Dunyodagi urush, to'olonlar, ocharchilik singari masalalar unga ham daxldor bo'lsagina, jiddiy qayg'uradi. Lekin bu qayg'u juda og'ir, azobli bo'ladi. O'z hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi hamma narsalardan nafratlanadi. Yaxshi yashashga intiladi. Oldindan o'ylamay hech bir ishga qo'l urmaydi. Bu ehtiyotkorligi uchun odamlar u bilan faxrlanadilar va unga ishonadilar.

Qo'yning yo'lbars bilan munosabatlari tarang bo'ladi. Quyon ancha kuchsiz bo'lsa-da, yo'lbarsdan qo'rqmaydi, yo'lini qilib, o'yindan chiqadi. Quyon raqib bo'lishni istamaydi. Lekin u qarshilik ko'rsatishdan chekinsa, ojizlanib, aqldan ozish, o'z-o'zini o'ldirish yoki uyini tark etishgacha yetib boradi.

Musbat jihatlari: Sog'lom aql, jamoatchilik ruhi, moslashuv qobiliyati, yaxshi suhbatdosh, uzoq va chuqur fikrlovchi.

Manfiy jihatlari: O'zidan boshqaning fikrini nazarga olmaslik, yuzakichilik”.

-Hammani sotib olish, hatto folbinni ham, -g'udurladi Karimov.

U yordamchisiga yana bir nimalar demoqchi edi, lekin Mirsaidov kirib qoldi. Karimov yulduzlar foli yozilgan kog'ozni qatlab cho'ntagiga tiqdi-da Mirsaidovni quchoqlab qarshiladi. Ilgari bir kunda ikki-uch marta ko'rishsalar shuncha quchoqlashardilar. Ammo keyingi paytda bir-birlaridan qochadigan bo'ldilar.

-Do'stim, kishining boshi toshga urilmaguncha haqiqatni ko'rmas ekan. Senga nohaqlik qilganimni bugun tushundim, -u Mirsaidovni ilgariidagi kabi sensirab, yaqinligini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Mirsaidov esa uni ham “aka”, ham “siz” deb o'zidan bir qarich uzoqda ekanligiga urg'u berdi.

-Siz menga haqsizlik qilganingiz yo'q...

-Qildim og'ayni, qildim. Mana bu binodagi uch-to'rt ig'vogorning gapiga quloq soldim. Ular oramizga Chin devori qurishdi.

Karimov Chin devori nimaligini bilmasdi. Bir kun Mirtemir bilan tortishib qolganda u “Siz bilan oramizda Chin devori bor” dedi. Shundan bildiki, bu ora yaqin emasligini ifodalaydi. Ammo nega Chin devori? Kimdan so'rasin? Shuni ham bilmas ekan, deb kulishmaydimi ustidan. Shu orada bir ish bilan Mirtemirning o'zi kelib qoldi. Chiqib ketishidan oldin Karimovga ikki sahifali qog'oz uzatdi.

-Bu nima? -so'radi Karimov.

-Bu muxtasar lug‘at. Ba‘zi kalimalarni aytishda ba‘zan xato bo‘layati. Siz to‘g‘ri gapirsangiz bizning ham yutug‘imiz.

-Ukajon, bu so‘zlarning bir necha ma‘nosi bor. Men joyiga qarab ishlataman. Minbarni “manbar” deyishimning yoki “pesh”ni “peshtaxta” deyishimning ma‘nolari bor. Yoshligimizda biz ham kattalardan xato qidirardik. Nima qilamiz, qaytar dunyo ukaxon. Xo‘sh, mana siz, Chin devori nimani anglatadi bilasizmi?

-Chin devori juda ham keng va uzun bo‘lgan, ustidan arava yurgan...

-Ha, ha, ko‘rdingizmi, men buni orada farq borligi, orada masofa borligi ma‘nosida ishlataman.

-Biz ham...

-Yo‘q, uka, xatoni tan olish ham mardlik. Bo‘pti, yaxshi boring, hali o‘rganasiz,- deya Mirtemirni chiqarib yuborgandi va “Chin devori” anglamini bilib olgandi.

Mana endi bu tushunchadan ustalik bilan foydalanmoqda.

-Ular quraverishsin. Lekin biz kerak bo‘lsa bu devorning ustidan yurishimiz kerak. Mehnatlari zoye ketgani – ularga eng og‘ir jazo, -u shunday deb konyakdan bardoqlarga quydi. -Qani ol, do‘stim, Chin devori uchun ichamiz.

Karimov bo‘shagan bardoqni “taq” etib stol ustiga qo‘ydi-da mushtini hidlagan bo‘ldi. Konyak nafas olish yo‘llarini kuydirdi, shekilli, uzoq “uh” tortib, keyin so‘zida davom etdi.

-Men balki ertaga iste‘fo berarman ! -”Katta” shunday deb Mirsaidovga tikilib qoldi. Uning qalbidagini ko‘zlaridan o‘qimoqchi bo‘ldi. Lekin Mirsaidov unga qaramadi. Rostdanmi? – deb o‘yladi u. Yo‘q meni tuzoqqa ilintirmoqchi. Bu mansabdan voz kechadigan odam emas. Shu paytgacha qadar faqat bitta orzu bilan yashadi. U ham “birinchi” bo‘lish. Yo‘q, osonlikcha jon bermaydi. Mansab uning uchun hayot.

Xuddi kechagidek esida. Hovlisining yonidagi so‘rida o‘tirgandi. Birdan u kelib qoldi. O‘shanda Qashqadaryoda ishlardi. Poytaxtga kelgan bo‘lsa, ko‘rib o‘tay, degandirda deb o‘yladi Mirsaidov.

-Do‘stim, shoshib turibman. Bilasan, “Birinchi”ning o‘rniga kurash boshlangan. Qo‘shning Mamarasulov yuki og‘ir odam. Hamma uning o‘tishini aytayapti. Nima qilsang, qil, bu ishni olaylik. Kerak bo‘lsa, uy-joyini sotaylik. Do‘stlardan yordam olaylik. Akang.... akam vafot etganlarida mana shu yerda o‘tirib “Bir umrga do‘stmiz” deb qasam ichgandik. Biz yosh bolalar emas. Olaylik shuni, ikkalamiz birga boshqaramiz.

-Bu bir mamlakat. Olovi bor, suvi bor...

-Viloyatga borayotganimda ham shunday deganding. Ammo ko'rding, darrov o'tim chiqdi. Tur, borib oqsoqolning og'zini hidla. Uni bu yo'ldan qaytaraylik. Keyin istaganini beramiz. Unga jannat yaratamiz. Maslahatlarini berib, rohat qilib yashaydi...

O'shanda Mirsaidov qo'shnisidikiga kirib, uning "og'zini hidladi". Ma'lum bo'lishicha Mamarasulov nomzodlikni rad etib qaytgan ekan.

-Shunday indamay o'tiraverasizmi? Bu mamlakat taqdiri axir, -dedi Mirsaidov oqsoqolga.

-Mamlakatning egasi ko'p. Ikkinchi sening og'ayning tomonida.

-Bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi – josus. Millatning boshiga tushganlar uning nafratidan sochildi, og'aynim esa...

-Bilaman, men ham og'ayningni aytdim. Undan boshqa nomzod yo'q, dedim... Mirsaidov xursand bo'lib chiqdi.

-Ha, uning rad etganini eshitib, bu yerga kelgandim, -dedi Karimov o'shanda.

-Boya boshqacha gapirayotgan eding-ku...

-Sirni ochmay, hamma narsani birinchi manbadan eshit, degandim-da.

Aslida uning kelishidan boshqa maqsad bor edi. Moskva nomzodini qabul qilmayotgandi. Ham moddiy, ham ma'naviy madadga ehtiyoji bor edi.

-Do'stim, Moskvaga uchishing kerak. Orqadan men ham yetib boraman. Nazaryan bilan ko'rish. Aytganini beramiz.

-Nazaryan o'yinchi. Ham narsangni oladi, ham seni sotadi.

-U yog'idan qo'rqma. Bu yerda odamlari bor. Men ular bilan ko'rishaman. U olsin, ish bitadi. Zero, eng so'nggi imzo uchun hamma narsani u tayyorlaydi. Men qarindoshlari bilan birga yetib boraman. Sen Sergey degan do'stingnikiga bor. Viloyatga o'tishimda ham yaxshi xizmat qilgandi. Men sovg'a qilgan mashinani qizi minib yurgan ekan. Balki qizi bilan ham ko'risharsan. O'zimizni deputatlarni ham ishlatamiz.

O'shanda Mirsaidov Moskvaga bordi va uni kutaverib charchadi. Undan darak yo'q edi. Viloyatga sim qoqsa ish joyida yo'q. Poytaxtda ham topisholmadi. Keyin

Mirsaidov o'g'lini viloyatga yubordi.

Moskovdan "O'tmading, ishingni davom ettir" deya telefon qilishgach, u dunyoga qo'l siltab" dala hovliga chiqib, uch kundirki o'zini ichkiga berib, tashqariga chiqmay yotgan ekan. Shukrulloning o'g'li uni izlab topganda:

-Hayotim tugadi, meni o'ldirdilar, endi yashamayman, -deb mast, soqoli o'sib ketgan holida uni quchoqlab yig'labdi. Umid sha'mi yonganini eshitgach esa, o'yinga tushib ketibdi. Qo'lidagi oltin soatini Shukrulloning o'g'liga sovg'a qilibdi.

Shu voqealarni eslarkan, Shukrullo Karimovning osonlikcha mansabdan voz kechmasligi xayolidan kechdi. Ammo Karimov ham bo'sh kelmasdi.

-Majlisda jo'jaxo'rozlarga yem bo'lishni istamayman. Lekin bu joyni topshirmasligimiz kerak. Agar men ketadigan bo'lsam bu joyga sen kelishing shart. Meni bu yerga keltirish uchun ozmuncha yugurdingmi? Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, dushmanlarimiz kelishsa, tamom, senga ham, menga ham hayot tamom.

-Menimcha bu qadar tahlika yo'q.

-Hammasi pishgan. Bir qism deputatlar senga umid qilishmoqda. Qolganlarini ham o'zimiz tomonga ag'darishimiz kerak. Shunday taklifim bor, kel, ochiqcha gaplashaylik, mana sendan uzr so'rayapman, hayotim qo'lingda, istasang qutqarasan, istasang...

Karimov bir zum boshini egdi-da keyin yosh to'la ko'zlarini Shukrulloga tikib:

-Meni sen uylantirib qo'yding, ko'chada qolganimda sen uyli-joyli qilding, hayotdan umidni uzganimda yana sen qutqarding... Bugun ham...

-Qo'ying, bu yig'lashga arzimaydi.

-O'tgan kunlarni esladim. Qanday oltin akang, akamiz bor edilar-a? Tirik bo'lganlarida bu ko'yga tusharmidik? Bu dunyoda menga otalik qilgan boshqa odam yo'q, faqat sen va akang, ya'ni akam... Ol, akang uchun ichaylik...

Shukrulloning ham ko'ngli buzildi. Akasi haqiqatdan ham bag'ri daryo bir inson edi. Har qanday odamni ham kechirardi. Ikkalasining orasi bir necha marta buzilganda akasi o'rtaga tushdi: "Ostonangga keldimi, bu uzr so'ragani. Uzrni qaytarmaydilar. Alloh kechiruvchi. Sen esa..." Lekin bu safar... Kechirsa ham, kechirmasa ham "ish bitgan". Majlisda uni ag'darishadi. Buni o'zi ham bilib turibdi. Balki, "ag'darish" ishlamasa-chi? MXX raisi biror bir suhbat yozib olinmadi, Karimovning hech narsadan xabari yo'q demaganmidi? Lekin bu hammasini bilibdi. Demak, bekor o'tirmagan, ishlagan. Majlis arining uyasiga aylanadi, hoynahoy. Ammo o'zini

demokrat deb yurgan bolalarga ham ishonish qiyin. Xo'sh, nima qilish kerak? Buning yuziga tupurib chiqib ketadigan payt emas. Buni sindirmoq payti...

-O'zingizni ushlang, vaqt allamahol, majlisga soatlar qoldi, -dedi Shukrullo nihoyat.

-Menga qara, Shukr, barcha vakolatlarni senga beraman. Men boshqa davlatlardagi kabi tashqi masalalar bilan shug'ullanaman, mamlakatni o'zing boshqarasan. Ikki oydan keyin saylov bor, men so'zimdagi turmasam ana o'shanda o'chingni olish imkoni tug'iladi. Ungacha o'z partiyangni

tuz. Ko‘ppartiyaviylikka o‘tamiz. Ana u baqiroqlarga ham yo‘l beraylik. Saylovda seni qo‘llayman. Sen esa meni.

Ular uzoq tortishmadilar. Tun va konyakning bosqisi g‘olib keldimi, majlisda boshga tushganini ko‘ramiz, dedilarmi, xullas, tez ayrildilar. Saroydan chiqqan mashinalar karvoni ikki tomonga “uchdi”. Poytaxt ko‘chalaridagi sukunatni karvonlarni boshqarayotgan mirshab mashinalaridan eshitalayotgan saslar buzdi. Shahar, mamlakat uyquda. Ertalab uyg‘onishganida bu kun tarixning ayri bir kuni bo‘lishini xayollariga keltirishmaydi. Ammo hozir mashinalar ichida borayotgan ikki sobiq do‘st so‘nggi gaplarni tahlil qilib, to‘g‘rirog‘i eslab borayaptilar. Chunki tahlil qiladigan hollari qolmagandi.

“Shukrullo, agar xiyonat etsang, majlisda o‘zimni otaman”. Bu so‘ng so‘z! Ko‘zdagi yosh bilan aytilgan bu gaplar samimiymi, yoki obrazga kirib aytilganmidi, shu onda ikkalasi ham bu savolga javob berolmasdi. Chunki samimiyat bilan o‘yin qorishib ketgandi.

Karimov dala hovliga kelib yana ikki qadah konyakdan keyin ostidan arra tortib, keyin arqon bilan yiqitilgan daraxtdek gursillab to‘shakka yiqildi. Massajchi juvon yelkasini uqalarkan xurrak ota boshladi. Navbatchi vrach bir bardoq meva sharbati olib kirib, Karimovning yurak urishini sanadi. Boshini chayqab “Men shu yerda o‘tiranman” dedi massajchi juvonga. Juvon “Bo‘pti” degandek bosh siltab chiqib ketdi.

Karimov majlisga yarim soat qolganda uyg‘onib, og‘riyotgan boshini kaftlari bilan siqarkan, navbatchi goh to‘kilib ketgan sharbatga, goh Karimovga boqib nima qilishini bilmay turardi...

R E K S [1 5]

Mirtemir jangalzor kabi patixib ketgan xayollarning ko‘chasida “adashgan” tuynukdan yorug‘likka ko‘zi tushdi. Kengish joy qidirayotgandek yorug‘lik tuynukdan ichkariga oqib kirib yoyilayotganga o‘xshardi.

Negadir Mirtemir yorug‘likni ko‘zi ko‘r, holdan toygan odamga o‘xshatdi. U to‘g‘ri kelib devorga urilar va so‘ngra beton devorni paypaslagancha “qo‘llari tilinib” atrofga yoyilardi. Uning boshi ham yorilgan bo‘lsa kerak... “Eh, alahsirayapmanmi? Yoki aqlim qocha boshladimi?” Bu savol takrorlanardi. Keyin yorug‘lik uning qalbiga ham oqib kirib, qorong‘u hislarni “pichoqlay” boshladi. Qalbining allaqayerida umid paydo bo‘ldi.

Nahotki darrov esankirab qoldim? Yo‘q, so‘ng daqiqagacha kurashmoq, kurashmoq lozim. Hozirgi holatda tushkunlikka tushmaslik ham kurashning bir turi, yengilmaslikdir. Ikki orada, bir darada qolsang ham chiqish yo‘li bor. Sen yirtqich deb yurgan ona bo‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin.

Ona Bo‘ri... Bir zamonlar u bobolaringni Tangri tog‘i orasidagi dara – g‘ordan olib chiqqandi. Ergunakon afsona emas, haqiqat. Bo‘ri yirtqich emas, do‘st. Sen vahshiy deb yurgan odamlar balki yordam qo‘lini uzatar..

Yo'q! Bunday paytda hatto Bo'ri ham qo'rqadi. Chunki g'orning og'zida Ajdaho turibdi. Yamlamay yutadi... Ammo nega yordam haqida o'ylay boshladi? Darvoqe, keyingi paytda ko'nglidan kechgani ko'p o'tmay ro'y bera boshladi. Hatto uyiga bosqin bo'lishini ham oldindan sezgandek edi. Lekin...

Ha, inson bolasi boshiga tushganiga ishonadi, ko'nglidan kechganiga emas. Yorug'lik ravshanlik keltiradi, umid ham shunday, deya o'ylarida davom etdi Mirtemir. Lekin bu subhi kosib bo'lsa-chi? Ya'ni aldovchi, kosiblarni aldovchi subh bo'lsa-chi? Unda birozdan keyin etagini tortib oladi va biror soat o'tgach haqiqiy ravshanlik kirib keladi. Ko'p o'tmay yorug'lik chekinadi. Demak, subhi kosib ekan...

Mirtemir xayolida o'zi o'stirgan bug'doyning hosilini yig'ib olishga ulgurmagan edi-ki, temir eshik ochildi. U ostonadagi kishini tanimadi. Ko'zlari xira tortdimi, uzoq vaqt oyog'ida o'tirgani va hozir o'rnidan turgani uchun boshi aylanib, ko'zlari tindimi, har holda alanglab qoldi.

Ostonadagi kishi ko'li bilan nimalardir ishora qilardi.

-Mirtemir aka, ketdik!

Kim bu? Nima deyapti? Tush ko'rayapmanmi?

-...

-Sizga nima bo'ldi? Urishdimi?...

Nega uning sasi bu qadar past eshitilayapti? U pichirlab gapirayaptimi yoki o'zining quloqlari eshitmayaptimi?

Ostonadagi odam ichkariga bir odim tashlaganda Mirtemir uning Rustam ekanligini tanidi va birdan xo'rliki keldi. Ko'nglining ostidagi bir buloqning ko'zi ochilib ketdi-yu undan pishqirib suv otildi. Ammo nimadir bu chashmadan oqqan irmoqning yo'lini to'sdi. Irmoq ko'z kosasida yig'ila boshladi. Mirtemir qo'llari bilan ko'zini ishqalagandek bo'ldi. Aslida ko'z kosasidagi daryoni sidirib olmoqchi edi. Chunki vujudining boshqa bir yeridan toshayotgan nafrat uni oyoqqa qalqtirdi.

-Ketdik, -dedi Rustam. – Mirtemir aka, meni kechiring, hammasiga majbur edim...

-Qayoqqa? -dedi Mirtemir nafrat bilan.

-Ketishingiz kerak!

-Ketib nima qilaman, og'ayni, sening qo'lingda o'lmoqchiman.

-Vaqtimiz juda oz. Hozir trevoga boshlanadi. Hammamiz yonamiz. Hatto Lutfillo aka ham...

Lutfillo! Lutfillo... Mirtemir birdan uyg'onib ketgandek bo'ldi. Bu yorug'lik! Bu Bo'ri!

Demak... Qadamlar ortidan ergashib qolgan xayollar ko'cha changitib chopgan bolalardek ularning orqasidan yugurdi... Mirtemirning qo'lidan temir kabi panjalari bilan qisib olgan Rustam qorong'u yo'lakda go'yo uchib borayotgandek edi. Mirtemirning oyoqlari goh yerga tegar, goh tegmas... Bir zumda eshik yonidagi mashinaga yetishdi. Mirtemir oldingi tomonda engashib o'tirib oldi.

Inson qiziq. Shu ahvolda uning yodiga bir voqea keldi. Shahardan qishloqqa borishda ko'pincha akasini chaqirardi. Oila a'zolari ko'pchilik bo'lgani uchun bolalardan birini mashinaning oldiniga, ya'ni o'zining quchog'iga olardi.

-Melisa chiqsa bekinasan, – derdi qizalog'iga va qishloqqa qadar o'yin boshlanardi. Akasi yoki o'zi “Ana melisa” desa bas, qizi engashib olardi va ishorat bo'lmagunga qadar Mirtemirning oyoqlari orasida o'tirardi. Qisilib qoldi, deya Mirtemir “Melisa ko'rmadi, chiq” derdi. Mana endi o'zi shu ahvolga tushdi va “Bu joy u qadar tor emas ekan” deb o'yladi.

Mirshabxonadan Mirtemirning uyiga qadar ikki daqiqalik yo'l. Shu bois xayollari yana uzildi. Mashina to'xtashi bilan Rustam shofyoriga:

-Sen yo'lak boshida tur, birov kelib qolmasin, -dedi. So'ngra soatiga qarab qo'shimcha qildi: - Hozir yigitlar kelib qolishadi.

Keyin oldingga engashdi:

-Mirtemir aka, men eshikni ochaman siz egilgan holda tushib, patta daraxtlar orqasiga o'ting. Ehtiyot bo'lishimiz kerak, qarshidagi qo'shningiz josus. Biz mashinani yo'l boshiga olganimizdan keyin siz devordan hovliga kiring. So'ng orqa eshikdan Sashanikiga o'ting, u kutib turibdi. Uydagilarga biror gap ayt mang, iltimos.

Mirtemir Rustam haqida hali uzil-kesil bir xulosaga kelmagandi. Lekin uning aytganlarini bajarayotgandi. Chunki bu so'nggi umid yo'li edi. Ammo yuragining bir chetida “Rustam yomon yigit emas ekan. Kecha uni xafa qildim. Rol uynaganini hech sezmabman, hatto xayolga ham keltirmabman”, degan fikr o'tdi.

Mirtemir devordan hovliga tushayotganida, oyog'i toyib ketdi va devor yonida o'sgan gilos og'ochiga osilib qoldi. Daraxt shoxi uni bir zum tutib turdi-da “qars” etib tanasidan ayrilib tushdi.

Reks qushdek uchib kelib unga tashlandi va ingray boshladi. Mirtemir itni sevmasdi. Bu uyga ko'chib kelishganda hovli sohibi “Men bu itni xuddi o'g'limday sevdim. Uni sizga qoldirib ketaman. Juda ham aqlli, hamma gapni tushunadi. O'z ismini yaxshi ko'radi. Iltimos, uning ismini o'zgartirmang” dedi. O'shanda sohibi Reks bilan xayrlasharkan ko'zlariga yosh olgandi. So'ng Reksning ham yonog'i ho'l bo'lgandi.

Reks Mirtemirning bolalariga juda tez o'rgandi. Mirtemir uning yoniga yaqin bormasada Reks uning keldi-kettisiga “munosabat” bildirib turardi.

Mirtemir poytaxtga ko‘chib ketayotganda Reks zajirlarni uzib yuboradigandek faryod chekkandi. Qachon Mirtemir bu hovliga kelsa Reksga “jon” kirardi.

-Aka, siz Reksning yoniga bormaysiz. Biz o‘zimizni sen deb uni sizlaymiz. Lekin baribir sizni ko‘rganda yayrab ketadi, -derdi singlisi. -Kelsangiz quvonadi, ketsangiz yig‘laydi. Hatto bir-ikki kun ovqat yemaydi.

-Poytaxtda joyimiz yo‘q, bo‘lmasa olib ketardim, -deya qo‘ya qolardi Mirtemir.

Aslida esa bolaligida qo‘shnisining iti talagani hech yodidan chiqmaydi. O‘shanda qattik qo‘rqqan ekanmi, itni ko‘rsa seskanadi. Shu sabab Reksning yoniga borsa ham orada ikki qadam masofa saqlab unga “gap otardi”. Haqiqatdan ham aqlli it. Xamma gapga imo-ishora yoki harakat bilan javob qilardi.

Kecha uyni melisalar bosganda Reks shunaqangi uvvos Alib yig‘ladiki, hatto ba‘zi mirshablar “Hamma gapni sezayapti. Bizbop ekan, olib ketsakmi?” deyishgani qulog‘iga chalingandi. Mirtemirni olib ketishayotganda Reksning ko‘zlari mahzunlashib, ovozi bo‘g‘ilib qolgandek edi. Uning faryodi bilan zanjir saslari

qo‘shilib yuraklarni tilkalovchi allaqanday sadoga aylangandi.

Mana endi u ikki qo‘lini ko‘kka ko‘targancha qarshisida turibdi. Mirtemir uning boshini silagandi, u g‘inshigancha yerga yumaladida hovlida yugura boshladi.

-Kim? -deya ovoz keldi va uy eshigi ochildi. Bu umr yo‘ldoshi Rohila edi.

-Men, qo‘rqma, -dedi Mirtemir va uyga kirdi. -Tez boshqa kiyimlarimni ber. Hoziroq ketishim kerak!

-Qanday chiqdingiz? Qaysi tomondan keldingiz?...

Savolga javob berish o‘rniga Mirtemir umr yo‘ldoshiga razm solgandi bir kechada cho‘kib qolganini ko‘rdi. Ranglari sarg‘aygan, lablari esa oqargan.

-Sen qo‘rqma, hammasi yaxshi bo‘ladi. -dedi u.

Bu payt ichkaridan qaynotasi, qaynonasi, singlisi chiqib kelishdi. Ular xuddi hamma gapni biladigandek indamay turishardi. Yo tush ko‘rayotgandek his etishardi o‘zlarini yoki voqea ularni shoshirib qo‘ygandi.

Rohila yangi kostyum-shimni olib chiqdi.

-Boshqasi yo‘qmi?

-Kiyavering. Sport kiyimingizning ustidan kiying. U ham kerak bo‘ladi, -dedi Rohila. -Bolam, biror yegulik hozirlaymi? -so‘radi qaynonasi titroq ovozd.

-Suv ber, suv, -dedi qaynotasi unga. Ammo Mirtemir suvni ham kutmasdan:

-Hech xafa bo'lmanglar, hammasi yaxshi bo'ladi, -dedi-da tashqariga otildi. Rohila orqasidan yugurib chiqdi. Xuddi voqealar rivojini oldindan bilgandek Reks ham orqadagi darcha yonida turgandi.

-Dodlash yo'q, yig'lash yo'q, uydagilarga quloq sol, xo'pmi? -dedi u ilk bor Reksning boshini silab.

Rohilaga esa biror gap aytoilmadi ham. Uning ko'ziga bir zum tikilgandi ko'ngillaridagi dostonlar nigohlar orqali ko'chib o'tgandek bo'ldi.

S O V C H I L I K [1 6]

Mirtemirning Rohilaga uylanishi tasodiflar bilan bog'liq. U moddiy siqintilar sabab dorulfununning kunduzgi bo'limida o'qiy olmadi. Ota-onasining vafot etgani, buning ustiga poytaxtda hech kimi yo'qligi sabab ham ishlab, ham o'qidi. Orada armiya xizmatiga ham borib keldi. Dorulfununni bitirish arafasida "Qishloq hayoti" gazetasida ishlardi. Bir kuni mas'ul kotib Kabir Shukurov chaqirib qoldi.

-Seni askarlikka o'zimiz kuzatdik. Yana bag'rimizga qaytding, – dedi u. – Xuddi o'g'limizday bo'lib qolding. Bosh muharrir bilan gaplashdik, seni uylantirmoqchimiz.

...-, Nima ham deydi, indamay eshitdi.

-Qo'shni gazetada "Birinci"ning jiyanini ishlaydi. Bir-biringizni tanir ekansiz... Mirtemirning boshi g'uvillab ketdi. Ha, taniydi. Lekin... U kimu men kimman, deb o'yladi. Keyin kattalarga kuyov bo'lganlar haqida ko'p o'qigan va eshitgan. Unday oilalar qulsifat kuyovlarni sevadilar, ammo o'z fikri, o'z fe'li bo'lganlarni darrov oyoqlari ostiga olib ezg'ilaydilar.

Yo'q, yo'q deb o'yladi, qolaversa qizni taniydi. Sovuqligi va yoqimsiz kibori sabab kishini o'zidan uzoqlashtiradi. Na samimiyati bor, na mehri. Ba'zan liftida ro'baru kelardilar, salomlashsang "Nima ishing bor?" degandek o'qrayib boqardi.

-Sen ariza yoz, ta'til beramiz. Ikkinchi arizani uy uchun yoz. Nashriyot to'y kuni uy hadya qiladi, – deb so'zida davom etdi mas'ul kotib.

Mirtemir o'sha kunning o'ziyoq qishlog'iga jo'nadi. Voqeani akasiga aytgandi :

-Boshingga baxt qushi qo'nibdi, uka, – dedi akasi.

-Baxt qushi emas, badbaxtlik qushi, – dedi u. Gapni burishga usta bo'lgan akasi :

-U ma'noda emas, har ikki holda ham baribir uylanadigan bo'libsan. O'jarligingni bilaman. Podshohning qizidan ham yuz o'girib ketaverasan. Balki sening bilganing to'g'ridir.

Akasi, bu bilan o‘zi yaqinda ikkinchi marta uylanganini eslatdi, shekilli. Oldingi xotini bilan ajraldi. Lekin uchrashib turadi. Ikkinchisi bilan ham ish yurmayapti.

-Bo‘pti, – dedi u. – Qachon qaytasan ? Men ertaga besh – olti qizni ko‘rsataman. Birortasini tanlaysan. Darrov to‘y qilamiz. Men uylanganman, deb borsang,

qutulasan. Boshqa bahona bilan ularning panjasidan chiqa olmasan. Otash bilan o‘ynashgandek gap bu...

Xullas, ertasiga shaharning o‘n joyida uchrashuv belgilabdi akasi. Biri qarindoshlarining qizi bo‘lsa, boshqasi tanishlarining... Bu masalada akasi anqoning urug‘ini ham topadiganlardan. Lekin bu “urug‘”larning hech biri Mirtemirning ko‘nglini jiz ettirmadi.

-O‘zing ham osmondan tushgansanmi?-dedi akasi eski “Volga”sini vokzalning yonida to‘xtatarkan. – Hammasi aqlli qizlar edi. Bilmadim senga qanaqasi kerak?

-Mayli, uzr, aka, Sizni ovora kildim. Men poyezdga bilek olay, bir yo‘lini toparman.

-Bo‘pti, men ham bir joyga borishim kerak. Keyin ko‘rishamiz, – akasi shunday deb jahl bilan ketib qoldi.

Mirtemir chiptani oldi-da vokzal atrofida uzoq vaqt aylanib yurdi. Poyezd kechqurun soat o‘n birda ekan. Birdan yodiga shu yaqinda yashaydigan tanishlari keldi. Opasi institutda birga o‘qigan qizning oilasi bilan yaqinlashib qolishgandi.

Gulsanam xola uni xuddi o‘z o‘g‘lidek bag‘riga bosib, kutib oldi.

-Bolam, nima bizdan arazlaganmisan, nega kelmay qo‘yding ? – Gulsanam xola shikoyat qila boshladi. – O‘tiranman, turaman seni o‘ylayman. Uzoqlarda, ota- onasiz. Issig‘ing bor, sovug‘ing bor... Rahmatli onang bo‘lsaydi-yu seni ko‘rsaydi, o‘g‘lim poytaxtda o‘qiyapti, deb qancha sevinardi-ya?!

Gulsanam xola darrov dasturxon yoydi :

-Uchoqda borib kelayapsan, shekilli, aks xolda biznikiga bosh suqarding – dedi u. – Ilgari avtobus, poyezdda qatnarding, kelishda, ketishda bizni ko‘rarding. Xola ancha gapirgach, “Xo‘sh, endi sen gapir, nima gaplar?” – dedi. Mirtemir avvaliga jim o‘tirdi. Keyin voqeani aytib berdi.

-E, bolam, bugun seni Tangri bu yerga boshlab kelibdi. Ana shu ko‘chaning muyulishidagi uyda bir qiz bor. Onasi sen uchun tuqqan. Ko‘zimning ostiga olib qo‘yganman. Hech o‘ylab o‘tirmasdan “Xo‘p” degin.

-Xo‘p, – dedi hazillashib Mirtemir.

-Unda men ketdim, poyezd vaqtiga qadar balki qizni senga ko'rsataman. Gulsanam xola uzoq qolib ketmadi, tez qaytdi.

-Yur, – dedi, – muyulishdagi simyog'ochning ostida turasan. Qiz keladi.

Mirtemir qoqib qo'yilgan qoziqqa o'xshab ancha turdi. Odamlar tinimsiz o'tib turishardi. Bir necha qizlar ham o'tishdi. "Shu emasmikan?" degan tuyg'uni bir necha marta yashadi. Ammo Gulsanam xolaning o'zi kelib qoldi.

-Yur, ketdik, – dedi u. – Xafa bo'lma o'g'lim, ularga seni ko'rsatdim. Ertaga opang kelsin, birga sovchilikka boramiz, keyin sen qizni ko'rasan. Hozir esa borib chiptani qaytar, keyin qishloqqa jo'na!

-Avval qizni ko'rsam...

-Qizni men ko'rib yuribman. U seniki – tamom. Bor, bor, kech qolma. Ammo to'yda bir kiyimlik meniki...

-To'yda bo'lmasa ham keyinroq bo'lar, -hazillashdi Mirtemir.

-Ko'nglingni to'q qil, u qizni ko'rsang, to'ydan oldin bir emas, ikki kiyimlik olib kelasan menga. Bor bolam, bor.

Mirtemir muyulishdagi uyga qaray-qaray vokzalga ketdi.

Mirtemir poyezd chiptasini topshirish uchun vokzalning kassasi yoniga keldi. Yoz kunlari bo'lgani uchunmi odam juda ko'p edi. Na sira bor, na tartib, kassirlarga yaqinlashib bo'lmaydi. Shunga qaramasdan u qo'lida chiptani ushlab ancha turdi. Bu orada ikki-uch kishi "Ortiqcha билет bor, kim oladi?" deya bir zumda chiptalarini sotib ketishdi. Mirtemir ham shunday deb baqirmoqchi edi, tovushi chiqmay qoldi. Burnining usti terladi, negadir oyog'i qaltiray boshladi.

Yodiga poytaxt vokzalida chipta sotuvchilarni ovlagan mirshablar keldi. Balki uni ham olib-sotarchi deb ushlashsa-chi? Axir o'shanda ikki do'stini ushlagandi-da. Ular qishloqqa borish niyatidan qaytib, chiptalarini sotishmoqchi bo'lishgandi. Mirshablar qo'llarini qayirib olib ketishdi. Keyin tortishib qolishibdi. "Mirshabni haqorat qilgani uchun" o'n besh kun qamalib ham chiqishdi. Voqeani Mirtemir gazetaga yozgandi, muharrir "Uka, biz shaharning emas, qishloqning masalalarini yoritamiz" deya maqolasini sahifadan olib qo'ydi. "Mirshablarning kattasini chaqirib o'qitamiz, uning o'zi tarbiyalab qo'yadi qolganlarini" dedi. Mirtemir nima ham deya olardi. Faqat keyin sezdi ki vokzaldagi mirshablar boshlig'i muharrirning yoniga tez-tez qatnaydigan bo'ldi. So'ng do'stlarining qo'lini qayirib olib ketganlar ham ikki-uch marta kelishdi. Muharrir to'y qilganda ham ular xizmatda edilar. Shularni o'ylarkan, Mirtemir chiptani cho'ntagiga qaytarib soldi-da qishloqqa ketdi.

Ertasiga akasi va opasi Gulsanam xolanikiga kelishdi.

-Qizning onasi yetim o'sgan ayol. Dorilfununda ishlaydi. Og'ir tabiatli ayol. Tarbiyaga e'tibor qilganlardan. U yerda ko'p gapirma, qizim, – dedi Gulsanam xola Mirtemirning opasi Mehrinisoga, – xuddi o'zi gapdan to'xtaydigan, kam gapiradigandek.

Ammo Gulsanam xolaga ko'p gapirish yarashardi. Tovushining shiradorligi uchunmi yoki yuzidagi, ko'zidagi mehr ovozigaga ham qo'shilgani uchunmi yo samimiyati kuchliligi uchunmi ko'p gapligi ham bir go'zallik edi.

Mirtemir akasi bilan qoldi, boshqalar sovchilikka ketishdi...

Salomat opa ularni iliq qarshilab, hovli to'ridagi taxta so'ri tomonga boshladi. Mehriniso har tomonga nazar soldi. Hovli supurilgan, suvlangan. Qator-qator qilib ekib qo'yilgan gullar yoz bo'lishiga qaramay rango-rang ochilgan. Supaning ustiga ko'tarilgan tok og'ochi xuddi shamshot daraxti kabi tik o'stirilgan va keyin qizning qirq kokili kabi tolorga tortilgan.

Mehriniso avvaliga tokni quvur deb o'yladi. Nega quvurlarni "ekib" qo'yishibdi, deb yuqoriga qaragach, g'ujum-g'ujum husayni, kishmishni ko'rib gap nimadaligini angladi. Keyinchalik o'zlari ham yangi hovliga ko'chib chiqqach, supalarning ustini tok bilan xuddi ana shu shaklda qoplattirdilar. Hozir esa "qizning ota-onasi tartibni sevar ekan" deb o'ylayotgandi. Hovli kichik bo'lsa-da har turdagi mevali daraxt bor edi. Anjirdan tortib anorgacha.

Xullas, Mehriniso bir qusur qidirardi. Sovchining vazifalaridan biri qusur qidirish deb o'ylardi. Nima bo'lganda ham yakkayu yagona ukasini uylantirishadi. Hamma narsa joyida ekanligini avvaliga "Bizni kutishga hozirlanishgan"ga yo'ydi, keyin esa xursand bo'ldi. Shu payt ichkaridan qilichdan nozik va tik bir qiz chiqdi.

-Assalom, – degandi, Mehriniso :

-Ha, bo'yingdan aylanay, – dedi va Gulsanam xolaning qulog'iga pichirladi. – Xola, bu qizning bo'yi uzun. Ammo chiroyli ekan.

-Bu singlisi, – dedi Gulsanam xola.

-Xudoga shukur, bo'yi ukamdan uzun ekan, deb qo'rqib ketdim.

-Bo'yi uzunlik aybmi, o'zing o'smay qolganing uchun faqat bo'yi kaltalarni aqlli deb o'ylaysan-a, – hazil qildi Gulsanam xola. Aslida buni yarim hazil, yarim chin deyish kerak. Chunki Gulsanam xolaning ham bo'yi uzun edi.

-Ammo onasining bo'yi uzun emas ekan. Lekin biroz semizroqmi? – deya pichirladi Mehriniso.

-Hah qizim, hah qizim-a? Avvalo yaxshilab qaragin, onasining bo'yi uzun ham emas, kalta ham. Semiz degan so'zni qayerdan olding? Onasini ko'r, qizini ol, deganlar. Chaqqonligiga qara, yelib yugurib yuribdi...

-Kechirasizlar, sizlarga ham qaray olmadim, – deya Salomat opa ularga yaqinlashdi. – Ishdan bugun biroz kech keldim. Qizlar ham ishda edilar. Yozda uyda o'tirmaylik, deyishdi. Kattasi qarshimizdagi Telefon idorasida, kichigi esa Kishmish fabrikasida ishladi. Ishladi, deyapman, chunki bugunga qadar edi. Endi o'qishga borishadi.

-Ha, o'qishlar boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi, – dedi Mehriniso gapga qo'shilib. – Ukam ham birinchi sentyabrda tug'ilgan. – U nima bo'lsa ham tezroq maqsadga ko'chish uchun imkoniyatdan foydalanib, gapni ukasiga burdi.

-Shunaqami? – Salomat opa samimiy bir ohangda, ajablanish bilan Mehrinisoga qaradi.

Mehriniso birdaniga allanechuk bo'ldi. Bu ayolda nima bor? Ko'zlarining ma'nodor kulishlari kimni eslatdi? Yonoqlari xuddi bo'yab qo'yilgandek qirmizi ekanligi ham qalbining muz bo'lib turgan joylarini eritib yubordi. Istarasi issiq bu ayolning gapirganda kulgichlari yuziga yoyilib, chehrasini yoritib yuborgani Mehrinisoni to'lqinlantirdi. Ha, topdi. Rahmatli onasiga o'xsharkan, bu ayol. U esa...

-Umringiz o'xshamasin, onamga o'xshatdim sizni..., -Mehrinisoning tovushi titrab ketdi. Buni his qilgan Salomat opa darrov gapni davom ettirdi.

-U kishini bir marta ko'rgandim. Xudo rahmat qilsin, mehrli ayol edilar. Katta opangizning uyidan kelayotgan ekanlar. Rahmatli qaynonamni tanirkanlar, eshikdan ichkari kirmay bir piyola suv ichgandilar. "Yuragim kuydi" degan gaplari esimda...

-Ha, onam bo'lganlarida bugun o'zlari kelardilar. Bittagina o'g'illarini uylantirib qancha sevingan bo'lardilar. Nima qilaylik-ki yetim qoldik!

-Singiljon, yetimlik yetti kishidan birining qismati, deydilar, – Salomat opaning ham qalbi yumshadi. – Men ham rahmatli onamni eslay olmayman...

-Ayajon! – oshxona tarafdin kelgan bu sas Salomat opaning gapini bo'ldi. U uzr aytib, o'rnidan turdi.

-Sen sovchilikka kelganmi yoki ma'rakagami? – deya Mehrinisoni turti Gulshanam aya. – Yig'ining joyi emas. Dardimizni aytayligu turaylik!

-Dardimizni biladilar-ku, yana nimani aytamiz.

-Hali bu "dard"ni takror aytish uchun uch marta kelamiz.

-O'n marta kelsak ham bu ayol menga yoqdi. Ba'mani ayol ekan. Qizlari ham odobli deyishdi. Bularning bir qarindoshi men bilan ishlarkan. Undan hamma gapni surishtirib oldim.

-Nega bo'lmasa guruchdan tosh qidirayotganding?

-Sovchilik qoidasi emasmi bu?

-Ishqilib biror sovuq gap aytib qo'ymagin-da qizim.

-Aytsam – aytnasam, ish bitdi, aya, qiz bizniki, bir haftadan keyin to'y, ana ko'rasiz...

Bir hafta emas, o'n besh kundan keyin tuy bo'ldi.

Oradan o'n besh yil o'tib esa, Rohila darchadan turmush o'rtog'ini o'zi ham bilmagan bir muddatga va o'zi ham bilmagan bir tomonga kuzatmoqda....

GENERAL ... [17]

-Sizni tabriklayman, – dedi Karimov generalning qo'lini qisib. – Topshiriqni yaxshi bajardingiz. Aslida ana u Zokir tirranchani vazir tayinlab xato qilgan ekanman. Bilaman, u sizning qo'lingizda ishlardi. Bor-yo'g'i podpolkovnik edi. Parkent voqealarida sizning topshirig'ingiz bilan mening yonimda yurdi. Sodiqlik bolaga o'xshadi. Shu sabab ko'p o'tmay sizni boshqa ishga ko'chirib, uni joyingizga tayyorladim. Generalgacha ko'tardim. Sizni uzoq viloyatga ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i qilib yuborish ham uning o'yini. Hechdan ko'ra kech deydilar, mana endi ko'zimiz ochildi. Do'st kim, dushman kim, ajratib oling. O'zining o'n beshi korong'u o'n beshi yorug'. Qorong'u kunlar o'tib ketdi. Endi birgalashib ishlaymiz. Qayerga borsam yonimda bo'lasiz...

Shu payt Karimovning telefoni quloqlarni qomatga keltiradigan darajada jiringlay boshladi. Ammo Karimov parvo qilmadi. Hatto qayrilib telefon tomonga qaramadi ham. Uning so'zlarini, hech bo'lmasa ohanglarini ilg'ab olishga harakat qilgan generalning urinishlari befoyda ketayotgandi. Chunki telefon sasi butun xonani qamrab olgandi. Karimovning do'rillagan ovozi yo'q bo'lib borgani sayin, uning salobatli gavdasi ham uzoqlasha, uzoqlasha nuqtaga aylanib qoldi...

General sapchib o'rnidan turdi. Bosh tomonidagi stol ustiga qo'yilgan telefon tinimsiz jiringlayotgan edi. Avvaliga voqealarni aralashtirib yubordi. So'ng vazirlik tushida qolgani va olis viloyatdagi uyida uxlab yotganini angladi. Qo'li beixtiyor

telefon yonidagi tugmachani bosdi. Xonasida chiroq yonishi bilan ko'zlarini qaytadan yumdi. Qorong'ulikka o'rgangan ko'zlar nur oldida ojiz edi. Ammo telefon uchun farqi yo'q, u na qorong'ulikni, na oydinlikni angelaydi. Lekin bu soatda telefon qilishga kim jur'at etdi? General bu savolga javob qidirmasdan soatga qaramoqchi bo'ldi. Chiroq shu'lasida yoshlangan ko'zlari soat yuzini ko'ra olmadi. Xuddi tushida Karimov nuqtaga aylanib qolgandek devorga osig'lik soat ham nuqtalarga bo'linib ketgandi.

-Soat necha? – deya baqirdi u. Ammo javob beradigan odam yo'q. Haybatli hovlida bir o'zi yashaydi. Hovlisining to'ridagi kichkinagina hujrada yashaydigan, o'rgatilgan itni hisoblamaganda.

General bu yerga ishga yuborilganda bir-ikki yilda qaytaman, deb o'yladi. Oilasini kelishga undamadi ham. Ammo umr yo'ldoshi uning bu yerga kelishini surgun deb baholadi. Aslida qayerga tayin etilmasin umr yo'ldoshi uning poytaxtdan uzoqda bo'lishini istamasdi.

General Nilufarxonga uylanganda yosh emas edi. Birinchi xotinidan ayrilgandan keyin uzoq vaqt tanho yashadi. Ichki ishlar vazirligining tungi qorovullar bo'limida ishlagani uchun bo'sh vaqti ko'p bo'lardi. Shu bois doim kontsertga borardi. Ayniqsa, Nilufarxonning kontsertlarini o'tkazib yubormasdi. Nilufarxon san'at olamida u qadar mashhur bo'lmasa ham go'zallik bobida og'izga tushgan edi. Qora qoshlaridan tortib to'pig'igacha tushadigan sochlariga qadar bo'ydoqlarning orzusiga aylangandi. To'xtayev ham ana shu qoshlaru ikki o'rim qilib tashlab qo'yiladigan sochlarning maftuni edi. Maktabda adabiyot darsida qochib yurgan, she'r yodlashdan hazar qiladigan To'xtayev yoshi o'ttizdan oshib qolganida qo'lga qalam oldi. Nilufarxonga bag'ishlab she'rlar yozdi.

Yo'lning uzog'i hatto dushmanlarni do'stga aylantiradi. Vaqt To'xtayev bilan Nilufarxonning hayotini bir nuqtaga keltirdi. Ular oila qurdilar. Ammo Nilufarxon oilaning hokimi, To'xtayev esa "malikasi"ga aylandi. Mana Samarqandga ishga kelganiga ikki yildan oshdiki, bir marta ham so'roqlamadi. Shunga qaramasdan umr yuldoshini (ba'zan xayolidan haqiqatdan ham umr yo'ldoshimmikan, degan fikr o'tishiga qaramasdan) sevadi.

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i etib tayinlangandan keyin sessiyada uning nomzodiga qarshi chiqishdi. O'shanda Mirtemir minbardan "Bizning viloyatimizda jinoyatchilik avjiga chiqqan. Oldingi boshliq – Gayran degan zot hamma yoqni poraxo'rlik razolatiga to'ldirdi. Mana endi yangisi keldi. Butun umidimiz undan", deya uni himoya qilgandi. O'shanda To'xtayev to'qlinlanib ketgan va minbarga chiqib:

-Men xalqimiz sevib tinglaydigan san'atkor Nilufarxonning turmush o'rtog'i bo'laman, – deb yuborganda, zalda o'tirganlarning bir qismi qarsak chalsa, boshqa bir qismi esa kulgandi...

Ammo shu daqiqada xayolga botgan generalning yonida "soat necha bo'ldi?" degan savoliga javob beradigan kishi yo'q edi. U bo'shliqqa baqirgandi. Bo'shliqdan kishining o'z tovushi qaytadi, ba'zan esa bo'shliq bu sasni yutib yuboradi. Hozir generalning sasi qaytdimi yoki uni bo'shliq yutib yubordimi, buni bilish qiyin edi. Chunki telefon jiringlayotgandi.

Generalning yotoqxonasida ikkita telefon bor: biri qora, ikkinchisi kulrang. Qora ranglisi hukumat telefoni hisoblanadi. Bu uyga ko'chib kirganiga ikki yil bo'lgan bo'lsa, bu telefon bir marta ham jiringlagan emas. Ammo ikkinchisi viloyatda biror voqea yuz bersa, yoki rahbarlar uni qidirisha jiringlab qoladi.

Xullas, ko'rgan tushi va undan keyingi holati bois telefon dastasini ko'tarish kerak, degan fikrni ancha vaqt "qidirib qolgan" general birdan uni "topib oldi".

-Kim u?! – dedi general telefon dastasini olishi bilan.

-O'rtoq general, raport berishga ruxsat eting!

-Nima gap?

-U qochdi.

-Kim? – general kim deya so‘ragan bo‘lsa-da javobni eshitmasdanoq telefon dastasini otib yubordi. Xuddi yuragi oyoq barmoqlarining uchiga tushib qolgandek va parchalanib ketgandek his qildi o‘zini. Keyin bu parchalar butun vujudiga yoyildi. Vujudining har bir nuqtasidan “tuk-tuk” deya sas kela boshladi.

-Qo‘rqqanim boshimga keldi. Uni qochirdim, qochirdim...,-deya mushtini mushtiga urdi. Ammo ayni paytda qalbining qayeridadir uchqun paydo bo‘ldi. “Balki qochgani yaxshi bo‘lgandir? Uni o‘ldirib, keyin baloga qolib ketarmidim?” Ko‘nglidan o‘tgan bu fikrdan o‘zi qo‘rqib ketdi. Chap yelkasiga qarab tupurgandek bo‘ldi va “La‘nat shaytonga” dedi. Keyin muzlatgichni ochib, chet eldan keltirilgan pivoni oldi. Ichmoqchi bo‘ldi-yu ammo og‘zini ochmadi. Chunki qo‘llari titrayotgandi. Titroq qo‘llarini osilib yotgan telefon dastasiga uzatdi. Ichki ishlar boshqarmasining navbatchisi xuddi bu holga o‘rganib qolgandek telefon simining naryog‘ida kutib turgandi.

-Mashinamni chaqir!

-Yubordim, o‘rtoq general!

-Uning qochganini yana kimga aytding?

-Hali hech kimga ! Ammo poytaxtga yuboriladigan tonggi hisobotga kiritdik. O‘n

daqiqadan so‘ngra hisobotni uzatamiz.

-Hisobotdan chiqar!

-Endi kech bo‘ldi. Hisobot kompyuterlarga o‘tdi. O‘zgartirsak, keyin boshimizga balo bo‘ladi.

-Bo‘pti, meni kutinglar! Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ini ham chaqir... to‘xtab tur, uni bezovta qilma! “Semyorkani” oyoqqa turgaz, yaqin tumanlardan yordam chaqiringlar. Avtomobil inspeksiyasi yo‘lga chiqarilsin, poytaxtga va boshqa shaharlarga olib boradigan yo‘llar nazorat ostiga olinsin! Har bir avtomashina alohida, alohida tekshirilsin! Qarindoshlarining ro‘yxati chiqarilsin, operativ guruhlar hoziroq ularning uylarini bossinlar! Qolganini borganimda gaplashamiz. Barcha bo‘lim boshliqlarini yig‘ilishga chaqir!

General apil-tapil kiyina boshladi. To‘g‘ri ishxonaga borsammi yoki shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining uyigami?, deb o‘yladi u.

Avvaliga katta boshini kichik qilib qo‘l ostida ishlaydigan odamning uyiga borishga o‘zida jur‘at topolmadi. Keyin esa butun umidini unga bog‘ladi. Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Bahodir Matlubov Karimovning yaqinlaridan biri edi. Ko‘pchilik uni Karimovning jiyani derdi. Aslida qarindoshligi bormi yo‘qmi noma‘lum.. Lekin Karimovning oldiga borib keladi. Ba‘zan viloyat hokimi ham uddasidan chiqolmaydigan masalalarni poytaxtga borib hal qilib keladi. Hatto bir

kunda farmon chiqartirib, farmon hali gazetalarda eʼlon qilinmasdan nusxasini olib qaytgan paytlar ham boʻlgan.

General “jiyan”ning uyiga borishga qaror qilib tashqariga chiqdi. Mashinaning yonida esa “jiyan”ning oʻzi turardi.

-Yoppirim, boʻrini yoʻqlasang qulogʻi koʻrinadi, deganlari rost ekan. E-e, kechirasiz, doʻstim, yomonni oʻylasang oldingdan yaxshi chiqadi, deganlar. Qarang-a sizni bezovta etish niyatim yoʻq edi.

-Uygʻun aka, menga shahar boʻlimidan xabar berishdi. Nima qilamiz endi?

-Men barcha xizmatlarni oyoqqa turgʻazdim, Xudo xohlasa, quyosh chiqqunga qadar topamiz!

-Men ham shahar xizmatini safarbar qildim. Insholloh, toparmiz.

-Generalning xayolidan “Bunchalik Karimovga taqlid qiladi. Hatto “insholloh” deyishda ham Karimovga oʻxshatadi. Karimov baʼzi soʻzlarni xato aytsa-da, koʻp takrorlagani uchun bu soʻzlar uning mulkiga aylanib qolgan. “Jiyan” ham ana shulardan baʼzilarini ildirib oladi va oʻzining kimligini shu soʻzlar bilan eslatib turadi.”

degan fikr oʻtdi xayolidan.

Ular Ichki ishlar boshqarmasiga kelganlarida atrof xuddi kolxoz bozorini eslatardi. Hali shahar odamlari uxlab yotganlariga qaramay Ichki ishlar boshqarmasi yonida shovqin-suron boshlangandi. Generalni qarshilagan navbatchi :

-Oʻrtoq boshliq, poytaxtga yuboriladigan hisobotning vaqti oʻtib ketdi. Nima qilaylik? – dedi.

Koʻzining qiri bilan “jiyanga” qarab olgan general :

-Nega kutib oʻtiribsiz, darhol yuboring! Hamma narsani toʻxtatish mumkin, ammo hisobotni toʻxtatish mumkin emas! Chunki bu hisobot soat 9.00da hurmatli Prezidentimizning stollari ustida turishi kerak, – dedi.

General yoniga kelgan “jiyan”dan madad topgandek boʻlsa-da hozir oʻzining bu gaplaridan koʻngli choʻkib ketdi: Darhaqiqat, soat toʻqqizdan keyin nima boʻlar ekan?!

-Soat necha boʻldi? – deb soʻradi u navbatchidan. Javobini kutmasdan “Shiq- shiq” etkizib choʻntak soatini ochdi : 7. 35. Demak, salkam bir yarim soat vaqt bor.

-Bizlarga achchiq qahva buyur! – General navbatchiga buyruqni bergach, “jiyan”ga yuzlandi:

-Qochirganlar qayerda? Ular bilan gaplashdingizmi?

-Ularni bu yerga olib kelishdi. Yuqorida. Qabulxonada, – loʻnda-loʻnda javob qildi “jiyan”.

Ular birgalashib liftga mindilar. General liftning harakatidan falsafa izladi. Inson hayotining obrazi-bu, deb o'yladi. Chiqadi-tushadi. Ba'zan to'lib chiqadi, bo'sh tushadi. Ba'zan esa bo'sh chiqib, to'lib tushadi. Nahotki mening ham tushish soatlarim yaqinlashmoqda?

Qabulxonada o'tirganlar o'rinlaridan turishdi. Ammo general ularga qayrilib qaramasdan ichkariga kirdi. Joyiga o'tirarkan tugmali mikrofonni ochib "Kelayotgan raportlarni menga ham bog'la, men ham eshitib turay!" dedi. Keyin boshqa tugmani bosib qabulxonadagi sekretarga baqirdi:

-Man nima degandim? Nega kutib turishibdi? Operativ gruppalar qaytdimi?

-O'rtoq general, operativ gruppalardan hali xabar kelgani yo'q. Bu yerda faqat bo'lim boshliqlari kutib turishibdi, ularning ko'pchiligi voqeadan xabardor emas...

-Nega xabardor bo'lmaydi?

-Xabarlari bor, ammo rasman emas!

-Hammasiga ayt, bo'limlariga borishsin, qo'llarida Mirtemirga oid nima bo'lsa, to'plashsin va raport berishga hozir holda kelishsin! Aloqa bo'limi boshlig'i ichkariga kirsin!

Ichkariga kirgan kapitanni ostonada to'xtatgan general:

-Unga bog'liq nechta telefonni yozayapsizlar? – deb so'radi.

-O'n ikki kishining telefonini yozayapmiz. Yarim soat ichida qizlar rasshifrofkani tugatashadi.

-Yarim soat ko'p, o'n besh daqiqada hozir bo'lsin. Qarindosh urug'lari, yaqin do'stlarining ham telefonlarini yozib olinglar!

-Ruxsatni nima qilamiz. Yo'liga bo'lsa ham tergovchining ruxsati kerak.

-Ruxsatni onangdan olasan! Hammayoq yonib turgan bir paytda senga ruxsat beradigan eshak kutib turibdimi?! Bu davlat xavfsizligi masalasi! Bor, bajar!

Kapitan orqasi bilan eshikdan chiqar ekan, general yo'qotgan narsasini topgandek, yengil tortdi. Darhol telefon dastagini olib viloyat xavfsizlik boshqarmasiga sim qoqdi.

-Ukaxon, men Uyg'un To'xtayevich bo'laman, Murtazo Rahmatovichga xabar bersangiz, kecha qamoqqa olingan davlat ahamiyatiga molik jinoyatchi qochgan, ortida katta kuchlar borga o'xshaydi, – dedi.

-Murtazo Rahmatovich xonalarida o'tiribdilar, istasangiz bog'lashim mumkin.

-Albatta, albatta, darhol bog'lang!

General masalani Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig'iga anglatmoqchi edi, ammo u xabardor ekan. "Bularning har narsadan xabari bor. Yer ostida ilon qimirlasa ham bular xabardor" deb o'yladi general. MXX boshlig'ining gapirish ohangidan "Siz qochirdingiz" dashnomini sezgandek orani yumshatmoqchi bo'lib "Bu yerda Bahodirjon bilan birgamiz. Masalani hurmatli Prezidentimizga yetkazish haqida o'ylayapmiz", – dedi.

-Men sizning hisobotingizdan o'rgandim, – Bahodirjon ismini eshitgach MXX viloyat boshlig'i yumshagandek bo'ldi. – Keyin Po'lat Majidovichni xabardor ettim. Butun kuchlarimizni safarbar qildik, har holda birgalikda ishlasak natija chiqadi.

Shtabni sizning idorangizda tuzaylik. Yarim soatdan keyin Po'lat Majidovich ham o'sha yerga keladilar, men ham boraman, – dedi.

General telefon dastagini qo'yarkan, suvga botirib olingan mushukdek shumshayib qoldi.

-Qarang-a, Bahodirjon, bular allaqachon shtab ham tuzishibdi, hozir bu yerga kelishadi, – dedi. Bahodir ko'rsatgich barmog'i bilan shiftni ko'rsatib, bir aylana chizgan bo'ldi-da "Sizning xonangizdagi gaplar yoziladi" degan ishoratni berdi. General bunga javoban bosh siltab "To'g'ri" degandek "uh" tortib qo'ydi.

Shu payt qora telefon jiringladi. General "lip" etib o'rnidan turdi. Telefon dastasini qulog'iga yaqin keltirarkan "Assalomu alaykum" dedi. Telefonning naryog'ida Ichki ishlar vaziri Zokir Almatov gapirayotgandi:

-Sizga hech qachon biror ishni ishonish mumkin emas! Islom aka bu masalani viloyatda hal qilamiz, ovozasi chiqmaydi, deganlarida ko'nglimdan siz haqingizdagi fikrlar o'tib, qarshi chiqmoqchi edim. Baribir sizni yana bir sinab ko'raylik, dedim. Mana endi sahar chog'i zahar ichirdingiz! Men hisobotni qanday qilib u kishiga ko'rsataman? Voqeani qanday qilib izohlayman?! Bunday ishlab, non topib yeguncha, ochdan o'lganimiz yaxshi emasmi?! Xullas, poytaxtda qurib qo'ygan koshonalarimiz, to'plagan boyliklaringiz, unvonlaru mukofotlaringizni saqlab qolmoqchi bo'lsangiz uni bir soat ichida topasiz! Osmonda bo'lsa oyog'idan, yerda bo'lsa qulog'idan tortib bo'lsa ham topasiz! Bir soat ichida yo uni topganingiz haqida raport berasiz yoki arizangizni topshirasiz!

General biror so'z aytishga ham ulgurmadi. Vazirning kinoya aralash aytilgan gaplarini hazm qilib ulgurmasdan navbatchining ovozi eshitildi: "O'rtoq general, viloyat hokimi Po'lat Majidovich va MXX boshlig'i Murtazo Rahmatovich keldilar!"

General otasi quvalaganda qochgan bolakaydek yugurgancha xonadan chiqib ketdi. Matlubov esa og'ir karvon oqsoqollar kabi o'z yoshiga yarashmagan bir holda kresloga yastangancha qahvasini ichib o'tirardi.

Mirtemir Qorasuv arig'i uymalab, chuqur qilgan jarlikdan qo'shninikiga tomon yurarkan, yuqoridagi teppalikda uch kishining turganini payqadi. Sahar chog'i bo'lishiga qaramay ular uyqudan to'ygan odamlardek bamaylixotir suhbatlashib turardilar. Mirtemir oldinga yurishini ham, orqaga qaytishini ham bilmay qoldi. Yana bir qadam qo'ysa, oyoq sasidan ular sezib qoladigandek tuyuldi. Amma nega shu paytgacha ko'rishmadi? Yo bular ham Lutfillo bilan Rustamning odamlarimi?

Bu jumboqni yechishning birdan bir yo'li yo oldinga yoki orqaga yurish edi. Bir joyda to'xtagan bilan jumboq hal bo'lmasdi. Mirtemir hech narsani ko'rmagandek oldinga yurib ketdi. Yuqoridagilar ham hech narsani ko'rmagandek gaplashib turishardi.

Mirtemir ko'shninikiga o'tgach, orqaga qaradi. Turganlardan biri Mirtemirning hovlisini ko'rsatib bir nimalar dedi. Ular yugurib ketdilar. Mirtemir ular oyoq tovushlarini eshitmay qolishganining sababini birdan angladi. Chunki qo'llarida ovoz uzatgichlar bo'lib, ulardan shovqun-suron orasida allaqanday tovushlar eshitilayotgandi. Hatto Mirtemir qo'shnining hovli etagidagi pataxib ketgan, sariq chechaklar o'rab olgan gullarning orasidan o'tib uyga kirgunga qadar ham ovoz uzatgichning sasini eshitib turdi. Bunday paytlarda odamning aqli ko'r, fikri soqov bo'ladi, deb o'yladi u.

Qo'shnisi Sasha esa unga xayol surish uchun vaqt bermadi. Darhol uni "Jiguli"ning bagajinigiga "joyladi"-da, darvozani ochib mashinani tashqariga olib chiqdi. Darvoza ochiq qoldi. Sasha tashqarida to'xtab ham turmasdan orqa yo'ldan mashinani yeldirib ketdi. Kichkinagina kulbaga qamalib qolgan kishidek kulcha bo'lib yotib olgan Mirtemir shu daqiqada faqat yo'lni o'ylayotgandi.

Ha, chap tomondagi teppalikdan o'tdik, tennis kortining orqasidagi yo'lakchadan borayapmiz, hozir pastga tushamiz, keyin chapga, hovuzning yonidan o'tib, stadion oldidagi yo'lga chiqamiz. Katta yo'lga chiqqandan keyin mashina to'xtadi. Sasha mashinadan tushib qayergadir borib keldi. Yo'lning davomini Mirtemir taxmin qila olmadi. Chunki mashina juda tez borardi. Bir necha burilishlardan keyin bir joyda to'xtadi.

Sasha "kapot"ni ocharkan:

-Qo'shni chiq, hech menga ishonmasding! Hatto salom-aligimiz ham yaxshi emas edi. Mana endi bir-birimizni sinadik. Xudo hohlasa yana ko'rishamiz, – dedi.

-Rahmat, – dedi Mirtemir. – Bu xizmatlaringni unutmayman. Bir kun qaytarman.

-Qaytib kelganingdan keyin yarimta quyib bersang ana o'sha javobi bo'ladi, – deb hazillashdi Sasha va yugurib borib darvozaning yonidagi darichani ochdi, boshi bilan "ichkariga kir" deya ishora qildi. So'ng darhol mashinasiga o'tirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Mirtemir darvozaxonada nima qilishini bilmay turgandi, ichkaridan bir ayol chiqdi:

-Assalomu alaykum, Mirtemir aka keling. Akangiz sut, qatiq olishga ketdilar. Hozir qaytadilar, – dedi.

Mirtemir “akasi” kimligini o‘ylab turgandi, daricha ochilib “men keldim” degan ovoz eshitildi. Kelgan odamning qo‘lidagi to‘rxaltada sut va qatiq shishalari

borligidan “akam” shu kishi bo‘lsalar kerak, deb o‘yladi.

Kelgan odamning yuzida ham samimiyat, ham mamnunlik va ayni paytda kayg‘u alomatlari bor edi. U qo‘lidagi to‘rxaltani yerga qo‘ydi-da yugurib kelib Mirtemirni quchoqlab oldi. Yoshi Mirtemirdan katta bo‘lsa ham:

-Mirtemir aka, hammasidan xabardorman. Men Lutfilloning pochchasi bo‘laman,
– dedi.

-Bu yerga kelganimni qo‘shnilaringizdan birortasi ko‘rgan bo‘lsa, sizga zararim tegib qolmasin, – dedi Mirtemir.

-Hozir o‘sha qo‘shnilardan birining uyiga o‘tamiz, birozdan keyin boshqasinikiga. O‘rtada darchamiz bor. Shu zayilda xavotiringizni yo‘qotamiz, – deya hazil qilgan bo‘ldi uy sohibi. –Ha, darvoqe, ismim Vahob, o‘qituvchiman. Bolalarni saharlab buvisinikiga olib borib qo‘ydim. Bola bola-da sizni ko‘rib qolsa, biror gap chiqmasin, deb o‘yladim. Hech xavotir olmang, qo‘shnilar haqidagi gapim hazil. Darvozamiz yoniga mashina kelib to‘xtasa, qo‘shni uylardan ko‘rinmaydi. Chunki har ikki tomonga majnuntol ekib qo‘yganmiz. Hatto durbin bilan qarasa ham biror narsani payqashi qiyin.

Uy bekasi besh daqiqada sutchoy hozirladi. Kosaning ichiga uy nonini to‘g‘rab, bir hovuch yong‘oq, sarig‘ yog‘, murch tashlabdi. Beka dasturxonga har turli ne‘matlar keltirib qo‘yarkan “Ha, yer yutsin bu qattollarni. Bular faqat xalqning haqini yeydilar, xalqni o‘ylagan odamlarni esa yo‘qotadilar” der edi. Birozdan keyin turmush o‘rtog‘ining yoniga o‘tirib, Mirtemirga savol berdi:

-Bolalaringiz to‘rtta deb eshitgandim, to‘g‘rimi?

-To‘g‘ri. Lekin qayerdan eshitdingiz?

-Sizga o‘xshaganlarni xalq yaxshi taniydi. Qiziqamiz, surishtiramiz. Mana endi boshingizga tushganini ham ko‘rib turibmiz. Ukamning og‘ir kunlarida yordam berganingizni ham bilamiz. Siz haqqingizda gapirib bergan edi.

Ko‘p o‘tmay ular “Uy-joyimiz sizga omonat” deb darvoza va darchani tashqaridan qulflab ishga ketishdi.

Mirtemir uch kun bu xonadonda mehmon bo‘ldi. To‘rtinchi kun ayvonda kitob o‘qib o‘tirganda “gurs” etib tomdan bir kishi o‘zini yerga otdi. Bu Lutfillo edi.

-Uch kundan buyon hammayoq alg‘ov-dalg‘ov, qamalmagan odam oz qoldi. Menga ham “Agar topib bersang, generallikka tavsiya qilamiz” deyishdi. Xullas, katta bir romanga sig‘adigan voqealar yuz berdi. Hozir esa ketishimiz kerak. Ahmad viloyat chiqishida kutib turadi. Men sizni shahardan olib chiqmasam, boshqa hech

kim olib chiqolmaydi. Hamma yo‘llar bog‘liq, har bir mashina tekshirilmoqda. Pochcham kalitni berib qo‘yaman degandi, unutibdi. Tomdan o‘tishimizga to‘g‘ri keladi.

-Qo‘shnilar-chi?

-Bu yerdagilar hammasi o‘zimizniki. Hatto hozir meni tashqarida ko‘rgan qo‘shnilardan biri “Akani choyga chaqiraylik dedigu yana mulohaza qildik. Ko‘ngillariga biror narsa kelib qolmasin, deb. Nima bo‘lsa ham eson-omon chiqarib qo‘ying” dedi.

-Demak, odamlarga ishonib, to‘g‘ri qilibmiz! – dedi Mirtemir. So‘ng: – Ammo bu gapim qizil gap bo‘ldi, – dedi.

-Qizil gaplar ham ba‘zan haqiqatni ifoda etadi, – dedi Lutfillo.

Ular tomdan o‘tib tashqarida turgan mashinaga mindilar. Mirtemir mashinaning orqa o‘rindig‘ida yotdi. Lutfillo uning ustiga ko‘rpacha tashlab qo‘ydi. Shahardan chiqishda tekshiruv punkti yonida to‘xtab, qidirilayotgan “jinoyatchi” topilib topilmagani haqida so‘rab surishtirgan bo‘ldi. So‘ng viloyat chegarasidan o‘tib, mashinani to‘xtatdi va Mirtemirga:

-Siz bizning Hamzamiz bo‘lasiz,-dedi. Mirtemir o‘ylab ham o‘tirmasdan,

-Ammo mana shu gapingiz yoqmadi,-deya javob qaytardi. Ular shu zayilda na sovuq, na iliq xayrlashdilar...

O M A D [1 9]

G‘o‘bdin tog‘i etaklaridagi lalmi yer shudgorlangan va qushlarning gala-gala bo‘lib “ov” qilayotganlaridan don ham sepilgani anglashilardi. Qushlar o‘z “ishlari”ga shu qadar g‘arq bo‘lgandilarki, yoniga borib qolganingizni ham sezishmasdi.

“Tahluka” deya biri ogohlantirdi, shekilli, “gur” etib bag‘irlarini yerdan uzdilar. Mirtemir boshini qiyalamaganda qarg‘aning qanotlari yuziga urilardi.

-Qushlarni cho‘chitdik, – dedi Ahmad qo‘njidagi mashrafani chiqarib, sovib qolgan choydan ho‘plarkan. So‘ng u belboqqa tugilgan shirmoy nondan bir burda sindirib Mirtemirga uzatdi. – Antiqa hidi bor. Qandaydir giyoh Alishsa kerak ichiga.

Bodiyon hidiga o‘xshaydi, – dedi.

-Rahmat. Choydan bir ho‘plam icharman, labim qurib qolayapti, lekin non yegim yo‘q, – dedi Mirtemir.

-Yo‘limiz hali uzoq. Buning ustiga shudgorga tushdik, yurish og‘ir. Bir burda bo‘lsa ham yeb olsangiz kuch berarmidi?

Shudgor... Mirtemir atrofga nazar soldi. Har yer – har yerdan bug‘ ko‘tarilmoqda. Demak, kun ochiladi. Har holda ikki-uch kun oldin shivalab yomg‘ir yoqqanki, shudgorning ba‘zi joyi quruq, ba‘zi joyi loy. Quruq va ho‘l birdaniga oyoqqa yopishsa ajralishi ham qiyin ekan. Tuflidan ajralsin, deya oyoqni biror kesakka urasiz, yana bir parcha loy osiladi. Sudrab ketaverasiz... og‘ir. Oyog‘ingizni orqaga tortayotganga o‘xshaydi. Tizzalar sancha boshlaydi. Birdaniga loy uziladi. Yengil tortasiz. Lekin bu yengillik uzoqqa cho‘zilmaydi. Oyog‘ingiz yana og‘irlasha boradi.

Buning ustiga Mirtemirning oyog‘idagi tuflisi nobop. Osti nozikligi bir taraf, poshnasini tilayotgani, “urayotgani” ikkinchi taraf. Shoshganda oyog‘iga to‘g‘ri kelganini “ilintirgan”da. O‘sha payt oyoq kiyimi xayolga kelarmidi? Endi o‘ylasa oyoq kiyimi ham juda muhim ekan. Hozir boshqa dardi yo‘q. Xayoli harchand boshqa tomonlarga ketib qolmasin, oyog‘ining og‘rig‘i ortga tortadi. To‘xtab, oyog‘iga qaragisi kelardi-yu, Ahmaddan uyalardi. U ketib borardi. Ancha oldinda.

Tangri yordam beraman desa, eng e‘tiborsiz daqiqada ham dastaklashning yo‘lini topadi. Mirtemirning ko‘zi shudgor o‘rtasidagi toshbaqaga tushib qoldi. “Yoppirim, bu yerda nima qiladi? Qanday kelib qoldi ekan? Balki yer ag‘darilmasdan oldin kelib qolgandir? Xayriyatki, traktorning oyog‘i, zanjirlari ostiga tushmabdi. Necha kundir bu yerda ekan? Balki oilasi bordir buning ham? Qayerda qoldi ekan? Qanday qismat ayirdi ularni? Dunyo qiziq. Toshbaqalar orasida kin, adovat, ta‘qib, quvg‘in yo‘q. Bu ishlarni qoyilmaqom qilib bajaradigan mirshablari yo‘q. Lekin shunga qaramay bu poyonsiz shudgor o‘rtasida qolgan. Na o‘t bor, na suv. Ammo yashayapti...

Uzoqdan chalingan hushtak sasi Mirtemirning xayolini bo‘ldi. O‘h, ho‘, Ahmad uzoqlashib ketibdi. U qo‘li bilan tezroq keling, ishoratini qildi. So‘ng shudgor etagi tomonni ko‘rsatdi. Uzoqda nuqta ko‘rindi. Nuqta yurib borayotganiga ko‘ra mashina bo‘lishi kerak. Demak yo‘l. Balki... Yana hushtak... Ahmad bir narsani topgandek, qo‘li bilan “Tez kel” ishorasini qilardi.

Mirtemir loyli oyog‘ini sudragancha ilgari ketdi. Ahmadning yoniga yetib kelganda o‘pkasi og‘ziga tiqilgandek arang nafas olardi.

-Nima gap? -dedi u Ahmadga.

-Ko‘rmayapsizmi?

-Nimani?

-Mana bu toshni, mana bu buloqni...

Mirtemirning yuzi yorishdi. Darvoqe, qanday ko‘rmadiykin? Ha, ba‘zan inson ko‘zi ochiq bo‘la turib ham oldidagi narsani ko‘rmaydi.

-Xudoga shukur, o‘tirib hordiq chiqaradigan joy ham topdik, hatto bulog‘i bilan. Buning ustiga yo‘l ham yaqin ekan. Yarim soatlik yo‘l... Qani o‘tiring... Mirtemir dasturxonni ham ko‘rmabdi. Tosh ustiga Alingan belbog‘da shirmoy non to‘g‘rab qo‘yilgan, yonida po‘sti artilmasdan ezilgan piyoz.

-Piyozni qayerdan oldingiz?

-Yo'lga piyozsiz chiqadilarmi? Cho'ntakka bittasini tashlab qo'ygandim.

Mirtemir tegirmon toshi kabi katta va yoyiq toshning bir chetiga o'tirarkan, yana oyog'i esiga tushdi. Paypog'i ho'l edi. Chiqarib, qarasa poshnasi g'ijja qon. "Shunisi kam edi", deb o'yladi.

-Eh, he, ilgariidan yarasi bormidi yoki yo'lda bo'ldimi? – so'radi Ahmad.

-Har holda bojamning tuflisini kiyib chiqqanim ayon. Ikkimizniki ham bir xil. Faqat bittasi katta, bittasi kichik.

Ahmad xayoliga latifa kelgan kishidek jilmaydi. Lekin hazilning joyi emas edi.

-Chorasi bor, – dedi u. – Endi tuflining orqasini bosib yurasiz. Mayli qo'lingizni yuving. Biror narsa yeb oling, ketamiz.

Mirtemir toshbaqani o'ylay boshladi. Balki uning so'ng omadidir bu? Balki bu damni kunlar davomida kutib yotgandir? Shunday poyonsiz shudgorda nega uning oldidan chiqdi?

Ha, Mirtemer qancha odamlarga yaxshilik qildi. Shudgor o'rtasida qolib ketganlarni olib chiqdi. Balki shularning javobidirki, o'limdan qoldi.

U o'rnidan turib kelgan tomonga yurib ketdi.

-Qayoqqa?

-Toshbaqani olib kelayin...

-Qanaqa toshbaqa?

Ha-ya, Ahmadga aytmabdi. Ikki og'iz qilib tushuntirib berdi.

-Men bo'lsam, charchab to'xtab qoldingiz, deb o'ylabman. Siz toshbaqani ko'ribsiz-da!

Ahmad ham uning yonida borardi. Ammo toshbaqa qayerda edi? Somon qopning ichiga tushgan ignani toping-chi? Topolmaysiz. Ammo qopni ko'tarsangiz, igna yelkaga botishi hech gap emas. Xuddi shunga o'xshab, toshbaqani uchratib qoldi... Lekin nega ninaga o'xshatdi birdan. Yo'q. Toshbaqa xosiyatli deyishadi.

-Qayerda edi? – deb so'radi u.

-Mendan so'rayapsizmi? O'zi rostdan ham toshbaqani ko'rdingizmi? Tag'in sarob bo'lmasin, – dedi Ahmad.

-Sarob... Shudgorda ham bo'ladimi?-Toshbaqa shudgorda bo'lsa, demak sarob ham ko'rinishi hech gap emas.

Ular oxiri oyoq izini aniqlashdi. Keyin shu iz bo'yicha biri chap tomonni, ikkinchisi o'ng tarafni qidirib yura boshlashdi. Osmon uzoq, yer shudgor. Toshbaqa esa yo'q.

-Nima qilamiz? – dedi Ahmad.

-Topamiz, – javob qildi Mirtemir.

–Bizni izlamayotganlaridek gapirasiz-a? Buning ustiga oyog'ingiz...

-Bizni astoydil izlasalar topadilar. Ammo kattalar buyuradi, bu yoqdagilar yo'ligagina izlaydilar.

-Unday ekan, nega shudgordamiz? Yo'lga chiqaylik.

-Hazillashdim, taqsir. Toshbaqani astoydil izlaylik, dedim-da.

-U shu qadar muhim-mi?

-Muhim. Ikkimizning ham holimiz ayni. Uni qutqarish uchun Tangri shunday bepoyon shudgorda bizga ro'baro' qildi. Biz esa... Meni qutqarishdi. Uni esa...

-Shoir bo'lib ketdingiz!

-Mayli, siz qaytib, choy ichib turing, men uni topaman.

-Men bo'lsam topdim, – dedi Ahmad, – ana...

Ular birdan kallasini toshi ostiga bokitib olgan toshbaqaga egilishdi. Boshlari bir- biriga urildi.

-Demak, Siz..., – dedi.

-Siz qutqarishingiz kerak ekan.

Ammo Mirtemirning javob beradigan holi yo'q edi. Ko'z oldida yulduzlar uchib yurgandek bo'ldi. Boshi devorga urilgan kishidek, bir lahza muallaq bo'shliq qo'ynida qoldi. Shudgorning bir tomoni ko'tarilib osmonga ulashib ketdi. U tiz cho'kib qoldi. Va... xayoli birdan oyog'iga qarab yugurdi. Demak, oyog'i og'riyapti, boshi emas. U o'rnidan turaman deganda Ahmad qo'ltig'idan tutdi...

Ular toshbaqani buloq bo'yidagi o'tlarning ichiga qo'yib yuborishdi. Mirtemir ilk bor toshbaqaning xuddi qo'y kabi o'tni "chitir-chitir" yeyishini ko'rdi. Balki ilgari ham ko'rgandir. Lekin bu qadar e'tibor bermagandir. Nima bo'lganda ham u yengil tortdi.

-Tamom, qutildik, qo'lga tushmaymiz endi, – dedi u.

–Nima, qo‘lga tushish niyatingiz ham bormidi? Bu savolga Mirtemirning javob bergisi kelmadi.
-Toshbaqani olib ketamiz. Adrga chiqsak qo‘yib yuboramiz, – dedi.

-Zotan mening qo‘lim band, mashrafa, belbog‘...

-O‘zim olib boraman. Bu mening omadim. U yo‘limdan chiqdi. Qismatimiz ayni ekan...

Ular uzoqdan ko‘ringan va g‘oyib bo‘lgan nuqta tomonga qarab yurishdi. Bu paytda kun biroz ochilgan, quyuq bulutlar bag‘rini yorib lip-lip etib bo‘lsa-da ko‘rinib turardi. Qora bulutlar esa loyqa ariqning suvi kabi bosa-bosa oqib borishardi...

A N B A R X O L A [2 0]

Katta yo‘l deganlari ilon izi yo‘l ekan. Ora-burada mashina yurganiga ko‘ra, bu yaqinda biror qishloq bor. Ular shu umidda adrni oshgandilar, qishloq emas, katta kasaba ko‘rdilar. Ammo bu ularni sevintirmadi.

-Bormaymiz, – dedi Ahmad.

-Chetlab o‘tib ketaveramiz, – javob qildi Mirtemir.

-Umuman kunduz kuni dam olib, kechasi yurish kerak. Menimcha ana u daraxtzorga qadar borsakda, o‘sha yerda oqshomni kutsak.

-Mayli-yu... lekin kasaba chetidagi uyni ko‘rayapsizmi? – dedi Mirtemir. – Tomi biror narsa bilan qoplanmagan. Hovlisining ham devori yo‘q. Bir g‘arib odamning uyi. G‘ariblar esa mard bo‘ladi. O‘sha yerga boramiz.

-Zarracha tahlika bo‘lsa ham chetlab o‘tmoq kerak, – e‘tiroz bildirdi Ahmad.

-Tahlikani chetlatib yashash qiyin. U kutilmaganda keladi. To‘g‘rirog‘i u yonma- yon yashaydi.

-Demak fikringiz qat‘iy, kettik bo‘lmasa...

Hovliga yaqin kelganlarida bir kampir sigir sog‘ayotganini ko‘rishdi. Mirtemirning yodiga bolaligi tushdi. “Sariq” laqabli sigirlari bor edi. Oyog‘ini bog‘lab, keyin sog‘ardilar. Rahmatli onasi sahar sigir oyog‘iga o‘ralgan ipni ushlab turish uchun kimnidir uyg‘otishi kerak edi. Bolalar o‘zaro navbat qilib olishgandi. Onasi esa ko‘pincha Mirtemirni uyg‘otardi.

-Tur bolam, suyanganim san, sendan boshqasining menga yordam bergisi kelmaydi. Hammasini sotib senga yediraman, – derdi onasi.

Bir kuni sigir oyog‘idagi ipni tutib turarkan, “Rostdan ham opalarimni sotasizmi?” deb so‘radi.

-Bolam, qiz birovning moli. Sotsam-sotmasam chiqib ketishadi. Sotish degan gap uzoq qishloqlarda bor. Biz esa o'zimizdan qo'shib beramiz. Qiz chiqqan uy huvillab qoladi, kelin kelgan uy guvillab...

Onasining gaplarni terib-terib, shirin ovozda so'zlashiga mahliyo bo'lib, ip uchini qo'ldan chiqarib yuboribdi, "Sariq" qars etib chelakni tepib yubordi. Seskanib ketgan onasi orqaga yiqildi.

-Ha, yer yutgur, oyog'ing sinsin..., – dedi arang o'rnidan turib.

Mirtemir esa qo'rqib qolgandi. Birdan issiq qo'l boshini siladi. Onasi uni bag'riga bosdi.

-Qo'rqma bolam, – dedi. – Faqat oqshomgi sut oz edi. Buni ham ko'shib bozorga olib borardik. Endi o'zimiz ichamiz. Qaymog'i esa seniki...

Shu payt "Sariq" Mirtemirning onasini ham tepib yubordi. U egilib qolgandi sigir yana tepdi. Bu safar ona qabirg'asini tutamlagancha "ih"- "ih"lab o'tirib qoldi. Mirtemir oxurga tirab qo'yilgan belkurakni olib sigirning oyog'iga ura boshladi.

-Urma bolam, urma, jonivor qarg'aydi, qarg'ishi yomon, urma, deya uning qo'lidan belkurakni olib o'zi urdi "Sariq"ni. Keyin esa yoniga borib boshini siladi.

-Juvonmarg bo'lgur, nega bunday qilasan? Yo bolangning haqini hech kimga berging yo'qmi? Mirtemir buzoqni yechib yubor, bolam, men egila olmayapman. Ha, "Sariq" bo'lmay ket-a, qabirg'amni sindirdingmi, deyman?..

...Mirtemir sigir sog'ayotgan kampirni orqadan onasiga o'xshatdi.

-Onalar bir-birlariga o'xshaydilar, – dedi so'ngra. – Ammo topdim. Bu yangi gap, yozib qo'ying.

-Onalar bir-birlariga o'xshaydilar, bolalar esa yo'q, – qo'shimcha qildi Ahmad. – Yozib qo'ying!

-O'zimga qoldi yozish. Demak, shu hovliga kiramiz.

-Ammo kiradigan darvoza yo'q.

-Faraz qilamiz. Kambag'allar faraz bilan yashaydilar. Bu kampir ham o'z hovlisi, darvozasi borligini faraz qiladi. So'ramasdan kirishga qo'ymaydi...

Ular kampir sut sog'ib bo'lguncha kutib turdilar. "Ham sersut ekan, xam yovvosh" deb o'yladi Mirtemir. Kampir buzoqni qo'yib yuborib, chelakni qo'lga olgach, ularni ko'rib qoldi.

-Zimnamermi, debman, – Kelinglar. Bugun yerni o'lchash uchun zimnamer kelishi kerak edi-da. Voy, sen, bolam, Mirtemir emasmi, ha, o'sha, televizorda chiqadigan? Ha, aylanib ketay, qoqindiq, seni ham ko'radigan kun bor ekan-a?

U Mirtemirni xuddi o‘z o‘g‘lidek bag‘riga bosib, yuzlaridan cho‘lpatib o‘pdi.

-Kino olishga keldingmi, bolam? – deb so‘radi kampir.

-Yo‘q, onajon, o‘zimiz kino bo‘lib yuribmiz.

-Voy, voy, uni qara tovushlari aynan o‘zi, ha, ha, o‘zingsan, Mirtemirsan... Nima bo‘lganda ham kelganing yaxshi bo‘ldi. Xudoyimdan aylanay, seni ko‘rsatdi, menga. Shunaqa dardim ko‘pki, kinoga olsang, hammani yig‘latasan. Darrov ishga o‘tdim. Kampir qalampirni eslatadi, ham achchiq, ham ishtaha ochar. Men

achchiqdan boshladim. Qani enaginam, uyga kiringlar, hozir choy qo‘yaman... Kampir ichkariga kirar ekan,

-Bu yog‘i qanday bo‘ldi? – dedi Ahmad Mirtemirga.

-Hammasi stsenariy bo‘yicha. Peshonaga yozilgani bo‘ladi. Men qayoqdan bilardim, yetmish yoshli kampir bir ko‘rishda tanishini?!

-Xullas, chiqib ketishimizga tobora ehtimol ozaymoqda.

-Ehtimol ozaysa, ehtimollar nazariyasi bor. Qoziq boshiga musht kelishini bilganda balki qoziq bo‘lmasdi, agar qoziq bo‘lish ehtimoli o‘z qo‘liga berilganda.

-Demak uyga kiramiz.

-Siz kiravering, men xolaga tushuntiraman.

-Hali hamma gapni aytasizmi?

-Aytish kerak. Bo‘lmasa...

Ahmad ichkariga kirarkan, Mirtemir oshxona tomonga yurdi.

-Enajon, ke, – dedi kampir. – Bugun posyolkada ma‘raka bor. Kelganingni hammaga aytaman. Men ham bir maqtanay. Bir paytlar katta shaharga borganimda tanishgandim, meni so‘roqlab kelibdi, deb aytaman...

Mirtemir bor gapni kampirga anglatdi. So‘ng:

-Ma‘rakada gapirib yurmang, keyin Sizni ham so‘roqqa tortishadi, – dedi.

-Meni nima ham qilishardi? Bir oyog‘im go‘rda bo‘lsa?! Boya aytmam ham endi aytaman! Karimov nima qilayotganini bilib olishsin. Keyingi vaqtda ko‘rinmay qolganingdan ham sezgandim. Hatto ba‘zi gaplar yetib keluvdi, ammo ishonmovdim. Qara-ya hammasi to‘g‘ri ekan.

-Enajon bizga yordamingiz kerak.

-Yordam sendan aylansin, bolam. Ammo Karimov televizorga chiqsa, shunaqa gapiradi-ki, hammani ishontiradi. Butun ayb atrofdigilarda ekan, deb o‘ylab qolasan. Ba‘zan yig‘lagudek bo‘lib ketadi. Ammo men ishonmasdim. O‘zi yig‘lagudek bo‘lsa ham ko‘zi kulib turardi. Ko‘zi odamni masxara qilayotganga o‘xshardi. Hamma ham bir emas. Ishonishadi. Sen majlisda bir nima deb yuborgan ekansan, qancha gap-so‘z bo‘ldi. Biri to‘g‘ri aytdi desa, biri mahmadana ekan, kattalarning yuziga

“chopdi” deydi. Bular yo kattalarning, ya‘ni o‘zimizning posilkadagi kattalarning xotinlari yo yaqinlari. Aslida ular ham gapning gugurt qutisini biladilar, qachon yonib, qachon o‘chishini mendan yaxshi biladilar, ammo yuzlari boshqa, ichlari boshqa. Qachon boshlariga bir ish kelsa ko‘zlari ochiladi... Ha, mayli, sizlarga ana u issiq uydin joy to‘shab beray, uxlanglar. Halizamon zimnamir keladi. O‘g‘limga xam xabar yuboray, kelsin, bo‘lmasa bu zimnamir hammayoqni o‘lchab, garang qiladi.

Uyimni buzishmoqchi. Posilkaga yarashmas emish. Buzdirmayman devdim, tomorqamni o‘lchashga qo‘ydilar. Qani ichkariga kir, kelib qolsa ko‘rmasin. Ularni go‘rba-go‘r etsam, ma‘rakaga borib qaytaman. Bormasam “Lakki xola” nega kelmadi, o‘lib qoldimi, deb shubha qilishadi. Kelib osh damlayman...

Mirtemir uyga kirayotganda, kampirning “vah” deb yuborishidan cho‘chib ketdi.

-Vah, vah, vah, bolam! Oyog‘ing qonsho‘rva bo‘lib ketibdi-ku! Ha, yigit yiqilgurlar-a! Bu bola senlarga nima qildi? Haqni aytsang Haqdan yeysan, deganlaridek bo‘lib chiqdi. Hozir tog‘orada suv olib kelaman. Margansofka ham bor. O‘zim yuvib qo‘yaman...

Xola bir zumda tog‘ora ko‘tarib keldi.

-Qani oyog‘ingni tiq. Men o‘zim yuvaman.

-Yo‘q, enajon, o‘zim...

-Enajon degan tilingdan aylanay, odam o‘z enasiga ham inonmaydimi?

Mirtemirning ko‘ziga yosh seli keldi. Oyog‘iga issiq suv tegishidanmi yoki bu qaqajon kampirning mehridanmi erib ketdi. Ammo yosh selining yo‘lini to‘sdi. Xuddi ko‘ziga xas kirgani kabi “Bir narsa ko‘zimga kirdiyov” degandi tovushi titradi. Lekin bildirmadi. Kampir o‘tirib olib uning oyog‘ini yuvaradi. Bir tomondan o‘zi xam yuva boshlagandi, kampir:

-Sen qo‘lingni kir qilma bolam, aziz bolam, – deb Mirtemirning qo‘lini tog‘oradan chiqardi.

Mirtemirning yodiga buvisi tushdi. Boyadan beri bu kampirning yuzidagi mehr kimnidir eslatayotgandi. Ha, Anbar buvisi. Faqat buvisi oz gapirardi. Ammo juda o‘xshab ketadigan tomonlari ko‘p.

Har oqshom tog'orada issiq suv keltirib, Mirtemirning oyoqlarini yuvaradi. Olti yoshga qadar buvisinikida yashadi. Shu qadar ko'p shirin xotiralari borki, aytsa birov ishonmaydi. Olti yoshdagi gaplar esda turadimi, deydiganlar qancha. Ammo Mirtemir hatto buvisining oyoq yuvgandan keyin barmoqlarini tortib-tortib

qo'yishiga qadar eslaydi.

Anbar buvi... oyoqlarini yuvmoqda...

Kayfiyati chog'ligidanmi, oyoqlarini issiq suvda yuvgandanmi, charchaganidanmi Mirtemir toshdek qotib uxladi. Bir payt uyg'onsa, Ahmad deraza pardasidan tashqarini poylayapti. Oqshom tushib qolibdi. Qadam tovushlari, shovqin... Mirtemir ham parda orasidan qaragandi ko'zi mirshabga tushdi. U supaning ustida u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa borib kelayotgandi.

-Somonxona shu yer ekan, – dedi Ahmad.

-...

Mirtemir “Nega kutishayapti? Markazga xabar qilishgan bo'lishsa odam kelishini kutishayaptimi?” deya o'yladi. Ammo qanday xabar topishdi? Nahotki kampir og'zining bir chetidan qo'yib yubordi? Yo'q, yo'q, hech bo'lishi mumkin emas.

-Nima qilamiz? – dedi Ahmad.

-Kutamizmi? Yo'q. Chiqamiz. Mirshab bir o'zi. U ham odam. Tushuntiramiz. Tushunmasa boshga kelganini ko'ramiz. Kutish esa vahima.

-Yaxshilab o'ylab ko'raylik.

-O'n marta o'ylasak ham, devorni teshib chiqib ketish imkoniyati yo'q. Eshik esa bitta. Baribir shu eshikdan chiqamiz. Qancha tez chiqsak, shuncha yaxshi.

Mirtemir apal-tapal kiyindi-da yo'talgancha “Biz uyg'oq” ishorasini berdi. Militsioner eshitmadi shekilli borib kelaverdi.

-To'xtang, – dedi Ahmad eshik tomon yurgan Mirtemirga. – Xom ish qilib qo'ymaylik. Balki militsionerning xabari yo'qdir? Balki uning kampirda biror ishi bordir?

Mirtemir turgan joyida qotib qoldi. Nega bu tomonini o'ylamadiykin? Darvoqe, kampir yer o'lchovchilar keladi degandi. Biror gap chiqqan bo'lsa-chi? Masalan, kampir ularni yaqinlashtirmay quvgan bo'lishi mumkin!

-Demak, demak, ikkinchi eshik ham bor ekan.

-Izlasalar uchinchisi ham topiladi, – dedi jilmayib Ahmad. Shu payt tashqaridan ovoz keldi.

-Hov, Iskandar, kiraver, guldur-guldur ovoz kelayapti. Uyg'onga o'xshashadi.

Turishsin, osh tayyor.

-Ena noqulay bo'larmikan, o'zingiz kiraqoling..., – dedi mirshab

-Biz o'zimiz chiqayapmiz, – dedi yengil ovozda Mirtemir.

-Chiqmang, chiqmang, men o'zim ichkariga kiranman, – deya mayor ostonani hatlab uyga kirdi. – Assalomu alaykum, xavotir olmanglar, hammasidan xabarim bor. Hatto rasmingiz ham keldi. Katta mukofot qo'yilgan.

Mirtemir mayor bilan ko'risharkan:

-Qancha mukofot qo'yishibdi? – dedi kulimsirab.

-Yigirma milyon so'm va bitta yengil mashina, bunga qo'shimcha unvon...

-Demak, sizni tabriklasa bo'ladi, oling shu pulni, mashinani va unvonni. Evaziga mana shu uyning tomini shifer qilib berasiz.

-Mirtemir aka, biz bunday yolg'onlarga ishonsak yoki sotilsak, eng kamida Ichki ishlar vazirining o'rinbosari bo'lardik. Tomga kelsak, enam istamaydilar. Yangi uy qurib qo'yibman, bormaydilar.

-Rostdan ham o'g'illarimisiz?

-Aks holda bu yerda nima qilaman? Ikki o'g'ilmiz. Ukam sovxozda, traktorchi. Men suv olib kelay, qo'lni yuvinglar, osh tayyor.

-Yo'q, uzimiz tashqariga chiqamiz.

-Yarim soatda butunlay qorong'u bo'ladi, keyin chiqasiz. Shunday ham sizni bolalar ko'rishibdi.

-Yo'g'e, qayerda ko'rishibdi? – suhbatga aralashdi Ahmad.

-Qabristonning yonida.

-Qabriston?

-Ha, yuqorida eski qabriston bor. Sizlar e'tibor bermagan bo'lishlaringiz mumkin. Xarobaga aylangan. Ammo tepalikdan hamma joy ko'rinadi. Bolalar mol boqib yurishgan ekan, uzoqdan sizni ko'rishibdi.

-Tanishibdimi?

-Xudoga shukurki yo'q. Ammo momoyning uyiga o'g'ri keldi, deb aytishibdi.

-Siz shuning uchun keldingizmi?

-Shu kunlarda posyolkaga o'g'ri oralagan. Ikki-uch kishining qoramolini olib ketishdi. Shu sabab hamma hushyor. Xayriyatki, bo'limga xabar kelgach, o'zim yo'lga chiqdim. Yigitlarni yubormaganim yaxshi bo'libdi. Enam yer o'lchovchilar keladi, degandilar, bolalar balki adashtirgandir, deb o'yladim. Ammo ko'nglim tinchimadi. Bir xabar olayin, dedim.

-Iskandar, o'g'lim, mendan ham ko'p gapirasana? – oshxonadan kampirning ovozi keldi.-Men oshni suzdim. Mehmonlarni katta uyga boshla, o'sha yerda gaplashasizlar.

-Kechirasiz, enamning ismlari nima? – deb so'radi Mirtemir mirshabdan.

-Anbar...

-Yo'g'e...

-Nega ajablandingiz?

-Buvimning ismlari ham Anbar edi. Boya “Buvimga o'xsharkanlar” deya o'ylagandim, shuning uchun.

-Buvingiz emas, enangiz bu kishi. Sizni shu qadar yaxshi ko'rdilarki, televizorda chiqqan kuningiz bayram. Men ba'zi ko'rsatuvlaringizni videokasetaga yozib olganman. Biznikiga faqat shuning uchun boradilar.

-Rahmat. Ko'nglim uchun gapirayapsizu, ammo...

-Ammo-pammosi yo'q, televizor bilan videomagnitofonni olib kelaman, istasangiz uyga boramiz. Qorong'uda hech kim tanimaydi.

-Ishondim, ishondim...

-Bo'lmasa, marhamat, qarshidagi uyga. Bu xonaning ikki eshigi bor. Biri oshxonaga ochiladi biri bu tomonga! – dedi mayor.

Oshdan keyin:

-Ertaga ham shu yerda qoling, – dedi mayor. – Men vaziyatni o'rganaman. Shunga qarab plan qilamiz. Xudo xohlasa eson-omon chiqib ketasiz.

-Siz ham “vatan xoini”ga sherik bo'layapsiz, – hazil qildi Mirtemir.

-O'sha bitta odam vatan bo'lsa, men xoinman. Ammo biz tushungan Vatan boshqa. Biz tushungan Vatan Sizni sevadi.

-Rahmat. Ammo biz yo'lni davom ettirishimiz kerak, – dedi Ahmad. – Men ham ko'p qolib ketsam qidirishadi. Qolaversa kundan-kunga bosqi kuchaymoqda. Qarindoshlaridan yaqini, keyin do'sti bo'laman. Qidirishlari aniq.

-Bizga ham buyruq uch marta takror keldi. Hozir posyolkada rasmingiz osiqlik. Demakki, hamma joyda shu hol. Biror qishloq yo shaharga kirmasdan, tog'u toshdan yurmoq kerak. Mashina, avtobuslar ham xavfli. Chunki haydovchilarga ham topshiriq berilgan. Xullas, Karimov sizni chiqarib yubormoqchi emas.

-Unda biz ertaroq yo'lga chiqaylik. Kechasi yurib, kunduz dam olamiz. Mayor uzoq o'ylab turdi-da:

-Ukamni chaqiray. Traktori yangi. Baxmalga qadar olib borsin. Traktorni birov to'xtatmaydi. Qolaversa uning ukamligini ham bilishadi. Baxmaldan keyin qo'shni jumhuriyatga yaqin qoladi. O'tib ketasizlar.

Mayor chiqib ketdi-da tez qaytdi. Oradan yarim soat o'tmasdan traktor ovozi eshitildi. Mirtemirlar ko'zg'alisharkan, Anbar xola to'n va do'ppi olib chiqdi.

-O'g'lim, senga ataganman buni. To'nni o'zim tikkanman. Do'ppi esa vodiyaan kelgan.

-Enajon, bizni uyaltirayapsiz...

-Ana ular uyalsin, seni shu ko'yg'a tushirib. Ha, ularga ham Xudoning atagani bor hali... To'nni kiyib olsang birov tanimaydi, ham issiq, ham sovqotmaysan...

Ular xayrlasharkanlar Anbar xola ko'ziga yosh oldi:

-Enangni qayta ko'ra olmaysan... Qayda bo'lsang ham boshing omon bo'lsin, – dedi va Mirtemerni quchoqlab yig'ladi.

-Enajon sekin, birov eshitib qolmasin...

-He, o'sha biror-miorni ham...

Anbar xola jahli chiqqan bo'lsa-da, so'nggi so'zlarini pichirlab gapirdi:

-Sen ketgandan keyin hamma gapni haloyiqqa aytaman, bilib qo'yishsin.

-Enajon, Iskandar akaga ziyoni tegadi. Iltimos, oramizda qolsin, – dedi Mirtemir. Ammo kampir indamadi...

Traktor "sakray-sakray" ilgarilab borardi. Uch kishi kichik kabinaga arang sig'ishib o'tirishgani uchun bir zayilda "sakarardilar". Traktorchil yigit kamgap ekan, ikki soatda bir og'iz gapirmadi. Mirtemir buni oqshom chog'i bezovta qilishgani, kun bo'yi charchaganidan bo'lsa kerak, deb o'yladi va xijolat chekdi. Bir joyga borib traktor to'xtadi.

-Akam shu yerga qadar degandilar...

-Bu yer qayer?-so‘radi Mirtemir.

-Yo‘l bo‘ylab ketaverasizlar, bu yog‘i tinch. Ikki-uch soatda qo‘shni jumhuriyatga o‘tasizlar. Chegaraga yaqin qolganda adrdan yuringlar. U yerda ko‘zga ko‘rinmagan yaxshi. Mana bu ikki tayoqni olinglar, it degan narsa ko‘p bu yerlarda, – dedi u, – keyin xayrlashish uchun ikki qo‘lini uzatdi. Qo‘lida bir nima bor edi.

-Bu nima? – so‘radi Mirtemir.

-Aka, enam berdilar, olmasangiz bo‘lmaydi, momoy niyat qilganlar, iltimos, men kelgunga qadar shuni o‘yladim. Olmasangiz nima qilaman, deb o‘yladim. Siz enamni bilmaysiz, gaplari ikki bo‘ldimi, tamom, olam omonat bo‘ladi.

-Ammo bizga pul kerak emas. Qolaversa shunday ham boshga qadar qarzga botdik, enangiz, akangiz oldida... Endi...

-Aka, ko‘p emas, besh yuz so‘m. O‘nta non bermaydi bu pulga, qadri yo‘qoldi pulning. Ammo enam nafaqa pulidan yiqqanlar. Mayda so‘mliklar bo‘lgani uchun ko‘p ko‘rinayapti.. Men ham enamga buni tushuntirdim. Lekin “Mayli, o‘nta bo‘lsa ham non oladi, o‘zim berardimu xafa bo‘lishadi deb akang qo‘ymadi”, dedilar.

Traktorchi o‘jar chiqib qoldi. Oxiri Mirtemir:

-Ilgarigi sharoitda olsak pora bo‘lardi, hozirgi holimizda gunohi bo‘lmasa kerak,
– dedi-da pulni oldi. – Mayli, ishqilib bu yaxshiliklarni, bu qarzni qaytarish imkonini bersin.

-Ilohi omin, – dedi traktorchi va yugurib kabinaga chiqdi. U jo‘nab ketgandan keyin Ahmad:

-Pul o‘ziniki. Ammo...

-Qayerdan bildingiz?

-Uyda kampirdan “Ena pulingiz bormi?” deb so‘raganini eshitib qoldim. Yo‘lga chiqayotgani uchun cho‘ntagim quruq bo‘lmasin, deb o‘ylayapti shekilli deya tushundim.

-Balki kampir unga ham bergandir?..

-Yo‘q, besh yuz deganini ham eshitdim. – Lokator bo‘ling-e... Lekin nega berdi pulni?

-Yana qaytib kelishingizga umid bog‘ladi.

-Ha, bu xonadonga albatta kelaman, ammo ismini ham so‘ramabmiz.

-Hechqisi yo‘q. Iskandarning ukasi, Tursunboy..., – dedi Ahmad.

-Qayerdan bildingiz?

-Lokatordan!..

Ular tayoqlarini yelkaga qo'yib qorong'ulik qo'yniga sho'ng'idilar. Osmonning olis nuqtalarida ko'rinayotgan yulduzlar ham ular bilan yo'lchilikka chiqqan kabi "yurib borardi". Ammo oy ko'rinmasdi. Har holda qaysi bir bulut to'dasining ortida qolgan bo'lsa kerak. Darvoqe, tun uzoq. Oyning esa chiqishi, ko'rinishi muqarrar.

KARIMOVNING KECHINMALARI [21]

Karimov majlislar binosiga kirib kelganida boshining og'rig'i tinmagandi. Go'yo boshi shishib, arining uyasiga aylangan, son-sanoqsiz arilar g'uwillagancha tashqariga chiqishga uringandek bosh devorlarini tirmalayotganga o'xshardi. U yordamchisidan ikkita pantalgin dorisi olib ichdi. Keyin majlislar zaliga qarab yurdi.

Minbarda Oliy kengash raisi va uning uchun maxsus joy ajratilgandi. Har doim majlisga kirib kelganda oyoqda turib qarshilagan millatvakillari bu safar unga parvo ham qilmadilar. Avvaliga "majlis boshlangani uchun shunday bo'ldi", deb o'zini ovutmoqchi bo'ldi, keyin yuragi orqaga tortdi. Majlis zalidagi sovuq ruh uning vujudini qisib olgandek bo'ldi. Sovuqda qolgan odam kabi etlari junjikdi. Vujudida allanarsalar "jimir-jimir" yura boshladi. So'ngra ko'ksida bir qurt o'rmlayotganini his qildi. Bu qurt ko'ksida emas, yuragining ichida ekan... Oyoqlari ham o'ziga bo'ysinmayotgandi. O'ng oyog'i o'ng tarafga, chap oyog'i chap tarafga tortayotgandi.

Minbarda o'zi uchun ajratilgan joyga qadar bo'lgan o'n qadam masofani bosib o'tish unga bir necha chaqirimdek tuyuldi. Joyiga yetib borganda, stulni orqaga tortish uchun qo'li qovushmadi. Hatto qo'llarim ham menga bo'ysunmayapti. Nahotki, bu millatvakillariga qo'shilib qo'llarim, vujudim menga isyon qilsa?! Yo'q, hali bunday isyonlar ko'p bo'ladi. Bu isyonlarni yengishim, yengishga o'rganishim kerak, deb o'yladi.

Karimov o'z xayollari bilan olisharkan, zalda o'tirganlarga qarash uchun bosh ko'tarishga majoli yo'q edi.

-Majlisni olib borish tartibi haqida qanday taklif bor?

Bu Oliy kengash raisining tovushi. Karimov kirib kelarkan hatto u ham o'rnidan turmadi. Nahotki, kechagi voqealardan boshqacha xulosa chiqargan bo'lsa?! Yo'q, bu qo'rqqoq, isyon qiladigan jasorati yo'q. Bu kabi insonlar qul kabi tug'ilib, qul kabi o'lib ketadilar. Isyon qilish ular uchun o'lim demakdir. O'rnidan turmagani esa befarosatligidan. Unga kim ham "Ho'kiz" deb laqab qo'ygan bo'lsa, uzukka ko'z qo'yguvchi, zargar ekan. Aslida bu uzuk ham bo'lolmaydi. Qo'lni yo qisadi, yo kattaligi uchun barmoqdan tushib qoladi.

Karimov falsafiy mushohadalar qilayapman, deya biroz yengil tortgandek bo'ldi va ko'z qiri bilan asta zalga qaradi.

Alijon Qo'chqorov degan millatvakili dehqonchasiga katta-katta qadam tashlab minbar tomon kelayotgandi. Alijonni Karimov uzoq yillardan beri taniydi. Bir vaqlar Komfirqaning mafkura bo'limida ishlardi. Nimadir bo'ldi-yu uni haydashdi. U paytlarda bundaylar ko'chada qolmasdilar. Yo ular uchun bir lavozim ochilardi yoki maoshlar haqidagi hujjatdan boshqa qog'ozga qo'l qo'yilmaydigan bir idoraga rahbar etib tayinlashardi. Alijonni ham dinga qarshi ish olib boradigan idoraga rahbar qilib qo'yishdi. Zamonning charxi aylanib, bugun u ham millatvakili.

Saylov arafasida ro'yxatlarni nazardan o'tkazganda bu eski kommunist, og'zidan chiqqanini biladi, har qadamini o'ylab bosadi, qayoqqa boshlasak, o'sha yoqqa yuradi, deb ismi-sharifini chizib tashlamagandi. Mana endi isyonchilar safida.

Aslida buning dardi boshqa. U parlament qo'mitalaridan biriga boshliq bo'lishi kerak edi. Hatto suhbatlardan ham o'tgandi. Lekin taniqli olimlardan biri shu qo'mita raisligini istab qoldi. Alijon esa o'rinbosarlikka tushdi. Alami ana shunda. Mendan qasd olmoqchi...

-Oliy kengash majlisini olib borish yuzasidan bir qator jiddiy takliflarni ilgari surmoqchiman, – deya oldindan yozilgan nutqini o'qiyotgandi Alijon.

Kecha kechqurun Alijonning nima haqda gapirishini unga aytishgandi, nutqining

nusxasini ham ko'rgandi. Shu sababdanmi yoki quloqlari shang'illayotgani uchunmi Alijonning ovozini eshitmayotgandi. Ammo uning bugunga qadar mavjud tartiblarni buzish haqida takliflar kiritayotganini bilardi. Karimovni qiziqtirayotgan narsa bunga millatvakkillarining qanday munosabatda bo'lishlari.

Bir qismi, ya'ni isyonchilar uni qo'llashlari aniq. Ammo qolganlari-chi? Uning o'zi bir-bir suhbatdan o'tkazgan, so'ngra ro'yxatga kiritib saylagan va "Mening komandamdan yer olasan" degan odamlari-chi? Ular nima deyilar?

Karimov zalning oldingi qatorlarida o'tirganlarga nazar tashladi. Ularning birortasi ham unga qaramasdi. Ba'zilarining yuzida xavotir, ayrimlari esa mamnun, yana bir qismi bo'lsa og'zi ochilib qolgancha hang-mang bo'lib o'tirardi. Har doim Karimovning ko'zlariga tikilib o'tiradigan, "men shu yerdaman, nima xizimatingiz bor?" degandek kiprik qoqmay qarab turadiganlar ham undan yuz o'girishgandi.

Bu sinov deya o'ylardi Karimov. Agar Alijonning takliflari o'tsa, demak, isyon jiddiy. O'tmasa bularning qanotini sindirib tashlayman. Ko'p narsaga Ichki ishlar vaziri Kamolov ham aybdor. U ilgari xavfsizlik qo'mitasida ishlardi. Ba'zi millatvakkillari unga qarshi bo'ldilar. Shundan keyin Ichki ishlar vaziri etib tayinladim. Lekin topshiriqlarimni doim yetim qildi. Bir kuni "Mirtemirning tilini kesib kelasani" dedim, ammo ertasiga Mirtemir bir majlisda "Shunaqa gap tarqalgan, sizning bunday deganingizga ishonmayman", deb suvning oldini oldi. Kecha esa Alijonni majlisga kelmaydigan qilib qo'y, degandim. Nima emish, otilgan tosh boshining yonidan o'tib ketganmish.

Shu ham bahona bo'ldimi? Agar shu majlisdan omon chiqsam, onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsataman!

Karimov lablari qovjirab qolganini his qildi. Esnagan kishi kabi qo'li bilan og'zini yopdi-da tilini aylantirib, labini ho'lladi. Ammo labi qurib ketaverdi. Stol ustidagi bardoq esa bo'sh. Grafindan suv quyish uchun qo'lini ko'tarmoqchi bo'ldi-yu qo'rqdi: suv to'kilib ketsa-chi yoki grafing bardoqqa urilsa-chi? Zalda o'tirganlar Karimovning qo'li qaltirayapti, deb o'ylamaydilar-mi?

Karimovning ko'zi Alijonga tushdi. U joyida o'tirardi. Rais esa uning taklifini ovozga qo'ymoqchi bo'ldi. Zalda g'alag'ovur boshlandi. Hozir isyonchilarning planiga ko'ra Erkin Vohidov so'zga chiqishi kerak, deb o'yladi va zaldan Vohidovni qidirdi. U Karimovga qarab "Ko'nglingiz xotirjam bo'lsin, men so'zga chiqmayman" deyayotgandek bamayli-xotir o'tirardi. Undan keyin Ahmadali Asqarov so'z olishi kerak. Uning qayerda o'tirishini ham Karimov yaxshi biladi. Oldingi qatorlardan o'rtada o'tirgani uchun doim joyidan gapiradi. Minbarga chiqish uchun o'n-o'n besh kishi o'rnidan turib unga yo'l berishi kerak. Shu bois joyidan gapirishni afzal ko'rardi. Karimov o'sha tomonga qaradi, lekin Asqarovni ko'rmadi. Demak, kelmabdi, deb o'yladi. Bu ham qo'rqoqlik. Sodiq-lingingni ko'rsatmoqchi bo'lsang, kelib o'tirmaysan-mi?

Ammo shu payt Karimov noxosdan Asqarovni ko'rib qoldi. U birinchi qatorda

o'tirardi. Demak, so'zga chiqmoqchi! Demak, kechagi va'dasi yolg'on! Ha, bu odamga ishonib bo'lmaydi. O'zining qat'iy bir fikri yo'q.

Karimov endi ishga kelgan paytlari edi, rus tiliga qarshi harakatlar boshlandi. O'shanda Asqarovni televideniye-ga yubordi, kechqurun u bir soat rus tilining ahamiyati haqida gapirdi. "Men Namangandagi bir qishloqdan chiqqan bola edim. Kambag'alning bolasi kiyimga pul topsa, bir burda noniga yetmasdi, ovqatiga pul topsa oyoqyalang qolardi. Ammo rus tili tufayli men odam bo'ldim. Rus tili bo'lmaganda olim bo'larmidim?" deya gapirarkan, ko'zlari namlangandi. O'shanda Karimov uning samimiyatidan quvongandi. Ammo milliy harakat kuchayib ketdi. Karimov chiqish yo'li yana harakatni bo'g'ish, bayroqni qo'lga olish ekanini angladi, tashabbusni qo'lga oldi. Boshqa olimlar qatori Asqarovni ham yana televideniye-ga yubordi.

O'shanda u "Men ona tilimni unutish darajasiga keldim. Rus tili mening na qornimni, na tafakkurimni to'yirdi. Ona tilimni unutsam, bobo merosdan mahrum qolaman. Bu esa tafakkur ochligi! Bu esa manqurtlik!" deya yana nam kiprik-larini silaganida Karimov uning mahoratiga qoyil qolgan edi. Agar bu odam san'atkorlikni tanlaganda, eng mashhur artist bo'lardi, deb o'yladi.

Zalda g'alag'ovur avjga chiqdi. Shu payt Mirtemir o'rnidan turib, minbar tomon kela boshladi. Demak, Asqarov so'zga chiqmadi.

Ha, u o'zining so'zga chiqmaganini ko'rsatish uchun birinchi qatorga o'tirgan. Ammo bu kelayotgan jo'jaxyo'rozning nima deyishi noma'lum, deb o'yladi Karimov. Erkin Vohidov bilan Asqarovning so'zga chiqmagani katta g'alaba. Qolganlar gapirsa gapiraversin. Bir hamla bilan yanchib tashlayman!

Mirtemir zaldagilarga qarab emas, unga qarab gapirardi. Bu bolani ilk bor qayerda ko'rgan edim? Ha, ha, saylovlardan oldin Kattaqo'rg'onga borganimda ko'rganman. U noxosdan so'zga chiqib zaldagilarning olqishini oldi. O'shanda shoirona gaplar gapirib, hammaning diqqatini o'ziga tortgandi. Keyin Oliy Kengash binosida ko'rishdik. Yigitlarimiz boshqa o'lkalarda xizmat qilishi masalasini rayosatda muhokama etayotgandik. Shart-shurt gapirib, butun rejalarimizni buzib yubordi. Majlisdan keyin olib qolib gaplashdim

“-Uka, bu millatvakillik uzoqqa cho'zilmaydi. Sen biz bilan birga qolmoqchi bo'lsang, Oliy kengashda bo'layotgan voqealardan meni xabardor qilib turasan, ya'ni mening komandamga kirasan.

-Mayliyu-ya, lekin men hali yoshman, yana qancha Karimovlar bilan ishlashim mumkin. Sotqinlik qilib uzoq yashash mumkin emas-da.

-Siz sotqinlik bilan davlatga xizmat qilishning farqini hali bilib olmabsiz. Boshingizni

devorlarga urasiz hali... Karimov esa bu joyda uzoq, juda uzoq turadi, bildingizmi?”

Shu suhbatdan keyin ko'p o'tmay Mirtemirning nomzodini jurnalistlar uyushmasi raisligiga ko'rsatishganini aytishdi. O'shanda Oliy kengashdan ketsa yaxshi bo'lardi, deya o'yladim, ammo eng to'polonchi xalq – qalamkashlar. Arining uyasi buzilsa tuzatish mumkin, lekin qalamkashlar g'avg'o boshlasa, qiyin bo'ladi, deya boshqa nomzodni saylatib yubordim.

Undan keyin yangi ochiladigan gazeta muharrirligiga nomzodi ko'rsatildi. Bo'пти, yo tarbiyalayman yo quvaman, deb rozi bo'ldim. Lekin oxirgi kun rayosat majlisida o'z nomzodini olib, men istamagan odamning nomzodi o'tib ketishiga sababchi bo'ldi. Uning qalamkashlar yig'ilishidagi gaplarini kechirgandim. Hatto rayosatdagi bu hunariga ham qo'l siltadim. Keyin ham boshimga ko'p ishlar ochdi. Hammasini kechirish mumkinu Oliy kengashda maktublarni o'qirkanman noxosdan og'zimdan chiqib ketgan gapni xalqqa yetkazganini kechirish mumkin emas. Bularning ko'pchiligini sotib oldim, ba'zilarini qo'rqitdim. Qarmoqqa ilinmaganlari boshqalarini ham buzayapti.

Nazarimda eng katta xato saylovdan keyin bular olti oy mehmonxonada birga qolishgani bo'ldi. Darhol poytaxtning har yeridan uy topib, bo'lib yuborish kerak edi. Ammo mehmonxonada birlashdilar. Mirtemirning To'liqin degan hamshahari bor. Juda ham mahmadona, birinchi majlisda yuzing demay, ko'zing demay gapirgandi. Mehmonxonaga karatechi bolalarni yuborib, urdirgandim ish berdi, aqli joyiga tushdi. Hatto bugungi majlisda tarqatilgan o'n sahifali bayonotni Mirtemir tayyorlaganini u xabar qildi. Kecha uni chaqirib gaplashish kerak ekan. Bugun Mirtemirga qarshi uni bayroq qilardim. O'zidan bilib himoyaga chiqmaydi.

Karimov bir zum xayollaridan ayrilib, yana zalga qaradi. Ko'zlari olma terayotgan kishining ko'zlaridek, qatorlar orasida “yugurib” ketdi. To'liqinni topdi. U hamshaharining gaplariga boshini siltaganicha noroziligini ko'rsatayotgandi. Karimov unga uzoq termuldi, lekin u qaramadi. Agar qaraganda “Chiq, javobini ber!” ishorasini tashlamoqchi edi.

Mirtemir esa hamon uni so'roqqa tutayotgandi go'yo.

Shu payt Karimovning xayolidan bundan bir necha lahza oldin qabul qilingan qaror o'tdi. Nega qarshilik qilmadim, deb o'yladi. Hozir butun mamlakat bu tamoshani ko'rmoqda. Sharmanda bo'ldim! Jonli ko'rsatuv haqidagi qarorga nima bo'lganda ham ruxsat bermasligim kerak edi. Matbuotni qo'ldan chiqargan rahbar-o'lgan rahbardir, nega bunga izn berdim?

Nahotki, jilovni qo'yib yubordim. Yo'q, qo'yib yuborish mumkin emas. Xalqning podadan farqi yo'q. Tayoq bilan boshiga urib, yo'lini ko'rsatib turmasang, hatto ozuqasini topib yeya olmaydi. Darvoqe, ozuqami, ovqatmi? Ozuqa deb gapirishimni ham mazax qilishibdi-ya, mana bular. Nima emish, millat ovqat yermish, hayvonlar

esa ozuqa.

Ha, endi bitta-ikkita so'zda xato qilsak ham, ota go'ri qozixonami? Ichimda gapirsam hamma so'zlarni to'g'ri aytaman, ammo minbarga chiqqanda qiynalib qolaman. Odam qaysi tilda fikrlashga o'rgansa, bir umr shu yo'lda qolarkan. Nima qilay, boshqa tilda fikrlab, boshqa tilda gapiraman. Bir so'z bilan aytganda, o'z so'zimni tarjima qilaman. Bu oson ish emas. Mana bu tirranchalar esa bitta tildan boshqasini bilishmaydi.

Mirtemir boshqa millatvakterlarini ham jovdirab qarab o'tirmasdan minbarga chiqishga da'vat etdi. Zalda turgan mikrofonlarning yonida navbat boshlandi. Shu payt hokimlardan biri yugurib minbarga chiqdi.

Ha, bu Nusratov edi. U Mirsaidovning soyasi. Qayerga borsa yonida. "Jiyanim" deb tanishtiradi. Uni siyosatga tortgan ham Mirsaidov. Millatvakili ro'yxatiga ham u kiritdi. Hozir minbarga chiqartirgan ham u. Nusratov Karimovning ikki farmoni Asosiy qonunga zid ekanligini aytib, bunday holda Prezident iste'fo beradi, dedi. Uning rus tilida gapirgani biroz foyda bo'ldi, ko'pchilik nima deganini tushunmay qoldi. Lekin unda ayb yo'q. U Shukrulloning buyrug'ini bajarayotgani uchun bu gaplar tilidan chiqmoqda, dilidan emas, deya o'yladi Karimov. Ertaga uni yaxshilab aldasam yoki qo'rqitsam mening to'tiqushimga aylanadi.

Nusratov uning diktatorga aylangani haqida gapira boshladi. Buni oldin ham eshitgan edi. Birinchi sessiyada Shovruq shu haqda gapirgandi. Keyin Toyiba ham gapirdi. Bu endi ularning gaplarini ruschaga o'girib aytmogda. Yo'q, buni Shukrullo aytmogda. Chunki Shukrullo "Shunday qilsak, ana ular yana bizni diktator deyishadi" deb Karimovning o'ziga ham aytgandi.

Ana ular... Negadir Karimov birdan "o'lim uchburchagi" haqida o'yladi. O'ladigan odamning yuzida uchburchak paydo bo'ladi. Xuddi piramida kabi. Teppa nuqtasi qoshlarning o'rtasida, bu joyni "uchinchi ko'z" ham deyishadi va pastki chiziq burun tugaydigan joydan o'tadi. Olimlar buni eng muhim tomirlar to'plangan joy deyilar. Bokschiarga shu joyga urish mumkin emas. Usta jinoyatchilar esa "o'lim uchburchagi"ga bir musht urib, kimningdir hayotini bitiradilar. Karimov shu damda Shovruqni bir musht urgisi keldi. Keyin Toyibani. Keyin Mirtemirni... Nusratovdan esa xafa bo'lmadi. Uni Shukrullo deb qaradi.

Nusratov minbardan tushib, joyiga "cho'karkan", unga yaqinroq joyda bo'lgan Iso Xolis o'rnidan turdi. Nahotki bu kecha oqshomgi iltimosimni qabul qilmadi, deb o'yladi Karimov. Yana

o'jarligining quli bo'ldimi? Umuman, bu olifta bilan odamga o'xshab gapirishning hojati bormidi? Qara-ya, hatto majlisga tirraygan oq shim, yoqasi vayron oq ko'ylak kiyib kelibdi. Shunday qilsam hammadan ajralib turaman, deganda. Ko'pchilik uni "G'arb xastasi" deydi. Gapirishida ham g'arbga taqlid bor, kiyinishi, yurish-turishida ham g'arbonalik sezilib turadi. Bundaylar juda tez o'zgaruvchan bo'ladi. Bugun G'arbning ortidan ketsa, ertaga unga qarshi chiqishi

aniq. Bir kun kelib so'fi yo mulla bo'lsa ham ajablanish kerak emas.

-Hayrat. Bir paytlar o'z boshliqlarini qarsaklar bilan olqishlaydigan kommunistlar bugun jim o'tirishibdi. Aksincha ular o'z boshliqlariga qarshi isyon qilganlarni olqishlamodalar. Bu yerda katta o'yin bormoqda. Uning nomi "Poytaxt o'yinidir". Shu paytga qadar bo'lgan o'yinlar o'tmaganidek, bu o'yin ham o'tmaydi...,-deb uni himoya qila boshladi Iso Xolis.

Otangga balli, deya qichqirib yubormoqchi bo'ldi Karimov. Yigit ekansan-ku, yigit. Boya ko'nglimdan o'tganlarini o'qib o'tirgan ekansan! Kecha kechqurun madad istaganlarim, ana u hezalaklardan bir narsa chiqmadi. Sen esa o'g'il bola ekansan.

Karimov bu xayollar bilan bo'lib, Iso Xolis nutqining davomini eshitmadi. Lekin davomida ham shu ohang buzilmadi. Har holda uni himoya qilmoqda. Shunisi yetarli. Qolgani nima desa ham uni qiziqtirmasdi. Chunki u bombani portlatgandi. Yaralangan odamlarga hatto "kechirasiz" desa ham foydasi yo'q.

Shu bois Karimov o'z fikrlari og'ushida suzmoqni afzal ko'rdi.

Bu yigitni bir umr o'ynatsam bo'ladi. Qayoqqa tortsam o'sha tomonga ketar ekan. Yoki u bilan ittifoq tuzsammi? Nima bo'lganda ham uni qo'ldan chiqarib yubormasligim kerak. To'g'ri, minbarga chiqsa, sakkiz kishini yig'latadigan qilib, qog'ozsiz gapirolmaydi, ammo fikrlarini lo'nda-lo'nda holda yozib oladi va tosh otgandek otadi. Uning ham orqasidan yurganlar bor, unga ergashganlar bor. Shu bois uni qarmoqda tutishim kerak. Bunday odamni har maqomga yo'rg'alatish mumkin.

Iso Xolis joyiga o'tirganda Karimov unga minnatdorchilik bildirmoq uchun ko'zlarini tikdi, lekin uning yonidagi bo'sh o'rindiqla Mirtemir kelib o'tirdi. Ular tortisha boshladilar. Mirtemirning avzoyi buzuq edi. Iso Xolis esa unga nimalarnidir tushuntirmoqchi bo'lardi.

O'ng qanotdagi mikrofon yonida Murod To'rayev paydo bo'ldi. Karimov Iso Xolis bilan Mirtemirning tortishmasi nima bilan tugashini bilishga qiziqsa-da, xayollari Murod tomonga qochdi.

Bu nima der ekan? Rost gapiradimi, yolg'onmi, baribir buning gapiga ko'pchilik ishonadi, deb o'ylay boshladi. Chunki u bilan bir viloyatda ishlaganmiz. Aslida u men poytaxtga kelganimdan keyin o'rta chiqdi. Lekin mana bu olomon buni tushunarmidi? Murod saylovdan keyin Muborak shahar ijroiya qo'mitasi raisi bo'ldi. Darrov kommunistik partiya faoliyatini ta'qiqladi. Prokuratura, mirshabxonaga o'z odamlarini suqdi. Hatto xususiy televideniye ham ochib oldi. Bunga qarab turadigan ahmoq yo'q edi. Mana endi hammasidan ajralib qolgani uchun alamzada.

Murod To'rayevning "Tumanimizdan ruslar ketib qolayapti" degani Karimovning kulgusini qistadi. Shu bois miyig'ida kulib, boshini qimirlatib qo'ydi-da, uning so'zlarini

tinglay boshladi.

-Olib borilayotgan noto'g'ri siyosat baynalminal do'stligimizga putur yetkazmoqda. Men bu masalani hurmatli prezidentimizga yetkazdim, ammo natija chiqmadi. Aksincha ta'qib davom etdi. Bundan bir necha kun oldin menga nisbatan suiqasd uyushtirildi. Tasodif tufayli tirik qoldim. Derazamdan ichkariga o'q otganlarni ushlab berdim, lekin ularni qo'yib yuborishdi...

Karimov majlis zalining birinchi qatorida o'tirgan Ichki Ishlar vaziriga "Latta, biror ishni uddalay olmading. Albatta orqasidan g'avg'osi chiqadi" degan so'zlarni nafratli nigohlariga joylab, tikilib qaradi. Vazir garchi Karimovning qarayotganini sezsa-da, Murod To'rayev yangi bir gap aytayotgani kabi uning so'zlarini daftariga yozib olayotgan edi.

Unga qayta-qayta tayinlagandim, deb o'yladi Karimov. Bu ishni ustasi faranglarga topshir, ular toza ish qiladilar, istaganlarini ber, degandim. Ammo yuborgan odamlari derazadan bo'sh uyga o'q otishibdi, bu ham yetmagandek qo'lga tushishibdi. Nahotki, katta bir davlatda buyurgan ishingni hidi chiqmaydigan qilib bajaradiganlar topilmasa? Yoki bu xalq xalq bo'lolmaydiyu, men esa davlat qurolmaymanmi? Hozir iste'fo berib chiqib ketsam nima bo'lar ekan? Darrov o'rimnga Shukrulloni saylashadi. Saylashsin. Chetda turib, sharmanda bo'lganini tomosha qilaman. Yo'q, chetda turishga qo'ymaydi bu. Hamma narsani mening bo'ynimga ag'darib, qamoqda chiritadi.

Nima deyaipman o'zi? Bu lavozimni egallaguncha oz kurashdim-mi? Bu mening ona suti kabi o'z haqqim, uni hech kimga bermayman! Qolaversa bularning orasida men kabi tushunadigan, men kabi ish yuritadigani yo'q! Bir to'da kaltafahmlar to'plangan. Bular minbarga chiqib laqillashni biladilar. Ismim ham, jismim ham, aqlim ham, tafakkurim ham bu lavozimga loyiq! Shu saylovni o'tkazib olsam, tamom! Bular uchun sichqonning ini ming tanga bo'ladi. Qochadigan joy topolmay qoladilar. Hammasining aqlini joyiga kiritib qo'yaman. Aslida saylov o'tkazmasdan ham bu ishni qilishim mumkin edi. Lekin xalqning jilovini qo'yib yuborishgan. Jilovni birdaniga qaytarib olib bo'lmaydi. Bu ishni asta-sekin qilish kerak. Asta sekinlik bilan har qanday otning ham otashini so'ndiradilar. Mana bu mahmadanalarni esa o'ldirsang oson qutilishadi. Ularni bir umr g'urbatga sherik qilish kerak. Bular nonni "mamma" deb yurishibdi. Qovunni esa tarvuz deyishadi. Hali mening sovunimda kir yuvishmadi. Shu bois paytavalari sasib ketgandek, gapirgan gaplaridan ham kishining ko'ngli ayniydi. Nima bo'lganda ham hozircha chidamoq kerak!

Dunyodagi yirik mamlakatlar bilan kelishmasdan ish qilib bo'lmaydi. Aks holda ular mana bularga o'xshab, tosh otib o'tirmaydilar. Darrov yo'qotib qo'yaqoladilar. Shu bois ularning ham ra'yiga qarashim kerak. Siyosat katta o'yin. Yaxshilab o'ynasang har qanday raqibni mot qilasan. Ularga demokratik saylov qanday o'tkazilishini ko'rsatib qo'yishim lozim. Mana shu majlisdan o'tib olsam, birorta raqib ham topaman. Xalq mensimaydigan kishilardan birini nomzod qilib ko'rsatib,

saylovga kiritaman. Muqobil saylov qanday o'tkazilishini ko'rsatib qo'yaman. Iso Xolisni tanlasam yomon bo'lmaydi. Lekin butun muxolifat uning atrofida birlashsa, tarozining muvozanati buzilishi mumkin. Yo'q, unga qadar muxolifatni parchalab tashlashim kerak. Darkor bo'lsa bir

qismini qanotlarim ostiga olaman, boshqa bir qismini kaltaklataman, yana bir qismini esa bolga botiraman.

J A N G [2 2]

Karimovning xayollarini o'rtadagi mikrofon yonida turib gapirayotgan yigitning qo'ng'iroqdek ovozi bo'ldi. Kim u, deya o'sha tomonga termuldi Karimov. Ha, In'omjon ekan. Bu ham yozuvchi. Iso Xolisning yonida yuradigan yigitlardan biri. Har holda akasi meni himoya qilgandan keyin ukasi boshimni yormasa kerak, deb o'yladi Karimov. Ammo In'omjonning so'zlari uning ko'zini moshdek ochib yubordi.

-Siz Qashqadaryo viloyatida ishlaganingizda ikki yarim milliard so'm hisobida qo'shib yozishga yo'l qo'ygansiz. Siz tufayli yuzlab odamlar qamalib ketdi, siz esa suvdan quruq chiqib, taxtni egallab o'tiribsiz.

Majlis zali g'ala-g'ovur bo'lib ketdi. Ilhomjonning so'zlari Karimovning qalbiga nashtardek botdi. Bu bolaning o'zi boshqa viloyatdan, deb o'yladi u. Lekin qo'lidigi bir dasta qog'ozni qayerdan oldi ekan?! Har holda bu ham Shukrulloning ishi. Bu bolakay og'zining o'lchovini bilmas ekan. Bundaylarning to'tiqushdan farqi yo'q. Eng xavfli odamlar bular, kim nima tutqazsa, o'qib beraverishadi. Shu bois buni darhol jilovlab qo'yishim kerak. Majlisdan keyinoq oyog'iga tosh bog'layman.

Karimov ilgari o'zi ishlagan Qashqadaryo viloyatidan bir kishini qo'li bilan ishora qilib yoniga chaqirdi.

-Sen qamalib ketayotganding, lekin qutqarib qoldim. Mana deputat ham qilib qo'ydim. Nega endi tovuqqa o'xshab o'tiribsan? Bor, ana u tirranchaga javob ber,
– dedi.

U odamning bo'yi kalta edi. Pildiragancha, o'rta yo'lakdagi mikrofon yoniga yugurib bordi. In'omjonni turtib, uning yerini olib o'zi gapirmoqchi bo'ldi. Lekin In'omjon bo'sh kelmadi. So'ng u In'omjonning yoqasiga yopishdi. Atrofdagilar o'rinlaridan turib, ular tomonga yurishdi. Majlis raisi esa tanaffus e'lon qildi.

Karimovning topshirig'ini olgan kishi In'omjonning yoqasidan tutganicha minbarga tomon yura boshladi.

-Kechirim so'ra, kechirim so'ra deyapman Islom akadan! – deya baqirardi u.

Shu payt yugurib kelgan Samandar Karimovning odamiga uzandi. Uning yelkasidan tortib, qo'yib yuborgandi u yiqilib ketdi. Samandarning bo'yi uzunligi, chiniqqanligi, gavdasi uncha-muncha odamdan yirikligi haybatini oshirardi. Uning yoniga kelgan yozuvchi Primqul Qodirov "Uka, siz nima qilayapsiz? Bu odam oqsoqolimizning topshiriqlarini bajarayapti, siz aralashmang", dedi.

-Seni tuppa tuzuk yozuvchi, deb yurgan edim, – deb javob qildi Samandar. – Ulug‘ shoh va shoirlarimiz haqida yozgan kitoblaring boshqa-yu o‘zing boshqa ekansan! Oqsoqolingni sevsang, ana u minbarga chiqib himoya qil!

Samandarning haybatidan qo‘rqqan Primqul Qodirov orqasiga burilib olomonning ichiga kirib ketdi. Samandar esa Karimovning yoniga yaqinlashdi:

-Majlisni buzish uchun shunaqa o‘yin qilishingiz kerak edimi? – dedi u Karimovga. Karimov ham unga zaharxandalik bilan:

-Siz hali ham shu yerdamisiz? Men sizni qamalib ketgan, deb o‘ylab yuribman, – dedi.

-Nega men qamalar ekanman? Men xalqning haqqiga xiyonat qilganim yo‘q! O‘g‘irlik, poraxo‘rlik bilan emas, peshona terim bilan topayapman men!

-Peshona teri bilan topilsa, ko‘pchilik sizga o‘xshab koshonalar qurib olardi.

-Bilaman, oldingi uyimni siz yondirib yubordingiz, siz yuborgan odamlar yondirdi. Sizga qasd qilib ikki oyda qaytadan tikladim. Sizga alam qilgani mening boy bo‘lganim emas, odamlarga yordam qilganim, yo‘l qurganim, machit qurganim, maktab qurganimdir. Sizga alam qilgani partiyangiz bo‘limini yopib qo‘yganimdir!

-U partiya meniki emas, u xalqning partiyasidir! Shuning uchun uning bo‘limini albatta takror ochamiz! – dedi Karimov.

-Ha, olti oyki korxonamizni mirshablar o‘rab olishgan. Kechasi ham tergov, kunduzi ham. Akamdan tortib ammamga qadar so‘roq qildingiz. Lekin biror narsa topolmadingiz!

-Istasak, topamiz!

-Istasangiz ko‘p ish qilasiz! – deya qo‘llarini paxsa qilib baland ovozda gapirganicha Karimovga yanada yaqinlashdi Samandar.

-Qo‘lingni tushir! O‘zingni bos! Hozir shu yerning o‘zidayoq qamoqqa oldiraman. Kimligingni xalqqa ko‘rsatib qo‘yaman.

-Bilaman nimaga sha‘ma qilayotganingizni, – dedi Samandar. – Uy joyimizni filmga oldirgansiz. Men ishdan haydagan o‘g‘ri-muttahamlarni to‘plab shikoyatlarini yozdirgansiz. Siz olti oy urinib bitta film tayyorladingiz, men esa bir oyning ichida sizning kimligingizga oid uchta film tayyorladim. Mard bo‘lsangiz maydonga chiqing! Bu filmlarni deputatlarga qo‘yib beraylik!

-Sening pushkaga oladigan odating ham bor ekan-ku, – deya miyig‘ida kuldi Karimov. Ammo bir zumda nafaqat ovozi balki o‘zi ham o‘zgarib qoldi, ko‘zi esa yosh bolalarnikidek jovdirab olomonning ichidan najodkor qidirardi. Samandar bo‘lsa e‘tibor ham bermasdan qo‘llarini paxsa qilib so‘zda davom etardi:

-”Pushkaga olish” degan gapni hayotimda ilk bor eshitayapman. Har holda tushunishimcha “shantaj” degani bo’lsa kerak. Men uydirmachi emasman. Ko‘zim bilan ko‘rganimga, qo‘lim bilan ushlaganimga ishonaman. Ukangiz nima sababdan qamalganiyu qanday qilib ozod bo‘lganini xalq bilmaydi, deb o‘ylaysizmi? Ukangiz bilan ayni jinoyatdan qamalgan odam yerto‘lada o‘tiribdi. Ukangiz esa katta bir mafiya guruhiga boshchilik qilayapti. Buni inkor eta olasizmi?

-Haddingdan oshib ketayapsan! O‘zingni bos! Hozir mana shu yerning o‘zida chavaqlab tashlayman seni! Tovushingni o‘chir! – deya baqirdi Karimov.

-Tovushimni o‘chirmaslikka sen imkon yaratding, – Samandar ham Karimovga sensirab gapira boshladi. – Bir paytlar haydab yuborgan xotining va o‘g‘ling bugun qanday ko‘yga tushganini bilasanmi? O‘g‘ling tilanchilik qilayotganidan xabaring bormi? Xabaring bo‘lmasa ayt, zalni hozirlashsin, sen ham qo‘lingdagini ko‘rsat, men ham! Kerak bo‘lsa televizor orqali ko‘rsataylik, xulosani millat chiqarsin!

Shu payt ularning yoniga Mirtemir keldi:

-Menimcha Samandar aka haq gapni aytayaptilar. Agar u kishi jinoyatchi, poraxo‘r bo‘lsalar, qo‘lingizda buni isbotlovchi dalillar bo‘lsa, o‘rtaga qo‘yish kerak. Film oldirgan ekansiz, uni ham namoyish qilaylik. Ayni paytda Samandar akaning iddaolariga quloq solaylik, – dedi.

Karimov najotkorni topgandek shafqat istab, Mirtemirga termuldi:

-Ukajon, mana siz tanqid qildingiz, men aralashmadim. Chunki bilaman o‘zingizni o‘ylayotganingiz yo‘q. Tekshirishlarimizdan ham toza chiqdingiz. Lekin mana bu akangizning bir joyi ham toza emas. Unga ayting, sassiq gaplarini kalta qilsin! Mirtemir nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagandi, Samandarning qo‘ngiroqdek jaranglagan tovushi uning fikrlarini bo‘lib yubordi:

-Men sassiq gap aytishga o‘rganganim yo‘q! Katta bir davlatning boshida o‘tirgan insonning og‘zidan shunday gaplar chiqishi meni uyaltirmoqda. Insonga o‘xshab tortishmoq va masalalarning yechimini topmoq mumkin emasmi? Siz

meni ishdan haydab, ustimdan jinoyat ishi ochganingizda mana shu yigitlar o‘rtaga kirmaganda, yo‘q qilardingiz. Xayriyatki, deputatlik vakolatimni to‘xtatish haqida qaror chiqaradigan kuningiz shu yigitlar oraga kirishdi. Ammo bularning har biri Samandardan falon so‘mdan olgan, deb gap tarqatdingiz. Vijdoniga bo‘ysungan halol yigitlarga tuhmat qildingiz.

Karimov Samandarning gaplarini eshitmagandek, Mirtemirga yuzlanib:

-Mirtemirjon, yigitlaringizga ayting, majlisdan keyin qolib bu masalalarni tortishaylik. Meni ham chalg‘itganga o‘xshaydilar. Hozir bu yerda masalalar qorishib ketdi. Aytilayotgan har bir gapni taroziga qo‘yaylik, aybdorlarni jazolaylik. Men sizlarga so‘z beraman, hamma masalani hal qilaman. Biror kishi jazodan chetda qolmaydi. Samandar akaning qiziganicha bor, meni ham aldashadi. Atrofimni poraxo‘r- muttahamlar egallab olishgan. Ulardan qutilishim uchun sizlarga

o'xshagan jasur yigitlarga ehtiyojim bor. Har bir gapni qo'rqmasdan, ikkilanmasdan mardlarcha yuzga aytgan insonlar Vatanimiz uchun juda kerak. Sizlarga rahmat, ko'zimni ochdingizlar.

Bu gaplarni eshitgan millatvakillari birdan jimib qoldilar. O'rta suv sepgandek sookinlik tushdi. Karimov, bularni mana shunday boplashim kerak, deb o'yladi. Aslida rostdan ham hammasi sof, to'g'ri yigitlar. Qing'ir-qiyshilikni bilishmaydi. Lekin ana shundaylardan qo'rqish kerak. Bular olovga ham suvga ham tik borishadi. Bularni aldab-suldab yo'qotish kerak. Aks taqdirda bu olovda men o'zim yonib ketishim mumkin. Olovni isinmoq, foydalanmoq uchun yoqib turish kerak. Nazoratda tutsanggina uning haroratidan bahra olasan. Nazoratdan chiqardingmi, u seni jizg'anak qiladi. Olovning kushandasi suv. Mana, bir "chelak"suv bilan uni o'chirdim. Jo'jaxyo'rozlarning hammasi bir tovoq palovni ko'rgan och bolakaylardek mo'ltirab qolishdi. Temirni issig'ida bosmoq kerak. Tanaffusga chek qo'yib majlisni boshlasam jilovni qo'lga olaman. Bularni ilingan qarmoqlarida mahkam tutishim zarur.

S U L H [2 3]

Karimov orqasiga qayrilib, qo'l qovushtirib turgan Yo'ldoshevga:

-Soatingiz bormi? – dedi zaharxanda ohangda.

-Bor, bor, – deya unga egildi majlis raisi.

-Unday bo'lsa nega majlisni boshlamayapsiz? Tanaffus o'n olti soatmi?! – deya baqirdi.

Rais yerdan yerga sakraydigan ninachi kabi bir-ikki hamlada o'z joyiga o'tirib oldi va qo'llarini bir-biriga ishqalab:

-Hamma joy-joyiga o'tirsin, majlisimiz davom etadi, – dedi.

Ammo kimga so'z berishni bilmasdi. Nima qilamiz, degandek Karimovga qaradi. Karimov esa ataylabdan yuzini boshqa tomonga burdi. Bu ham norozilik alomati edi. Rais nima qilishini bilmay qolgandi. Shu payt majlis zalining birinchi qatorida o'tirgan Mirsaidov o'rnidan turib, minbarga qarab yura boshladi. Majlis raisi tomirlarida to'xtab qolgan qon qayta harakatga kelganini his qildi, lekin yuragi potiray boshladi. O'ylashga esa vaqti qolmagandi, boshini mikrofoniga yaqinroq olib bordi-da, xirillagan ovozda:

-Hurmatli Bosh vazirimiz Shukrullo Mirsaidov so'z so'rayaptilar, – dedi.

Mirsaidov esa allaqachon minbarga chiqib olgan edi. U talvasaga tushgan isning kechikkan e'loniga miyig'ida kulib javob qildi. So'ng ikki qo'lini minbarga tiragancha gapini yo'qotgan odamdek ancha vaqt zaldagilarga termulib qoldi. Keyin majlis raisiga va Karimovga burilib qaradi. Minbarning bir chetida turgan bardodqadagi suvdan ho'pladi va:

-Xalqimiz “tiz cho‘kkuncha tik turib o‘lgan yaxshi” deydi. Men mansab uchun tug‘ilganim yo‘q va mansab uchun kurashayotganim ham yo‘q!... – dedi.

“O‘, Shukrullo”, – deya qichqirib yubordi Karimovning xayollaridagi qandaydir bir kuch! Agar hozir zaldagilarga “Siz mana shu odamga ishonib o‘tiribsiz-mi, uni bu yerdan quvaylik” desang men o‘zim bu yerni tashlab chiqib ketardim. Yo‘q, nega chiqib ketarkanman? Shunday deganingda ham bir chorasini topardim. Mana bu oltmishta tirranchani ikki og‘iz gap bilan tinchitganimda senga qarshi gap topa olmasmidim? Aslida men nega seni bu qadar katta kuch deb hisoblab keldim. Sen kuch emassan! Poytaxt xalqi kuch. Ana shu xalqni tinchitish uchun sendan, sen bo‘lmasang boshqa biridan foydalanishim kerak. Rashidov shunday muvozanatni saqlagani uchun o‘ttiz yil taxtda o‘tirdi. Rahmatli ne-ne o‘yinlarni boshidan kechirmadi? Goho tosh otdilar, goho o‘q otdilar, ammo selning ham, do‘lning ham ostidan quruq chiqaverdi. Chunki “selsoveti” yaxshi ishlardi. Men ham ana shu yo‘ldan borishim kerak. Sen esa to‘g‘ri aytding, mansab uchun tug‘ilgan emassan, Shukrullo!

Zaldagi g‘ala-g‘ovur Karimovning xayollarini bo‘ldi. Mirsaidov o‘rniga borib o‘tirgandan keyin qatorlar orasida dahanaki jang boshlangandi. Negadir har kim yo yonidagi yo orqasidagi odam bilan tortishardi. Bular endi o‘z qiyofalarini ochmoqdalar, deb o‘yladi Karimov. Bir zumdan keyin hatto minbarga chiqib meni maqtay boshlashadi. Chunki og‘irlik qaysi tomonga og‘ganini ko‘rishdi. O‘rtada musobaqa ham boshlanadi. Bularning hammasi xoin, hammasi sotqin! Tuzimni yeb, tuzlig‘imga tupurishdi. Hammasini men deputat qilganman. Lekin nonko‘rlik

qilishdi. Faqat Erkin Vohidov, Iso Xolis, Ahmadali Asqarov bundan mustasno. Aslida ular ham xoin. Mening iltimosimni kutishlari kerak edimi? Nega bu voqealar boshlanmasdan oldin yonimga kelishmadi?! Nega men bilan birga qadam tashlashmadi?! Axir, Iso Xolisni deputat qilguncha ona sutim og‘zimdan keldi-ku? Uning bir o‘zini nomzod qilib ko‘rsatdim, qarshisiga hech kimni qo‘ydirmadim. Vohidovni ham ana shu yo‘l bilan saylatdim. Hozir u ham so‘zga chiqib qolsa kerak. Hm... Shavkat Temurni ham saylatishim kerak edi. Hozir tashqarida tosh otib yuribdi. Saylatganimda mana shu yerda, qo‘l ostimda o‘tirgan bo‘lardi. Istasam gapirtirib, istasam pustirib o‘tirardim.

Xuddi Karimov o‘ylaganidek, bir zumda minbarning yonida so‘zga chiquvchilar bepul go‘sht berayotgan do‘kon eshigi og‘zida to‘plangandek yig‘ildilar. Ularning orasidan biri otilib minbarga chiqdi. U matbuot vaziri Ubaydulla Abdurazzoqov edi. Karimov uni ilgari u qadar yaxshi tanimasdi, lekin oldingilar zamonida “urilib” ketgani uchun mansab berdi. Chunki “oldingilarning ishongan tog‘larini ularning dushmanlari yiqitadi” degan qoidaga ishonardi. Bu ham sadoqat bilan xizmat qilayapti, deb o‘yladi Karimov. Tabiiy hol. Bir marta kaltak yegan odam yo‘l chetidagi cho‘pdan ham hadiksiraydi. Lekin fe‘lida bir oz haqiqatga qayishadigan tomoni ham bor, bu ham tabiiy hol. Bir marta nohaqlik tufayli sindirilgan kishi keyin haqsizlikni ko‘rganda qiynala boshlaydi. Ammo u keyingi vaqtda Shukrulloqa yaqinlashib qoldi. Oralarini buzish kerak. Hatto it ham ikki kishiga birdan sodiq bo‘lolmaydi. Ubaydulla Abdurazzoqov favqulodda holat ro‘y bergandek, tashvishli ohangda gapira boshladi:

-Do‘stlar, xalqimizning aziz vakillari, bundan ikki daqiqa oldin mustaqilligimizni xavf ostiga qo‘yadigan voqeaning oldini oldik. Majlisimizga Shavkat Temur boshliq bo‘lgan harakatning a‘zolari “Biz Markaziy televideniye muxbirlari” deya soxta hujjat bilan kirishgani va bu yerdagi

tortishuvimizni ipidan ignasigacha yozib olayotgan paytda qo'lga tushirdik. Kameralarini tortib oldik va o'zlarini hurmatli mirshablarimizga topshirdik. Ular yozib olganlarini Moskvaga yetkazib bermoqchi ekanlar. Bu xoinlikning birinchi pardasi. Ikkinchi pardasi esa bundan bir soat oldin yuz berdi. Moskvaning "Vremya" ko'rsatuvi ushbu majlisimizda "Karimov ishdan olib tashlandi", degan mash'um xabarni e'lon qildi. Bu xabarni mana shu yerda o'tirgan ayrim deputatlar yuborishganini ham o'rgandik. Ulardan biri o'zini sotib qo'ydi. Biz Moskvaga telefon qilmoqchi bo'lib turganimizda "Menda televideniye rahbarining telefoni bor" deb qoldi. Hatto ular do'st ham ekanlar. Mana sizga xoinlik, mana sizga haqiqat!

Zalda shovqin-suron boshlandi. Ha, qozonni qaynatib yubordim, deb o'yladi Karimov. Kecha matbuot kotibi bu o'yin haqida gapirganida u qadar ahamiyat bermagandim. Lekin ish berib qoldi. Tirranchalarning hammasi tuzoqqa tushadigan bo'ldi. Xoinlik tamg'asini yopishtiraman ularga. Ularning somonxonasi shu yer ekan. Ammo Ubaydulla Abdurazzoqov ham o'pkasini yutgan odamlardan, hatto artistlar ham bunday gapira olmaydi. Ba'zan shunaqangi so'zlarni topadiki, odamni eritib, suvga aylantirib yuboradi. Aslida unga ham qiyin. Bir marta ishdan "urilib" atrofdagi

odamlarning munosabatini, kamsitishlarini ko'rди. Endi yana yuqoriga chiqib qoldi. Tushib ketmaslik uchun artistlik u yoqda tursin, tulkilik ham qiladi. Karimovning xayoli yana bo'lindi. Chunki o'rtadagi mikrofon oldiga Mirtemir kelgandi. U majlis raisining mikrofonni ochishini kutmasdan hammaga eshitaladigan ovozda gapira boshladi. Ammo Karimov ba'zi kalimalarni tushuna olmagan uchun majlis raisiga "mikrofonni och" deya ishorat qildi.

-Birinchi dan, hurmatli vazir bilib qo'ysinlarki, bu majlis to'g'ridan to'g'ri televideniye orqali ko'rsatilmoqda. Bizning xalqdan yashiradigan gapimiz yo'q, biz xalqning vakilimiz. Hamma harakatimiz oshkora qilinmoqda. Ikkinchi dan, siz kamerasini olib qo'ygan odamlar haqiqatdan ham televideniye muxbirlaridir. Biz ularni yaxshi taniymiz. Qachondan beri haqiqatni suratga olish xoinlik bo'lib qoldi? Uchinchi dan, siz ismini aytishga qo'rqqan va xoinlikda ayblaganingiz men bo'laman. To'rtinchi dan, Moskvadan berilgan xabar orqasida katta o'yin bor, bu xabar hukumat idoralaridan yetkazilgani haqida ma'lumotimiz bor. Beshinchi dan esa, Moskvadagi Markaziy televideniye rahbari Sagalayev ilgari shu yerda ishlagan va uni ko'pchilik yaxshi taniydi. Yuqoridagi o'yinni fosh etmoq uchun uning telefonini vazir janoblariga men berdim. Birgalikda telefon qildik, lekin boshliq ta'tilda va chet elga ketgan ekan. Bu voqea bundan bir soat oldin emas, balki ertalab yuz berdi. Lekin vazir kartaning ikkinchi tomonini ko'rsatayaptilar...

Karimov, o'zim so'zga chiqmasam hamma narsa qaytadan boshlanadiganga o'xshaydi, Ubaydulla Abdurazzoqov xol qo'ydi, deb o'yladi. Lekin bu hol go'zallik xoli emas, balki fohishaning labidagi zangor xolga o'xshaydi. Ishni shu qadar ham xom qilish mumkinmi? Zaldagilarning kayfiyatlari yuz foiz o'zgarib turgan bir paytda hamma ishni buzib yubordi.

Karimov o'ylarini tizginladida barmoqlari bilan oldida turgan mikrofonni cherta boshladi. Bu "mikrofonni och" belgisi edi. Rais "ochildi" deya boshi bilan imo qildi.

-Mirtemirjon, – deya Mirtemirning so'zini kesdi Karimov. – Ko'rinib turibdiki, o'rtada anglashilmovchilik bor. Lekin g'isht qolipdan ko'chgan, tuhmat esa boshimizga yog'ilgan. Shu sababdan majlisning alohida bir komissiyasini tuzishni taklif qilaman va uning raisligiga

hammamiz uchun adolatning tarozisiga aylangan hurmatli shoirimiz Erkin aka Vohidovning nomzodini ko'rsataman.

Karimov bir o'q bilan yetti quyonni urgandek his qildi o'zini. Vohidovning so'zga chiqmagani uchun shirin gaplar bilan taqdirlagan bo'lsa, ayni paytda bu nomzod Mirtemir va uning do'stlarini ham qoniqtiradi. Chunki ular hali o'yinning farqida emas. Vohidovni erkin inson deb o'ylashayapti. Bu komissiya boshida Vohidov tursa, xulosani istagan so'qmog'imga buraman.

-Hurmatli raisimizdan iltimos qilaman, masalani ovozga qo'ysinlar, – dedi Karimov. So'ng bir narsa esidan chiqib qolgan kishidek yana mikrofonni ochtirdi.

-Ha, darvoqe, bu komissiyada muxolifatdan ham bir kishi o'rin olishini istayman. Mening nazarimda Surat Boltayev eng to'g'ri nomzod. U kishi hozirki hozir, sotsializm davrida ham rahbarlarning yuziga kamchiligini ochiq aytgan insonlardan,
– Karimov majlis raisiga burildida so'zini davom ettirdi:

-Endi ovozga qo'yishingiz mumkin.

-Boshqa takliflar bormi? – deya zalda o'tirganlarga murojat qildi rais.

“Ho'kiz” deb o'yladi Karimov, so'rab o'tirguncha ovozga qo'yavermaysanmi? Hozir yana tortishuv boshlanib ketsa nima bo'ladi? Xayriyatki, o'tirganlar boshqa bir taklif ko'rsatishmadi. Rais ovozga qo'ygandi Karimovning taklifi tasdiqlandi. Demak, mashina ishlay boshladi, deb o'yladi Karimov. Odamlarning asabi o'z o'rniga qaytdi. Asab mashinaga o'xshaydi, yo'ldan chiqdimi tamom, yana qaytib izga tushguncha kutib turmoq kerak. Bir izga tushib olgandan keyin temir yo'lda harakat qilgandek bir chiziqli bo'ylab boraveradi. Endi nimani ovozga qo'ysak, o'tib ketaveradi. Lekin bugun “risk” qiladigan payt emas, asablarni yaxshilab o'ldirishim kerak. U yana majlisga qarab “Men so'z istayman” dedi va o'rnidan turib minbarga qarab yurdi. U minbarga yetib kelgan va gapira boshlagan bo'lsa ham majlis raisi unga so'z berilajagini e'lon qildi.

-Bugun mening sha'nimga aytilgan hamma gaplar, hamma tanqidlar to'g'ri. Inson xatosiz bo'lmaydi. Men ham onamdan prezident bo'lib tug'ilganim yo'q. Sizning yordamingizga muhtoj odamman. Mana qo'limda o'ttiz sakkiz millatvakili imzo qo'ygan bayonot bor. Oz emas, ko'p emas o'n sahifadan iborat. Bu yerda iqtisoddan siyosatga qadar hamma sohada yo'l qo'yilgan kamchiliklarim ko'rsatib berilgan. Bundan keyin bu hujjat men uchun yo'lchi yulduz bo'ladi. Buni Mirtemir ukamiz yozganini ham yaxshi bilaman. Adolatni va bor gapni yozganki, aytaylik, shuncha millatvakili uning ostiga imzo chekkan. Men bu yerda, ya'ni mana bu manbarda qo'limni peshtaxta qilib o'zimni oqlamoqchi emasman... – Karimov ba'zi so'zlarni adashib aytayotganini o'zi ham his qildi. “Aytaylik” kalimasini “eytaylik” deb yuborgandan keyin xayolida adashdim degan fikr aylana boshladi va minbarni “manbar”, peshni “peshtaxta” deb gapirdi. Nutqimni qisqa qilishim kerak, aks holda o'zim ham izdan chiqib ketishim mumkin, deb o'ylagan Karimov masalaning ikkinchi qismiga o'tdi.

-Aslida bugun saylov haqidagi qonun muhokama etilishi kerak edi. Tanqidlar shuni ko'rsatadiki, bu qonun loyihasida ham jiddiy kamchiliklar mavjud. Shu bois uni orqaga olmoqchiman.

Karimovning ko‘zi zaldan pildirab chiqib ketayotgan kishiga tushdi. U oltin konlarining boshlig‘i edi. “Voy, ablah!” deb o‘yladi Karimov. “Voy, nonko‘r! Seni o‘ris deb bo‘shatishni talab qilganlar oz bo‘ldimi, qing‘ir-qiyshiq ishlaringni ro‘kach qilganlar-chi? Xo‘p, sodda odam ekanman. Insonlarni tanimoq qiyin deyishardi, ishonmasdim. Qara-ya, tag‘in men gapirayotgan paytda isyonkorona chiqib

ketmoqda.

-Ana u Ivanov singari odamlar uchun farqi yo‘q, – Karimov ko‘rsatgich barmog‘i bilan zaldan chiqib ketayotgan kishini ko‘rsatib, jahl bilan so‘zda davom etdi. – Bular uchun hech narsaning farqi yo‘q. Aytaylik, mas‘uliyatni ham bilishmaydi, aytaylik, rahbarlikni ham bilishmaydi, aytaylik, ish qilishni ham bilishmaydi, aytaylik, mana shu yerda o‘tirishni ham bilishmaydi! Karimov qo‘lini musht qilib qanday o‘tirish kerakligini ko‘rsatgan bo‘ldi va so‘zda davom etdi:

-Mana shunday latta rahbarlar tufayli men jo‘jaxo‘rozlarning yonida qizarib qolaman. Ana shunday ishyoqmaslar tufayli menga dashnom berishadi...

Shu payt Mirtemir o‘rnidan turib Karimovga yuzlandi:

-Kechirisizu lekin shu yerning o‘zida ham o‘zingizga zid gapirayapsiz. Hozirgina xatolaringizni tan olib turgandingiz, orqasidan kamchiliklaringizni ko‘rsatgan odamlarni mensimasdan haqorat qilayapsiz, – dedi.

Karimov izdan chiqib ketganini sezib qoldi, shekilli, tomog‘iga bir narsa tiqilgan odamdek kafti bilan og‘zini bекitib yo‘talgan bo‘ldi. Bu yolg‘on yo‘talishi o‘zini ham qoniqtirmadi, bardoqda almashtirilmay qolgan suvni olib ho‘pladi. Majlis xizmatkorlari hayotlarida ilk bor bunaqangi tortishuvni ko‘rishganidan hind kinofilmini tamosha qilayotgan bolalardek og‘izlari ochilib qolgan va suvni almashtirishni ham unutishgandi. Karimov bardoq ostidagi bir ho‘plam suvni ichib bo‘lgach, buni angladi va qo‘lidagi bo‘sh bardoqni raisning yuziga uloqtirmoqchi bo‘ldi. Lekin o‘zini tutib qoldi.

-Siz haqsiz, – dedi u Mirtemirga qarab. – Raisdan iltimos, majlisning bugungi qismiga shu yerda nuqta qo‘ysin. Ivanovga o‘xshab charchab qolganlar mehmonxonaga borib...

Karimov “mehmonxonaga borib araqlarini ichsin” demoqchi edi, lekin gapining davomini yutib yubordi.

-Iltimos qilaman yoshu mard va jasur millatvakillari shu yerda qolsinlar. Kerak bo‘lsa ertalabgacha o‘tirib masalalarni muhokama qilamiz, kerak bo‘lsa kelajak uchun dastur hozirlaymiz, – dedi.

Majlis raisi nima qilishini bilmay, shoshib qolgandi. Karimovning oldida gunoh qilib qo‘ygan boladek seskanib turardi. Majlisni yopishga talaygina vaqt bo‘lsada, u itoatkorlik bilan Karimovga bo‘ysundi va bu orada o‘zini ham oqlab olmoqchi bo‘lgandek millatvakillariга murojaat qildi:

-Bizda demokratiya yo‘q, deganlar kelib demokratiyani bizdan o‘rganishsin. Bugun bu yerda parlamentimiz bizni sevmaganlarga demokratiya darsi berdi. So‘z

erkinligi yo‘q, deganlarning bo‘g‘ziga paxta tiqildi. Mikrofonlarimiz har bir so‘z istagan millatvakili uchun ochiq edi bugun. Matbuot erkinligi yo‘q, deganlarning ham paytavasi qurt tushdi. Chunki bugungi majlisimiz jonli o‘laroq namoyish etildi. Tanqid va o‘z-o‘zini tanqid yo‘q, deganlar yuzlari shuvut bo‘lib qoldilar. Chunki istagan odam prezidentimizni tanqid qildi. Islom aka bu tanqidlarni qabul qildilar. Mana shunday ishchan ruh va kayfiyatda majlisimizga ertaga qadar tanaffus beraman. Ammo hurmatli Islom akam bilan savol-javobi bo‘lgan yoshlar qolsinlar!

Karimov majlis raisining yaltoqlanishiga zaharxandali jilmayishi bilan javob qildi. Zalda yuzga yaqin millatvakili qoldi ularning orasida Vohidov, Iso Xolis, Asqarov yo‘q edi. Ular yo o‘zlariga oid vazifani bitdi deb, yo o‘zlarini yoshlarga daxldor bo‘lmaganlarini “ko‘rsatib qo‘yish” uchun ketib qolgandilar. Karimov yoniga Ravil Abduqodirovni chaqirdi:

-Sen daftar ol, – dedi. – Uni surg‘uchla. Qanday talab tushganini, talab kim tomondan berilganini, kim bajarajagini va muddatini yozib bor. Oxirida har ikki tomon qo‘l qo‘yamiz.

Kommunistik partiya davrida har bir idorada ana shunday daftarlar yuritilardi. Bu intizomnisaqlashning asosiy omili hisoblanadi. Ammotashqaridako‘zbo‘yamachilik, daftarda esa so‘zbo‘yamachilik hukmron bo‘lardi. Hammaning diqqati ana shu daftarlarga qaratilar va ularni surg‘uchlashdan to‘ldirishga qadar bo‘lgan daqiqa hayot mamot masalasiga aylanardi. Karimov shu tajribadan kelib chiqib intizom o‘rnatmoqchi edi.

-Siz gapiring men eshitaman, – dedi Karimov millatvakillariga. – Har qanday masalani, har qanday ohangda gapirishingiz mumkin. Zotan televizorchilar ketib qolishgan. Xalqqa ko‘rinib qo‘yish uchun gapiradiganlar ham ketib bo‘lishdi. Xo‘sh, kimdan boshlaymiz?

Mirtemir o‘rnidan turib:

-Biz hamma talablarimizni majlisga taqdim etilgan bayonotimizda ifoda etgan edik, – dedi.

-U majlisga berilgan hujjat, ko‘pchilik imzo qo‘ygan va ba‘zilari allaqachon imzolarini qaytib olishdi. Shu sababdan har kimning mendan qanday talabi bo‘lsa, marhamat, aytsin, men bajaraman. Sizlarga yana bir takrorlamoqchiman, atrofimdagilar bilan ishlash qiyin, yalqovlar, yolg‘onchilar, manfaatparastlar qurshovida qolganman, sizning yordamingizga muhtojman!

Shu payt “O‘zbekiston ovozi” gazetasida bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlayotgan deputat Nomoz Sa‘dullayev pildiragancha minbarga chiqdi.

-Men uzoq rayondan saylanganman. Majlisda faqat gap bo‘layapti-yu natija yo‘q.

Hozir dehqonlarning eng muhim pallasi. Tabiat, ob-havo bizning tortishuvlarimizni kutib o‘tirmaydi. Men saylovchilarim nomidan hurmatli prezidentimizga iltimos qilmoqchiman. Bizga bir dona traktor ajratsangiz, ertaga shudgor ishlari boshlanib ketadi, traktor hayotiy masalaga aylanadi.

-Yaxshi, – dedi jiddiy ohangda Karimov va ishchanlik kayfiyatida Ravilga qayrilib:

-Yoz, Qishloq xo'jalik vaziri nazoratga olsin, o'n besh kundan keyin natijasini menga aytasan, – dedi. Nomoz Sa'dullayevning bu talabi bejiz emas edi. Qolaversa u bu qadar sodda ham emas. Gazetadagilar u haqda gapirganda “Chanqagan odamni daryoning sohilidan suvsiz qaytaradi” deyishadi. Hozir ham uning talabi soddalarga qarshi yo'naltirilgan bo'lib, qopning og'zini ochib yubordi. Millatvakillari birin-ketin avtobus so'rashga, gaz o'tkazib berishga, suv quvurlari yotqizishga, kolxozdan klub ochishga, bolalar bog'chasi qurishga oid talablarini ayta boshladilar. Bu hodisadan Mirtemirning jahli chiqdi va oldingi qatorda o'tirgan Oygulga:

-Sizga ham bir dona traktor kerak emasmi? – dedi. – Vaqtni qochirmang, temirni kizig'ida bosing.

Oygul Mirtemirning nimaga sha'ma qilganini angladi, shekilli, o'rnidan turib minbarda talabini aytayotgan millatvakilining so'zini bo'ldi:

-Biz rayon selxoztexnika idorasining majlisiga kelganimiz yo'q. Bu yerda mamlakatimizning kelajagi, tanlagan yo'limiz haqida bir qarorga kelishimiz kerak, – dedi.

Gapirayotgan yigitning bunga jahli chiqdi:

-Traktor mraktor so'raganlarga bir nima demaysiz, lekin men maktab haqida gapirayotganimda, so'zimni bo'lasiz. Xo'sh, maktab mamlakatning kelajagi emasmi? Yerlar shudgor qilinmasa, millat och qolmaydimi, qishloqqa gaz o'tmasa, odamlar sovuq qotmaydimi? Mana bu yerda o'tirib olib Turkistonni tuzganingiz bilan xalqning hayoti o'zgarmasa nima foydasi bor?!...

Mirtemir o'rnidan turib minbarning yoniga keldi va ma'ruzachi so'zini bitirishini kutib turdi. Buni ma'ruzachi “gapingni kalta qil” manosida tushundi, shekilli, jahl bilan minbarni tark etdi. Mirtemir uning o'rniga chiqdi-da:

-Millatvakili prorab, zootexnik, quruvchi emas. U davlat arbobidir. Bugun sizning biringizga traktor berilar ekan, bu osmondan yoki Urusiyaning hisobidan olib berilmaydi. Balki birovning haqi yulib olinib sizga beriladi. Bu etakning bir tomonidan kesib olib, boshqa bir tomonini yamagandek gap. Masala esa hatto etak haqida ham emas, masala etakning gazlamasi haqida. Biz bugun qaysi yo'ldan borishimizni aniq belgilab olmas ekanmiz, millatvakillarimizning tushiga faqat traktorlar va avtobuslar kiraveradi. Turkiston haqida gapirdingiz. Bugun

uchun eng yaxshi malham Turkiston birligidir. Turkistonning millat, til, madaniyat birligi haqida gapirishning hojati yo'q, chunki bu mavjud va bor haqiqatdir. Uni inkor ham, yo'q ham etolmaysiz. Ammo iqtisodiy birlik, harbiy birlik bizning kelajakdagi eng buyuk qurolimiz bo'ladi...

Karimov mikrofonni cherta boshladi. Mirtemir so'zini kesib Karimovga burildi:

-Mening traktor yoki avtobus talabim yo'q, – dedi va minbardan tushdi. Karimov suvning oqishi boshqa yoqqa burilib ketishini o'nglamoqchi edi.

-Uka, – deya u Mirtemirga yuzlandi. – Siz mening yuragimdagi gaplarni aytdingiz. Lekin ko‘rinib turibdi-ki bugun bir qarorga kelolmaymiz. Shu sababdan kelishib olsak. Men ertadan boshlab parlament talablarini o‘rganish, ular asosida siyosat yo‘lini belgilash uchun o‘zimga bir yordamchi vazifasini joriy etsam. Unga kerakli barcha huquqlarni bersak. U siz bilan mening har oyda bir marta mana shunday yuzma-yuz uchrashuvimni tashkil etsa, talablaringiz ijrosini nazorat qilib borsa. Sizlar bilan birga mamlakat ichki va tashqi siyosatining dasturini hozirlab, menga taqdim etsa va ijrosini nazorat qilib borsa. Nima deysizlar?

O‘rtaga bir zum sukunat cho‘mdi. Bu ayni paytda tashabbuskor millatvakillarining mag‘lubiyat ko‘chasiga kirganlarini tan olganlari ifodasi bo‘lsa, boshqa tomondan rizolik, sulh alomati ham edi. Sukunatni yana Karimov buzdi:

-Oralaringizda mana shu vazifani bajara oladigan mard topiladimi? Tanqid qilish oson, lekin bir ishni bajarish oson emas. Mana Mirtemir ukamiz tanqid qilishni sevadilar. Agar xalq va mamlakat haqida o‘ylaganlarini amalga oshirmoqchi bo‘lsalar, kelsinlar birgalashib ishlaylik. Meni ishontira olsa, har qanday yo‘ldan borishga roziman, – dedi.

Mirtemir o‘rnidan turib rad javob bermoqchi edi, Toshpo‘lat Jo‘rayev “O‘tirsangizchi” – dedi unga. Murod esa “U rozi, biz ham uning nomzodini ko‘rsatamiz” – dedi. Oygul bo‘lsa, orqaga qayrilib, Mirtemirga “Tabriklayman” deya jilmayib qo‘ydi.

-Demak, Mirtemir ukamizni tabriklayman, – dedi Karimov– Ravil, sen hamma talablarni Mirtemirga topshirasani va bu masalalarda unga yordam berasan. Qolgan gaplarni esa ertaga gaplashamiz, – dedi Karimov. Lekin Mirtemir o‘rnidan turib bu vazifaga o‘tmasligini aytdi.

-Ha, qo‘rqdingizmi?-dedi Karimov,-gapirish oson, ammo ishlash qiyin...

Bu gap bilan u Mirtemirni mot qildi va majlisga nuqta qo‘ydi. U o‘rnidan turib, eshik tomon yurar ekan, Ravil uning yoniga kelib:

-Nozir akani ushlab turibmiz, Kraynov gapga tutib turibdi, yoki javobini berib yuboraylikmi? – deb so‘radi.

-Chaqir, bog‘da gaplashamiz, – dedi Karimov. Nozir Jabborov Karimovning institutda birga o‘qigan kursdoshlaridan biri edi. Nozir Karimovga ko‘ra oldinroq mansab kurslarini bosib o‘tdi. Vazir bo‘ldi, keyin Markaziy Qo‘mita bo‘lim mudiri, undan keyin yirik viloyatning rahbari. Juda ko‘p xayrli ishlari bilan xalq orasida nomi chiqdi. Qaysi viloyatda qurilish, obodongarchilik, xalqqa xizmat oqsab qolsa, uni o‘sha yoqqa yuborishardi. Karimovga ham uning ko‘p yordami tekkan. Nozir Jabborov Mirtemir yashagan viloyatga rahbar bo‘lib kelganda, bu yerda biror ish qila olmaydi, deb o‘ylashgandi. Chunki butun jilovlar o‘g‘ri “bobo”larining qo‘lida edi. Bir yilning ichida Nozir Jabborov o‘g‘risi bormi, mafiyasi bormi axlatni supurgandek supurib tashladi. Sichqonning inini ijaraga olgan bu toifa odamlar Moskva “teshigi”dan yorug‘likka chiqdilar va tuhmat bilan Nozir Jabborovni qamadilar. Mirtemir Nozir Jabborovni ozod qiluvchilar harakatiga qo‘shildi.O‘sha kezlarda Karimov endigina jumhuriyatga rahbar bo‘lgandi. Viloyatga kelib “To‘polonchilar” bilan uchrashdi.

-Nozir Jabborov sizdan ko'ra menga yaqinroq. U mening jon do'stim. Uning ozod bo'lishi uchun har kuni iltijo qilaman. Agar sud bo'lsa va u oqlansa, mana shu yerda erkak so'zini berayapman, uni o'z joyiga tiklaymiz, dedi. Oradan ko'p o'tmay Nozir Jabborov oqlandi, lekin ishsiz qoldi. Yana viloyatda uni o'z joyiga tiklash harakati boshlandi. Bu safar Karimov tish-tirnog'i bilan unga qarshi kurashdi. Uni badnom qilish, yomonotliq sifatida xalqqa ko'rsatish uchun butun hunarini ishga soldi. Viloyatga Nozir Jabborovni emas Abdurahmonovni rahbar etib tayinladi. Saylovlar boshlanganda Nozir Jabborovni o'zi tug'ilgan tumandan millatvakili etib saylashdi. Saylov natijalarini hisobga olishmadi. Ikkinchi bor saylov o'tkazildi. "Istasang ukangni bo'shatamiz, uning o'rnida ishlaysan, so'ngra o'sha tashkilotga rahbar bo'lasan" deyishdi. Mana endi kursdoshlar yuzma-yuz uchrashib turibdilar. Karimov Nozir Jabborovning yelkasiga qo'lini qo'yib:

-Do'stim, senga ko'p sitam o'tdi. Hammasidan xabardorman. Xudo hohlasa, yorug' kunlar oldinda. Seni o'z vazifangga tiklayman. Samarqand sensiz xarob holga keldi. Kecha seni qidirgandim, topolmadim, yordamingga muhtojman. Bugun guvohi bo'lding, atrofimdagilardan birortasi meni himoya qilmadi. Bundan keyin senga o'xshagan do'stlaringa tayanishim kerak. Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi, deyдилar.

-Siz bilan uchrashish uchun bir yildan buyon urinaman, lekin Kraynov doim Jo'rabekovga jo'natadi. Jo'rabekov esa yolg'onchi, so'zida turmaydigan odam.

-Nima qilay kunim shundaylarga qolgan. Xudo hohlasa birgalashib undaylarning bit bosgan ko'rpasiga o't qo'yamiz. Mana shu majlis o'tsin, huzurimga kel, seni viloyatga rahbar etib tayinlayman. Bu samimiy gap. Erkakning gapi bitta bo'ladi. Ana u Po'lat Abdurahmonovga ishongandim, lekin g'irt poraxo'r, xotinboz,

muttaham chiqdi. Uni qamoqda chiritaman.

Karimov biroz aylangandan keyin Nozir Jabborovga javob berib yuborarkan:

-Bu tirranchalarga ishonib bo'lmaydi. Ertaga qaytadan bosh ko'tarishlari mumkin. Shunday bo'lib qolsa, o'zingni ko'rsatasan, – dedi.

-Menimcha ularning ishini bitirdingiz, – dedi Nozir Jabborov xayrlasharkan. Darvoqe, majlisdan bir kun oldin Mirtemir Nozir Jabborovning yoniga kelgandi.

-Men bu o'yinlarni ko'p ko'rdim, – dedi Nozir Jabborov. – To'qqiz oy qamoqxonaning zax bir hujrasida yotarkanman bunday o'yinlarga kirmayman, deb qasam ichganman.

-Nahotki, buni o'yin deb o'ylayapsiz?

-Sizlar uchun o'yin bo'lmasligi mumkin, ammo ular uchun o'yin bu, – dedi Nozir Jabborov boshmaldog'i bilan yuqorini ko'rsatib. – Sizni ukam, hurmat qilaman. Shu bois ochig'ini aytay, men Karimovni yaxshi taniyman. Uning mahorati yonida shayton ip esholmaydi. Sizlar esa siyosiy o'yin nimaligini bilmaydigan beg'ubor yigitlarsiz. Bu yo'lda qurbon bo'lib ketasizlar.

-Suvning oqishiga qarasak ham qurbon bo‘lamiz. Undan ko‘ra bu suvni boshqa tomonga burish uchun urinib ko‘rsak, natija chiqsa chiqdi, chiqmasa qurbon bo‘lsak, yaxshiroq emasmi?

-Dunyodagi eng oson ish qurbon bo‘lishdir. Eng qiyini esa qurbon bo‘lmaslik.

-Demak, eng yaxshisi o‘rta yo‘l ekan-da.

-Sizga tushuntirishga qiynalayapman. Menimcha vaqti kelib o‘zingiz anglaysiz. Lekin qalban, ruhan, vijdonan sizlar bilan birgaman.

Bu suhbatni Karimovning josuslari magnit lentasiga yozib olishgandi. Karimov suhbatni eshitib ko‘rgach:

-O‘yinga kirmaydigan odam! Seni shunday o‘yinga kiritamanki, nom nishonsiz yo‘qolib ketasan, – deya baqirgandi. Mana endi Nozir Jabborovni u o‘yinga tortish uchun ilk qadamini tashladi. Karimov biroz yengil tortdimi, boshi sim-sim og‘riyotgani yodiga tushdi. Yordamchisi Kraynovga:

-Yugur, Nozirni yo‘ldan qaytar, men yuqorida bo‘laman. Bugungi g‘alabani yuvishimiz kerak, – dedi.

Karimov doim gavjum bo‘ladigan saroy bog‘ida hech kim yo‘qligini ham e‘tibordan chetda qoldirmadi. Qo‘rqoqlar, deb o‘yladi, har tarafga qochishgan. Pana panadan poylab turishibdi. Bu dunyo naqadar xiyonatkor. Bularning hammasiga ish berdim, maosh berayapman, oilalarini meni hisobimdan boqishayapti. Yana boshimga bulut kelganda qochishdi. Ertaga o‘rnimga boshqa biri kelsa ular hech narsa ko‘rmagandek uning tovog‘ini yalaydilar.

Kraynov bilan Nozir Jabborov harsillagancha yetib keldilar.

-Og‘ayni, charchabsan, tennis o‘ynashni tashlab yubordingmi? – dedi Karimov Nozir Jabborovga.

-Charchaganim yo‘q, hali Kraynovga o‘xshaganlarning beshtasini charchataman. (Birinchi kitob tugadi).

1995-1996.

IKKINCHI KITOB [BOOK 2]

” T A N G R I C H A L A R ” [2 4]

Karimov sho‘rolar imperatorligining yiqilishiga aslo ishonmasdi. U imperatorlikni baland devorlar bilan o‘rab olingan qal‘aga o‘xshatardi. Bu qal‘aning devori shu qadar baland ediki, uni inson zoti u yoqda tursin, hatto biror bir maxluqning oshib o‘tishi amri mahol deb o‘ylardi. Na ichkariga

kirish va na tashqariga chiqish mumkin. Qal'a ichida yuz berayotgan voqealarni kuzatib turish uchun devor ustiga ming-ming qo'riqchi chiqarilgan. Karimov o'zicha bu qo'riqchilarni "tangrichalar", qal'a ichidagilarni esa "chumolilar" deb atardi. "Tangrichalar" kunni kun, tunni tun demasdan "chumolilar"ni kuzatib turishar, o'z chizig'idan chiqqanlarni ezg'ilab tashlashardi.

Avvaliga Karimovning orzusi "tangrichalar" safidan o'rin olish edi. Bu orzusiga etgach, ko'rdiki "tangrichalar" tepasida "tangrilari" bor ekan.

Qal'a devorining ustiga chiqqach, imperatorlikning mustahkamligiga yana bir bor ishondi. Karimov "Bu qal'a yiqilishi mumkin", degan fikrni xayolidan o'tkazishga qo'rqardi. Faqat bir marta "Bu chumolilar qal'a devorlarining ostini o'yib tashlagan bo'lsalar-chi?" degan savol ko'nglidan kechganda, tizzalari titrab, ko'ngli behuzur bo'lgandi. Bu qal'a yiqilsa "tangricha"likdan ayrilish qo'rquasi emas, balki ko'nglidan o'tganini o'zidan yuksakdagi "tangri"lari payqab qolishidan titrash edi. U jumhuriyatga "birinchi" etib tayinlangach, KPSS Markaziy Komitetining Siyosiy Byurosiga a'zo bo'ldi. O'shanda ilk bor sevinch degan tuyg'uning lazzat sarhadlari bepoyonligini, g'urur degan kuchning salohiyati hududsiz ekanligini yurakdan his qilgandi.

Hatto Toshkentga qaytarkan, uchoqdan tushishi bilan muxbirlarni yoniga chaqirib "Xalqimga etkazing, men Politbyuroga a'zo bo'ldim. Bu xalqimizning uzoq yillik orzusi edi. Uni amalga oshirish mening gardanimga tushdi. Bu nafaqat men uchun, balki butun xalqimiz uchun yuksak ishonch. Bugun hammamiz uchun katta bayramdir!" degandi.

Lekin Karimov istasa-istamasa qal'a yiqilayotgandi. U jon-jahdi bilan elkasini qal'a devorlariga tirab, uni tutib qolishga urinayotgan kishilardan biriga aylandi. Qal'ani saqlab qolish uchun har turli yo'l qidirayotgan kunlarida jumhuriyatda ham qal'a devorining ostini "o'yayotganlar" ko'payib qoldi. Karimov bu ishning boshida turganlar bilan "odamga o'xshab" gaplashib qo'yimoqchi bo'ldi. Avval Iso Xolisni

chaqirdi.

-Uka, siz mashhur odamsiz, -dedi unga. -Sizning har bir qadamingizni kuzatib, ko'rib turibman. Ayniqsa paxta monopoliyasi, oilani rejalashtirish, Orolni qutqarish borasidagi nutqlaringiz meni hayajonlantirdi. Har kim ham o'z xalqi dardini bu qadar jasorat bilan o'rtaga olib chiqolmaydi. Bugun bu ishni siz boshladingiz.

-Bugun emas, buni bir necha yil oldin boshlaganmiz. Bundan olti yil burun Polityuroga shikoyat maktubi yo'llab, xalqimizning dardini ifoda etganmiz.

-Lekin bu dard shikoyat bilan malham topmaydi. Uning malhami aql, idrok, kuch va intizom, -dedi Karimov Iso Xolisga uzoq gapirish uchun izn bermay. Siz namoyishlarni to'xtating, men esa ertaga ish boshlaydigan sessiyada til masalasini ko'tarib chiqay. Bilasiz, man yangiman, parlamentda esa kuch eskicha fikrlovchi kishilarning qo'lida. Buning ustiga rus tilida gapiruvchilarni ham hurmat kilishimiz kerak. So'z beraman, o'z tilimizni davlat tili deb e'lon qilish uchun butun kuchimni ishga solaman. Siz esa bunga javoban namoyishlarni to'xtatasiz...

Iso Xolis mamnun qiyofada chiqib ketarkan, Karimov Shavkat Temurni chaqirdi.

-Sizni ancha cho'rtkesar odam deyishardi. Lekin ko'rinishdan yumshoq kishiga o'xshayapsiz, - dedi Karimov Shavkat Temurga. -Bugun namoyishlarda o'rta otilayotgan shiorlar bilan men bajarmoqchi bo'lgan orzularning hech qanday farqi yo'q.

-Unday bo'lsa nima sababdan namoyishga chiqqanlarni kaltaklayapsiz, qamoqqa tashlayapsiz, ta'qib etayapsiz?

-Siz meni so'roq qilishga keldingizmi? -Karimovning jahli chiqdi. O'rnidan turib xonada u yoqdan bu yoqqa ikki uch marta borib keldi-da oyna yonida to'xtab tashqariga termuldi. Shahar markazidan oqib o'tadigan ariqning sohillaridagi majnuntol daraxtlari ostida odamlar o'tirishganini ko'rib qoldi. "Bularning ishi yo'qmi?" deb o'yladi. Kuppa kunduz kuni bu erda nima qilishadi? Balki talabalaridir? Talaba bo'lsa, darsiga borsin! Balki oshiq-ma'shuqlardir? Nima, bu yer ularga sevgi xiyobonimi? Aslida bu binoning atrofini o'rab olishim, sohil bo'ylarini tartibga keltirishim kerak. Binoni temir panjara bilan o'rab olishni tezlashtirmasam, mana bular bostirib kelishdan ham qaytishmaydi. Qaysi kun askarlikda o'lgan bolaning tobutini shu erdan olib o'tishdi. Mana bu ham ularning orasida edi. Yangi do'ppi kiyib tobutning oldida borayotgandi. O'zlaricha namoyish, isyon qilishga urinishdi. Lekin bir imo qilgandim mirshablar kavushlarini to'g'rilab qo'ydi. Ayb bizda emas, ayb yuqorida. Yuqoridagilar jilovni bo'shatib yuborishdi. Butun mamlakatni ana shundaylarning qo'liga berib qo'yib majlisxonaga aylantirishdi. Mana endi menday odam ham uning bema'ni savollari qarshisida qolishga majburman. Hozirning o'zidayoq uni bu erdan quvib chiqarishim mumkin. Hatto qamab qo'yishim ham hech gap emas. Yoki qo'l oyog'ini bog'latib, soyga otib yuborsam ham guldur gup!

Gum bo'lib ketadi. Lekin yuqori ularni qo'llayapti. Ba'zilar bularni yuqorining o'zi tashkillashtirgan demoqdalar. Shuning uchunmikan yuqoridan ularga tegmanglar, deyishyapti. Xo'sh, nima qilish kerak? Ularning majlisini tomosha qilish bilan kun o'tkazamanmi?

Darvoqe, nega bularni ayri-ayri chaqirdim, nega har ikkalasi bilan birdaniga suhbat qilmadim? Yo'q, u holda bir-birining oldida o'zlarini ko'rsatib qo'yish uchun mening yoqamga yopishishardi. Ha-ya, dushmaningni parchala, keyin yo'q qil, degan gapni kim aytgan ekan? Bular bilan teng kelib o'tiramanmi? O'zlarini o'zlariga ediraman! Men chetda qolib tomosha qilaman, bular esa bir-birlarining yuzlarini yulishadi. Ha, bugun bir tovoqdan osh egan birodarlarni ertaga qon qasos dushmanga aylantiraman. Mening sovunimda kir yuvish qandayligini ko'rib qo'yishsin. Bir umr dushman bo'lishadi, hatto avlod-ajdodlariga qadar singadi bu dushmanlik. Ammo xato qilmasligim kerak. Narigisini aldash oson, istagan joyidan qarmoqqa ilintirish mumkin. Lekin buni-chi? Buni ham o'yinga keltirishning yo'lini topaman.

Karimov o'rniga kelib o'tirdi-da, yumshagan ohangda Shavkat Temurga gapira boshladi:

-Oldimizda saylov bor. Sizlarga bitta o'rin ajratdik. Sizning nomzodingiz uchun. Shavkat Temur xuddi egasining qo'lida suyak ko'rgan itdek tamshanib qoldi.

Karimov bundan foydalanib, asosiy gapni aytdi.

-Ammo Iso Xolis qarshi bo'ldi. Faqat sizdan iltimos bu suhbatimizni undan uzoq tutsangiz.

Shavkat Temur sevinchli ko'zlarini o'ynatib, boshini likillatdi. Karimov undan nafrat qildi. Juda oson sotiladigan turidan ekan. Bundaylarga bir narsa berib ham mazza qilmaysan. Uni quruq gap bilan bozorga solaman. Ana unga qarshi shunday o'ynatamanki, tarix bunaqa tomoshani juda uzoq eslaydi. Buning ikki qulog'ini kesib qo'yaman. Quturib qoladi. "Fas" dedimmi bosadi. Butun umrini shunga sarflatman. Buning uchun uni avval vatanparvar, millatchi qilib ko'rsatishim kerak. Buni Melkumovga topshirsam o'zi boplaydi.

PARCHALASH [25]

Karimov KGB raisi Melkumov va ikkinchi kotib Anishchevni chaqirdi. Ularning har ikkalasi ham yuqorining odami. Bu ish bilan ularni sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Agar bajara olmasalar, bir bahonasini topib, quyruqlariga supurgi bog'lashga, bajarsalar bundan keyin birga ishlashga qaror qiladi. Nima bo'lganda ham Siyosiy

kengashning a'zosi bo'ldi. Endi bularning gapi emas, o'zining gapi o'tadi.

-Sizlarga mamlakat boshlig'i Mixail Sergeevichning talabini etkazib qo'ymoqchiman. U kishi bizdan demokratiya, oshkoralikni istayaptilar, erkin va ozod saylovlar o'tkazishimizni, muxolifatni qo'llab-quvvatlashimizni so'rayaptilar. Demak, biz ko'cha-ko'yda to'polon qilgan odamlarni muxolifat, deya hurmat qilishimiz kerak emas. Bizning vazifamiz muxolifatni ham o'zimiz etishtirish, konstruktiv muxolifat tayyorlashdir. Ko'cha-ko'yda janjal qilayotganlar esa atroflariga dor ostidan qochganlarni to'plab, tobora katta kuchga aylanmoqdalar. Bu esa mamlakat xavfsizligiga putur etkazadi. Parkentda, Bo'kada, vodiya yuz bergan voqealarning tutuni hali so'ngan emas. Xo'sh, gapni qisqa qilaylik, qanday takliflar bor?!

Melkumov, "Siz mendan yuqoridasiz, oldin siz gapiring, degandek ko'z qiri bilan ikkinchi kotibga qaradi. Ikkinchi kotib "Hali ham men turganda sen gapirarmiding" degandek so'zlarini dona-dona qilib o'zidan so'ng xavfsizlik qo'mitasi raisiga biror gap aytish uchun bo'shliq qoldirmaslikka urindi:

-Hurmatli Islom Abdug'anievich, bizga muhlat bering, bu xususdagi takliflarimizni tayyorlab kelaylik.

Karimov o'ylab turdi-da:

-Men Plenumga hozirgarlik haqida gapirayotganim yo'q. Qarshimizdagi to'dani nima qilamiz, deyapman?

Ikkinchi kotibni bu mushkul ahvoldan qutqarish uchun KGB raisi suhbatga aralashdi:

-Parchalab tashlaymiz...

Parchalab tashlaymiz! Buni qaysi ma'noda aytdi, ekan, deb o'yladi Karimov. Kuch bilan bostirib, tor-mor qilishni nazarda tutdimi yoki mening fikrlarimni uqib oldimi? Agar men o'ylaganlarimni o'ylayotgan bo'lsa, u holda masalani boshqa kunga qoldirishim kerak. Chunki tashabbus undan emas, mendan chiqishi lozim. Aks taqdirda Karimov mening yo'limga yuryapti, deb hovliqib ketadi.

-Fikringizni ochiqroq ayting, -dedi Karimov KGB raisiga.

-Hammasining ro'yxati qo'limizda bor. Bundan keyin bir erga to'planishlariga izn bermaymiz. Ta'qibni kuchaytiramiz. Har bir qadamlari nazorat ostida bo'ladi. Bu ishni bajarish uchun yana besh ming kishini ishga olishimiz kerak. Takliflarimizni hurmatli ikkinchi kotib bilan Sizdan oldingi rahbarga bergandik. Lekin e'tiborsiz qoldi.

-Yaxshi, takliflarni ko'rib chiqamiz, -dedi Karimov. -Hozir haqiqatdan ham parchalab tashlash kerak. Lekin siz aytgan uslubning zamoni o'tdi. Bu yo'l bilan ularni kuchlantiramiz. Bugun aql bilan ish ko'radigan payt. Hozir muxolifatning ichida bir necha kishi liderlikka da'vogar. Bizning vazifamiz ularni bir-birlariga qarshi qo'yishdir. Xo'sh, aytingchi, muxolifatning ichida necha foizi sizning odamingiz?

-Aniq aytishim qiyin.

-Aniq aytsam Olmoniyada har uchinchi odam xavfsizlik xizmatiga ishlagani fosh bo'lganidek faoliyatimiz ochilib qoladi, deb qo'rqayapsizmi yoki mendan sir saqlayapsizmi?

-Aslo, aslo, -deya suhbatga aralashdi ikkinchi kotib.

-Men iloji boricha muxolifat ichiga ko'p odam suqmang, bir joyda sirimiz ochilsa, olamga sharmanda bo'lamiz, deya topshiriq bergandim. Shu sababdan bu xususda biroz istihola qilayaptilar.

Bundan keyin Melkumovni qo'lga olishim kerak, deb o'yladi Karimov. Umuman kuch vazirliklarini ikkinchi kotibning qo'lidan chiqarmog'im va o'zimga tobe qilmog'im lozim. Bu ishlarda uchinchi kishi ortiqcha. Buni qanday qilib amalga oshirsam? Nazarimda ba'zi jumhuriyatlarda Prezident vazifasi tashkil etilib to'g'ri qilinayapti. Men ham shu yo'ldan borsam, butun kuchni bir qo'lda jamlayman. Hozircha eski parlamentning oxirgi sessiyasini eson-omon o'tkazishim, keyin esa yangi saylovni tayinlashim kerak. Xudo xohlasa, yangi parlamentda birinchi bo'lib Prezident vazifasini joriy ettiraman. Ana undan keyin mana bularning xurjunini elkasiga osib, orqasiga tepaman. Bir o'q bilan ikki quyonni uraman. Ham xalqqa "Sizning talabingiz bilan bularni quvdim", deyman, ham ularning o'rniga o'z odamlarimni olib kelaman. Ammo bular fitnaga usta. Hayotini boshlabdi-ki, fitna girdobida suzishadi. Menga qarshi ham qancha-qancha fitnalarning rejasini tuzgan bo'lishlari mumkin.

-O'zlarini milliy harakat deb atayotganlarning ichidagi liderlarni xo'rozdek urushtirishimiz kerak. Buni fitna deysizmi, hiyla deysizmi, men uchun farqi yo'q, -dedi Karimov. -Men uchun muhimi mamlakatni qutqarib qolishdir. Istasangiz aldang, istasangiz mansab va'da qiling, istasangiz qarmoqqa ilintiring, bajara olmasangiz mening oldimga olib keling. Hozircha esa Iso Xolisni biz

ko'rsatadigan nomzodlar ro'yxatiga kiriting. Uning nomzodi qarshisida boshqa ism ko'rmayin. Shavkat Temurni esa uzoq tuting. Kerak bo'lsa, Parkent janjalidagi baqiriy-chaqiriqlari uchun tergovga tortamiz. Barcha viloyatlar tumanlarida majlislar o'tkazib, Farg'ona voqealarida muxolifatni qon to'kilishiga sababchi qilib xalqqa tushuntiring.

Karimov har kun ertalab va oqshom hisob berib turishlarini aytib ularni chiqarib yuborar ekan, Oliy Kengash raisi Ibrohimovga sim qoqdi:

-Bugunoq rayosatni to'plang, ko'cha namoyishlari va mitinglari haqidagi oldingi qarorlarni ko'rib chiqing, iloji boricha har qanday namoyishni taqiqlash chorasini ko'ring. Ammo bu ishlar demokratiya, oshkoralik ramkasida bo'lsin. Ya'ni demokratiya va oshkoralikni himoya qilish uchun buzg'unchilik qilayotganlarning yo'lini to'sing. Qaror tayyor bo'lsa, ustidan ko'rib beraman, -dedi.

Karimov shundan keyin ertaga ish boshlaydigan sessiyaga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Fikrlarini yon daftarchasiga qayd etarkan ba'zi masalalarni Moskva bilan kelishib olishga qaror qildi. Kremlga telefon qilib, Mixail Sergeevich bilan maslahatlashib oladigan masalalar chiqqanini aytdi. Bir necha daqiqadan keyin uni Gorbachyov bilan bog'lashdi. U o'rnidan turib gaplasha boshladi:

-Hozir Markaziy Komitet byurosining favqulodda majlisini o'tkazayapmiz. Ertaga muxolifat bir million kishini ko'chalarga, maydonlarga olib chiqmoqchi.

-Nima talabi bor ekan? Liderlari bilan gaplashmadingizmi?-deb so'radi Mixail Sergeevich.

-Gaplashdik. Talablari bitta. U ham bo'lsa "Ona tilimizga davlat tili maqomi berilsin", deyishmokka.

-Buning qo'rqadigan joyi yo'q.

-Lekin davlat tili-rasmiy tilimiz bor, qanday qilib boshqa tilga ham shunday maqom berishimiz mumkin?

-U boshqa til emas, sizning ona tilingiz. Menimcha muxolifatning talabini qondirmoq kerak.

-Rahmat sizga! Oldimizda katta yo'l ochdingiz. Ammo bu harakatimizdan rus tilida gaplashadigan do'stlarimiz norozidirlar. Mana majlisda ikkinchi kotib va KGB raisi norozi ekanliklarini aytayaptilar. Ularga quloq solmasdan ilojim yo'q.

-Ularga quloq soladigan bo'lsangiz, meni nega bezovta qilayapsiz?

-O'rinbosaringiz janob Ligachyov suhbatdan o'tayotganimda "Ikkinchi kotib va KGB raisining maslahatlariga quloq tutasiz", degandi.

-Hozir har kun, har soatda shartlar o'zgarmoqda. Muxolifat siz bilan qo'shib ularni ham supurib tashlashini mening nomimdan o'zlariga etkazib qo'ying. Mahalliy sharoitni va milliy masalalarni

yaxshiroq o'rganishsin. Muxolifatning talabini esa erta ertalabki plenumda muhokama qiling, undan keyin parlamentga olib chiqib, muzokaraga qo'ying. Demokratiya, qayta qurish, oshkoralik va fikr o'zgarishi bu bizning bosh yo'limizdir...

Telefonning naryog'idagi rahbar xuddi kitob o'qiyotgandek tinimsiz gapirarkan, Karimov telefon dastasini qulog'idan uzoqlashtirib, yuzini bujmaytirgancha kutib turdi. Yuzi bujmaygan bo'lsa-da, qalbida farah va sevinch bor edi. Chunki birdaniga ikki masalani hal qilgandi:

Birinchidan, muxolifat bayroq qilib ko'targan masalani o'z qo'li bilan hal qiladigan va xalqning oldiga chiqib, ko'kragiga urib maqtanadigan imkoniyat paydo bo'ldi.

Ikkinchidan esa, jumhuriyatning jilovlarini tutib turgan ikki kishining shashtini sindirdi. Endi ular bilan qanday gaplashib qo'yishni biladi.

U suhbatdan keyin bir-ikki daqiqa o'rindiqqa yastandi-da, so'ng KGB raisiga telefon qildi:

-Hozir menga Moskvadan mamlakatimiz rahbarining o'zlari telefon qildilar. Idorangiz yaxshi ishlayotganini alohida ta'kidladilar. Men esa sizni himoya qildim. Shunga munosib bo'ling. Muxolifatni qanday qilib ikki, uchga bo'lib yuborish haqidagi aniq rejalarangizni olib keling!

A N I S H C H E V [2 6]

Karimov ikkinchi kotibni chaqirdi. Lekin uning hozirgina chiqib ketganini aytishdi. Ikkinchi kotibni Xavfsizlik qo'mitasi raisi choyga chaqirgandi. Ular choy bahonasida yozib olingan telefon suhbatlarni tinglardilar.

-Yondik, -dedi qo'mita raisi, magnitofon tugmasiga bosarkan.

Karimov bilan mamlakat rahbarining suhbatini tinglagan ikkinchi kotib o'rnidan sapchib turdi-da: "Hoziroq raport tayyorlang, bu o'yinni fosh qilamiz,"-dedi.

-Qanday qilib fosh qilamiz? -dedi qo'mita raisi. -Axir qo'limizda dalil yo'q-ku.

-Bu-chi? -so'radi ikkinchi kotib.

-Bu faqat siz va men uchun. Siz eshitarkan ayni paytda men bu suhbatni lentadan o'chirdim. Agar bilib qolishsa, boshimiz ketadi.

-Unda nima qilamiz? -dedi ikkinchi kotib.

-Karimovga astoydil xizmat qilib, ishonchini oqlashimiz qiyin. Uning jiddiy xatolarini topib, yuqorini xabardor qilishimiz kerak.

Melkumov Karimovga astoydil xizmat qilishimiz kerak, demoqchi edi, lekin bu

“vazifa”ni o’ziga qoldirib, ikkinchi kotibni Karimovga qarshi qo’ymoqchi bo’ldi. Ha, u faqat muxolifatning orasini emas, balki boshqalarning orasini buzishni ham odat qilgandi. Karimov bugun unga muxolifatni bo’lib yuborish topshirig’ini berdi. U esa bu ishning asosini bitirib qo’ygan edi. Faqat muxolifat liderlari o’rtasidagi devorlarga yashirilgan portlatgichlarning ipini yoqib yuborishi qolgandi. Buni Karimovga aytmadi. Mana endi Karimov undan shoshilinch tadbir so’rayapti. Ikki- uch kunda tadbir natijasini bilan ma’lum qilsa, Karimov uning qadriga etmaganiga pushaymon bo’ladi. Joyi kelsa yuqorini yana o’zi yumshatadi. Bular shunaqa, bugun olov, ertaga suv...

-Karimov ikkinchini qidirayapti, -degan ovoz eshitildi radio uzatgichdan. Anishchev sapchib tushdi. Darrov o’rnidan turdi.

Melkumov Anishchevni har doim Milliy xavfsizlik qo’mitasining erto’lasida kuzatib qolardi. Anishchev “choyga”kelarkan, Melkumov unga maxsus mashinalardan birini yuborardi. Ular kelishib olganlaridek, Anishchev Bosh univermagning yonida o’ziga ajratilgan xizmat mashinasidan tushib, Melkumov yuborgan qora “Volga”ga minardi. Melkumovning mashinasi KGB binosiga kirishda tekshirishga tobe bo’lmagani va ikkinchining qatnovi ochilib qolmasligi uchun shunday qilishardi. Mashina erto’laga qadar kirib kelardi va bu erda qo’mita raisi “mehmon”ni kutib olardi. Bu “o’yinni” yillar davomida bajarishgani uchun odat tusiga kirgandi.

Man endi Anishchev navbatchi mashinaga minarkan, Melkumovning qulog’iga pichirladi: “Hoynahoy mening suhbatlarimni ham eshitsang kerak”.

Melkumov ranjigan qiyofada “Sizga o’zimdand ziyod ishonaman. Soyangizda ishlab yuribman. Ana uning qonini qonimizga qo’shib qaynatsa ham aralashmaydi. Nazoratda tutmasak, saroyini Buxoro amirining haramiga aylantirib yuboradi,”-dedi.

Anishchev yana bir nima demoqchi bo’lgandek, bo’ynini cho’zdi. Buni payqagan Melkumov egilgan quloqlarini ikkinchi kotibning og’ziga yaqinlashtirdi.

-Erta oqshomga saunani tayyorlab qo’y. Sessiyadan keyin mehmonim bor-, deya jilmaydi u. Melkumov: “Amringiz biz uchun qonun” degandek qo’lini ko’ksiga qo’ydi-da, Anishchevga ikkita “Ish papkasi”ni uzatdi.

-Bo’sh vaqtingizda bularga nazar solib qo’yarsiz, -dedi.

Har ikki “Ish papkasi”ham qizil bo’lib, ustiga “Asosiy nusxasi birinchi seyfda. Mutlaqo maxfiy”, deb yozilgan edi.

Ikkinchi kotib mashinalar almashguniga qadar ham sabr qilmasdan “Ish papka”laridan birini ochdi:

“Iso Xolis(Saparali Hamdamov)ga oid muhim ma’lumotlar: 1948 yil tug’ilgan. Ikki

marta uylangan. Birinchi umr yo'ldoshi uch farzandi bilan ayri yashaydi. Ikkinchisi mahalliy millatdan bo'lmagani uchun bu xususda har turli mish-mishlar tarqatish mumkin. Shu kecha kunduzda eng nozik joyi uy masalasidir. Ikki yoxud uchta uyga ehtiyoji bor. Qazilma buyumlarini yaxshi ko'radi va to'playdi. Piyoda yurishni sevmaydi. Avtobusga minishdan hazar qiladi. Shu bois mashina ham berish mumkin. Birga o'qigan yaqin do'stlaridan ikki nafari bizning odam. Ammo yaqinda ulardan birini do'pposlagan. Shu bois uni qarshi qo'yish mumkin. Ziyofatni, kayf- safoni sevadi. Biz yuborgan qizlarning birortasidan ham shubha qilgani yo'q.

Liderlik qobiliyatiga ega emas. Biror joyda muqim ishlagani yo'q. Ishlagan joylaridan mas'uliyatsizligi uchun haydalgan. Familiyasini yozsangiz yoki familiyasi bilan chaqirsangiz "G'ururim toptaldi" deb hisoblaydi. Bu haqda maqolalar uyushtirish mumkin.

Yaxshi kiyinishi, majlislarda o'zini ko'rsatib qo'yishni bilgani uchun bir guruh yoshlar uning orqasidan ergashgan. Uni yaxshi taniganlar esa darhol uzoqlashgan.

Jahli burnining uchida. Uni qizdirish juda oson. Eng yomon ko'rgan odamiga o'xshatsangiz yoki liderlik qobiliyati yo'qligini yuziga solsangiz duelga ham chiqishga tayyor bo'ladi. Boshqalarning fikri bilan hisoblashmaydi. O'zining bilganidan qolmaydi. Uni aldash oson, mish-mishlarni, "dedi-dedi"larni yaxshi ko'radi.

Umr yo'ldoshiga juda ham bog'liq. U chizgan chiziqdan chiqmaydi. Buni boshqalarga bildirmaslikka urinadi. Shu sababdan o'zgaralar oldida oila a'zolariga qo'pollik qiladi. Kelajakda oilaviy hayotini ham fosh qilish mumkin.

Pulni sevadi. Keraksiz joyga xirmon sovurgandek pul sochadi. Kerakli joyga qolganda esa har qanday xasisga ham dars beradi. Keyingi paytda chet elliklar bilan yaqin aloqa qila boshladi. Ba'zilaridan yordam ham oldi. Filmga tushirganmiz. Hasadgo'y. Boshqalarni mensimaydi. Doktorlarning bizga taqdim etgan hujjatlarga ko'ra, paranoya xastaligiga duchor. Agar rahbarlik jilovi qo'lga tegsa, ashaddiy diktatorga aylanadi. Juda tez o'zgaruvchan. Bugun aytgan fikridan ertaga osonlik bilan qaytadi. Ammo birovni dushman deb bilsa, bu fikridan hech qachon qaytmaydi.

Xayolparast. Har bir kichik ishini katta qilib ko'rsatishga urinadi. Hozir atrofini o'rab olganmiz. Qayoqqa boshlasak, o'sha yoqqa yuradi... "

Ikkinchi kotib mashinani "almashtirarkan" ish papkalarini qo'ltig'iga yashirdi. O'ziga ajratilgan xizmat mashinasiga mingach ularni qayta varaqlay boshladi. Lekin xayollari "ko'cha kezardi". Balki mana shu shofer ham ularning odamidir, deb o'yladi. Balki, bu ham men haqimda ana shunday narsalar yozib berar. Balki, ilgari bir necha papkalar to'lgandir? Yo'q, xavfsizlik qo'mitasi qarorlarimizga rioya qiladi. Partiyamiz rahbarlari haqida biror bir hujjat to'planishi mumkin emas. Agar shunday hol yuz bersa va u o'rtaga chiqib qolsa, hammasining boshi ketadi.

Ammo bularga ishonish qiyin. O'z manfaatlari uchun hech narsadan chekinishmaydi. Karimovning suhbatini yozib olibdi-yu menikini yozmaydimi? O'chirib tashladim, deganiga ishonadigan ahmoq bormi? Birok mendan qo'rqadi. Ikki yildan buyon birgamiz. Haftada bir saunaga boramiz. Bugunga qadar biror joyda hidi chiqmadi. O'zining ham gunohlari menikidan

kam emas. Menga o'n sakkiz yoshli qiz topsa, o'ziga o'n etti yoshlisini topadi. Uning dushmanlari yo'qmi? Balki uning orqasidan kuzatadiganlar bordir? Ikki yildan buyon bir qancha ish papkalarini to'lg'azib qo'yishgandir, balki? Ertangi saunani bekor qilsammi? Yo'q, la'nat shaytonga, unga ishonmasam kimga ishonaman? U bilan nima ishlar qilmadik? Vodiydagi voqealar rejasini ikkalamiz o'tirib tuzmadik-mi?

Xullas, hammasiga sherikmiz! Aslida nega undan cho'chiy boshladim? Nazarimda Karimov bizning oramizga ham soya tashladi. Uning nomzodini o'zimiz ko'rsatdik. Lekin o'zimizga balo bo'ladiganga o'xshaydi. Ilgari viloyatda ishlaganida sovg'a- salom berib turardi. Endi o'sha sovg'alarni burnimizdan sug'urib oladi-yov?! Moskvadagi rahbarimiz latta bo'lmaganda-ku, buni boplardik. Ha, bo'пти nimalar haqida o'ylayapman o'zi?

U xayol surib borarkan beixtiyor ikkinchi "Ish papkasi"ni ochib, uning ilk sahifasini o'qiyotgan edi:

"Shavkat Temur. (Sh. Temurov) 1945 yil tug'ilgan. Ikki marta uylangan. Birinchi xotini bilan ajrlagan.

Ish yerida rahbari bilan orasi ochiq. Rahbari millatchi edi, shuning qo'li bilan yer tishlatdik.

Uning Moskvadagi idoramiz bilan aloqasi bor. Ammo jilovini bizga berishmayati. U qo'rqmay chet elliklar bilan tez-tez uchrasha boshladi. Topshiriq bizdan emas, Markazdan bo'lishi mumkin. Ulardan ochiqchasiga yordam ham olmoqda. Siyosiy faoliyat bilan birga ingliz tilini ham o'rganmokda. Bu esa uning chet elliklar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish niyati borligini yoki kelgusida undan boshqa niyatlarda foydalanish rejasi borligini ko'rsatadi. Lekin ikki ukasi va akasi bizning hisobda.

Jahlini chiqarish oson. O'jar. O'z fikrini boshqalarnikidan ustun qo'yadi. Atrofiga o'z odamlarini to'plashga harakat qiladi. Majlislarga qarindosh-urug'larini boshlab kelishga usta.

Boshqa jumhuriyatlardagi harakat liderlari bilan aloqa o'rnatgan. Tog'asi hukumatga yaqin odam. Undan foydalanish mumkin. Aka-ukalarini rahbarlik ishlariga tortib, jilovlab qo'yish mumkin.

Janjalchi. Boshqa liderlar bilan orasiini buzib qo'yish uchun bu fe'lidan foydalanish mumkin.

Rahbar bo'lishni, rahbarlik qilishni yaxshi ko'radi va juda istaydi. Ammo quruq nazariyaga bog'lanib qolgan.

Boshlagan ishini yarim yo'lda tashlamaydi. Raqibining kichik bir xatosini ko'rsa, undan ustalik bilan foydalanadi.

Poytaxt mafiyasiga aloqasi bor.

Diniy idoraning sobiq rahbarlari bilan aloqa o'rnatgan. Muftini qo'zg'olon yo'li bilan yiqitish uchun ish olib bormokda. O'zi dindan uzoq. Aroq ichadi. Dindorlar ichidagi odamlarimiz orqali

“Namoz o’qimaydi, ichkilikni sevadi, Islomga qarshi” deya har qanday minbardan quvish imkoniyatimiz bor. Lekin Markaz bunga yo’l bermasligi mumkin.

Amerikada yashayotgan “vatan xoinlari” bilan aloqa o’rnatgan. Ular Iso Xolis orqali unga kompyuter yubordilar. Bu kompyuter Markaziy razvedka boshqarmasiga oid bo’lishi ham mumkin. O’rganayapmiz.

Shantajchi. Odamlarimiz u bilan ro’baro’ kelganda, bu narsaga alohida e’tibor berishlarini talab qilayapmiz...

Uning masalasini Markaz bilan gaplashib olish kerak. Bizning so’rovlarni Markaz inkor etmoqda. Markazkom rahbariyati nomidan Moskvaga murojaat qilish taklifimiz hali ham o’z kuchida... “

Ikkinchi kotibning mashinasi saroyga etib kelgani uchun u “Ish papkasi”ni yana yopib qo’yishga majbur bo’ldi. Ichkariga kirarkan bekchi-mirshab:

-Sizni “Birinchii” qidirayaptilar, -dedi.

-Bilaman, -dedi-da ochiq turgan liftga minib, tugmani bosdi. Uning xonasi ham oltinchi qavatda edi. Binoning bir tarafida Karimov o’tirsa, ikkinchi tarafida u joylashgandi. Bu holni tarozining pallasiga o’xshatishardi. Ammo “tarozining” ikkinchi kotib o’tirgan tomoni og’ir bosardi.

Hatto “birinchilar”lar ikkinchi kotibni yonlariga chaqirishga istihola qilib, o’zlari uning huzuriga kelishardi. Mana endi shartlar o’zgardi. Lekin darhol chekinmaslik kerak, deb o’yladi ikkinchi kotib. Hozir to’g’ri uning xonasiga bormayman. Qo’limdagilarni ko’rib qolishi mumkin. Umuman u mening KGBga borganimni qaerdan bildi? Yoki orqamga “dum” bog’ladimi?

Balki Melkumov ikki tomonga ishlay boshlagandir? Bundan oldingi ikkita rahbar- Usmonxo’jaev va Nishonovlarning shoxini sindirdim. Birini kamoqqa tiqirdim, ikkinchisini esa surgun qildirdim. Nahotki bundan qo’rqaman? Hali kechagina

huzurimga kelib ko’z yoshi qilgandi. Agar men qo’llamasam bu joyni tushida ham ko’rmasdi. Lekin nonko’rlik qilayapti. Hozirdanoq jiqqa musht bo’lsak, men yutqazaman. Chunki yuqori kecha yuborgan odamini bugun almashtirmaydi. Shu bois chidashim kerak. Bugungi g’irromligini esa javobsiz qoldirmayman.

U liftidan tushib, xonasi tomon yurmoqchi bo’lgandi Karimovning yordamchisi Kraynov uning yo’lini to’sdi:

-Yong’in! Dunyoga o’t ketdi, -dedi u. -Karimov sizni qidirish uchun hammani oyoqqa turg’azdilar.

-Men xonamga kirib chiqay, so’ng ko’rishaman.

-U kishiga liftga minganingizni aytdik, eshik ochiq, kutayaptilar, iltimos, yong’inni so’ndirib bering!

Anishchev noiloj qoldi. Chapga qayrilib, Karimovning xonasiga kirdi. Uning avzoyi buzuq. Bosh egib stolni chertib o'tirardi:

-Ikkinchi kotibning KGBga borishi qaerdan chiqdi?! Yoki davlat to'ntarishi hozirlayapsizmi? Nima gap o'zi?

Anishchev shoshib qoldi:

-Topshirig'ingiz bo'yicha borgandim. Mana bularni shaxsan o'zim olib keldim. Yuqorining topshirig'i bilan milliy harakat liderlarining "Ish papka"lari birinchi seyfga tushgandi. Uni ochish uchun Melkumov bilan ikkalamiz imzo qo'yishimiz kerak ekan. Chunki sizning topshirig'ingiz ham juda muhim edi. Nusxa ko'chirdik, mana...

Ikkinchi kotib bunday sharoitlarga oz tushgan bo'lsa-da ustalik bilan qutulib ketish uchun albatta yo'l topardi. Ba'zan bu fikr menga qayoqdan kelib qoldi, deb o'zi o'ziga qoyil qolardi. Shu lahzada ham Karimovni qiyin ahvolga tushirdi. Unga bu vaziyatdan chiqish uchun imkon bermaslikka urinib so'zida davom etdi:

-Yo'lda mashinani to'xtatishimga to'g'ri keldi. Moskvadan telefon qilib, hozir o'tkazilayotgan majlisning kun tartibini so'radilar.

-Kim so'radi, qanaqa majlis?

-Tashkiliy bo'limdan so'rashdi. Siz mamlakat rahbari bilan gaplashayotganda bo'lim mudiri uning yonida ekan, ba'zi narsalarga qiziqdi. Tushuntirib berdim.

Ikkinchi kotib Karimovga birin-ketin zarba urayotgandi. Karimov ringda tentirab qolgan bokschidek muvozanatini yo'qotdi.

-O'tiring, o'tiring. Hozir choy buyuraman ...

-Rahmat, men qahva ichaman, -dedi ikkinchi kotib.

-Darvoqe, nimani so'rashdi? -Yumshoq ohangda so'radi Karimov.

-Davlat tili haqidagi qonun loyihasiga kiritilgan o'zgartirishlarni.

-Qaysi o'zgartirishlarni?

-Markaziy qo'mita qonun qabul qilingach, uning ba'zi bandlarini bir necha yildan keyin kuchga kiritish taklifini ilgari surdi. Masalan, mahalliy tilni bilmaydiganlar uchun bu qonun besh yildan keyin kuchga kiradi.

Karimov o'ylanib qoldi. Besh yilda bu tilni o'rgana olamanmi? Gapirish-ku gapirish, hatto o'qishim ham qiyin. Kecha bir sahifani ikki soatda arang o'qib chiqdim. Yaxshiyamki Jo'rabekov tilni bilar ekan. Hatto u ham ba'zi kalimalarni tushunmadi. Biz bo'lsak butun davlat ishlarini ana

shu tilda yuritmoqchimiz. To'xtab tur, qonun degani hayot emas-ku. Hayot boshqa, qonun boshqa. Qog'ozdagi narsa-qog'ozning mulki. Agar shu buzg'unchilar istayotgan bo'lsalar, qog'ozga yozib qo'yaveramiz. Uni bajarish, bajarmaslik o'z qo'limizda. Bir kun kelib tilni yaxshi o'rganib olsam, balki bu qonunni amalga ham oshirarmiz. Hozircha esa rus tilida gapiradigan birodarlarimizni cho'chitmaslik chorasini ko'rishimiz kerak.

-Besh yil oz, -dedi u ikkinchi kotibga. -So'zga chiquvchilarni tayyorlang. Sakkiz yil degan taklifni kiritishsin. Masalan, siz sakkiz yilda o'rganishingiz mumkinmi?

-Birgalashib o'rganamiz. -Ikkinchi kotib "Katta"ni yana "chaqib"oldi.

-O'rganolmasak, keyinchalik ana shu bandlarini olib tashlaymiz. Bunga yuqoridagilar nima deyishdi?

-Ular o'zimizning odam. E'tiroz qilishmadi.

-Yaxshi. Darvoqe, bu "Ish papka"larida nima bor?

-Iso Xolis bilan Shavkat Temurning kimligi, eng nozik joylari, qilmishlari haqidagi ma'lumotlar.

Karimov ham Anishchevga o'xshab har ikki "Ish papkasi"ning ilk sahifalarini o'qib chiqdi.

-Demak, birinchi qiladigan ishingiz Iso Xolisning birga o'qigan do'sti Maqsad Muhammad Qulni... nega buning uchta ismi bor?

-Hozir shunaqasi moda bo'lgan.

-Bo'pti, ana shu "Qul"ni tuzoqqa ilintiringlar. Yo'lini qilib menga tanishtiring. Kallasida biror narsa bo'lsa yonimizda ishlatamiz, jilov qo'limizda bo'ladi. Ikkinchi, do'sti Omon Matchonni esa dushmanga aylantiramiz. Yo'limizga yursa, kelajakda Iso Xolisning qarshisiga raqib qilib chiqaramiz. Hozircha Iso Xolisni Shavkat Temurga qayrang. Shavkatni esa Isoga. Ularni xalqning oldida qo'chqorlardek urishtirmoq kerak... Darvoqe, uning jilovini bu yoqqa olish haqida ham u yoqdagilar bilan gaplashing. Rozi bo'lishmasa yo'lini topib, uni chiqarib yuborish haqida o'ylang...".

Ikkinchi kotib "Xo'p...xo'p..." degani bilan, aslida raqibini "nokaut" qilgandek shaxdam odimlar bilan Karimovning xonasini tark etdi. O'zi uchun ajratilgan kabinetdagi sovutgichdan tunuka qutichalardagi pivolardan birini olib, halqachasidan tortib "tuynugi"ni ochdi va bir hamlada oxiriga qadar ichdi.

Xayriyat, muzdekkina ekan, deb o'yladi. Melkumov hayotining safosini biladi. Aytib qo'yishim kerak, uyda ham pivo oz qoldi. Umuman chet elliklar pivoni sifatli qilib tayyorlashadi. U ikkinchi qutichani olib joyiga borib o'tirdi va Moskva bilan gaplashiladigan "VCh" telefonidan KPSS MK tashkiliy bo'lim mudiriga sim qoqdi. Plenumga va sessiyaga hozirlik qanday borayotganini aytib qo'ydi. So'ng:

-Olgaga ikki dona uzuk yubordim. Biri o'zimizning Melkumovdan, biri mendan. Tug'ilgan kuniga borolmadik, o'pib qo'y qizingni, -dedi bo'lim mudiriga.

Karimov ham ertangi plenum va sessiyaning o'tishidan ko'ngli to'q holda undan keyingi voqealarni o'ylayotgandi. Shu lahzada uni muxolifat ertaga uyushtirishi mumkin bo'lgan namoyish ham u qadar qiziqtirmasdi. Agar quloq solishmaydigan bo'lishsa, bostirish uchun Ichki ishlar vaziriga buyruq berdi. Uni qiziqtirayotgan narsa yangi saylov va undan keyingi Prezident lavozimi edi...

“ S U L A Y M O N ” [2 7]

Sessiya Karimov o'ylaganidan ham “samaraliroq” o'tdi. Sessiyadan chiqqan Karimov anhor sohili bo'ylab ish xonasiga borarkan, Qizil maydonga mashina kirishining kim ta'qiqlagan ekan deb o'yladi. Nahotki Moskovda ham “Katta”lar piyoda yurishsa? Yo'q, aksincha ular qora Volgalarda Qizil maydondan saf tortib o'tishni yaxshi ko'rishadi. Ulardan mening qaerim kam? Men ham bir jumhuriyatning otasiman. Nega endi piyoda yurishim kerak? Yo'q, bu tartib men uchun emas. Bunga boshqalar rioya qilishsin. Lekin har doim sessiya mana bu kontsert zalida yoki Oliy kengashda o'tishi shartmi? Buni ham hal qilamiz. Sessiya majlislarini o'zim ishlagan binoda o'tkazaman.

-Assalomu-alaykum,-qarshi tomondan kelayotgan bir kishining tovushi Karimovning xayollarini bo'ldi. U alik olishga og'iz juftlagandi qarshisidagi kishi to'xtamay gapini davom ettirdi.

-Xabarlarini eshitdik, Sizga ming rahmat! Ota-onangizning joylari jannatda bo'lsin, go'rlari nurga to'lsin! Xalqimizning egilgan boshini tikladingiz. Ming yillik orzuimiz amalga oshdi. Ona tilimiz davlat tili bo'ladigan kunlarni ko'rdik. Buni siz bag'ishladingiz bizga. Taxtingiz va umringiz boqiy bo'lsin!

Karimov qo'lini ko'ksiga qo'yib rahmat ishoratini qilib, yo'lda davom etdi. Orqadan kelayotgan shahar partiya qo'mitasining birinchi kotibi haligi kishini quchoqlab, qulog'iga pichirladi: “Rahmat, men kutgandan ham yaxshi chiqdi!”

Karimov hali xayollaridan ayrilmagan edi. Shu bois yonida kelayotgan xo'jalik ishlari bo'limi mudiriga:

-Orqaga qaytamiz, mashinani shu erga chaqiring, -dedi.

-Mashinangiz shu erda. Sizni kutib turibdi.

-Bu erga kirish ta'qiqlangan emasmi?

-Boshqalar uchun ta'qiqlangan, Siz va Byuro a'zolari bundan mustasno.

Karimov mudirning so'ng so'zlariga quloq ham solmay sohil bo'ylab lapanglab yurgancha, majlis bo'lib o'tgan binoning old tomoniga o'tdi. Majlisdan chiqqan deputatlar allaqachon tarqalib bo'lishgandi.

Bular uchun deputatlik ham ortiqcha tashvish, deb o'yladi Karimov. Yaqinda hammasini bir varakayiga bu tashvishdan qutqaraman. Aslida shunday podadan yaxshisi yo'q. Og'zingdan chiqqaniga "labbay" deyishadi. Qo'l ko'tarib tushirishda bularning yonida robotlar ham ip esholmaydi. Ammo iloj qancha? Teppadan oyoq tirab turishibdi. Nima emish, erkin saylovlar bo'lsin emish. O'zlari-ku erkin saylov qilamiz, deb boshlariga balo olishdi. Majlisbozlikdan boshqa ishlari yo'q. Yuzlarining pardasini yirtib tashlagan mahmadanalarga maydon topildi. Mendan oldingi rahbar-Rafiq Nishonov ham latta ekan, erkin saylov deganlariga ishonib to'rt-besh jo'jxo'rozni Moskovaga jo'natgan, mana endi tomoshasini biz ko'rayapmiz. Bu yog'ini hal qilib olay, keyin ularning ham tanobini tortib qo'yaman.

Karimovning mashinasi ikki daqiqada manzilga etib keldi. U mashinadan tusharkan xo'jalik ishlari mudirini yoniga chaqirdi:

-Bundan keyin mashina orqa eshikdan ichkariga kiradigan bo'lsin. Ana u odamlar nimani kutib turishibdi? Yo bular mitingchilarmi?

-Yo'q, mitinglar juda sokin o'tdi. Bular shikoyatchilar. Yer uchun ikki qishloq bir-biriga qarshi bo'lgan. Samarqand viloyatidan... Oqsoqollari to'planib, sizning yoningizga kelishibdi.

-Bundan keyin men shikoyatchi qabul qilmayman. Saylovlarni o'tkazib olaylik, shikoyat yozishni ham ma'n etamiz. Indamasang bular Ollohning ustidan ham shikoyat yozishadi. Ichki ishlar vaziriga topshiriq ber, avtobuslariga mindirib, chiqqan joylariga jo'natsin.

Ammo shu payt oqsoqollar mirshablarni chetga surib, uning yoniga kelishdi. U bir hamla bilan ichkariga kirib ketmoqchi bo'ldi. Ammo oqsoqollar uni o'rab olishgandi. Karimov ularni bir-bir quchoqladi. Ba'zilarining yuzlaridan o'pdi. Keyin:

-Qani otaxonlar ovminga qo'l ochinglar, -dedi. -Men sizlarning dardlaringizni yaxshi bilaman, mirshablar bilan oralaringizda bo'lib o'tganlarni "Pravda" gazetasida o'qigandim. O'sha paytda chora ko'rish o'rniga sizlarni gazetaga yozdirib, sharmanda qilganlarni chiqib olgan daraxtlaridan tushiramiz. Mana yaqinda saylov o'tkazamiz. Men nomzodimni sizning tumandan qo'ysam, qo'llaysizmi? Qo'llasangiz, qani ovmin aytaylik.

"Ovmin", "Ovmin"degan oqsoqollar Karimovni qayta boshdan quchoqlab, yuz ko'zlaridan o'pishdi.

-Saylovoldi uchrashuviga borganda hamma masalangizni hal qilib beraman, hozir esa hammangiz uy-uyingizga marsh, insholloh, yaqinda ko'rishamiz.

Shoshib qolgan oqsoqollar orqaga chekinib, Karimovga yo'l berishdi. Karimov ichkariga kirarkan, oltinchi qavatga chiqishni kutib ham o'tirmay, birinchi qavatdagi hojatxonaga yugurdi. Yuz-

qo'lini yuvarkan, boboy zoti juda sassiq bo'ladi, deb o'yladi. Ba'zilarining soqoli ko'karib ketibdi, nos chekavergandan bo'lsa kerak...

Karimov jirkangancha qayta-qayta tupurdi-da, yuz-qo'lini takror yuvib, tashqariga chiqdi. Ammo liftning yonida bir zum to'xtab qoldi. Ilgarigi rahbarlar majlisdan keyin viloyatdan kelgan birinchilarga albatta ziyofat qilib berishardi. Bu bilan ham ularning ko'nglini olishardi, ham o'zlariga bog'lashardi. Bu an'anani buzsammi, deb o'yladi Karimov. Yo'q, birdaniga bo'lmaydi, bularning aksariyati oldingilarning dumi. Joylarda chuqur ildiz otishgan, qo'porib tashlash qiyin. Ildizlarini bir-bir chopmoq kerak. Hozir saylov oldidan ularni nishonga qo'yib, muxolifatning yo'lini to'sishim shart. Mabodo birlashib ketsalar ota go'ri-qozixona bo'ladi. Hozircha ularga "Sen yaxshi..." deyishim darkor.

Karimov xo'jalik ishlari bo'limi mudiridan "Birinchilar qaerda?" deb so'radi.

-Ular bog'dalar. Ziyofatni esa saroy orqasidagi mehmonxonada hozirladik.

Karimovning jahli chiqdi. Nega mendan so'ramay hozirlashadi? Kim bularni bu qadar mustaqil qilib qo'ygan? Eh-he, oldimda qancha ishlar bor, deb o'yladi.

-Nega men bilan maslahat qilmadingiz? Bugun jumhuriyat tarixida alohida kun. Ona tilimizga davlat tili maqomi berildi. Bu shodiyona uchun sichqonning inidek joyda ziyofat beramizmi? Qachongacha qo'rqib, pisib yashaymiz. Hozirdanoq loyihalarni tayyorlashga kirishing. Saylov o'tgunga qadar ziyofat beradigan saroyimiz bo'lsin. Yangi parlamentning birinchi sessiyasida ulkan qarorlar olamiz. Ularni "yuvish" uchun koshonaga ehtiyojimiz bor, -dedi mudirga. Mudir topshiriqni yon daftariga yozib olarkan, Karimov tashqariga qarab odim tashladi.

-Soat nechada to'planishadi?

-Siz qachon kelsangiz o'shanda... Darvoqe, ziyofat joyini "ikkinchi" bilan maslahat qilgandik.

-Bu ishlarda ikkinchi-pikkinchi yo'q. Hammasini men bilan maslahat qilasan. Tabiiyki, bu erda ishlashni istasang. Yo, mening odamim bo'lasan yoki hech kim.

Karimov tashqariga chiqqanda quyosh yotog'iga bosh qo'ya boshlagan, vujudidan qon sizib chiqayotgan askardek bir musht bo'lib qolgandi. U quyoshning bu holidan norozi bo'lgandek shafaqqa razm solib turgandi, yaqindagi stadiondan muxlislarning sasi yuksaldi.

-Nima gap? -deb so'radi Karimov mudirdan.

-Bugun futbol komandalarining uchrashuvi bor edi.

-O'sha "ikkinchi"ngga ayt, Sport qo'mitasi raisini ishdan olishni buyursin. Bundan keyin mening iznimni olmasdan biror bir harakat qilinmaydi. Burnimning tagida sakson ming odam qichqirib o'tirsa-yu, men bexabar. Shahar bedarvoza emas!

Oradan ko'p o'tmasdan uning "Shahar bedarvoza emas" degan gapi og'izdan og'izga o'tib, mashhur bo'lib ketishini hali o'zi bilmasdi. Bora-bora bu gap har bir rahbarning ham buyrug'i, ham iltijosi, ham qalqoni, ham qilmishiga aylanajagini Karimov bilmasa-da, voqealar shu atrofda rivojlanajagini his etardi. U Sulaymon ayri, devlar ayri bo'lishini istamasdi. Devlar Sulaymon uchun, Sulaymon yashasa, devlar yashaydi, deb o'ylardi. Buni haqiqatga aylantirish uchun har bir daqiqa, har bir soniyadan foydalanib qolishga urinardi. Uning hayot -mamoti, jon-jahdi, orzu umidi ana shu edi.

N O M Z O D [2 8]

Karimov ziyofatdan kech qaytdi. Vaqtini behuda ishga sarflagan odamdek yotgan joyida uzoq to'lg'andi. Ichkilik-u egulikning serobligidan o'z nasibini olgan Karimov bu yukning og'irligidan bo'lsa kerak ko'zi yumilishi bilan tush ko'ra boshladi.

...Baland tog'. Teppada ikki qoya, ikkisi ham qilichga o'xshaydi. Qoyalarning ustida ikki maxluq.

Birining to'rt oyog'i, olti qo'li, bir qancha qanoti bor. Ikkinchisining esa bir qo'li, bir oyog'i, bir ko'zi bor.

Karimov o'rtada muallaq. Maxluqlar unga ashula aytirishayapti. Mahalliy tilda ashula bilmayman, desa ham "Aytasan, aks holda pastdagi balchiqqa otib yuboramiz" deb po'pisa qilishardi. U esa bilmagani uchun majburan ruscha aytardi. Maxluqlardan biri ashulasidan bezdi, shekilli, uni otib yuborgandi, ikkinchisi ushlab oldi. Maxluq peshonasining terini artaman degandi, kaftidagi kichkina qilichlar Karimovning yuzini qirib yubordi. Og'riqdan bo'lsa kerak o'zini yon tarafga otgandi pastga tushib ketdi. Balchiqning hidi ko'nglini behuzur qildi. Lekin atrofning yumshoqligi huzur baxsh etdi. Miriqib uxlash uchun balchiqqa bosh qo'ydi...

Karimov uyg'onganda bosh uchida kundalik gazetalar turardi. Yonboshlagancha "Qishloq Haqiqati"ni olib sarlavhasiga nazar tashladi: Karimov so'z berdi-nomzodini Kattaqo'rg'ondan ko'rsatadi". Sarlavhaning ostida uning oqsoqollar bilan o'pishib turgan payti aks ettirilgan surat. U jahl bilan bosh uchidagi tugmani bosdi.

Eshik ochilib, ichkariga umr yo'ldoshi Tatyana kirdi.

-Seni chaqirdimmi, hayvon, -deya baqirdi umr yo'ldoshiga Karimov. -Qani bu ho'kizlar?

-Ertalab kelishgandi, siz hali uxlasangiz kerak, deb gazetalarni olib qoldim.

-Sen qachondan xo'jayin bo'lib qolding? Mening ishimga bosh suqma, demaganmiman?

-Kechasi bilan alahsirab chiqdingiz. Biroz dam oling, devdum.

-Ha, qilg'ilikni qilib qo'yib, sutdan chiqqan qoshiqqa o'xshab turasan. O'zingga gard yuqtirmaysan.

-Voy, qoshiq deganingiz nimasi?

-Qoshiq deganim mana bu!-Karimov bir sakrab o'rnidan turdi-da xotinining yuziga tarsaki tortib yubordi.

Tatyana bir tarsakidan keyin ikkinchi, uchinchisi ham kelishini yaxshi bilardi. Shu sababdan gap qaytarish yoki yig'lash o'rniga darrov qochardi. Bu safar qocharkan eshik noxosdan qarsillab yopildi. Karimov buni tarsakiga javob deb o'yladi va jahlini pishqirtirib, Tatyana quvib ketdi. Tatyana hovliga qochib chiqqanda, xo'jalik ishlari mudiri sut, qaymoq ko'tarib kelayotgandi. Tatyana undan uyalib, orqaga qaytmoqchi bo'ldi. Lekin ajdahodek pishqirib kelayotgan erining jahlidan jumbushga kelgan qo'rquv tuyg'usi bu uyatni engdi. Karimov esa mudirni ko'rmadi ham. Hovli kengish bo'lib, bir tomoni katta boqqa ulanardi. Bu bog' "birinchi"lar uchun maxsus insho etilgan va atrofi baland devorlar bilan o'rab olingan. Tatyana yugurib borar ekan, oyog'idagi tapochkasi ikki tomonga uchib ketdi. Karimov bu tapochkalarni olib unga uloqtirdi. Baland ovozda bir-ikki so'kdi-da, orqasiga qaytdi. Mudir qo'rqqanidan sut-qaymoqni ostonada qoldirib, g'oyib bo'lgan edi. Karimov qog'oz qutidagi sutni tepib yuborarkan, qaymoqlarni esa bog' tomonga uloqtirdi.

Keyin sharillagan sas uning diqqatini tortdi. Bu eshaklar haligacha hovuzni ham to'ldirishmabdi, deb o'yladi u va hovuz tomonga yurdi. Hovuz to'lib ketgan, undan toshgan suv atrofga oqayotgandi. U avval sovuq suvning jo'mragini berkitdi, keyin esa issiq suvning. Ich kiyimlarini atrofga uloqtirib, hovuzga kirdi. Xudoga shukur, bu dunyoda ham rohat qiladigan payt bo'lar ekan, deb o'yladi.

Yarim soat hovuzdan chiqmadi. Bu orada Tatyana unga yangi ich kiyimlar va sochiq keltirdi. Erining odatiga ko'nikib qolgan xotini, xizmatchilarga ham javob berib yuborgani uchun, boshini eggancha, hovuzdan chiqadigan joydagi marmar toshlarni arta boshladi.

-Ha, padxalimlik qilayapsanmi, erim hovuzdan chiqsa, yiqilmasin deyapsanmi ?

-...

-Bor, mudirni chaqir!

Mudir poylab turgan ekan, yugurib keldi.

-Yangangdan lattani ol, -dedi u mudirga. -Sen esa yo'qol! -dedi Tatyana.

Mudir avval o'zining yangi kiyimlariga nazar soldi, keyin yugurib borib, Tatyana qo'lidan lattani oldi. Ilgarigi rahbarlar xo'p odam ekan, deb o'yladi mudir. Hech biri bunaqa baqirib-chaqirmasdi. Hammasining osmoni osmon edi, buni esa momaqaldiriqdan boshqa narsa yo'q. Ilgarigilar xotinlaridan hayiqib turardilar. Jahllari chiqqan bo'lsa ham umr yo'ldoshlarini ko'rganda, Moskovdan kelgan mehmonni qarshilagandek soxta tirjayish bilan ezilib-suzildilar. Ular Moskovdagi

boshliqlariga ham taqlid qildilar, ham qo'rqardilar. Moskov ularning avzoyi, qadam olishlari, yurish-turishlari haqida bizdan xabar olib turardi. Bundan tashqari bir qancha josuslar ham shu xususda ma'lumot yig'ib, yuqoriga berib turardilar. Birdaniga zamon o'zgardi. Nima bo'layotganiga hech kimning aqli etmaydi. Hali Moskovda rahbarlarning imtiyozlarini cheklash haqida qaror chiqqaniga bir oy bo'lgani yo'q. Mana bu tentak esa oldingisidan ham oshirmoqda. Odamlar otdan tushmoqda-yu bu esa tuyaga minayapti. Toj kiygan shoh aql oladi, deganlar, balki...

-Nimani o'ylab qolding buncha? Daftaringni ol, yoz! -dedi Karimov unga. U bir sapchib o'rnidan turdi-da, ho'l qo'li bilan cho'ntagidan yon daftarini chiqardi. Keyin:

-Eshitaman, -deya Karimovga yaqinlashdi.

Chalqancha yotib, suv ustida yuzayotgan Karimov, hovuzdan chiqadigan narvonchani ushlab oyoqqa turdi.

-Bir. Ertadan e'tiboran barcha xizmatchilar, doktorlar, massajchi hamshiralar shu erda yotib qoladi. Sen va Kraynov ham navbatchilik qilasizlar.

Ikki. Ideologiya kotibiga ayt, "Qishloq haqiqati" gazetasi muharririni ishdan haydasin. Gazetalarga beriladigan har bir xabarni shaxsan o'zi o'qisin va menga bildirib tursin. Uch. Savol bo'lmasa bor, sartaroshni chaqir!

-Ilgari barcha shu erda yotib qolardi. Lekin Moskovdan qaror kelgach, bunga chek qo'ydik. Muharrir masalasiga kelsak, u Moskovning deputati. Gapirsak, og'zimiz yonadi.

-Senga og'iz yonish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman. Moskovning qarori bilan menga po'pisa qilayapsanmi? Shu soatdan e'tiboran ishdan haydalding. Biror joyda g'ing desang, onangni Uchqo'rg'ondan ko'rsataman! Agar sasing chiqadigan bo'lsa, qamoqda chiriysan. Kameraga salomga kelib turaman. Hozir esa bor, ishdan haydalganing haqida qaror yozib kel.

Mudir shalpaygancha chiqib ketayotgandi, Karimov uni to'xtatdi.

-Ha, rang-ro'ying o'liknikiga o'xshab qoldi? Yo, uy-joyingni, mashinangni tortib olayinmi? Yoki taftish boshlataymi? Bularni istamasang, qaddingni tik tut. Aytganimni bajar! Qarorni yozib, o'rinbosaring Mavlonga ber. U imzoga olib kelsin.

Mudir chiqib ketar ekan, Karimov uning orqasidan bir-ikki bo'ralab so'kdi-da yana suvga sho'ng'idi...

Karimov ishxonasiga kelishi bilan ideologiya kotibini chaqirdi.

-Bu nima? -deya "Qishloq Haqiqati" gazetasini uning oldiga otdi.

-Muharriri gapimizga quloq solmaydi. Ilgari ikki marta byuroga chaqirdik, kelmadi. Hozir esa deputat bo'lib olgan.

-Siz o'zi ilgari qaerda ishlagandingiz? Qanday qilib bu ishga kelib qoldingiz? Sizga quloq soladigan odam bormi bu dunyoda? -Karimov savollariga javob ham kutmasdan, so'zda davom etdi. -Keling, sizni shu muharrirning zulmidan qutqaray. Ko'nglingiz qaerni orzu qiladi? Istagan joyingizni ayting, o'sha erga yuboraman. Adi- badi aytishga esa vaqtim yo'q. Sasingiz chiqadigan bo'lsa, sizdan oldin bu vazifada ishlagan xonimchaning holiga tushasiz. Kamgap, yumshoqko'ngil odamsiz. Ming gapga bir gap bilan ham javob bermasligingiz menga ma'qul. Xo'sh, o'rningizga kimni keltiramiz? Bu xususta ham demak fikringiz yo'q. Unday bo'lsa "ikkinchi" bilan uchrashing, ertangi plenumga ariza yozing, o'rningizga esa Akademiyada ishlayotgan Jahongir Hamidovni tavsiya qiling.

Kotib bunday suhbatga tayyor edi. Chunki Karimov viloyatda ishlayotgan kezda ikkalasining orasi buzilgandi. Shu bois masala bu qadar silliq hal bo'lishidan engil tortdi. Ammo o'z o'rniga tavsiya etiladigan kishi bu sohadan uzoqligi uni o'ylatib qo'ydi. Karimovning biroz yumshaganidan va ish va'da qilayotganidan taskin topgan kotib:

-U kishi biolog, bu erga esa mafkura sohasidan birini keltirsakmikan?

-Mana sen mafkuradan kelgansan. Nima qilib berding? Agar gapni ko'paytiradigan bo'lsang, Moskovdan ish qidirasan. Uch kunda duningga supurgi bog'layman.

Yana kotib indamay turdi. Karimov esa ichini to'kdi. So'kkanida va hatto urganida indamay turadigan odamni yaxshi ko'rardi. Gap qaytargan, savol bergan kishi esa qanchalik haq bo'lmasin baribir uning qahriga uchrardi. Kotib esa asli indamaslardan edi. Uning jim turishi Karimovni yumshatdi.

-Bo'pti chiq, plenumdan keyin qabulimga kelasan. Ha, Kraynovga ayt, menga muharrir Ahmadjon Muxtorovni bog'lasin.

Karimov bardoqdagi choydan bir ho'plam ichmasidan telefon jiringladi.

-Ahmadjon Muxtorov telefondalar, -dedi Kraynov.

-Bog'la!

Karimov quyuq salom-alikdan keyin:

-Ahmadjon aka, bugungi maqolangizni o'qidim. Ming rahmat sizga. Nomzodimni Kattaqo'rg'ondan qo'yishni sizga o'zim aytaman, deb turuvdim. Ko'nglim

bo'ling-e, ichimdagini topibsiz. Surat ham a'lo. Telefon qilayotganimning birinchi sababi, rahmat aytish bo'lsa, ikkinchisi, bir maslahatim bor edi. Bilasiz, Moskovdagi deputatlarimiz tarqoq bo'lib ketishgan. Ba'zilar anu Nishonov degan lattaning soyasiga aylanishgan, ba'zilar esa umuman so'zga chiqishmaydi. Majlislar zalida ham uxlashadi. Ertangi plenumimizdan keyin ikkalamiz Moskovga borsak, deputatlarimizni yig'ib gaplashsak. Ularga sizni boshliq qilib qo'ysam, o'zingiz tarbiyalasangiz. Mening Moskovdagi ko'z-qulog'im bo'lsangiz. Bu erdagi o'rningiz ham bo'sh

turadi. Qolaversa, saylovlardan keyin yangi parlamentning gazetasini chiqaramiz. Uni ham o'zingiz yo'lga qo'yib berasiz. Aslida ertangi plenumda sizni mafkura kotibligiga keltirmoqchi edim. Lekin u yer siz uchun ancha past. Rahmat va qulluqlarni kelajakka olib qo'ying. Hozir esa katta ishlarga shaylaning. Bu jumhuriyatni ikkalamiz oyoqqa qo'yamiz. Siz Moskovda, men esa bu yerda!

Karimov telefon dastasini o'rniga qo'yarkan, biror yil Moskovda sovuq qotib yursin, keyin yo'lini qilib gazetadan chetlashtiraman, hozircha o'zimning odamlarimdan birini o'rinbosar qilib qo'yaman, ishni u yuritadi deb o'yladi...

Partiya Markaziy qo'mitasining plenumi Karimov o'ylaganidek o'tdi. Eski do'sti Jahongir Hamidovni mafkura kotibligiga tavsiya qildi. Ilgari kotiblik u yoqda tursin oddiy xodimni ishga olishni ham Moskva hal qilardi. Lekin keyingi vaqtda butun vakolatni mahalliy hokimiyatga berishdi. Endi kotibni saylab bo'lgachgina bu haqda Moskva xabardor qilinadi. Bo'lim mudirlari, xodimlar esa Moskovni qiziqtirmaydi. Chunki bularsiz ham ularning boshi cho'p suqilgan arining uyasidek g'uvillab yotibdi. Har kun bir yangilik, har kun bir tashvish. Yangi saylangan SSSR Oliy Soveti tongdan oqshomgacha, oqshomdan sahargacha meros talashgan bolalardek janjal bilan ovora. Karimov uchokda shular haqida o'ylab o'tirarkan yoniga muharrir Ahmadjon Muxtorov keldi.

-Ertaga mehmonxonada bir qo'lbola osh buyursangiz, -dedi u muharrirga.
-Mavlon sizga yordamchi bo'ladi.

Karimov yonida o'tirgan Mavlonga qarab:

-Kecha tasdiqdan o'tding, endi buni yuvamiz. Sen bolaga aytib qo'yay, agar gapimdan chiqmasang baland-baland joylarga ko'taraman seni.

Mavlon o'rnidan turib, qulluq qildi. Karimov uning o'rmini muharrirga ko'rsatib:

-O'tiring gap bor, -dedi. Mavlon egilib o'rindiq ostidagi diplomat-sumkani olmoqchi bo'lgandi, Karimov: -Turaversin, Ahmadjon akaning oltinu pul bilan ishi yo'q, -dedi. Keyin Mavlonning uzoqlashishini bir lahza kutib turdi-da, muharrir tomonga egildi: -Nishonov bilan orangiz qanday? -deb so'radi.

-U millatimizning boshiga kulfatlar keltirdi. Eng yaxshi insonlarni tuhmat bilan qamalishiga ko'z yumdi. Millatimiz masxara qilinar ekan, u ham qo'shilib kuldi.

Vodiy voqealari Moskva tomonidan uyushtirildi, ammo uning xabarsiz bo'lishiga ishonmayman. Aks taqdirda uni Moskvaga shunday katta ishga olisharmidi ?

-Balli og'ayni, -dedi hayajonlangan Karimov. -U mening yo'limga to'siq bo'ldi, lekin qo'lidan bir ish kelmadi. Bu borada sizning ham xizmatlaringizdan xabarim bor, unutmayman. Ana uning esa yaqinda oilasini ham quvaman. Bir umr yurtga qaytmaydigan qilamiz. Siz Moskovdagi gazetalardan uch-to'rt kishini sotib oling, masrafini Mavlon hal qiladi, -deya u ko'rsatgich

barmog'i bilan qora diplomatga ishora qildi. -Nishonovga qarshi jiddiy kampaniya boshlatishimiz kerak. Ertaga sizni rahbar qilib qo'yganimizdan keyin deputatlarning jilovini ham qo'lga olasiz.

Muharrir mushohadaga borsa-da, e'tiroz bildirmadi. Karimovning bu qadar ishonib, o'ziga yaqin olayotgani uni quvontirdi.

-Bilasizmi bitta taklifim bor, -dedi u. -Hozir Moskva ko'p masalada vakolatni mahalliy hokimiyatga bermoqda. Biz huquq borasida ham odim otmoqchimiz. Gdlyan va Ivanov yigirma mingdan ko'p insonni qamoqqa tiqdi, zor qaqshatdi. Bularning orasida qancha-qancha oltin kadrlarimiz bor. Hozir bu tergovchilar deputat bo'lib olishgan, lekin biz ham bo'sh kelmaymiz. Tergov va sud materiallarini o'zimizga olamiz. Siz esa ularni ozod qilish tashabbusini boshlaysiz. Bu bilan birdaniga ikki quyonna uramiz. Birinchidan, ozod qilinganlar "nishonovchi"larga qarshi kurashchimizga aylanadi. Ikkinchidan, ular sizni har qanday sharoitda ham sotmaydigan sodiq odamlaringiz bo'ladi.

Muharrir aslida qamoqlarda ezilib yotgan insonlarni tezroq ozod qilish payida edi. Karimovni qiziqtirish uchun buni takliflarga aylantirib yubordi. Karimov ko'nglida sham yoqilgan kishidek sevinchini yashirmadi. Uning jahli naqadar tez chiqsa, sevinishi ham samimiy edi. Ammo bu samimiylik uzoq yashamasdi. Ko'pincha chala tug'ilgan boladek yo nogiron bo'lardi yoxud uzoq umr ko'rmasdi.

-Men siz haqingizda noto'g'ri o'ylab yurgan ekanman, siz o'g'il bola ekansiz, -deya muharrirning tizzasiga shapatiladi va so'zda davom etdi. -Bundan keyin hamma masalani maslahatlashib hal qilamiz. Moskovdan qaytgach, gazetangizda yozib, xalqqa oshkor qilganingizdek Kattaqo'rg'onga boraman. Saylovoldi uchrashuvi bahona. Na faqat xalqimizga, balki Moskovga ham kimligimni ko'rsatib qo'yishim kerak. Shu sababdan yaxshilab bir nutq yozsangiz. Uchrashuvda o'qib o'tirmayman. Yozilgan narsani o'qishga hafsalam yo'q. Uchrashuvni qishloq joyida o'tkazamiz, muxbir-puxbir taklif qilmaymiz. Matbuotga esa siz yozgan nutqni beramiz. Ammo nutq butun dunyoning diqqatini tortadigan bo'lsin. Demokratiyadan boshlanib, oshkoralik bilan tugasin. Bizning dasturimiz nimadan iborat ekanini o'rta qo'ying.

Ular Moskovga etib kelganlarida muharrir Karimovning qulog'iga shivirladi:

-Ba'zi jumhuriyatlar rahbarlari ayni paytda hukumatga ham rahbarlik qilishni

ilgari surmoqdalar. Moskvadan yangi imzolanajak shartnoma doirasida o'zlarga keng qamrovli mustaqillik berishini talab qilmokdalar. Moskva ittifoqda qolish qolmasligimiz haqida referendum istayapti. Demak, qo'limizda ikkita uruvchi qartamiz bo'ladi – biri "tuz", biri "qirol". Buning evaziga saylovdan keyingi birinchi sessiyadayoq tishimizni ko'rsatamiz. Nima bo'lsa ham qo'y emas, bo'ri ekanligimizni isbotlaymiz...

Karimovning Moskovdagi ishi tez bitdi. Deputatlar bilan uchrashuvdan keyin Markazkomga bosh suqdi. Ittifoq shartnomasini saylovdan keyin muhokamaga qo'yasiz, deyishgani uchun darrov orqaga qaytdi. Kelishi bilanoq byuro a'zolarini bir-bir chaqirdi. Saylovni qanday o'tkazish haqida ularning fikrlarini so'radi. Keyin esa byuro majlisini chaqirdi.

-Har biringiz saylov uchun safarbar, -deya so'z boshladi u. -Viloyat partiya qo'mitalari nomzodlar ro'yxatini hozirlagach, uni Markazqo'mda sinchiklab o'rganib chiqasiz, qolipga solasiz. Ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar, partiya a'zosi bo'lmaganlar foiziga ko'ra belgilansin. Keyin ro'yxatni KGB ham tekshiruvdan o'tkazsin. Nomzodlarning yoshi, jinsi, kelib chiqishi, millati, dini kabi masalalar ham qolipga tushsin. Har qanday o'zboshimchalikning oldi olinsin. Demokratiya, oshkoralik, erkinlik biz istagandek bo'ladi. Shu sababdan nomzodlar ko'rsatishni ochiq o'tkazish kerak. Istahsa yuz nomzod ko'rsatishsin, lekin oxir oqibatda bizning nomzod o'tsin. Agar yanglish hol yuz beradigan bo'lsa, mas'ul rahbarlar qosh-ko'zing bor demasdan ishdan haydalsin. Yanglish nomzodlar esa o'zlari ariza yozib, o'rtadan chiqsinlar. Byuro majlisiga taqdim qilinadigan nomzodlar ro'yxati uch rang bilan o'raladi. "Qizil rang" nomzod har qanday sharoitda ham deputat bo'lishi shart, "ko'k rang" nomzod muqobil asosda saylanadi, ammo muhaqqaq deputat bo'ladi, "qora rang" esa ushbu nomzod o'rniga shu yoshdagi, ayni millat, ayni kasbdagi, bizga xayrixoh kishi o'tishiga ruxsat bo'lishi mumkinligini anglatadi. Markazqo'm a'zolari, taniqli shoir, yozuvchilar, jumladan, Iso Xolis, Erkin Vohidov, Primqul Qodirov, Halima Xudoyberdieva singarilar birinchi ro'yxatga olinsin. Parlamentning ellik foizi ana shu ro'yxat asosida o'tganlardan, yigirma besh foizi "ko'k" va qolgani "qora"lardan bo'lsin. Kerak bo'lsa, ba'zi joylarda byulleten masalasi ham ishga solinsin. Saylov komissiyasi raisi Quadrat Axmedov har kun, har soatda hisob berib tursin. Boshqa takliflar bormi?

Hamma jim edi. Chunki Karimov hammadan so'rab olganlarini o'zining nomidan qilib, o'rta otgan edi.

-Savollar bo'lmasa hamma o'ziga ajratilgan viloyatlarga yo'l olsin. Har oqshom soat o'n ikkidan keyin sizlarni qidirib, hisob so'rayman, -deya majlisni yakunladi...

U C H R A S H U V [2 9]

Kattaqo'rg'ondagi saylovoldi uchrashuvi bir kolxozning klubida bo'ldi. Karimovdan oldin so'zga chiqqanlar uning o'zi ham bilmagan xislatlari haqida gapirishdi. Keyin o'rta yoshlardagi bir kishi minbarga yugurib chiqdi.

-Men o'qituvchiman, -dedi u. -Ayni paytda "Birlik" Xalq harakatining a'zosiman. Lekin bizning nomzodni ro'yxatga olishmadi. Biz mustaqillik, demokratiya va oshkoralik tarafdorimiz. Majlislarimiz qonun charchavasida o'tgani holda bizni ro'yxatga olishmagani qarshimizda mustaqillik, demokratiya va ozodlik dushmanlari turganini ko'rsatadi...

-Nima gap? -deya Karimov viloyat birinchisi Po'lat Abdurahmonovga yuzlandi.

-Bu harakat hammayoqni ag'dar-to'ntar qilayapti. Ko'p joylarda xalq oyoqqa turdi. Janjal-to'polonni qiyinchilik bilan bostirayapmiz. Ba'zi nomzodlarga ko'z yummasak bo'lmaydi.

-Sizni viloyatga yuborishda umidlarim katta edi. Kelganingizga ikki oy bo'lgani yo'q. Yoki og'ir ish ekanmi? Sizning gapingizga quloq soladigan bo'lsak, mana bularga ham ko'z yumish kerak,

muhtaram Po'lat Majidovich. Istasangiz, men chiqib ketay, bularni saylang, -dedi Karimov kinoya bilan.

Minbardagi o'qituvchi ismini tilga olarkan, Karimovning xayoli bo'lindi.

-Biz mehmonimizga qarshi emasmiz. Hatto u kishi o'z nomzodlarini tumanimizdan ko'rsatganlari uchun rahmat aytamiz. Lekin muqobil saylov bo'lsin. Baribir xalq bu kishini saylaydi. Ammo ayni paytda jumhuriyatga muqobil saylov ibrati beriladi.

O'qituvchi minbardan tusharkan, Karimov o'rnidan turib, uning erini ishg'ol etdi. Zaldagi olqishlar uning so'zga chiqqani uchunmi yoki o'qituvchining jasoratigami anglash mushkul edi.

Karimov olqishlarni o'qituvchi uchun deb hisobladi va yana ham jahli chiqdi. Shu sababdan qisqa, ammo jo'shib gapirdi.

-Birinchidan. Xalq harakati nomzodini ro'yxatga olmaslik jinoyat. Xalqqa qarshi keladigan kuch bormi? Sizdan so'rayapman, shunday kuch bormi? -Zalda gulduros qarsak yangradi. Ba'zilar o'rinlaridan turib, qarsak chalayotgan edilar. Karimov biroz zalga kinoya bilan termuldi-da, so'zda davom etdi:-Ikkinchidan, mustaqillik deya ko'kragiga urayotganlarga ishonmang. Sizning haqingizni kesib, armiya tuzishga, chegara qo'riqlashga undashmoqda bizni. Butun dunyodan uzib qo'yishmoqchi bizni. Suv yo'limiz, temir yo'limiz bormi? Bugun biz uchun yakkayu

yagona yo'l ittifoq ichida qolish, ammo haqlarimizni undirib olishdir. Moskovning bo'ynidan bo'g'ib, sizning haqlaringizni talab qilsam, orqamda turasizmi?

Yana qarsak seli yog'ildi. Karimov endi bu olqishdan lazzatlana boshladi.

-Qilg'ilikni qilib qo'yib, Moskovga qochib ketganlar majlislarda burun kovlab o'tiribdilar. Men yangi parlamentning birinchi majlisida Farg'ona, Parkent voqealari aybdorlarini o'rta qari qamaman. Burunlariga ip o'tkazib, tortib olib kelaman va sizning nomingizdan hisob so'rayman. Menga bu vakolatni berasizmi? -Endi uning har bir jumlasidan keyin qarsaklar to'lqin kabi borib kelaverdi. Xalq uning buzib aytilayotgan kalimalariga emas, hayqirib aytilayotgan ifodalariga mahliyo bo'lgan, umrida eshitmagan gaplarini ilk bor eshitayotgani uchun tinimsiz olqishlayotgandi.

-Biz mard xalq, lekin bizni o'g'ri, muttaha, poraxo'r deya ayblashdi. Hali o'sha Gdlyanlarni mana shu erga olib kelib, sud qilamiz. Qamoqdagilarning hammasi ozod qilinadi va o'z vazifalariga qayta tiklanadi.

Karimov barmog'i bilan birinchidan, ikkinchidan deya sanay boshlagandi, ammo qo'lini musht holda minbarga urayotgani uchun sanoqdan ham adashdi. Qarsaqlardan so'ng minbardagi suvdan bir qultum ho'plarkan:

-Xo'sh, nechanchi bo'ldi, har holda oltinchi bo'lsa kerak, -deya chap qo'lining boshmaldog'ini ko'rsatib, so'zda davom etdi. -Bundan keyin paxtani o'zingiz ekasiz, pulini o'zingiz hisoblaysiz, istasangiz paxta, istasangiz meva ekasiz, istasangiz bog' tashkil qilasiz. Bundan keyingi shiorimiz:

qishloq boy bo'lmasa davlat badavlat bo'lmaydi. Bugungacha vagonlar Moskovga to'lib borgan bo'lsa, bundan keyin vagonlar yurtimizga to'lib keladi. Bundan keyin farzandlarimizni urush bo'layotgan joylarga xizmatga yuborish yo'q. Har bir askar uchun avval kafolat istaymiz.

Ettinchidan, tartib o'rnatish bahonasida kelganlarni kelgan joyiga jo'natamiz. Bitta chamadon bilan kelgan bo'lsalar bitta chamadon bilan qaytadilar.

Va oxirgisi: saylovlar halol, pok, to'g'ri o'tishi uchun mana men kafolat. Bu saylovlar xalq saylovlaridir!

Karimov gulduros qarsaqlar og'ushida o'z o'rniga kelib o'tirarkan, minbarga bir yigit yugurib chiqdi.

-Xalqimiz haqiqatdan ham mana shunday jasoratli, aytib tashlab qochmaydigan rahbarga ilhak edi. Aytish boshqa, bajarish boshqa. Yo, zulfiyor, yo, zulfiqor! Ikkisidan birisini tanlamoq kerak. Zulfiyorlik yolg'on va xushomad yo'lidir, zulfiqorlik esa o'tkirlik, aytganini shartta kesishdir!

-Kim bu? -deya so'radi Karimov.

-Boshimizning balosi, -dedi Po'lat Majidovich. -Fel'etonchi. Faqat tanqid yozadi. Yaqinda televizorda ham bizni sharmanda qildi. Ismi Mirtemir.

-Bu erda nima ishi bor?

-Muxbir sifatida kelgan.

-Unda muxbirligini qilsin. Nega so'zga chiqadi?

-Bitta tumanimizdan uning ham nomzodini ko'rsatishgan. Gapga chechanligi uchun xalqni orqasidan ergashtirib oldi. Chaqirib gaplashdik ham bo'lmadi. KGBni ishga soldik, natija bermadi. Ikki marta ro'yxatdan o'tkazmadik, uchinchisida majbur bo'ldik...

Mirtemir qisqa gapirdi. Minbardan tushar ekan, Karimov uni yoniga chaqirdi

-Uka, bilib qo'y...

Karimovning gapi og'zida qoldi. Zaldagilar majlis tugadi deb hisoblashdi, shekilli, yuzga yaqin oqsoqol yuqoriga chiqib, Karimovni o'rab olishdi.

-Bizning masalani hal qilib bermasdan ketmaysiz! -Oqsoqollar birin ketin Karimovga o'z dardlarini tushuntira boshladilar. Karimov viloyat birinchisiga yuzlandi:

-Oqsoqollar tumanning birinchi kotibini ishdan olishni istayaptilar. Uddasidan chiqa olasanmi?

-Qiyin. Uning orqasida ham ana shuncha oqsoqol bor.

-Chaqir o'zini.

Bir tarafga chekinib turgan tuman kotibi Karimovning yoniga keldi.

-Necha yoshdasan? -deb so'radi Karimov undan.

-O'ttiz beshda, -dedi u.

-Hali tirrancha ekansan. Nega qorin qo'yding? Dumba yog'li palov eyishdan boshqa ishing yo'qmi? Yo bu masalani tinchit yo arizangni yoz! Umuman orqaga odam yig'ish odati qaerdan chiqdi? Uch kunda masala hal bo'lmasa maxsus taftishchilarni yuboraman va seni asfalasofunga jo'nataman.

Tuman hokimi miq etmay turdi. Oqsoqollar mamnun edilar. Karimov ularning

orasidan siyrib chiqarkan Po'lat Majidovichga:

-Biroz qattiqqo'l bo'l. Bularni parchalab tashla. Bundan keyin to'planib yurishlariga chek qo'y. KGBning bu erdagi bo'limini kuchaytir. Guruhlarni emas, shaxslarni bir-biriga qayrasin. Tuman birinchisini esa ishdan ol, -dedi va klub yaqinidagi maydonchada turgan vertolyotga minib, ko'kka ko'tarildi.

Zamindagilar vertolyot ortidan tikilib qolarkanlar ko'ngillari umidlarga to'lgandi. Ammo umidlari ham ana shu vertolyot bilan birga osmonga uchganidan bexabar edilar. Buni sezish yoki his qilish uchun esa bir necha yillar kerak bo'lishini bilmasdilar.

Ularning qalblari, fikrlarini yangi bir og'u tortanak uyasi singari o'rab ola boshlagandi. Bu tortanak uyasining iplari ularga nur bo'lib ko'rinayotgan edi. Nur go'yo vertolyot parraklari orasidan sinmasdan o'tayotgandek tuyulsada, aslida parraklar ko'kdan yog'ilayotgan yorug' nurning yo'lini to'sgan, zaminga esa Karimovning "nur"lari oqib kelayotgandi.

M A S H V A R A T [3 0]

Havo oniydan isib ketdi. Oylardir yer ustini qoplab yotgan qatlama muz ikki kunning ichida erib, suvga aylandi. Qish kunlari sarxush odam kabi shakarlama uyqusi ostida qolgan daraxtlar birdan uyg'ondi. Quyosh jilmayib qolganidan aldangan daraxtlarning shoxlarida o'smirning sabza soqoli kabi erta uyg'onga bitta yarimta kurtaklar ko'zga tashlanib qoldi. Havodagi o'zgarish odamlarga ham ko'chdi. Palto-yu ro'mollarini uloqtirgan qizlar qor ostidan bosh ko'targan chuchmomolardek ko'zlarga tig'dek sanchildilar. Ko'kraklarini ochib olgan yigitchalar esa ovga chiqqan alpomishlardek ko'chalarni to'ldirdilar.

Ammo bu hol uzoq davom etmadi. Qor qanday erigan bo'lsa, xuddi ana shunday yana atrofni qoplab oldi. Shoshqaloq daraxtlaru bahorsevar yigit-qizlar xirchin sovuqning ignalariga dosh

berolmay yana yashirinmoq uchun joy qidirdilar. Tabiatu odamlarni zamin degan maydonda o'ynatib, tepadan tomosha qilib turgan kuch ularga nafaqat tashqi tomondan balki ichkaridan ham ta'sir qilayotgandi.

Erta uyg'ongan daraxtlar bolasini tushirgan onadek bo'zlarkan, odamlarning fikru xayollarida ham to'liqsimon jumbush bor edi. Kim asabiy, kim esa yangi fikrlar bilan qaynashgan, yana kimdir pixillab qolgan burnining tashvishida...

Hamma yoqqa yoyilgan gripp Karimovni ham chetlamadi. Otashi yuksalgani, suyaklari sinqirab og'riyotgani, tovushi biroz xirillab, burni bitib qolganiga qaramay sessiyaga tayyorgarlik ko'rayotgandi. Qattiq tazyiqlarga qaramay bir necha viloyatda ro'yxatda bo'lmagan kishilarning saylanib qolishlari uni rohatsiz

etayotgandi. Shu damda suyaklarining og'rig'i emas, yuragining allaqaeridagi sanchiq uning xayollarini tuptugundek o'ziga bog'lab olgandi. Ammo bu og'riq yuragining biror bir eridagi xastalik alomati emas, balki bu qadar harakatlaridan keyin ham parlamentga kirib qolgan "begonalar" dardining belgisi edi.

Ikki kun oldin byuroda bir qancha rahbarlarning faoliyatiga nuqta qo'ydi. Keyin bu masalani Kompartiya plenumiga olib chiqdi. Ba'zilarining boshidan qaynoq, ayrimlarning boshidan esa sovuq suv to'kdi. Lekin yuragi joyiga tushmadi. "Nega? Nega?" -degan savol ko'ragida gup-gup urib turardi. Har qancha urinmasin uni tinchita olmayotgandi. Parlamentdagi arifmetikani, ya'ni ovozlari hisob-kitobini qayta-qayta ko'zdan kechirdi. Begonalar bor-yo'g'i besh foiz. Ammo butun tarix bo'yincha urushlarni, inqiloblarni, davlat to'ntarishiyu isyonlarni aksariyatning besh foizi hal qilgan.

Qaerda xato qildim, deya o'ylardi Karimov. Endi xatoni tuzatishga kech. Bu besh foizning yo'lini to'sishim kerak. Viloyatlarda tikan simli to'siqni yorib o'tishdi. Bu erda shunday to'siq qo'yishim kerakki ham qo'llari, ham oyoqlari va eng asosiysi og'izlari bog'lansin.

Karimov yangi ish boshlaydigan Oliy Kengashning birinchi sessiyasidagi nutqu ma'ruzalar, ish tartibiyu tushlikda beriladigan ovqatlar ro'yxatiga qadar sinchkovlik bilan chig'irdan o'tkazdi. Garchi Moskov sessiya oldidan odatga kirgan vakillar yig'ilishini o'tkazmaslik haqida isrorli bo'lsa-da u bunga rioya qilmadi. Vakillar yig'ilishiga "begonalar"ni ham chaqirtirdi.

-Yana bir soatdan keyin mamlakatimiz tarixida birinchi marta bo'lib o'tgan erkin saylovlar natijasida saylangan deputatlar ishtirokida ilk sessiyani boshlaymiz, -dedi u kichik zalda to'planganlarga. -Bu erga nafaqat rahbarlarni balki o'z kuchi bilan saylanganlarni ham chaqirdik. Xalqimizning yaxshi odati bor, to'ydan oldin oqsoqollar yig'ilib maslahat qilishadi. Bu ham parlamentning oqsoqollar maslahat kengashidir. Xalqning oldiga chiqib baqir-chaqir qilmasdan, nima gapimiz bo'lsa ana shu erda kelishib olaylik. Ayniqsa o'z kuchi bilan saylangan do'stlarimiz kun tartibi, tuzilajak komissiyalar haqida fikrlarini aytsinlar.

Majlislar zali kichik bo'lsa-da har yer har yerga bir mikrofon o'rnatilgandi. Birinchi bo'lib To'liqjon degan yigit so'z oldi.

-Mening va yonimda o'tirgan ukamiz Mirtemirning saylovoldi dasturida adolatsizlikka qarshi kurash asosiy masala qilib qo'yilgan. Keyingi vaqtda Moskva xalqimizga nisbatan ayanchli ravishda bo'hton yog'dirdi. Moskvaga birinchi zarba sifatida uzoq yillar jumhuriyatimizni boshqargan marhum Rashidov nomini oqlash masalasini sessiya kun tartibiga kiritishni so'rayman.

-Bu parlamentga oid masala emas. Uni partiya qoralagan. Kerak bo'lsa partiyaning o'zi ko'rib chiqsin. Parlament bunday masalalardan balandda turishi

kerak, -dedi Karimov. Lekin zarda bilan gapirganini his qildi va oldindan ko'ngliga tuyganidek o'zini yumshoq qilib ko'rsatishga urindi. -Men shu partiyaning raisiman. Bu masalani siz ham Mirtemirjon ham menga topshiringlar. Insholloh, partiya kengashlarining kun tartibiga kiritaman.

To'lqinjon o'tirarkan mikrofon yoniga Mirtemir keldi:

-Keyingi vaqtda jumhuriyatimiz tarixida yuz qorasi bo'lib qoladigan voqealar sodir bo'ldi. Bulardan birinchisi, Farg'ona fojeasi. Aka-ukani bir-biriga qarshi qo'ydilar. Fitna, ig'vogarlik urug'ini sochdilar. Ikkinchisi esa, Parkent voqealari. U erda yosh yigitlar timsolida millatimizning kelajagi o'qqa tutildi. Bu masalalar ochilmay qoldi. Uchinchidan, tsenzura degan jallod hamon matbuot ustida qilichini qayrab turibdi. Hatto saylov oldida nomzodlar o'z qarashlarini ochiq ifoda etolmadilar. To'rtinchidan, ba'zi jumhuriyatlar mustaqil bo'lish uchun kurashayotgan bir paytda biz Ittifoq shartnomasining tashabbuskori sifatida o'rtaga chiqdik. Ya'ni bo'ynimizga tosh bog'lab, o'zimizni quduqqa otayapmiz. Xalq esa bu harakatning mohiyatidan bexabar. Va nihoyat, birinchi majlisdanoq parlamentni partiya plenumi yoki kolxoz qurultoyi holiga solib qo'ymaslik uchun uning elkasidan quruvchi degan yukni olib tashlamoq kerak. Deputatlar yo'l qurilishi yoki bog'cha qurilishini emas, siyosiy masalalarni tortishmoqlari zarur. Majlislarimiz jonli ravishda televideniya ko'rsatilib turilsin. Xalq o'z vakillariga o'zi baho bersin...

Bu bola rostdan ham bosh balosi ekan, deb o'yladi Karimov. Hozirning o'zidayoq og'ziga latta tiqib qo'yishim mumkin. Lekin o'sha lattani qaytarib o'zimning og'zimga tiqib qo'ysa-chi? Adibadi aytib o'tirsam sharmanda bo'laman. Gappa chechan ekan. Savollariga javob topib berolmasam, obro'yim to'kiladi. Shuning uchun indamay tinglashim kerak.

Mirtemir Karimovning xayol surayotganini sezgandek uning ismi sharifini tilga olib, taklifini unga yo'naltirdi:

-Qo'limizda parlament komissiyalarining ro'yxati bor. Men unga Oshkoralik komissiyasi qo'shilishini va yuqoridagi masalalarni oydinlatish unga yuklatilishini taklif qilaman.

Karimov Hamidovga qaradi. Hamidov "Bo'ladi, keyin o'ylab ko'ramiz" degandek bosh irg'adi.

-Rahmat, bu taklifingiz uchun, -dedi Karimov Mirtemirga. -Sessiyada ham bu taklifni o'zingiz o'rtaga oting, biz esa qo'llaymiz. Raisi va a'zolari haqida esa mana o'rtoq Hamidov o'ylab ko'rsinlar.

Shu payt sochlari to'kilgan o'rta yoshlardagi bir kishi mikrofondagi yaqinlashdi. Bu shoir Erkin Vohidov edi.

-Men mazkur komissiyada xizmat olishga tayyorman, -dedi u.

-Sizga o'xshagan insonlar yuz yilda bir marta tug'iladi. Men bu fikrimni sessiyada ham takrorlayman. Biz ham sizga bu komissiyani ishonib topshirishga tayyormiz, -dedi Karimov. -Biz oldimizda katta majlis borligini unutmasligimiz kerak. Shu boisdan takliflarni qisqa-qisqa aytaylik.

"Begonalar" birin-ketin o'z takliflarini aytdilar. Shundan keyin Karimov viloyat birinchilariga qarata:

-Har biringiz suvchi quloq boshida o'tirganidek viloyatingiz deputatlari bilan birga bo'ling. Sizdan poda boshi bo'lishingizni istamayman. Deputatlaringizni boshqa tomonga boshqarmang. Sizdan to'da boshi bo'lishingizni istayman. Deputatlaringizni bir joyga to'dalab o'tiring. Bu ham talab, ham buyruq va istasangiz, iltimos ham. Bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tishingizga ishonaman. Chunki biz bir komandamiz, bir eshelonmiz. Ajralib qolgan vagon esa yolg'iz qolib ketadi, -dedi.

Shundan keyin Karimov barchani katta zalga da'vat etdi.

T O ' R T K A L I M A [3 1]

Majlis zali hayitona tus olgandi. Yangi saylangan millatvakillari ochilishga hozir bo'lgan gul g'unchasini eslatardi.

Erkaklarning sochlari piril-piril yaraqlab turgani, soqollari alohida e'tibor bilan olingani uchun yuzlaridan ko'rkamlik ufur urayotgani, deyarli hammasi boshdan oyoq yangi kiyim kiygani darhol diqqatni tortardi.

Xotin-qizlar ham qimmatbaho va xushbichim kiyimlarini ilk bor shu majlisga kiyib kelganlari ular ko'zlarining tagi bilan bir-birlarini kuzatayotganlaridan ham ma'lum edi.

Umrida galstuk-bo'yinbog' bog'lamagan otaxondan tortib, hayotida ilk bor to'pig'i baland tufli kiygan qizga qadar o'z hollaridan mamnun edilar. Ularning nafaqat tashqi ko'rinishlari balki ichki dunyolarida ham qishning o'rtasida quyoshga aldangan borliq kabi uyg'onish hissi, umid yaproqlari qimirlayotgandi. Shu damda hammaning yuziga urgan umumiy ichki tuyg'usi bor edi: mag'rurlik. Bu his qalblarida gulxan bo'lib yonarkan ayni paytda yuzlarini ham yoritayotgan, ko'zlaridan nur bo'lib atrofga oqayotgandi.

Xoh buyurtma bilan saylangan, xoh tanish-bilish bilan ro'yxatlarga kirgan, xoh kurashga otilgan millatvakillaridan qaysi biriga nazar solsangiz o'zini katta ishlar

oldida mas'uliyatli his etishga chog'langanini ko'rasiz. Bu holning tabiiy yoki soxta ekanligini bir qarashda anglash mushkul. Ammo ularni ilgari tanigan odam bu o'zgarishni odim otishlarida, atrofga razm solishlarida, hatto salom-alik jarayonida bo'rtib chiqqanini sezib oladi. Qaysi bir ma'noda millatvakillari shoshib qolganga o'xshardilar.

Karimov zalga kirib kelar ekan, kimdir o'rnidan turdi, kimdir esa o'z xayollari og'ushida sevinch so'qmoqlarida yugurib yurardi, yana kimdir tarki odat amri mahol degandek, majlislarda o'rganib olgani kabi jon-jahdi bilan qarsak chalardi.

Majlislar zalining ko'rinmas, ammo his qilajak salobati bor edi. Karimov buni bir necha yil oldin bu erga ilk bor kelganida sezgandi. Vaqt o'tishi bilan bu salobatga o'rganib qolgan bo'lsa-da zaldagi notanish nigohlar bilan qo'shilib, bu kuch uni yana mag'lub etdi. Birdan tizzasi titrab, qo'llarining payi bo'shaldi. Esankirab qolgan odamdek zinaga qanday oyoq bosishni bilmay qoldi. Ba'zan bir, ba'zan esa ikki zinapoyani hatlab, minbarga chiqdi. Birdaniga fikrida chaqmoq chaqnadi. Yanglishgandi. Chunki majlisni u emas Markaziy saylov komissiyasining raisi ochishi kerak edi. Shu bois oniy bir hamla bilan orqaga qaytdi va pastga tushib birinchi qatordan o'ziga ajratilgan o'rindiqqa "cho'kdi".

Markaziy saylov komissiyasining raisi millatvakillarini tabriklagach, so'zni faxriy raisga berdi. Karimovning tavsiyasi bilan poytaxt ijroqo'mining raisi Hoshimov parlament raisi va komissiyalar a'zolari saylangunga qadar majlisni boshqarish uchun vakolatli qilingan edi. Hoshim Hoshimov yoshi etmishga etib qolgani uchun yozib berilgan stsenariyni arang o'qirgan, zalda avvaliga engil kulgi, keyin esa norozilik alomati o'laroq g'ala-g'ovur boshlandi. Ammo hech kim bu noroziligini ochiq aytishga jur'at qilmadi. Birinchi bo'lish hamma vaqt qiyin, chunki birinchi bo'lishning ortida yo maqtov yoxud tanqid, yo qahramonlik, yoxud xoinlik kabi tamg'alar yotadi. Shu bois ko'pchilik noroziligini yonidagi sherigiga aytish bilan kifoyalanadi.

Zaldagi g'ala-g'ovur tinmas ekan, Mirtemir o'rnidan turdi:

-Menda taklif bor.

Etmish yillik umrida stsenariydan chetga chiqmagan Hoshim Hoshimov uchun bu bir zarba bo'ldi. U boshini ko'targancha Mirtemirga tikilib qoldi. Mirtemir esa u eshitmadi, shekilli, deb o'yladi-da, gapini takrorladi. Hoshim Hoshimov nima qilay, degandek Karimovga qaradi. Uning holidan Karimovning ham jahli chiqqandi, shekilli, boshini xam qilgancha, o'z yog'ingga o'zing qovril degandek indamay o'tiraverdi. Zaldagi shovqin-suron masxaraomuz tus oldi. Ba'zilar ko'pchilikka eshittirib kula boshladilar. Ba'zilar esa yonlaridagi sheriklariga baland ovozda shikoyat qila boshladilar. Karimovning asabi dosh bermadi. U o'rnidan turib, minbarga chiqdi va faxriy raisning yoniga o'tirdi.

Yana u deb o'yladi Mirtemirga qarab. O'zini ko'rsatib qo'ymoqchimi yoki mansab uchun o'yin boshlayaptimi? Balki televizordan xalqqa ko'rinib mashhur bo'lmoqchidir? Yoki buni ataylab tayyorlashganmi? Ikki og'iz iliq gap bilan o'tqazib qo'ysammikan? Yo'q, bundaylar betga chopar bo'ladi. Mana bu lattaning qilg'iligi uchun ham meni ayblaydi. Qani, eshitib ko'raychi, nima taklifi bor ekan?

-Nima taklifingiz bor edi?

-Birinchidan, kichik zaldagi mikrofonlar katta zalga o'rnatilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ikkinchidan esa, faxriy raisni almashtirib, mana bu g'ala-g'ovurga chek qo'yish kerak.

-Men ichkaridagi etti-sakkiz taklifingizni yana takrorlayapsiz deb o'ylagandim. Birinchi taklifingizga qo'shilaman. Darhol qator oralariga mikrofon qo'yishsin. Ikkinchi taklifingizga ham qo'shilaman. Majlis ruxsat bersa, bu ishni men davom ettirsam.

Karimov majlisdan ruxsat ham olib o'tirmasdan raislik qila boshladi. Hoshim Hoshimov esa elkasidan tog' tushgan odamdek engil tortib, Karimovning yonida savlat to'kib o'tiraverdi. Parlamentga kimning rais bo'lishini hamma bilardi. Chunki ikki kun oldin Kompartiya kengashida Ibrohimovning nomzodi raislikka ko'rsatilgan va bu matbuotda e'lon qilingandi.

Mirzaolim Ibrohimov esini tanigan kundan buyon partiyaning eshiklaridan kirib-chiqib yuribdi. Yoshi nafaqa olishga etganda parlament raisligiga nomzodi ko'rsatildi. U haqda avval Karimovning o'zi gapirdi, keyin oldindan tayyorlab qo'yilgan ma'ruzachilar so'zga chikdilar. Ibrohimovni shu qadar maqtadilarki, hatto Karimovning ko'nglida hasad uyg'ondi. Kommunist partiyasida ish emas, faoliyat emas, tarjimai hol muhim o'rin tutardi. "Begona" millatvakillari esa Ibrohimovni tanimas ham edilar. Balki shu sababdanmi unga hatto savol ham berilmadi. Yo'liga bo'lsa ham saylov o'tkazildi. Undan keyin navbat o'rinbosarlariga keldi. Karimov birinchi o'rinbosarlikka Bugrovning nomzodini ko'rsatdi.

-Bugrov davlat tilida gapirishni biladimi? -deya luqma tashladi kimdir.

Hamma ovoz kelgan tomonga qaradi, lekin kim luqma otganini bilishmadi. Luqma otgan Shovruq Ro'zimurodov edi. Karimov ham u o'tirgan tomonga olazarak nigohlarini qadadi, gapni uzatib o'tirmaslik uchun Bugrovga murojaat qildi. Bugrov minbarga chiqdi: -Salyam-alyaykum, az-az bilyapmiz... urganyapmiz,
-dedi Bugrov.

Karimov mamnun bo'lib qarsak chaldi. Zaldagilar ham unga qo'shilishdi. Hatto ba'zilar "Ofarin, o'g'il bola ekan, tilimizni o'rganib olibdi", deya baqirib ham yubordilar. Bugrov esa shu to'rt kalimadan boshqasini bilmasdi. Ammo uning rais o'rinbosari bo'lishi uchun shu to'rt kalima kifoya edi.

M U H A R R I R [3 2]

Parlament komissiyalari a'zolarini saylash ham Karimovning iborasi bilan aytganda silliq o'tdi. Biroq uning ko'nglini og'ritgan narsa ikkinchi kun yuz berdi.

Karimov ertalab muharrir Ahmadjon Muxtorov bilan birga choy icharkan:

-Masala kun tartibida yo'q. Asli u sizning tashabbusingiz. Men ham o'ylab yurgandimu lekin qaror qilmagandim. Siz xayolimdagi xom narsani pishitdingiz. Endi majlisga ham o'zingiz olib chiqasiz. Qolaversa, siz yuqoridan mehmon bo'lib keldim desangiz, SSSR Xalq deputati sifatida tarafsiz kishi ekanligingiz ko'rinadi,
-dedi unga.

-Uch-to'rtta mahmadana bola o'tib qolganga o'xshaydi. Shu bois o'zimizning odamlardan so'zga chiquvchilarni tayyorlash kerakmidi?

-Bu yog'ini bizga qo'yib bering.

-Baribir ham ularning nutqlariga bir ko'z tashlasam yomon bo'lmasdi. Biror kurmak o'tib ketmasin deyman-da.

Karimov kostyumining yon cho'ntagidan bir dasta kog'ozni olib muharrirning oldiga tashladi. "Yuragiga yaqin olib yurgan ekan" degan fikr muharrirning xayolidan yashin tezligida lip etib o'tib ketdi.

-Bu nusxalari. Agar jiddiy gap chiqib qolsa, mening nomimdan o'zlariga aytasiz. Yoki Baxtiyor Nazarovga aytasiz. -dedi Karimov.

Kim bo'ldi ekan bu, deb o'yladi muharrir. Ha, topdi. Adabiyotshunoslik institutining direktori edi. Maslahatchilikka olinibdi. Demak, ma'ruzalarni u yozayati. Qiziq, qanday qilib Karimovning nazariga tushdi ekan? Kim tavsiya qilishi mumkin? Nega Karimov bu ishni menga topshirmadi? Balki kichkina ish deb o'ylagandir va ovora qilgisi kelmagandir? Yoki majlisga yangi ruh, yangi gap olib kelmoqchi bo'ldimi? Yoki mening yozish uslubim unga ma'qul kelmadimi? Unday bo'lsa saylovoldi nutqini qayta-qayta e'lon qildirarmidi? Bugungi majlisga ataylab da'vat etarmidi? Muharrir nutqlarni o'qiyotganga o'xshab ko'rinsada, aslida Baxtiyor Nazarov jumbog'ini cho'zish bilan ovora edi. Uning fikrini Karimov bo'ldi:

-Bularga ko'p ham e'tibor bermang. Asosiy gap sizniki.

-Ha, ignachining ming urgani temirchining bir urgani bilan barobar demoqchisizda.

-Majlisda ham ana shunday maqollardan uch-to'rttasini ketma-ket ishlatib yuborsangiz hammani mot qilasiz. Umuman, maqolni ko'proq qo'llash kerak. Menga ham besh-oltita to'plab berib qo'ying. Xalqqa pul emas, non emas, suv emas yoqadigan gap kerak. Gap bilan ham qornini, ham ko'zini, ham qulog'ini to'ydirish mumkin. Maqol esa to'yimli ozuqa.

Muharrir qorin bilan quloqni to'ydirishga tushundi-yu, ko'zni qanday qilib to'ydirishga tushunmadi. "Ozuqa" degan so'z ham unga og'ir botdi, chunki maqolni ozuqa, xalqni esa hayvon o'rniga qo'ymoqda deb o'yladi. Aslida esa Karimov "ozuqa" bilan "oziq-ovqat"ni ayni ma'noni tashigan so'zlar deb tushunardi. Muharrir hozir anglatib o'tiradigan payt emas, deb o'yladi-da, ko'nglidagi boshqa savolni o'rta tashladi.

-Nazarimda rasmiyat uchun bo'lsa ham hukumat raisi lavozimini saqlab qolish kerak. Butun dunyoda shunday lavozim bor. Ammo asosiy vakolatni o'zingiz qo'lga olasiz. Shu sababdan bu nomzodni ham o'ylab qo'yish kerakmi?

-To'g'ri, -dedi Karimov. Garchi buni o'ylab qo'ygan bo'lsa-da muharrirga. -Xo'sh siz kimni tavsiya qilasiz, -dedi.

-Mirabror aka yaxshi ishlab turibdilar. Ammo parlament yangi, hukumatga ham yangi qon berish kerak. Qolaversa, do'stingiz Shukrullo Mirsaidov eng yaxshi nomzod. Oliy kengash raisi Vodiydan, hukumat raisi poytaxtdan bo'lsa, muvozanat saqlab qolinadi. Har doim shunga rioya qilinardi.

Bu men o'ylab yurgan gaplarni yo ba'zi joylardan eshitib olgan yoki haqiqat shu bo'lgani uchun fikrimiz bir joydan chiqayapti, deb o'yladi Karimov. Hozir indamasam, keyin mening aytganimni qildi, deb ko'kragiga urib yuradi. Shuning uchun hozirning o'ziyoq to'g'onni bostirishim kerak. Bu odam tahlikali, unga ishonish qiyin. Yo'qotish uchun yaqinlashtirayapman uni. Menimcha rahbarlikning eng yaxshi usullaridan biridir bu. Kadrlarni biror bir lavozimda uzoq ushlamaslik kerak. Yo'qotish uchun avval yaqinlashtirish, sir asrorini o'rganish va nozik joyiga o'nnglanmaydigan qilib tepib yuborish darkor. Mana buni esa hozir sevintirmog'im kerak. O'shanda majlisda yana ham ilhomlanib gapiradi...

-Sizga tobora qoyil qolayapman, -dedi Karimov muharrirga. -Ahmadjon aka yo farishtasiz yoki ilohiy odamsiz...

Muharrir "farishtasiz" kalimasining ikki ma'nosi borligini o'ylagan bo'lsa-da lekin Karimov uni farishta deyayotganiga shubha qilmadi. Karimov esa so'zda davom etdi:

-Men o'ylab turgan narsani folbindek aytib berdingiz. Sizni menga Xudoning o'zi yubordi. Bir umr aka-ukadek yonma-yon yashaymiz. Yulduzni istasangiz uzib beraman. Uzolmagan takdirimda narvon qo'yib beraman, o'zingiz chiqib uzib

olasiz.

-Siz ham shoir bo'lib ketdingiz.

-Tilni yaxshi o'rganib olay, she'r qanday yozilishini ko'rsatib qo'yaman bularga...

Muharrir "bular" kimligini tushunmadi. Kimlarni nazarda tutayapti ekan? Balki shoirlar bilan gapi qochib qoldimi? Ammo shoirlar orasida bunga qarshi chiqadigani yo'q-ku? Ha, topdim. Uch-to'rtta yosh shoir muxolifat bayrog'ini ko'tarib yuribdi. Buning yuragiga ular g'ulg'ula solishgan. Bu qadar nutqlarga e'tibor qilayotgani, majlisdan bu qadar cho'chiyotgani ham ana shundan. Lekin yomon odamga o'xshamaydi. Ko'p gapi samimiy. Agar gaplari yolg'on deydigan bo'lsam, boshdan oyoq hamma gapiga ishonmasligim kerak. Aytganini qilayapti. Mening aytganimni ham qaytargani yo'q. Ming marta shukur qilish kerak. Ilgarigilar bizga o'xshaganlar bilan mana shunday choy ichib o'tirisharmidi? Balki ichishgandir ham. Biz qayoqdan bilamiz? Mana bizning

birga nonushta qilganimizni kim biladi? Nima bo'lganda ham bu mening yordamimga muhtoj. Muhtojni esa ostonadan haydamaydilar.

Karimov muharrirdan "izn olib" majlis zalining orqasidagi boshqa xonaga o'tdi. Muharrir esa gazeta tahririyatiga sim qoqib, o'rinbosarini chaqirdi.

Nutqlarni o'qib bo'lguncha o'rinbosar etib keldi.

-Kechirasiz, ruxsatnomam bo'lishiga qaramay ichkaridagi xonalarga kiritishmadi. Biroz tortishdik.

-Hechqisi yo'q, Anvarjon, mana bu nutqlarni birovga ko'rsatmasdan terishga bering. Mana bu esa mening nutqim, -u cho'ntagidan o'zi qoralab qo'ygan sahifalarning nusxasini olib muovinga berdi. -Birinchi sahifaning sarlavhasi "Prezidentlik mustaqildir!" bo'lsin. O'ttiz oltilik shriftda yozdiring. Harflar quyuq-moyli bo'lsin. Sarlavha ostidan Karimovning bayroq yonida turgan rasmini joylashtiring. Mana bu nutqlarni esa och bo'yoqli harflarda terdiring. Men ostini chizgan jumlar katta harflar bilan yozilsin. Tayyor bo'lgach, sahifani shu erga olib keling, men yana bir marta o'qib beraman.

-U yoqda boshqa gazetadagilar ham ko'rib qolishlari mumkin.

-Ko'rsalar ko'rarlar. Oyni etak bilan yashirib bo'lmaydi. Zotan, rahbarimizning mustaqil bo'lishi taklifini tushdan keyin men o'zim kiritaman. Nafaqat boshqa gazetalar, Moskovdagilar ham eshitadi. Shu bois ruscha xabar tayyorlab qo'ysangiz, ularga ham o'zimiz jo'natamiz. Anvar "xo'p-xo'p" degancha muharrirdan ayrilib, kirish eshigi yonida turgan Mavlonning yoniga bordi:

-Ahmadjon aka mana bu nutqlarni berdilar. Gazetaning sarlavhasi ham tayyor. Masala majlisda ko'rilmadan mish-mish tarqalib ketmasmikan?-dedi u Mavlonga

sekingina.

-Hozir Islom aka bizlarni qabul qilmaydi. Faqat KGBning raisi u kishining oldiga kirib chiqishi mumkin. Kechikmasdan bu gapni unga ayting.

-Qanday bo'larkin?

-Nima, o'z rahbaringizdan cho'chiysizmi?

Anvarning rangi oqarib ketdi. Nima deyishni bilmay qoldi.

-Qo'rqmang, qo'rqmang, mendan boshqa hech kim bilmaydi. Sizni men o'zim taklif qilganman-ku. Ko'ngilni to'q qiling, jo'rajon. Bundan keyin birga ishlaymiz. Mening bilishimdan faqat Karimov xabardor. Hozir esa tezroq boring, kechiktirmang!

Mavlon o'rinbosarning elkasiga urib qo'yarkan, jilmayib qo'ydi. O'rinbosar ham unga jilmayish bilan javob qildi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Majlis binosida KGB uchun ajratilgan maxsus xona

bor edi. U erga har kim ham kirib chiqqa olmasdi. Anvar shu xonaning yoniga keldi -da, eshikni taqillatdi. Ichkaridan “kim”degan ovoz eshitildi.

-”Qishloq Haqiqati”... o’rinbosar...

Eshik ochilib, novcha yigit ko’rindi. O’rinbosar qandaydir hujjatni yigitga ko’rsatdi- da, ichkariga kirdi.

-Tez borib zaldan raisni chaqirib keling! -dedi Anvar.

Bir lahzada yigit tashqariga chiqib ketdi va oradan hech narsa o’tmay Melkumov ostonada ko’rindi. KGB raisi ichkariga kirdi, yigit esa eshikni yopib, tashqarida qoldi.

Melkumov o’rinbosarning qo’lidagi qog’ozlarni darrov nusxaladi. Nusxalash apparatidan chiqqan varaqlarni yig’ishtirib, xonadan otilib chiqib ketdi. Orqasidan kuzatib qo’ygan yigit qaytib keldi- da Anvarga “Chiqavering, hech kim yo’q” ishorasini berdi. Anvar eshikdan chiqarkan, avval chap, keyin o’ng tomonga nazar soldi-da, majlis zaliga olib boradigan yo’lak bo’ylab yurib ketdi.

KGB raisi voqeani Karimovga tushuntirib berarkan:

-Bulardan bir nusxasini o’rinbosar olib ketdi. Qo’lidan olib qo’yishim to’g’ri bo’lmasdi. Gap-so’z ko’payardi,-dedi.

-Nima qilsang qil, hozircha hidi chiqmasin. Moskva eshitib qolsa, qo’rqadigan joyim yo’q. Lekin radio-televidenie jar solishi mumkin. Ish bitgandan keyin o’zlarini

osishsa ham farqi yo’q. Hozircha esa o’rinbosar yonida saqlasin.

Karimovning planiga ko’ra bu ish parlamentda tasodifan o’rtaga chiqib qolishi va uning yo’q deyishiga qaramay mustaqil rahbar sifatida saylab yuborishlari kerak edi. Moskvaga ana shu javobni tayyorlagandi. Shu bois ham Ahmadjon Muxtorovning ishidan ranjidi.

-Unga ko’z-quloq bo’linglar. Ayniqsa tush paytida yolg’iz qoldirmanglar. Mavlonga ayt, yonidan qimirlamasin. U bilan hisob-kitobni esa vaqti kelganda qilamiz. Hozircha eshagimizning jilovi uning qo’lida...

Bu voqea Karimovni sarosima holiga tushirdi. O’zini qo’yarga joy topolmay qoldi. Ammo uzoq o’ylab o’tirmadi. Raisni chaqirdi-da:

-Tushdan keyingi masalani hozir hal qilamiz. O’zingiz ana u muharrir bilan gaplashing, majlisni ochishingiz bilan so’zga chiqsin. Qolganlarni ham ogohlantirib qo’ying,- dedi.

Rais chiqib ketar ekan, Karimov o’n marta o’lgandan bir marta o’lgan yaxshi deb o’yladi. Bo’ladigan ish qancha oldin bo’lsa, shuncha yaxshi. Cho’zib o’tiramanmi? Ishqilib ana u tirranchalar qopishib o’tirsin-da. Tushdan keyin bo’lganda ancha charchab qolishardi. Buning ustiga tushlikni yog’lik qilib buyurgandim, Anhorning bo’yida mazza qilib bugungacha tushlariga

ham kirmagan ovqatlarni eb olishgach, majlisda qorinlarini silab, mudrab o'tirishardi. Bu ablahning rejamizni buzib qo'ygani yomon bo'ldi.

Eshik ochilib Kraynov ko'rindi.

-Boshladi, -dedi u.

Karimov apil-tapil o'rnidan turib, minbarga olib chiqadigan yo'lakdan o'tib, o'z o'rniga kelib o'tirdi. Bu paytda Ahmadjon Muxtorov yugurgancha minbar tomon oshiqayotgandi. Bo'yi kalta bo'lgani uchun minbar uning vujudini bo'yniga qadar "yashirdi". Zalda o'tirganlar faqat boshini ko'ra olardilar, xolos. Buning ustiga mikrofonlar ham balandda edi. Ahmadjon aka so'zga chiqaverib, bu ishning havosini olgani uchun, shoshmasdan mikrofonlarni pastga tushirdi va tomog'ini qirib, yo'talgan kabi manzara yaratdi-da o'ziga xos ohangda dona-dona qilib gapira boshladi:

-Men sizlarning hukmingizga havola etmoqchi bo'lgan masalani uzoq o'yladim. Hatto fikrlarimni qog'ozga ham tushirdim. Lekin bu qog'ozdan o'qib beriladigan gap emas. -Ahmadjon aka bu bilan o'zidan keyin so'zga chiqadiganlarni qiyin ahvolga tushirdi. Ular bunga parvo qilmasdan nutqlarini o'qib bersalar, uning so'z bobida mohirligi yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qib bermasdan erkin gapirishga urinsalar, baribir uning kabi so'zlarning "qosh-ko'zini" bo'yay olmaydilar. Har

ikki holda ham zafar uniki. Bu fikrni u oldindan o'ylab ham ko'rmagandi. Ammo shu lahzada xayolining qaysi bir so'qmog'idan ana shu fikr o'tgani uchun bir zum gapirishdan to'xtab, zaldagilarga termuldi va jilmaydi. Ularni intiq qilmoqchi bo'lgandek minbarning o'ng tarafida turgan bardoqdag'i suvdan bir qultum ichdi va so'zda davom etdi:

-Jumhuriyatimiz tarixida bugun ilk bor jasoratli qadam o'rta otilishi kerak. Millatimizni haqoratlashdi, madaniyatimiz, an'analарimizni oyoq ostiga olishdi, ustimizdan kulishdi, kiygan to'nimizdan do'ppimizga qadar masxara qilishdi, ishongan tog'larimizni o'g'ri deya muttahamni olib qamagandek tahqirlashdi, xotin-qizlarni tergovga tortishdi, sharaf va nomuslarini erga urishdi – biz esa jim. Etar! Bu yuk tegirmon toshidan ham og'ir. Agar bu yukni ko'targan taqdirimizda tegirmondan un keladigan bo'lsa, kelmasin. Ochimizdan o'lsak o'laylik. Ammo tegirmonga suv quyayotganlarning o'yinchog'iga aylanmaylik...

Karimovning ko'ziga zalda o'tirganlar quloqlarga aylanib qolganga o'xshab ko'rindi. Bu quloqlar ding bo'lib, mikrofondan kelgan so'zlarga asir tushgandi. Karimov ham vujudida qandaydir titrash his etdi: Qani edi men ham ana shunday gapira olsam, odamlarni titratsam. Ha, u shu paytda o'zi sevmagan odamga ham hasad, ham havas qilayotgandi. Hasad va havasning qorishiq tuyg'uga aylanishi uni xayol yo'laklariga etaklasa-da, ortga qaytishga majbur edi. Chunki mikrofondan takror-takror uning ismi eshitilmokda.

Ahadjon aka esa unga chin yurakdan ishongan va samimiyligiga tan berganidan ilhom bilan gapirardi:

-Agar prezidentlik tizimini joriy qilsak va o'z rahbarimizni mustaqil deya e'lon etsak, Moskovda xalqimiz nomidan gapira oladigan va xalqimizning nafaqat sharaf-nomusini balki manfaatini ham

himoya qila oladigan kuchga ega bo'lamiz. Bugungi siyosiy sharoitda kuchsizning chumoli qadar ahamiyati yo'q. Oltinlarimiz tashib ketilmokda, paxtadan tog'lar bunyod etib, kafan qidirib yuribmiz, Orolni quritib qo'yib, kelajagimizni dahshatli tahlikaga ro'baro' qildik, qishloqlarimiz xarob, bolalarimiz va onalarimiz och, dalalarda ishlashdan boshqa narsani bilmaydilar, yana biz yomon. Ha, boshini eggan inson ham kaltak eydi, ham haqini boy beradi. Shu sababdan bugun xalqimizning vijdoni bo'lgan bu parlament o'z ovozi chiqarsin. Jumhuriyatimiz rahbariga mustaqillik berish va uning vakolatlarini kengaytirish tariximizdagi buyuk inqilob bo'ladi. Bugun bu qarorga imzo otsak, kelajagimiz uchun imzo otgan bo'lamiz. Bu bilan Moskovdagi to'ralarning qarshisiga o'zimizning jasoratli rahbarimizni chiqargan bo'lamiz! Bu bilan orzularimiz amalga oshadigan kurashga maydon ochgan bo'lamiz! Sizni bu masalani kun tartibiga kiritishga va qo'lingizni ko'kragingizga qo'yib, vijdon haqqi qaror berishga chaqiraman!

Ahmadjon Muxtorov gulduros qarsaklarga hamohang odim tashlab, o'z o'rniga borib o'tirdi. U shu lahzada aytgan gaplaridan iftixor tuyar va bundan hali ming marta pushaymon bo'lishi esa xayoliga ham kelmasdi. U mana shu gaplari bilan

o'zining kelajagiga parda tortgani va o'z ajalini taxtga mindirayotganidan bexabar edi.

Karimov esa shu damda xayolga botgan odamning ko'rinishini bermoqchi bo'lgandek, boshini xam qilganча barmoqlari bilan stolni chertardi.

Rais Mirzaolim Ibrohimov sevinchdan uchayotgan qush kabi engil ekanligini ko'rsatmoqchi bo'ldi, shekilli, qo'llarini havoda bir-biriga ishqab, o'rnidan bir turib o'tirdi-da masalani kun tartibiga kiritish uchun ovozga qo'ydi. Keyin qo'l ostidagi qog'ozlarni titkilarkan zalga qarab ham o'tirmasdan "Qarshi, betaraf, yo'q, hamma "za"dedi.

Ammo qarshilar ham, betaraflar ham bor edi. Shu sababdan so'z so'rovchilar ko'payib qoldi. Rais esa ularga parvo ham qilmay qo'lidagi ro'yxatiga qarab ma'ruzachilarni chaqira boshladi. Ularning aksariyati rahbarlar edi. Biri Karimovning tarjimai holini o'qib berdi. Qolganlari esa uning siyosiy tashkilotchiligi, rahbarlik qobiliyati, usta yo'l boshchiligi, insoniy xislat-fazilatlarini, oiladagi ibrati, ilm bobidagi muvaffaqiyatlari, tajribali iqtisodchiligi kabi boshqalarda oz uchraydigan "taraf"larini har turli dalillar, voqealar bilan "isbotlab"berdilar. Ammo o'z ixtiyori bilan so'zga chiquvchilar ham jim turmadilar. Soatlab o'rta qatorlardagi mikrofonlar yonidan uzoqlashmadilar. Karimov esa bundan norozi edi. Bularning milliy g'ururi ham yo'q, deb o'yladi. Agar bunday g'urur bo'lganda, Muxtorovning gaplaridan keyin uyg'onardi. Balki uyg'ongandir, balki mening foydamga gapirishar? Mansab, lavozim olish, ko'zga tashlanish uchun bundan qulay fursat bormi? Ularga so'z beraman. Agar qarshi gapiradigani chiqsa, qanotini sindirib tashlayman. Bu erda faqat mening masalam emas, balki millatning taqdiri hal bo'layotganini aytib, sharmisor etaman. Bolani bolalikda tarbiyalamasang, keyin boshingga chiqib oladi...

-Nega kutib turganlarga so'z bermayapsiz, adolat qiling, adolat qiling, hurmatli rais. Ular ham shu millatning farzandlari. Aytadigan gaplari bordir? -dedi Karimov raisga.

Karimovning bu gapidan keyin navbat kutib turganlar harakatga keldilar.

-Ukajon, kechadan buyon faqat siz so'zga chiqayapsiz, -dedi rais mikrofon yonida turgan yigitga karab. Ana u do'ppili ukamiz esa umuman so'zga chiqqani yo'q. Biz adolatli bo'lishimiz kerak. Elga navbat sherga navbat. Hozir so'zni uchinchi qatorda o'tirgan do'ppili ukamizga beramiz.

Do'ppili yigit o'rnidan turib:

-Men so'z so'raganim yo'q, -dedi.

-Bu masalada so'z so'rash kerak emas. Biz demokratiya qurayapmiz, oshkoralik zamonida yashayapmiz. Har kim o'z fikrini aytishi kerak, -dedi rais maslahatomuz ohangda.

-Mendan gapni emas, ketmon urishni so'rang. Siz gapiring men eshitaman, -dedi haligi yigit. Zaldagilar kulib yuborishdi. Kimdir sodda qishloq yigitining askiyasidan miriqib kulsa, yana kimdir raisning o'yinidan kulardi. Karimovning esa jahli chikdi. Raisga ham qarab o'tirmasdan:

-So'z mikrofon yonida turgan singlimizga, -dedi.

Karimovning "singlisi" shoshmasdan minbarga qarab yurdi. Bularga qo'l uzatsang elkangni uzib olishadi. Ha o'sha mikrofondan gapiravermaydimi, deb o'yladi Karimov. Albatta minbarga chiqishlari kerak. Bu jikkakkina qiz minbarga chiqib, ham bizning ham xalqning ko'ziga ko'rinmasa bo'ladimi? Kichkinagina bo'lsa ham yoqimli ekan. Buni ro'yxatga kim kiritdi ekan? Har holda viloyatning birinchisi o'zi bilan birga olib kelgan bo'lsa kerak...

Karimovning o'zi ham viloyatda ishlaganida poytaxtga kelarkan "zerikib" qolmaslik uchun ana shunday yo'ldosh olib kelardi. Shu bois bu qizni ham viloyat rahbarlaridan birining mulki deb hisobladi.

Ammo sohibining didi baland ekan, deya xayolini davom ettirdi Karimov. Bu qizaloqni unga em bo'lishga qo'ymayman. Qanotimning ostiga olaman, meniki bo'ladi.

Karimov xayollarini tizginladi-da "qizaloq"ning so'zlariga quloq tutdi.

-Ismim Toyiba, o'qituvchiman. Nomzodimni xalq ko'rsatdi. Kommunistlar esa yo'limni to'sdilar. Qarshiliklarni engib bu minbarga qadar etib kelgan ekanmiz, bu bizning kuchsiz emasligimizni ko'rsatadigan omildir. Bu u qadar muhim emas, muhimi bundan keyingilari.

Bu erda Karimovga mustaqillik berishni millatimiz, madaniyatimiz bilan bog'lashdi. Agar siz millat va madaniyatni tushunadigan bo'lsangiz uni mustaqil deb e'lon qiling. Avval millat mustaqil bo'lsin undan keyin Karimovlari!

Biz rahbarning og'ziga qarashga o'rganib qolganmiz. Rahbar aytgan gapni qonun deb bilamiz. Oldin bu zehniyatdan qutulaylik, undan keyin bir kishiga katta- katta vakolatlarni beraylik.

Bugun Karimovni mustaqil deb e'lon qilsak, ertaga u diktator bo'ladi. Bu insonni

ozmi ko'pmi tanidik. Gaplari boshqa, ishlari boshqa. Bugun qaror chiqarsak bu qaror jumhuriyatimizni diktaturaga, zulmga boshlaydigan yo'lning debochasi bo'ladi.

-To'xtang, -deya o'rniidan turdi Karimov. -Sizning qushning miyasidek keladigan boshingizdan bu fikrlar chiqishiga hech kim ishonmaydi. Hurmatli deputatlar, men sizlarga haqiqatni aytib qo'yay, kecha tush payti qora kuchlarning baqiroq rahbarlari Anhor bo'yida deputatlarni ovlash bilan ovora edilar. Bu xonim esa ularning tuzog'iga oldinroq ilingan. Ular yozib bergan narsani yodlab olib, mana bu erda to'tiqushdek takrorlamokda.

-Kechirasiz, men o'z fikrimni aytayapman. -Toyibaning bu so'zlarini Karimovning sasi bosib ketdi.

-Gapni bo'lmang! Yoki madaniyatdan ham yiroqmisiz?

-Axir mening gapimni siz bo'ldingiz-ku? -Toyibaning bu gapini ham hech kim eshitmadi, chunki rais tugmani bosib, asosiy mikrofonni yopib qo'ygandi. Karimov esa jahl bilan so'zda davom etdi:

-Moskovning ikkita muttaham tergovchisi xalqimizning boshiga qancha kulfat soldi. Biz bunga va shu kabi kulfatlarga chek qo'yamiz deb turgan bir paytda mana bundaylarning o'rtaga chiqishi tabiiy. Bundaylar dushmanlarimizning bizning oramizga qadar uzangan qo'llaridir. O'tiring eringizga, muhtaram xonim! Bu mikrofonlar xalqning so'zi aytiladigan mikrofonlardir, bu mikrofonlar siz va siz kabilar uchun yopiqdir!

Toyiba bu qadar bezbetlikni kutmagan bo'lsa kerak, indamay minbardan tushdi. Mikrofonlar yonida turgan deputatlarning gaplarini ham hech kim eshitmadi. Chunki Karimovga yaxshi ko'rinishni istaganlar Toyibaga qarshi ekanliklarini ko'rsatish uchun, qarsak chalib, yer tepayotgandilar. Faqat Shovruq Ro'zimurodovning baland ovozi qarsaklarning bag'rini tilib yubordi:

-Bu odamni saylab bo'lmaydi, -deya faryod tortdi u. Bu faryod xuddi qafasga solib qo'yilgan sherning oniydan ko'kka otilishi kabi edi. Ammo u bilmasdiki, boshi temir panjaralariga urilgach, yana o'z eriga qaytib tushadi. U kuchli sher bo'lishiga qaramay temir panjaralar qarshisida ojiz edi. Shovruq Ro'zimurodovning ikki qo'lidan ikki hamyurti ushlab, o'rniga o'tkazishga harakat qilisharkan, u qalbidan otilib kelayotgan isyonni to'xtata olmasdi: -Bu odamni yaxshi taniyman, viloyatimizni botqoqqa botirdi, xalqimizni xoru zor etdi. Bugun unga mustaqillik bersak, ertaga voy jonimizga!

Zalda g'ala-g'ovur tinmas ekan rais masalani ovozga qo'ydi va yana hech narsa ko'rmagandek "Qarshilar yo'q"deb e'lon qildi.

-Yozib qo'ying, -dedi Karimov. -Bittasi zalni tashlab chiqib ketdi. -U shunday deb zaldan chiqib ketayotgan Toyibani ko'rsatdi. -Yana bittasi esa qarshi. -Karimov bu safar ko'rsatgich barmog'i bilan Ro'zimurodov o'tirgan tomonga ishora qildi.

Mirtemir o'rnidan turib rais Mirzaolim Ibrohimovning yoniga keldi, ammo rais uni tinglamadi va majlisni "yopiq"deb e'lon qildi. Shundan keyingina Mirtemirga yuzlandi:

-Bolam, biror gapingiz bor edimi?

-Qarang, hamma Karimovni tabriklayapti, siz ham kech qolmang demoqchi edim, -dedi Mirtemir kinoya bilan.

Rais kinoyani anglasa-da o'zini sodda-go'llikka urdi:

-To'g'ri aytasiz, aslida birinchi men tabriklashim kerak, -dedi.

Mirtemir esa uning so'zlariga quloq ham solmay majlis zalidan chiqib ketdi...

M U S T A Q I L L I K [3 4]

Karimov mustaqil rahbar deb e'lon qilingani sharafiga viloyat rahbarlari tomonidan uyushtirilgan ziyofatga shoshayotgandi. Ammo boshqa jumhuriyat rahbarlaridan kelayotgan tabriklarning keti uzilmasdi. U qutlovlarni mamnun qiyofada qabul etar ekan, ko'zini sariq telefondan ayirmasdi. Bu telefon mamlakat rahbari bilan aloqa o'rnatish uchun qo'yilgandi. Aslida Karimov shoshayotgan bo'lib ko'rinsa-da ko'nglining bir chetida qorong'ulik bor edi. "Nimaga telefon qilmadi?"degan savol oqib kelayotgandi ana shu qorong'ulikdan. Nihoyat uning kutgani bo'ldi. Sariq telefon jiringladi.

-O'zingcha mendan tabrik kutayotgan bo'lsang kerak, -dedi mamlakat rahbari.

-Ammo sendan bunday harakatni kutmagandim. Seni bu vazifaga loyiq emas deyishganda, yo'lingni ochgandim...

-Men doim siz bilan birgaman. Sizni qo'llab-quvvatlayman, -dedi Karimov o'rnidan turib. Ammo telefonning u tarafidagi kishi uning gaplariga quloq solmasdan so'zida davom etdi.

-Ittifoq shartnomasini tuzib olgandan keyin men o'zim seni bu lavozimga tavsiya qilardim. Lekin hozir orqadan pichoq urding.

-Mening xabarim yo'q edi. Masalani Moskovdan kelgan deputatlarimiz kun tartibiga kiritdilar...

-Eski partiyaviy o'yinlarni yig'ishtir, -deya uning so'zini kesdi mamlakat rahbari Mixail Gorbachyov. -Hammasidan xabardorman. Seni mustaqil qilib qo'yadigan zamon emas.

-Referendumni to'qson to'qqiz foiz qilib beraman. Hamma Ittifoq shartnomasini qo'llab-quvvatlaydi.

-Men nima desam to'ng'izim nima deydi... Referendumda sening fikringga ehtiyojim yo'q. Bizga xalqning fikri kerak. Sening vazifang sharoitni xalqqa tushuntirishdir. Natija ellik bir foiz chiqsin, lekin bu raqam ortida haqiqiy insonlar tursin...

Gap boshqa yoqqa burilib ketganidan Karimov engil tortdi. Indamasdan referendum haqidagi ma'ruzani tingladi. Sariq telefon dastasini o'rniga ko'yar ekan, Kraynovni chaqirdi:

-Ziyofatga kechroq boraman. Hozir esa Iso Xolisni chaqir.

Karimov nega birdan Iso Xolisga ehtiyoj tuyganini o'ylay boshladi. Endi Moskov meni yo'qotish payiga tushadi. Tabiiyki, buni muxolifatning qo'li bilan amalga oshiradi. Mening o'mimga ulardan birini keltiradi, maydonni bo'sh qoldirmasligim kerak. Yo'lini qilib Moskovdagilarning ko'nglini olishim zarur. Ularga bu ishni nima uchun qilganimni tushuntirishim kerak. Birinchi navbatda u erdagi ijrochilarning haqini etkazish, keyin esa muxolifatni bo'g'ish shart. Har qanday norozilik harakati Moskovga qo'l keladi. Uni menga qarshi qo'llashadi.

Karimov Mavlonni chaqirdi:

-Ertadan boshlab partiya bilan bizning binoni ajratasan. O'zingni kadrlar bo'yicha maslahatchim qilib tayinlash haqida farmon hozirla. Xo'jalik ishlarini yuritadigan og'zi butun, oyog'i chaqqon odam topgin. Yordamchilardan biri partiya ishlarini yuritsa, boshqasi prezidentning ishlarini yuritadi. Kelgusida yana besh-olti yordamchi olamiz. Baxtiyor Nazarovni esa siyosiy masalalar bo'yicha maslahatchi qilib tayinlaymiz.

Karimov shunday deb tortmasidan bir varaq qog'ozni chiqardi. Sahifaning tepkasiga "Prezident apparati" deb yozilgandi. Qolgan joylarga kichkina-kichkina to'rtburchaklar chizilgan va ularning ichida ham yozuvlar bor edi.

-Mana senga qo'llanma. Shu asosda yangi idoraning tuzilishi haqida qaror tayyorla.

Shu payt eshik ochilib Kraynov ichkariga kirdi va "Keldi" dedi. Karimov esa Mavlonga qarab:

-Iso Xolisning partiyasiga hukumatga oid binolardan ertagayoq joy berishsin. Ikkita-uchta mashina ham beringlar. Qolganini keyin gaplashamiz, -dedi.

Mavlon chiqib ketarkan, Karimov ham uning orqasidan eshik yonigacha keldi. Ichkariga kirgan Iso Xolis Karimov meni qarshilashga chiqdi deb sevindi, shekilli:

-Ovora bo'lmang, -dedi.

Karimov esa shoshib turgan kishidek, u bilan eshik yonida gaplashdi:

-Uka, talablaringizni ertaga bajarishadi. Bino ham berishadi, mashina ham. Baxtiyorni ham ishga olayapmiz, do'stingiz Maqsad Qulni ham bu erga keltiramiz. Lekin sizga qurultoy uchun katta bir binoni ajratar ekanmiz, butun harakatni ergashtirsangiz kerak, deb o'ylagandik. Mayli, oziga baraka deydilar. Lekin qolganlarni nima qilamiz?

-U erda uch-to'rtta dordan qochganlar qoldi. O'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi. Chunki xalqning ruhini tashiganlar biz bilan birga.

-Ha, sizni chaqirishimning sababi, mamlakat rahbari Gorbachevga saboq berib qo'yganimni aytish edi. Bizning mustaqil bo'lishdan boshqa yo'limiz yo'q ekanligini ham bildirib qo'ydim. Paxta monopoliyasini tugatish, yoshlarimizni askarlikka yuborishda kafolat istashimiz kabi masalalarni ham shartta-shartta gapirdim. Bu yog'iga sizdan dastak kelib tursa, bas. Birgalashib hammasini amalga oshiramiz.

-Biz mustaqillik deklaratsiyasini tayyorlayapmiz, -dedi Iso Xolis. -Xudo xohlasa, bu eng katta dastak bo'ladi.

Karimovning birdan avzoyi buzildi.

-Bu ishga ham shoshmasligimiz kerak, -dedi zaharxandalik bilan. Birdaniga timoqni etdan ajratib bo'lmaydi.

-To'g'ri, -dedi Iso Xolis, -biz e'lon qiladigan deklaratsiya umumiy tarzdagi bayonot. Ya'ni orzuimizning ifodasi bo'ladi. Zotan, deklaratsiya degani qonun emas, balki printsiplar bayonotidir. Ya'ni o'z oti bilan deklaratsiyadir. Uning printsiplari qonunlarda yoyib ko'rsatiladi.

-Bo'пти, -dedi Karimov Iso Xolisning elkasiga urib qo'yar ekan. -Ammo hammasidan meni xabardor qilib turing.-Darvoqe, ikkita uy so'ragan ekansiz, uni ham hal qildik.

-Qulluq...

Karimov shunday deb shosha-pisha chiqib ketarkan, ko'ngli ancha tinchigandi. Nega Iso Xolisni chaqirganini ham endi tushundi. Muxolifat nomidan norozilik bayonoti tarqatilsa, Moskovdagilarga qo'l kelishidan qo'rqqandi. Demak, bayonot yo'q. Hammayoq sokin...

H U J J A T [3 5]

Mustaqillik g'oyasi hamma joyda to'liqlangan va bu to'liq birin-ketin sohillardagi qoyalarni yiqitayotgandi. Ba'zi jumhuriyatlarda bu to'liq qarshisiga tanklar, sipohlar olib chiqilsa-da, to'xtatishning imkoni bo'lmayotgandi. Chunki bu to'liqning orqasida engib bo'lmas kuch – xalq bor edi. Bu to'liq estirayotgan shamol har bir eshikdan ichkariga kirayotgan va insonlarning qalblari, shuurlarini qitiqlayotgan edi. Oliy kengashning rayosatida ham bu masala o'z-o'zidan kun tartibiga keldi.

-Bugun bo'lajak majlisning kun tartibini muhokama kilayapmiz, -dedi Mirtemir rayosatda so'z olarkan. -Bilaman, rayosatimiz yuqori bilan maslahatlashmasdan qaror chiqarolmaydi. Hech bo'lmasa mustaqillik bayonotini tayyorlaydigan guruhni tuzishi mumkindir. Hozir hamma jumhuriyatlarda bunday hujjat qabul qilinmoqda. Bizda ham xalq, ijodkorlar, muxolifat shu talabni ilgari surishmoqda.

-To'g'ri, -deya Mirtemirni qo'lladi Alijon Qo'chqorov degan millatvakili. -Mana men uzoq yillar partiya markazqo'mida ishladim, lekin bugun mustaqillik deya to'lg'anayotgan yigitlarga qo'shilaman. Bu bir yo' ikki kishining tashabbusi emas. Bu butun xalqning dardi. Shu sababdan unga qo'shilmasdan va uni qo'llab- quvvatlamasdan ilojimiz yo'q.

Rais Mirzaolim Ibrohimov hech narsaga "yo'q" demas edi. "Xo'p" derdi, qo'llardi, lekin amalga oshmay qolaverardi. Alijon Qo'chqorovdan keyin Erkin Vohidov ham bu masalani qo'llab gapirarkan, rais "bo'pti" dedi.

-Men hurmatli Islom akaga o'zim tushuntiraman. Masalani majlis kun tartibiga kiritamiz, -dedi Ibrohimov.

-Lekin tavsiya qilinadigan kun tartibi qo'lingizda, hoziroq unga kiritib qabul qilish kerak, -dedi Mirtemir.

-Tushunaman, yoshlarning qoni qaynab turadi. Ammo bu masala juda ham jiddiy, uni ikki og'iz gap bilan hal qilib bo'lmaydi, -yumshoq ohangda e'tiroz bildirdi rais.

-Biz ham masalaning jiddiyligi uchun avval bayonot tayyorlaydigan guruh tuzishni taklif qildik, -dedi Mirtemir.

-Bolam, bizga imkon bering, agar yo'lini topsak guruhsiz ham bu masalani hal qilamiz...

Karimov rayosatdagi bu tortishmani videolentadan tomosha qildi. Raisga telefon qilaman, deb turgandi, lentaning davomidagi yozuv diqqatini tortdi. Rayosat binosining hordiq chiqaradigan joyida Mirtemir bilan Iso Xolisning suhbatlari edi bu:

"-Yaqinda sizlarni ham hokimiyatga qo'shib, ag'daramiz, -dedi Iso Xolis Mirtemirga.

-Sizlar deganingiz kim? -so'radi Mirtemir.

-Nega rayosatda mustaqillikni qo'llamadingizlar?

-Taqsir, axborotni doim noto'g'ri olasiz. Esingizda-mi, saylov arafasida mening okrugimga borgan edingiz. Ijroqo'm binosi yonida uchrashdik. "Nomzodingni qaytarib ol, bu erdan mening do'stim Ahmad A'zam saylanishi kerak" degandingiz. O'shanda sizdan "Bu uslubning kommunistlarnikidan nima farqi bor?" deb so'raganimda "Kommunistlarni yiqitish uchun bu uslubni qo'llayapmiz" deya javob qilgandingiz. Men esa "Kommunistlar hech bo'lmasa oldin o'rganib, keyin zarba urishadi. Sizning do'stingiz nomzodini qo'shni okrugdan qo'ygan, uni

Kompartiya ro'yxatidan ko'rsatishgan" degandim. Mana bugun ham bizga po'pisa qilayapsiz. Vaholanki, bizning mustaqillik va demokratiyadan boshqa dardimiz yo'q.

-Avval mustaqillik keyin demokratiya...

-Ikkalasini ham barobar amalga oshirishimiz kerak.

-Yo'q, unda Moskovga o'xshab qolamiz. Ularning shiori demokratiya. Biz esa mustaqillik uchun kurashamiz, keyin demokratiya uchun.

-Bu gapingizni Toyiba eshitib qolmasin, sizni Karimovning odami deb e'lon qiladi..."

Tasvirning davomini tomosha qilishga Karimovning sabri etmadi. "Kim kimning odamligini ko'rsatib qo'yaman, hali", deb o'ylarkan Ibrohimovga telefon qildi:

-Rayosatni otxonaga aylantirib yuboribsan-ku, -dedi ruschalab. -Nega tirranchalarning oldida qulluq qilasan? Nega ularni rayosatga kiritasan? Nima uchun hamma narsaga men javob berishim kerak? Nega ularga Moskvadan ajralishimiz mumkin emasligini tushuntirmading?

-Agar ularni eshitmasam shu gaplarni katta majlisda aytishardi-da.

-Quloq sol, majlisda bu gap o'rtaga chiqmasligi uchun Vohidovni tayyorla. U

majlisda bayonot yozadigan guruhni tuzish taklifi bilan chiqsin. Guruh a'zolarining ro'yxatini birga tayyorlaymiz. Guruh bayonotni necha yilda yozib bitirishini esa o'ylab ko'ramiz. Darvoqe, Vohidovga aytib qo'y, qo'lida ishlayotgan jo'jxo'rozlarning popugini pasaytirib qo'ysin. Bo'lmasa, o'zini ham, ularni ham quvaman!

...Majlis kuni Iso Xolis yarim sahifalik bayonot loyihasini tarqatdi. Shu kuni Xalq harakatining ham mustaqillik haqidagi takliflari yozilgan varaqa deputatlarning qo'lga etib kelgandi. Mirtemir majlis oldidan do'stlarini yig'ib:

-Bularni taklif qilgan bilan biror narsaga erishmaymiz. Natijaga erishish uchun majlisning ish tartibini o'zgartirish kerak. Birinchi bo'lib kotibiyatni qo'lga olaylik, -dedi.

-Bu to'ntarish degani. Bunga oldindan yaxshilab tayyorlanish lozim edi, -dedi Alijon Qo'chqorov.

-Bizdan nima ketdi. Sinab ko'raylik. Mirtemirning qanday taklifi bor? -dedi Toshpo'lat Jo'raev.

-Oldindan tayyorgarlik ko'rsak, baribir sezib qolishardi. Majlis ochilishi bilan kotibiyat e'lon qilinar ekan, har birimiz bittadan nomzod ko'rsataylik. Ular o'n besh nomzod ko'rsatishsa, biz o'n olti kishini ko'rsataylik. Majburan ovozga qo'yadi. O'tgandan keyin bizning odamlar kotibiyat majlisida rais nomzodini o'zimizdan ko'rsatsin. Chunki majlisning takdiri kotibiyat raisining qo'lida. Butun ro'yxatlar, qarorlar uning qo'lida bo'ladi. U esa birortasini ham raisga bermaydi,

senariysiz majlis o'tkazamiz deb e'lon qiladi. Millatvakillarining talablari sifatida mustaqillik bayonotlarini ham kun tartibiga kiritishni so'raydi...

-Qiyin, ammo boshqa yo'limiz yo'q, -deya tarqalishdi ular.

...Majlis boshlanib, rais kotibiyatni ovozga qo'yarkan, Mirtemir o'rnidan turdi:

-Menda taklif bor. Kotibiyat a'zoliciga yangi nomzodlar ham ko'rsatilsin.

-Ukam, hech jim o'tirmadingiz. Kotibiyatga u a'zo bo'ldi nima, bu a'zo bo'ldi nima? Mana menda taklif bor, siz rais bo'ling va ro'yxatingizni o'qing.

Mirtemir shoshib qoldi, chunki qo'lida ro'yxat yo'q edi. Ammo bunday imkoniyatni boy bermaslik uchun cho'ntagidan yon daftarchasini chiqardi-da, go'yo unga ismlar yozilgandek, aslida esa xayoldan, yangi nomzodlar ro'yxatini o'qiy boshladi. Oliy kengashda birgalikda faoliyat ko'rsatayotgan do'stlarining hammasi bu "ro'yxatda" bor edi.

Mirtemir va do'stlari kotibiyatdagi joylarini egallashar ekan, Karimov majlisga kirib keldi. U minbarda kotibiyat uchun ajratilgan joyda o'tirganlarni ko'rib ularga

hayratomuz termuldi-da, "salom" degandek Mirtemirning elkasiga urib qo'ydi va raisning yoniga borib "cho'kdi".

Mirtemir raisdan so'z so'radi.

-So'z kotibiyat raisiga, -dedi Ibrohimov. Mirtemir o'rtadagi minbarga chikdi-da:

-Rayosat taklif qilgan kun tartibi aniq. Lekin istagan odam kun tartibi bo'yicha taklif kiritishi mumkin. Kotibiyatga kelgan takliflaringizni albatta oshkor etamiz. Mana bu ro'yxat esa oldindan tayyorlab qo'yilgan, uni yirtamiz. -Mirtemir shunday deb, qo'lidagi qog'ozlarni ikkiga bo'lib, yirtidi.

-So'zga chiquvchilar ham kotibiyatga taklif bersinlar, biz ro'yxatni takliflarning kelgan soat, daqiqasiga qarab tuzamiz, -dedi.

-Men qaysi qog'ozga qarab ish yuritaman, -deya kinoya qildi Ibrohimov.

U Karimovning kelib qolganidan vahimaga tushgandi, chunki Karimov bugun ertalab qo'nalg'aga borishi va xorijdan keladigan bir shirkat raisi bilan vodiya ketishi kerak edi. Shu bois Mirzaolim Ibrohimov Karimovning yo'qligidan foydalanib, "demokratiya mashqi" o'tkazib, obro'sini biroz tiklab olmoqchi bo'lgandi.

-Kun tartibiga qarab raislik qilaverasiz, -degan Mirtemir minbardan tushib, o'rniga kelib o'tirdi. Karimov esa o'rnidan turdi-da, qo'l siltab chiqib ketdi. Uning nimaga kelib, nimaga ketganini xech kim tushunmadi.

Aslida esa Karimov majlis zaliga Shukrullo Mirsaidovga ba'zi gaplarni aytib qo'yish uchun kelgandi. Orqadagi xonada Shukrulloni kutib o'tirarkan, ichkariga ulab qo'yilgan radiodan majlisdagi tortishuvlarni eshitib qoldi. Raisga tanbeh berib qo'yish uchun ichkariga kirdi, ammo rais qo'rqqanidan unga qayrilib ham qaramadi. Vaqti oz qolayotgani uchun yana orqa tomondagi xonaga keldi. Bu erda uni Mirsaidov kutib turgandi.

-Do'stim, -dedi unga Karimov, -o'tgan majlisda ikkalamiz bir inson ekanligimizni xalqqa ochiq aytdim. Sening mard, halol, qo'rqmas ekanligingni ham yashirganim yo'q. Qolaversa, oldingi rais bilan seni taqqoslab, ustunligingni ko'rsatib berdim. Endi o'zingni ko'rsat.

-Men tayyorman, nima qilishim kerak?

-Boya mamlakat rahbari Gorbach telefon qildi. Mustaqillik bayonoti haqidagi gap-so'zlardan xabar topibdi. Juda ham g'azabda. Meni hatto xoinlikda aybladi. Kelayotgan mehmonning esa ahamiyatini bilasan. Dunyodagi eng yirik

avtomobilsozlik korxonasining boshlig'i. Hadya uchun kkita maxsus tayyorlangan "Mercedes" olib kelgan. Bittasi seniki. O'q o'tmaydigan. Gap hadyada emas. U odam dunyoni qo'lida ushlab turgan bir necha shaxsdan bittasi. Unga yurtimizda korxona ochishi uchun imkon yaratsak va bunga uni ko'ndirsak, bulbul qo'limizga qo'ngan bo'ladi. Shu sababdan katta boshimni kichik qilib, uni o'zim olib yuribman. Qaytib kelishga harakat qilaman. Men kelmasdan turib, mustaqillik masalasi o'rtaga chiqadigan bo'lsa, jon hisobiga bo'lsa ham to'xtatib turasan. Ana u "latta"ni esa ertaga byuroda, keyin kengashda muhokama qilib, ishdan haydaymiz.

Shu payt eshik ochilib, ichkariga Mirtemir kirdi. Qo'lida bir dasta maktub va mustaqillik bayonoti loyihalari.

-Millatvakillarining deyarli barchasi mustaqillik bayonotini qabul qilishimizni so'rashayapti, -deya gap boshladi u. Ammo Karimov uning gapini oxirigacha eshitmadi.

-O'sha millatvakillaringiz qisib o'tirsin, -deya qo'lini musht qilib ko'rsatdi.

-Sizni madaniyatli odam deb eshitgandim, -deya gap boshladi Mirtemir. Karimov yana uning so'zini kesdi:

-Bu deputatligingiz uzoqqa bormaydi. Qolganlarniki ham. Mustaqillik esa xoinlik. Buncha xalqni ochdan o'ldirmoqchimisizlar? Gapirishni bilasiz hammang, men esa gadoygacha o'tiradigan erini belgilab berishim kerak.

Mirsaidov vaziyatni yumshatmoqchi bo'ldi, shekilli, gapga aralashdi:

-Nima ekan o'zi bu loyihalar? -dedi.

-Men loyihalarni bu erga olib kelmasligim mumkin edi, ammo bir yuz oltmish etti millatvakil imzo otgan va Prezident nomiga murojaat yozishgan. Istasangiz, cho'ntagingizga solib qo'ying, bizda muhokama qilish uchun boshqa nusxalari bor,

-Mirtemir shunday deb qo'lidagi qog'ozlarni Karimovga uzatdi. Ammo qog'ozlarni Mirsaidov oldi. Karimov esa 167 raqamini eshitib, bir lahza esankirab qoldi. Keyin Bosh vazirning qo'lidan ro'yxatni olib, ism-shariflarga nazar tashladi. "Voy ablahlar, voy nonko'rlar"der ekan, loyihalarni o'qidi-da, sakkiz satrlisini Mirtemirga uzatdi:

-Mana shunisini majlis oxirida ko'rib chiqishsin, -dedi.

Mirtemir indamay chiqib ketar ekan, Karimov Bosh vazirga yuzlandi:

-Bu bolalar bilan adi-badi aytib o'tirishga holim yo'q. Agar boyagini muhokamaga qo'yishadigan bo'lishsa, mustaqillik degan so'zlarni "suverenitet" kalimasi bilan almashtirib, Moskovning qonunlari hududimizda o'z kuchini saqlab qoladi, degan

qo'shimcha bilan qabul qilish mumkin. Keyin istasak qaytadan yozamiz, istasak e'lon qilmaymiz. O'zingiz so'zga chiqib, buning bir parcha qog'ozligini tushuntirib bering, bular hali iqtisodning "i" harfini bilishmaydi...

Bayonot muhokamaga qo'yilmasdan oldin Vohidov so'zga chiqdi:

-Mustaqillik hayotimizning eng muhim va eng kerak masalasi. Shu sababdan bu hakda bayonot qabul qilish uchun maxsus hay'at tuzishimiz kerak. Bunga yozuvchilar, shoirlar, huquqchilar, olimlar, muxolifat, siyosat arboblari, xullas hamma sohadan vakillar kirsin. Shunday bir hujjat qabul qilaylikki, dunyo bizga qoyil qolsin. Sixni ham kabobni ham kuydirmasdan ish qilaylik...

Vohidovdan keyin so'zga chiqqan Iso Xolis uning taklifiga qo'shilarkan, bu hay'atni shu zahoti tuzib, majlis oxirida bayonotni qabul qilish kerakligini aytdi. Keyin Bosh vazir so'z oldi:

-Bu bir varaq qog'oz. Hamma narsa shu bilan hal bo'lib qolmaydi, -dedi u.

-Masalaning iqtisodiy tomonlarini ham ko'rib chiqishimiz kerak. Men bilan yonma yon o'tiradigan deputat "Bog'cha qurish ahamiyatlimi, mustaqillik bayonotimi?" deb so'radi. Ana shu savolning o'zi ko'rsatayaptiki, bu masalani bir hay'atga yuklashimiz va butun takliflarni inobatga olgan holda o'rta qo'yishimiz kerak. Mana mening qo'limda ikkita loyiha bor. Xo'sh, buning qaysi birini qabul qilamiz? Ko'rib chiqaylik. Men majlisda tanaffus e'lon qilinishini va butun viloyatlarning vakillari yig'ilib, bu masalani muhokama qilishlarini taklif qilaman.

Tanaffus e'lon qilindi. Kichik zalda bayonot loyihasi tortishilar ekan, ikki loyihani birlashtirib, bu erda aytilgan takliflarni ham inobatga olgan holda yangi bir matn tayyorlash uchun Mirsaidov, Mirtemir, Iso Xolis, Ibod To'raev va Oygul Mamatovadan iborat hay'at tuzildi. Hay'at yarim tunga qadar loyiha ustida ishladi.

Karimov mehmoni bilan Vodiyni kezib qaytgach, ertasiga ertalab majlis zaliga etib keldi.

-Kecha yarim tunga qadar loyihani ko'rib chiqdik. Bugun muhokamaga qo'yishdan boshqa ilojimiz yo'q, -deya matnni Karimovga uzatdi Mirsaidov.

Karimov matnni qo'liga oldi-da:

-Men ko'rgan loyiha bu emas edi. Qani Mirtemir chaqiringlar, -dedi. Mirtemir kirib kelishi bilan:
-Bu nima? -deya unga baqirdi.

-Bu mustaqillik bayonoti, -dedi jiddiy ohangda Mirtemir.

-Men bilan o'yin qilma! Qani kecha menga ko'rsatganing!

-Meni sensiramang, -dedi Mirtemir va qayrilib chiqib ketdi.

Bu paytda majlis boshlangan va Mirsaidov allaqachon minbarda edi. Karimov esa zalga kirmay, o'tirgan xonasida tortishuvlarni tingladi. Kompartiyaning yangi ikkinchi kotibi Efimov loyihaga qarshi gapirdi. Keyin mafkura kotibi Hamidov ham uni qo'lladi. Ammo ko'pchilik mustaqillik tashnasi ekanligi sezilib turardi. Mirzaolim Ibrohimov tortishuvlar bitar-bitmas masalani ovozga qo'ydi va yana zalga ham qarab o'tirmasdan "Bir ovozdan qabul bo'ldi" deb e'lon qildi. Hamma o'rnidan turib qarsak chalarkan, Efimov, Hamidovlar ham bu shiddatli sel kabi oqimning kuchiga dosh berolmay oyoqqa qalqqandilar. Rais "do'ppilik yigit" degan millatvakili to'nining ichida saqlagan milliy bayroqni o'rta olib chiqdi. "Yashasin mustaqillik!" deya hayqirdi. Uning bu hayqirishi tog'larda aks sado berganidek qator oralarida takrorlana boshladi. "Mustaqillik!" deya hayqirayotganlar qandaydir o'y-fikrlarga emas, qalblariga quloq solayotgandilar. Karimov gul stoli ustida turgan radioni tepib yubordi. Radio erga borib tushganda ham undan zaldagi hayqiriqlar eshitilib turardi.

Bular jinni bo'lgan deb o'yladi Karimov. Nima ish qilishayotganini bilishmaydi. Mana bu erda baqirib-baqirib ketishlari oson, ammo Moskovga kim javob beradi? Hozir mana bu binoning qarshisiga to'rtta tankni keltirib qo'yishsa, nima qilamiz? Balki boshqa jumhuriyatlarda qon oqqanidan qo'rqib, bunga jur'at qilishmas. Hatto mustaqil ham bo'ldik, deylik, armiyani nima qilamiz? Byudjetimizda bir tiyin pulimiz yo'q. Afg'onistondan sakkiz kishi qurol ko'tarib kelsa, hammayoqni bosib oladi. Buni ham qo'yib turaylik. Xalqqa qaerdan maosh beramiz. Men o'zi nimalarni o'ylayapman? Jilov kimning qo'lida?

Karimov ikkinchi kotibni chaqirdi:

-Bor, Moskov bilan gaplash. Eshitib qolib, o'pkalari og'izlariga kelmasin. Bu qarorni bekor qilamiz, -dedi.

Keyin Hamidovni chaqirdi. Majlisning bu qismi televizorda ko'rsatilmasin, matbuotga berilmasin, bor, chorasini ko'r, -dedi va so'ngra Mirsaidovni chaqirdi va:

-Qo'lingizdagi matnni hech kimga ko'rsatmang, qaytadan yozamiz, -dedi unga.

-Bu matndan bir nusxa Mirtemirda ham bor.

-Uning qo'lidan ham oling.

Shu payt Vohidov Nurali Qobul degan millatvakili bilan kirib keldi va Karimovni samimiy ohangda qutlay boshlashdi. Karimov hech narsa bo'lmagandek qutlovlarni

qabul qilarkan, Shukrullo Mirtemirning yoniga keldi:

-Sizdagi nusxani Islom aka so'rayapti, -dedi.

-Nega? -dedi Mirtemir ham Mirsaidovni qutlarkan.

-Oshnalarigizga ayting, ketib qolishmasin. Buni qaytadan yozishmoqchi. Mirtemir eshikdan chiqib ketayotgan Iso Xolisni to'xtatib, voqeani unga bildirdi.

Keyin boshqalarni ham ichkariga chaqirdi.

-Bizga bu hujjatni o'zgartirmoqchi ekaningiz xabari etib keldi, -dedi Iso Xolis Karimovga.

-Sizdan bexabar ish qilamizmi? -dedi Karimov.

-Bu parlamentda qabul qilindi. Endi uni o'zgartirish qandoq bo'larkin?-so'zga aralashdi Nurali Qobul.

-Efimov aytgan ba'zi takliflarni kiritinglar. Keyin parlament yana bir marta qabul qiladi.

-Parlament qabul qilishi mumkin, lekin...,-Nurali Qobulning so'zi og'zida qoldi.

-Bo'pti, bo'pti, men roziman, -dedi Karimov uning so'zni bo'lib.- Boringlar Efimovni ko'ndiringlar!

Sal narida turgan Efimov Iso Xolisning qo'lidan ushlab, chetga tortdi:

-Hozirgina Moskov bilan gaplashdim. Ikkita o'zgartirish albatta kiritilishi kerak!

Men bu masalada bor yo'g'i bir elchiman. Islom Abdug'anievich Moskva bilan gaplashishimni iltimos qildi. Elchiga o'lim yo'q, deyishadi.

-Xo'sh, nimani o'zgartirish kerak?

-”Mustaqillik” o'rniga “suverenitet”deb yozamiz. “Moskva qonunlari hududimizda yurmaydi” degan bandni olib tashlaymiz. Qolgan yigirmata tuzatish esa juz'iy.

Ular stol yonida o'tirib matnni tortisha boshladilar. Karimov esa ular tomonga qarab masxaraomuz jilmaydi-da, “Bo'pti, men Qozog'istondagi majlisga kechikayapman”, deya chiqib ketdi...

Millatvakillari oqshomni bayram kayfiyatida o'tkazdilar. Bir-birlarini ziyofatga chaqirdilar, qutladilar. Ammo na televizorda, na radioda mustaqillik haqida bir jumla

ham so'z yo'q edi. Ertalabki gazetalarda ham bu muhim voqea “unutilgandi”.

Mirtemir va mehmonxonadagi do'stlar yig'ilishib, nima qilish kerakligini maslahatlashishdi. Norozilik bayonoti yozib e'lon qilamiz, degan qarorga kelishdi. So'ngra Mirtemir Hamidovga sim qoqdi.

-Biz ham shuning dardida uxlamay chiqdik, -dedi Hamidov. -Boshqa norozilar ham bor, Islom akaga telefon qilayapmiz, bog'lanishning iloji bo'lmayapti...

Karimov Moskovdan biror bir e'tiroz olmagach, ichkarida g'alayon chiqmasin, deb poytaxtga qaytishi bilan huquq tartibot organlarini oyoqqa turg'azdi.

Keyin Efimovni chaqirdi:

-Tayyorlagan matningni olib kel, -dedi.

Matnni sinchiklab o'kirkan, bir necha joyini tahrir qildi.

-Majlis ikki oydan keyin bo'ladi. To'rtta tiranchadan boshqa e'tiroz bildiradigan yo'q. Mana bu matn esa Moskovning qarashlariga zid emas. Moskov bilan gaplashdim, muxolifatni tinchlantirish uchun yana ham kuchaytirishingiz mumkin, deyishdi. Lekin bayonotdagi talablarni kuchaytirsak, keyin javobini Moskov emas, biz berishimiz kerak. Shu sababdan mana shuni e'lon qil, -dedi Karimov. -Byuro majlisida Ibrohimov masalasini muhokama qilamiz va kengashda ishdan olishni qarorlashtiramiz. Bularning hujjatlarini ham tayyorlab qo'y.

P O ' R T A N A [3 6]

Byuro majlisida Karimov Ibrohimovni haqorat qila boshladi:

-Burningdan ip bilan bog'lab sudrashlariga yo'l qo'yding! Kunimiz sen kabi lattalarga qoldi. Yo ishla, yo ket! Sen iflosni tuqqan o'sha qanjiq onangni yuziga qarab o'tiradigan yo'q bu erda!

Shunday deb Karimov musht bilan stol ustidagi oynaga urdi. Oyna parchalanib ketdi.

Mirzaolim Ibrohimov munkayib qolgan choldek, bosh egib o'tirardi. Keksa odamning bu qadar tahqirlashi, buning ustiga onasini haqorat qilishi Mirsaidovni jumbushga keltirdi. U o'rnidan turdi-da:

-Byuro majlisi yopiq, chiqib ketishlaringiz mumkin, -dedi.

-Sen kimsan, kimga buyruq berayapsan, nima haqqing bor byuroda o'zingni ko'rsatishga, bu erda mening gapim o'tadi. -Karimov ham o'rnidan turib Mirsaidovga baqirdi.

-Haqoratlar byurodan tashqarida qolsin, dedim. Nega nafaqaxo'r odamni ishga keltirdingizu nega uning onasini haqorat qilasiz? Ishlay olmayotgan bo'lsa, "Ket!" deng ketadi, -dedi Mirsaidov.

Karimov qo'chqordek otilib unga qarshi yurdi. Mirsaidov ham bir hamla bilan Karimovga etib oldi. O'rta Jo'rabekov kirmaganda byuro majlisi jang maydoniga aylanardi.

Ular biroz jahllaridan tushib, bir-birining aybini do'stona ohangda aytisharkan, byuro a'zolari qochib qolishgandi.

Karimov har qancha yumshoq ohangda gapirmasin ichida "Hamma narsaning vaqti bor, seni ham tikan ustida yugurtiradigan kunlar keladi. Do'st degani doim dushman chiqarkan-da" deb o'yladi.

Mirsaidov ham bu voqea do'stliklarini darz ketkizgan zarba bo'lganini angladi. Shu payt Kraynov kirib:

-Mirzaolim Ibrohimov xonasiga etishi bilan yiqilib qoldi, yuragi to'xtab qoldi, xastaxonaga jo'natishdi, -dedi.

Mirsaidov "Ko'rdingmi oqibatini" degandek, Karimovga qarab qo'ydi-da chiqib ketdi. Karimov esa Kraynovga:

-Agar o'lib qolsa, ertaga motam e'lon qilamiz. O'lmasa, nafaqaga jo'natamiz. Chunki uning hukmini biz emas, uning o'zi o'qidi, -dedi.

Karimov qo'shni xonaga kirdi-da, muzlatgichni ochib, nimadir qidirdi. Nima qidirayotganini o'zi ham bilmagan odamdek muzlatgichning ravonlariga uzoq tikilib qoldi. Shu damda boshi bo'm-bo'sh huvillab qolgandi. U xayol ko'chasiga kirishga qo'rqr, ammo fikrlar har tarafdan bulutlardek bostirib kelayotgandi. Bu bulutlar orasida uzoq-uzoqlarda Ibrohimovning oppoq dokadek oqargan yuzi va Mirsaidovning Karimovni masxara qilayotgandek kulib turgan chehrasi goh yaqinlashib, goh uzoqlashib "borib kelaverdi".

Yo'q, dedi Karimov o'zi-o'ziga, men kuchliman! Meni kimlarningdir tazyig'i engi olmaydi. Balki bu tazyiq emasdir?! Balki rostdan ham chegarani yo'qotib qo'ydimmi? Yo'q, Ibrohimovni ishga keltirar ekanman, unga shartlarni ochiq aytgandim. Yo mening odamim bo'lasan yoki hech kim! Yo mening yo'limga yurasan

yoki ko'zimdan yo'qolasan! Men mardga mard, nomardga nomardman! Ibrohimov menga xiyonat qildi. Meni tuzoqqa tushirmoqchi bo'ldi. Agar ana u tirranchalarni o'z yo'liga solganda, men uning mushugini "pisht" demasdim. Indamasam tolni kallaklagan beshikchilarga o'xshab meni ham har tarafdan kallaklashardi. Keyin esa quritib yo vassa qilishardi yo beshik yo tobut. Nimalar deb o'ylayapman o'zi? Beshik... Bularning qo'liga tushgan beshik bo'lishga ulgurmay qurtlarga em bo'ladi, chirib yo'qoladi. Bugunning qonuni bitta: yo qurtlarga em bo'lasan yoki qurtlarga em qilasan!

Ibrohimov mayli-yu ana u nonko'rga nima deyish kerak? Nahotki mansab odamni shu qadar tez o'zgartiradi? Nahotki, yigirma yil do'stlik qilib, uning kimligini bilmadim? Sigirning olasi tashida, odamning olasi ichida deb bekor aytmas ekanlar. Hatto men nohaq bo'lganimda ham Shukrullo betga choparlik qilmasligi kerak edi. U o'zini nabzga ko'ra sharbat asosida ish qildim deb oqlar, lekin mening oldimda bir umrga gunohkor. Chunki uni Bosh vazirlikka men keltirdim. Men oraga

kirmasam ana u tirranchalar uni chok-chokidan so'kib, param-parcha etishardi. Oldingi Bosh vazir mard ekan, choponini elkasiga tashlab, indamay ketdi. Niqqini chiqarmadi. O'g'il bola shunday bo'lishi kerak. Balki Shukrullo mening o'rnimga ko'z tikkandir? Shunday bo'lmasa, nega byuro majlisida xo'jayinlik qildi? Nega boshqalar ham mening munosabatimni kutib turmasdan unga quloq solishdi? Nega Shukrullo vajohat bilan menga tashlandi? Nega Jo'rabekovdan boshqa hech kim oraga kirmadi? Nega men hammani orqaga qaytarib, majlisni davom ettirmadim? Nega Shukrulloni ishdan bo'shatish masalasini o'rtaga qo'ymadim?

Nega?! Nega?! Nega?!...

Bulutlar parchalanib do'llarga, do'llar esa savollarga aylanib uning boshiga kelib urilayotgandek, u o'ziga pana joy, asablarini tinchitmoq uchun bahona izlardi. Lekin muzlatgichda shu damda bu "bahona"yo'q edi...

S O H I B [3 7]

Erdan ko'tarilayotgan hovur bilan quyuq tuman qorishib atrofni qoplab olgandi. Bu kishini biqtiruvchi manzara bo'lishiga qaramay, necha kundan buyon o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan Karimovning bugun har qachongidan kayfi chog' edi. Chunki paxta plani to'lgandi. Ilgarigi paytda bo'lganda-ku Moskovdan ham maqtov, ham orden undirardi.

Hozir esa hatto telefon qilib, bir og'iz rahmat aytishmadi. Karimov buning uchun qayg'urmadi. Aksincha xursand bo'ldi. Demak, Moskovning u bilan ishi yo'q. Butun jumhuriyat o'zining hukmida. Viloyat birinchilari sim qoqib, tabriklab turishibdi. Boshqa tomondan esa paxta plani to'lishi Gorbachev bilan gaplashib olish uchun

imkon bo'ldi. Aslida bugun kayfiyati ko'tarilgani, ko'ngli ravshanlashgani ham ana shundan. Qariyb bir oydirki o'z yog'iga o'zi qovrilmokda. Bir necha deputatning to'poloni bilan sessiyada iste'fo berib ketishiga oz qolgandi, lekin ko'ngil so'rashmadi.

Xayriyat-ki o'shanda shaytonning gapiga kirmadim, deb o'yladi u. Agar sessiyani tashlab ketib qolganimda, Shukrullo otga minardi. Meni esa otning oyog'iga bog'lab jazoyi qilardi. Garchi atrofimdagilar to'ntarishni Shukrullo tayyorlagan, deb meni ishontirishga urinsalarda, haqiqatni sezib turibman. Shukrullo bu ishga jur'at qilolmasdi. Chunki Ibrohimovni muhokama qilgan byuro majlisidan keyin tavbasiga tayantirgandim. Qo'limda uni sharmisor qiladigan hujjatlar to'plab qo'yganimni ham yaxshi bilardi. Buning ustiga Oliy kengash raisligiga Shavkat Yo'ldoshevni keltirib, Shukrulloning qo'lini ancha bog'lab qo'ydim. Yo'ldoshev jar yoqasida edi. Farg'ona voqealarida jilovni qo'ldan chiqarib, yomon otliq bo'ldi. Shukrullo katta majlisda uning ham qo'li qon deb jinoyatga tortishni talab qilgandi. Oyog'i toyib ketayotgan bir paytda uni qutqarib qoldim. Butun vujudida Shukrulloga nisbatan nafrat ko'pirmoqda. Hatto bir-birining ko'ziga tik qarolmaydigan holga kelishdi. Shuning uchun ham bu sessiyada Yo'ldoshev bilan Shukrulloning og'iz biriktirishganiga ishonmayman. Xavfsizlik qo'mitasi, mana bu maslahatchilar esa Shukrullo uyushtirganini isbotlash uchun dalil to'plash bilan ovora. Bilishadi, undan so'z ochishsa, qaynab

ketaman. Shu sababdan doim o'rtaga uning nomini suqishadi. Aslida ular ham Shukrullodan qo'rqishadi. Ammo nega mendan emas, undan qo'rqishadi? Yo'q, mendan ko'proq qo'rqadilar. Qo'rqanlari yaxshi. Qulni qul qiluvchi qo'rquvdir. U qullikni engdimi, boshga balo bo'ladi.

Aslida bugun Shukrullo haqida nega o'ylay boshladim? U bilan oramizda ko'p gap o'tdi, lekin oxirgi sessiyada agar u minbarga chiqib "Menga vazifa kerak emas" demaganida, ishim bitgan edi. Yo'q, agar uni qo'lga olmaganimda ana u to'polonchilarning yo'liga yurardi. Hozir u hukumatning boshida, qo'lida bir qancha xazinaning kaliti bor. Asta sekin bu kalitlarni olib qo'yishim kerak, keyin yonimda aylanib yuraversin. O'shanda yana ham vafodor bo'lib qoladi.

Bir yomonlikning bir yaxshiligi bor deyдилar. Sessiyada kimning kim ekanligini yana bir marta ko'rib oldim. Buning ustiga saylov haqidagi qonunni keyingi majlisga qoldirganim ham yaxshi bo'ldi. Unga vitse-prezident degan lavozim kiritaman. Boshqa joylarda prezident va vitse-prezident birdaniga saylanadi, men esa qonunga uni tayinlash tartibini kiritaman. Saylovgacha Shukrulloni ham, boshqalarni ham xursand qilib turishim kerak. Saylov o'tgandan keyin g'alvirni suvdan ko'taraman. O'shanda g'alvirda kim qoladi-yu, kim qolmaydi, ko'ramiz. Hozir esa buni Gorbachev bilan kelishib olishim kerak. Paxta plani to'lganini aytib, keyin bu masalada ipning uchini ko'rsatsam yashil chiroq yoqib yuboradi...

Karimov bir qarorga kelgan kishidek elkalarini orqaga tortib, ko'krak kerib o'tirgancha Kraynovni chaqirdi:

-Maqsad Qulga ayt, tabrik maktubini olib kelsin, -dedi unga.

Kraynov chiqib ketar ekan Karimov yana o'yga toldi. Bu Maqsad Qul deganlari ancha durust bola ekan. Iso Xolisni qo'lga olish uchun buni tuzoqqa ilintirgandik. Biz kutganimizdan ham ziyoda ekan. Ham Iso Xolisni yo'lga solmokda, ham boshdog'ini yo'qotib qo'ygan gazetachilarni kishanlab turibdi. Buning ustiga ruschasi ham pishiq. Moskva gazetalariga mening nomimdan yozgan maqolalari yuqoridagilarning arazini ancha yumshatdi. Baribir bu bolani nazoratda tutishim kerak. Yana uch-to'rt marta sinab ko'raman, ayniqsa so'kish sinoviga bardosh bersa, baxti kuldi, uni yonimdan ayirmayman.

Shu payt eshik ochilib, ostonada novcha bo'yli, mo'ylovdor Maqsad Qul ko'rindi.

-Hamma kostyum-shim kiyadi, galstuk taqadi, sen esa paxta terishga kelgan talabaga o'xshab kiyinib olibsan, -deya hazilomuz gap otdi Karimov Maqsad Qulning qizlarning ko'ylagi singari uzun sviteriga qarab.

-Zotan bugun paxta ishi bilan bandmiz, -deya tirjaydi Maqsad Qul. -Jiddiyatga kelsak, novcha va ozg'in odamga kostyum-shim yarashmaydi. Kostyum-shim kiyish uchun sizga o'xshab to'lachadan kelgan bo'lish kerak.

-Ammo jur'atli bolasan, qolganlar esa qo'rqq. Sendan boshqasi bunday kiyinishga va men bilan sen kabi yuzma-yuz gaplashishga qo'rqadi. Ha, darvoqe, kitoblaringni imzolab bermoqchi eding, unutdingmi?

-Astag'firullo, buni unutamanmi? Kraynovga bergandim, tortmangizga qo'ygan bo'lishi kerak.

Karimov egilib tortmasidan ikki kitobni oldi:

-Ha, bular sening kitobing edimi, ko'rib e'tibor qilmabman. Qani, o'qiylikchi, nima deb yozibsan.

Karimov Maqsad Qulning qo'l yozmasini o'qiy olmadi. Kalimalarni noto'g'ri talaffuz qilishdan qochgani uchun qayta o'qishga urinmadi.

-Bunday yozuvlarni muallifga o'qitmoq kerak. Qani, o'zing o'qib berchi nima deb yozibsan?

Maqsad Qul biroz hayajonlandi. Kitobining ilk sahifasida Karimovga xushomadgo'ylik qilgandi. Odatda kitob imzolar ekan hech kim achchiq-alimsoh gap yozmaydi. Ko'ngilni tog', kayfni chog' qiluvchi gaplar yoziladi. Maqsad Qul bu gaplarni yozish boshqa, o'qish boshqa ekanligini shu lahzada angladi. Yuragining ostida jimirlagan bir narsa butun vujudi bo'ylab "yugurib ketdi" va kichik bir tomchiga aylanib, burnining ustida paydo bo'ldi. Oniydan "yo'qolib qolgan" tovushini

qidirib topish uchun bir-ikki yo'talib oldi-da, Karimovga qo'l uzatib kitobni istadi. "Bug'doyzor"... kitobning nomi ana shunday edi. U bir soniya kitobiga termulib turdi-da, keyin ilk sahifasini ochib yozganini o'qib berdi: "Men tarix sahifalarida tanigan buyuk sarkarda va davlat rahbari Amir Temurdan keyin buyuk jasoratni Sizda ko'rdim. Zotan, temuriylar saltanati surgan zaminning farzandisiz. Sizning yoningizda ishlash Alloh va tarixning menga etgan in'omidir..."

Karimov o'rnidan turib Maqsad Qulning ikki elkasidan ushlab, bir siltab bag'riga bosdi.

-Uka, mard bola ekansan! Hamma ham bu gapni aytishga jur'at qilolmaydi. Bu gapni menga emas, xalqqa ayta olasanmi?

-Aytaman, men ikki yuzli odam emasman. Zotan, Siz haqingizda kitob yozishni boshladim.

-Kitobni qo'y, uka. Hozir bir maqolang ham etadi.

-Maqola emas ocherk yozaman. Biz Sizga davlatni boshqarishni o'rgata olmaymiz, Siz ham bizga qanday yozishimizni qo'yib bering.

-E, yo'q. Juda katta narsa so'rading. Sen mening jonim bilan o'ynayapsan! Senlarga nima yozishni ko'rsatish davlatni boshqarish emasmi?

-Muhtaram Prezidentim, Siz meni yanglish angladingiz, o'zingiz haqingizda yozishda bizga erkinlik bering.

-Yana bir qadam oldin ketding. Men haqimda mendan so'ramasdan qanday qilib yozishing mumkin. Mening sohibim menman! Sen men haqimda yozishing mumkin, ammo men ko'rib berganimdan keyin sening mulkingga aylanadi.

-Umuman haqsiz, xato menda, -dedi Maqsad Qul Karimovning jahli chiqishidan qo'rqib.

-Baribir yozuvchisan-da, uka, shu erda ham “umuman” degan so’zni qo’shib yubording. Ha, mayli paxta plani to’lgani bilan tabrik maktubida ham ana shunday ortiqcha so’zlar qo’shib yubormadingmi?

-...

Maqsad Qul indamay tabrik matnini uzatdi.

-Faqat ruschami?

-Kraynov Mirtemirga tarjima qildiramiz, degandi.

-Qani, uni ham chaqir, -dedi Karimov Maqsad Qulga.

Maqsad Qul chiqib ketarkan, Karimov Moskovga telefon qildi. U SSSR rahbariga:

-Sizni bezovta qilmoqchi emas edim, lekin raport berib qo’ymoqchiman, paxta planini bajardik,- dedi.

-Rahmat, hozirgi qiyin sharoitda har qanday muvaffaqiyat kelajakka qarab tashlaydigan odimlarimizning poydevori bo’ladi. Har qanday muvaffaqiyat oshkoralik va qayta qurishning mevasidir...

Karimov telefonning naryog’idan kelayotgan nutqni erinmay tingladi, keyin o’zining rejalari, “dardlarini” ham aytdi.

-Faqat o’zingdan ketib qolma, nima istasang, xo’p deya pman. Senga haddan ziyod erkinlik berdim. Buni qadrla. Agar orqangda biz turmasak, bu erkinlikni ikki soniyada qo’lingdan tortib olishadi. Bizga tayansang, demak katta tog’ga tayangan bo’lasan...

Karimov telefonda gaplashayotgan paytda qabulxonadagi qizil chiroq yonardi va bu paytda hech kim ichkariga kirmas edi. Maqsad Qul bilan Mirtemir qizil chiroqning o’chishini kutib, oyoqda gaplashib turishardi:

-Sizning Devonga kelganingiz yaxshi bo’ldi-da, og’a. Aslida Islom aka yomon odam emas, uni birgalashib yo’lga solamiz, -dedi Maqsad Qul.

-Yo’lga solamiz deganlar ko’p, lekin u yo’lga kirsada.

-Qarang, sessiyada siz uni nima kunga soldingiz, ammo deputatlarning talabini bajarib, sizni Devonga ishga oldilar.

-Buni ikki xil sharhlash mumkin, -deya javob qildi Mirtemir. -Birinchidan, u kishi meni bu erga ishga olib, boshqalarning ko’ziga sotqin qilib ko’rsatmoqchi. Bu holda ertaga yo’qotib yuborsa

ham birovning ishi bo'lmaydi. Ikkinchidan, saylovni o'tkazib olguncha bizlarni kuchsizlantirish uchun shu yo'lga bosh urgan bo'lishi mumkin.

-Siz bu qadar xafaqon bo'lmang, oqsoqol samimiy odam. Mana ko'rasiz, xalqimizga yaxshilikni ravo ko'rgan barcha do'stlarimiz shu devonga yig'iladi. Sizdan oldin do'stingiz Dadaxonni ishga oldilar, boshqalarni ham muhim nuqtalarga keltirayaptilar. Demak, hammamiz oqsoqol bilan qo'sh qanot bo'lib ishlashimiz kerak. Men ko'nglimga yaqin olgan insonlarni "og'a" deyman. Og'a, bilib qo'ying Karimov bizning baxtimiz. Alloh ko'rsatmasin ana u toshkentlik kelib qolsa, hammamiz uchun sichqonning uyi ming tanga bo'ladi.

-Negadir bu erda hamma Shukrullo akadan qo'rqadi. Menimcha bizning eng katta qusurlarimizdan biri mahalliychilik. Toshkentlik bo'lgani Shukrullo akaning aybimi? Umuman, poytaxtda barcha viloyatlardan kelganlar yashamaydimi? Ayniqsa, biz ziyolilar bu xastalikni yo'qotish o'rniga ildiziga suv quyib o'tirsak oqibatimiz nima bo'ladi?

-Og'a, siz bularni tanimas ekansiz. Men shularning yuzidan dorilfununni tashlab, Moskovga ketib qolgandim. Onamdand emgan sutimni burnimdan sug'urib olishgandi. Meni "kelgindi"deya haqorat qilishganini unuta olmayman.

-Agar siz Marsdan tushgan bo'lsangiz, bu so'z uchun xafa bo'lishingiz mumkin. Biroq, bu yer sizning ham vataningiz. Hammamiz shu tuproqning bolalari. Shunday ekan, bir tarbiyasiz o'rtaga chiqib "Sen Marsning bolasi" desa bir umr kin saqlab yurishimiz kerakmi? Men Devonga ishga kelgan kunim Karimov bilan gaplashganimda ikki shartim borligini aytgandim. Birinchisi, mahalliychilikni tan olmayman. O'tgan sessiyani ham poytaxtliklar uyushtirishdi, deb gap tarqatishdi. Lekin so'zga chiqqanlarning ro'yxatiga nazar solsangiz, bu gap ig'vo. Chunki sessiyada Karimovga qarshi poytaxtdan bir-ikki kishi so'zga chikdi, qolganlar esa viloyatlardan. Ikkinchi shartim, har qanday masalani insonga o'xshab tortishuv yo'li bilan hal qilish. Agar meni ishontira olsa, men kin saqlamasdan fikrini qo'llab- quvvatlayman. Agar men uni ishontirsam, u ham mard bo'lsin.

-Menimcha oqsoqol bu shartga rioya qilayaptilar. Hozir Devondagi asosiy masalalarni sizga ishonmokdalar-ku! Boshqa maslahatchilar, yordamchilarning qoni qaynab yuribdi. Ishonchini qozonish uchun sessiyada "Onangni" deb so'kish kerak ekan-da, deb yurganlar ham bor.

-Men "onangni" deb so'kibmanmi?

-Endi, o'sha mashhur gapingizni shunday sharhlayapti-da, aslida boshqacha sharhi ham yo'q.

-Siz yozuvchi bo'lib shunday xulosa qilsangiz, boshqalardan o'pkalamasam ham bo'lar ekan...

Qabulxonaga qarab ochiladigan kichkina darchadan yugurib chiqqan Kraynov Mirtemir va Maqsad Qulga “Sizlarni chaqirayaptilar” dedi, keyin “Chiroq ham o’chibdi-ku” deya qo’shimcha qildi.

Mirtemir Karimov bilan salomlashar ekan:

-Bugundan boshlab soliqlarni o’ttiz foizga oshiribsiz-ku?! -dedi kinoya bilan.

-Nima deyapsiz o’zi? -Karimov birdan jiddiylashdi.

-Mana bugun gazetalarni o’ttiz foiz oshirilgan bahosiga sotib oldik. Sotuvchi faqat gazetalarga emas, umuman hamma narsaga o’ttiz foiz qo’shimcha soliq solinganini aytdi.

-Yolg’on! -dedi Karimov va Maqsad Qulga yuzlandi. -Sen ham gazeta oldingmi?

-Oldim, kechagidan qimmatroq ekan, baholar oshgandir, deb o’yladim men ham.

-Men xabardor bo’lmasdan qanday qilib baholar oshadi? Bu o’yin, saylov oldidan meni sharmanda qilishmoqchi. Xalqqa narx-navoni oshirmayman, deb va’da bergandim. Saylov oldidan bu o’yinni kim o’ylab topdi?

Karimovning shiddat bilan termulishiga bardosh berolmagan Maqsad Qul:

-Ha, bu orqadan pichoq urishdir. Maxsus uyushtirilgan ish bu! -dedi. Karimov Mirtemirga yuzlandi:

-Doim meni tanqid qilasiz. Mana o’zingiz ko’rdingiz, meni qanday boshi berk ko’chaga kiritib qo’yishadi.

-Rostdan ham sizning xabaringiz bo’lmasa, u holda tekshirish uchun imkoningiz bor.

-Nafaqat tekshirish, balki bu xoinlarni o’rtaga chiqarib, xalqdan kechirim so’ratish kerak. O’z xatolarini o’zlari tuzatishsin.

-Xalqning oldiga chiqib, uzr so’rashsin, -dedi Maqsad Qul.

Uning bu taklifi Karimovga yoqib ketdi va u Kraynovga Davlat planlashtirish qo’mitasi raisini chaqirishni buyurdi. Maqsad Qul “Ko’rdingmi, boshqarish qanday bo’ladi” degandek mag’rurona Mirtemirga qarab qo’ydi.

Karimov xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelar ekan, og’zidan bodi kirib, shodi chiqardi:

-Tabrik maktubini nima qilamiz? -deya luqma tashladi Maqsad Qul.

-Tabrik maktubini orqangga tiqib qo’y, -deya baqirdi Karimov.

Maqsad Qul indamay boshini egdi.

Shu payt xonaga hovliqqanicha planlashtirish qo'mitasi raisi Baxtiyor Hamidov kirib keldi.

-Eshak! -deya uning qarshisiga peshvoz chikdi Karimov. -Nega soliqlar oshiriladi, mening xabarim yo'q?

-Oshirilgani yo'q, -deya qo'lidagi daftarlarni varaqlay boshladi Hamidov.

Karimov bir hamla bilan uning qo'lidagi daftarlarni olib uloqtirdi. Sahifalar ikki xo'rozning jiqqamusht bo'lganida patlar yog'ilgani kabi xonaga sochildi. Mirtemir bu manzara qarshisida hangu-mang bo'lib qoldi. Maqsad Qul esa otasi baqirganda qaltirab qolgan boladek "taxta"ga aylangandi.

-O'zingiz bilan gaplashgandik, -dedi Hamidov sochilib ketgan qog'ozlarni terib olmoq uchun egilarkan.

-Onangni eri bilan gaplashganding! -Karimov yugurib borib Hamidovni tepaman degandi u erdagi varaqni olish bahonasida chap berdi va qaddini rostladi. Karimov bir lahza muvozanatini yo'qotib qo'ydi. Lekin o'zini hamon qo'lga ololmasdi. Vajohat bilan S Hamidovning yoqasidan ushlab sudray boshladi.

-Kim bilan gaplashganding? Qachon gaplashganding? Balki Shukrulloning nayrangidir bu?!

-Bilasiz, men Shukrulloni odam hisoblamayman. Sizdan boshqasining gapini bir tiyinga olmayman. O'zingiz o'ttiz foizlik soliq haqida hujjat tayyorlashni buyurgandingiz. Men shundan boshqa gapni bilmayman. Vazirlarga shu topshiriqni etkazgandim.

-Kimlarga aytganding?

-Savdo vaziri va Narx-navo qo'mitasi boshlig'iga. Keyin Qishloq-kooperativ savdo idorasi raisiga. Ularga soliq solinglar deganim yo'q. Bu boradagi loyihani tayyorlanglar, Islom aka imzo qo'ygandan keyin boshlaymiz, degandim.

-Men senga o'shanda nima degandim, mana bularga takrorla. -Karimov javobni ham kutmasdan telefon yonidagi tugmalardan birini bosib: -Ravil, zudlik bilan savdoni, narxni, birlashuvni top! Yer ostida bo'lsalar quloqlaridan ushla, osmonga chiqsalar oyoqlaridan tort. Ikki daqiqadan keyin shu erda bo'lsinlar. -So'ng Karimov yana Hamidovga yuzlandi: -Nega jim turibsan? Gapir! Bular o'z quloqlari bilan eshitishsin.

-Siz loyihani tayyorla, saylovdan keyin amalga oshiramiz, degandingiz.

-Bekor aytibsan! Loyihani Oliy kengashga taqdim etamiz, agar qabul qilishsa undan keyin sharoitga qarab amalga oshiramiz, degandim.

-Bilmasam, -deya elka qisdi Hamidov. -Bu yog'ini eshitmay qolgan ekanman.

-Eshitish uchun quloqdagi patakni olib qo'yish kerak. Bu ish senga og'irlik qilayapti. Ertadan boshlab Moskovdagi vakolatxonaga ishga borasan, bu sen uchun surgun. O'zingni oqlasang, bir yildan keyin olib kelaman.

Mirtemir Karimovning bu holiga tushunmay qoldi. Rostdan ham uning xabari yo'q deydi bo'lsak, Hamidov uning yuziga qarab topshirig'i shu haqda ekanligini aytmokda, deya o'yladi. Agar xabardor bo'lsa, nima sababdan bu qadar guvillab yonayapti? Har holda bular saylovdan keyin amalga oshirish uchun ancha-muncha narsa rejalab qo'yganga o'xshashadi. Yoki bizning sessiyadagi janjalimizdan keyin hamma ishni orqaga tashlagan bo'lishsa kerak? Ana shu sirli ishning uchi ko'rinib qolgani uchun Karimov bu qadar qizimokda. Aks taqdirda qo'mita raisini shartta ishdan olmasdi.

Eshik ochilib kotibiyat boshlig'i ko'rindi:

-Savdoni topdim. Narx qo'mitasi raisi Quddus Axmedov xasta yotgan ekan, o'rinbosari Nina Petrovna keldi. Birlashuvning raisi sizdan izn olib viloyatga ketgandi, o'rinbosari Makaryanni chaqirdim.

-Olib kir! -dedi Karimov.

Chaqirilganlar qo'llarida bir dastadan papka va daftarlar bilan ichkari kirishdi.

-Nima gap? -deya Karimov savdo vaziri Usmonovga yuzlandi.

-Okajon, Pavel okamiz chaqirdilar, keldik.

-Okangni ham, Pavel okangni ham, seni ham onangni (...) bildingmi?

-Bildim, bildim...

-Bilgan bo'lsang, bilganingni ham, bilmaganingni ham (...)dim, bildingmi?

-...

-Nimaga javob bermaysan? Javob ber deyapman sanga iplos!

-...

-Sen poraxo'rga aytayapman, nega jim turibsan? Bu erga haykal bo'lish uchun keldingmi? Gapir, nega o'ttiz foizli soliqni qo'llading?

-Okajon, o'zingizdan izn olgandim-ku?!

-Sen, itvachchaga nima degandim?

-”Orqasidan gapi chiqmasin”, degandingiz.

-Xo'p, sen nima qilding?

-Bugun ba'zi joylarda qo'lladik, xalqdan hech qanday shikoyat bo'lgan emas.

-Senga shikoyat bo'lmagandir, ammo mana menga shikoyat bo'ldi. -Karimov shunday deb qo'li bilan ko'kragiga gurs-gurs etib ura boshladi. -Mana menga shikoyat bo'ldi, mana menga... - Karimov "mana menga" so'zlariga hamohang qo'li bilan ko'kragiga urarkan yana ham jahli chiqib boya ot ustida bo'lsa, endi tuyaga mingandi. Tuyaga minganda ham, tuyaning ustida tikka turgandek edi. Biror tomondan sal shamol esgudek bo'lsa, osmon erga, yer osmonga "qo'shilardi".

Mirtemirning boshi og'riy boshladi. Chiqib ketsammikan, deb o'yladi. Bu og'ir tomosha nima uchun o'ynalayapti? Mening asablarimni egovlash uchunmi? Balki u bu gaplar men orqali deputatlarga etishini o'ylayotimi? Yoki bu devondagi odatiy holmi? Unday bo'lsa bu odam buncha kuchni qaerdan oladi? Axir bunday vaziyatga oddiy odamning na asabi, na qalbi dosh berolmaydiku? Soatlar davomida qil ko'priknig ustida yurgandek baqirib-chaqirarkan nahotki asab torlari uzilishidan qo'rqmaydi, bu odam?

Inson hamma narsaga o'rganadi, degan gap bor. Nahotki, bu odam birovlarini muntazam so'kishga, tahqirlashga, kamsitishga o'rganib qolgan? Agar shunday bo'lsa, voy bu xalqning joniga! O'rganib qolgan takdirda ham bunday hayotdan bezmasmikan odam? Aslida juda qiziq, avvaliga jahli chiqishi tabiiy edi. Lekin keyin o'z aybini o'zi nega ochdi?

Hatto Hamidov bilan Usmonov uning aybini yashirishga urinishar ekan, u takror- takror so'rab, tergovchi jinoyatni fosh qilganidek, o'z aybini o'rta chiqarayotgandi. Buni bilmasdan qildimi? Bu odamning bilmasdan bir ish qilishi qiyin masala. Xo'sh, bilgan takdirda bu sirning orqasida nima bor? Yo'q, har holda bu oddiy insoniy masala. Jahl chiqqanda aql ketadi, jahl johillikni boshlab keladi. Bu o'yinni oxiriga qadar tomosha qilolmasam kerak. Chiqib ketsammikan? Agar bu masala mening savolimdan keyin boshlanmaganda, chiqib ketishim to'g'ri bo'lardi. Lekin hozir kutib o'tirishim kerak. Ammo bular nega bu qadar tubanlashib qolishgan?

Onasini haqorat qilayapti, yoqasiga yopishayapti, lekin bir sochi seskanmaydi.

Bular mansab gadolarimi? Yoki mansab ortidan to'ralarcha yashashga o'rganib qolganlari uchun qo'rqishadimi? Unday desam, Hamidovni ham kamsitdi, ham ishdan oldi. U esa jim. Nahotki, uning vijdon degan, isyon degan tuyg'ulari yo'q? Nahotki, uning odamiylik hissi o'ldirilgan? Axir bu quldan ham battarlik alomati- ku? Qulning qo'lidagi, oyog'idagi kishan uning tuyg'ularini ham zanjirlaydi. Lekin bularning qo'l-oyog'i ochiq. Balki poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik kabi xastaliklar insonni shu ko'yga solar? Yoki bu qadar tobelik qonda bormi? Agar qonda bor bo'lsa, oxir-oqibatda hammamiz xoru-zor bo'lamiz...

Karimov Nina Petrovnaga qarab:

-Sen nega topshiriq berding, kimdan izn olding? -deya baqirdi.

Nina Petrovna yig'lab yubordi. Bu uning isyoni, deb o'yladi Mirtemir. Bular o'zlarini bironing oyog'ining ostiga tashlashmaydi. O'z haq-huquqlarini himoya qilishni bilishadi. Hatto tahqirlashga loyiq ish qilganlarida ham o'zlarini kamsitishga yo'l qo'ymaydilar. Bu ham kichik mansabdor emas, qo'mita raisining birinchi o'rinbosari. Hech bo'lmasa ko'z yoshi bilan isyon qilmoqda.

-Ko'z yoshingni daryo qil deb gapirganim yo'q! Nega narx-navo oshishiga yo'l qo'yding, deb so'rayapman?

-Bu savolni menga emas Axmedovga berishingiz kerak. Men ijrochiman, hatto bunga qarshi ham chiqqandim. Bu masala sessiyadan ancha oldin amalga oshishi kerak edi, lekin topshiriq bilan to'xtab qoldi. Kechikib, endi amalga oshdi.

-Demak, siz begunoh musicha, biz esa aybdor ayiq ekanmiz-da?

-Kim ayiq, kim musicha ekanligini bilmayman, lekin bu ish xato bo'lganini bilaman. Karimov Nina Petrovna bilan o'chakishib o'tirmadi, Makaryanga yuzlandi:

-Xo'sh, og'ayni, seni ko'zing qaerda edi? Saunada yotgancha bu qarorga imzo chekdingmi?

-Oka, saunaga borganim yo'q...

-Sen ham eshaklikni o'rganibsan. Seni o'zimning odamim deb u erga qo'ygandim. Sen esa saunadan chiqmay qolding.

-Oka, u erga xizmatga bordim, Raveljon Moskovdan kelgan mehmonlarni olib bordilar...

-O'chir tovushingni, sen hali mehmonlarimga xizmat qilganingni yuzimga solmoqchimisani? Ular mening emas, jumhuriyatning mehmonlari, kerak bo'lsa

orqasini ham tozalab qo'lasan, bildingmi?

-Bildim.

-Nimani bilding?

... -Makaryan javob o'rniga jilmaydi. Bu esa Karimovni biroz yumshatdi. U:

-Nima qilamiz? – deb Mirtemir va Maqsad Qul o'tirgan tomonga yuzlandi. Mirtemir indamadi. Maqsad Qul esa:

-Televizorga chiqib xalkdan kechirim so'rashsin, -dedi. Karimov esiga nimadir tushgan odamdek bir silkindida:

-Smirno! -dedi xuddi generallarga o'xshab. -Napravo, shagom marsh, to'ppa- to'g'ri televizorga.

"Musofirlar" prezidentimiz oxirida yumshadilar, deya engil tortib, shaxdam odimlar bilan chiqib ketishayotgandi, Karimov tugmani bosib Kraynovga:

-Nazoratga ol, mana bu haromxo'rlar to'ppa-to'g'ri televideniaga borishsin. Ham ruscha, ham mahalliy tildagi axborotga chiqib, kechirim so'rashsin, -dedi. Keyin Mirtemir va Maqsad Qulga qarab:

-Endi choy buyuramiz va axborotni kutamiz, -dedi.

Maqsad Qul Karimovni tamoman yumshadi deb o'yladi va qog'ozlarning ichidan bir shoshilinchnomani chiqardi:

-Mana buni Turkiston harbiy okrugdagi generallar yuborishgan. Ilgari ham aytgandim, shuni bir yoqlama qilaylik, -dedi.

-Hojatxonaga borganingda bir yoqlama qilib qo'ya qol! -dedi Karimov bamaylixotir ohangda.- Yaqinda Turkistonni bitiramiz. Generallarning uylaridan bittasi seniki bo'ladi. Shavkatga yoki Ismoil akangga ayt, seni ham ro'yxatga tirkasin.

Mirtemir o'rnidan turib:

-Uzr, mening boshim og'riyapti, bunday ob-havoga o'rganmaganimdan bo'lsa kerak, -dedi.

-Ukajon, ob-havoni biz qimirlatmadik, -Karimov shunday deb telefon tugmalaridan birini bosdi:-Limonli choy bilan bosh og'rig'ini qoldiradigan dori keltiring, -dedi. Keyin Maqsad Qul yozgan tabrik maktubini o'qiy boshladi.

-Tabrik-mabrik yo'q! Ishlagan bo'lsa, hammasi pulini oladi. Biz ham o'z ishimizni qilaylik. Mirtemirjon, yozing, siz saylovoldi uchrashuvlarim uchun nutqlar hozirlaysiz. Iqtisodchilar bilan bo'ladigan uchrashuvda iqtisodga, kolxozchilar bilan bo'ladigan uchrashuvda qochiriq va maqollarga ko'proq o'rin bering. Sen esa Maqsadjon, saylovoldi dasturini tayyorla, yarim qog'ozdan oshmasin, o'n-o'n beshta shiordan iborat bo'lsin.

Yordamchi choylarni olib kelarkan dorini Karimovning oldiga qo'ydi.

-Kaminaning boshi og'rimaydi. Og'risa ham dorisi boshqa, -deya hazillashgan bo'ldi Karimov.

Mirtemir deputatlardan kelgan bir shikoyatni qo'lida olib kelgandi. Ko'rsatsammi, ko'rsatmasammi, deb o'yladi. Ko'rsataman, agar Maqsad Qulga qilgan javobini menga ham takrorlasa, bu ishga nuqta qo'yaman, deb o'yladi.

-Jizzax viloyati rahbari Tursinovning qilmishlari haqida so'rov tushgan. Xalq nazorati qo'mitasi, prokuratura va Oliy kengash hay'atidan mutaxassislar olib, tekshirishga yuborsak. Chunki jiddiy ayblov qo'yilgan, -dedi.

-Uka, men hech kimga ishonmayman. Bu ishning boshida o'zingiz turing. Tursinovning qilmishlari haqida juda ko'p xabar olayapman. Bu ishni kimga ishonsam, baribir Tursinovning tuzog'iga ilinadi. U har qanday odamni sotib oladi. Viloyat ahlining qonini zulukdek simirmoqda.

O'zingiz borib, tekshirib keling, sharmandasini chiqarib, olib tashlaymiz. Xalqqa adolatni ko'rsatishimiz kerak. Xalq bizdan boshqa narsa emas, adolat kutmoqda. Tekshirib keling, avvaliga yaxshilab feleton qilamiz, keyin esa muhokama qilib, ishdan olib tashlaymiz, sizning faoliyatingiz ham o'shanda ko'zga ko'rinadi. Iloji bo'lsa bugunoq yo'lga chiqing...

TOPSHIRIQ [39]

Mirtemir jizzaxlik millatvakili Meli Qobulovga sim qoqdi:

-Viloyatingizdan yuzdan ziyod oqsoqol imzo chekkan shikoyat bor. Shuni tekshirishda sizdan yordam olmoqchi edim.

-Nima hakda yozishgan ekan? -deb so'radi Meli.

-Viloyat rahbari haqida,-deya javob berarkan, Mirtemir ko'nglidan o'tgan savolni ham so'ray qoldi. -Nega viloyat rahbari haqida nafaqaxo'r oqsoqollar yozib yurishibdi?

-Mirtemirjon, ovora bo'lmang, ipning uchi Karimovga borib taqaladi. Mening huzurimga ham o'nlab jabrdiydalar keldilar. Tekshirdim, tekshirtirdim shikoyatlari to'g'ri. Keyin jumhuriyat prokuraturasi, Xalq nazorati qo'mitasi, Oliy kengash hay'atiga chiqdim. Oqibat, hozir mening o'zimni kuzatib yurishibdi. Meni sessiyada sayratgan, nomimni shikoyatchiga chiqargan ham shu masala. Avvaliga sotib olishga urinishdi, keyin qo'rqitishdi, bu ham ishlariga yaramadi, so'ngra oldingi ish erimdan "Buning aqli joyida emas, shu bois haydalgan" degan hujjat qildirib gazetaga yozishdi. "Shpion" degan laqab ham qo'yishdi.

-Ha, Oliy kengash sessiyasida gapirganingiz shu masala edimi? U erda sizni viloyat kengashi majlisidan haydab chiqarishganini aytgandingiz...

-Bilasiz, men viloyat kengashining ham deputatiman, shu bois masalani oldin kengashda ko'tarib chikdim. Lekin gapirtirishmadi. Agar orqalarida Karimovning o'zi turmaganida arqoni uzilgan ho'kizdek harakat qilmagan bo'lishardi.

-Men Karimov bilan gaplashdim, bu masalani oxiriga etkazishimni so'rayapti-ku?

-Unday bo'lsa jumhuriyatdagi barcha huquqni himoya qiluvchi idoralardan mutaxassislar olish kerak. Agar bu ishni bir o'zingiz tekshiradigan bo'lsangiz, sotib olishga harakat qilishadi, sotib ololmasalar "sakkizta mashina" so'raganga chiqib qolasiz.

-Sakkizta mashina deganingiz nima?

-Xabaringiz yo'qmi, viloyat rahbarlari menga pora uchun sakkizta mashina so'radi, deya tuhmat qilishdi. Hozir izimga xavfsizlik qo'mitasidan poyloqchi qo'yishgan, qarindosh urug'larimni ham bir-bir elakdan o'tkazishmokda.

-Men sizdan yordam olaman desam, o'zingiz yordamga muhtoj ekansiz-ku?
-dedi Mirtemir Meliga.-Jizzaxga borsak, siz bilan ham gaplashamiz, maslahatingiz kerak...

Haqiqatdan ham Jizzax masalasi tobora chigallashib borardi. Mirtemir kimga murojaat etmasin yo tekshirishda ishtirok etishdan voz kechardi yoki xastalanib qolardi yoxud boshqa bir muammo o'rta qo'yardi. Shu bois devondan, Oliy kengash rayosatidan va huquq idoralaridan vakillar olib o'zi Jizzaxga bordi. Viloyat rahbarlarini Oliy kengash majlislarida ko'rgani uchun uzokdan tanirdi. Jizzaxga kelgandan so'ng ularni darrov "kashf" etib qo'ya qoldi. Viloyatning birinchi rahbari Tursinov unga :

-Uka, men bu erga boshqa joydan kelganman, ijroqo'm raisi boshchiligida bir guruhning tuhmati ostida qoldim. Ular viloyatni simirishmoqda. Men esa yo'llariga to'g'onoqman, mahalliychilik qilishayapti, -dedi.

Mirtemir birinchi kotibning boshqa gaplariga ishonmasa-da mahalliychilik to'g'risidagi so'zlariga ishonadi. Bu bizga qo'ndog'da tekkan illat, deb o'yladi u. Bobolarimiz buyuk imperatorliklar qurganlar, ilm sirlarini ochganlar, yulduzlarga yo'l topganlar, lekin mahalliychilikka kelganda dar qolganlar. Nahotki bu millatimizning qonida bor?!

Talabalik yillari "Surqash", "Sambux", "Fan" kabi nomlar bo'lardi. Bu talabalarning qaysi viloyatdan kelganini bildiruvchi parol edi.

Keyinchalik poytaxtda ishlar ekan radioda ishlaydigan Zayniddin aka unga "Kelgindi" deganida yuragining bir parchasi uzilib tushgandek bo'lgandi. Biz qachon ana shu xastalikni eng o'sha o'lshanda katta millatga va katta davlatga aylanamiz. Aks taqdirda chumolidek inimizning boshida uymalab qolaveramiz. Hatto bir tumanga borsang ham, bir qishloqqa borsang ham mahalliychilik ilon kabi oyog'ing ostidan chiqadi. Mana bular esa mahalliychilikning ildizini yashnatishadi- da, keyin o'zlari shikoyatchi bo'lishadi. Mirtemir xayolidan yilt etib o'tgan bu fikrni tahlil tarozisiga qo'yishni boshqa paytga "otdi"-da:

-Bo'lishi mumkin, -dedi bosiq sasda,-Lekin mana bu iddaolarni oxiriga qadar tekshirishimiz kerak. Ba'zilar allaqachon tasdiqlandi. Masalan, go'sht kombinatiga jinoyatchilik qilgan, o'n yil hukm olgan va qamoqdan qochgan uzoq qarindoshingizni boshqa viloyatdan olib kelib, mudir qilib qo'yibsiz yoki davlat hisobiga qurilgan bolalar bog'chasi binosini yosh bir qizga hovli qilib beribsiz...

Tursinov o'rnidan turib, qizarib-bo'zargancha bir nimalar demoqchi bo'ldi, lekin tili aylanmadi. Xonada u yokdan bu yoqqa bir-ikki borib keldi-da, Mirtemirning qarshisida o'tirdi:

-Narxini oshirib yuborayapsiz. Ko'nglingizdagini ayting!-dedi. Mirtemirning boshiga yashin tushgandek bo'ldi.

-Men sizni tushunmadim, nima deyapsiz o'zi?-dedi u .

-Men o'g'il bolacha gapirishni yaxshi ko'raman. Bu ishga nuqta qo'yaylik. O'sha nuqtaning bahosini aytib qo'ya qoling.

Mirtemir uzoq yil gazetada ishlagani va har turli odamlar bilan ro'baro' bo'lgani uchun o'zini tutib qoldi. Tursinovga qarab jilmaygancha o'rnidan turdi va:

-Nuqtani xalq qo'yadi,-dedi kinoya bilan.

-Unday bo'lsa siz vergul bilan bitirasiz ishingizni va o'zingiz ham vergulga aylanib qolasiz,-dedi zaharxanda jilmayish bilan Tursinov.-Bizning to'qmog'imiz

ostidan o'tganlar albatta vergulga aylanishgan. Sizga o'xshab yuragim deb, o'pkasini hovuchlab yurganlarni ko'p ko'rganmiz. Sessiyada Islom akaga qarshi gapirganingiz unutildi, deb o'ylaysizmi? Istasam, Jizzaxda yo pora bilan yo giyohvand modda bilan qo'lga tushiraman. Ammo birinchi safar kechirdim. Borib o'ylab ko'ring, fikringiz o'zgarsa, nuqtaning bahosini aytasiz. Men sizning undov bo'lib qolishingizni istayman...

Mirtemir rasmiyatchilik uchun viloyat rahbari bilan uchrashgandi. Uning "obrazli" gaplariga e'tibor qilmayman desa-da, bu og'ir gaplar xayolining bir burchini tark etmasdi.

Avvaliga viloyat rahbari bilan nega uchrashdim, deya o'zini qiynadi. So'ngra hech bo'lmasa uning kimligini o'rgandim, deb o'zini ovutdi. Tursinov kabi rahbarlar bilan ko'p uchrashdi, lekin bunday bezbetiga ilk bor ro'baro' keldi. U bunday tavra bilan o'zini ko'rsatmoqchi bo'ldimi? Yoki orqasida katta tog' borligiga ishorat qildimi? Agar Karimov bilan oralarida bulbul sayrasa, nega Karimov uni bu qadar haqorat etdi? Axir Karimovning o'z qardoshiga ham ishonmasligini, hatto bilmasdan oyog'ini bosib qo'ysa sevgan do'stidan ham kechib yuborishini nahotki bilmasa? Yo'q, biladi, buning ahvoli joni uzilayotgan odamni eslatadi. Joni chiqishidan oldin oyoqqa qalqib, hayotga tashnaligini ko'rsatishga intiladi inson. Bu ham "o'zini" ko'rsatayapti. Balki orqasida boshqa kuch bordir? Bu kuch balki Karimovdan ham og'ir bosar? Aslida uning ta'zirini berib qo'ymoq kerak edi-yu lekin bular adi-badi aytib o'tirishga arzimaydigan odamlar. Ularga siz yaxshi, sizdan to'ng'izim yaxshi qabilida ish tutish kerak. Buning ustiga bular o'zlarini qutqarish uchun har qanday qabihlikdan qaytmaydilar...

Mirtemir shikoyatchilarni qabul etarkan, shom inib qolgan bir paytda uni qo'shni xonada telefonga chaqirishayotganini aytishdi. Karimovning yordamchisi Kraynov ekan, salom-alikdan keyin:

-Islom aka iltimos qildilar, Muborakka borib ikki do'stingizni yarashtirib kelar ekansiz, -dedi.

-Muborakda mening do'stlarim yo'q-ku? -deya ajablendi Mirtemir.

-Nega unday deysiz.? Ibod To'ra yaqin do'stingiz, Juma Bek esa universitetda birga o'qigan kursdoshingiz.

-Ibod To'rani taniyman, ijroqo'm raisi, millatvakili, lekin Juma Bek kim?

-Juma Bek raykomning birinchi kotibi, Siz bilan birga o'qigan. Ibod To'raning o'ttizga yaqin yigiti ochlik e'lon qilgan. Islom aka Sizga vakolat berdilar, kim aybdor bo'lsa uni ishdan chetlashtirishni taklif qilasiz va viloyat rahbarlari darrov ijro etishadi.

“Ochlik qilishayapti” degan gapni eshitgan Mirtemir haqiqatdan ham masalani

favqulodda jiddiy, deb o’yladi.

Darhaqiqat, Muborak masalasi ikki yildan buyon Karimovning ham, jumhuriyat tashqarisidagi matbuotning ham kun tartibida. Lekin shu daqiqada Mirtemir Jizzaxdagi ishni chala tashlab ketgisi yo’q. Bu ishni oxiriga etkazishga qaror qilgandi. Agar ketib qolsa, u bilan birga kelgan tekshiruvchilarning holi nima bo’lishini yaxshi tasavvur qilardi. Shu bois Muborak masalasini ikki kun keyinga qoldirmoqchi bo’ldi. Kechki ovkat paytida tekshiruvchilarga:

-Ikki kundan keyin poytaxtga qaytamiz. Shu bois tekshirishni biroz tezlashtirishlaringizni so’rayman,-dedi.

-Ikki kun u yoqda tursin, ikki oyda ham natija olishimiz qiyin. Mening qo’limda dom-daraksiz yo’qolgan o’n ikki kishining ismi-sharifi bor. Ularni mirshabxonaga qadar keltirishgani haqida ma’lumot beruvchi guvohlar bor. Lekin mirshabxonadagi barcha hujjatlarni viloyat rahbarlari talab qilib olishgan. So’rasak, har turli bahona ko’rsatishayapti,-dedi ulardan biri.

-Biz reviziya qilish uchun kelmadik,-deb javob qildi Mirtemir.-Bizning maqsadimiz shikoyatlarning to’g’ri yoki noto’g’ri ekanligini, siyosiy xulosani aytishdir. Yo’qolgan insonlarning viloyat rahbarlari haqida shikoyat yozganlari va bir kun mirshabxonaga keltirilganlari biz uchun etarli hujjat. Ularning qismatlari haqidagi dalillarni o’rtaga chiqarish esa ikkinchi etapda amalga oshadi. Hozirgi rahbarlar turgan ekan, ikki oy emas, ikki yilda ham ko’rtugunni echolmaymiz.

Mirtemirning bu gapiga viloyat hokimligidan hay’atga qo’shilgan kishi e’tiroz bildirdi:

-Nima, Siz rahbarlarimizni aybdor, deb o’ylayapsizmi?

-Biz sud yoki qaror beruvchi mavqe emasmiz, lekin hay’atning yo’liga to’g’onoq qo’yilayotgani ko’rinib turibdi,-dedi Mirtemir.

-Siz bu soatdan e’tiboran tekshirish hay’atining boshida emassiz. Islom aka Sizga boshqa ish buyurdi,-dedi vakil jahli chiqqanini ochiq namoyish etib.

-Islom aka bu haqda Sizga hisob berdimi?

-Hisob berib-bermaganini o’zingizga aytadi. Bizga esa sizni Muborakka kuzatib qo’yish aytilgan.

-G’amxo’rligingiz uchun rahmat, -dedi-da Mirtemir hay’at a’zolaridan yig’ilgan hujjatlarni olib, ularga qarata har holda sizlarni ham poytaxtga kuzatib qo’yishsa kerak, shunday emasmi? – dedi. Keyin vakilga yuzlangandi u:

-Bu qog’ozlarni yig’ishingizga ham hojat yo’q,-dedi.

-Bunga esa men qaror beraman! Qolaversa, Muborakka emas, hay'at bilan poytaxtga boraman, - dedi Mirtemir o'chakishib.

Mirtemir adi-badi aytib o'tirishni istamadi. Xonadagi biqiq havo uni bo'g'ayotgandi. Bo'yinbog'ini biroz yumshatib, ko'ylagining yuqori tugmasini ochdi-da tashqariga chikdi. Zim-ziyo qorong'ulik viloyat mehmonxonasining har tarafini qoplab olgandi. Oniydan esgan sarrin shabada Mirtemirning horg'inligini yulib ketgandek bo'ldi. U biroz engil tortib qorong'ulik tomon odim otdi. Sarrin shabadaning bo'g'ziga qadar oqib kirayotgani va ortga qaytayotganini his etdi. Chuqur-chuqur nafas oldi, lekin havo bo'g'zidan naryoqqa o'tmayotgandi. Havo ham "to'ni"ni teskari kiyib olganga o'xshardi. Mirtemir ana ular bilan o'chakishib o'tirmadim, endi havodan o'pkalaymanmi, deya o'yladi-da ortga qaytdi. Shu payt qorong'ulikda, qarshisida birov turganini sezdi. Kim bo'ldiykin? Mirtemir o'sha tomonga qarab turgandi:

-Iltimos, oqshomgi ovqatni emang, iloji bo'lsa bu erda qolmang, -dedi kimdir pichirlab va ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bu chetdan kelgan odam emas, deb o'yladi Mirtemir, chunki viloyat mehmonxonasining hovlisi qo'riqlanadi, buning ustiga chetdagi odam bu erdagi voqealardan qanday xabar topsin? Bu erdan ketishimga ishonishmaganga o'xshashadi, shu bois qo'rqitishmoqchi.

Mirtemirning xayolini vakil bo'ldi.

-Aka, choyimiz tayyor... -Vakil hiyla yumshab kolgandi.

-Choy ichish yo'q!-dedi Mirtemir.

-Avval bir piyola choyimizni ichasiz, keyin Muborakka boradigan mashinamiz bilan yo'lga chiqasiz. Agar Sizni kuzatib qo'ymasak, boshimiz ketadi. Chunki Muborakda odamlar ochlik e'lon qilishayotgan ekan. Ularning taqdirini Sizga ishonishdi... Boya biroz qo'pollik qildim, odob chegarasidan chiqdim, asab tamom bo'lgan, aka, aybga buyurmaysiz...

Tullak, deb o'yladi Mirtemir, buqalamun ham senga o'xshaganlarning yonida ip esholmaydi. Har soniyada turlanasan. Ammo nega poytaxtga borishimni istamayapti bular? Balki biror rejalari bordir? Avval Muborakka telefon qilib, Ibod To'radan vaziyatni o'rganishim kerak. So'ngra Karimov bilan gaplashib, bu tekshirishni oxiriga qadar etkazish muhimligini tushuntirishim lozim.

Mirtemir Ibod To'raning uyiga sim qoqdi. Uning poytaxtda ekanligini aytishdi. Keyin Kraynovga telefon qildi. Kraynov Karimov uyiga ketganligini aytib, maslahatchi Ziyomovni bog'ladi.

-Islom aka menga bu ishni nazorat qilib turishimni aytdilar. Sizni allaqachon

Muborakka etib borgan deb o'ylagandik. Vaziyat jiddiy, raykomning birinchi kotibi bu kecha uxlamasdan Sizni kutadi.

-Jizzax nima bo'ladi? Bu erdagi hay'atni orqaga chaqirib olishni kim buyurdi?

-Garchi bu xususda Mirtemir uzil-kesil xulosaga ega bo'lmasa-da, voqealarning rivojidan hay'atni chaqirib olish buyrug'i berilganini taxmin qildi.

-Islom akaning o'zlari buyurdilar. Qo'lingizda to'plagan dalillar bo'yicha hisobot yozib berar ekansiz. Ish pishib qolgan, yaqinda borib sessiya o'tkazib, viloyat rahbarini bo'shatib kelar ekanlar. Muborakda esa vaziyat jiddiy, Sizdan shaxsan iltimos qildilar, -dedi Ziyomov.

Mirtemir yo'lga chiqarkan Melini chetga tortib:

-Qo'lingizdagi barcha hujjatlarni olib, hafta oxirida poytaxtga keling, hisobotni birgalashib yozamiz, -dedi.- Ammo poyloqchilardan ehtiyot bo'ling, bularning qo'lidan har qanday ish keladi.

-Sizning ham Muborakka borishingiz to'g'ri bo'lmayapti. Menga yo'l ko'rsatib, o'zingizga qolganda xavf-xatarni o'ylamayapsiz.

Mirtemir Meliga ma'nodor boqdi-da, mashina yonida turgan vakil bilan xayrlashib, yo'lga chiqdi. Yo'lda shofer yigit bilan hangoma qilib borar ekan, uning mirshabligini bilib oldi.

-Yo'limiz men tug'ilgan shahardan o'tadi. Bizning uyda tunab qolsak, saharlab yo'lga chiqib, ertalab etib boramiz,-dedi u mirshabga.

Mirshab ko'nmadi:

-Sizni chegarada kutib olishadi, men esa qaytib kelib, raport berishim kerak. Mirtemir mirshabni ko'ndirish oson bo'lmasligini tushundi-da:

-Unday bo'lsa, yarim soatga to'xtab bir piyola choy ichamizda, yo'limizda davom etamiz,-dedi.

-Imkoni yo'q. Orqamizda odamlar bor. Keyin boshim baloga qoladi. Sizni sog'- salomat manzilga etkazishim kerak.

Mirtemir o'zi tug'ilgan shaharga qadar indamay bordi. Voqealarni qayta-qayta tahlil etdi. Bular biror bir avariya ko'zga oldilarmi, deb o'yladi u. Yoki avariya bahonasida hujjatlarni olishmoqchimi? Agar meni tekshirishdan uzoqlashtiradigan bo'lishsa, poytaxtga chaqirib qo'ya qolishardi. Yo'q, Karimov bu ishni silliqqina hal etmoqchi bo'lgan. Bular esa xol qo'yishayapti. Karimov meni Muborakka yuborib,

boshqa ish bilan chalg'itmoqchi va Jizzaxni unuttirmoqchi bo'lgan. Karimovning bu "silliq" rejasini bajarish uchun bular "qo'lidan kelgani"ni qilishmokda. Menimcha avariya ham yo'q, hujjatlarni ham olish yo'q. Bularga vaqt kerak. Lekin ana shu vaqt nima uchun kerak? Nega birdaniga bunday vaqt kerak bo'lib qoldi? Agar viloyat hokimini ishdan olishga qaror qilingan bo'lsa, bu vaqtga hojat yo'q. Lekin nega, nega kerak bo'ldi bu vaqt?

Mirtemir vaqt jumbog'ini echolmay halak edi. Shu bois mashina allaqachon shaharni chetlab o'tganini ham sezmay qoldi. Mirshab aytganidek, chegarada kutib turishgan ekan. Mirtemir viloyat hokimining birinchi o'rinbosarini tanidi. Ilgari ham bir marotaba kelgandi, o'shanda tanishgandilar. Tortishuvni yaxshi ko'radigan odam. Agar rahbarlarni himoya qilish kerak bo'lsa, butun aql-idroki, mantiq- maxfiratini o'rtaga qo'yib tortishadi, ularni himoya qiladi. Demokratiyaga tish- tirnog'i bilan qarshi. Mirtemir uni ilgari uzoq yillar prokuror bo'lib ishlagani

uchun “tosh”ga aylanib qolgan deb o’ylagandi. Chunki tartib-intizom haqida gapirar ekan, “tartib” so’zining oldiga “qat’iy”, “intizom” so’zining oldiga esa “temir” kalimalarini qo’shishni hech unutmadi. Karimov shu viloyatda rahbar bo’lgan, balki o’sha paytda uning nomini yon daftarchasiga yoki xotira kitobiga yozgan bo’lishi mumkin. Balki bu yigitning o’zi Karimovning fe’lu fitratini yaxshi o’rganib, unga moslashgan bo’lishi ham ehtimoldan xoli emas. Xullas, nima bo’lganda ham Mirtemirning qarshisiga yana bir “devor” chiqqandi.

Ular chegaradan viloyat markaziga emas, to’g’ri Muborakka qarab yo’lga chikdilar.

-Ibod To’ra poytaxtda ekan, borganimiz bilan u bo’lmasa, nima qilamiz?

-Ibod To’rani ishdan bo’shatdik. U shikoyatga ketgan. Bugun Karimov bilan uchrashdi. Islom akam uning ta’zirini berib qo’ydi, endi bu erlarga qaytib kelmasa kerak.

-Hech narsada adashmasangiz ham bu xususda adashdingiz. Chunki Ibod To’ra o’jar, o’jar bo’lganda ham hech yo’ldan qaytmaydigan o’jar...

Mirtemir shunday dedi-da, hamsuhbatining javobini kutmasdan xayolga berildi. Ibod To’raning nomini ilk bor “Ozodlik” radiosidan eshitgandi. Saylovlar arafasida ham shahar kengashiga, ham Oliy kengashga nomzodini qo’ygandi. O’shanda shahardagi gazni qayta ishlash zavodi ruslarning qo’lida bo’lgani va shahardagi xonadonlarga ataylabdan gaz berilmaganini aytgandi. Saylovdan keyin uni ijroqo’m raisi etib saylashdi. Birinchi qilgan ishi mirshabxona va prokuraturadagi kommunistik partiya sho’balarini tarqatib yubordi. Bu kommunistik partiyaning boshida turgan Karimovga qarshi isyon edi. Isyon bo’lganda ham ikki karra isyon edi. Chunki Moskva gazetalari “Karimov jumhuriyatda ilk zarbani o’z viloyatidan oldi”deya yozishdi.

Viloyat rahbarlari ham tipirchilab qolishdi, chunki ular mirshabxona va prokuraturani partiya yo’li bilan qo’lda tutardilar. Ibod To’ra esa bu idoralarni ularning qo’l ostidan chiqarib, o’z nazoratiga oldi. Bu orada shaharda xususiy televidenie ochib, hamma narsani oshkoralik yo’li bilan hal qila boshlagani ma’lum bo’ldi. O’shanda Karimov bu televideniye yopib tashlagani bois Ibod To’ra Oliy kengashning Mirtemir ishlagan qo’mitasiga shikoyat qilib borgandi. Mirtemir viloyatga kelib buyruq ham, ijrochilar ham teppadan kelganini o’rgandi va masalani qo’mita majlisiga olib chiqdi. Lekin qo’mita raisi Erkin Vohidov bu ishni xo’rjiga tashladi.

-Kimlar ochlik qilgan ekan? -deya xayol surib borayotgan suhbatdoshidan so’radi Mirtemir.

-Uh-hu, bundan ham xabaringiz bor-ku?

-Xabarimiz bo’lmasa, nimaga borayapmiz?

-Sizni raykomning birinchi kotibi taklif qilgan, kursdoshingiz ekan. Bir piyola choyini ichamiz. Qolgan masalani esa o’sha erda gaplashamiz. Ochlik qilganlarga kelsak, Ibod To’raning ijroqo’m a’zolari ochlik qilishmoqchi edi, lekin yo’l qo’ymadik. Chunki qonunlarimizda “ochlik qilish mumkin” degan joyi yo’q. Buning ustiga ular ochlik qilishdan avval bir qop nonni quritib olishibdi. Nima emish? Quritilgan non eyish ovqat eyishga kirmasmish. Ha, bachchag’ar, ochlik qilsang, hech narsa ema! Qotgan non eb, suv ichib, yana ochlik qilayapman, deyishing, isyon emasmi?

Mirtemirning avzoyi buzildi. Qandaydir o'yin o'ynalayotganini sezardi-yu lekin bu o'yinning ip uchini topolmayotgan edi.

Ha, Mirtemir qancha o'ylamasin, bu o'yinning ip uchi uning xayoliga kelmasdi. Chunki bu o'yin Karimovning xayoliga ham tasodifan kelgandi. Ya'ni saroy a'yonlari tomonidan Karimovning fikriga suqilgandi bu o'yin.

[40]

Tursinov avvaliga o'zi bilan o'zi olishdi: Nega unga qo'pol muomala qildim? Bular hali yosh bola, niholdek gap, qayoqqa egiltirsang o'sha tomonga qarab o'sadi. Shirin gap bilan ilon inidan chiqadi, deganlar. Yo'q, yolg'on gap. Shirin gap bilan sehrGAR ham ilonni inidan chiqara olmaydi. Balki maqolni noto'g'ri o'ylagandirman? Aslida hamma narsani ochiq gapirib to'g'ri qildim. Ignachining ming urgani, temirchining bir urgani. Yo yo'limga solaman, yoki pachaqlab tashlayman. Bundaylarni o'yin bilan sindirish kerak. Shoxidan qo'rqsang keyinchalik dumidan ham qo'rqadigan bo'lasan. Lekin hozir gap Karimovga bog'liq. Mirtemirning kaliti ham Karimovda.

Ha, aslida Karimovni yaxshi bilar va uning Mirtemirni jazolashiga ishonardi. Shuning uchun ham bir yo'lini qilib unga yoqib qolish uchun Mirtemirni "pushkaga" oldi. Shuning uchun Mavlonga telefon qildi:

-Mavlonjon, bu ishni to'xtating, boshingizdan oltin sochaman.

-Akajon, oltindan shashlik pishiramizmi? -yumshoq hazil qildi Mavlon.

-Oltinlar Halima opaga qolsin, Sizga o'zim qo'y so'yib, quyruqli shashlik qilib beraman.

-Shashlikni men eyman-u lekin ana u ilon jirkanadi.

Mavlon Temur Alimov bilan chiqishmas edi. Mavlon Alimovni "Ilon"desa, Alimov uni orqavarotdan "Chayon" derdi. Boshqalar esa har ikkalasini majlislarda yonma- yon ko'rib, Karimovning "Ilon-Chayon"lari deya pisir-xisir qilishardi.

Karimov Mavlonga kadrlar masalasini, Alimovga esa huquq-tartibotni topshirgandi. Ikkalasini bir-biriga qayrab qo'ygan ham Karimovning o'zi.

Mavlonga: "Ana u "Ilon"dan ko'z-quloq bo'l! Mirshablardan pora olayotgan ekan. Buning ustiga hamma yoqni toshkentliklar bilan to'ldirib yubordi. O'ziga sezdirmay qilmishlari haqida hujjat to'pla" derdi.

Alimovga esa: “Ana u “Chayon”ga ishongandim, lekin topib kelgan kadrlari bir pulga qimmat. Xotining bo’ynidagi tovokday-tovokday keladigan zebu-ziynatlar ham eri oyog’ini to’g’ri olmayotganini ko’rsatadi. Uning har bir qadamidan meni xabardor qilib tur” derdi.

Bu orada “Hech kimga aytmalik sharti bilan” Alimov to’plagan hujjatlarni Mavlonga, Mavlon to’plaganlarni esa Alimovga ko’rsatib qo’yardi. Har ikkisi ham Karimovning “sodiq”ligidan o’zlarini qushdek engil his etishsada dushmanlari qarshisida hamlaga otilgan yirtqichga aylanishardi. Shu bois har ikkalasining ham yurak ostidagi adovat urug’i allaqachon niholdan ulkan daraxtga uzangandi.

Garchi xonalari bir qavatda, hatto eshiklari qarama-qarshi bo’lsa-da, ba’zan ertalabdan oqshomga qadar yuz ko’rishmasdilar. Lekin Mavlonning xonasidan pashsha uchsa o’tsa, Alimov payqar, Alimovning derazasi ochilib-yopilsa Mavlonning daftarida qayd etilardi.

Bir kuni Alimov safarda avariya uchradi. U xastaxonada yotar ekan, Karimov Mavlonni chaqirdi:

–“Ilon” yarimjon bo’lib qoldi. Buning ustiga yotgan joyida ham mansab sotayotgan

ekan... Darvoqe, buxususdasendahambirorgapbormi? Qulog’ingdanqochadigan gap yo’qligini bilaman, shuning uchun ham boshqalardan eshitganimga ishonmay sen bilan muhokama qilayapman.

Mavlon juda hurkoq, og’ziga zanjirto’r solingan itdan ham qo’rqardi. Bolaligida doim cho’ponlarning itlari bilan o’ynardi. Bir kuni tayoq bilan itning tumshug’iga urganda, u shang’illagancha o’zini Mavlonning ustiga otdi. “Cho’pon amaki” kelib qutqarib olmaganda, bir joni ettita bo’lardi. O’shandan buyon itning akillashini eshitsa, oyog’i qaltiraydi. Avval boshining eng tepa nuqtasi jimirlaydi, so’ngra ming-ming chumolilar boshidan oyog’iga, oyog’idan boshiga yuguradi.

Xuddi ana shu hisni Karimovning huzuriga kirganda ham takror-takror yashaydi. “Nega?” deya o’zi-o’zidan so’radi bir necha marta, lekin javob berolmadi. Mansabdan otilishdan qo’rqadimi? Yoki sirlari ochilib qolishi bezovta etadimi? Balki Karimov do’pposlab qolishidan hurkiydimi? Xullas, hozir ham vujudi junjikib, ikki qo’lini oldinga olgancha taxtadek qotib qoldi. Jilmayishga har qancha harakat qilmasin, lablari muzlab qolgandek, hatto soxta tirjayish uchun ham mayl bermas edi.

–O’tir, -dedi Karimov unga.

U Karimovning uncha-bunchaga o’tir demasligini yaxshi biladi. Faqat biror narsa yozdirmoqchi bo’lsagina “o’tir” derdi. Aksiga olib Mavlon qo’lidagi kundalik daftarini Kraynovning yonida unutdi. Birdan qo’rquv bosdi uni. “Nima qilaman endi?”, deb o’yladi. Qanday qilib “Men qabulxonada kutib turgandim, birdaniga Siz chiqib qoldingiz. Daftarni olishga ham ulgurmadim”, deya oladi. Muzlab turgan badani birdaniga olovning o’rtasiga tushib qolgan odamning vujudi kabi jizirlay boshladi. Sochlarining ostidan sizib chiqqan ter yonoqlariga qadar irmoqchalardek oqib keldi. U hozir bir tomchi ter stolning ustiga oqib tushsa, hayotim tamom, deb o’yladi- da,

cho'ntagidan ro'molchasini olmoqchi bo'ldi. Lekin qo'li unga bo'ysunmadi. Shu payt vujudida boshqa bir o'zgarishni sezdi. Avval ko'ragida paydo bo'lgan muz bir zumda sochlarining ostidagi terga qadar etib bordi. Ba'zan Mavlon ana shunday holatlarni yashagandan keyin "yurak degani xo'p baquvvat bo'lar ekan" deb o'ylardi, ammo duxtirga borib nazoratdan o'tishga vaqt topolmasdi yoki "Ilon"ning "Mavlon xastalanibdi", deya gap tarqatishidan hayiqardi.

-Nima mendan yashiradigan gaping bormi? Yoki "Ilon"ning boshi ezildi, deb elkangdagi tog'ni uloqtirib yubordingmi?

-Y...o'...q! -dedi Mavlon tili aylanmay.

Qo'l ostida ishlagan kishilarning bunday holati Karimovga yoqardi. U hammaning ana shunday qaltirab turishini istardi. Shu sababdan ba'zan-ba'zan ularni rag'batlantirib turardi.

-Qani ukajon, bir boshdan shoshmasdan gapiring-chi.

Karimovning bunday yumshashi garchi sun'iy bo'lsa-da, Mavlonning joniga ora kirdi. Ikki og'iz shirin gap uning muzlab yotgan vujudini eritdi va tomirlariga darmon yugurgandek bo'ldi. Aylanmayotgan tili ham o'z-o'zidan harakatga keldi.

-Haligi, Ibod To'raning ishini yotgan joyida to'xtatib qo'yibdi...

-Qaysi ishini?

-Siz Zokir Almatovga bir topshiriq bergan ekansiz, o'shani to'xtatibdi.

-U topshiriqni sen qanday bilding?

-"Ilon"butun mahallaga yoyganga o'xshaydi. Ibod To'raga suiqasd...

-O'chir tovushingni! Suiqasd-muiqasd degan gapni eshitmayin. U "Ilon"ning o'ziga suiqasd qilish kerak! Voy, ablah! Voy, eshak! Voy, enag'ar! Seni odam deb yursam, rostdan ham ilon chiqib qolding-ku! Yo o'lishingni bilib kafaningni oltindan qilmoqchi bo'ldingmi?

Karimov stolning ustiga zarb bilan urdi-da, Mavlonga yuzlandi:

-Hoziroq qaror yozib kel, "Ilon" ishdan quvildi. O'miga odam top, duxtirlarga ayt, hukumat kasalxonasidan quvishsin. Borib bitxonada yotadimi, otxonada yotadimi, o'zi biladi. Ammo nazoratda tut. Menga uning o'ligi emas, tirigi kerak. Uni o'lgandan battar qilaman.

Mavlon Karimovning xonasidan chiqar ekan, yuragi ham qinidan chiqayotgandek edi. U katta tog'ni kovlab, tashna odamlarga suv etkazgan odamlardek shod edi. Bu oniydan kelgan g'alaba shu qadar esankiratdi-ki oltinchi qavatdan beshinchi qavatga tushadigan zinada oyog'i qayrilib ketdi. Bir umbaloq oshib tushsa-da, hech narsa bo'lmagandek shart o'rnidan turib, xonasiga qarab oqsab-oqsab yugurdi. O'shanda qabulxonada Mirtemir o'tirgandi. Mavlon yugurib kelib uni quchoqladi:

-Jo'rajon, tabriklayman! O'zimni ham, Sizni ham, xalqimizni ham! Balodan qutuldik. "Ilon"ketdi, butunlay ketdi, onasinikiga ketdi...

-Nima, avariya dan keyin o'ldimi? -deya ajablanib so'radi Mirtemir.

-O'lmasdan besh battar bo'ldi. Ishdan quvildi. Hoziroq qaror yozib, qo'l qo'ydirib kelaman. Shu sababdan uzr, menga biroz vaqt bering.

-Astag'firulloh ! -dedi Mirtemir.-Uzrga hojat yo'q. Men shoshmayapman.

Mavlon oqsagancha qabulxonadan o'z xonasiga yurar ekan, Mirtemirning ko'zi og'zini yumgancha kulayotgan sekretar qizga tushdi. Sekretar qizning nigohlari sirni boy berib qo'ydi. Mavlonning shimi orqa chokidan so'kilib, ich kiyimi ko'rinib qolgandi.

O'shanda Mavlon darhol qaror tayyorlab Karimovga qo'l qo'ydirib oldi. Faqat Karimov unga "Hozircha e'lon qilma, eshitganlar o'lmasdan tobut tayyorlashibdi" deyishmasin. Kasalxonadan chiqar-chiqmas o'rniga boshqa odam tayyorlaymiz", dedi.

Mavlon ishonmaganlarga Karimov qo'l qo'ygan qarorni ko'rsatib, maqtanib yurdi. Lekin bir kuni Mavlonning boshiga tosh yog'di. U xonasidan chiqayotgandi qarshisida "Ilon"ni ko'rib qoldi. Qo'ltig'iga bir qancha papkani qistirib olgan Alimov yuqoridan, Karimovning huzuridan tushib kelayotgandi. Mavlon boshining o'rtasiga tosh bilan urilgan odamdek esankirab qoldi. Alimov esa jiddiy qiyofada unga qayrilib ham qaramasdan o'z xonasiga kirib ketdi. Mavlon qancha vaqt turib qoldi o'zi bilmaydi. Es-hushini to'plaganda yonida o'rinbosari turardi.

-Nima gap? -dedi u o'rinbosariga.

O'rinbosar Alimovning xonasiga qarab elkasini qisdi.

-Bu kasalxonadan qachon chiqdi?

-Bilmadim, -dedi o'rinbosar.

Mavlon orqaga qaytdi-da Kraynovga telefon qildi.

Mavlon Kraynovdan biror narsa so'ramasidanoq javob oldi:

-Islom aka imzolangan qarorni olib, yirtib tashlashimni so'radilar.

-Nima bo'ldi o'zi?

-Har holda sho'rva emas, palovga o'xshaydi.

-Kasalxonadan qachon chiqdi?

-Besh daqiqa oldin. Mashina yuborib olib keltirdik.

Mavlon telefon dastasini qo'ydi-da, ko'ragini g'ijimladi. Rangi dokadek oqardi. Qabulxonadagi stulda o'tirib qoldi. Sekretar qiz tortmadan dori olar ekan, o'rinbosari bir bardoq suv quydi. Mavlon dorini ichib bo'lgandi ham xonasidagi telefonning jiringlashi nayzadek vujudini teshib yubordi. Bu qora telefon edi. Faqat Karimovgina sim qoqadigan bu telefonning sasi shu qadar baland ediki, Mavlon

uni pasaytirib qo'yishga ham hayiqardi. U yugurib ichkariga kirdi. Karimov uzoq gapirmadi:

-Qarorni Kraynovga chiqarib ber. Alimov ishini davom ettirsin. Lekin ko'z-quloq bo'l. Vaqti kelsa, tagiga suv quyamiz...

Shundan keyin, Alimov bilan oralari yana ham buzildi. Endi Alimov Mavlonning telefondagi gaplarini ham eshitayotgandi. Shu sababdan Mavlon Tursinov bilan ochiq gapirib qo'yanidan seskandi. Xatosini tuzatmoqchi bo'ldi.

-Aslida u kishi yomon odam emas. O'zingiz gaplashsangiz yordam berishlari mumkin. Bizni bir-birimizga qayrab qo'yishdi. Men siz tomondaman...

Tursinov Mavlon bilan gaplashib bo'lgach, Alimovga telefon qildi:

-Bu gaplarni telefonda gaplashmaydilar. Ikki soatlik yo'l, mashinaga chiqingda, etib keling,-dedi Alimov.

Tursinov kelganda Alimov uni iliq qarshiladi.

-Mavlon bilan orangiz yaxshiligini bilaman. Ammo ish bu bilan bitmaydi. Menga ham ko'p yordamingiz tekkan. Sizni Islom akaga ana u tirranча deputatlar yomon qilib ko'rsatgan. Hozirdanoq ularning aytgani bo'ladigan bo'lsa, keyin holimizga maymunlar yig'laydi.

-Meni qutqazing. Aytganingizni qilaman. Og'zingizdan chiqqanning ikki qatini muhayyo qilmasam erkak emasman!

-Mayli, u gaplarni keyin gaplashamiz. Avval sizni qutqaraylik. Hozir borib Mavlonga uchrashing, yuqoriga chiqib sizni himoya qilsin. Har xil sassiq gaplardan uzoq tursin. Keyin Ziyomovga uchrashing. Mavlondan so'ng u kirsin, Jo'rabekov bilan ko'rishing. Ziyomovdan keyin Kraynov uni chaqirsin, hammasini ko'ndiring. Kechqurun nuqtani men qo'yaman. Hammasi Jizzaxda odamlar sizni istashayotgani, agar ishdan olinsangiz saylovda har turli voqealar yuz berishini, tuman birinchilari tinimsiz telefon qilishayotganini aytishsin. Oxirida Islom aka mendan Ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmatining fikrini so'raydilar. Xudo xohlasa, oshni o'zim suzib chiqaman.

Tursinov hamma bilan bir soat ichida uchrashib chiqdi. Va'dalarni quyuq qilib, Jizzaxga qaytib ketdi. Bu orada Kraynovni ham xursand qildi. Yangi olgan uyiga "Miraj" deb nomlangan chet el mebelini ertagayoq yuborishini imo qildi.

Alimovning plani bo'yicha birinchi Mavlon kirishi kerak edi, lekin u botinmadi, Jo'rabekov bilan birga kirdi. Karimov Jo'rabekovning gaplarini oxiriga qadar tinglamadi.

-O'sha, sizga telefon qilgan birinchilarga aytib qo'ying, Tursinov bilan bitta kamerada qo'yaman ularni. Hammasi o'z manfaatini o'ylaydi.

-Lekin fondga Tursinov ham, birinchilar ham katta mablag' o'tkazishdi,-dedi Jo'rabekov.

-Ikki oyoqlari bir etikka tiqilganidan keyin o'tkazishadi-da.

-Bular so'zimizni hech ikki qilishgani yo'q.

Karimov Jo'rabekovning ko'zlariga tikilib qaradi-da, Kraynovni chaqirdi:

-Fondga Jizzaxdan biror bir muammo bormi?

-Yo'q, otalariga rahmat, aytganimizning ikki hissasi tushib turibdi.

Karimov Jo'rabekov bilan Mavlonni chiqarib yuborar ekan, aniq bir javob aytmadi. Ko'p o'tmay maslahatchisi Ziyomov kirib keldi. U boshqa masalalarni gapirar ekan, orada Jizzaxga ham to'xtaldi:

-Jizzaxda muxolifatning ikki yuz-uch yuz odami hamma yoqni buzmoqda. Shikoyatchilarning kimligini o'rgandik. Hammasi dor ostidan qochgan odamlar. Vaziyat o'zgarib qolishi mumkin. Saylov arafasida biror gap chiqib qolmasin degan niyatda ma'lumotlarni to'pladim. Ijroqo'm raisi bu odamlarni Tursinovga qarshi qayramoqda. Bu erdagi ba'zi deputatlarni ham qo'lga olishganga o'xshashadi. Lekin viloyatda Tursinovning yuki og'ir...

Karimov Ziyomovga :

-Mayli ko'z-quloq bo'lib tur, biror gap chiqib qolmasin,-dedi.

-Bilasiz, Jizzaxda millatlararo masala nozik. Kichik bir uchqundan alangalanib ketishi mumkin. Shu bois viloyatning ikki kattasini o'zingiz kelishtirib qo'ysangiz, degan iltimosim bor edi.

-Bo'pti. Qo'lingizdan kelmagan yoki bajara olmagan ishingizni menga otasiz,- deya Ziyomovni chiqarib yubordi.

Odat bo'yicha oqshom Alimov bo'lib o'tgan voqealar haqida Karimovga hisob berdi. Jizzax masalasida alohida to'xtaldi.

-Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining operativ ma'lumotlari bo'yicha ijroqo'm raisi Olimov fitna uyushtirmoqda. Tursinov tumanma tuman yurib, saylov hozirliklarini ko'rmokda. Menimcha eng yuqori ovozni shu viloyatdan to'playmiz.

Shu sababdan saylov o'tguncha Tursinovni qo'llash kerak. U viloyatda chuqur ildiz otgan. Saylovdan keyin avval ildizlarini quritimiz, keyin o'zi haqida Siz nima desangiz o'shani qilamiz.

-Muborakda vaziyat qanday?

-Ochlikni davom ettirishayapti. Izn bersangiz nomingizdan Ibod To'raevni chaqirsam...

-Chaqiring, u bilan men ham gaplashib qo'yaman. U bolaning ko'zini ochib qo'yishim kerak.

-Muborakka Mirtemirni yuborsak yaxshi bo'lardi. U bunday ishlarni tinchitishga usta. Ziyomovning aytishiga ko'ra, Muborakning birinchi kotibi Mirtemir bilan birga o'qigan.

Karimov biroz engil tortgandek bo'ldi, chunki ichini tirnayotgan savolga javob topgandi. U saylov oldidan qo'rqqani deputatlar edi. Oldingi sessiyada saylov qonuni orqaga olindi. Endi yana biror bir bahona bermaslik kerak ularga, deb o'ylardi. Shu boisdan ham bugun maslahatchilari va hukumatdagi o'rinbosari Jizzax masalasida gapirisharkan, ko'nglining bir chetida Mirtemirga aytgan gaplari turardi. Mana endi Alimov buning ham echimini aytib turibdi.

-Men ham Mirtemirni Muborakka yuborishni o'ylab turgandim. Bu tashabbusni Ziyomovga sotaylik. Kraynov bilan ikkalasi ishni xamirdan qil sug'urgandek, ustalik bilan bajarishsin. O'rta biror bir gap chiqishini istamayman. Xo'sh, Jizzax masalasini tinchitish haqida qanday taklifingiz bor?

-Siz nima desangiz o'sha bo'ladi. Biz viloyatlarda sessiyalar o'tkazib, "obkom"larni hokimga aylantirish ro'yxatini aytganingiz bo'yicha hozirladik.

-Saylovdan oldin ularning birortasiga tegish kerak emas. Hozir Jizzaxda Tursinovni ishdan olamiz desak, mansab kurashi boshlanadi. Bu butun viloyatlarga ham tarqaladi. Yo'q joydan boshimizga og'riq olamiz. Modomiki, Jizzaxda Tursinov bilan Olimov o'rtasida munoqasha boshlangan ekan, temirni qizig'ida bosishimiz kerak. Ertagayoq viloyatda sessiya o'tkazib, Tursinovni hokim etib tayinlaymiz. Agar masalani bir-ikki kun orqaga tashlaydigan bo'lsak, hidi chiqib ketadi va yana shikoyatchilar oqimi boshlanadi. Darvoqe, "Chayon" bilan Jo'rabekovning bu masalaga aloqasi qanday?

Garchi Alimov ularning bu xususda Karimovning huzuriga kirib chiqqanlarini bilsa-da sar berib sir bermadi.

-Menimcha ular avvaliga Olimovni qo'llashdi. Uning Tursinovni yo'qotib, o'rnini olish havasi ham shundan keyin kuchaydi. Ammo Jo'rabekov viloyatga borib,

birinchilar bilan gaplashib kelganlaridan keyin Mavlonning fikrini ham o'zgartirdilar. U kishi bu masalalarda ob'ektiv yondashadilar. Shunga qaramasdan qo'limizda Tursinovga qarshi etarli dalillar bor. Saylovdan keyin hammasini bir sistemaga tushirib, Sizga beraman.

Karimov qora telefondan Tursinovga sim qoqdi. Salom-aliksiz gapira boshladi:

-Og'ayni, ishingiz bitgan. Qo'limizda juda ko'p hujjatlar bor. Istasak, ertagayoq ishdan olib tashlaymiz. O'ringizga ana u Olimovni nomzod ko'rsatishayapti, lekin men rad etdim. Chunki sizning sodiqligingizni bilaman. Siz bitta kemada ekanligimizni yaxshi tushunasiz. Ana u deputatning tekshirishlariga esa e'tibor qilmang. Ularni ham aldab turishimiz kerak. Ko'z-quloq bo'ling, tarafdorlaringiz xol qo'yib qo'yishmasin. Ertaga ertalab sessiyani to'plang, men boraman. Qolgan gapni o'sha erda gaplashamiz. Alimov etib boradi va ertalabgacha hamma ishni pishitinglar. Ijroqo'm raisini bo'sh qoldirmang, ko'nglini olishga harakat qiling...

G A G A R I N [4 1]

Ertalab Jizzaxga olib boradigan trassani tuman qoplagan edi. Karimov borayotgan mashina "tuman chiroq"larini yoqib olganiga qaramay sekin yurardi. Oldinda, orqada o'nlab mashinalarda muhofizlar, mirshablar.

Karimov Jizzaxga etib kelganda, uni viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi Tursinov va ijroqo'm raisi Olimov kutib oldilar. Lekin Qizil maydonda mingga yaqin odam to'plangandi.

-Bular qaerdan xabar topishdi? -dedi Karimov Tursinovga yuzlanib.

-Siz Jizzaxga kelganimda hammangizni qabul qilaman, degan ekansiz, -deya ijroqo'm raisiga savolomuz nazar tashladi Tursinov. -Tong sahardan maydonga to'planishdi. Karimov hech bo'lmasa vakillarimizni eshitsinlar, degan shart qo'yishdi.

-Shart-partni yig'ishtiring! Orqa eshikdan kiramiz.

Karimov Jo'rabekov va Mavlonni yoniga olib, yuqoriga ko'tarildi. To'g'ri Tursinovning xonasiga kirdi:

-Siz o'zi qanaqa odamsiz? Bir xotinni quvib, uyini o'zingizniki qilib olibsiz, bolalar bog'chasini ko'chirib u erni dam olish joyiga aylantiribsiz, otuvga hukm bo'lgan odamni keltirib direktor qilib qo'yibsiz, uch marta qamalib chiqqan kishini go'sht kombinatiga rahbar etib tayinlabsiz...

Tursinov boshini eggancha indamay turardi. Uning yonida esa ijroqo'm raisi vujudining og'irligini goh o'ng, goh chap oyog'iga tashlab "ko'rdingmi?" degandek Tursinovga masxaraomuz tikilayotgan edi. Karimov buni sezib qoldi va:

-Bu jinoyatlar faqat Tursinovga taalluqli emas, siz ham babbaravar aybdorsiz. Mahalliychilik o'yini qilayapsiz. Chetdan kelgan odamning ko'zi ko'r bo'lsa, sizniki ochiq bo'lishi kerak. Ikkalangizni ham bo'shatamiz. Chiqing xonadan,-dedi.

-Bularning o'rniga kimni tayinlaymiz,-dedi Karimov o'rnidan turib eshikni mahkamroq yopib qo'yarkan.

Bu savolga hech kim javob berolmadi. Shu payt Alimov papkasidan bir qog'oz chiqardi va Karimovga uzatdi.

“Maxfiy. Faqat Prezidentga.

Jizzaxda sessiya majlisi o'tkaziladigan zalda Sizga suiqasd uyushtirilishi mumkin. Shunday xabarimiz bor, lekin deputatlarni bir-bir tekshirib kiritishga vakolatimiz yo'q. Hatto tekshirib kiritgan taqdirimizda ham tashqaridan turib hujum qilishlari mumkin. Saharga qadar mingga yaqin insonni uyma-uy yurib to'plashdi. Bu ishni ijroqo'm raisi uzoqdan turib boshqarayotgan ko'rinadi. Deputat Meli Qobulov esa faollardan biri. Shu sababdan sessiya majlisini boshqa joyda o'tkazishni taklif qilamiz.

Milliy Xavfsizlik qo'mitasi.” Karimovning avzoyi yana ham buzildi:

-Almatov qani?-dedi.

-Tashqarida vaziyat birdan og'irlashdi. Almatov va odamlari shu ish bilan ovora.

-Endi ovora bo'lganini nima qilaman? Shu paytgacha onasinikida o'tirganmidi? Nega tinchitmadi? Nega yo'llarni bog'lamadi? Qo'rqdimi? Yoki bu bola xalqqa o'zini yaxshi ko'rsatmoqchimi? Tashqaridagi bu chollar nima istaydilar? Quloqni edilar-ku! Ana u Meliboy nima qilib ularning yonida yuribdi? O'shani ham tinchita olmadingizlar. Mahalla, mahalla, deydi enag'ar doim.

-Agar bu chollarning yo'li to'silsa, janjal chiqardi. Bizdagi xabarlarga ko'ra, ular har narsaga tayyor,-dedi Jo'rabekov.

-Bizdagi xabarlarga ko'ra esa mana bu binoni osmonga uchirishmoqchi,-deya Karimov qo'lidagi qog'ozni Jo'rabekovga qarab uloqtirdi. -Shuni bilar ekansiz, nega oldini olmadingiz? Qani gazeta? Ularni sharmisor qilib yozmoqchi edinglar- ku?

Karimov Mavlonga “Gazetani ber” degandek qo'lini cho'zdi.

-Tayyor! O'rinbosarim yozgan. Faqat sessiyadan keyin bosaylik, deb turuvdik,

-qaltiray-qaltiray javob qildi Mavlon.

-Posle pojara, chto li?! -o'shqirdi Karimov.

-Akajon...

-He, akajoningni... Qani maqola? Kim yozdi, deding?

-Sharof,-dedi Mavlon.

-Sharof Ubaydullaev,-deya tuzatdi Jo'rabekov.

-U ham Tursinovni yomonlab yurgandi-ku?

-Yo'g'e...-xavotir aralash so'z qo'shdi Mavlon

-Bo'pti, nima qilamiz? Bularni tinchitishni Almatovga topshirib bo'lmaydi, o'zingiz nazorat qiling. Odamlarni tarqatish kerak,-dedi Karimov Jo'rabekovga.

-Sessiyani qoldirsakmikan?-dedi Jo'rabekov.

-Kallani ishlatib gapirayapsizmi? Ertaga ana u olomon poytaxtga boradi. Keyin nima qilasiz? Saylov oldidan hammasini qamoqqa tiqasizmi? Nima bo'lganda ham sessiyani o'tkazamiz. Boshqa joy yo'qmi? Qani ana ular? Ikkalasini ham chaqiring.

Tursinov bilan ijroqo'm raisi shosha-pisha kirib kelishdi.

-Kechasi sizni odam deb telefon qilibman. Hammayoq tinch bo'lsa hokim bo'lasiz degandim. Yo'q, hammayoq tinch yaxshi o'tkazamiz degandingiz-ku? -Karimov ijroqo'm raisining ro'parasiga kelib, barmog'ini bigiz qilib uning ko'kragiga taqadi:

-Hokim bo'ladigan odam yon veriga qaramaydimi?

-Oqsoqol, men hokim bo'laman demadim-ku?

Karimov qo'llarini cho'ntagiga solib, xonada u yokdan buyoqqa yura boshladi. Keyin ijroqo'm raisiga qarab zaharxanda kuldi. Rais o'zini oqlamoqchi bo'lganini sezib hujumga o'tdi:

-Ikkalangiz ham bir-biringizdan yashirin huzurimga bormadingizmi? Tursinov "Meni ishlashga qo'yishmaypti" desa, siz "Odamlar orasida norozilik kuchaydi"

deysiz. Mana endi ikkalangizni ham bo'shatamiz. O'rtoq Olimov, tanlang qaerga borasiz? Siz ham o'rtoq Tursinov... Aslida bu chollarning talabi haq, Jizzax qarovsiz qoldi. Sharoit og'irlashib ketdi, mansablarni sotayapsizlar, odamlar oyligini vaqtida ololmaydi. Transportdan qiynalishadi, lekin buni aytish uchun ko'chaga chiqish kerakmi? Bilib qo'yinglar, men xalqning ortidan emas, xalq mening ortimdan yurishi kerak!

Ijroqo'm raisi biror bir tumanga ishga ketishga va o'zini oqlashga tayyorligini aytdi. Tursinov esa Karimovdan poytaxtga qaytarishni iltimos qildi. Karimov biroz hovuri pasayib:

-Kimni hokim qilamiz? -deb so'radi ulardan. Ijroqo'm raisi:

-Partiyamizning Jizzax shahar qo'mitasini boshqarayotgan yigit bu ishni eplay oladi,-dedi.

Ha, sen nima bo'lsa ham Tursinovdan qutulmoqchisan, deb o'yladi Karimov. Tursinovning o'rniga esa o'zingga yaqin nomzodni aytayapsan. Aslida senga o'xshaganlarni jazolashning bitta yo'li bor, u ham bo'lsa xayolingdagi planni parchalab tashlashdir. Qani, Tursinovning ham planini o'rganaychi, deya Karimov birinchi kotibning yoniga keldi:

-Xo'sh, sizning nomzodingiz kim?

-O'zingiz kimni tayinlasangiz men ham o'shaning tarafdoriman.

Ofarin, deb o'yladi Karimov. Yo juda ham pixini yorgan siyosatchisan yoki menga sodiq va samimiysan.

-Xo'p, sessiyani boshqa joyda o'tkazsa bo'ladimi? -so'radi u Tursinovdan.

-Shaharni nazarda tutayapsizmi?

-Shahardami, go'rdami, balodami, qaerda joy bor o'zi?

-Menimcha chetroqda o'tkazish kerak,-dedi Tursinov.

-Masalan, Gagarin tumani. Menga imkon bering, bir zumda avtobuslarni chaqiraman, deputatlarni olib borishadi.

-Bo'pti, -dedi Karimov, -lekin ana u Meliboyga o'xshagan deputatlar qolishsin.

-U qonunchilik komissiyasi raisi.

-Nima, u ham viloyat, ham respublika deputatimi?

-...

-Mayli, uning og'zini ijroqo'm raisi yopadi. Boshqalar esa qolishsin, poytaxtda laqillashgani ham etadi. Yo'llarga mirshab qo'yasizlar, biror bir mashina o'tkazishmasin. Ana u chollaringiz piyoda yurib etib borguncha sessiyani bitiramiz. Almatovga ayting, qo'shimcha kuch chaqirsin. Tartib intizom masalasini ijroqo'm raisiga topshiramiz. Qaerga borishini shunga qarab xulosa qilamiz. Gap-so'z chiqmasa, viloyatda, aks taqdirda ...

Karimov qo'lini uchoqqa o'xshatib havoda uchirdi-da, "Uzoq-uzoqlarga ketasan" ishoratini qildi.

Ijroqo'm raisi izn so'rab, chiqib ketdi. Orqasidan Karimov ko'zga tashlanmay xonaning burchagida o'tirgan Milliy xavfsizlik qo'mitasi raisiga "Nazoratga oling", dedi. Keyin Tursinovga yuzlandi:

-Do'stim, hammayoqni rasvo qilibsiz-ku?

-Oqsoqol, bir yil imkon bering, hammasini tuzataman. Keyingi vaqtda ikkihokimiyatchilik bo'lib ketgandi. Yakkahokimlik xususida bizga dars berdingiz, ko'zimiz moshdek ochildi. Sizning buyuk g'oyalaringiz bor. Ularni amalga oshirishda yoningizda bo'lish sharaf biz uchun. Sizni xalqimizning boshiga Xudoning o'zi yubordi. Siz bilan ishlagan odamning baxti bor. Ham qattiqqo'lsiz, ham mehribon. Ota bolasini ham urishadi, ham sevadi. O'ldirsangiz ham, kuldirsangiz ham jonim sizniki. Ket, degan kuningiz "g'ing" demasdan ketaman. Hozir o'zimni oqlashga imkon bering.

Karimovning “erigani” yuziga yoyilgan tabassumdan bilinib turardi. Bunday gaplarni har kuni eshitib tursa-da, takror tinglaganida rohat qilardi. Jo’rabekov bilan Mavlon esa tarvuzi qo’ltig’idan tushgan bolalardek hayron bir tarzda qarab turardilar. Tursinov yotib qolguncha otib qol degandek bo’sh kelmasdi:

-Men sizning komandangizdaman. Yo’lda poezddan tushib qolgan nomarddir, deb aytgan gapingiz qulog’imda. Hatto ishsiz qolsam ham, sizga sodiq bo’laman. Agar imkon bersangiz ishlarimiz yurishib ketadi. Saylovda xalqimiz sizga naqadar sadoqatda ekanini ko’rsatadi. Saylovni buzuvchilar ham dog’da qoladi.

Tursinov ustalik bilan Karimovning ko’ngliga kirib borayotgandi. Karimov muzqaymoq yalayotgan boladek uning so’zlariga mahliyo bo’lib qolgandi.

-Ayniqsa, hurmatli Sharof Rashidovning nomini tiklash yo’lida ko’rsatayotgan jasoratingiz, u kishi vafot etgan kun munosabati ila kelib, fотиha o’qiganingiz, oddiy

odamlar bilan birga o’tirib, bir chimdim bo’lsa-da osh eganingiz, xalqimizning ruhini ko’tarib yubordi. Mana bu besh-olti chollar bilan gaplashsam ham bu xususda tan berishadi. Lekin ularning cho’ntagiga pul tiqib, avtobus topib berib yurganlar bor. Sizdan ijozat olmasdan indamadim. Ular “bugun chollarni kaltaklashadi, shundan janjal chiqaramiz”, deb o’ylashgandi.

-Ular kim?

-Bittasi sobiq finotdel, ikkinchisi ..., -Tursinov alanglab atrofga qaradi.-Oqsoqol, imkon bering, o’zim hammasini tartibga solaman. Bir marta sharmanda bo’lishdan saqlab qoling...

-Meliboyvni nima qilamiz?

-Bilasiz, u biroz aqldan ozgan. Shuning uchun KGBdan haydalgan. Yolg’on- yashiq gaplar bilan xalqni aldab, deputat bo’lib oldi. Pulga hamma narsani sotadi. Tul xotindek janjalchi. Hamma undan qo’rqadi. Shu bois men o’zim uni ogohlantirib turishga majbur bo’laman. Mana bular esa Meliboyni menga qayrashadi. Endi tuhmat qilib yuribdi.

-U tuhmat qilgan bo’lishi mumkin. Ertaga ana u Mirtemir boshimizni og’ritmaydimi?

-Bu yog’i hal bo’lsa, Mirtemirni o’zim qo’lga olaman.

-Biz qo’lga ololmay turibmiz-u sizning tuzog’ingizga ilinadimi?

-Yangi, chet elga tayyorlangan engil mashinadan so’z ochgandim, mumdek erib ketdi.

-Yaxshi. Unday bo’lsa yaxshilab hujjatlashtirish kerak. Ilojini qilib gapini magnit lentasiga yozib oling. Seyfga tashlab qo’yamiz. Vaqti kelganda oyog’iga kishan bo’ladi. Xo’sh, o’rtoq Jo’rabekov, masalaning bu yog’ini nima qilamiz?

Karimovning fe'lini obdon o'rganib olgan Jo'rabekov temir o'choqda yaxshi qizigani, endi uni istagan tarzda egish payti etganligini angladi.

-Imkon bersangiz, yaxshi bo'lardi. To'polonchilarni birgalashib tinchitamiz. Bir yil ishlab bersin o'rtoq Tursinov. Gap-so'z ko'paysa, keyin olib tashlaysiz.

So'ng Jo'rabekov Tursinovga yuzlandi:

-Oqsoqol har kimga ham bunday otalik qilmaydilar. Buni unutsangiz... Jo'rabekov "ko'zingiz ko'r bo'ladi" degan so'zlarni yutib yubordi. Ammo Karimovning o'rniga qaror berib bo'lgandi.

Karimov Mavlonga qaradi.

-Ana ularni birgalashib tinchitamiz. Agar kerak bo'lsa o'rtoq Tursinov bilan taftish o'tkazib, bir-ikki aybdorni jazolab qo'yamiz,-dedi Mavlon.

-Deputatlarning ham tanobini tortib qo'yish kerak,-qo'shimcha qildi Karimov.

-Ular Sizdan so'z olganmiz, deb yurishibdi...

-Har bir aytilgan gap bajarilsa, hojatxonalar oltindan bo'lardi. Bizga esa oltin hojatxonaning keragi yo'q...

Shu payt ichkariga choy keltirishdi. Endi ular qirq yillik oshnolardek quyuq suhbatga berildilar. Suhbat davomida Tursinov eski partiyani tarqatib yuborib, o'rniga yangisini tuzish taklifini o'rtaqa tashladi.

-Kommunistik partiya tuzilishi, strukturasi jihatdan tengi yo'q partiyadir. Uning kadrlar bilan ishlash tizimi dunyodagi biror-bir boshqa partiyada yo'q,-dedi Tursinov.

-Gapni dissertatsiyangizga olib kelayapsiz-a? -jilmaydi Karimov.

Bundan ilhomlangan Tursinov o'zini Karimovga yana ham yaqinroq his ettirish uchun:

-Hozir hamma joyda demokratik harakat boshlandi. Partiyamiz to'la demokratik partiyadir. Siz har bir insonning qobiliyati, tashkilotchiligiga keng yo'l berayapsiz. Barcha masalalarni maslahat qilib keyin qarorga bog'layapsiz. Demokratiya degani boshqa yana nima beradi? Shu sababdan partiyamizning nomini demokratik partiya, deb o'zgartirsak, tarixga sizning ijodingiz bo'lib kirardi, o'zimizning Gagarin bo'lardingiz!

-Gagarin...,-Karimov miyig'ida kulib qo'ydi.- Partiya masalasida men ham shu fikrdaman. Lekin muxolifatdagilar ham partiyasining nomiga demokratiya so'zini qo'shib olishgan. Shu bois fikrimni ochiqqa urmay yurgan edim, -dedi Karimov piyoladagi choyni ho'plarkan.

-Bu muxolifat bizning ham boshimizni qotirdi. Fikrimizning bir chetida ariga o'xshab in qurdi. Ana u chollarni ko'chaga olib chiqqan ham o'shalar...

Karimov birdan tumshug'ini osib, boshini egdi. U muxolifat so'zini eshitgani uchunmi yoki Tursinovning gapni uzatib yuborganidan shu holga tushdimi, atrofdagilar payqashmadi. Tursinov hayiqqancha gapirishdan to'xtadi. Karimov biroz jimjitlikdan so'ng "Nega tinchib qolding?" degandek unga qaradi.

-Oqsoqol, shu ijroqo'm raisini bo'shatib bering, -dedi Tursinov yuragining ostida yotgan toshni tashqariga uloqtirib.

-Yo'q, -dedi keskin ohangda Karimov. -U sizga birinchi o'rinbosar bo'ladi. Burnini erga ishqab ishlatasiz.

-U Mirsaidov bilan birga...

-He, Mirsaidovni ham, uni ham ...

Karimov Mirsaidovning nomini eshitishi bilan qizishib ketdi.

-Bo'ldi, u ham ishlaydi. Bir-biringizni kovlashtirmay ishlaysiz. Umuman, sizlarni bir- biringizga qayrab qo'ysa, ish yaxshi ketadi. Poraxo'rlikni kamaytiring. Hammayoqqa yurtdoshlaringizni joylashtiribsiz. Ish qilsangiz, shunday qiling-ki hidi chiqmasin, og'ayni! Pul ko'payib ketgan bo'lsa, yigitlarga bering, fondga o'tkazing. Moskovlik muxbirlarni tinchitishsin, tanqidlari jonga tegib ketdi. Eshaklar bir narsa olsalar, o'n besh kun oxurdan bosh ko'tarmaydilar, keyin yana olish uchun hangraydilar. Sizlar esa pulni qaerga sarflashni ham bilmaysizlar. Omin, ketdik!

Karimov o'rnidan turdi-da, eshikka qarab yurdi.

-Mashinangiz orqa eshikda..., -dedi Mavlon.

-Nima oldingi eshikdan olib chiqmoqchimiding?

-...

Ular pastga tushganlarida, besh-olti nafar oqsoqol orqadagi hovlining bir chetida turishardi.

-Bular kim? -deb so'radi Karimov.

-Bular vakillar, -dedi orqadan yugurib kelgan ijroqo'm raisi. -Oqsoqollarga, sizlar kutib turinglar, nomingizdan vakillar Karimov bilan gaplashadi deb olti-etti kishini ichkariga oldim. Shu bilan g'ala-g'ovur tinchidi.

-Ofarin, biz sessiyani o'tkazib qaytguncha, bular kutib o'tiraverishsin, -dedi- da Karimov mashinasiga mindi. Shu payt oqsoqollar mashina tomonga qarab yugurishdi. Birdan oldinga chiqqan mirshablar ularni to'xtatib, ichkariga qarab sudrashdi.

Gagarin tumaniga qadar yo'llar uch halqada o'rab olingandi. Majlisda Meli Qobulov birinchi qatorda jim o'tirgandi. Umuman, "g'ing"d egan odam bo'lmadi. Karimov minbarga chiqib, Tursinovni viloyat hokimi, ijroqo'm raisini esa birinchi

o'rinbosar etib tayinlagani haqida gapirdi.

-Men bu haqda farmon e'lon qildim. Ana shu farmonni tasdiqlashlaringizni so'rayman, -dedi.

Hamma qo'l ko'tardi. Majlisdan chiqarkan, Karimov Mavlonga :

-Farmonni bugunoq e'lon qil. Keyin bugungi chislo bilan yozib kelsang, imzo chekib qo'yarman.

Karimov mashinaga minarkan, Jo'rabekovga:

-Keyinroq olib tashlaymiz. Hozir bo'shatsak, anavi isqirt chollar "Mana bizning talabimiz bajarildi" deb, dunyoni buzishardi. Qovun qovundan rang olar deganlaridek, keyin bu epidemiyani to'xtata olmasdik. Biz kimlarningdir talabi bilan emas, o'z xohishimiz, o'z kuchimiz bilan ishlayotganimizni ko'rsatishimiz kerak. Bu o'pkasi yo'qlarni biz emas, Tursinovning o'zi tinchitsin.

-Qoyil oqsoqol, Sizga tan beraman , -dedi lo'nda qilib Jo'rabekov.

-Mayli, maqolani nazoratga oling. Sarlavhasini yaxshi topibsizlar: "Avtobus hokimiyati". Endi avtobuslarda poytaxtga qatnaydiganlarga ham chek qo'yinglar. Sessiyada mana men ochiqcha aytdim, dodini Xudoga aytsin. Shikoyat bilan ish bitirish davri o'tdi. Kerak bo'lsa, o'zimiz aytamiz, ana o'shanda yozishadi.

Ular bir-birlariga qarab jilmayib qo'ydilar. Karimov Tursinovni yoniga chaqirdi-da:

-Ijroqo'm raisi ... e, o'rinbosaringiz qolsin, sizni esa olib ketamiz. Poytaxtda yangi lavozimni yuvamiz, -dedi.

-Shu erda choy aytganman.

-Bu erda choyni ham zahar qilishadi. Yuring, og'ayni, borib ellik-ellik qilamiz. Bugun mening hisobimdan ichasiz...

Mashinalar turnaqator bo'lib, yo'lga chiqdi. Ko'p o'tmay ular Jizzax chegarasida to'xtashdi. Negadir Tursinovni qoldirib ketishdi. Hokim mashinalar ortidan qo'l siltab qolarkan, u bilan birga mehmonlarni orqadan kuzatib kelgan viloyat rahbarlari ham saf tortganicha, qo'l siltashardi...

Z A N J I R L I D A R A [4 2]

Mirtemir Juma Bekni darrov tanidi. Talabalikning ilk paytlari bir yotoqxonada turishardi. U yillardan qolgan bitta xotirasi bor.

...Har yakshanba kuni mardikorlikka chiqishardi. Bir safar ularni eski uyni buzishga olib borishdi. Endi ish boshlashgandi ham mirshablar kelib, uy buzishni to'xtatishdi va sohibini tutib ketishdi. Ular qaytib mardikor bozoriga kelishganda "tarixiy" maydonda hech kim yo'q edi. Kutib-kutib yotoqxonaga qaytishdi. Cho'ntaklarida bir miri ham qolmagan edi. Yotoqqa cho'zalgancha xirgoyi qilib "shiftdan olma terishardi". Eshik taqillab, ichkariga qotgan non terib yuruvchi bola kirdi.

-Qolgan-qutgan nonlardan bormi? -dedi u har doimgi ohangda.

Juma Bek o'rnidan turib, bolaning elkasidagi xaltani oldi-da, ichidagilarni stolning ustiga to'kdi. Qotgan non burdalaridan bir qanchasini terib olib, qolganini siyirib, xaltaga soldi.

-Doim sen bizdan olasanmi, biz ham bir marta sendan olsak osmon uzilib erga tushmas, -dedi.

Bola Juma Bekka hayrat bilan mo'ltirab qaragancha, elkasini qisib, indamay chiqib ketdi. Juma Bek kosani suvga to'ldirdi-da, qotgan nonlarni ivitdi.

-Qani, turing, o'rdak sho'rva hozir, -dedi.

Oradan ko'p o'tmay Juma Bek boshqa fakultetga "ko'chib" ketdi. Ular ahyon- ahyonda uchrashib qolsalarda, endi boshqa-boshqa sohilning odamlari edilar. Bir necha yillardan keyin Mirtemir Juma Bekning qaysi bir raykomda bo'lim mudiri bo'lib ishlayotganini eshitdi, lekin uning bu erda ekanligi xayoliga ham kelmagandi. O'tgan safar Muborakka kelganida, Ibod To'ra:

-Yaqinda qo'shni tumandan raykom birinchi kotibligiga ashaddiy kommunistni keltirishdi. Bizga qarshi isyon boshlatdi u,-dedi.

Mirtemir u bilan uchrashmoqchi bo'ldi, lekin safarda ekan. Mana endi u qarshisida turibdi. Talabalik yillarida qilichdek ixcham edi. Endi semirib, qorin "bog'labdi". Faqat ko'zlarigina uning o'sha eski Juma Bek ekanligidan darak berardi.

Juma Bek Mirtemirni quchoqlab, "kuchimni ko'rib qo'y" degandek, bir aylantirib, belidan mahkam qisdi. Keyin:

-Sizni kutaverib, ko'zimiz sakkiz bo'ldi, kun oqshomga, tong saharga aylandi,

-dedi.

Ular ko'p gaplashmadilar. Mirtemir horib kelgani uchun raykomning mehmonxonasidagi o'ziga ajratilgan joyga o'tib, uxlamoqchi bo'ldi. Lekin uxlay olmadi.

Juma Bekning so'zlari quloqlarining ostidan ketmasdi:

-Men bobokalonimiz Amir Temurning tarixi bo'yicha doktorlik ishi qildim. Islom akaning maslahatchisi Ziyomov menga ustozlik qildilar. Tumanimizda "Zanjirli Dara" degan joy bor. Bu erni Amir Temur obod qilganlar, shu xususda turkum maqolalar yozdim. Ertalab Sizni o'sha erga olib boraman,-degandi u Mirtemirni mehmonxonada qoldirarkan.

Bu Mirtemirning g'amnok ko'nglida miltiragan ishiq yoqqandi. Har holda bu erga kelishim bekorga ketmaydi, bir tarixiy maskanni borib ko'raman, deb o'yladi u. Keyin Amir Temur haqidagi rivoyatlar xayolidan o'ta boshladi.

RIVOYAT

... Bir kuni Amir Temur uzoq safarga chiqibdi. Yo'lda "Tog' etagidagi Chambil elda tunab qolamiz" deb buyuribdi. Chambil elga etib kelganlarida, bu erdagi ahvolni ko'rib, Temur hayratlanib qolibdi.

-Bu shahar dunyoning eng go'zal eri, jannatmonand bog'lar, dillarni rom etguvchi bulbullar, musiqa-ohang, sas chiqarib oquvchi irmoqlar, Alpomishdek dev qomatli chinorlar, ichsang suvi umrni daroz aylaguvchi chashmalar maskani edi. Bularning hammasiga nima bo'ldi? Nega bu shahar vayronaga aylandi? -deya navkarlarini shaharga yuboribdi Temur.

Navkarlar shaharni aylanib, bir tirik jonga ro'baro' kelmabdilar. Hamma yoqda odamlarning va hayvonlarning suyaklari sochilib yotgan emish. Shaharning ko'chalariga dorlar qurilgan bo'lib, har bir dordagi iplarda suyaklar osilib turardi.

Navkarlar shaharning u burchidan kirib narigi burchidan chiqib ketar ekanlar, oniydan bir jonivorga duch keldilar. Odam desa odamga, hayvon desa hayvonga o'xshamaydigan maxluq. Bir qarashda maymunni eslatardi. Unga e'tibor qilmay o'tib ketishayotgandi, u qo'l siltadi. Shunda navkarlardan biri:

-Kimsan? -dedi unga.

-Menga kimsan deyishga hech kimning haqqi yo'q! Men bu shaharning hokimiman, -deya do'rillagan sas chiqardi u.

Navkarlar kulishdi:

-Shaharmish, vayrona-ku, demak sen-boyog'lisan!

-Men Amir Temurning yo'lini poylab yotibman, faqat u bilan gaplashaman. Dardimni unga aytaman. Siz esa yo'qoling, daf bo'ling!

Navkarlar Temurning huzuriga qaytgach, ko'rgan-bilganlarini unga aytib berishdi. Temur hayratlanib "hokim"ning yoniga bordi.

-Kimsan, nima uchun bu jannat el bu ahvolga tushdi? Nega insonlar qirilib ketdilar? Nega shahar vayronaga aylandi? -dedi.

-Menga Amir Temurdan boshqa hech kim savol berolmaydi. Yo'lingdan qolma, ey, musofir.

-Qarshingda Amir Temurning o'zi turibdi.

-Unday bo'lsa seni Allohning o'zi yubordi. Men Allohga yolvorib, jonimni olishini istadim. Vahiydan kelgan bir ovoz "Dunyoi-zaminning hukmdori Amir Temur sen tomonga kelmokda, boshingdan o'tganlarni unga aytib bersang, u seni o'ldirsa, o'shanda Alloh joningni olishi mumkin"ligini anglatdi.

-Xo'sh, boshingdan nima o'tdi?

-Ey, bu dunyoning hukmdori! Meni erinmay tingla. ...Yosh yigit edim. Ota-onamni sevmadim. Mayxo'rlikka ruju qo'ydim. Har kuni ota-onamni kaltaklardim, oxiri ular meni "oq qilib", uydin haydashdi. Darbadarlik kunlarimda bir boyning qizi bilan tanishdim. U meni odam qildi. Unga uylandim. Otasining yordami bilan Chambil elda hokimlikka qadar yuksaldim, lekin shaharda ishlar yurishmadi. Buning sababini tili burrolardan, kamchiligimni aytganlardan ko'rdim. Ularning tillarini kesdirdim. Biroq ishlarim oldinga ketmadi. Keyin olimu fuzalolar, dindoru ulamolar xalqni yo'ldan urmokda, deb o'yladim. Ularni zindonlarda chiritdim, lekin ishim yurishmadi. So'ngra qo'l ostimda ishlaganlarni aybladim. Shaharda dorlar qurib, ularni ostirdim. Dorlarda insonlar osig'lik turdilar, lekin ishim yurishmadi. Xalqim qirilib ketdi, hayvonlar yo'q bo'ldilar, buloqlarning ko'zi ko'mildi, og'ochlar qurib qoldi. Faqat men yashayapman. Na inson, na hayvonman!

Ey, bu dunyoning hukmdori, zulfiqoringni chiqar va boshimni kes! Meni bu dahshatli azobdan qutqar!

-Men seni o'ldirsam, qilichim harom bo'ladi, -dedi Amir Temur.

-Agar o'ldirmasang, menga bu azobdan qutulishning yo'lini ayt.

-Sen borib ota-onangning qabrini top, ular seni kechirsalar, o'shanda Asror

joningni oladi.

Temur shunday debdi-da, sudralgancha uzoqlashgan "hokim"ning orqasidan ikki navkarini yuboribdi. Navkarlar qaytib kelgach, Temurga:

-U sudrala-sudrala qabristonga etib bordi. Ota-onasining qabrlari cho'kib yotgan ekan. Ularning ruhiga yolvorayotgandi, boshi bilan chuqurga-qabrning ichiga tushib ketdi va o'sha erda o'lib qoldi, -dedilar.

Temur bilan suhbatlashib o'tirgan Mir Said Baraka:

-Bu oqpadar ekan, oxirida ota-onasining ruhi uni avf etdi va qiynoqlardan qutuldi. Lekin bu xalqning gunohi nima edi-ki, bu qadar Allohning qahriga uchrabdi?

Amir Temur biroz o'ylanib turdi-da, javob berdi:

-Alloh yer yuzidagi vakolatlarni insonlarga berar ekan, ularga aql, iroda baxsh etdi. Ammo ular buni bir chetga surib, bir oqqadarni elkalariga ko'tardilar. Bu esa Allohni g'azablantirdi. Oqibatda go'zal bir shahar bilan birga bu dunyodan silindilar, -dedi.

... Mirtemir bu rivoyatni nima uchun eslaganini o'ylab ham o'tirmadi, chunki xayol eshiklaridan ikkinchi rivoyat kirib keldi.

RIVOYAT

Amir Temur har payshanba kuni siyosiy mahbuslar bilan o'zi suhbatlashardi. Bu safar uning huzuriga uch kishini olib kelishdi.

-Bu Suzangaron mahallasidan. To'y-ma'rakada, juma xutbalarida "Vatanim, Vatanim, Vatanim" deydi. Vatan va millatni takror-takror so'zlarkan, ko'zlaridan yosh sizib chiqadi, ovozi xirillab qoladi. Ammo hayotda ko'p odamlarning dilini og'ritgan.

-Uning boshini tanasidan judo qiling,-dedi Amir Temur. Devonbegi ikkinchi mahbus haqida ma'lumot berdi:

-Bu Motrid mahallasidandir. Yig'inlarda, to'y-ma'ralarda "Xalqimiz ochdan o'lar holga keldi. Na bug'doy bor va na non. Hamma narsa urushga ketmokda" degani- degan.

-Buni eng chuqur zindonga tashlanglar! Ammo saroydagi eng totli taomlardan va jamiki noz-ne'matlardan istagani qadar berib turishni kanda qilmanglar, -dedi Amir Temur.

So'ngra Devonbegi uchinchi mahbus haqida ham qisqa ma'lumot berdi:

-Bu Bog'ishamol mahallasidan. O'tgan juma kuni xalq oldiga chiqib "Amir Temurning falon-falon farmonlari noto'g'ridir", dedi.

-Buni saroyga mushovir qilib ishga olinglar, -dedi Amir Temur.

Saroy a'yonlari Amir Temurning bu qarorlaridan hayratga tushdilar va Mir Said Barakaning huzuriga kelib, undan bu qarorlarni izohlab berishni so'radilar.

Mir Said Baraka:

-Birinchisi, Vatan, millatni o'ziga qalqon qilib olgan badbaxtdir. Bunday odamlar juda ham tahlikalidirlar. Ulardan ne qadar tez qutulsak, Vatan va millatga shu qadar xayrli bo'ladi. Ikkinchisi esa, hayotni qorindan iborat, deb tushunadi. Undaylarga hayot nima ekanligini anglatmoq kerak. Qorong'u zindonda yotsa, bu hayotda egulikdan boshqa juda ko'p aziz narsalar borligini tushunadi. uchinchisi esa, Vatan va millatga o'zini qalqon qildi. U Amirning farmonlaridagi

yanglishlarni aytar ekan, o'zini emas, mamlakatni o'yladi. Temur hazratlari ana shunga ko'ra, qaror berdilar,
-dedi...

S A M I M I Y A T [4 3]

Mirtemir tong bo'zarib qolganda, uyquga ketdi. Bir "chimdim" uyquni olmasdan uyg'ondi va "Zanjirli Dara"ga ertaroq bormoq uchun mehmonxona hovlisiga chikdi. Ammo Juma Bek va viloyatdan unga hamroh bo'lgan kishini uzoq kutdi. Nonushta tayyor bo'lgach, ular kirib keldilar. Choy ichib u yoq-bu yokdan suhbatlashgan bo'ldilar-da, yo'lga chikdilar. "Zanjirli Dara" uzoqda ekan. Ikki-uch soat deganda, arang etib keldilar. Atrofdan bir sardoba qoldig'i va bir daraxtdan boshqa hech narsa yo'q edi.

-Bu erdagi shahar qum ostida qolgan,-dedi Juma Bek. -Garchi cho'l havosi biqiq bo'lsa-da, ana shu tabarruk joyda tushlik qilamiz, -u shunday deb, shofyoriga imo qildi. Shofer yigit mashinadan dasturxon, ko'rpachalarni olib, daraxt ostiga to'shay boshladi.

-Aslida cho'lning sarrin shabadasiga teng keladigan narsa yo'q, lekin gazni qayta ishlash zavodidan chiqadigan zahar shu erlarga qadar etib keladi, -dedi viloyatlik hamroh.

Mirtemir ularning maqsadini tushunmadi. Nahotki, tushlik uchun bu erga kelishdi? Balki bu qumlar ostida biror bir shahar yo'qdir? Agar shahar qum ostida qolgan

bo'lsa, bu daraxt va sardoba nima uchun yo'qolmadi? Mirtemirning qalbida zilzila boshlandi. Zilzila kuchayib, umid va ilinj tog'larini yakson qilish barobarida, ko'ngil taxmonlarini ham buzib yubordi.

Shu lahzada u dunyoga sig'mayotgan edi. Nayzadagi quyoshning tig'ini, hududsiz cho'lning shabadasini va u shabada keltirayotgan yoqimsiz gaz hidini, xullas, hech birini his qilmayotgan edi. Yonidagi odamlar ham cho'l sarobi kabi goh ko'rinib, goh ko'zdan g'oyib bo'lardilar. Chunki uning butun diqqati zilzila markazida edi. Zilzila markazi to'fonga aylangan va bu to'fon ko'krak qafaslarini siqishtirayotgan edi.

Siyosat, dunyodagi eng jirkanch o'yin ekan, deb o'ylay boshladi u. Nega unga mahliyo bo'ldim? Uning qaysi raqsiyu, qaysi musiqasi meni rom etdi? Nahotki, siyosatga kirmasdan kurashish mumkin emas? Yo'q, siyosat butun jamiyatni o'z panjalariga bog'lagan. Uning chetida qolib, har qancha mujodala etma, natijasiz qolaverasan. Xo'sh, mana siyosatga kirding, qanday natijaga erishding? Balki ana ular ichlarida seni masxara qilib, ustingdan kulayotgandirlar? Chunki orqavarotdan qandaydir o'yinlar o'ynalayotganini his qilayapsan ammo bilmaysan. Mana bular esa, balki barchasidan xabardor?! Chiziqlarni, balki ana shular chizgandir?!

Yo'q, xaritani chizganlar boshqa, bular ham uning yo'lchilari.

Bularga, seni shahardan, odamlardan uzoqlashtirib, cho'lu-biyobonda tutish amri berilgan bo'lsa-chi? E, yo'q, birodar, o'z bahoingni juda ham oshirib yuborayapsan. Sen bu dunyoda va bu jamiyatda juda kichik odamsan, balki zarradan ham kichikdiansan?! Bu qadar odamni seni izingdan nega qo'yib qo'yishsin?

Nega qo'yishmasin? Bu dunyoda har bir zarraning ulkan tog'lar qadar ahamiyati bor, qolaversa, sen nega o'zingni bu qadar tubanlarda ko'rmoqchi bo'layapsan? Inson tog' ustiga, yuksaklikka ko'tarilgani sayin, ko'zlarda, nazarlarda kichrayib boradi, ammo o'z qalbida, ruhida esa yuksalish his etadi. Sen nega aksini istayapsan?

Mirtemir o'zi bilan o'zi olishardi. Go'yo ichidan boshqa bir Mirtemir ajralib chiqib, qarshisida o'tirgancha u bilan ayovsiz tortishardi.

Biz ayrildikmi, demak, ruh boshqa vujud boshqa bo'ladi, deb o'yladi Mirtemir. Bu esa insonning inqirozidir. Bitishi, tamom bo'lishidir. Vujud va ruh mujassam, bir butun bo'lganda, inson kuchga aylanadi. Bu kuchni engadigan, sindiradigan faqat o'limdir. Inson o'limdan boshqasiga engilmaydi. Lekin sen hali o'zing ham bilmaydigan voqealar ta'sirida engilib o'tiribsan. Aslida engilmoq ham muzaffarlikdir. Agar rostdan ham biror bir o'yin o'ynalayotgan bo'lsa, iste'fo beraman. Ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lishni yoki chizgan xaritalari bo'ylab yugurishni istamayman.

Bu paytda Juma Bek daraxt ostiga to'shalgan ko'rpachaga yonboshlagancha

tandirda pishirilgan kabobni pishillagancha eyayotgandi.

Nahotki, u qotgan non egan kunlarini unutgan bo'lsa? O'shanda bolakayning to'rvasidan olinagan qotgan non xuddi mana shu tandir kabob kabi unga lazzat bermaganmidi? Ammo o'shanda Juma Bekning yuzlarida sevinch va mamnunlik bor bo'lsa, hozir kibor va manmanlik ufurib turibdi.

Juma Bekning parvoyi palak, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi. Nega men uni yomon ko'rayapman, nega uni ayblayapman? Balki u hayotning mantig'i shundan iborat deb o'ylar va barcha harakatlarini to'g'ri deb bilar?! Qolaversa, doktorlikni yoqlabdi. Katta bir rayonning rahbari. Balki o'z yo'lida e'tiqodlidir. Buning ustiga senga nisbatan sovuq munosabatda bo'lgan emas. Eski do'stlar kabi bag'rini ochdi.

Mirtemir mushohadalarni bir chetga surib, tandirda pishirilgan uy nonidan emoqchi bo'ldi, ammo bir tishlam non labi bilan tomog'ining o'rtasida uzoq aylandi. Bolalik yillarini esladi. Uylarida non bo'lmagan kun, tomga chiqib "Menga issiq non pishirib beringlar" deb dodlagan ekan. O'shanda, rahmatli onasi xastalanib qolgani uchun, issiq non pishiradigan odam topilmabdi. Biroz ulg'aygach, bu voqeani aytib berishsa, qulog'iga qadar qizarib ketardi. "Ayb bolamda emas, men unga har kuni kulcha pishirib berib, yomon o'rgatib qo'ygandim", deya uning boshini silardi onasi.

Shu damda Mirtemir o'sha kulchalarni qumsadi. Balki, men tomga chiqmagandirman?! Agar tomga chiqadigan yoshda bo'lganimda, u voqea esimda qolardi. Balki, kulgi bo'lsin, deya bu voqeani o'ylab topishgandir?! Chunki kulcha nonni, ayniqsa, xamirning ustiga sharbat surib pishirilgan kulchani juda ham sevishimni bilishardi-da! Hovlimizning ichidan ariq oqib o'tardi.

“Oq ariq” edi nomi. Ariq bo’ylariga ekilgan gullar ham oppoq bo’lib ochilardi. Darvozadan kiraverishda esa, bir tut daraxti bor edi. U ham oppoq bo’lib pishardi. Men kulchani ariqning boshlanish qismiga tashlab, o’zim ko’cha orqali suvning hovlidan oqib chiqadigan joyiga yugurib borardim. Har doim kulchadan oldin etib borishga harakat qilardim. Obdon charchaganimda kulcha ham hil-hil bo’lardi. Keyin uni oppoq pishgan tut bilan, mazza qilib erdim. Eh, u kunlar, qayda-yu bu kunlar qayda?!

Bolalik taassurotlari Mirtemirning ko’nglidagi zilzila otashini biroz tushirdi. Shunga qaramay, u Juma Bek bilan ochilib suhbatlashmadi. Hatto uning gaplarini oxiriga qadar eshitishga urinsa-da, xayollari boshqa o’rmonlarga kirib ketardi.

Quyoshning “boshi uzilgan” paytda Juma Bek dasturxonni yig’ishtirishga buyurdi. Mirtemir bu erdan ortga qaytmasligini va poytaxtga ketajagini aytdi. Juma Bekning yalinib, yolvorishiga qaramay, ular shu erda xayrlashdilar. Juma Bek qo’l siltash o’rniga soatiga qaray-qaray qoldi.

Ular viloyat markaziga etib kelganlarida, poytaxtga uchadigan so’nggi uchoq ham allaqachon parvoz qilish uchun erdan ayrilgandi. Mirtemir yana bir kechani

mehmonxonada o’tkazishga majbur bo’ldi. Ertalab, nonushta payti radiodan eshitilgan xabar uning ko’nglidagi zilzilani o’n daraja oshirib yubordi. U portfelidan bir qog’oz oldi-da, ishdan ayrilajagi haqida ariza yozib, yana portfeliga solib qo’ydi. Keyin mehmonxona hovlisida o’ralashib yurgan bog’bonning yoniga keldi:

-Hormang, ota!

-Bor bo’ling, Mirtemirjon! Kelishingizni uch kundan buyon kutib yotgandik. Bir suhbatingizga ishtiyoqmamdmiz,-dedi.

-Yo’g’e, men o’zim bu erga kelishimni bilmasdimu siz qayoqdan bilardingiz?

-Ukajon, yer tagida ilon yursa, biz sezamiz. Bu erda uch kun oldin qimir-qimir boshlangandi. Otingizni eshitganlar jim turisharmidi? Menga qadar xabar kelib etdi.

-Bo’pti,-dedi Mirtemir, jahlini tishlab. -Otaxon, aytingchi, sizga mana bu daraxt qurib qolgan, qurtlagan, boqqa zarar berayapti, uni qo’porib tashla, deyishsa, Siz bu ishni bajarsangiz, lekin ertasiga kelganingizda mehmonxona mudiri qaytadan ekib qo’ygan bo’lsa, nima qilasiz?

-Nima ham qila olardim, uka? Kattaning aytgani aytgan. O’ynashmagin arbob bilan, deganlar. Qurigan daraxtga ham salom berib yuraveramiz.

-Izzat-nafsingizga tegmaydimi?

-Izzat-nafsni o’ylasak, och qolamiz. Bu erga kimlar kelib, kimlar ketmadi. Qancha- qancha izzat-nafsini o’ylagan odamlarni yo’qotib yuborishdi. Bu bilan meni izzat- nafsi yo’q odamga chiqarib qo’ymang. G’ururim ichimda. Ichimda ularni buralab- buralab so’kaman. Yoki alamimni chechangizdan, bolalardan olaman. Bu dunyoda yashashning boshqa yo’li yo’q. Sizga o’xshagan

yigitlarni ham sindirib yuborishadi. Bularga mevali daraxt emas, qurigan va chirigan daraxt kerak. Chunki istagan paytlarida, bir tepib yiqitadilar yoki axlatga olib chiqib tashlaydilar va ko'ngillari rohatlaydi.

Mirtemir bog'bondan bunday javobni kutmagandi. Nahotki, xalqimiz shu ahvolga tushib qoldi? Nahotki, hamma shunday o'ylaydi? Yo'q, ba'zilarning qomatini egishdi, ba'zilarning tafakkurini yo'qotishdi, ba'zilarning esa jasoratini o'ldirishdi. Ammo shundaylar borki, egilib, qaytadan qomatini rostlaydi, tafakkurini yo'qotib tafakkurini topadi, jasoratidan ayrilib jasoratli bo'ladi, ya'ni soxtalarini yo'qotib aslini topadi. Ana shundaylar boshqalarni ham o'z orqasidan ergashtiradi, deb o'yladi u qo'nalg'aga yo'l olarkan.

Mirtemir mingan uchoq poytaxtga qo'nishi bilan hukumat rahbarlariga xizmat ko'rsatadigan mikroavtobus tramplin yoniga kelib to'xtadi. Uchokda biror bir rahbar bormikan, deya Mirtemir yo'lovchilarga bir-bir nazar soldi. Yo'lovchilarning

hammasi oddiy insonlar edi. Uchoqdan tusharkan, mikroavtobusdagi qiz:

-Sizni kutib olishga chiqdik. O'rtoq Kraynov bir necha marta qo'ng'iroq qildilar. Prezident Sizni kutayotgan ekanlar. Mashina ham yuborishibdi, -dedi.

Mirtemir indamay mikroavtobusga chikdi va bu ham o'yinning davomi deb o'yladi. Bormasdan arizamni berib yuborsammikan?! Yoki borib hamma gapni Karimovning yuziga aytib, chiqib ketsammi?! Balki Karimov biror bir bahona o'ylab qo'ygandir? Bir haftadan keyin sessiya bor, saylov oldidan o'tadigan bu sessiyada muhim qonunlar qabul qilinadi. Balki sessiyada so'zga chiqib bu o'yinlarni fosh etarman? Shu sababdan Karimovning o'zi bilan uchrashib, arizani unga topshiraman.

Kraynov Mirtemir bilan ko'risharkan, uni Karimovning huzuriga boshladi.

-Xush keldingiz, -dedi Karimov. -Yo'qligingiz bilinib qoldi. Ertaga Iqtisod dorilfununida olimlar bilan uchrashuvim bor, mana bularga ma'ruza yozinglar desam, qog'ozni bo'sh gap bilan to'ldirishibdi, -dedi u eshik tomonni ko'rsatib.

-Yozib bergan bilan majlisda baribir uni o'qimaysiz, -dedi Mirtemir.

-O'qimasam ham ma'ruzadagi fikrlarni gapirib beraman.

-Jizzaxda ma'ruza qilishingiz uchun nutq yozib berganlar bundan keyin ham xizmatigingizni a'lo darajada bajarishsa kerak. Men esa iste'fo arizamni keltirdim.

Karimovning birdan jahli chiqdi. Yuzi sholg'omdek qizardi, ko'zlarining atrofiga tundlik yugurdi, baqirib yubormoqchi bo'lgan kishidek butun vujudidagi kuch bo'g'ziga to'plandi.

-O'tiring, -dedi.

Mirtemir Karimovning bu ohangiga parvo qilmay arizani uning yoniga qo'ydi.

-Siz bilan bugun kelib ertaga ketish uchun anglashganimiz yo'q! Sizni jasoratli yigit deb o'ylagandim. Sal narsaga qo'rqib qochishingizni xayolimga ham keltirmagandim.

-Men qochayotganim yo'q. Saroy o'yinlarini tark etayapman.

-Ofarin! Mana men saroy o'yinlariga chidab o'tiribman. Menga oson deb o'ylaysizmi? Men ham oddiy insonlar kabi choyxonaga chiqib choy ichishni, otamlashishni, tog'larga chiqib suhbat qilishni istayman. Lekin butun vaqtim mana shu tandirning ichida o'tadi. Ertalabdan oqshomgacha, oqshomdan ertalabgacha yonaman. O'ylaysizki Jizzax masalasida Sizni aldab, o'yin ko'rsatdik. Davlat ishlari oson emas. Ba'zilarini shart-shurt hal etish kerak. To'g'ri, Jizzax bo'yicha Sizning

fikringizni olishim kerak edi. Lekin mana bu ifloslar, -Karimov mana bu der ekan qo'lini bigiz qilib, xonasining past qismini ko'rsatdi. Xonasining ostida esa Mavlon bilan Alimovning kabinetlari bor. -Sizni Muborakka yuborishibdi. Men ularga Ibod To'rani va Mirtemirni chaqiringlar, birgalashib gaplashamiz, degandim. Meni yanglish anglashibdi. Bu Ziyomov degan eshakning dumiga supurgi bog'layman.

-Siz Tursinovning qilmishlarini yaxshi bilasiz...

-Ha, bila turib, hech narsa qilolmadim. Shuning uchun ham sizga o'xshagan yigitlarning yordamiga ehtiyojim bor. Mana sizning xabaringiz yo'q, menga ikki marta suiqasd hozirladilar. Ishga kelayotganimda, meni otishmoqchi bo'lishdi. Xayriyatki, qo'rimalar sezib qolishdi.

Mirtemir "Mantikris hangomasi" deya tarqalgan mish-mishni esladi. Bir kuni o'n uch -o'n to'rt yoshlardagi bola sport miltiqchasi bilan qush ovlayotgan ekan. Uni Karimov o'tadigan yo'lning yoqasida ushlabdi. Keyin otasini, akasini ham qamab qo'yishibdi. Balki o'sha voqeani aytayotgandir, deb o'ylagan Mirtemir:

-Yaqinda bo'ldimi? -deya so'radi.

-Bittasi ikki oy oldin edi, ikkinchisi ikki kun oldin, Jizzaxda ro'y berdi. Meni portlatib yubormoqchi bo'lishdi. Xudoga aytganim bor ekan, qutulib qoldim. Siz bo'lsangiz menga sitam qilasiz. Saylovni eson-omon o'tkazib olaylik, bu Tursinovlarni, ularning mafiyalarini sichqonning iniga kiritib yuboramiz. Lekin bilib qo'yishsin, men ulardan qo'rqmayman, oxiriga qadar kurashaman. Meliboy bilan ham gaplashdim. Bechoraning xalqdan boshqa tashvishi yo'q. Uni qilmishlari uchun KGBdan haydalgan, deb meni ishontirishgandi. Vaholanki, xastalanib, pensiyaga chiqqan ekan. Unday yigitlarni qo'llashimiz kerak.

Mirtemir o'ylanib qoldi. Karimov shu qadar samimiy va hayajon bilan gapirayotgan ediki, uning gaplariga shubha qilish mumkin emasdi.

-Mana ko'rasiz, ikki-uch yilda bu davlatni dunyodagi eng katta mamlakatlardan biriga aylantiraman. Xalqimiz jannatning ichida yashaydi. Hammaga uy beraman, yer beraman. Qishloqlarni obod qilaman, kolxozchining uyi bilan hokimning uyi bir xil bo'ladi. Boy -kambag'al

degan gap bo'lmaydi. Odamlar sud, prokurorning eshigida kutib o'tirmaydilar, onalar, bolalar kasalxonalarda vafot etmaydilar. Maktab bolalari paxtaga chiqmaydi. Faqatgina oltinlarni sotsak, bu masalalarni hal qilish mumkin. Yana sotadigan qancha-qancha narsalarimiz bor. Lekin ishlashga qo'yishmasa nima qilay? Bularning hammasini quvsam, yangi insonlarni, yangi kadrlarni qaerdan topaman? Sizga o'xshaganlarga ishonsam, yuzimga arizani otasiz. Iste'fodan oson ish yo'q. Lekin mas'uliyatni ko'tarish og'ir. Siz faoliyatingizni to'xtatmang, Tursinov masalasini davom ettiring, uni sharmisor qilamiz. Avval qo'lini, keyin oyog'ini kesaylik, undan keyin boshini uzamiz.

Mirtemir indamay Karimovning "nutq"ini tinglardi. Karimov minbarda yuzlarcha insonga xitob qilayotgandek, jo'shib gapirardi.

-Bilaman, siz menga ishonmaysiz. Oling, mana buni o'qing. Bu erda Shukrullo Mirsaidovning va umr yo'ldoshining kirdikorlari yozilgan. Xorijga borganda, necha tonna marvarid keltirganini bilasizmi? Hozir men uning gribonidan bo'g'sam, o'tirgan binomizni osmonga uchiradi, kulimizni ko'kka sovuradi. Ana u boboyni parlament raisi qilib qo'ygandim. Hammayoqni masxaraga aylantirdi. Bir jasoratli yigit- Polvonzodani Oliy sud raisligiga tavsiya qilmoqchi edim, "Millati boshqa, o'tkazishmaydi" deydi. Bu masalalarda sizlar yordam bermasangiz, kim yordam beradi? Mana, otasiga rahmat, Iso Xolis dardimni angladi, menga katta yordami tegayapti. Men ham bo'sh turayotganim yo'q, aytganini yaratib berayapman. Narigisi ham xizmatimizda.

Karimov birdan otdan tushib, ajriqda o'tirgan kishidek, chuqur nafas oldi-da, stolga engashgancha, og'ringan bir sasda, yolvorgan bir ohangda so'zini davom ettirdi:

-Men ham otaman! Bolalarim bilan o'tirib dardlashishni istayman, ular bilan bog'u- rog'larni kezigim keladi, lekin mana shu stolga mahkumman. Robotga o'xshab qoldim. Ba'zan hammasiga qo'l siltab, hayyo-huy deb chiqib ketgim keladi. Ammo bechora xalqimizning ahvoli nima bo'ladi? Jizzaxda chol-kampirlar bo'ynimga osilib yig'lashdi, rahmatli onamni esladim...

Karimovning ko'zlari birdan yoshga to'ldi. Mirtemir unga bir nigoh tashladi-yu boshini egdi. Haqiqatdan ham, men uni tushunmagan bo'lsamchi, deb o'yladi. Kap-katta odam, bir davlatning rahbari bekordan ko'ziga yosh oladimi? Rostdan ham atrofida qilarning hammasi shaxsiy manfaatdan boshqa narsani bilishmaydi. Bu odamning yuragida, balki, ezgu-niyatlar yashirindir?! Bir tomonda Moskov, ikkinchi tomonda eski zehniyatdagi insonlar uni qurshovga olishgan. Erkak kishining yig'lashi oson emas. Sitamlar, azoblar jonidan o'tib ketganki, ko'ziga yosh kelayapti. Shunday deymanu lekin hamma narsa uning o'ziga bog'lik emasmi? Qancha-qancha etuk, qobiliyatli insonlar chetda qolib, do'ppi keltir desa, bosh uzib keladiganlarni atrofiga yiqqan. Balki noilojlikdan shunday qilayotgandir?! Nima bo'lganda ham menga ko'nglini ochdi. Agar samimiy bo'lmasa, arizamga qo'l qo'yib, to'rt tomoningiz qibla, boravering demasmidi?! Yoki men shoshqaloqlik qildim-mi? Avval hamma gapni o'rganib, keyin qaror berish kerakmidi?

Karimov o'rnidan turib, ichkaridagi xonaga kirdi va yuzini yuvib, qaytib keldi:

-Uka, arizangizni olib qo'yaman. Siz ishingizni davom ettiravering. Yaxshi-yaxshi yigitlarni tanlang, menga tavsiya qiling. Birgalashib, bu kasalliklarni engamiz. Ko'rib turibman, charchab kelgansiz, borib dam oling, -dedi.

Mirtemir indamay chiqib ketdi. Uyiga kelgach, birdan xastalanib qoldi. Doktor chaqirishganida, “Yuragingizni davolashingiz kerak”, deya kasalxonaga olib ketishdi. U navbatdagi sessiyaga kelolmadi. Kasalxonadan chiqib, ish boshlagan kuni oniydan Karimov uning xonasiga kirib keldi:

-Sizga o'xshagan yigitlar kasal bo'lib qolsa, barakallo bizning holimizga,-dedi.
-Yuring, bir joyga borib kelimiz.

Karimovning mashinasi qo'nalg'a tomonga yurdi. U uchoqqa mingunga qadar hech narsa demadi. Uchoq ko'kka ko'tarilgandan keyin Mirtemirni yoniga chaqirdi:

-Shahringizga... shahrimizga boramiz. Ana u Po'latni ishdan bo'shatib kelimiz. Men uni yaxshi odam deb o'ylagandim, lekin ablah ekan. Hamma yoqni sotib edi, planlarni barbod qildi. Bu shahar va bu viloyat bizning iftixorimiz. Uni kelinchakdek yasatib qo'yishimiz kerak. Po'lat benzin stantsiyalari kalitini otasiga, mashina sotadigan joylarni ukasiga berib qo'yibdi. Men uni odam qilmoqchi bo'ldim, ammo yo'lga yurmadi. Mana bu hujjatlarni qarang, agar viloyat sessiyasida gap- so'z ko'payadigan bo'lsa, menga yordam berasiz. Har qanday qilib bo'lsa ham, u poraxo'r, o'g'ridan qutulishimiz kerak.

Mirtemir hujjatlarga nazar solar ekan Po'lat Majidovich ham qulog'iga qadar balchiqqa botgan ekan, deb o'yladi. Ilgari poytaxtda ishlaganida atrofiga hamtovoqlar to'plabdi. Keyin bu viloyatga yuborilganida, ana shu hamtovoqlarini ham birga olib kelibdi.

Mirtemir Po'lat Majidovichni birinchi kotiblikka olib kelishgan kunni esladi. O'shanda Karimov uni “halol, pok, vijdonli, o'zini emas xalqini o'ylaydigan odam” deb maqtagandi. Oradan bir yarim yil vaqt o'tdi. Endi u hakda teskari fikrlarni aytmokda.

Mirtemirning xayol surib qolganini ko'rgan Karimov unga so'z qotdi:

-Po'latni bu ishga qo'yguncha ona sutim og'zimdan kelgandi. Ammo ishonchni oqlamadi. Har kuni saunaga borib, maishat qilgandan keyin ishlashga vaqt qoladimi? -u shunday deb cho'ntagidagi suratlarni olib Mirtemirga uzatdi.

Mirtemir hayratlanib qoldi. Po'lat Majidovichning sauna ichidagi har bir harakati suratga olingandi. Chalqancha yotibdi, uni qizlar massaj qilishayapti, o'zini hovuzga tashlayapti, choy ichayapti, saunaning issiq xonasida bir musht bo'lib o'tiribdi... bunisini qanday suratga olishdi ekan? Ha, bularga qolsa ignaning teshigidek joydan ham suratga olishadi. Suratlarning boshqalarida Po'lat qip-yalang'och,

atrofida esa fohishasimon qizlar...

-Ha, -dedi Karimov. -Sulton kimu qul kimligini ana shundan bilsa bo'ladi. Boldirlari quyosh ko'rmagan qizlarni qo'yniga olib, emib o'tiribdi, bu bachchag'ar. Hayotning gashtini biladi enag'ar.

Mirtemir Po'lat Majidovichdan nafratlandi. Qancha-qancha insonlarning taqdirini shu axloqsizga ishonishgan. Nahotki, kirdikorlari ochilib qolishidan qo'rqmadi? Yoki o'zini hokimu mutloq deb hisobladimi? Ilgari ko'p mish-mishlar tarqalgandi, lekin bir rahbarning bu qadar tuban ketishini tasavvur qilolmagandi. Mana endi ko'rib turibdi. Bundan oilasi, farzandlari xabar topsa, nima qiladi? Nahotki, buni o'ylamadi? Bugun Karimov mana bu suratlarni viloyat deputatlariga ko'rsatsa, Po'lat qanday qilib bosh ko'taradi? Umuman, mansab degani shu qadar jodugarmiki, unga sohib bo'lgan inson o'zini, vijdonini, iymonini, axloqini bag'ishlaydi? Mansab nima sababdan insonni bunchalik tez buzadi? Ayb mansabdami? Yo'q, ayb insonning o'zida! U mansabga kelmasidan oldin ham yo'ldan chiqqan bo'lsa, keyin o'zini to'xtata olmaydi.

Demak, aybning teng yarmi shunday odamlarni mansabga tashiganlardadir. Ularning kimligini bilmasdan, o'rganmasdan mansab hadya etsa, urgani shu bo'ladi. Balki, Po'lat o'zini xon kabi his etishida boshqa sabablar ham bordir? Nima bo'lganda ham bunday xulqi buzuq, ishi bad, poraxo'r odamni Karimov kech bo'lsa-da tanibdi. Undaylarni almashtirib tashlash kerak degan fikrga kelgani yaxshi, xalq ham xursand bo'ladi.

Qirq besh daqiqa "pir" etib uchib ketdi. Ularni viloyat partiya qo'mitasining birinchi kotibi Po'lat Majidovich va ijroqo'm raisi Toshbo'ri Qilichev, Jo'rabekov va Mavlonlar kutib olishdi.

Mirtemir Po'lat Majidovichga razm soldi. Tuppa-tuzuk odamga o'xshaydi. Nevarasi tengi qizlar bilan kayfu safo qilishini xayolga ham keltirish qiyin. O'zini jiddiy, g'ururli tutmokda.

-Qilichevning xonasiga chiqamiz, -dedi Karimov markazga etib kelishganda.

Karimovning viloyat partiya qo'mitasi binosiga emas, ijroqo'm binosiga qarab yurishi Po'lat Majidovichni hayratlantirmadi. Mirtemir esa Karimovning sovuqqonligiga hayron edi. U hech narsa bo'lmagandek, yurib borardi. O'n ikkinchi qavatga ko'tarilgach:

-Nega tortishib yuribsizlar? -dedi Qilichevga.

-Yo'... Birgalikda ishlayapmiz, -deb javob qildi Qilichev.

Karimov uning xonasiga qadar indamay yurib bordi. Ichkariga kirgandan keyin:

-Shu bilan birga ishlab bo'ladimi? -dedi, ko'rsatgich barmog'i bilan tashqariga imo qilib.

-Nima qilaylik...O'zingiz maslahat berib, yo'l ko'rsatsangiz...-dedi Qilichev.

-Yo'l ham, maslahat ham shuki, endi bizning komandaga kirasiz, hokimlikni o'zingiz olasiz. Ha, uning millati nima o'zi?

Qilichev javob berishdan qochdi.

-Siz ham asli toza emassiz, menga uch-to'rt kishi shikoyat qilib borgandi. Sizni Mirsaidovni qo'llayapti, deyishgandi. Lekin ishonmadim. Bu degani ish bitdi degani emas. Yana tekshirib ko'ramiz, degani.

-Bilmadim... Yo'... -shivirladi Qilichev.

-Tuman birinchilari Po'latni talab qilib, menga maktub yozishgan. Sizni talab qilganlar ham bor. Uni ishdan olishimni kimdan eshitdi? Siz kimdan eshitdingiz?

Qilichev qo'rqib, rangi oqarib ketdi va:

-O'lay agar, xabarim yo'q, -dedi.

-O'lishning ham vaqti keladi. Kerak bo'lsa, joningizni o'zimiz olamiz. Hozir esa viloyatni va shaharni tozalash kerak. Lekin birdaniga emas, asta-sekin. Orqasida kuchi borlarning elkasini silab, keyin boplaysiz. Rahbar ham artist, ham tomoshabin bo'lishi kerak. O'zingiz o'ynab, o'zingiz tomosha qilasiz. Dushman bilan ham o'pishib, quchoqlashib yurish lozim. Shunday qilmasangiz, unga hukmron bo'lolmaysiz. Har bir tumanda to'rt-beshtadan o'z odamingiz bo'lsin. Hamma joyda o'zimizning "to'pchalar"imiz bo'lishi shart. O'shanda gap-so'z kamayadi.

-Qulluq, oqsoqol, -dedi Qilichev.

-Ha, nega o'tgan sessiyada so'zga chiqmadingiz? Qo'rkdingizmi? Jasorat yo'q sizlarda. Ana u eshak Po'lat ham tirjayib o'tirgandi. Ko'rdingizmi, bir o'zim hammasini tinchitdim. -Karimov shunday deb, ko'z ostidan Mirtemirga qaradi.

Mirtemirning avzoyi buzildi, lekin indamay o'tirdi. Karimov Qilichevni so'roq qilishda davom etdi:

-Bu erdagi deputatlar sizga quloq solishadimi o'zi? Qilichev shosha-pisha:

-Quloq solishadi, -dedi.

-Bo'pti, seni tabriklayman, bola, -deya Karimov o'rnidan turdi va Qilichevning elkasiga bir urdi-da, uni quchoqladi. Keyin ular o'pishdilar.

Mirtemir bu manzaraga hayratlanib qarab turar ekan, Qilichev uning yoniga keldi:

-Rahmat, -deya Mirtemirga qo'l uzatdi.

-Tabriklayman, -dedi Mirtemir sovuq ohangda.

Mirtemir Karimovning Qilichevni sensiragani haqida o'ylay boshladi. Demak, uni o'z komandasiga oldi. O'z mulki, deb hisoblay boshladi. Balki o'zini ota, uni esa bola, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak?! Nahotki, katta bir viloyatga rahbar bo'layotgan odam qullikni, tobelikni shu qadar

oson qabul etsa? Ertaga uning o'zi boshqalarga xuddi ana shu sahnani takrorlaydi. Odamlar ham qiziq. Mansabga mingan kishining ham oldidan ham orqasidan chiroq yoqishadi. Ham yurgan, ham yurmagan yo'lini supurishadi. Ishdan ketgan kuni esa, yuziga ham qarashmaydi. Salomni nasiya qilib, o'tib ketishadi. Balki ana shu holatning ham rahbarlarning qul bo'lib qolishlarida ta'siri bordir?!

Karimov Mirtemirga yuzlandi:

-Siz nima deysiz? Bunga ishonsa bo'ladimi?

-Men ko'qqisdan bir narsa deyishim qiyin. Ammo bu odam haqqida yomon gap eshitganim yo'q.

-Bizga ana shu fikringiz etarli, -dedi Karimov va Jo'rabekovni chaqirdi. U bilan Mavlon ham kirdi.

-Sizlar kutib turinglar, -dedi u Qilichev va Mavlonga.

Qilichev xonadan engil odimlar bilan chiqar ekan, Mavlon esa cho'kib qolgan odamdek, fil odim tashlab, chiqib ketdi.

-Bo'ldi, Qilichevni qo'yamiz, -dedi Karimov Jo'rabekovga.

-Yaxshi-yu... -Jo'rabekov pitirlab qoldi.

-Nima gap? Nega ishtoniga o'tirib qo'ygan boladek, tortinasiz? Rayonlarga chiqdingizlarmi? - Karimov jahl bilan so'radi.

-Mana, hamma "birinchi"lar Po'lat Majidovichni istashayapti, -deb Jo'rabekov qo'lidagi, ayrim joylari qizil rang bilan bo'yalgan qog'ozni Karimovga ko'rsatdi.

-O'zi uyushtirgan, -dedi Karimov uning gapini kesib.

-Ahvol og'ir, Qilichev biroz millatchi. Iso Xolis bilan aloqasi bor. Viloyat partiya konferentsiyasida ham millatlararo tortishuvni chiqargan shu. Esingizda bo'lsa, biz aytgan nomzodlar o'tolmay qolgandi. Sizning topshirig'ingiz bilan bu ishni arang to'g'rilaganmiz, -deya Jo'rabekov hujumga o'tdi.

-Aniqmi?

-Aniq. Mana, bir necha kishi yozib ham berdi. Qilichev o'z mafiyasini tuzib olgan. U hokim bo'lsa, boshimiz g'avg'odan chiqmaydi. Talabalarni ishga solib, shaharni boshqa millatlardan tozalayman, degan gapini "komitet" ham yozib olgan, -deya Jo'rabekov qog'ozlarni Karimovning oldiga qo'ydi. Ammo Karimov bu qog'ozlarga e'tibor qilmadi.

-Deputatlar bilan gaplashdinglarmi, ular nima deyishdi? -so'radi Karimov.

-Ular ham umidimiz Karimovdan. Boshimizga Qilichev degan baloni olib kelmasinlar, eskisi bilan eplab turibmiz, deyishdi. Agar uni bo'shatsalar, Karimovdan xafa bo'lamiz, degan gapni ham aytishdi.

Karimovga bu gap yoqmasdi:

-Xafa bo'lishsa... -U miriqib so'kib oldi.

-Shundayku-ya, lekin butun xalqning ko'zi bugun bizga qaragan. Agar ishimiz shu erda "proval" bo'lsa, "bular o'z yurtida so'zlarini o'tkazisholmadi" degan gap bo'ladi.

-Shunday ekan, nega deputatlarni tayyorlamadinglar? -dedi Karimov.

-Tayyorladik, hammasi sizni qo'llaydi. Poytaxtda oldingi sessiyada sizga qarshi bo'lgan harakatlardan ham g'azabda ular. Uch-to'rttasi gapiradi ham. Mahalliy televizorda ham ko'rsatamiz, -Jo'rabekov o'zini biroz "qo'yib" yubordi.

-Bu erda televizor bormi? -ajablanib so'radi Karimov.

-Ha, uch tilda ko'rsatuv beradi.

-Ko'rdingizmi, mana siz mendan xafa bo'lib yuribsiz, -deya Mirtemirga yuzlandi Karimov. -Men hatto qaerda televizor borligini bilmayman. Siz bo'lsangiz Muborakdagi televizorni yopib qo'yishlarini mendan ko'rgandingiz.

-U erdagi televidenie bilan bu erdagisining farqi yer bilan osmoncha.

-Osmon-posmoni yo'q, uka. U erda ham, bu erda ham odamni ko'rsatadi. Prezident kelib boshida qorovullik qilmaydi. Xalqingiz shu bo'lgandan keyin, Prezident nima qilsin? Mana ko'rayapsiz, bu erda ham tishimiz o'tmayapti.

Mirtemir kulimsirab qo'ydi. Karimov Jo'rabekovga qarab:

-Bulmasa boshqani qo'yaylik, -dedi, yana masalaga qaytib.

-Oqsoqol, Po'lat sizga sodiq. Sizni o'z otasi o'rnida ko'radi. O'l desalar o'laman, tiril desalar tirilaman, deydi. Viloyatni yashnatish haqida xalqqa va'da beraversinlar, agar bajarmasam, yigit emasman, deyapti. Saylovda ham, bu erda ham sizning asosiy "podderjkangiz" Po'latdir. Uning sadoqati samimiy. Har taraflama tekshirib ko'rdik. Men o'rtada kafilman.

-Mana bu hujjatlar, suratlarchi? Ular nima bo'ladi?

-Oqsoqol, bunday ahmoqchilikni biz ham, boshqalar ham qilgan. Lekin siz bag'ri keng odamsiz. Kimni kechirgan bo'lsangiz, Sizga sodiq bo'lib qolmoqda. Buni ham bir marta kechiring. Bu hujjatlar seyfda turganini bilib, u yana ham yaxshiroq ishlaydi, jilovi qo'lingizda bo'ladi.

-Mavlon qani? -so'radi Karimov.

Umrzoqov yugurib kirdi. U bilan ham savol-javob yuqoridagidek bo'ldi.

-Po'lat Majidovich tinchlikni saqlayapti. Hozircha ishlab tursin. Buzg'unchilarni bir taraf qilib olganimizdan keyin... -Mavlon gapining qolganini yutib yubordi.

-Yaxshi, unda Qilichevni nima qilamiz?

-Uni ham hozir chetlashtirib bo'lmaydi. Tarafdorlari ko'p. Biror yil ishlasin, keyin siljitamiz, -dedi Jo'rabekov.

Mirtemir Karimovning ko'ziga yosh olgan holati bilan hozirgi ahvolini taqqoslay boshladi. Karimov bulardan qo'rqadi, deyish mumkin emas. Hammasi uning yonida qaltirab turibdi. Bularga ishonadi, deyish ham qiyin. Hammasini bir-biriga qayrab qo'ygan. Yoki bular uyushtirgan fitna qarshisida Karimov ip esholmay qolayaptimi? Yo'q, bularning har bir odimidan xabardor. Nega unda har soatda turlanadi? Balki fe'l-atvori shundaydir?! Haqiqatdan ham, biror gapga "lov" etib, yonib ketadi. Ko'p o'tmay "gup" etib so'nib qoladi. Yongan paytida qarshisidagi odam ham, uning taqdiri ham qo'shilib yonib ketadi. So'ngan paytida esa yonishi kerak bo'lgan olovni ham o'chiradi. Balki, bu fe'l qaysidir ma'noda yaxshidir?

Ya'ni yolg'iz o'zigagina yaxshi, boshqalar uchun esa tahlikali. Ayniqsa, minglab- millionlab insonlarning qismatiga hukm qiladigan insonning fe'l-xo'yi ana shunday bo'lsa, hammaning joniga "voy".

Bunday rahbar bilan ishlash ham oson, ham og'ir. Tobe bo'lishni, qullikni sevganlar rohat qilib ishlaydilar. Birozgina o'z fikriga ega bo'lganlar, darrov o'jarga chiqadi yoki yo'qotiladi. Menimcha bu odam o'ta tahlikali. Meni ham aldab yuribdi. Bir kun kelib, kunini ko'rsatib qo'yaman, deb o'ylayotgani, zaharxanda ko'zlaridan sezilib turibdi. Bunday odamlar har qanday o'yinni, har qanday rolni mukammal qilib ijro etadilar. Ular uchun qabihlik va adolat, insof va diyonat, harom va halol, nur va soya, yaxshi va yomonning chegaralari yo'q. Bir zumda bu sarhaddan u sarhadga o'tib ketaveradilar. To'xta, to'xta, og'ayni faylasuf bo'lib ketding. Voqealar nima bilan tugashini kutmasdan, xulosani chiqarib bo'lding. Yana biroz tomosha qil, ana undan keyin mushohada yurit!

Bu paytda Karimov Jo'rabekov bilan suhbatlashayotgan edi.

-Demak, bu bola ham ablah ekanda-a?

O'sha sessiyadan oldin parlamentning sobiq raisi Ibrohimovni ziyorat qilibdi. Chol qulog'iga bir narsalar shipshitgan bo'lsa kerakki, u erdan chiqib, Mirsaidovning yoniga borgan.

Birov ishdan bo'shagandan keyin ham bulardan qutulolmaydi, deb o'yladi Mirtemir. Karimov ham haliga qadar Ibrohimovga kin saqlab yuribdi. Balki, kin saqlashining sababi, atrofida gilar uning nomini tez-tez eslatib turishlaridadir? Balki, Karimovning kin saqlaganini bilganlari uchun, uning nomini tez-tez takrorlashayotgandir. Xullas, bularni tushunish qiyin.

Mirtemir kasalxonada yotganida, Mirzaolim Ibrohimov ham xasta ekanligini aytishdi. Keksa odam, turgan bitgani hangoma, askiya edi. Hayotni jiddiyga olmasdi. Masxara bilan kun o'tkazardi. Nima bo'lganda ham, bir ziyorat qilib qo'yay, deb Mirtemir uning palatasiga keldi.

-E, xush kelding, bolam, -dedi Mirzaolim Ibrohimov o'rnidan turib.

-Palatagami yoki kasalxonagami? -askiya qilmoqchi bo'ldi Mirtemir.

-Kasalxonaga ham xush kelding, deyaverishim mumkin, chunki bu yer ana u yokdan tinchroq, - Mirzaolim Ibrohimov "Ana u yoq" der ekan, nimani nazarda tutganini Mirtemir angladi. -Aybga buyurma, bolam, kelganingni eshitganimga bir

hafta bo'ladi, lekin yuqoriga chiqolmayman. Zerikib ham qolgandirsan?

-Ha, javob berishmayapti. Alamni qalamdan olayapman. Oliy kengashdagi hangomalarni yozayapman, -dedi Mirtemir.

Mirzaolim Ibrohimov avval tirjaydi, keyin yuzi jiddiylashdi, kipriklari pir-pir o'ynay boshladi.

-Ha-ha, rosa hangoma kunlarni yashadik... Lekin men ham zerikib qoldim, koshki yozganlaringni bersang-da, bir miriqib o'qisam.

Mirtemir istamasada, Mirzaolim Ibrohimov asalariga o'xshab yopishib oldi. Ilojsiz qolgandan keyin, yozganlarini oqshom chog'i keltirib berdi. Ertalab xabar olishga tushganida, Ibrohimov xonasida yo'q edi. Mirtemir atrofga alanglab, qo'lyozmasini qidirdi. G'aladonning ustida turgan qo'lyozmaning o'n oltinchi sahifasiga qadar o'qilgani, varaqlarning teskari qilib qo'yilganidan ma'lum edi.

Mirtemir doktorlardan so'ragandi, ular Ibrohimovning qon bosimi oshib, reanimatsiyaga olinganini aytishdi. Mirtemirning xayoli qochdi. Reanimatsiya bo'limiga keldi. Doktorlar ichkariga kiritmadilar. Qaytib chiqayotgandi, hamshira uni chaqirdi.

-Sizni Mirzabek aka so'rayaptilar.

Xayoli parishon bo'lgan Mirtemir, oyoq uchida yurib, ichkariga kirdi. Mirzaolim Ibrohimov yotgan yotoqning tepasida yurak urishlarini ko'rsatib turgan jihozlar ishlab turardi.

-Bu erga kel, bolam, -deya, pichirladi Ibrohimov va qo'li bilan "Yonimga o'tir" ishorasini qildi. Mirtemir nima deyishini ham bilmas edi. Ibrohimov yostig'i ostidan gazetaga o'ralgan bir kitobni oldi.

-Qo'lingni shu kitobning ustiga qo'y, -dedi.

Mirtemir hayron bo'lib qo'lini kitobning ustiga qo'ydi.

-Endi qasam ich, men tirik ekanman bu yozganlaringni biror erda chop etmaysan.

Mirtemir yurak urishlarini qayd etib turgan jihozlarga qaradi. "Tiq", "tiq" etgan tovushlar tig' kabi fikrlariga sanchildi.

-Chop etmayman, -dedi.

-Xudoga shukur,-derkan, Ibrohimov hamshiraga yuzlandi. -Xonim, ananasni kes, bir tilim menga, bir tilim Mirtemirga ber.

Mirtemir hamshira deb o'ylagani, Ibrohimovning umr yo'ldoshi ekanligini angladi. Uning ham yuzi yorishgandi. Mirzaolim Ibrohimov o'rnidan turib o'tirib, ananasni miriqib edi...

Uch kundan keyin Mirzaolim Ibrohimov kasalxonadan chikdi. U shaxdam odimlar bilan yurib, chiqib ketarkan, orqaga qayrilib, Mirtemirga qo'l siltadi va kulib qo'ydi. Ibrohimovning bu qarashi unga "Qalay, bolam, yana bir hangomaga guvoh bo'ldingmi? Seni yana bir marta bopladimmi?" degandek tuyuldi .

Balki, Ibrohimovning masxarabozligi Karimovning jon-jonidan o'tgandirki, uning nomini eshitganda, o'zini tutolmay qolar? Lekin Mirzaolim Ibrohimov u qadar yomon odamga o'xshamaydi. Yosh, o'yinqaroq bolani eslatadi. Uning hangomalari kishining qalbiga og'ir botmaydi. Balki, har bir o'yinni samimiy o'ynaganidan bo'lsa kerak. Sahnada masxaraboz yoki askiyachi sizga qancha og'ir hazil qilsa ham, engil tortganingizdek, Ibrohimovga ham kin saqlolmaysiz, deb o'yladi Mirtemir. Ammo Karimov nega bu qadar uni sevmaydi? Umuman,u birovni sevarmikan? Menimcha, u odamlarni o'zi uchun yaratilgan unsurlar deb biladi. Shu bois ham unga birovning birovdan farqi yo'q. Istasa ishdan quvadi, istasa har qancha badkirkorga ham, katta lavozimlarni bag'ishlayveradi.

T E P K I [4 6]

Mana endi Karimov Po'lat Majidovich qolib, Qilichev ning ig'vosini qilmoqda.

-Qilichevni sessiyada sharmanda qilib, quvsakmikan? Yo'q, uni oldin bir tepkilashim kerak, -dedi Karimov.

Karimovning "tepkilashim" degan so'zi Mirtemirga kasalxonadagi yana bir voqeani eslatdi. U tush payti uxlab yotgandi.

-Mirtemir, Mirtemir,-degan tovushdan uyg'ondi. Bosh uchida televideniya ishlaydigan do'sti Otajon o'tirardi. Uni ham Karimov yaqinda devonga ishga olgandi. U shu qadar hovliqqan qiyofada edi-ki, hol-ahvol so'rashni ham unutib:

-Karimov meni tepkiladi, -dedi. Mirtemir kuldi.

-Ishonmayapsiz-a, rostdan ham orqamga tepdi. Jigartepada tuproq ko'chib, bitta qishloq yo'q bo'lganini eshitgan bo'lsangiz kerak. Qancha-qancha insonlar nobud bo'lishdi. Men ham muxbirlarni olib, o'sha erga bordim. Mutaxassislar "Endi

kelishingizning foydasi nima? Bu erda shtab tuzib olib, insonlarga uy qurib beramiz deganingiz bilan o'lganlarni tiriltira olmaysiz. Biz tuproq ko'chishini olti oy oldin devonga ma'lum qilganmiz", deya sitam etishdi. Men shu maktubning iziga tushdim, Alimovga qadar etib kelganini aniqladim. Keyin Karimovning huzuriga kirdim. Asl jinoyatchi shu erda ekan, degandim, "Sen hali meni jinoyatchi, deysanmi?"deya xonasidan tepib-tepib chiqardi. Sizdan maslahat so'rashga keldim. Nima qilay?

-Nima qilardingiz, -deya jilmaydi Mirtemir. -Karimov har kimni ham tepmaydi. Iftixor qilsangiz, arziydi.

-Rostdanmi?

-Yolg'oni bormi? -dedi Mirtemir kinoyaomuz.

Otajon yana hovliqqanicha chiqib ketdi. Mirtemir keyin eshitsa, u hamma joyda bu voqeani maqtanib, aytib yurgan ekan. Demak, o'sha Otajon, hech o'zgarmabdi. Karimovning tepkisi ham o'zgartirmadimi, demak, hech bir narsa o'zgartirolmaydi, deb o'yladi Mirtemir. Mana endi Karimov Qo'chqorovni tepkilashni orzu qilayapti. Balki, besh daqiqadan keyin orzu sarhadi kengayib, yana biror kishini tepkilashni istar. Eh, bu dunyoda g'urursiz odamlar ozmi?!

-Po'lat ham Shukrulloning yoniga borgan ekan-ku?

-U mening yonimga borgandi. Shukrullodan gap olish uchun, Po'latni uning huzuriga yuborgandim. Bu voqeani oldin ham sizga...

Karimov Jo'rabekovning gapini kesib:

-Xo'p, nima qilamiz? -deb soatiga qaradi.

-Qilichev hozircha qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib tursin. Oddiy o'rinbosar bo'lsin. Birinchi o'rinbosarlikka sizga sodiq bir odamni qo'yaylik, chunki mirshablik, prokuratura,"Komitet" uning qo'lida bo'ladi.

-Kimni qo'yamiz? -qat'iy ohangda so'radi Karimov.

Jo'rabekov Karimovga xolis ko'rinish uchun, bunday hollarda uning nazariga tushgan kishilarning ismini aytardi. Ikki kun oldin Karimov Jo'rabekov bilan Mavlonni bu erga yuborar ekan, ularga

aytmasdan devonda ishlayotgan Alisher Mardievni ham “yashirin topshiriq” bilan yuborgandi. Buni Jo’rabekov bilgani uchun:

-Alisher yaxshi yigit..., -dedi

-Alishermi? U devonda kerak, -dedi Karimov xomush ohangda.

-Hozircha ishlab tursin, keyin qaytarib olamiz, -dedi Jo’rabekov.

-Qani o’zi?

-Tashqarida.

-Sizlar chiqib turinglar, u kirsin. Alisher kirib, eshik yonida turdi.

-Yakinroq kel. Xo’p, Po’latni qo’yamizmi, Qilichevnimi?-deb so’radi Karimov.

- Qilichev sizga sodiq.

-Unisi-chi?

-U “Men Karimovdan ham, hech kimdan ham qo’rqmayman” degan ekan. Komitetning yozuvi bor.

-Nega shu paytgacha aytmading? Alisher qo’rqib javob berdi:

-Qo’lingizdagi hujjatlarning orasida matni bor edi.

-Bu erda millatlararo masala qanday?

-Tinch, faqat Po’lat Majidovich kavlashtirib yuribdi, -dedi Alisher past ovoz bilan.

-Gap bunday, shu erda qolasan. Po’latni o’zing yo’qotasan. Keyin shu joy seniki, bildingmi?

-Bildim, oqsoqol! -der ekan, Alisher o’zini yo’qotib qo’ygandek bo’ldi.

-Bor, Po’lat kirsin.

Po’lat Majidovich ko’pkarida terga botgan otdek, holsiz holda ichkariga kirdi.

-Xo’sh, nima qilamiz? -dedi Karimov.

-Uvla desangiz uvlayman, akilla desangiz akillayman, o’l desangiz o’laman!

Voh, bezbet, deb o’yladi Mirtemir. Mansab uchun it bo’lishga ham, o’lishga ham tayyor. Nahotki, inson zoti shu qadar tuban bo’lsa?! Yoki yillar, voqealar uni tubanlashtirib yuboradimi? Bir burda non, bir qoshiq suv hamma joyda topiladi.

Halol nonini eb, tiniq suvini ichib yursa bu kunidan ming marta yaxshi emasmi? Balki, bu insonlar uchun mansabdan ayrilish g'ururdan ayrilishdir? Ha, mansab bular uchun g'urur, hayot. Agar hozir Karimov butun xonumoningni o'rtaga qo'yasan, desa indamay rozi bo'ladi. Bular uchun sharaf, nomus degan tushunchalarning hammasi mansab bilan mujassamlashgan. Orqavarotdan qo'rqmayman, deb aytadi-yu, qarshisiga kelganda, itdek tili osilib, oyog'iga suykanadi. Bir bo'lak suyak uchun g'ingshigani-g'ingshigan.

Karimov Po'lat Majidovich bilan rus tilida gaplasha boshladi.

-O'l desam o'lolmayсан, nega men gapirganda jahling chiqadi?

-Oqsoqol, "Onangni..." degan so'kishni oldin eshitmagan ekanman, shunga biroz... O'shanda ahmoqlik qilib, telefonni qo'yib qo'ydim. Endi unday bo'lmaydi.

Mirtemir Karimovning bu erga kelishining sirini endi tushundi. Demak, Karimov Po'lat Majidovichni buralab so'kkan, u esa telefon dastasini qo'yib qo'ygan. Shundan keyin, Karimovning fig'oni sayyor bo'lib, bu erga tekshiruvchilarni yuborgan.

-Men onangni dedimmi, demak onangni (...)aman.

Po'lat Majidovich qizarib bo'zargancha, boshini egdi. Mirtemir o'rnidan turib, xonadan chiqib ketayotgandi:

-Qayoqqa, -dedi Karimov.

-...

Karimov kulib yubordi:

-Bo'pti, qayting, so'kishmaymiz. Men so'kmayin desam ham, mana bular majbur qilishadi. Bu eshaklar odamga o'xshab yursalar, men ham ularga odamga o'xshab munosabatda bo'laman.

-Bundan keyin... -Po'lat nimadir demoqchi bo'ldi, lekin Karimov uni gapirtirmadi.

-Mana bu doselarni qara, -dedi Karimov. -Istagan vaqtda seni qamoqqa tiqaman. Chirib ketguningcha, tomosha qilib o'tiraman. Kimdan, qancha pora olgansan, kimga, nima sotgansan, hammasi bor. Toza emassan. Avval tozalanib, keyin gapir, xo'pmi? Agar yana bir marta telefon dastasini qo'yib qo'yadigan bo'lsang, o'sha kun onangni (...)aman bildingmi?

-Yaxshi...

-Agar gapimni ikki qilsang, o'sha kun (...)aman bildingmi?

-Bildim!

Ruscha gapirarkan, Karimov shu qadar biyron edi-ki, uning so'zlariga hatto Po'lat monand javob topolmasdi.

-Men bilan o'ynashib bo'lmaydi, bilib qo'y, -deya so'zda davom etdi Karimov.

-Agar sodiq bo'lsang, hurmat topasan. Hammasi yaxshi bo'ladi, nima desang, qilib beraman. Xiyonat qilsang ... kuchimni ko'rding. Kelishdikmi?

-Kelishdik, -der ekan, Po'lat xursand bo'lib ketdi.

-Sen uchun Jo'rabekov oraga tushdi. U ham qil ustida, unutm. Sen yonadigan bo'lsang, u ham senga qo'shilib, jizg'anak bo'ladi.

-Rahmat, oqsoqol, rahmat!

-Ketdik. Hozir sessiyada sodiqligingni ko'ramiz, -dedi Karimov Po'latga.

-Qilichev nima bo'ladi? -deb so'radi Po'lat Majidovich.

-U ham, Alisher ham birinchi o'rinbosar bo'lsin.

-Nizomda faqat bir o'rinbosar ko'rsatilgan.

-Nizomni o'zgartirib beraman. Bu viloyatning ahamiyati katta. Bu erda ikkita birinchi o'rinbosar bo'lsa, osmon uzilmaydi.

Ular qo'l berishib, quchoqlashib, o'pishib oldilar. Mirtemirning Po'lat bilan ko'rishgisi kelmagani uchun, hech narsani eshitmagan va ko'rmagandek, derazadan tashqariga qarab turardi.

Sessiyaga kirish arafasida Jo'rabekov Po'latning qo'lini qisdi.

-Ertaga boraman, -deya shivirladi Po'lat.

-Shoshma, vaqtini o'zim aytaman. Avval Karimov bilan gaplashib olay, keyin seni xabardor qilaman.

Sessiyada Karimov uzoq gapirdi. Toshkentliklar unga hujum qilishganini alohida urg'u bilan ta'kidladi:

-Mana Mirtemir kabi ukalarimiz, hamma narsa yaxshi bo'lsin, deb o'ylashadi. Ammo ularning tanqididan boshqalar foydalanib qolmoqchi bo'ldi. Shu sababdan

men Mirtemirni kechirdim. Lekin o'z yurtimdan chiqqan yigitlar menga qarshi chiqishgani, qalbimni og'ritdi, -dedi. So'ng Po'lat Majidovichni hokimlikka, Qilichev va Alisherni birinchi o'rinbosarlikka tayinlagani haqida farmon chiqarganini aytdi.

-Qani qarsak?! -dedi Karimov

Zalda gulduros qarsak yangradi. Po'lat so'zga chiqib, Karimovning buyuk iste'dodi va tengsiz xizmatlarini ta'kidladi. Sessiya tugab, xayr-ma'zur qilindi. Poytaxtga kelgunga qadar, Karimov Mirtemirga hech narsa demadi.

Mirtemir, bu odam bilan ishlab bo'lmaydi, deya o'yladi. Devondan ketishim kerak. Lekin qaerga?!

Uchoq bulutlarning bag'rini tilib, erga yaqinlasharkan, har qanday yuksalishning bir tushishi bor, deb o'yladi Mirtemir. Karimov ham bugun yuksalishda, ammo bir kun qanotlari qayrilib, erga tushishi aniq. Lekin uning erga tushishi ham oson bo'lmaydi. Ortidan qancha-qancha falokat va vayronalar qoladi...

UCHINCHI KITOB [BOOK 3]

A R A F A D A [4 7]

Saylov Karimovning fikri-zikrini chulg'ab olgandi. Bir o'q bilan ikki qushni urishim kerak, deb o'ylardi u. Saylov sandig'idan istaganim chiqadi, lekin bundan foydalanishim zarur. Kamida o'n besh-yigirma yilni kafolatlashim kerak. Agar saylovni muqobil tarzda o'tkazsam, birinchidan, demokratiyani bahona qilayotgan G'arbning og'ziga latta tiqib qo'yaman, ikkinchidan esa atrofimdagi jumhuriyatlarning rahbarlarini mot qilaman, chunki ular muqobil nomzodlarsiz saylov o'tkazmoqdalar. Ikki-uch nomzodni o'rta qo'yaman, ba'zilar saylov arafasida chekinadilar, bu muxolifatning dod-voyini bosib yuboradi. Umuman muxolifatning shakar tomirini topib, ezib tashlashim shart. Bularning qon tomirini kesib qo'yish o'zimizning qonimiz kamayib ketmasligi uchun ham zarur.

Karimov "o'ng qo'li"ga aylanib qolgan Alimovni chaqirdi:

-Muxolifatning kuchi qaerda? – dedi.

-Asosan talabalar orasida tashkilotlanganlar.

-Ha, kuchli muxolifimiz talabalar. Ular esa poytaxtda, burnimizning tagida. Institut, universitetlarni viloyatlarga ko'chirmasak bugun qo'zg'alishmasa ham ertaga yoqamizga yopishishadi. "Qora kuchlar", dushmanlarimiz, xoinlar, muxolifat uchun ular har doim potentsial kuch. Ularni bartaraf etamiz. Ammo bu ishni saylovdan keyin amalga oshiramiz.

-Saylovda talabalar har qanday hunar ko'rsatishlari mumkin. Ularning va o'qituvchilarning oralarida odamlarimiz bor. Talabalar saylovda muxolifatni qo'llash uchun harakat qilishmokka. Ular muqobil nomzodlar uchun imzo yig'ishmoqda.

-Ular imzo to'playotgan bo'lsa, siz barmog'ingizni so'rib o'tiraverdingizmi? Biror- bir tadbir o'ylamadingizmi?

-Moskvada ishlab kelgan Saidjonning bu xususda jiddiy planlari bor. Uni saylovga tayyorgarlik bo'yicha talabalar shaharchasiga yuborgandim. Kechqurun qabul qilib, fikrlarini eshitsangiz, degan istagim bor edi, – dedi Alimov.

-Saidjon deganingiz ishga yangi olingan yordamchi bolami?

-Bola bo'lsa ham ancha quv chiqib qoldi. Bu muammo xususida ishimizni

engillatadiganga o'xshaydi.

-Bo'пти, kechqurunni kutib o'tirmaylik. Uni qaerga yuborgan bo'lsangiz, chaqirtiring,-dedi Karimov.-Saylov oldidan o'zimizning odamlardan ikki-uch kishini nomzod qilib ko'rsatamiz.

-Menimcha Iso Xolisdan foydalanish kerak. Ovmi odam, laqillatamiz.

-Prezidentlik havasiga berilib, chegaradan chiqib ketmasin. Gapirgan gapini bilib gapirsin, o'shanda o'n-o'n besh foiz ovoz beramiz. Iloji boricha o'zi tug'ilib o'sgan viloyatdan oldi, deymiz. O'shanda saylovning natijasidan uning o'zi ham shubha qilmaydi.

-Lekin xalq to'la sizga ovoz beradi, – dedi Alimov tomog'ini qirib.

-Bilaman, ammo dunyo bizdan yolg'onni istayapti. Ular rostga ishonishmaydi- ku?! Shu sababdan mening haqqimdan biroz unga beramiz, o'shanda demokratiya bo'ladi. Mayli, bu muhim emas, siz shu Saidjonni toping.

T A N G A [4 8]

Iso Xolis o'zi tug'ilib o'sgan viloyatga borishdan oldin Karimov bilan uchrashdi. Karimov uni quchoqlab, bag'riga bosar ekan:

-Men bilan orani buzmay tursangiz, kelajak sizniki. Men so'zida turadigan o'g'il bolaman,-dedi.

Iso Xolis miyig'ida jilmayar ekan:

-Biz partiyamizni endi qurdik, yaxshilab oyoqda turib olaylik. Ana undan keyin saylovga kirsak bo'ladi,-dedi. – Hozir sizning gapingizni ikki qilmaslik uchun rozi bo'ldim. Yurtimda o'tkazadigan uchrashuvlardan keyin nomzodimni qaytib olaman.

Aslida Iso Xolisni cho'chitayotgan muxolifatning boshqa qanotidan kelayotgan bosim edi. “Agar sen nomzodingni olmasang, diktatorning demokratik yo'l bilan saylandim, deyishiga sababchi bo'lasan. U butun dunyoni aldamoqchi,” deyilgan gaplar uni bezovta qilayotgan edi. Ko'ngli haqiqatdan ham saroy o'yiniga kirayotganini sezsa-da, balki bu o'yindan korli chiqarman, deya xavotirlarini mensimayotgandi.

-Saylov o'tishi bilan sizni Vazirlar mahkamasi raisining o'rinbosari qilib qo'yaman. Buning uchun saylovga kirishingiz shart. Aks taqdirda sizni qoralab yurgan tirranchalar ham mansab so'rab kelishadi. Ishonchim komil-ki, saylovda sizga

ham ovoz berishadi. Shuning uchun "Nomzodimni qaytib olaman", degan gaplarni bir chetga qo'ying, balki yutib qolishingiz ham mumkin. U holda men sizning maslahatchingiz bo'lib ishlayman. Faqat saylovoldi uchrashuvlarda bir-birimizning ko'nglimizni xira qiladigan gap-so'zlar aytmaylik, – dedi Karimov bamaylixotir ohangda.

-Bir partiyaning raisi, qolaversa, prezidentlik uchun nomzodini qo'ygan kishi Vazirlar mahkamasi raisining o'rinbosari bo'lsa, uning ustidan kulishadi, -Iso Xolis "savdo" qilishning payti ekanligini his qildi va Karimovning "oyog'ini bosdi".

Karimov mansab va'da qilishda saxiy edi. Shu bois Iso Xolisning "orqasini silay" boshladi.

-Chet ellarda prezidentlik nomzodlarga yirik miqdorda pul berishadi. Bu pora emas. Qo'llab-quvvatlash uchun xolisanillo, yurakdan, samimiyat bilan beriladigan narsa. Shu bahona bilan sizga ham ko'p narsa keladi. Chet elda vatandosh birodarlarimiz oz emas. Ularning yordami bilan oyoqqa turib olasiz. Qolaversa, sizni parlament raisligiga keltiraman. Ikkalamiz birgalashib ish yuritamiz. Hozir esa buni yuvaylik, – deya Karimov Iso Xolisni ichkaridagi xonaga boshladi. – Shohidlik uchun do'stingiz, hamyurtingiz shoir Omon Matchonni ham chaqiramiz. Ammo u ichkilik ichishga yaramaydi. Bir marta ichgandik, qizarib sholg'omga aylandi. Allergiyasi bor ekan.

Ular bir shishani bo'shatib bo'lishganda, Karimov Iso Xolisni quchoqlab:

-Uylarni oldingizmi? – deya so'radi. – Ikkalasini ham markazdan berishsin, deya buyurgandim. Olgan bo'lsangiz, keyingi qadahni shuning uchun ichamiz, – dedi.

Iso Xolis "Oldim, oldim!" deya qadahini ko'tardi.

-Chet eldan keladigan pullarga esa ikki-uchta hovli olib qo'ying. Endi kapitalizm tuzumiga o'tayapmiz. Boy bo'lmasangiz odamlarni orqangizdan ergashtira olmaysiz.

Iso Xolis Karimovning huzuridan chiqqanda, arang oyoqda turgan bo'lsa-da, Omon Matchonga:

-Safar Bekjonni top, – dedi.

Safar shamol "qilt" etsa, sakkiz kun uyidan chiqmay yotib qolardi. Shuning uchun ham uning ismini aytishganda, albatta "Nimjon" laqabi qo'shib aytilardi. Bora- bora bu uning taxallusiga aylandi. O'zi ham bu so'zni eshitganda, sevinadigan bo'ldi. Safarning otasi o'g'irlik qilib, qamalib ketgandi. Qamoqdan chiqib, uzoq yurtlarda bir ayolga uylandi. Safar o'sha ayolning "etagiga" osilgan edi. U ulg'ayib katta bo'lgach, o'gay otasining yurtiga qaytdi. O'gay otasi Iso Xolisning amakisi

edi. Iso Xolis Safarning boshini siladi. Safar uning yonida og'iz-burnini yalagancha, akillamay turadigan nimjon kuchukchadek, pildirab yurardi.

Iso Xolis o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga Safar bilan birga keldi. Ularni katta tantana bilan kutib olishdi. Uchrashuvdan oldin shahar aylanib, muzeyga kirishdi. Muzey mudiri tarixiy ashyolarni ko'rsatar ekan:

-Mana bu tangaga diqqat qiling, – dedi.-Bu tanga kimning qo'lida bo'lsa, hokimiyat ham uning qo'lida o'tar ekan. Tanganing ikki ming besh yuz yillik tarixi bor. U sof oltindan bosilgan bo'lib, juda ham inja naqshlar bilan to'ldirilgan. Insonning boshidagi sochni sanab bo'lmaganidek, bu tanga yuzidagi naqshlarni ham sanash qiyin. Bu qadar mahorat va bu qadar qobiliyat bilan tayyorlangan bu tanganing dunyoda tengi yo'q. Avvallari yurtimiz bir butun ekan, Sulton vafot etgach farzandlari orasida bu tanga uchun g'avg'o boshlanibdi. G'avg'o urushga aylanibdi va Sultonlikni Xonliklarga bo'lib yuboribdi. Xonliklar orasida bir necha yillar davomida ana shu tanga uchun omonsiz urushlarda daryo-daryo qon to'kilibdi...

Safarning ko'zi chaqnab ketdi. U pildiragancha Iso Xolisning yoniga keldi. Iso Xolis tangadan ko'zini uzolmay turgani uchun uni payqamadi ham. Safar Iso Xolisning qadimiy narsalarga o'chligini yaxshi bilardi. Uyi xuddi muzeyga o'xshardi. Qadimiy mis laganlardan tortib, olmos pichoqlarga qadar qator qilib, terib qo'yardi. Xotini Natalya ham ana shunday osori-atika ashyolarga havasmand edi. Shu sabab Safar birdaniga uch quyonni uraman, deb o'yladi. Tangani olsak, ham hokimiyatni qo'lga kiritamiz va akaxonim bilan “yangashka”ni o'zimga bir umrga bog'lab olaman, degan fikr xayoliga mahkam o'rnashdi. U aylanib, mudirning yoniga keldi:

-Siz, qaerdansiz? – deb so'radi.

-Shu yerda tug'ilib o'sganman, – dedi mudir.

-Hokimiyat doim boshqa viloyatdan chiqqan ajur-bujur odamlarning qo'lida bo'ldi. Doim bizni ezib kelishdi. Otamni ham o'shalar surgun qilgan. Bizni doim chetlab kelishdi. Mana endi oramizdan bitta lider chiqdi. Hammamiz tish-tirnoq bo'lib, uni qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Bu tangani uning kaftiga qo'ying, hokimiyat unga o'tsin,-dedi Safar.

Iso Xolis rostdan ham hokimiyat sohibi bo'lgandek, quvonib ketdi. Mudir esa shoshib qoldi. Nima qilishini bilmagan mudir, Safarning qulog'iga pichirladi:

-Bu tanga bu yerdan chiqsa, mening boshim uchadi. Shu tanga uchun muzeyga bir nechta qorovul qo'rganmiz.

-Siz ko'chadagi odamga emas, bo'lajak prezidentga berayapsiz. Bu muzey nima emish? Ertaga sizni ana shu muzeylar bo'yicha vazir etib tayinlaymiz. Alloh vakolatni bizga berdi, bu mamlakatni endi biz boshqaramiz,-dedi Safar bo'sh kelmay.

Oraga Iso Xolis qo'shildi:

-Hokimiyatni olganimizdan keyin Devonda bu tanga uchun maxsus ko'shk quramiz. Hokimiyatning bizga ana shu tanga bilan kelganini unutmasligimiz uchun bu ko'shkni ko'zimizga yaqin joyda qurdiramiz. Qolaversa, bu tanga o'z mohiyatiga xizmat qilishi kerak.

-Unday bo'lsa, chiqaverishda tangani ukamizga beraman, – dedi mudir ovozini balandlatmay. – Orqada odamlar ko'p. Tangani Safarbekka bersam, u kishi duo o'qib, sizning kaftingizga qo'yadilar.

-Oqshom, bu kishini ham uchrashuvdan keyingi ziyofatga olib kelasan, – dedi Iso Xolis Safarga. – Duoni o'zlari o'qiydilar. – U shunday deb xirillab kulgancha, muzeyning boshqa joylarini aylanmasdan orqaga chiqdi. Hali saylovga bir necha kun borligiga qaramay, Iso Xolis o'zini prezidentlardek his qila boshladi.

-Poytaxtga telefon qil. Bizni kutib olishga viloyat rahbarining o'zi chiqmaganini protest etishsin. O'rinbosarlarni ogohlantir, harakatni kuchaytirishsin, endi bo'sh kelish yo'q, – dedi Safarga.

Iso Xolisdan topshiriq olgan Safar pildiragancha, telefon qidirib ketdi.

GUGURT [49]

Alimov shosha-pisha Saidjonning xonasiga keldi:

-Telefon jiringlasa olma. Seni talabalar shaharchasida deb aytdim. Omading keldi jiyan. Karimov sendan talabalar shaharchasi bo'yicha fikr so'raydi. “Bu ishni bizga ishoning, hal qilamiz,-deysan.- Saylovdan bir hafta oldin talabalarni ta'tilga chiqaramiz. Shu bahonada oldindan ovoz berib ketishlarini ta'minlaymiz. Sandiq ularning kimligini ko'rsatadi. Agar ko'pchiligi muxolifatga ovoz bergan bo'lsa, o'qituvchilarning orasida odamlarimiz bor, kichkina janjal chiqaramiz va unga siyosiy tus berib, oliy o'quv yurtlarini viloyatlarga tarqatamiz”, – deb Karimovni ishontirasan. Talabalar ichida jiddiy norozilik bor. Gugurt chaqsang yonib ketadi. O'chirishni esa istaganimizdek amalga oshiramiz.

Ular bu fikrni ipidan ignasigacha obdon o'ylab olishdi. Keyin Karimovning huzuriga chiqishdi.

-Faqat gugurt chaqish saylovdan keyin,-dedi Karimov.-Talabalar shaharchasi – bomba. Bir uchqundan portlab ketishi mumkin. Shu bois uchqun yoqmasdan ishni

tutun bilan hal qilish kerak. Bu ishga Fozilbekovni ham safarbar eting. Agar bizning komandada bo'lsa o'zini ko'rsatsin. Boshqa hech kim bilmasin. Keyin voqeani “qora kuchlar”ga to'nkaymiz va ulardan ham qutulamiz, – dedi Karimov.

-Yana bir xabar bor, – dedi Alimov iymonib. – Poytaxtga keltiramiz, deganingiz qimmatbaho tangani Iso Xolisga berishibdi...

-Nega bu xabarni orqaga tashlab o'tiribsan? Etti kun uxlasang ham bunday ishning rejasi tushingga kirmaydi. Burnidan ilinibdi. Hozircha indamanglar. Vaqti kelganda, dorga osish uchun sabab bo'ladi bu. Men unga tangani qanday qilib kaftda tutishni o'rgatib qo'yaman. Ammo tanganing izini yo'qotmanglar, – dedi Karimov.

Alimov xonsiga qaytishi bilan Toshkent shahar hokimi MXX rahbari Alievni chaqirdi:

-Talabalar shaharchasida odamingiz bormi?

-ToshDU juda ko'p odamlarimzi bor.

-Janjalchi, shalaqi, buzg'unchisi bormi?

-Bo'lmasachi? Marat Zohidov bor. Esingizdami, uni Oliy Kengash raisiga qarshi qanday ishlatgan edik. Butun SSSR bo'ylab ovozasini chiqqan edi. U quturgan itdek gap, "Bos" dedikmi bosib, tishlagan joyini uzmasa qo'ymaydi.

-Bu gaplaringizni o'zi eshitmasin, keyin bizni ham tishlaydi.

-Ha, it egasini ham qopishi mumkin degan gap bor.

-Saylovdan keyin uni ishlatishimiz kerak. Ungacha ko'nglini ovlab qo'ying.

-Shahar hokimi Fozilbekovdan bitta engil mashina so'ragan ekan. Shuni olib bersak, hamma gapimizni qiladi.

-Bo'ldi. Unga ayting, saylovdan keyin "o'ynab bersa", engil mashina uniki. Adhambekka ham ayting, mashina tayyorlab qo'ysin.

Shundan keyin ular saylovdan keyingi "tomosha"ning rejasini tuzish uchun ichkari xonaga o'tdilar. Bu prezident devonida maxsus xizmatlar tomonidan eshitilmaydigan yakkayu yagona xona edi. Bu xonadagi gaplar eshitilmasligini Alimov va Alievdan boshqa hech kim bilmasdi.

B O Z O R [5 0]

Mirtemir iste'fo haqidagi arizani yozdi-da keyin yirtib tashladi . Harakatlarim yosh bolaning qilig'iga o'xshab qolayapti deb o'yladi. Har uch kunda ariza yozib yuraman-mi? Xo'sh, nima qilishim kerak? Baribir arizamni qabul qilmaydi, biror bahona topadi. Yuzini bujmaytirib, ko'zimga lo'q termulgancha aldaydi. O'zi ham rohat qilsa kerak: bu tirranchani boplab aldadim, deb. Aslida bu odam yo san'atkor va yoki rejissyor bo'lishi kerak edi. Teatr yoki kinoda rol olsa, uning mahorati oldida hech kim ip esholmasdi.

Inson gapirar ekan samimiy so'zlari qalbining darin nuqtalaridan oqib keladi. Yolg'on esa bo'g'zidan yuqorida paydo bo'ladi, shu sababdan ham umri kalta. Hatto yolg'onning muallifi

ham bir necha kundan keyin uni unutadi. Lekin Karimov farqli. Uning yolg'oni qalbidan otilib chiqadi, bu yolg'on ko'zlarida, yuzida, harakatlarida samimiyat tusini oladi. Shu bois ham u san'atkor bo'lganida manaman degan artistning luqmasini og'zidan olardi. Balki yaqin yuz yilda tengi o'rtaga chiqmaydigan o'yinchiga aylanardi.

Agar u rejissyorlikni tanlaganda, uning xayollarida tug'ilgan asarlar misli ko'rilmagan darajada mo'jizaviy bo'lardi. Voqealarning kutilmaganda o'zgarishi, hodisalarning shiddati, harakatlarda hech kimning xayoliga kelmagan burilishlar hammani lol qilib qo'yardi. U yaratgan kinofilm yoki teatrlar yillar davomida ekran sahnidan tushmasdi. E, e to'xta, sen ham ana u yosh iqtisodchi Farhod Ro'zievga o'xshab Karimovni Nobel mukofotiga nomzod qilib ko'rsatadiganga o'xshaysan. Bolta tushguncha kunda dam oladi, deganlar. Sen ham fursat topib xayolga berilib ketding. Vaholanki, boltaning zarbi yaqin! Bu zarbdan yo qutulishing yoki kundaga aylanib, chidashing, u bilan birga qon simirishing, oxir oqibatda chirib ketishing kerak. Lekin qanday qilib bu zarbdan qutulasan?

Mirtemir bir necha kun ishga chiqmadi. Devondan kelgan qo'ng'iroqlarga "xastaman" deb javob qildi. Yakshanba kuni edi. Yomg'ir yog'ayotgandi. Tashqaridagi rutubat Mirtemirning ko'ngliga ham cho'kkandi. U siqilganча yomg'irning yog'ishini kuzatardi. Qiziq, deb o'yladi u, kimdir yomg'ir tovushidan musiqa ohanglarini topadi, yana kimdir yomg'ir ostida shalabbo bo'lishni istaydi. Har holda dardi yo'q insonlarning orzusi bu. Dardlilar uchun esa yomg'ir ko'z yoshlarini eslatadi. Dardliga qo'shilib dunyo ham yig'layotgandek bo'ladi.

Saylov ham o'yinga aylandi. Yangi yil bayrami arafasida o'tgan saylovda dunyoga tomosha ko'rsatildi. Usti yaltiroq, ichi qaltiroq saylovdan chiqadigan natija hammaga ayon edi. Shunday bo'lsa-da maxsus senariy yozib, o'yin ko'rsatildi. Mirtemir shu lahzada saylov hangomalari haqida o'ylagisi kelmadi. Go'yo tashqarida yog'ayotgan yomg'ir bu xotiralarni yuvib ketayotgandek edi.

Telefonning jiringlashi yomg'irning saslarini yutib yubordi. Telefon qilayotgan Kraynov edi.

-Mirtemir aka, kechqurun Islom aka chet elga ketayaptilar. UzTAGni qayta tuzish haqida farmon loyihasi tayyorlashni istadilar. Qolaversa, siz bilan alohida suhbat qilmoqchilar.

-Bilasizmi,-dedi Mirtemir.-Sizga ochig'ini aytaman. Men Devonda ishlamayman.

-Bilaman, qiynalib yuribsiz. Lekin masalani bunday keskin qilib qo'yish mumkin emas. Qochish uchun ham avval yo'lni belgilash kerak. Tavakkal qilib bir ko'chaga kirsangiz u ko'cha borsa-kelmas yoki boshi berk bo'lishi mumkin. Bugun Islom akaning kayfi arshi-a'loda, nima istasangiz muhayyo bo'ladi. Hatto qochish uchun yo'l ko'rsat, desangiz ham yordam qiladilar, – dedi Kraynov.

Bular xamirdan qil sug'urishni bilishadi, deb o'yladi Mirtemir. Maqsadi meni Devonga chaqirish. Agar boshqa biri bo'lganda bahona bilan qutulish mumkin, lekin Kraynovning qopqoniga tushgan oyoqni siyirish oson emas. U baribir yo'lni topadi, yo'q deganingga ko'nmaydi. – Mirtemir aka, pod'ezdida mashina kutib turibdi, soqol olmasangiz ham bo'ladi, Islom akaning o'zlari ham uy kiyimida keldilar. Soqolni ham kechqurun yo'lga chiqishdan avval oladilar. Men UzTAGning rais o'rinbosarlarini chaqirdim, ular ishni boshlashdi. Sizga esa tahriri qoldi, – dedi Kraynov.

Shu payt tashqarida chaqmoq chaqib, yashin qorong'u bulutlar bag'rini tildi. Ayni hol Mirtemirning xayolida yashandi. Uning tuman kabi xiralashib qolgan xayol osmoni birdan yorishgandek bo'ldi. Karimovga o'z sohamda ishlash uchun ketaman, deyman, deb o'yladi u. Gazeta, radio yoki UzTAGga ishga o'taman. "ERK" gazetasiga ham bir necha marta taklif qilishdi. Xullas, ish topiladi. Nima bo'lganda ham Karimovdan uzoqlashish kerak va jangni uzoqdan turib davom ettirish zarur. Yaqinda tursang u chavaqlab tashlaydi. Ajdaho yoki devning yonida yurish har tomondan tahluka, chunki u oyoqlari ostini ko'rmaydi, yo'lidagi narsalaru borliqlarni ezib ketaveradi. Qolaversa, o'yinlarni uzoqdan ko'rsang farqiga borasan. Ichida yursang bilib-bilmagan holda o'yinchiga yoki o'yin ishtirokchisiga aylanasan.

Mirtemir Kraynovning qoidasiga rioya qilmasdan soqolini olib, keyin yo'lga chiqdi. Darhaqiqat, Devonda farmonning bir necha ko'rinishi hozirlangan edi.

-UzTAGni mustaqil tashkilotga aylantirish kerak, – dedi Mirtemir tayyorlangan matnlarni ko'zdan kechirarkan. Jamiyatning erkin bo'lishi, matbuotning mustaqilligidan boshlanadi. Hozir UzTAGhukumatning bir parchasi. Uning qo'l- oyog'idagi zanjirni echib yuborishimiz kerak.

-To'g'ri, – dedi ulardan biri. – Lekin mustaqil bo'lsak, och qolamiz. Hozir davlatning hisobidamiz, keyin pulni qaerdan olamiz? Biz zavod yoki fabrika emas, biz aqliy

mehnat tashkilotimiz. Shu bois davlat qaramog'ida qolganimiz yaxshi.

-Mustaqil bo'lsangiz zavod, fabrikadan ham kuchli bo'lasiz,-dedi Mirtemir hamkasbiga e'tiroz bildirib,-Mamlakatning yagona xabar markazi hisoblanasiz. Ham ichkariga, ham tashqariga xizmat ko'rsatasiz. Butun dunyoda xabar markazlari mustaqil. Har bir xabarni katta-katta mablag'ga pullaydilar. Haqqoniy, tezkor xabarlarangiz bo'lsa, ishingiz o'ngidan keladi. Qolaversa, xalqimizga haqiqatni etkazishingiz uchun yo'lingizda to'siq qolmaydi.

-Sizdan iltimos, shu masalani keyinroqqa qoldirsak, biz hozir mustaqil bo'lishga tayyor emas, – dedi ulardan biri. Qolganlari ham bu fikrni qo'llashdi. Mirtemir kuldi va:

-Qamoqdagi odamga "Boring, siz ozodsiz", deyilganda "Hozircha shu yerda qolay, ozod bo'lishga tayyor emasman" deb javob qilsa, kulguli ko'rinadi. Bugun mamlakatimiz mustaqil bo'ldi, nega siz mustaqil bo'lishni istamaysiz? Siz istamasangiz, balki Xabar markazida ishlayotgan minglarcha inson istar. Yoki ular ham istashmaydimi? – dedi.

Bu savol qarshisida ular jim bo'lib qolishdi. Birozdan keyin sukunatni Latif aka degan kishi buzdi. Bir paytlar Mirtemir Latif Rahmonovning nomini ko'p eshitardi. U katta-katta tanqidiy maqolalar yozardi. Har bir maqolasi shov-shuvga sabab bo'lar, barcha gazetalarda ko'chirib bosilar va hamma tashkilotlarda muhokama qilinardi. Keyinchalik bildiki, bu maqolalar Kommunistik partiya Markaziy qo'mitasida tayyorlanar ekan.

-Men o'ttiz besh yildan buyon qalam tebrataman,-dedi Latif aka.-Ozmi-ko'pmi obro' qozondim. Biroz tajribaga ham egaman. Bir manzilga yugurib ham borish mumkin, asta sekin yurib ham, ammo yugurib borganda yurak xurujiga uchrash tahlikasi bilan yuzma-yuz qilishimiz mumkin.

Prezidentimiz aytganlaridek: “Yangi uyni qurmasdan, eskisini buzib bo’lmaydi”. Qolaversa, biz G’arbda emas Sharqda yashayapmiz. Sharqning qoidasi har bir ishni astalik va ustalik bilan qilishdir. Hozirgi sharoitda demokratiyaning bizga foydasi yo’q yoki biz Sharq demokratiyasini o’rnatishimiz kerak.

-Men hali demokratiyaga qadar kelib etmadim, – Latif akaning so’zini kesdi Mirtemir. – Hali sizning mustaqilligingiz haqida gapirayapmiz. Eski-yangi uy masalasida esa tortishish mumkin. Masalan, eski uyni buzmasangiz yangisini qaerda qurasiz? Agar boshqa joyda eringiz bo’lsa, eskisida yashab yangisini bamaylixotir qurishingiz mumkin. Eski uyingizni buzib chaylada yashash yana ham tahlikasiz. Chunki eski uy nurab turibdi. To’g’rirog’i katta uy yiqildi. Xarobaning ichida qoldik. Shunga qaramay yangisini qurmasdan xarobadan chiqmaymiz, deyish kulgili, ya’ni achinarli hol.

-Bizga o’zimizdan kattalarning gapiga qarshi chiqish o’rgatilmagan. Bu G’arbga

xos hol. Sharqda kattalarning yo’liga yurish qoidasi bor. Bu to’g’ri qoidadir. Bizdan bir nechta ko’ylakni oldin yirtgan kattalarimiz tajribaga qarab ish ko’radilar. Bugungacha ularning yo’lidan yurib adashmadik.

-Yashang,-dedi Mirtemir, hayajonini yashirmay,-biz bugunga qadar o’n olti marta imperatorlik qurdik va hech biri uzoq yashamadi. Oxir-oqibatda parchalanib ketdik. Imperator o’lgandan keyin meros, mansab g’avg’osi boshlandi. Bir-birimizni edik. Sharq demokratiyasi shumi?

-Har qanday imperatorlik parchalanadi, bu tarixiy jarayon.

-Agar bugungacha birortasi yashaganda bu gapni aytmagan bo’lardingiz. Biz har bir hodisani oqlashni yaxshi bilamiz, ammo uning haqiqiy sabablarini qidirishga erinamiz. Balki shundandir tariximizni faqat boshqalar o’rgandilar.

-Bu binoda mening siz bilan tortishib o’tirishim aslida katta voqea. Lekin bu istisno. Mana Xabar markazimizda rahbar yo’q. Bugun Prezidentimiz Xabar markazini qayta tuzish haqidagi farmonga imzo chekish bilan birga bu erga rahbar ham tayinlaydilar. Bu rahbar hay’atga kiritilgan va kechqurun Islom Abdug’anievich bilan chet elga boradi. U yerda esa TASS bilan o’zaro hamkorlik haqidagi shartnomaga imzo chekadi. Men o’rgandim, juda ko’p davlatlarda Xabar markazi yarim rasmiy ekan. Turkiya demokratiyaga o’tganiga etmish yil bo’libdi-yu hali u yerda ham Xabar markazi to’la mustaqil bo’lgan emas.

-Men sizga yana e’tiroz bildirishga majburman. Chunki Turkiya hali to’la ma’noda demokratik davlatga aylanmagan. Yaqin o’ttiz yilda uch marotaba harbiy to’ntarishni boshidan o’tkazdi. To’ntarish davrining qilichi hech kimni ayamadi. Demokratiya tarafdorlari surgun qilindi, qamoqlarda azob chekdi. Shunga qaramay Turkiya rivojlanishdan to’xtamadi. Bugun Onaduli Xabar markazi yarim rasmiy bo’lishiga qaramay, butun dunyo kunlik xabarlarini undan sotib oladi. Chunki haqqoniy va tezkor xabar tarqatadi, hukumatning bo’yinturug’idan qutulgan. Hukumat istagan, avvalo ularning hukumati istashga jur’at qilmaydi, xabarni emas, balki bor narsani tarqatadi. So’zbo’yamachilik yo’q.

-Biz mustaqil bo'ladigan bo'lsak, tabiiyki, Xabar markazining rahbarini ham saylashimiz kerak. Jamoamiz shunday ham ikkiga bo'lingan. Oldingi rahbarning odamlari bir guruh, qolganlar yana bir guruh. Agar mustaqil bo'lsak, parchalanib, yo'q bo'lib ketamiz.

Mirtemir Latif Rahmonovning e'tirozi ortidagi haqiqatni angladi. Demak, bular uchun mustaqillikdan mansab afzalroq. Bularga xabar, haqiqat, adolat degan tushunchalar emas, mansab va qullik kerak, deb o'yladi. Men esa erinmay tortishib o'tiribman. Nahot-ki, Latif Rahmonov allaqachon Xabar markaziga rahbar etib tayinlandi? Yoki Karimov bugun ertalab uni suhbatdan o'tkazdimi? Hay'at, safar deb ishorat qilishidan masala hal bo'lgan ko'rinadi. Shunday bo'lsa-da, Mirtemir

ularning ko'ngliga qo'l solmoqchi bo'ldi.

-Latif aka, birinchi navbatda Xabar markazini mustaqil tashkilotga aylantirsak. Uning rahbarini saylash masalasini esa ikkinchi navbatga qoldirsak. Ya'ni tashkilotning nizomi, dasturi tayyorlangach va ular jamoada muhokama qilinib tasdiqlangach, ana undan keyin rahbarini saylashga o'tsak. Siz aytmoqchi eski uyni buzmasdan yangisini qursak. Bu ishga kamida bir yil vaqt kerak. Shu bir yilda parchalanishning oldini olasiz.

-Gap men yoki bu kishi haqida borayotgani yo'q. Ikkalamiz ham o'z o'rnimizda o'rinbosar bo'lib qolayapmiz. Bizga rahbar bo'lib Maqsad Qul borayaptilar. Bu farmon matnini ham u kishining o'zlari tayyorlaganlar. Shu bois bizning qo'limizdan hech narsa kelmaydi, – deya Rahmonov gapning po'st kallasini aytdi.

Qo'lingizdan ko'p ish keladi, deb o'yladi Mirtemir, sizga bu farmon loyihasining har bir so'zini himoya qilish topshirilgan. Shuning uchun har yo'lga bosh urayasiz. Sizga ham qiyin. Boshi to'qmoqning ostida qolgan ilonga o'xshaysiz. Jonimni qutqaraman, deya tipirchilaysiz. Lekin to'qmoqni ushlab turgan kishining maqsadi boshqa. U maqsadidan chekinmaydi. Baribir boshingizni ezadi.

-Mayli, siz boravering. Men farmon loyihasini imzolash uchun o'zim olib kiraman, – dedi Mirtemir.

Ular chiqib ketishgach, Mirtemir farmon loyihasini qaytadan yoza boshladi. Ko'p o'tmay Maqsad Qul kirib keldi.

-Ha, og'a, bu qadar ishga berilib ketibsiz? Yakshanbadan o'ch olayapsiz, shekilli?

-O'chni kimdan olayotganimni bilmaymanu lekin Sizni tabriklayman.

-Nima bilan?

-UzTAGga direktor bo'lib borayotgan ekansiz.

-Yug'-e, bunaqa xabar eshitganim yo'q. Qolaversa, u erga hech ko'nglim yo'q. Buning ustiga bizga yo'l bo'lsin.

-Markazning farmon loyihasini yozayapman. Mustaqil tashkilotga aylantirish bo'yicha band kiritdim. Har holda Karimov qarshilik qilmasa kerak. Siz nima deysiz?

-Albatta, albatta... – birdan rangi oqarib, lablari bo'zarib allanechuk holga tushgan Maqsad Qul, apil-tapil xonadan chiqib ketdi.

Xato qildim, deb o'yladi Mirtemir. Hoziroq u yugurib Karimovganing huzuriga kiradi. Xullas, bu ish ham chippakka chiqdi. Agar bular Karimovga "tushuntirib"

qo'yishmasdan oldin kirganimda, balki imzo chekardi. Endi ular bu ishni ham Karimovga "orqangizdan pichoq urish" deb anglatishadi. Karimov esa xuddi pichoq egan odamdek to'lg'onadi. Shunga qaramay loyihani tayyorlab olib kiraman, balki devondan ketishim uchun sabab bo'lar.

Mirtemir loyihani mashinkalash uchun kotiba qizga bergandi hamki, Kraynov "Sizni so'rayaptilar" deb qoldi.

-Hali loyiha tayyor bo'lmadi. Yarim soatdan keyin olib kiraman, – dedi Mirtemir.

-Loyihani istamayaptilar. O'zingiz bilan gaplashmoqchilar. Haqiqatdan ham Karimovning kayfi chog' edi.

-Bir necha kunki ko'rinmaysiz? – dedi Karimov o'rnidan turib, Mirtemirga qarshi yurarkan. – Hatto saylovdan keyin tabriklamadingiz ham.

-Shu erlardaman, -dedi Mirtemir past ovoz bilan.

-Har holda uydan chiqmay yotibman, demoqchisiz, -jilmaydi Karimov. – Sizni bugun UzTAGga direktor etib tayinlamoqchi edim, lekin dushmaningiz juda ko'p ekan. Hamma qarshilik ko'rsatdi. Taklifim bilan yolg'izlanib qoldim. Demokratiya degani shunaqa. Boshqalarning fikriga ham quloq solish kerak. Agar faqat mening fikrim o'tadigan bo'lsa, u holda diktatura bo'ladi. Menga qolsa, Po'lat Majidovichni ishdan olib, qamatib, chiritib yuborardim. Lekin ko'pchilik uning tarafida. Ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi demokratiyaning bosh tamoyilidir. Mana endi siz haqingizda ham shunday bo'ldi. O'zingiz nima deysiz?

Yo, tavba, deb o'yladi Mirtemir. Bu odam shaytonga ham dars beradi. Qolaversa, mening xayolimdan o'tgan fikrni qanday uqib oldi? Yo'q, demak bu fikr oldin bularning xayolidan o'tgan va so'ngra Kraynov yoqqan sham yorug'ida men ham shu ko'chaga bosh suqqanman.

-Lekin sizni tabriklayman, ko'pchilik yo radioga va yoki televideniaga borishingizni istayapti.

Karimov Mirtemirga fikr yuritish uchun vaqt bermasdan so'zida davom etdi.

-Faqat Erkin Samandarov qarshilik qilayapti. Hozir uni topib gaplashamiz.

U shunday deb qabulxonaga chiqdi va Kraynovga “Samandarovni top”, deya qaytib ichkariga kirdi. Karimov joyiga borib o’tirishi bilan Kraynov ichkariga kirdi:

-Samandarov mashinasida. Uni bog’ladim,-dedi.

-Ukajon, sizdan iltimosim bor, Mirtemirning nomzodiga qarshilik qilmasangiz. Uni televideniaga rahbar qilib jo’natayapmiz. Ertagayoq olib borib tanishtirsangiz, – dedi Karimov muloyim ohangda.

U Samandarov bilan gaplashib bo’lgach, Mirtemir:

-Bu idorani mutlaq qayta tuzish kerak,-dedi unga.-Hali Moskovning nizomi bilan ishlayapti. Menimcha avval bu tashkilotning tuzilishi, nizomi, tizimi haqida hukumat qarori chiqarilishi va undan keyin u yerdagi kadrlar masalasi ko’rib chiqilsa, yaxshi bo’lardi.

-Bugun kechqurungacha hammasini tayyorlaysiz. Men imzolab ketaman. Qaror emas farmon tayyorlang. Faqat sessiyadan keyingi uchrashuvimizda talab qilinganidek, bu tashkilotni mustaqil qilishga qarshiman. Bu davlat idorasi. Televideniini qo’lidan chiqarib yuborgan davlat qudratidan ayriladi.

-Biz bu tashkilotning mustaqilligini talab qilganimiz yo’q. Davlat televideniesi ham qolsin. Yonida mustaqil televidenie tuzilsin. Masalan, men o’sha mustaqil televideniini oyoqqa qo’yib beraman.

-Mustaqil televidenie tuzish uchun davlatimizning imkonlari yo’q.

-Zotan, bu televidenie o’z nomi bilan mustaqil bo’ladi. Ham iqtisodiy, ham mafkuraviy jihatdan.

-U juda katta mexanizm. Uni oyoqqa qo’ya olmaysiz.

-Bizga faqat ruxsat bersangiz, bas. Butun dunyoda televidenieler reklama hisobiga yashaydilar. Biz ham qaldirg’och davlatimizning qaldirg’och televideniesini reklama hisobiga yashatamiz.

-Mayli, farmonni tayyorlang, lekin hozircha bitta kanalga izn beraman. Davlat televideniesining bir kanalini mustaqil qilamiz. Bu iqtisodiy kanal bo’lsin. Qolganini esa asta-sekin amalga oshiramiz. Uzoq’i bilan uch yilning ichida bir emas, o’nlab mustaqil televidenie ochib beraman. Hozir esa davlat televideniesi nomini o’zgartirish haqida o’ylang!

Mirtemir xonasiga keldi-da, televidenie va radio qo’mitasi raisi Ganja Yoqubovga sim qoqdi:

-Tashkilotning nomini o’zgartirish bahona, – dedi u.-Katta meni ishdan quvmoqchi. O’rnimga Hayitboevni tayinlamoqchi. Sizni esa unga o’rinbosar qilib yuboradi.

-Karimovning ichiga kirib chiqdingizmi? Muncha xabarni qaerdan oldingiz?

-Shofyorlaridan, – deya kuldi Ganja Yoqubov. Keyin shu haqdagi latifani aytib berdi.-Yirik bir viloyatning rahbari ertalab ishga borayotlsa, shofyori “Xo’jayin, bugun plenum bo’ladimi?”-deb

so'rabdi. "Ha, plenumni tush ko'rdingmi? Men chaqirmasam, plenum to'planadimi?-debdi boshliq. Birozdan keyin shofyor yigit: "Xo'jayin, bugun sizni ishdan olisharkanmi?"-deb so'rabdi. "Nafasing o'chsin!"- debdi boshliq. Lekin shu kuni oniydan plenum o'tkazilib, boshliqni ishdan olishibdi. Taxtdan tushgan boshliq sobiq shofyorining yoniga kelib, "Men eshitmay kolgan gaplarni sen qaerdan eshitganding?"-deb so'rabdi. "Bozordan", deb javob qilibdi shofyor. " Unday bo'lsa, bozorga borib bilib kelsangchi, meni endi qaysi ishga qo'yisharkin?"-debdi sobiq boshliq. Shofyor "Sizni qamasharkan", der ekan, shu payt ikki mirshab kelib sobiq boshliqning qo'ltig'idan ushlabdi...

Ganja Yoqubov o'zi aytgan latifaga o'zi miriqib kular ekan, Mirtemir unga askiya qildi:

-Shofyoringizni bozorga yuborsangiz-chi, balki qaerga borishingiz ham aniq bo'lib qolgandir.

-Aniq bo'lmasa, bu telefonda latifa aytib jonim nechta? Meni "o'yinbosarlikka" yuborishayapti.

Mirtemirning xayolidan o'zining "O'yinbosar" degan hajviyasi o'tdi. Bu hajviyada u matbuot qo'mitasi raisining tsenzura bo'yicha o'rinbosarini masxara qilgandi. O'rinbosar "r" harfini aytolmay,"Men o'yinbosarman" derdi. Bu esa ishiga mos kelardi.

-Siz qaerdagi o'yinlarni bosdi-bosdi qilishga borayapsiz?

-O'yin qaerda bo'lardi, matbuotda-da, – dedi Ganja Yoqubov.

-Xafa bo'lmang, siz "R" harfini aytaolasiz. Shu bois haqiqiy o'rinbosar bo'lasiz.

-O'zingiz-chi, o'zingiz?

-Men ham shu yerdan qutulganimga shukur qilaman.

-Telefonda bunday demang.

-Qutulishni istaganim uchun ham shunday deyapman-da taqsir.

-Mayli, hozircha o'sha yerdasiz, hech bo'lmasa televideniени ellik foiz mustaqil qilish uchun urinish kerak,-dedi Ganja Yoqubov.

-Buni ham telefonda aytadigan bo'lsangiz, demakki, Xabar markazidagilar kabi siz ham mustaqillikni istamaysiz,-dedi Mirtemir.

-Bo'пти, men hozir huzuringizga kelaman, – dedi Ganja Yoqubov.

Mirtemir televidenie va radio qo'mitasi nomini "Teleradiokompaniya" deb o'zgartirdi. Uning qayta tashkil etilishi haqidagi farmon loyihasini tayyorlab bo'lgandi ham-ki, Ganja Yoqubov kirib keldi.

-”Katta” bunga albatta davlat so'zini qo'shtiradi. Shu bois hozirdanoq qo'shib qo'ying, – dedi.

-Yo'q, keyin bu so'z uchun ellik foiz mustaqillik talab qilamiz, – dedi Mirtemir. Qolgan gaplar xuddi “bozordagidek” bo'ldi. Ganja Yoqubov matbuot qo'mitasiga, ilgari Xabar markazida boshliq bo'lib ishlagan Erkin Hayitboev teleradiokompaniyaga o'tdi.

-Hayitboevning bu sohadan hech xabari yo'q, – dedi Karimov “davlat” kalimasi uchun “ellik foiz”ni in'om etarkan.-U latta odam, o'zingiz uni boshqarasiz...

I S Y O N [5 1]

Yanvar oyi bo'lishiga qaramay havo yumshoq edi. Mirtemirning televideniya ishlayotganiga bir necha kun bo'lgandi. Ish ko'pligidan u sahar kelib, yarim tunda ketardi. Xonasida yangi tayyorlangan dasturlarni ko'rib, ertalabki majlisga loyihalar tayyorlayotgandi. Bosh direktor hovliqib kelib qoldi:

-Bugun Talabalar shaharchasida qandaydir voqealar yuz beradi. O'g'lim talabalarning narx-navo oshishidan norozi ekanliklarini, kecha kechqurun esa ularning domlasi Marat Zohidov “Ertaga tush payti non magazini yonida namoyishimiz bor, agar qarshilik ko'rsatilsa ochlik e'lon qilinglar” debdi.

-Kimga aytibdi? – Mirtemir hayratlanib so'radi.

-O'g'limning Nasim degan do'sti bor, birga o'qishadi, shunga aytibdi. O'g'limga sen uzoq tur, dedim.

Ish ichida Marat bo'lsa, demak yana qandaydir o'yin boshlandi, deb o'yladi Mirtemir. Maratni yaxshi taniyman. Ozgina manfaat uchun otasini ham sotib yuborishga tayyor. Aslida talabalar haq. Saylovdan oldin arzonchilik haqida gapirgan Karimov saylovdan keyin darhol narx-navoni oshirib yubordi. Ayniqsa, nonni qimmat qilgani talabalarning qonini qaynatishi aniq. Zotan, ular saylov o'yinlarining farqidalar. Saylovdan bir hafta oldin ovoz berishga majbur qilishdi.

Bir joyda gugurt yoqilsa, talabalar “portlab” ketishadi. Namoyish qilishsa, mayli. Insonlar o'z haqlarini namoyishlar orqali kun tartibiga qo'yadilar. Talabalarimiz bu yo'l bilan demokratiyani o'rganadilar. Bir kuch, bir mushtga aylanadilar. Adolatning himoyachisi bo'ladilar. Lekin bu ishning boshida Marat turishi qandaydir o'yin borligidan darak. Marat hukumatning qo'g'irchog'i. Buni bilmagan odam yo'q. Faqat hukumatning emas, kim pul bersa o'shaning qo'g'irchog'i. Bugunga qadar besh-olti yerda bu qo'g'irchoq bosh rol oldi. Qancha-qancha begunoh insonlarning umriga zavor bo'ldi. Avvaliga jilovi Moskovda edi, keyin o'zimiznikilar ham uni qo'llay boshladilar.

...Mirtemir televideniya o'tgandan buyon devondagi gaplardan bexabar edi. Balki devonda bo'lsa ham bu o'yinlardan xabardor bo'lishi mushkul edi. Devonda ham talabalar shaharchasi hamda Mirtemirning o'ziga qarshi yangi o'yinlar hozirlangandi.

Alimov Maratni chaqirib gaplasharkan:

-Poytaxt shahar ijroqo'mi sizga bir engil mashina va uy-joy qurish uchun yer ajratdi. Sizdan iltimosimiz esa, Talabalar shaharchasida biror-bir voqea chiqib qolsa, unga rahbarlik qilish va uni muxolifatga, jumladan Mirtemirga ham bog'lashdir, – dedi.

Alimov birov bilan gaplashishga usta edi. Oliy Kengashning o'tgan majlisida Mirtemir Maratning Moskov bilan aloqasi borligi haqida gapirib, uni talabalarga qahramon qilib ko'rsatishgani, aslida esa bu soxta qahramon yashirin xizmatning chirkin ishlarini bajarib kelayotganini isbotlashga uringandi. Oraga Karimov kirmaganda bu janjalga aylanardi. O'shandan buyon Marat tishini qayrab yuribdi. Buning ustiga Mirtemir u haqda tanqidiy maqola ham yozdi. Shu bois Mirtemirning ismini eshitgan Maratning tuklari six-six bo'ldi:

-Shaharchada istagan vaqtda biror-bir voqea chiqara olaman. Lekin uni Mirtemirga qanday bog'laymiz? Muxolifatga bog'lasak, bunga Mirsaidovni ham qo'shsak, o'shanda Mirtemir ham chetda qolmaydi.

-Mayli, bu keyingi masala. Hozir esa voqea haqida o'ylashimiz kerak,-dedi Alimov.-Kallasi yaxshi ishlaydigan besh-olti bola topasiz. Ertaga narx-navo oshishi haqidagi qaror chiqishi bilan ochlik e'lon qilishsin. Bu bolalarni keyinchalik yaxshi joylarda o'qitib, o'zimizga shogird qilib olamiz. Ochlik sinovidan o'tganlarini avvaliga muxolifatning ichiga joylashtiramiz, ba'zilarini muxolifatning lideriga aylantiramiz, ba'zilarini esa Xavfsizlik qo'mitasiga taqdim etamiz. Xullas, o'zingizga kelajakda ham ishlash uchun ekipaj tuzayapsiz. Ba'zilariga katta-katta va'da bering, ba'zilarini esa adolatni himoya qilishga chaqiring. Nima ham deyman, o'zingizdan qoladigan gap yo'q. Karimovning umidi sizda.

Marat oqshom chog'i Jurnalistika fakultetining yotoqxonasiga kelsa, muxolifat vakillari ham shu yerda ekan. Ular bilan quyuk salom-alikdan keyin:

-Hozirgina eshitdim, xabarlarda berishdi, narx-navoni oshirishibdi. Biz bunga qarshimiz. Bu masalani parlamentda ham ko'tarib chiqaman. Saylovda bizni erga urishgani etar. Men talabalarimni himoya qilishga qodirman! Hozir so'zimizni aytmasak, qachon aytamiz? Tarix bo'yincha inqilob harakatlarini talabalar boshlashgan, eng og'ir kunlarda mamalakatni talabalar qutqarishgan,-dedi.

Bir zumda yotoqxona chorsu bozoriga aylandi. Talabalar jon-jahdlari bilan tortishar ekanlar, Marat ularning orasida she'rlari va aqlli-aqlli gaplari bilan tanilib qolgan Nasimni chetga tortdi:

-Oralaringizda ochlik e'lon qiladigan pahlavonlar bormi? – deb so'radi.

-Zotan, biz noroziligimizni qaysi bir yo'l bilan ifoda etishni mo'ljallayapmiz. Lekin qachon, qanday? Bu ma'lum emas.

-Nima bo'lsa ham ehtiyot bo'linglar. O'zingga o'xshagan yigitlarni yoningga ol. Marat chiqib ketar ekan, talabalar va muxolifat vakillari tortishuvi davom etardi.

Ertasiga Marat non do'konining yoniga keldi. Alimov bilan kelishib olganlaridek bu do'konga non kech yuborildi. Non keltirilgunga qadar do'kon yonida talabalar turnaqator bo'ldilar. Asablar tobora taranglashib, ko'ngil ostidagi norozilik tashqariga urayotgandi. Bu yerda Marat singarilarning gugurt yoqishiga hojat ham yo'q edi. Shunday ham gulxan yona boshlagandi.

Talabalar tobora ko'payib, o'rta shior otayotganlarning soni oshib borayotgandi: "Saylovlarda bizni aldashdi".

"Bugun aytadi, ertaga qaytadi".

"Bizga boshqalardan emas, o'zimizdan chiqqan prezident kerak!". "Biz Karimovning iste'fosini talab qilamiz!"

Birdaniga bu shiorlarni aytib, mushtlarini osmonga "otayotgan" yigit-qizlar tomonga son-sanoqsiz mirshablar bostirib kelishdi. Ur-to'polon boshlanib ketdi. Mirshablar, OMONchilar osmondan tushib qolishdi-mi hech kim anglolmay qoldi. Kimdir ikki talabaning otib o'ldirilganligi haqida so'ylasa, yana kimdir qaysidir yotoqxonada OMONchilar qizlarni kaltaklashayotganini aytsa, yana birov ko'zi ojiz talabani to'qqizinchi qavatda og'iz-burnini qonga botirib tepkilashganini tilga keltirdi.

Mirtemir Talabalar shaharchasidagi voqealarni bilish uchun mashinasiga o'tirib, o'sha tomonga yo'l oldi. Shaharchaning atrofi mirshablar bilan o'rab olingandi.

Uning mashinasini to'xtatishdi.

-Ichkariga kirish mumkin emas, – dedi mirshablardan biri.

-Bu kishi millatvakili, qolaversa televideniening rahbari,-dedi shofyor yigit.

-Millatvakillari, rahbarlar uchun bu yer tahlikali. Tuman markazida rahbarlarimiz o'tirishibdi. Ular kimni istashsa, uni o'zlari bilan birga olib kirishadi.

Mirtemir mashinadan tushib mirshablarning boshlig'iga yuzlandi:

-Mayli, meni kiritmanglar, lekin muxbirlarga izn beringlar,-dedi.

-Sizni tanib turibmiz. Agar ichkariga o'tkazib yuborsak, boshimizdan ayriyamiz. Ammo muxbirlarga ham ruxsat yo'q.

-U holda men o'zim o'taman! Kuch bilan to'xtatib qolishga haqqingiz yo'q. Tanlang, yo menga yo muxbirlarga ruxsat bering.

Mirtemir uzoq tortishuvdan keyin muxbirlarni o'tkazib yubordi.

-Iltimos,-dedi muxbirlarni o'tkazib yuborgan mirshablarning boshlig'i,-agar ichkarida so'rab qolishsa, biz Ichki ishlar vazirligining suvratga oluvchilarimiz, deb aytishsin. Chunki sizning xotiringiz uchun ruxsat berdim.

Mirtemir tuman markaziga bormoqchi bo'ldi. Lekin mening asosiy ishim televideniada, bugungi dasturlarni o'zgartirishim, hukumat rahbarlarini taklif etib, xalqni xabardor qilishim, kontsert dasturlarini to'xtatishim kerak, deb o'yladi. Chunki bir tomonda otishmalar davom etgan paytda, biz kontsert ko'rsatib o'tirsak, na aqli-salimga va na insoniylikka to'g'ri keladi.

Mirtemir muxbirlarni Talabalar shaharchasi tomon o'tkazib yuborarkan:

-Voqealarni har tomondan suvratga olasiz. Bunday sharoitda biz haq tarafida turishimiz kerak. Haqiqatni o'rta qo'yish uchun voqealarni to'rt-besh kamera bilan suvratga olaylik,-dedi va ortga qaytib, mashinasiga o'tirdi.

Ishxonasiga kelgan Mirtemir darhol Bosh vazirga sim qoqdi. Hali yaqindagina Bosh vazir etib tayinlangan Abduhoshim Mutalov bilan kasalxonada uchrashgandi. O'shanda Abduhoshim Mutalov don mahsulotlari vaziri edi. Karimov "onangni" deb haqorat qilgani uchun yurak xurujiga uchrab, xastaxonada yotgandi.

-Karimovning ko'ngli tor bo'lsa, uning qanotlari ostida yashayotganlar uchun dunyo tor bo'ladi. Agar u ko'ngliga yaxshi-yu yomonni, o'jaru-qobilni sig'dira olmasa ham o'zini qiynaydi ham boshqalarni, – dedi o'shanda Mirtemir.

-Karimov yaxshi odamu...-Abduhoshim Mutalovning bo'g'ziga nimadir tiqildi. Bu qo'rquv "musht"i edi. Shunga qaramay uzoq suhbat qilishdi. U har qancha ehtiyot bo'lmasin, ba'zi narsalarni tan olishga majbur edi. Suhbatlar qo'r olgan kunlarda

uni chaqirib qolishdi. Davolanishni chala tashlab ketarkan:

265

-Xechqisi yo'q, har kun ertalab sport bilan shug'ullanaman,-dedi. Mirtemirning xayolini kotibaning muloyim so'zlari bo'ldi.

-Gapiring, Abduhoshim Mutalovich telefondalar,-dedi u. Salom-alikdan so'ng Mirtemir unga:

-Talabalar shaharchasida nima bo'layapti? Eshitishimizcha, talabalarga non yuborishmabdi. Buning ustiga och qolgan talabalarni kaltaklashibdi. Hukumat bu xususda xalqqa biror-bir tushuntirish bermaydimi? Qolaversa, nega bu qadar mirshab va askarlar shaharchaga yuborilmoqda? – dedi.

-Mirtemir aka, – dedi Abduhoshim Mutalov garchi yoshi Mirtemirdan ancha ulug' bo'lsa-da. – Bilasiz-ku, bu xususda Islom aka bilan gaplashish kerak.

-Mayli, gaplashib oling. Hatto bu voqea og'ir tus olmasligi uchun mirshablarni orqaga chaqirish taklifini ayting. Aslida Maratga o'xshaganlarga kimdir yana rol bergan bo'lsa kerak. Tezroq harakat qilaylik, yomon voqealarning oldini olaylik.

-Menimcha, siz qo'ng'iroq qilsangiz yaxshi bo'larmidi? – dedi Abduhoshim Mutalov tovushini yutib.

Qo'rqoq, deb o'yladi Mirtemir. Lekin qo'rqmasdan ham iloji yo'q, chunki u qo'rqish uchun tug'ilgan. Hayotdagi roli qo'rqoqlik.

Mirtemir devonga sim qoqdi:

-Ishlar yaxshimi? Korho nag'zmi? Kak dela? – deya uch tilda “sayray” boshladi Kraynov.

Uning kayfiyatiga qaraganda, dunyo tinch. Ba'zan mutloq teskarisi ham bo'lishi mumkin, ichkarida jiddiy tortishuvlar yoki Kraynov iborasi bilan aytganda “osmon yiqilib tushgan” paytlarda u sir saqlashga urinadi. Talabalar shaharchasi haqidagi gapni eshitgan Kraynov rasmiy ohangda:

-Hozirgina o'rtoq Karimov Oliy Kengash raisi Yo'ldoshevga topshiriq berdilar. U ikki daqiqa oldin devondan chiqib ketdi. Tez orada o'z xonasiga etib boradi. Bu masala bilan endi u shug'ullanadi. Televideniya esa shahar rahbari chiqish qiladi,- dedi va birdan gap ohangini o'zgartirib, yana rasmiy minbardan o'z holiga tushdi.- Nag'zmi? Yaxshimi? Xorosho, nima dedingiz, Mirtemir aka?

-Uch tilda gapirmasangiz tushunishim qiyin edi,-dedi Mirtemir kinoya bilan.- Shahar rahbari emas, jumhuriyat rahbarlaridan biri chiqib xalqqa tushuntirib bersin.

-O'rtoq Yo'ldoshevga telefon qiling! – U shart etib telefon trubkasini qo'ydi.

Mirtemir Kraynovning tarzidan ranjigan bo'lsa-da “o'sha bilan teng bo'lib o'tiraman-mi” dedi-da, Oliy kengash raisiga sim qoqdi. Yo'ldoshev do'rillagan ovoz bilan xuddi radioda Siyosiy byuro bayonotini o'qiyotgandek rasmiy ohangda gapira boshladi. Bu esa uning Karimovdan rostdan ham topshiriq olganini ko'rsatardi. Aks taqdirda u hol-ahvol so'rashdan nariga o'tmasdi. Har bir narsadan hurkadigan Yo'ldoshev bunday jiddiy ohangda xuddi hisob berayotgan kabi gapirar ekan, demak saroy qozonida ko'p narsa qaynamoqda.

-Maxsus xabarnoma e'lon qilamiz,-dedi Yo'ldoshev.-Komissiya tuzayapmiz. Komissiya tarkibiga jamoatchilik vakillari, huquq-tartibot organlari tamsilchilari, muxolifat rahbarlari ham kiritiladi. Poytaxt rahbari voqealar rivoji haqida gapirib beradilar. Qaysi paytda ko'rsatasiz?

-Axborotdan avval “So'nggi soatda”-degan rukn ostida beramiz.

-Yaxshi, tayyor bo'lib turing!

Yo'ldoshev ham engini, ham pochasini shimarib olgan kishini eslatardi. Bevosita Karimovdan topshiriq olganiga shod edi. Mirtemir bu odamdan bir ish chiqishi qiyin, deb o'yladi-da, siyosiy-iqtisodiy ko'rsatuvlar tahririyati mudirini chaqirdi. Unga shahar rahbarini topishni va uning bayonotini yozib olishini buyurdi:

-Shaharchadan keltirgan barcha reportajlarni beramiz, ortidan esa rasmiy qarashni e'lon qilamiz, – dedi Mirtemir.

H O V L I Q M A [5 2]

Ko'p Mirtemirning huzuriga televidenie bo'lim mudiri kirib keldi:

-Shahar idorasida hech kim yo'q. Hamma Talabalar shaharchasi yaqinidagi shtabda ekan.

-Bular allaqachon shtab ham tuzishibdi-mi?

-Shtabda faqat hukumat telefoni o'rnatilgan ekan. Shu bois o'zingiz qo'ng'iroq qilsangiz.

Mirtemir hukumat telefonidan shahar rahbari telefonining raqamlarini terdi. Telefon jiringlarkan, bular telefonlari bilan birga yurishadi, darrov shtab qurib, hukumat

telefonini ham o'sha erga olib borishibdi, har holda Talabalar shaharchasida qishlaydiganga o'xshashadi, deb o'ylarkan narigi tomondan "xasaki" ovoz eshitildi.

Bu Fozilbekov edi. Mirtemir xirrik ovozda nutq irod qiladigan Fozilbekovni ilk bor katta bir qurultoyda ko'rdi. Rangi oqarib, chehrasi so'lib qolgan Fozilbekov o'shanda avval Moskovdagi to'ralarning "po'stagini qoqdi", keyin hatto poytaxt shahar mirshablarining boshlig'i bo'lgan Xo'jaevni o'zining mashinasini o'g'irlab ketishgani, shaharda jinoyatchilik haddan oshgani, shunga qaramay Xo'jaevga general unvoni berilganidan ranjib gapirdi.

Bu o'sha paytda Kommunistlar partiyasining boshida o'tirgan Karimovga tegib ketdi. Chunki Xo'jaevni generallikka u tavsiya qilgandi. Shu bois Karimov Fozilbekovni chimdib oldi:

-Ikki kishi bir ko'rpaning ostida yotolmasangiz, ZAGSga aytamiz ajratib qo'yadi,- dedi u yonidagi ikkinchi kotibga qarab. Ikkinchi kotibning kadrlar masalasi bilan shug'ullanishini hamma yaxshi bilardi.-Kimga general unvoni berish-bermaslik esa bizning ishimiz.

O'shanda ko'pchilik Fozilbekovning ildizi quridi, u barg to'kayapti, yaqinda gursillab yiqiladi, desa-da u mahkam chiqdi. To'g'rirog'i, Mirsaidov uni asrab qoldi. Ammo Karimov o'z kreslosini mustahkamlab olgan kunlarda Fozilbekov balikdek siyirilib, Mirsaidovning arig'idan qochdi. Endi Karimov uni Mirsaidovga qarshi qo'llana boshladi.

Telefonning naryog'idan kelgan xirrik ovoz birdan tinchib qoldi. Keyin boshqa tovush eshitildi:

-Bu telefon nomeri "54 – 59, kim bilan gaplashmoqchisiz?

-Fozilbekovni qidirayapman,-dedi Mirtemir.

-U kishi hozirgina chiqib ketdilar. Hukumat komissiyasiga televidenie rahbarlaridan Elbek Musaev ham kiritilgan, qolaversa Erkin Hayitboev ham shu yerdalar.

-Men hali o'zimni tanitganim yo'q, maqsadimni ham aytganim yo'q, siz esa hammasiga oldindan javob berdingiz. Yoningizda kim borligi o'z yo'liga, lekin Fozilbekovga ayting, hukumat nomidan gapirish u kishiga havola qilinibdi. Biz haqqoniyat uchun hukumat fikrini ham bermoqchimiz. Agar gapirmasalar reportajlar bilan kifoyalanib qolamiz, – dedi Mirtemir.

Telefonda gaplashayotgan odam pichirlab bu gaplarni yonidagi kishiga takrorladi. U Fozilbekov edi. Mirtemirning tovushini tanigani uchun telefon dastasini yonidagilardan biriga bergandi. U ingichka ovozda “Hammasi o'zini olib qochadi. Baloga esa men qoldim,”dedi. Bu gaplar Mirtemirga eshitilib turgan bo'lsa-da,

telefon dastasini tutgan kishi:

-Bilishimizcha Fozilbekov Oliy Kengash raisi bilan gaplashdilar, uni ham ko'ndirdilar. Abduhoshim Mutalov chiqadigan bo'ldi, – dedi.

Birozdan keyin Mirtemir yana Yo'ldoshevga sim qoqdi:

-Bilaman, "Axborot" soati yaqinlashib qoldi. Abduhoshim Mutalov chiqadigan bo'ldi! – dedi u qisqa qilib.

Oradan ikki daqiqa kechib, teleradio qo'mitasi raisi Hayitboev Mirtemirga telefon qildi:

-Men Talabalar shaharchasidan qaytayapman, – dedi u.

-Nima bo'layapti o'zi? Siz qachon borib ulgurdingiz. Meni shaharchaga o'tkazishmadi. Men ham borib voqealarni o'z ko'zim bilan ko'rib kelmoqchi edim.

-Bu tomonga yaqin kelmang. Hech kimni ichkariga kiritishmayapti. Qolaversa, voqealar kechasi yuz bergan, hozir esa shaharchada osoyish hukm surmoqda. Menga muhtaram Yo'ldoshev janoblari telefon qildilar, birov orqali emas, shaxsan o'zlari, xalqimizni voqealardan xabardor qilsak, dedilar. Prezidentimiz hassosiyat bilan bu masalaga e'tibor bermokdalar. U kishining topshiriqlari asosida Bosh vazir xalqqa murojaat qiladi. Siz butun televidenieneni ana shu ishga safarbar qiling, Bosh vazirning chiqishi biz uchun iftixordir, – dedi u.

Mirtemir Hayitboevning o'pkadan chiqayotgan gaplarini telefon dastasini qulog'idan uzoqroq tutib tingladi. Keyin reportajlarni ko'rish uchun xonasidan chiqayotgandi yana telefon jiringladi. Bu Bosh vazir edi:

-Mirtemir aka, meni shu ishdan qutqazing, hozir bir tumandaman. Boshqa birortasini topib yozib olsangiz, iltimos,-dedi u.

-Bu oqshom yuz bergan otishmalarda qon to'kilibdi. Qo'limizda reportajlar bor. Mirshablar hadlarini bilishmagan. Qolaversa, ularga kim buyruq bergani ertami kechmi o'rtaga chiqadi. Siz

hukumat rahbari sifatida xalqning oldiga chiqib, ikki og'iz so'z aytmasangiz, kim aytadi? Axir bu voqealar nega boshlandi? Nima uchun, o'q otgan kimlar, o'lganlar kim, nima uchun shuncha voqea yuz berayapti- yu hukumat jim? Bu savollar faqat meni emas butun xalqimizni qiziqtiradi. Bugun oqshom televidenie ana shu savollarga javob berishi kerak.

Telefonning naryog'idan sas kelmadi. Abduhoshim Mutalovning tovushi ichiga tushib ketgandi. U zorlangan ovozda:

-Menga yordam bering, – dedi.

Respublika rahbarlari nima sababdan xalqning ko'ziga qarashdan cho'chishmoqda, deb o'yladi Mirtemir. Xalqimiz "Xo'sh, Karimov qaerda? Namoyish bo'lgan, yong'in chiqqan joylarga borib, ot minib, olomonni to'xtatganman, deya takrorlovchi zot nega kabinetidan chiqmayapti? Agar kecha oqshom u ikki chaqirimli yo'ldan cho'chimay Talabalar shaharchasiga borganda, olam guliston edi. O'qlar otilmasdi, qon to'kilmasdi" deb o'ylashmaydimi? Xalq o'ylaydi-yu, lekin xalqning o'ylaganini bular hatto xayolda jonlantirishga cho'chiydilar.

Mirtemir reportajlarni ko'rarkan, vujudini titroq bosdi. Besh-olti mirshab bir qiz talabani sudrab ketishmoqda...

Uch-to'rt OMONchi esa bir talabani erga yotqizib tepishmoqda...

Yotoqxonalardan biriga bostirib kirgan mirshablar dush ostidagi talabalarni kaltaklashmokda...

Bu dahshat-ku, deb o'yladi Mirtemir. Nahotki, shu darajada vahshiylashib ketdik? Bu mirshablar hayvonot bog'ida etishtirilgan emas, bular ham qaysi bir ota-onaning farzandlari. Balki bu talabalar orasida ularning ham ukalari, singillari bordir? Nahotki, yuqoridan kelgan buyruqqa ko'r-ko'rona bo'yin egib o'z qardoshlariga o'q otsalar? Axir bu talabalar Karimovning saroyini kul qilib ko'kka uchirmadilar? Bor-yo'g'i nonimiz qani, nega nonimizning bahosini qimmat qildingiz, nega saylovda bizni aldadingiz, deb so'rashdi. Ularning Karimov iste'fosini so'rashga ham haqlari bor. Aslida Karimov minbarlarda ko'kragiga urib gapirayapti-yu lekin xalqqa biror narsa berayotgani yo'q, balki xalqning xirmonini sovurib, haqini eb, haqiga xiyonat qilib yuribdi. Xalkdan bolalaringni o'qitaman, deya soliqlar olinmokda, lekin bolalarning qo'lidagi bir burda noni ham tortib olinayapti. Buni mansabda o'tirganlarga aytish befoyda. Ularning dini ham, imoni ham, Allohi ham, Payg'ambari ham mansab. Lekin mana bu oddiy mirshablar-chi? Nahotki, ular o'zlarini qul deb bilsalar, mansabdagilarning quli deb bilsalar?! Yoki kiyib olgan liboslari ularni robotga aylantirdimi? Qalbi yo'q, aqli yo'q, fikrlamoqdan, mushohada qilmoqdan mahrum bo'lgan robotlarga aylandilar-mi? Balki bir kun bu talabalarning ham ba'zilar mirshab bo'lar? Ular ham o'z farzandlari, o'z aka-ukalariga qarshi qurol ko'tarmaydilar-mi keyin? Qasos olmoq uchun shu yo'lga bosh urmaydilar-mi? Bir insofsizning mansabini qo'riqlash, bir xoinning obro'yini asrash uchun qon to'kkan bu insonlarga nima deyish kerak?!

Nega men yo'ldan qaytdim? Qo'rqdim-mi?! Yo'q, bulardan qo'rqmayman. Unda nega bormadim? Balki talabalarni asrab qolgan bo'larmidim?! Balki mirshablarni to'xtatarmidim? Sen borguncha bo'lgan ish bo'lgandi, g'isht qolipidan ko'chgandi. Senga tushadigani oxirigacha mujodala etib qotillar kimligini o'rta qo'yib chiqarishda boshqalar bilan birlashishdir. Bir kishi hech narsa qila olmaydi. Yanchib tashlashadi.

Reportajlarning birida jumhuriyat prokurori Bo'ritosh Mustafoevning talabalar shaharchasiga kelgani aks ettirilgandi. U minbarga chiqib gapirarkan, yonida Iso Xolis turardi. Bo'ritosh Mustafoev talabalarga qarata:

-Siz qonunlarga qarshi ish qilayapsiz. Qonunlarni buzayapsiz. Buning oti isyondir. Isyon esa qonunda og'ir jazoga sabab bo'ladi,-degandi talabalar qo'llaridagi bor narsani unga qarab otdilar. Mustafoev bilan Iso Xolis arang qochib qutulishdi.

Bo'ritosh Mustafoev uzoq bir rayonda prokuror edi. Qisqa vaqtda jumhuriyat prokurorligigacha etib keldi. O'shanda ko'pchilik "Bu bo'shalang odam Karimovga dosh berolmaydi" deyishgandi. Lekin tosh chikdi, Karimovning iskanjasiga chidadi. Bunday odamlarni "pixini yorgan"lar toifasidan ham deyishadi. Chunki u Karimovning topshiriqlarini hech qachon bevosita o'zi bajarmadi. Doim birovni topdi, birovni ro'baro' qildi. Ammo nega talabalar shaharchasiga o'zi keldi? Demak, masala ancha jiddiy, "O'zing borib kel!" – degan topshiriq olmaganda albatta, bu erga ham borib keladigan "qul" topilardi. Bu voqeadan o'zini olib qochardi.

Darhaqiqat, prokurorni u erga yuborish kimning xayoliga keldi ekan, deb o'yladi Mirtemir. Bunday sharoitda tahdidga o'rin bormi? Talabalarni qizdirish, bu fitnadir! Demak, yuborgan odam shuni istagan. Har tomondan qurshab olingan, kaltaklanayotgan, sudralayotgan odamga "sening jazong o'lim" desangiz, u rahmat deydi-mi? Hali ham talabalarimiz insofli ekan! Oxiriga qadar quvib borib, mashinasini ag'darib, o'zining orqasiga tepa-tepa haydab yuborishmaganiga qulluq qilsin.

-Siz qaytgandan keyin shaharchada nima bo'layotganini hech kim bilmay qoldi,- dedi u erga borib kelgan muxbirlardan biri. Ko'p odamni ichkariga kiritishdi. Hatto bir qancha gazetalarning muxbirlari ham o'sha yerda edilar. Qaytishimizda mirshablardan biri sizni ichkariga kiritmaganlarni postdan chetlatishganini aytishdi.

Mirtemir hayron bo'ldi. Balki Abduhoshim Mutalovga shikoyat qilganim o'z ta'sirini ko'rsatgandir, deb o'yladi. Yo'q, bu odam birovga tanbeh berishga qo'rqadi. Buning ustiga Teleradio qo'mitasi raisi "Devondan butun rahbarlar shaharchaga borishsin, deb aytishdi. Men birinchi o'rinbosar bilan borib kelaman, siz esa bu yerdagi ishlarga rahbarlik qilib turing", degan gapni o'zingizni topolmaganim uchun kotibaga yozdirib ketgandim" deganini esladi. Keyin esa Alimovning yordamchisi qo'ng'iroq qilib, Talabalar shaharchasiga borib-bormagani bilan qiziqdi. Har holda nimadir bor. Mayli, hozircha muhimi bu emas. Muhimi reportajlarni xalqqa ko'rsatishdir.

Mirtemir xonasiga qaytgandan keyin Oliy kengash raisi telefon qildi:

-Sizni ham qiynab qo'ydik,-dedi u, men qiynalib ketdim, degan ohangda.

-Xalqqa biror gap ayta olmasak, ana u qiyin,-dedi Mirtemir.

-Sizga nima? Hayitboev ishning ichida, o'rinbosari Musaevni komissiyaga qo'shdik. Ana ularning vijdoni qiynalsin. Qolaversa, bugun beriladigan barcha ko'rsatuvlarni komissiyamiz a'zosi sifatida

o'rtoq Musaev ko'rib chiqsin. Bilasiz, bir ish yuzasidan tergov boshlansa, unga hech kimning xalaqit qilishga haqqi yo'q. Biz ham tekshiruv olib borayapmiz. Komissiyamiz faoliyati boshi berk ko'chaga kirib qolmasligi uchun har turli tadbirlar olishimiz kerak. Eshitishimcha, siz Talabalar shaharchasiga muxbirlarni olib boribsiz?

-Muxbirlarning borib-bormasligi siz uchun voqea emas, lekin bir millatvakilining mirshablar tomonidan yo'ldan qaytarilishi sizni qiziqtirishi kerak, chunki raisimiz bo'lasiz.

-Siz bormasangiz ham voqealarga aralashganingizni bilamiz. Bundan bu yog'iga ehtiyot bo'ling,- dedi Yo'ldoshev va qo'shimcha qildi.-Islom akaning topshirig'i bilan hozir Bosh vazir o'rinbosari Erkin Samandarov etib boradi. Musaevdan keyin ko'rsatuvlarga nazar tashlaydi va lozim topsa, axborotda chiqib gapiradi.

Ertalab boshlangan bu hangoma kechgacha davom etdi. Nihoyat toqati -toq bo'lgan Mirtemir devon kotibiyatining boshlig'iga telefon qildi:

-Iltimos, kirib Karimovga ayting, ko'rsatuvlarimizga tsenzura qo'yishayapti. Bu xabar dunyoga yoyildi. Oqshom Moskva ham ko'rsatadi, bizning jim turishimiz jinoyat bo'ladi,-dedi.

-Hozir shuning maslahati bo'layapti,-dedi kotibiyat boshlig'i. – Karimovning huzurida shu xususda majlis o'tkazilmoqda.

Birozdan keyin yana Yo'ldoshev telefon qildi:

-Hammasining dami chiqib ketdi. Bu masalani ertaga hal qilamiz. Bugun hukumat komissiyasi tayyorlagan xabar bilan komissiya ro'yxatini e'lon qiling,-dedi u.

-O'ttiz ikkita ism-sharifni o'qishdan nima ma'no chiqadi? Qon to'kilgani, talabalarni otishga kim ruxsat bergani, necha kishi o'lgani va necha kishi yarador bo'lgani, buning aybdorlari kimligi – bu savollarga bugun javob berishimiz kerak!

-Mayli, buni Hayitboev bilan gaplashamiz, – dedi Yo'ldoshev va boshqa telefon jiringlayotganini aytib, suhbatni kesdi.

HAYITBOYEV [5 3]

Oradan besh daqiqa o'tar -o'tmas Mirtemirning xonasiga Hayitboev kirib keldi:

-Nega mendan so'roqsiz kamera yubordingiz?-dedi u hovliqib.-Menga Islom akaning o'zi telefon qilib, kamera-pamerangni yig'ishtir deb aytdilar. Hatto meni "latta" deya haqorat qildilar, rahmatli onamni ham tinch qo'ymadilar.

-Siz o'zingiz nega bir necha marta borib keldingiz-u kamera olib bormadingiz. Siz va mening vazifam u erga borib kelishdan iborat emas. Biz xabarchimiz. Xalqni voqealardan xabardor

etishimiz kerak. Agar bu ishni uddalay olsak, asosiy vazifani bajargan bo'lamiz, adolatsizlikning yo'lini kesamiz, o'yinlar uchun imkon qoldirmaymiz. Hozir esa vaqtdan boy berayapmiz, yolg'onning gullashiga yo'l ochayapmiz,-dedi Mirtemir.

-Ukajon, bu yer sizga Oliy majlisning minbari emas,-dedi Hayitboev. Bu fikringizni majlis minbaridan aytasangiz birovga foydasi bo'lishi mumkin. Bu yerda esa davlat nima desa, o'shani qilamiz,-bo'sh kelmadi Hayitboev.

-Siz ham shu davlatning bir parchasi emas-mi? Fikrlashga va to'g'risini tanlashga haqqingiz yo'q-mi?

-Oilamizda haqqimiz bor. Bu yerda esa oilamizning raisi Prezidentimiz. U kishi xalqimizga yomonlikni ravo ko'rmaydilar. To'g'risini tanlaydilar.

Hayitboevni kulgichlari doim kulib turgani uchun u xuddi masxara qilib gapirayotgandek tuyulsa-da, bu gaplarni jiddiy ohangda aytayotgandi. Mirtemir o'ylanib qoldi. Yo men boshqa bir dunyodan bularning orasiga tushib qoldim yoki bular haqlaru men o'jarman. Hozir yana biroz tortishsak, janjallashib qolishimiz aniq, indamay qo'ysam bora-bora indamasga aylanaman. Ba'zilariga shu bilan baravar bo'lib o'tiramanmi, deya qo'l siltaysan, ayrimlarining oshqovoq kallalariga bir kalima ham singdirolmay xunob bo'lasan, mana bundaylar esa beton devordek gap: bosh ursang boshing yoriladi, so'zing o'zingga qaytadi, asabiylashib jig'ibiyron bo'lasan. Lekin baribir kimligini yuziga aytib, basharasini oynada ko'rsatib qo'yish kerak.

-Mayli, otangiz ham oilangizning raisi ham Karimov bo'la qolsin, lekin o'q egan, qoni to'kilgan, o'n gulidan bir guli ochilmagan yoshda o'ldirilgan talaba o'g'lingiz bo'lsa-chi?

Hayitboev cho'chib tushdi:

-Og'zingizdan bu gapni shamol uchirsin! Xudo saqlasin, deb gapirsangiz-chi,

uka.

Hayitboev shunday dedi-da, nimadir yodiga tushgandek "Kechirasiz, bir telefon qilay", deya Mirtemirning o'miga o'tdi. U uyiga telefon qilayotgan ekan.

-O'g'ling keldimi? – deb so'radi u. "Ha" javobini oldi shekilli:-Uydan chiqmay o'tirsin, o'rtoqlarimnikiga boraman desa ham ruxsat berma, hammayoqda... – dedi-yu gapining davomini bo'g'zidan tashqariga chiqarmadi.

-Hammayokda otishma bor demoqchi edingiz, uyingizdagilar tahlikaga tushib o'tiradilar. Hammayoqni mish-mish xabarlari egallaydi, televizorda esa kontsert, – dedi Mirtemir kesatib.

-Kontsertlarni bekor qilish haqidagi buyrug'ingiz ichki nizomga qarshi bo'lsa ham bekor qilmadim. Yoshsiz, yangi rahbarsiz, jamoaning yonida uyalib qolmang, dedim.

Shu payt kotiba qiz kirib, muxolifatdan bir guruh kelganini va rais bilan uchrashmoqni talab qilayotganlarini aytdi.

-Men Musaev bilan reportajlarni ko'rishim kerak. Hozir Samandarov ham keladilar. Siz bu masala bilan ertalabdan buyon shug'ullanayapsiz, hamma gapdan xabardorsiz. Ular bilan uchrashsangiz. Qolaversa, o'zingizning odamlaringiz,-dedi Hayitboev ham kinoya bilan.

Mirtemir uning kinoyasiga shiddatli bir qarash bilan javob berdi-da qabulxonaga chiqdi. "To'maris"ning tinib-tinchimagan ayollari kelishgandi.

-Biz hukumatga motam kuni e'lon qilish taklifi bilan chikdik. Motam qayokda, bayram qilishayapti, – deyishdi.-U tomonda bolalarimizni o'ldirishayapti, bu tomonda sizlar kontsert qo'yish bilan ovorasizlar.

-Motam fikringizni qo'llayman, lekin kontsert qo'yayotganimiz yo'q. Kontsert va o'yin-kulgi dasturlarini bekor qilganman. Kechqurun, Xudo xohlasa, voqealar haqidagi reportajlarni namoyish etamiz.

-Xudo xohlasa-mi yoki Karimov xohlasa-mi?

Mirtemir hech narsa demadi. Rostdan ham Karimov xohlamagan bo'lsa kerakki reportajlarni ko'rsatuvdan oldin qarab chiqishga qaror qilishdi. Nima bo'lsa ham mujodala qilamiz, reportajlar, albatta ko'rsatiladi, deb o'yladi Mirtemir.

Ayollardan biri:

-Alloh madadkor bo'lsin, bu dahshatni xalqqa ko'rsating. Hamda bu kontsertlarga chek qo'ying. Biz esa bu masalada sizga kerakli yordamni beramiz,-dedi.

Ular hukumat idoralariga ham borishganini, Talabalar shaharchasida o'q otgan qotillarga qarshi norozilik namoyishi o'tkazganlarini, bu masalani mutloq oxiriga yetkazajaklarini aytib, chiqib ketdilar.

Xayriyatki, shunday insonlar bor, deb o'yladi Mirtemir. Agar ular ham faqat o'z o'g'il-qizlarini o'ylasalar va butun erklarini teppadagi bitta odamga berib qo'ysalar, ana unda olam go'riston bo'ladi. Bu ayollarning har biri oilasida ona, farzandlarining tashvishi bilan yuguradi, yana qaerdadir ishlaydi ham. Shunga qaramay adolat izlashadi. Bu adolatni o'zlari uchun izlashadi-mi? Yo'q, shu xalqim ham boshqalar kabi oydinlikda yashasin, nurga ilhak bo'lmasin, zulm ostida ezilmasin, deyishadi. Xalqqa, Vatanga bo'lgan muhabbat yuraklarida cho'g'ga aylangan. Bu cho'g' qalblarini yondirib turadi. Shu otashdan kuch oladilar. Ba'zilar ularni anglamaydilar. O'tganning o'rog'i, ketganning ketmoni bilan ishi bor ularning, deyishadi. Ha, ishlari bor. O'sha o'roq millatning boshini kesmasin, o'sha ketmon insonlar oyog'ining ostini kovlamasin, deyishadi. Oz bo'lsalarda, xayriyatki, ular bor.

Karimov xovliqqansifat qiyofada edi. Bir tomondan bo'layotgan voqealardan ko'nglida g'urur his etayotgandi. Kuch nima ekanligini ko'rsatib qo'yishga fursat etdi deb hisoblardi. Ikkinchi tomondan esa ko'nglining bir burchini bosib olgan qora bulut tarqalmayotgandi. U Alimov va Saidjonni chaqirdi.

-Kichkinagina voqea bo'ladi, lekin unga katta siyosiy tus beramiz, deya og'zingiz qulog'ingizda edi. Xo'sh, nima bo'ldi? – dedi ularga voqealarning haqiqiy ahvolini bilib olish uchun ikkalasini ham birdan to'pning og'ziga qo'yarkan.-Tagingizni ho'l qilib qo'ydingiz. Voqealar nazoratingizdan chiqdi. Nega hodisalar bu qadar keng yoyildi? Ichki ishlar vazirligi nima qilayapti? Xavfsizlik qo'mitasi qaerda?

-Hammasi shu erda. Talabalar shaharchasida uch-to'rt harakat birlashib ketdi,- deya so'z boshladi Alimov.-Mirsaidov mafiya orqali bir guruh talabalarni ishga soldi. Xalq harakati esa saylovda qatnasha olmaganidan norozi edi. Erk partiyasi ham talabalar orasida ish olib borayotgan ekan. Ularning vakillari talabalarning oldiga tushib mirshablarga tosh otishdi, OMONchilarni kaltaklashdi. Buning ustiga qaerdandir dindorlar ham kelib qolishdi. Birdaniga hammasining kimligi o'rta chiqdi. Voqealarni nazoratga oldik. Aybdorlarni o'rta chiqaramiz.

-Bo'ldi o'zingizni qutqarish uchun darov bahonalarni taxlamang,-uning so'zini kesdi Karimov,- Ignachining ming urgani, temirchining bir urgani, deyishgan. Daftaringizni oching va yozing:

1. Poytaxtda faollar majlisini chaqiring. Men o'zim gapiraman, sizlarga gapirishni ham ishonib bo'lmaydi. Radio va televidenie majlisni jonli ravishda ko'rsatib, eshittirishsin. Gazetalar asosiy diqqatni shu masalaga qaratsinlar.
2. Talabalar shaharchasida professor-o'qituvchilar bilan uchrashuv o'tkazaman. Shu bahonada tuzumimizga qarshi bo'lgan dushmanlarni ham aniqlaymiz. Ziyolilar orasidagi ajriqlarni yulib tashlaymiz.
3. Poytaxtdagi, to'g'rirog'i, Talabalar shaharchasidagi universitet va institutlarni viloyatlarga ko'chirish haqida farmon loyihasi tayyorlang.
4. Shaharchadagi talabalarni shoshilinch ravishda qishloqlariga, uy-uyiga jo'nating. Transport vazirligi hamma ishni yig'ishtirib, shu masala bilan shug'ullansin.
5. Jamoatchilik vakillari, deputatlar, muxolifat ishtirokidagi komissiya ro'yxatini tuzing. Begona odamlar komissiyaga kirmasin. Komissiya asosiy diqqatini "qora kuchlar"ni o'rta chiqarishga qaratsin.
6. Yozuvchilar, shoirlar va olimlar har oqshom televizorga chiqib "qora kuchlar"ning kirdikorlari haqida xalqqa gapirib bersinlar. Ular ham o'zlarini ko'rsatsinlar. Qachongacha tekin eb yotishadi?

7. Ichki ishlar vazirligi, prokuratura va Milliy xavfsizlik qo'mitasi bu xususda jinoiy ish ochsinlar. Butun dushmanlarimizni yo'qotish uchun bu voqeadan foydalansinlar. Bundan keyin muxolifat degan so'zni eshitishni istamayman.

8. Poytaxt va markaziy shaharlar yaqinida maxsus batalonlar tuzish ishini boshlang. Unga erli xalqdan odam olmang.

Saidjon, seni bugundan e'tiboran o'zinga maslahatchi etib tayinlayman. Hoziroq farmonni tayyorlab kel, qo'l qo'yaman. Bu ishlarning hammasini o'zing yuritasan, Alimov bilan maslahat qilib turasan. Har bir qadamingiz haqida meni xabardor qilasan, – dedi.

Alimov jiyanining katta mansabga erishganidan mamnun bo'ldi. Karimovni quchoqlab o'pkisi keldi. Lekin xursandchiligini yashirishga urindi.

-Hayitboev telefon qilgandi. Mirtemir hamma ishga aralashayapti. Shaharchadagi voqealarni suvratga oldiribdi. Kotibiyat boshlig'iga esa bularni Moskvaga yuboraman, oqshom tamosha qilasiz, debdi.

Bu gapni eshitgan Karimovning qoni qaynadi. Qaynagan qon yuziga urdi. Qovoqlari birdaniga shishib chiqqandek bo'ldi. Vujudida harakatga kelgan bu kuchni mushtiga tupladi-da zarb bilan stolning ustiga urdi.

-Shu bolani yo'qotish og'ir ish-mi? Qo'lingizdan kelmaydi-mi? Talabalar shaharchasi voqealariga bog'lang, gum bo'lib ketsin! – dedi.

-Qo'limizda bir hujjat bor. Polkovnik Urayimjon Abdug'anievning odamlari topshirig'ingiz bilan Mirsaidovning jiyanini qo'lga tushirishgandi. Uni televizorda ko'rsatmaslik uchun Mirsaidov Mirtemirga bir million so'm pul bergan -deya Alimov fursat etdi, musofir ketdi qabilida kallasining bir chetiga "yashirib" yurganini harakatga qo'ydi.

-Yig'ishtir bu yolg'oningni, u bola bir million u yoqda tursin, bir so'm olmasligiga bizdan boshqa hamma ishonadi. Shuning uchun bahona ham ular ishonadigan tarzda bo'lishi kerak. Qolaversa, qitmir Mirsaidovning bironvga pul bermasligini, balki pul olishini ham hamma yaxshi biladi. Urayimga ayt uzoqroqdan, Mirtemirga yaqin odamlardan topsin. Kerak bo'lsa Mirtemirning yaqin odamlarini qo'lga tushirib, uni xalqqa ko'rsatishga urinsin. Qarabsanki, Mirtemir tuzoqqa ilinadi. Keyin ikki- uch deputatning nomidan Mirtemirni fosh etuvchi maqola chiqarasizlar. Undan u yog'iga mashinaning o'zi yurib ketadi.

Karimov Alimov va Saidjonga javob berib yubordi-da, Jo'rabekov bilan Mavlonni chaqirdi:

-Oliy ta'lim vazirini, Talabalar shaharchasida studentlari yashagan rektorlarni ishdan olamiz. Bu voqea nafaqat menga, balki sizlarga ham, butun tuzumimizga ham qarshi isyondir. Burnimizning ostida bomba turganini ko'rmaganmiz. Yaxshiyam-ki talabalarning biz tomonga qarab yurishi to'xtatildi. Agar ular nazoratdan chiqarib yuborilsalar Farg'ona, Parkent voqealari buning yonida holva bo'lib qolardi. Barcha muharrirlar va taniqli yozuvchilarni chaqirib gaplashing. Bu isyonning mohiyatini xalqqa tushuntirib berishsin. Har bir viloyat, har bir tumanda faollar majlisi

o'tkazing. Har bir talabaning ota-onasi bilan gaplashing, mirshablar borib so'roq qilishsin. Qariyalar, taniqli insonlarning xalqqa murojaatlarini tashkil qiling. Bir so'z bilan, jumhuriyatni oyoqqa turg'azing. Darvoqe, Alimov va ana u Said degan bolaning harakatlaridan xabardor bo'lib turinglar. Ancha makkor bolaga o'xshaydi. Talabalar orasida odamlari ko'p. Shu sabab hozircha uni maslahatchi qilib tayinlashga qaror qildim. Shu soatdan e'tiboran sizga uyqu yo'q. Hushingizda ham, tushingizda ham shu masala bilan shug'ullanasiz, – dedi.

Karimov “Hasan-G'ani”larini chiqarib yuborarkan Maqsad Qulni chaqirdi:

-Moskvani nima qilamiz? Alimovning aytishicha, Talabalar shaharchasidagi voqealarni Mirtemir suvratga oldiribdi va Moskvaga jo'natibdi.

-To'g'ri, men ham eshitdim, uning o'zi bu haqda kotibiyat boshlig'iga aytibdi.

-Bu bolani nazoratga ol, degandim. Qani uning yoniga o'zimning odamimni yuboraman, deganding? Nega voqealardan xabarsiz qolayapmiz?

-Yuborgandim, ishga olmadi. Pora istaganga o'xshab ko'rindi.

-Istagan bo'lsa, nega bermading? U bola sendan aqlliyoq chiqib qoldi. Yuborgan odaming josus ekanligini payqagan-ki, ishga olmagan.

Maqsad Qul tipirchilab qoldi. Nima qilib bo'lsa ham bu chigallikning ichidan chiqib qutilishi kerak edi. Yolg'on gapirgandi, Karimov sezib qoldi. Yolg'oni shapaloqqa

aylandi. Nima qilish kerak? Birdaniga xayoliga yangi fikr keldi.

-Menimcha Mirtemirning o'zini Moskvaga jo'natish kerak. U yerdagi muxbirlarga hadyani bu safar u olib borsin. Shaharchadagi voqealar “qora kuchlar” tomonidan uyushtirilgan isyon ekanligini u yerdagilarga tushuntirib bersin. Bir soat oldingi uchoqda Xalq harakati vakillaridan bir qismi Moskvada matbuot konferentsiyasi o'tkazish uchun jo'nab ketishganini o'rgandik...

-Kimdan o'rganding? Nega qo'yib yuborishdi? Aeroportga telefon qil, uchoqni qaytarishsin. Kerak bo'lsa, uchoqda bomba bor, deb ayt. Barcha kuchlarni bu ishga safarbar qil. Mirtemir haqidagi fikringga esa qo'shilaman.

Karimov Maksad Qulga “Natijadan meni xabardor qil” dedi-da, Mirtemirning telefonini qidira boshladi. Topolmagach, Kraynovga aytib Mirtemir bilan bog'landi:

-Ukajon, siz uchun uchoqni ushlab turibmiz. Bugunoq Moskvaga yo'l oling. Talabalar shaharchasida suvratga olingan lentalardan ham foydalaning. Mamlakatimizning sharafigini qutqazish masalasini sizga topshirayapmiz. Ertaga ertalab u yerda matbuot konferentsiyasi o'tkazasiz. Men o'zimning barcha vakolatlarimni sizga berayapman. Mening nomimdan dunyoga murojaat eting. Xullas, mustaqil ekanligimizni ko'rsatib qo'yish kerak. Hozir men Ziyomovga aytaman, sizni shaxsan kuzatib qo'yadi. Bu orada, albatta, Viktor Chenga uchrashing, – dedi.

Mirtemir studiyaga Erkin Samandarov kelgani va ko'rsatuvlarni to'xtatib qo'yishayotgani haqida shikoyat qildi:

-Ular xalq dushmani,-dedi Karimov.-Qaysi biri bilan shug'ullanay? Ana shularning fitnalari oqibatida talabalarga qarshi o'q otildi. Kerak bo'lsa, bir yigitning yiqilishi bir davlatning yiqilishiga teng. Bir tomchi qon bilan bir daryo qonning farqi yo'q. Bu insofsizlar hamma qilmishlari uchun javob beradilar. Siz ulardan qo'rqmang va chekinmang. Bugun barcha reportajlaringiz ko'rsatiladi. Mana men buyurayapman. Siz esa yo'lga chiqing!

Ko'p o'tmay Maqsad Qul hovliqib kirib keldi.

-Agar uchoqda bomba bor desak, uni qo'shni jumhuriyatga qo'ndirishar ekan. Chunki bizning chegaramizdan chiqibdi,-dedi.

-Keyingi uchoq qachon?

-Ertaga.

-Bo'пти, Ziyomovga ayting Mirtemirni shaxsan o'zi kuzatib qo'ysin. Chen esa Moskvadagi muxbirlarning haqini berib yuborsin. Xasislik qilib o'tirmasin. Muxbirlar

ham yomon o'rganishdi. Vaqtida haqlarini olib turishmasa, darrov tanqid qilib yozishni boshlashadi.

Karimov Maqsad Qul bilan birga xonasidan chiqarkan, tashqarida oqshom cho'kkandi. U kotiblar o'tiradigan joydan bo'ynini cho'zib tashqariga qaradi-da, majlislar zalining yonidagi maxsus oshxonaga kirdi. Eshik yonida kutib turgan xo'jalik ishlari mudiri Zelemxonga yuzlandi:

-Og'ayni, nima ichamiz?

-Hammasidan bor.

-Bo'пти, o'zimizning "Posolskiy"dan icha qolaylik. Bugun tongga qadar ishimiz bor. Talabalar shaharchasida begunoh bolalarimizni o'ldirishdi. Bu voqealarni uyushtirgan ablahlarni topishimiz kerak. Yosh-yosh yigitlar nimani bilishadi? Qayoqqa boshlasang o'sha tomonga boraverishadi. Buning uchun ularni otish kerak-mi? Otganlarning o'zini otish kerak.

U shunday dedi-da, Zelemxonga mug'ombirona qarash qildi. Zelemxon boshini eggancha uni tingladi. Bu ko'p narsani biladi, deb o'yladi Karimov, lekin quduq. Ichiga tushgan narsa qaytib chiqmaydi. Bundan suv tortib olaman degan odam ham chelagidan, ham zanjiridan ayriladi. Ana shundaylarni to'plashim kerak. Balki Urayimjon bilan Almatov "Kerak bo'lsa bir-ikkitasining og'zini qonatib qo'yinglar" deganini bunga aytgan bo'lishsa-chi? E, yo'q jonlari nechta? Axir Zelemxonning ukasini Almatovga o'rinbosar qilib qo'yganman. Bir-biri bilan it-mushuk. Og'izdan gap chiqarish u yoqda tursin, bir-birining yonida nafas olishga qo'rqishadi.

Karimov yirik jangni boshqarayotgan qo'mondonlardek har bir gapi va harakatini takror xayol g'alviridan o'tkazarkan, o'zini qushdek engil his etayotgandi. Biroz sarxush bo'lganidan keyin esa kuchiga kuch qo'shilgan kishidek shiddat bilan o'rnidan turib ish xonasi tomon yurib ketdi. Gandiraklayapti, deb o'ylashmasin degan xayolda boshini egib oyoqlarini bir to'g'ri chiziq bo'ylab bosgancha odimladi. Kraynov eshikni ochib turmaganda, balki boshi bilan borib urilardi yoki eshikni ochaman, deb biror joyga urilib – surilib ketgudek bo'lsa, alamini ko'ziga ko'ringandan olardi.

U to'g'ri o'rniga kelib o'tirdi-da:

-Televizorni qo'y,-dedi Kraynovga.-Keyin esa chet el radiolarining xabarleri jamlangan blyutenni olib kel va o'zimizga tegishlilarini o'qi. Barcha vazirlar, Ho'kiz, Botsman, Beriya, Jamila, Qassob va Xozyain navbati bilan telefon qilib raport berishsin,-dedi.

Kraynov hammaning laqabini yaxshi bilardi. Hatto o'zining laqabi "Shtirlits" ekanligidan ham xabardor edi. Jo'rabekov "Botsman", Alimov "Beriya", Bosh

vazirning o'rinbosari Baxtiyoq Hamidov "Devor", Abduhoshim Mutalov "Tryapka", Yo'ldoshev "Ho'kiz", Bugrov "Jamila", Almatov "Qassob", Aliev esa "Xozyain"dir. Maqsad Qulni "Kopchyonka" desa, Zelemxonni "Begun" derdi, Bo'ritosh Mustafoev esa "Baqiroq"... Xullas, ularning har biriga bu laqablar do'ppi kiygizib qo'ygandek yarashardi. Jo'rabekov barmoq, desa qo'l kesib keladigan, "onangni..." deb haqorat qilsa, "Qulluq otajon" deb turadigan bo'lgani, Karimovning og'zidan gap chiqmasdan "Labbay" degani uchun unga "Botsman" "unvoni" berilgan. Abduhoshim Mutalovni esa bo'shligi, lattakesarligi uchun "Tryapka" deydi. Yo'ldoshevning ham ko'rinishi, ham harakatlari va hamda do'rillashi ho'kizni eslatardi. Shuningdek, xalacho'p urib turmasa u na aravani, na qo'shni tortardi. Bugrov esa majlislarda ma'sum qizdek o'tiradi, go'shangada kuyovni sarson qilib, ertalab qaynonasiga shikoyat qiladigan kelindek doim ranjida qiyofada bo'lgani uchun Karimov uni "Jamilam" der edi, "Seni bu bo'rilariga em qilib qo'ymayman, Jamilam", deya hazillashardi ham. Almatovni esa ikki yil avval kashf qildi. Qassob xaridorning ko'ziga qarab tanigani, lahm-mi, suyak-mi istaganini his etganidek, Almatov ham Karimovning ko'nglidagini o'qirdi. Kimni o'ldirish, kimni yo'qotish, kimning og'iz-burnini qonatish, kimning boshidan darcha ochib qo'yish... xullas, unga aytishning keragi yo'q edi. U molini ham, xaridorini ham tanigan qassob bo'lgani uchun laqabi uzukka mos tushgan ko'zdek uning "boyligiga" aylangandi. Aliev og'ir arava. Etti o'lchab bir kesadi. Ipning ignasini ham, teshigini ham yaxshi biladi. Kiyimning qaerdan yirtilishi-yu qaerdan so'kilishi, qajerini tikishu qajerini yamash haqida unga aytish kerak emas. Unga sen xo'jayinsan, bilganingni qil, desangiz etadi. Muhammad Qul bo'lsa bo'yi uzun, ozg'inligi uchun qurib qolgan baliqni eslatadi. Bo'ritosh Mustafoev majlislarda xuddi ashula aytgandek baqirib gapiradi. Karimov uni "Baqirog'im" deya erkalatadi, ba'zan. "Baqiroq" deya quvadi. Lekin barcha laqablarning ichida unga eng yoqqani "Maratu" edi.

Mirtemir Karimov bilan gaplashib bo'lgach, yonidagilar unga ishonishmadi. Ayniqsa, Samandarov ikkilanib qoldi. Balki Mirtemir bizni cho'chitish uchun birov bilan gaplashgandir, deb o'yladi. Yo'q, telefon jiringladi va kimdir uni bog'ladi. Balki hech kim bilan gaplashmagan bo'lsa-chi? Axir Karimov menga telefon qilib "Nima qilsang qil, ko'rsatuvlarni yo'qot" dedi-ku? Nega endi izn berdi? Hozir Mirtemirga ishonib, ko'rsatuvni o'tkazib yuborsam, ertaga elkamdagi boshim uchib ketadi. Balki rostdan ham Karimovning fikri o'zgargan bo'lsa-chi? U holda yana baloga qolaman, deb o'ylardi Samandarov.

U xayol surgancha reportajlarni tomosha qilarkan, avval Ziyomov Hayitboevga telefon qildi. Hoziroq Mirtemirning Moskvaga ketishi kerakligini aytdi. Ko'p o'tmay Maqsad Qul sim qoqdi. U safar ertalabga qolganini bildirdi.

-Menimcha reportajlarni ko'rib o'tirishlaringizga hojat qolmadi,-dedi Mirtemir Hayitboev va Samandarov boshchiligidagi hay'atga.-Voqealarni ko'rsatishimizga Islom akaning o'zi ham qarshi emas. Qolaversa, u reportajlarni Moskvaga ham olib borishimizni istayapti.

-To'g'ri,-dedi Samandarov.-Lekin reportajlarda bir yoqlamalikka yo'l qo'yilgan. Urilgan, surilgan, qonga botganlar ko'rsatilibdi. Lekin talabalar tosh otganda yarador bo'lgan mirshablar qani? Nega mirshablar tomonidan hech kim gapirmagan? Nega tarozining ikkinchi pallas bo'sh qolgan?

Mirtemirga Samandarovning voqeani ikki qutbga ajratishi yoqmadi. Lekin o'zi ham reportajlarni tomosha qilganda ana shunday ikki qutblilik haqida fikr yuritmaganmidi? Mana endi hukumat rahbarlaridan biri buni tan olayapti.

-Mirshablar zulm o'tkazuvchi tomon, – dedi Mirtemir. – Ular talabalarni qo'riqlashlari kerak aslida. Har qancha haq bo'lmasinlar yosh bolalarga qarshi o'q otishlari kerak emas edi. Ular dushman yoki dushmanning bolalari emas. Ular bizning tinch bolalarimizga, ukalarimizga, singillarimizga qarshi o'q otdilar, qon to'kdilar. Shu bois bu yerda ularning nomidan siz gapirishingiz kerak. Men ertalabdan buyon tarozining ikkinchi pallasini to'ldirishga urinaman, lekin tarozida turadigan odam yo'q.

-Deputat bo'lsangiz ham, biroz o'ylab gapiring,-dedi qizishib Samandarov.- Odam yo'q, deganingiz nimasi? Mana men kelib o'tiribman.

-Unda juda ham yaxshi, demak, tarozining ikkinchi pallas ham to'ldi, muvozanat saqlandi. Reportajni beramiz, orqasidan siz gapirasiz.

-Men hukumat nomidan gapiraman, – qizishdi Samandarov. – Bugun voqeaga hukumatning qarashini bayon etaylik, ertaga esa mirshablardan birini yozib olinglar, mana bu reportajning ba'zi qonli erlarini montaj qilinglar. Undan keyin ekranga olib chiqinglar. Mana men ham osmondan tushganim yo'q, necha yildan buyon ijod qilaman, she'r yozaman, doston yozaman... Xalqning ruhiyatini yaxshi bilaman. Xalqimiz bu reportajni hazm qilolmaydi. Saylovni ko'rdingiz, aksariyat odam prezidentimizni qo'llab-quvvatladi. Shunday sharoitda xalqni talabalarga qarshi qilib qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Bu voqeani xalq isyon deb qabul qilishi va talabalardan norozi bo'lishi mumkin. Bu masalaning birinchi tomoni, ikkinchidan esa mirshablar bizning posbonlarimiz, ularni

yomon otliq qilishga hech kimning haqqi yo'q. Agar mirshablarga bo'lgan ishonch emirilsa, tuzumimizga ishonch yo'qoladi. Uchinchidan esa, bu reportajlar davlat komissiyasi ishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Mirtemir bu shoirning ikkiyuzlamachiligi haqida ko'p eshitgandi. Viloyatda ishlar ekan, birdaniga hukumatning tepasida paydo bo'lishi ko'pchilikni qiziqtirgandi. O'shanda Mirtemir ham buning sababini surishtirgandi. Karimov u ishlayotgan

viloyatga borganda, majlisda so'z olib, unga bag'ishlangan she'rini o'qibdi. Keyin esa bu she'rni bir ashulachiga yodlatgan ekan, uni sahnaga olib chiqibdi. Orqasidan Karimovning qo'liga viloyat gazetasida bosilgan "Prezidentimiz -madaniyatimizning posboni" sarlavhali maqolasini qistiribdi. Ko'p o'tmay poytaxtga chaqirilibdi...

-Mas'uliyatni men bo'ynimga olaman, – dedi Mirtemir.-Bugun reportajni va sizning sharhingizni e'lon qilaman, ertaga esa mirshablardan intervyu olamiz. Iltimos, studiyaga kirib, fikrlaringizni yozdirsangiz, jonli ravishda chiqmasangiz kerak, har holda. Ko'rsatuvning vaqti o'tib ketayпти.

Mirtemir shunday dedi-da, yigitlarga ko'rsatuvni boshlaymiz, degan ishorat berdi. Samandarov o'rnidan turib, hukumat telefonining yoniga keldi va Abduhoshim Mutalovga sim qoqdi:

-Mirtemir ukamiz Islom akadan ruxsat oldim, Talabalar shaharchasidagi ur- yiqitlarni, o'qdan yarador bo'lganlarni xalqqa ochiq ko'rsatamiz, deyapti. Menimcha, buni ko'rsatib bo'lmaydi. Ertaga voqealarni idora qilolmay qolishimiz mumkin. Mirshablar studiyaga bostirib kelsalar, nima deymiz? Biz qarshilik qildik, lekin Mirtemir ukamiz deputatligini pesh qilayapti.

Samandarov telefon dastasini qo'yishi bilan Mirtemir uning yoniga keldi va jahl bilan:

-Erkakning ishini qilmadingiz. Men sizga deputatligimni ro'kach qilganim yo'q. Bu xususda gap ham bo'lgan emas. Oddiy bir inson sifatida fikrimni aytdim. Qolaversa, men vazifamni bajarayapman, siz esa xalaqit qilayapsiz,-dedi.

-Siz meni erkak emas dedingiz, haqorat qildingiz. Bu deputatlik vazifasini suiiste'mol qilish emas-mi? Xalq bergan ishonchni o'zingizga qalqon qilayapsiz.

-Ming afsuski, deputatlik sha'niga yarashmaydi, deya sizni yaxshilab haqorat qilolmayapman. Chunki siz betingizni charm qilib, shuncha odamning oldida yolg'on gapirdingiz.

Samandarov tirjaygancha xonada u yoqdan bu yoqqa yurdi-da, Hayitboevga yuzlandi:

-Qani siz ayting, men tuhmat qildim-mi?

-Menimcha, Mirtemir ukamiz qizishib ketdi. Siz bor gapni aytingiz. Ko'rayapsiz mening vakolatimni ham qo'limdan olib qo'yayaptilar. Vaholanki, men ham sizning fikringizga qo'shilib, bu reportajni to'xtatmoqchiman.

Mirtemir indamay chiqib ketdi. Reportajlarni ko'rsatuvga hozirlashni buyurib qaytganida xonasida Abduhoshim Mutalov o'tirardi.

-Samandarov emas, men chiqadigan bo'ldim,-dedi u.-Islom aka meni yubordilar. Reportajlarni esa ertaga berarkanmiz. Bugun qisqagina ko'rsatib, reklama qilar ekansiz, o'shanda ertaga hamma to'planib tomosha qiladi.

-Xalqning tavqi la'natini ko'tarish og'ir. Sizlar shunga o'rgangan bo'lishlaringiz mumkin. Agar shu reportaj berilmasa, iste'fomni qabul qiling!-deya eshikni yopib, chiqib ketdi Mirtemir.

Ular reportajdan bir qism ko'rsatib "Ertaga bu haqda batafsil hikoya qilamiz", deb e'lon qilishdi. O'zlaricha na sixni va na kabobni kuydirgan bo'lishdi.

M U X T O R X U D O Y Q U L O V [5 6]

Mirtemir ertalabgacha uxlay olmadi. Saharlab uyining yoniga mashina keldi. "Moskvaga borolmayman" deya mashinani qaytarib yubordi. Ko'p utmay Kraynov telefon qildi.

-Karimovga ayting meni qabul qilsin. Iste'fo bermoqchiman, – dedi Mirtemir.

-Uzr, bu masalalarga biz aralashmaymiz. Bu jiddiy masala, yo'lini topib, o'zingiz uchrashing. Bugun poytaxtda faollar yig'ilishi o'tkazadilar. U yerda uchrashishingiz qiyin, chunki juda ham band bo'ladilar. Menimcha, Moskvaga borib keling. Erta emas, indin Talabalar shaharchasidagi Madaniyat saroyida professor-o'qituvchilar bilan uchrashadilar. O'sha yerda gaplashasiz, – dedi Kraynov.

Darhaqiqat, bu bir imkoniyat, deb o'yladi Mirtemir. Moskvada matbuot konferentsiyasi o'tkazib, bo'layotgan gaplarni dunyo jamoatchiligi oldiga qo'yaman. U ana shu fikr bilan yo'lga chiqdi. Moskvada jumhuriyat tamsilchisi kutib oldi.

-Prezident shaxsan telefon qilib, matbuot konferentsiyasini bekor qildilar. Siz olib kelgan narsalaringizni bizga topshirib, orqaga qaytar ekansiz,-dedi u.

-Nega bekor qilishdi? Men hech narsa olib kelganim yo'q.

-Xalqharakati vakillari idoramizniqurshabolishdi. Tinimsizmatbuotkonferentsiyasi o'tkazishayapti, – dedi tamsilchi. Mirtemir Xalq harakati vakillari bilan uchrashib, bo'lgan voqealardan ularni xabardor etdi. Keyin shu kuniyoq ortga qaytdi. Kelsa, televidenie tinimsiz ravishda Karimovning faollar majlisidagi nutqini takrorlab ko'rsatayotgan edi. U majlisda shu qadar jo'shib gapiribdi-ki, Mirtemirning ham vujudi titradi. Bu unga ishonchdanmidi yoki nafratdanmidi, o'zi ham anglab etmadi.

Karimov hamma orzu qilib yurgan gaplarni gapirgandi:

“Birlik” Xalq harakati va Erk partiyasining bitta maqsadi bor. U ham bo’lsa Vataniga, millatiga xizmat qilishdir. Agar ana shu yo’ldan borishsa, xalqqa ximat qilishsa men islomga ham, mafiyaga ham yo’l beraman.

Ey, odamlar! Olti oy, etti oy sabr qiling, avgust-sentyabrgacha sabr qiling. Tiz cho’kib surayman, so’ng hayotimiz farovon bo’ladi. Men sizlarga hayotni jannat qilib beraman. “Qora kuchlar”dan birinchi navbatda talabalarni, so’ngra sizni qutqazaman.

Qotillar topiladi va javobgarlikka tortiladi. O’q egan yigit mening o’g’limdek, azob chekdim. Uning yurtiga borib, qabrga o’zim qo’yaman va uning xuni uchun qotillardan hisob so’rayman...”

Karimov ayniqsa Iso Xolis yuborgan telegrammani o’qib berganda o’zida cheksiz g’urur his etgandi:

“Mana bu yigit mard ekan. Saylovda yutqazdi. Buni mardona tan olib meni qutladi. Rahmat unga haqiqatni tan olgani uchun!”

...Mirtemir Talabalar shaharchasidagi Madaniyat Saroyiga keldi. Uchrashuv kichkinagina xonada bo’ldi. Karimov bu yerda ham faollar yig’ilishidagi gaplarini aynan takrorladi. Domlalardan ayrimlari uni qo’llashdi.

-Menda bir savol bor,-deya o’rnidan turdi hajvchi Muxtor Xudoyqulov.

Mirtemir uni yaxshi taniydi. Universitetga kirganida ilk darsda shu domla bilan tanishgandi. O’shanda Muxtor Xudoyqulov erkin mavzuda insho yozdirdi. Ertasiga esa besh kishini o’rnidan turg’azib “Sizlar universitetga tankasiz kirgansizlar. Qolganlarning esa orqasidan itargan tankasi bor”, dedi. Mirtemir ham o’sha besh kishining ichida edi. Qolganlar domladan ranjigan bo’lishdi.

-Haqiqat ayovsiz va ranjituvchi bo’ladi,-dedi Muxtor Xudoyqulov.-Haqiqatni himoya qiluvchilar o’jar, cho’rtkesar, qiziqqonga o’xshab ko’rinadilar. Aslida esa ular bunday emas. Ularni shu tarzda ko’rishga istaganlar uchun orzularini ro’yobda tasavvur qiladilar. Men xulosamni osmondan olganim yo’q. Har biringiz ichingizda qanday bildi ekan, deb o’tiribsiz. Lekin ayni paytda meni yolg’onchi ham deyapsiz. Jamiyatimizning inqirozi ana shunda, ichimizda boshqamiz, tashqarida boshqamiz.

Muxtor Xudoyqulov ko’pincha masal yozardi. Masal orqali hayvonlarning tili va obrazida hamma gapni aytish mumkin. Balki shuning uchun ham u xushchaqchaq odam edi. O’zini o’ylantirayotgan va qiynayotgan dardlarni masallarga to’kib, engil tortardi. Mana endi u birinchi bo’lib Karimovni savolga tutmoqda.

-Talabalarni otishga kim ruxsat berdi? Siz mamlakatning boshida o’tiribsiz, bu narsani bilishingiz kerak.

-Yoshingiz nechchida? – so’radi Karimov undan.

-Siz bilan bir yilda tug'ilganmiz,-dedi u.

-E, yashang Muxtorjon! Tengqur ekanmiz, qani ayting-chi, nega talabalarni qaytarib qolmadingiz?

Karimov o'ziga xos "manyovr" bilan Muxtor Xudoyqulovning savolini chetlab o'tib, o'zini nishonga oldi.

-Jurnalistika fakultetining talabarlari ochlik e'lon qilishdi. Ularga "Bolalarim, to'qqiz qatli binoning ustida o'tiravermang, bo'yragingiz shamollashi mumkin", dedim.

Muxtor Xudoyqulov gapini Karimov bo'ldi:

-Ularning buyragi emas, miyasi shamollagan, miyasini davolash kerak! Bidingiz- mi, Muxtorjon. Buyrak shamollasa, go'r ham chalmaydi!

-Go'r chalish, chalmasligi nimaligini bilmadim-u, Lekin... Uning gapini yana Karimov kesdi:

-Mana mening ham buyragim kasal...

Endi Muxtor Xudoyqulov Karimovga mudohala qildi:

-Bizga kelajakda buyragi sog'lom rahbarlar kerak. O'shanda ularning miyasi ham shamollamaydi.

Karimov tushundi-yu tushunmaslikka oldi. Olimlarning ichida u bilan adi- badi aytishni istamadi. Kichik zalda tikilib o'tirgan domlarning ba'zilar Muxtor Xudoyqulovga qoyil qolsalar, ayrimlari bu o'jarligini qo'ymadi-qo'ymadi-da degandek, bosh silkishdi.

Birdan zalda shivir-shivir boshlandi. Tashqarida yuzlarcha talabalar to'planishibdi. Karimov bilan ko'rishmoqni talab qilishayotgan ekan. Ularning vakili sifatida Marat Zohidov bilan "Birlik" Xalq harakatining yo'lboshchilaridan biri bo'lgan Shuhrat Ismatullaev ichkariga taklif qilindi. Avval Marat so'z oldi:

-Men non do'konining yonida turgandim. Non kelmagani uchun talabalar norozi bo'lishdi. Asta-sekin ular ko'payib ketishdi. Shu payt OMONchilar keldi.

Ularning rahbari mening yonimda edi. U kishi juda yaxshi odam ekan. Otishga ruxsat bergan emas, balki meni himoya qilib turdi. O'q otganlar provakatorlardir, "qora kuchlar"ning odamlari. Televidenie esa mirshablarni, Fozilbekovni ayblab ko'rsatuv tayyorlabdi. Xayriyat-ki, bu ko'rsatuv ekranga berilmadi. Umuman, Islom Abdug'anievichga tushunish qiyin. Mirtemir u kishiga qarshi Oliy majlisda to'ntarish hozirladi, u kishini sharmanda qiluvchi bayonot tarqatdi, majlisda haqorat qildi, lekin uni olib kelib televidenienga rahbar qilib qo'ydingiz. Mana endi faqat sizga emas, yurtimizga dushmanlik qilayapti. Hozir Moskvada o'tirib, matbuot konferentsiyasi o'tkazayotgan ekan...

Mirtemir indamay o'rnidan turdi. Unga ko'zi tushib qolgan Marat:

-Mana bu erga ham etib kelibdi,-dedi. Mirtemir so'z so'ragandi, Karimov:

-Bu erga talabalarni tinglashga keldik,-dedi va Ismatullaevga so'z berdi. Keyin vazir, rektor va yana bir necha kishini ishdan olajagini aytib, tashqariga chiqdi. Mirshablar tomonidan qurshab olingan mashinasi eshikning og'zida turardi. U bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Mirtemirning xayolidan Marat ketmayotgandi. Nega bu odam xayolimdan chiqmay qoldi? Darvoqe, u mendan nima istaydi? Nega bu hodisalarga mening nomimni bog'lashga urindi? Bundan uning bir manfaati bormi?

Darvoqe, Marat o'zining fikri bilan yurmaydigan odam. U gohida Kommunistik partiyaning ibratli tanqidchilaridan biriga aylansa, gohida muxolifatning liderlaridan biri bo'ladi. Har kun qiyofasini o'zgartirib turadigan bu buqalamun yuqoridagi akalarining ko'rsatmasi bilan turlanadi. Ulardan qanday topshiriq olsa, o'sha musiqaga o'ynaydi, ammo mahoratli o'yinchi. Uyat, hayo degan narsalarni bilmaydi. Marat degan so'z qaerdan menga tanish? Marat... Marat... Ha, topdim! "Maratu" rivoyatidan. Darvoqe, rivoyatdagi Maratu bilan uning ismi bir-biriga juda yaqin. Maratuning qilmishi, fe'l-xuyidan Marat xuddi andoza olgandek. Balki Marat Maratuning bir necha ming yildan keyin paydo bulgan nusxasidir, balki o'zidir. Yo'q, u menga qarshi bo'lgani uchun Maratuga o'xshatayapman. Axir Marat faqat bugun menga tosh otayotgani yo'q-ku?!. Yillardir u xalqqa qarshi o'ynalgan o'yinlarning bosh qahramoni. Buni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin undan hayiqishadi. Ba'zilar esa bir kun mening ham yoqamga yopishmasin, deb u bilan yaqinlashishga, do'stlashishga harakat qilishadi.

Mirtemir tashqariga chiqar ekan, xayolida "Maratu" rivoyati gavdalandi.

M A R A T U [5 7]

Samoniylarning to'ng'ichi bo'lgan hukmdor tog' etagida yashagan Mazangi qabilasining boyliklari qoyalar ostidagi g'orda ekanligini taxmin qilardi, ammo bu g'orning og'zi qaerdaligini bilmasdi. U qabila boshlig'ini, uning ayolini har qancha qiynamasin, biror gap ololmasdi. Ularning ikki o'g'li bor edi. Biri qiynoqlarda jon berdi, ikkinchisi esa hukmdorning oyog'ini o'pdi. Uning pulga, mansabga oshiqqligini sezgan hukmdor avray boshladi:

"Seni qabilaga rais etib tayinlayman. Boyliklar qaerda ekanligini aytsang, bas. Yarmini senga qoldiraman."

"Otam Murunta tog'idan oltin koni topgandi. Ana shu oltinlarni g'orlarga yashirdi. Kirish yo'llarini hatto bizga ham ko'rsatmadi".

"Nahotki, hech kimning xabari bo'lmasa?"

"Kunduz kunlari otam oltinlarni qoyalarning etagiga qadar tashitardi, keyin yarim tunda onam bilan ularni qaergadir olib borib yashirardi. Bizga esa bu oltinlarning g'orlarga yashirganini va ularni meros qoldirajagini aytardi."

”Dunyoda qanday qiynoq, qanday iskanja bo’lsa otangga va onangga qarshi qo’lladim, lekin miq etishmadi. Men ertaga ertalab uzoq safarga ketaman, agar sen bu ishning uddasidan chiqsang nafaqat bu qabilaning, balki qo’shni qabilalarning ham xirojini terishni senga topshiraman.”

”G’or og’zini bilsa-bilsa onam biladi. Lekin uning bardoshi otamnikidan ham yuksak. O’ldirsangiz ham bir so’z olish qiyin.”

”Ayol zotidan gap olishning yo’llari ko’p. Sen otangga juda ham o’xshaysan. Gavdang, tovushing, ko’rinishing quyib qo’ygandek otangnikiga o’xshaydi. Yarim tunda onangning qo’yniga kirasan. Unga hukmdor boshingga urganini, hamma narsani unutganingni aytib, g’orning og’ziga olib boradigan yo’lni so’raysan.”

”Baribir aytmaydi. Buning ustiga men onamning qo’yniga kirolmayman.”

”U holda ukangga o’xshab qiynoqning quli bo’lasan. Avval ko’zingni o’yib olaman, keyin barmoqlaringni kesaman. So’ngra esa shakar tomiringga cho’g’ bosaman. Tanla, bu azoblar yaxshimi yoki qabilaning raisi bo’lish-mi? Istasang, farmonni va oltinlarning yarmiga egalik qilishing haqidagi qarorimni hoziroq charm teriga yozib, qo’lingga beray. Belingga bog’lab ol. U senga kuch beradi.”

“Onam baribir aytmaydi.”

“Oqshom onangni so’roqa chaqirib og’ziga sharob to’kamiz. Sen qorong’uda uning qo’yniga kirasan. Uni erkalaysan. Nozik tuyg’ularini junbushga keltirasan. Meni la’natlaysan. Bu azoblardan yaqin orada qutilishini quloqlariga shivirlaysan. Butun istaklarini qondirasan. Ana undan keyin oltinlar ham, mansab ham seniki.”

Maratu xukmdorning aytganini qildi. Onasidan g’orga olib boradigan yo’lni o’rganib, chodir tashqarisida poylab turgan hukmdorning yoniga yugurdi.

”Sen mard bola ekansan. Menga ko’p foydang tegadi. Bu qabilaga rais qilib qo’ysam, noinsoflik qilgan bo’laman. Seni o’zimga xazinabon etib tayinlayman. Xalqdan soliq yig’asan.”

”Qulluq, qanday amringiz bo’lsa, hammasini bajaraman.”

”Unday bo’lsa ota-onangni yo’qot. O’g’li bilan yotgan ona boshqalar bilan ham yotadi. Otang esa senga dushman bo’ladi. Chunki men bilan birga bo’lishingni xoinlik, deb hisoblaydi.”

Oyni etak bilan yopib bo’lmaydi, deganlaridek, Maratu qilmishi ham xalq orasida tillardan tillarga ko’chib yurdi. Maratuning devonbegi bo’lgani, undan keyin Bosh vazirga qadar yuksalgani paytida odamlar bu mudhish voqea haqida ovoz chiqarib gapirishga qo’rqishardi. Ammo bir kun hukmdor xalqning oldiga chiqib:

-Men Maratuni halol, pok inson, deb bilgandim. Uning ota-onasi va ukasini o’ldirishgach, bu oilaga yordam qilmoqchi bo’ldim. Bu bolani Bosh vazirlikkach ko’tardim. Lekin o’limga hukm etdim. Chunki u bir paytlar o’z onasining qo’yniga kirgan ekan. Buni e’tirof etdi. Shu bois

Maratning jasi butun qish bo'yi dorda osig'lik turishini buyuraman. Hamma bundan ibrat olsin. Bu nafaqat xoinning jazosi, balki bu yarim tunda aldangan onaning qarg'ishi hamdir, – dedi.

Odamlar hukmdordan qo'rqqanlari uchun “Uni bu ishga sen boshlaganding. Ikkalang ham la'nati shaytonning darsini olgansan” deb aytisholmadi. Ammo “Maratu” afsonasi ellardan ellarga, yillardan yillarga ko'chdi. Rivoyatga aylanib yashadi. Kimdir bu rivoyatdan dars oldi, kimdir o'z bilganidan qolmadi.

Marat ham ana shu dars olmaganlar toifasidan edi. U ham hukmdor uchun har qanday buyruqni bajarishga tayyor bir Maratu edi va shunday bo'lib qoldi.

I S T E ' F O [5 8]

Karimov kechqurun mahalliy va chet el muxbirlari ishtirokida matbuot konferentsiyasi o'tkazdi. Mirtemir uning izini yo'qotib qo'ymaslikka uringan izquvardek matbuot konferentsiyasiga keldi. So'z olib, bo'lgan voqealarni qisqa qilib gapirdi. Lekin Karimov odatiga ko'ra javob berish o'rni boshqa narsalar haqida to'xtaldi. Konferentsiyadan keyin Mirtemir Karimovning yoniga borib, arizasini topshirmoqchi bo'ldi. Uning kelayotganini ko'rgan Karimov muxbir qizning belidan quchoqlab, unga muhim gapi bordek, qulog'iga bir narsalarni pichirlagancha, orqa eshikdan chiqib ketishdi.

Mirtemir iste'fo arizasini ko'paytirdi-da, bir nusxasini Kraynovga, yana bir nusxasini Mavlonga berarkan, koridordan Alimovning kelayotganini ko'rib qoldi:

-Sizni ham qiynab yurmay, meni yo'qotish uchun ovora bo'lishingizga hojat qolmadi. Mana iste'fom, – deya bir nusxasini unga uzatdi.

Alimov sovuq basharasini bujmaytirgancha kulimsiragan ko'rinish berishga urindi.

-Ukajon, meni Bosh vazirga o'xshatdingiz. Iste'fongizning adresi Bosh vazirdir,- dedi.

-Bosh vazir ham sizning qo'g'irchog'ingiz bo'lgani uchun uni ovora qilib yurmay dedim-da. Mayli, ovorasi bor-mi? Sizga u olib kela qolsin, – Mirtemir shunday deb qayrilib Devondan chiqib ketdi.

Balki ayb o'zimdadir deb o'yladi Mirtemir. Odamlarga qanday muomala qilishni bilmayman. Shu muomaladan keyin endi u sen haqingda nima deb o'ylaydi? Madaniyatsiz ekan demaydimi? E, unga o'xshab madaniyatli supurgi bo'lgunga o'lib ketgan yaxshi emasmi? O'jarsan o'jar, boshingga nima kelsa mana o'jarligingdan ko'r!

Mirtemir Oliy kengash binosiga kelsa, Vohidovning xonasida Iso Xolis va yana ikki-uch kishi o'tirishgandi. Vaqt allamahol bo'lib qolganiga qaramay ularning bamaylixotir o'tirishlaridan, kimnidir kutishayotgani ma'lum edi. Salom-alikdan keyin Mirtemir bo'lgan voqealarni Vohidovga

gapirib berdi. U bosh chayqab qo'yarkan "Mana Iso Xolis davlat komissiyasi tarkibiga kirdilar. Shu bois bu masalaning bosdi- bosdi qilinishidan qo'rqmasak ham bo'ladi," dedi.

Iso Xolis esa:

-Iste'fonomangizni bering, biz gazetamizda nashr ettiramiz,-deya Mirtemirdan iste'fomaning bir nusxasini oldi.

Keyin ma'lum bo'lsa, ular ham Bosh vazir Abduhoshim Mutalov bilan uchrashmoqchi ekanlar. Bosh vazir Mirtemirning iste'fonomasini erinmay, toqat bilan o'qidi:

"Poytaxtning Talabalar shaharchasida ro'y bergan fojea yurtimizda oshkoralik, rostso'zlik yo'qligi, inson huquqlarini toptash hali beri barham topmasligini isbotladi. Men rahbar bo'lgan jumhuriyat televideniesidan ko'rsatuvlar olib qo'yildi. "Munosabat" rukni bilan hozirlangan maxsus ko'rsatuv ekranga chiqarilmadi. Oshkoralik uchun kurash yo'llari bekitib tashlandi. Meni iste'fo berishga undagan sabablar quyidagilardir:

1. Har qancha urinmaylik, Talabalar shaharchasidagi voqealar haqida oshkora fikr bildirilishiga yo'l berilmagani.
2. Parkent voqealari yuzasidan tuzilgan komissiyaning xulosasi sir saqlangani kabi Talabalar shaharchasidagi fojea yuzasidan ham o'sha uslub qo'llanilayotgani.
3. Yana yakkahokimlik, diktatura boshlanayotgani. Xalqning og'ir ahvolini engillatish o'rniga faqat va'dalar berish va mansabtalash bilan band bo'lishayotgani.
4. Siyosatda barqarorlik yo'qligi, milliy birlashuv haqida tinimsiz gapirilgani holda amalda teskarisini qilib, nizo-adovat keltirilib chiqarilayotgani.
5. Kadrlarni tanlashdagi jiddiy xatolar, bu boradagi o'pirilish, rahbar kadrlarga ishonchsizlik, ularni asosan shaxsiy sadoqatiga qarab tanlash, qobiliyati, bilimi e'tiborga olinmayotgani.
6. Mahalliychilik illatining ildiziga suv solish, odamlarni bir-biriga qarshi qo'yish kasalini davolash o'rniga avj oldirilayotgani.
7. Xalq taqdiri va kelajagi bilan shug'ullanish o'rniga ikr-chikirlar, quvg'inlar, inson huquqlarini toptash bilan band bo'linayotgani.
8. Muxolifatdagi partiya, harakat va uyushmalarga nisbatan minbarlardan yaxshi gap aytilib, amalda ular ta'qib qilinayotgani.
9. Xalqning ahvoli kun sayin og'irlashib borayotgani, buning oldini olish uchun aniq dastur yo'qligi.
10. Millatvakillarining erkin bahslari, bor gapni ayta olishlari uchun sharoit yaratilmagani va aksincha og'ir, nosog'lom vaziyat vujudga keltirilgani, fikrlar, takliflarga e'tibor qilinmayotgani...

Ana shu sabablarga ko'ra, hukumat tarkibidan chiqaman hamda o'zimni unga

nisbatan muxolifatda, deb hisoblayman. Hukumat tarkibida turib bu illatlarga qarshi kurash yo'lini topmadim. Hukumat a'zolari uchun yo'llar berk va ochilmasdir..."

Iste'fonomani o'qib chiqqan Bosh vazirning qo'li titrayotgan edi. U qurib qolgan lablarini tili bilan ho'llagan bo'ldi-da, gapirishga shaylandi, lekin nimadir bo'g'ziga tiqildi. Iste'fonomani yon daftarining ichiga qo'ydi va o'rnidan turib, Mirtemirning qo'lini mahkam siqdi. Keyin uning elkasidan quchoqlagan bo'lib, eshik yoniga qadar kuzatdi. U lom-mim demasa-da, xayrixoh ekanligini Mirtemir angladi. Shu bilan birga uning bu harakatlari: "Bu siz bilan oxirgi uchrashuvimiz" ma'nosiga ham kelardi.

Mirtemir chiqib ketishi bilan Bosh vazir maslahatchi Alimovning yoniga yugurdi:

-Buni muxolifatning gazetasida ham nashr etishar ekan. Boshimizga balo bo'lmasin,-dedi.

Alimov xotirjamlik bilan iste'fonomani olarkan, o'qib ham ko'rmagani Bosh vazirni ajablantirdi. Ammo Alimov allaqachon iste'fonomaning nusxasi o'ziga etib kelgani va Karimovga olib chiqib ko'rsatgani haqida unga hech narsa demadi. Faqat:

-Muxolifatning gazetasini ham o'zimiz bosamiz, qo'l qo'ymasak, chiqmaydi, – deya Bosh vazirni tinchlantirdi.

Bosh vazirni tavoze bilan kuzatib qo'ygan Alimov Urayimjonga telefon qildi:

-Hujjatlar bitdi-mi? Tezroq olib kelsangiz oqsoqolga qo'l qo'ydiramiz va Oliy kengash rayosatiga yuboramiz. Kechasi bilan rayosatni to'plash kerak,-dedi.

Xuddi bir narsani unutgan kishidek, "gapni" kalta qilgan Alimov Oliy kengash raisi Yo'ldoshevga bog'landi:

-Kechasi rayosat a'zolarining ruxsatini olish kerak bo'ladi. Deputatlardan birining daxlsizligini bekor qilamiz,-dedi xotirjam ohangda. Ammo deputatning kimligini aytmedi. Yo'ldoshev so'z kim haqida borayotganini bilardi.

Mirtemir uyining yoniga kelganda kiraverishda uni bir kishi qarshiladi.

-Ismim Po'lat,-dedi u.-mirshab bo'lib ishlayman. Ilgari vazir o'rinbosari bo'lgan bir akamiz siz bilan uchrashmoqchilar.

Mirtemir bular yana biror o'yin boshlayotganga o'xshaydi, deb o'yladi-da, haligi odamning boshidan oyog'iga qadar razm soldi. Novcha, qishloqlik yigit, yuzida samimiyat bor. Shunga qaramay bularga ishonish qiyin, deya o'ylagan Mirtemir, indamay ichkariga qarab yurdi. Po'lat uning orqasidan kelib, u bilan birga liftga chiqdi.

-Vazirlikda sizga qarshi fitna tayyorlanayapti. Bu ishning boshida Urayimjon turibdi. Talabalar shaharchasida ham “O’q otish” buyrug’ini u bergan.

-Hammasi to’g’ri bo’lishi mumkin. Lekin men bu soatda o’zim tanimagan odam bilan uchrashishga borolmayman,-dedi Mirtemir “iltimos meni tinch qo’ying” degandek.

-Iste’fonomangiz Karimovni juda ham qizdiribdi,- dedi Mirtemir bilan birga liftga chiqqan Po’lat.- Ertalabga qadar rayosatning ruxsati chiqadi va sizni darhol qamoqqa olishadi. Urayimjonning odamlari Jizzaxga borib, bir necha kishidan “Mirtemir bizdan pul istadi”degan yozuv olib kelishdi. Odamlarni majburlab, qo’rqitib shunday yozuv olishgan. Mana nusxalari...

Mirtemir liftdan chiqarkan:

-Mana bu uy Milliy xavfsizlik qo’mitasi boshlig’i G’ulom Alievnikidir,-dedi chap tomondagi temir eshik tomonga ishora qilib. Shu bois bu yerda gaplashishimiz tahlikali. Yuring, yaxshisi uyga kirib gaplashamiz.

-Uyingizdan bu yer bexavotir. Ichkariga kirsak, suhbatimizni yozib olishlari aniq,- dedi Po’lat sodda ohangda.

Mirtemir maktublarga nazar tashladi.

“Men Hakim Eshqobilov Jizzaxda baliqchilik bilan shug’ullanaman. Biz baliqlarni qo’shni jumhuriyatga olib chiqayotganimizda bojxona xodimlari ushlashdi. Keyin televizorda ko’rsatishmasin, deya deputat Mirtemirning yoniga bordik. U bizdan katta miqdorda pul istadi. Bu tushuntirish xatini o’z ixtiyorim bilan yozdim, hech kim majbur qilgan emas. Yana shuni qo’shimcha qilmoqchimanki, hurmatli prezidentimiz xalq uchun qayg’urayotgan bir paytda Mirtemirga o’xshaganlarning majlisida u kishini haqorat qilishi va hamda bizdan pora so’rashi aql bovar qilmaydigan ishdir...”

Keyingi xatda esa poraning miqdori va Mirtemirning bu pulni olgani haqida gap borardi.

-Hozir bu odamlarning hammasi eski boshlig’imizning uylarida o’tirishibdi. Ulardan bu maktubni yozdirib olgan mirshablardan biri ham o’sha yerda. Sizga qarshi boshlangan bu fitnani o’zingizdan boshqa hech kim to’xtatolmaydi,-dedi Po’lat pichirlagan ohangda.

-Zotan, yo’qotadigan narsamiz yo’q. O’ychi o’ylaguncha tavakkalchi ishini bitiradi, deganlar. Biz ham tavakkal qildik. Qani ketdik!

Mirtemir shunday deb uyiga ham kirmay orqaga qaytdi.

Eski boshliqning hovlisi eski shahardagi qishloqsifat mahallalardan birida ekan. Po’lat darvoza chetidagi tugmani bosgandi kimdir ko’chaga qaragan deraza pardasining yonidan tashqariga mo’raladi. Keyin eshik ochilib, ikki mirshab chiqdi. Ular tavoze bilan Mirtemirni ichkariga taklif qilishdi. Po’lat esa atrofga alangalab, yondagi va orqadagi ko’chalarga qarab keldi.

Mirtemir birdan seskanib to'xtadi. Darvozaxonada kattaligi eshakdek bo'lgan ikkita it turardi. Garchi itlar zanjirga tortilgan bo'lsa-da, ularning orasidan o'tish mumkin emasdi. Ikki mirshab bir hamla bilan itlarni ikki tomonga tortdi-da " Siz ichkariga kiring", deya Mirtemirga oynavand xonaning eshigini ko'rsatishdi.

Mirtemir ichkariga kirganda oynavand xonaning to'rida faqat bir kishi o'tirardi.

-Xush keldingiz, oka, – deya o'rnidan turdi u. Buyi kalta, to'ladan kelgan bu odam ellik-ellik besh yoshlar atrofida edi. Ko'zlari kulib turgan bu odam Mirtemirni bag'riga bosdi.-Ismim G'ani, Karimovning ayovsiz qilichi birinchi bo'lib menga sanchilgan. Men Ichki ishlar vazirligida tartib o'rnatmoqchi bo'ldim, lekin Karimov ishdan olib tashladi, ustimdan jinoiy ish qo'zg'adi. Hozirgacha sudma sud yuribman. Lekin Ichki ishlar vazirligida faqat hayvonlar emas, odamlar ham ishlaydi. Adolatsizlikdan kuyganlar, haqsizlikka uchraganlar menga kelishadi. Aslida hozirgi vazir ham mening shogirdim. Bu qadar sotilib ketishini o'ylamagandim.

G'ani aka Mirtemirga o'zi o'tirgan joyni ko'rsatdi:

-Qani to'rda siz o'tiring. Sizni g'oyibdan yaxshi taniyman. Bunday sharoitda uchrashishimizni xayolimga ham keltirmagan edim. Bugun Jizzaxga borib, odamlarni qiynab, shikoyat yozdirib olishibdi. Keyin ular arz qilib Ichki ishlar vaziriga kelishibdi. Vazir qabul qilmagach, ularni mening uyimga olib kelishdi. Aslida Urayimjon deganlari tentaksifat odam. Bo'lmasa, qidirib-qidirib sizga hurmati baland bo'lgan odamlardan shikoyat yozdirib olishadi-mi? Biroz bosh qotirishsa- ku etmish ettita dushmaningizni topishardi. Shunisiga ham shukur.

U to'xtamay gapirar ekan, Po'latga qarab:

-Kennyonga ayt, dimlamani suzsiz. Keyin mehmonlarni ham chaqir, – dedi. Ichkaridagi xonadan bir kapitan va uch oddiy odam chiqdi. Ular yugurib kelib Mirtemir bilan ko'rishdilar. G'ani akaning "o'tiringlar" imosidan keyin o'rindiqlarning uch qismida chekinibgina o'tirishdi. Keyin G'ani aka:

-Qani kimdan boshlaymiz? Qisqa va tez-tez gapiringlar, chunki ertalabgacha ishimiz ko'p,-dedi.

Qorachadan kelgan kishi so'z boshladi:

-Bizning umrimiz baliqchilik bilan kechadi. Birov bilan ishimiz yo'q. Sizni televizorda ko'rib turamiz. O'tgan kun bojxona xodimlari ushlashdi. Bu oddiy hol, har doim ushlashadi. Chunki balig'imizga ular ham sherik, xaqlarini olib, qo'yib yuborishadi. Biz Qozog'istonga obborib sotib kelamiz. O'tgan kun ham haqlarini olishgandi, lekin hech narsa bilmagandek uyimizdan olib mirshabxonaga keltirishdi. So'roq qilishdi, bir-ikki biqinimizga turtishdi ham. Keyin bir xatni ko'rsatib, uni ko'chirib, imzolab berishimizni talab qilishdi. Yo'q deganimizga qo'yishmadi. Uyimizni tintuv qilish uchun odam yuborishdi, o'zimizni qiynashdi. Shundan keyin mayli, yozib beramizu keyin poytaxtga borib shikoyat qilamiz, deb o'yladik. Nega bizni tanlashdi? Haligacha hayronmiz.

-Qo'raga sen tushding, uka,-deya so'zga aralashdi G'ani aka. – Urayimjon bu ishni o'zi ishongan odamga topshirgan. U odamning ishongani esa seni balig'ingga sherik bo'lgan kishilar.

Keyin Jizzaxdan kelgan yana ikki kishi ham bo'lgan voqeani aytib berarkan:

-Faqat biz kelmoqchi emas edik, chunki mirshab degani hukumat degani. Ularga qarshi turib bo'lmaydi. Lekin mana bu odam "Mirshablardan qutilasanu Mirtemirdan qutulolmayсан. U baribir bu ishni fosh etadi", deb hol-jonimizga qo'ymagandan keyin keldik. Yo'q erdan boshimizga g'avg'o qo'ndi,-deyishdi.

-Vaqtimiz ziq,-dedi G'ani aka va Mirtemirga yuzlandi. – Siz kelguningizcha men bulardan tushuntirish xati yozdirib oldim. Mana bu kapitan ukamiz esa ularni urganlardan biri. Urayimjonning ishongan tog'i. Ammo bugun qilmishiga iqror bo'ldi. Agar ishdan quvilsa, bir burda nonini mana biz topib beramiz. Qolaversa, buning rahmatli otasi professor Ernazarov universitetda sizga dars bergan. Haqiqatni sevgan inson edi. Bu yigit uning ruhini shod qildi. Otasini yaxshi tanirdim. Mening do'stim edi, nur ichida yotsin. Hozir dimlamani eylik, keyin sizga javob beraylik. Ertalabgacha bir yo'lini qiling, kechikib qolmang. Allaqachon rayosat a'zolaridan ruxsat olib qo'yishgan bo'lishsa kerak.

Mirtemir rahmatli Ernazarov haqiqatga yo'l izlab o'lib ketganini eslarkan:

-Bizni ham haqiqat uchun kurashishga chorlab ketdi, rahmatlik. Mayli,ovqat eyishni boshqa kunga qoldirsak, rayosat a'zolarining ba'zilari hali Oliy kengashda edilar. Erkin aka ham o'sha yerda edi. Balki u kishini ko'rishga ulguraman, – deya yo'lga chiqdi.

-Bugundan boshlab Po'latjon sizning yoningizda yuradi. Unga ishonavering. U ham Karimovdan aziyat chekkan odamlardan. Ko'rinishiga qarab yosh deb o'ylamang. Qamoqda ham o'tirib chiqdi,-dedi G'ani aka Mirtemirni kuzatib qolarkan. – U sizning qo'rimangiz. Bir-birimizni qo'rimasak, bir butun kuchga

aylanmasak Karimovga qarshi turishimiz qiyin.

Mirtemir Oliy kengashga kelarkan, kuchiga kuch qo'shilgandek edi. Chunki u keyingi kunlarda o'zini ancha yolg'iz his etayotgandi. Qarasa, atrofda Karimovning qilmishlaridan kuyganlar, uning kirdikorlarini ko'rib, tushunib yurganlar ko'p ekan.

Ha, deb o'yladi Mirtemir xalq dengizdir. Shoir bu jumlaning osmondan olgan emas. Xalq qudratli kuch. Faqat bir butun bo'lgandagina kuch. Lekin tarqoq holda ojizdir. Yakka-yakka hoida esa sindirilishi juda oson. Buvilarimiz pahlavonlar haqida ertaklar so'ylarkanlar, bir cho'pning sinishi osonligi va bir dasta cho'pning sinishi mushkulligi haqida bekorga gapirishgan-mi? Bu-ki cho'p, inson ham bir o'zi qolsa, avvalo o'zini o'zi eydi, o'zini o'zi sindiradi, maxf etadi. Agar uning yonida do'stlari, hamfikirlari bo'lsa, ular jipslashib metin irodaga, buzilmas qal'aga aylanadilar. Birlashgan kuch birlashmagan puch, deb bekorga aytishmagan.

Mirtemir xayol surib kelar ekan, Oliy kengashga yaqinlashib qolganlarida beixtiyor oltinchi qavatga nazar soldi. Vohidovning xonasida chiroq yonib turardi. Demak, hali shu yerda.

-Hozir oqsoqolning o'zlari telefon qildilar,-dedi u.-Siz bizning qo'mitamizning a'zosi bo'lganingiz uchun meni ham koyidilar. Uka, bu erlaradan uzoqroq joyga ketish kerak. Men imzo otmaganim bilan hech narsa o'zgarmaydi.

Mirtemir Vohidovdan shunday javob chiqishini bilardi. Unday bo'lsa nega keldi? Yoki cho'kib ketayotgan odam uchun xas ham umid-mi? Yo'q, bu odamning xaschalik umidbaxshligi ham yo'q. Mirtemir bu hissiyotini Vohidovga sezdimagan bo'lsada, shart burilib xonadan chiqib ketishi bu hislarni tashqariga urdi.

Bu ham odobsizlik bo'ldi, deb qo'ydi ichki "men" unga. Lekin Oshkoralik qo'mitasidan qabulxonaga qadar juda yaqin bo'lgani uchun ichki men bilan bahslashishga vaqti yo'q edi.

Oliy Kengash raisi Yo'ldoshevning qabulxonasidagi nusxa ko'paytirgich yordamida barcha hujjatlarni ko'paytirib olgan Mirtemir, bir nusxasini kotibga uzatdi:

-Buni raisga berib qo'yasiz,-dedi.

So'ngra Karimovning qabulxonasi, Bosh prokurorga ham bir nusxadan ajratib, ularning yarim tunda mudrab o'tirgan kotiblariga qoldirdi.

Uyiga qaytarkan, "Xalq so'zi" gazetasi binosining chiroqlariga ko'zi tushdi. Gazetachilar ertalabga qadar ishlashlarini yaxshi bilardi. Bu yer unga so'nggi umid bulib ko'rindi-mi, Po'latga:

-Sizni ham charchatib qo'ydim, shu erga ham bir kirib chiqay,-dedi. Ahmadjon Muxtorov shu yerda ekan.

-Bu fitna. Yaxshilab yozing, gazetaga chiqaramiz,-dedi Ahmadjon aka hamma gapni batafsil eshitgach va hujjatlardan bir nusxa olib qoldi.

Mirtemirning uyquasi qochgan edi. Shu bois Po'latga "Yuring, uyga borib, hangoma qilamiz, biroz ichamiz", dedi.

Umr yo'ldoshi xavotirlanib, kutib o'tirgan ekan. Bir zumda dasturxon tuzaldi va ovqat keltirildi. Po'lat bir piyola aroq ichgandan keyin "ochilib ketdi".

-Mirtemir aka, bular juda ayovsiz odam, bular uchun chumolining o'rni boru insonning o'rni yo'q,-dedi. Keyin esa o'z dostonini boshladi.-Men tog'larga yaqin bir qishloqda tug'ildim. Otam yoshligida o'pka kasalidan vafot etgan ekan, onam ham uzoq yashamadi. Buvimning qo'lida qoldim. Maktabni bitirarkanman, buvimdan ham ayrildim. Keyin hayo-huyt deb Toshkentga keldim. O'qishga kirmoqchi bo'ldim, kirolmadim. Mardikor bozoridan bizni ushlab ketgan mirshablar o'z uylarida ishlatishardi. Ular bilan tanishib qoldim. Bir-ikki yildan keyin meni yo'l soqchiligiga ishga o'tkazishdi.

Orzuim o'qish edi. Hech narsaga e'tibor qilmay Avtomobil yo'llari institutining kechki bo'limiga kirdim. Bitirgunumga qadar shahar soqchilar bo'limigacha ishga keldim. Biz yo'lda turarkan "plan" berishardi. Bu pora planini bajarish uchun shoferlardan pul yig'ardik. Shahar idorasiga ishga o'tganimda esa, men o'zim soqchilarga "plan" beradigan bo'ldim. Chunki rahbarimiz mendan istardi. Bir kuni shaharda katta avariya bo'ldi. Darrov etib borsak, engil mashina ichida sakkiz nafar talaba halok bo'libdi. Mirshab yigit ho'ngir-ho'ngir yig'lardi. Nima gap, deya uni chetga tortdim: "Ruldagi bola mast edi. "Plan" to'lsin, deya o'tkazib yubordim."

Bu voqeadan juda ta'sirlandim. Bir kuni majlisda idoramizda bo'layotgan voqealarni, "plan" masalasini o'rta tashladim. Bu vijdotsizlikdan uyalish kerakligini aytdim. Insonlarning umriga zomin bo'layapmiz, dedim. Darhol komissiya tuzildi, ikki kundan keyin meni qamashdi. Mirshablar uchun alohida qamoqxona bo'lishiga qaramay meni oddiy jinoyatchilarning orasiga tashlashdi. Men ko'rgan azobni boshqa hech kim ko'rmasin. Boshimga nima kelsa ham tilimdan keldi, deb chidadim. Tilim vijdonimning buyrug'ini bajargandi. Ammo eng dahshatli qiynoqni hamkasblarimdan ko'rdim. Men tergovda Ichki ishlar vaziri birinchi o'rinbosari G'ani akadan boshqa hammasi qo'l ostidagilarga "plan" berishini va ularni pora olishga majbur qilib qo'yishlarini ochiq aytdim. Keyin Karimovning nomiga ariza

yo'zib, yashirincha tashqariga chiqardim. Karimovgacha etib, ortga qaytdi. Mendan boshqalarga emas, bevosita G'ani akaga pora berganim haqida soxta ko'rsatmani imzolashimni talab qilishdi. Imzolamadim. Do'pposlashdi. Qaburg'alarim sindi, lekin imzolamadim. Keyin shishaning ustiga o'tirtirishdi. Baribir imzolamadim.

Undan keyin kandaydir ukol qilishdi. Hushimdan ketib qolibman. O'sha payt qo'l qo'ydirib olishibdi. Buni videolentaga ham tushirishibdi. O'zinga ko'rsatishdi. Xuddi mastga o'xshab o'tiribman. Mening ko'rsatmam bo'yicha G'ani akani ishdan bo'shatishdi. Suddan keyin uzoq bir viloyatga jo'natishdi. G'ani aka meni ko'rishga keldi. Uning ko'ziga qaray olmadim. Lekin hamma gapni ochiq-oydin aytib berdim. Tanish-bilishlari orqali meni qamoqdan chiqarib oldilar. Ko'rib turibsiz, bugun yana mirshabman. Oddiy soqchiman, ya'ni hayotimni qaytadan boshlayapman. Faqat oddiy soqchilardan farqim shuki, ularga o'xshab yuqoridagilar uchun pul to'plamayman. Shu sababdan meni yomon ko'rishadi. Ammo G'ani akaning odami, deb indashmaydi. Vaqti kelganda foydalanish uchun hozircha ko'zlarini yumib turishibdi.

-Oilangiz qaerda? – deb so'radi Mirtemir Po'latdan.

U uh tortgancha, so'nib qolayotgan sigareti bilan yangisini yoqdi-da, chuqur- chuqur simirib:

-Ular nafaqat mening umrimni, balki oila a'zolarimning umrini ham xazon qilishdi,- derkan, og'zidan pishqirib chiqqan sigaret tutuni yuzini qopladi. U shu damda quyuq tuman ichida qolgan odamga o'xshardi. Tuman tobora xiralashib uning mungli ko'zlari charaqlab yonayotgandi. Lekin bu yonish mamnuniyat yoki sevinch alomati emas, balki nafrat alangasi edi.-Meni qamashgandan keyin uyimni tortib olishdi, mol-mulkimni musodara qilishdi. Xotinimga "Bundan ajralmasang kuningni ko'rsatamiz" deyishgan ekan, bolalarni olib qishloqqa ketib qoldi. Qamoqdan chiqqanimdan keyin huzuriga bordim. Lekin meni ostonadan quvdi. "Tilini tiyolmagan erkak bilan yashamayman" dedi. Bolalarimni ko'rsatishmadi. Araqqa ruju qo'ydim. Xotinimning otasi meni mirshablarga olib borib topshirdi. Yana oraga G'ani aka tushdi. Keyin poytaxtda qaytadan

uylandim. Maoshdan boshqa topadigan pulim yo'q edi. Bir kun xotinimning barmog'ida brilliant uzuk, quloqlarida brilliant halqa ko'rib qoldim. Yorug' dunyom yana qaytadan qorong'u bo'ldi. Undan qaerdan olganini so'radim. Janjal ko'tardi. "Nobakor yer olib bermagandan keyin o'zim topaman-da" dedi. Shundan keyin shubhalanib orqasidan poyladim. Oldingi ishlagan idoramning boshlig'i bilan yurar ekan. Uni aldab yo'ldan chiqarishibdi. "Plan"ni bermaganlardan nima olishni yaxshi bilamiz" dedi boshliq. Xotinim bilan ajraldim. Boshliqni esa o'ldirmoqchi bo'ldim. Lekin G'ani aka "Bir boshliqning o'limi bilan dunyo tuzalmaydi. Qancha-qancha boshliqlar, qancha-qancha oilalarni buzishmoqda, ne-ne hayotlarni zimiston qilishmoqda" dedi. Shundan keyin G'ani akaning safida mujodalaga kirdim. Hozir ko'pchilikka aylandik. Bugun bo'lmasa ertaga, ertaga bo'lmasa indin, baribir bir kun kelib ulardan hisob suraymiz.

Mirtemir Po'latning hikoyasini tinglab bo'lgach, unga taskin beradigan so'z topolmadi. Chunki shu damda uning o'zi taskinga muhtoj edi. Po'latni kuzatib qo'ydi-da, qo'lga qalam olib qog'ozni qoralay boshladi.

F I T N A [6 0]

"Fitna..." Mitemir sarlavhani yozdi-da, biroz xayol surib turgandan keyin ilk satrni bitdi: "Tog'iga qarab tarloni, suviga qarab iloni..."

Tong bo'zarib quyoshning nurlari derazaning oynasiga sanchila boshlaganda ham Mirtemir maqola yozib o'tirardi.

U so'ngi satrlarni takror o'qidi:

"Odamlar, el-ulus dardidan ko'z yumgan o'g'il-oqpadar;

Vatan sha'nini oyoqosti qilib, unga qarshi bosh ko'targan o'g'il – sotqin, xoin, baxtiqaro;

millat onadir, onadan yuz o'girgan, uning xizmatidan bo'yin tovlagan o'g'il – qo'lsiz, oyoqsiz, gung, ko'zi ko'r, qalbi so'qir – majruh;

xalqning dardini anglab, Vatan tashvishini tushunib, ona alamini tinglab, millat mashqqatini ko'rib, kurashga o'zida kuch topolmagan o'g'il esa o'lik, tirik murdadir!"

U maqolani chetga surarkan, uyqusizlikdan jimirlayotgan ko'zlarini ishqadi-da, derazaning yoniga keldi. Inson dunyoga bir marta keladi, deb o'yladi. U yashab o'tgach, kim bo'lganligini sag'ana toshidan bilish mumkin. Bu toshda sakkizta raqam falon yil tug'ilib falon yil o'lganini ifoda etadi – bu raqamlar yonida uning ismi- sharifi, nari borsa ikki qator ayriliq satri, bir she'r bitiladi. Ammo odamlar qalbida, yurt daftarida insonning kimligiga ajratilgan o'rin ancha kattaroq va kengroqdir. Bu yerda toshtarosh yoki marsiya yozuvchi shoir ham ojiz. Chunki qalb dunyosining qayerida kimning joyi bo'lishi jumboq, yurt daftarining qaysi sahifasida kim haqida yozilajagi sir. Ammo

har ikki holatda ham haqiqat yozilajak. Taasufki, juda ko'p joy va juda ko'p sahifalar bo'sh. Demak, qancha-qanchamizga faqat unsiz sag'analar tarix, xolos.

Bugun yurtimizda o'n milliondan ziyod kishi safolat, kambag'allik botqog'ida. Bu azobda ingranayotganlarning faryodini eshitadigan yo'q. Borlarining ham quloqlarini kesdilar, ko'zlarini o'ydilar, yuraklarini sug'irib oldilar.

Ilk demokratiya shamoli esganda uzoq bir tumandan millatvakili etib saylandim.

Haqiqat va adolatni izlagan insonlar vijdon va iymonga sodiq qolib, meni sayladilar. Bu mening emas, kamsuqum, zahmatkash o'sha insonlarning g'alabasi edi. Qur'oni Karimni o'pib qasam ichmadim, lekin insonlarning ishonchlari va elkamga yuklangan mas'uliyatni bir lahza bo'lsin unutmashlikka harakat qildim. Mansab bilan emas, ular bilan qolishni afzal ko'rdim. Ammo har odimim ortidan boshimga do'l yog'ildi. Qur'oni Karimni o'pib qasam ichgan va so'zining ustidan chiqish u yoqda tursin, ataylabdan aksini qilgan Karimov kabilarning esa omadi kulgani-kulgan. Biroq qachongacha?!

Kurash omonsizdir. Aslida shunday bo'lishini bilmasmidim? Saylovoldi uchrashuvlarida millatvakili quruvchi emas, davlat va siyosat arbobi bo'lishi kerakligini urg'uladim. Lekin davlatning tepasida turganlarga sherik emas, quruvchilar kerak edi. Mustaqillik uchun kurashni oldimga vazifa qilib qo'ydim. Lekin mustaqillik dushmanlari qahramonga aylandilar, bizning esa holimizga maymunlar kulmoqda. Ko'zbo'yamachilikka qarshi chiqdim. Lekin butun xalqning ko'zini bo'yashgan ekan. Bu ko'zlar faqat ko'zbo'yamachilarnigina ko'ra oldi. Yo'q, butun xalq emas, butun xalq haqiqatni ko'rib turibdi. Hatto uning bir qismi sukutli bo'lsa- da, kurashmoqda. Faqat zanjirbandlik illati bu sukut tug'yonga aylanishining oldini olmoqda. Ishonchsizlik tizza bo'yi o'sdi. Ammo shunday kun keladi-ki, bularning hammasi engiladi. Agar bu hayot dahshatlaridan qo'rqsam, chekinsam, Po'latga o'xshaganlar qo'rqardi va chekinardi. Agar bu zulmdan qo'rqsalar, talabalar o'q tovushini eshitgan zahoti tum-taraqay bo'lib qochardilar. Zulmga qarshi bir butun bo'lib oyoqda turganlar bir kun kelib, taxtga adolat chiqajagini kafolatidirlar. Tuni bilan uxlamay chiqqan talabalar, yotoqxonalarning derazalariga qora bayroq osgan yigit-qizlar hukumat e'lon qilolmagan motamni e'lon qilishgandi. Bu bir isyon edi. Hukumatning qonli jinoyatlariga qarshi, qonli izini o'chirib yuborishiga qarshi isyon edi bu. Bunday hukumat vaqtincha g'alaba qilishi mumkin, lekin bir kun kelib chilparchin bo'ladi.

Mirtemir tongni ana shunday uy-xayollar bilan karshilar ekan, Talabalar shaxarchasidagi yotoqxonalardan birida boshlangan va markaziy maydonda davom etgan ochlik harakati ishtirokchilari ham mirshabxonada tongga qadar so'roq qilindilar. Garchi o'rtada Maratning ig'vosi bo'lsada, aslida ular o'z harakatlarida, jasoratlarida samimiy edilar.

O'n uch talaba saharlab ochlik e'lon qilgan joylariga takror kelishganda, shaharcha tinch edi. Mashina bilan ko'chalarga suv sepilayotgandi. "Qon izlarini yuvishmoqda" dedi ulardan biri. Soqollari sabza urmagan yigitchalar kechadan buyon ovqat eyishmagani, suv ichishmagani uchun holsiz edilar. Ba'zilarining ko'zlari cho'kkan, ba'zilar esa qorinlarini tutamlab olgandilar. Quyosh chiqar- chiqmas ularning yoniga xavfsizlik qo'mitasi xodimlari kelishdi.

-Ochlik-bu tuzumga, jamiyatga, millatga qarshi isyon. Buning uchun qonunlarimizda eng og'ir jazo nazarda tutilgan. Siz hali juda yoshsiz. Bu ishni to'xtating. Kecha ruxsat berdik. Fikringizni aytdingiz. Bugungisi ortiqcha, – dedi

ulardan biri.

-Rostdan ham tugata qolsakmikan,-dedi Nasim.

-Oxiriga qadar oyoqda turamiz, degan sen emasmiding? Mayli, agar chekinadigan bo'lsang, e'tirozimiz yo'q. Biz hammasi uchun hisob so'raymiz. Oxiriga qadar chidaymiz,-deya Nasimga e'tiroz bildirishdi yigitlar.

Xavfsizlik qo'mitasi xodimlari apal-tapal orqaga qaytishdi. Ko'p o'tmay Xalq harakati vakillari paydo bo'lishdi. Ular kecha ham talabalarning yonida turishgan, mujodala boshlagan yoshlarga ma'naviy kuch berishgandi. Xalq harakati vakillaridan ayrimlari Karimovning saylovda tarqatilgan suratini ko'tarib olishgandi. Suratning ostiga "Farzandxo'r ota" deb yozilgandi. Bugun ham ular talabalarga qalqon bo'lib turishdi.

Qaerdandir Marat kelib qoldi:

-O'n besh daqiqa ichida bu yerdan ketmasak, mirshablar kelishadi va hammani qamoqqa olishadi,- dedi u.

-Ketmaymiz,-deyishdi ochlik e'lon qilgan yigitlar.-Siz ham deputatimiz sifatida yonimizda turing. Saylovda bizni aldashdi. O'tgan kun narx-navoni oshirishdi, eydigan nonimizni berishmadi. Non desak, peshonamizga o'q otishdi. Yuzlarcha do'stlarimiz kaltaklandi, necha kishi o'lgani, necha kishi yaralangani yashirilmoqda. Biror joyda voqealar haqida ochiq-oydin xabar yo'q. Ertaga "Ikki-uch kishi o'ldi. O'zlari aybdor edi" demasliklari uchun, biz ham o'limni ko'zga oldik. Yuzdan ziyod do'stimizning qoni oqdi. Hali yana qanday dahshatlar kutmoqda talabalarni...

Marat Nasimni chetga tortdi-da:

-Bular rostdan ham ochlik qilayotganga o'xshaydi-ku-dedi.

-Men ham rostdan ochlik qilayapman,-dedi Nasim.

-Sen nega ochlik qilasan?

-O'yin qoidalarida qon to'kish yo'q edi.

-Mayli, sen ko'p gapirma. Ulardan ajralib ham qolma. Qon to'kilishi tasodif. Hozir sizlarni mirshablar olib ketadi. U yerda gap qaytarib yurmagin. Bilasan, ular otasini ham tanishmaydi. Shunday bo'lsa ham, seni o'z panohimga olaman.

Marat ketgandan keyin mirshablar etib kelishdi. Ularni boshlab kelgan mayor:

-Bitta-bitta avtobusga minasizlar. Qarshilik ko'rsatganlar va minmaganlar

kaltaklanadi. Hammangiz baland ovoz bilan ismi-sharifingizni aytib, so'ngra avtobusga minasiz, – dedi.

-Biz demokratik namoyish yo'lini tanladik, -deya do'stlariga murojaat qildi Nasim.

– Qurol ko'tarmadik, tosh otmadik. Qonunlar charchavasida harakat qildik. Bundan bu yog'i ham qonunlar doirasida bo'lishi kerak. Shu sababdan mirshablarning aytganini qilaylik.

Nasimning gapi do'stlariga yoqmadi. Lekin mirshablar bir zumda ularni avtobusga tiqishdi.

-Senlarga hukumatga qarshi tosh otishni ko'rsatib qo'yamiz, -deya ulardan biri talabalarni niqtay boshladi.

-Hali tosh otgan shularmidi? – degan mirshab esa oldinroqda o'tirgan talabaning oyog'iga tepdi. Mirshabxonaga etib kelgunga qadar niqtash tepkiga, tepki mushtga, musht esa tahqirga qadar etib bordi.

Mirshabxonada esa u yerdagilarga ermak topildi. O'tgan ham, qaytgan ham talabalarni turtkilar, haqorat qilar, basharasiga tarsaki tortardi. Hatto biri:

-Zamon ko'tarsa, peshonangizdan otib tashlardim, -dedi.

Ichkarida iskanja davom etar ekan, tashqarida Xalq harakati va Erk partiyasi a'zolari to'plana boshlashdi. Mirshabxona oldida Xalq harakati tarafidan shoir Obidjon bilan Erk partiyasining sekretari Dilorom tortisha boshladilar:

-Aslida ikkalamiz ham siyosatchi emasmiz. Siz ham yaxshi shoirasiz, -dedi shoir Obidjon. -Lekin gazetangizdagi haqoratomuz maqola sizning qalamingizdan chiqqanini tasavvur qila olmayman.

-Balki uni xam hukumat yozib bergandir, -deya kesatdi Dilorom. -Nima ish qilsak, uning "muallifi" hukumat deb aytasizlar.

-Agar hukumatning musiqasiga o'ynab, parchalanib ketmasak, hozir katta kuch bo'lardik. Yoshlarimizni bu qadar xo'rlamagan, o'ldirmagan bo'lishardi. Parchalanish voqealarini bir chetga surgan taqdirimizda ham saylovdagi xiyonatni kechira olmaymiz. Biz Karimovning maqsadini bilardik. U o'zini dunyoga demokrat qilib ko'rsatmoqchi edi. Shuning uchun ham partiyangizga Iso Xolis nomzodini olsin, Karimovning diktatorligini yashirish uchun xizmat qilmasin, degan taklif bilan keldik.

-Ishonchim komilki, Shavkat Temur oltmish ming imzoni to'plaganda yoki ro'yxatdan o'tganda boshqacha taklif bilan kelgan bo'lardingiz.

Shoir Obidjonning asablari "o'ynab" ketdi. Tomirlariga sig'magan qon ko'zlariga tepdi.

-Azizim, oltmish ming imzo to'planganini yaxshi bilasiz! Hukumat o'yin qilish uchun Markaziy saylov komissiyasiga sizdan ham vakil kiritdi. Lekin u bizning arizamizga qayrilib ham qaramadi. Vaholanki, biz dushman bo'lsak-da, u adolatsizlikka qarshi bosh ko'tarishi zarur edi.

-Obidjon aka, hozir bu gaplarning joyi emas. Ichkarida bolalarni kaltaklashayapti. Avval ularni qutqaraylik.

-Agar men aytgan xatolarni qilmaganimizda, bugun mirshabxonaning ostonasida sarg'ayib o'tirmagan bo'lardik. Hali bu holva. Ichkariga olib do'pposlashmaganiga shukur qilish kerak. Bizni bir-birimizga qayrab qo'yishdi. Buni anglab etmasak, hammamizning joyimiz panjaralarning naryog'ida bo'ladi.

-Talabalar bir butun kuch edi. Lekin ularni ham parchalab yubordingizlar. Hozir bosh ko'tarish paytimi-di?

-Ha, – dedi Obidjon, -Hozir payti emas edi. Lekin payti qachon, degan savolga ham hech kim javob berolmaydi. Uyqu joy tanlamaganidek, norozilikning tug'ilishi va isyonga aylanishi ham payt poylamaydi. Talabalar parchalanishida hammamiz aybdormiz. Ular uchga bo'linib ketdi. Bir qismi bizning orqamizdan, yana bir qismi sizning orqangizdan. Uchinchi, juda bir oz qismi hukumat ayg'oqchilarining orqasidan ketishdi. Bu yerda jiddiy tashkilotlanma ko'zga tashlanmadi. Tashkilotlar bor edi, lekin ular ma'lum bir dastur va maqsad bilan harakat qildi, deyish qiyin.

-Bu fikringizga qo'shilmayman. Saylovdan oldingi uchrashuvlarni bir eslang. Parlament saylovi arafasidagi harakatlarimizni yodga keltiring. Bu yerda juda katta kuch maydoni tug'ilgandi. Ana shundan qo'rqishdi. Bo'lmasa, ming-ming mirshablar va son-sanoqsiz OMONchilarni olib kelisharmidi? Biz bu harakatni boshqara olmadik.

-Kecha lideringizni talabalar toshbo'ron qilishdi. Prokurorga qo'shilib qochdi... Endi Diloromning jahli chiqdi:

-Siz ham Shavkat Temurga o'xshab gapirayapsiz. Xuddi voqealarni televizordan tomosha qilib o'tirganga o'xshaysiz. Bir-birimizga fisqu fasod toshlarini otguncha, bolalarni ichkaridan olib chiqishni o'ylaylik.

-Bolalarni boy berdik. Ularning qarshilik ko'rsatganlari kaltaklanadi, o'qishdan haydaladi, yo'qotib yuboriladi. Hukumatning yo'liga yurib, ular istagan gaplarni yozib berganlari istiqbol yo'liga chiqadilar. Bir kun kelib bizga qarshi kurashsalar, hech ajablanmang. Ayrimlarini esa go'yo kaltaklagan bo'lib chiqarib yuboradilar va

bizning oramizga josus qilib erlashtiradilar.

-Siz o'zingizga ham ishonmaysiz, -Dilorom Obidjonning so'zini shart kesdi. – Hech narsadan xabari yo'q, ma'sum bolalarga tuhmat qilayapsiz. Ular haqsizlikka qarshi isyon qildilar, o'z hayotlarini o'rta qo'yidilar. Siz esa eskisi kabi har narsadan shubhalanayapsiz. Har bir qamalib chiqqan odam josus bo'lsa, ertaga bu mamlakatning hammasi josusga aylanadi. Chunki Karimov hammani bir-bir qamaydi.

-Bizning eng katta yanglishimiz his-hayajonga berilib ketishimizdadir,-degan Obidjon tortishuvni to'xtatadiganga o'xshamasdi. – E'tibor qildingizmi, milliy ozodlik harakatining aksariyat faollari shoir va yozuvchilar. Bilasiz, dunyodagi eng hisli-hayajonli insonlardir bular. Siyosat esa sovuqqonlikni talab qiladi. Qolaversa, og'ir kunlarga bardosh beradiganlari kam topiladi. Saroyga o'tib ketishga moyillari baland.

-Shu gapni siz gapirmang! Ularning tili bilan gapirayapsiz. Maqsadingiz, o'z lideringizni maqtashdir. Tarixda qancha-qancha shohlarimiz shoir edi. She'r va siyosatni yonma yon yashatdilar. Ijodkorlar o'z nomlari bilan ziyolidirlar. Mash'alani yoqib, yo'lni ko'rsatib bersalar, bas. Xalq o'zi bu yo'ldan yurib ketadi.

-Bilmadim,-deya kinoya qildi Obidjon. – Xalqni Karimovning orqasidan etaklamasalar bo'lgani.

Shoir Obidjonning gapi chala qoldi. Bir to'da mirshab ularni qurshab oldi. Keyin Talabalar shaharchasining tashqarisiga chiqarib qo'yishdi.

-Biz o'zaro tortishib yuraversak, ana shunday kovushimizni to'g'irlab qo'yishadi,- dedi Dilorom boshini egib, og'ir-og'ir qadam tashlab borayotgan shoir Obidjonga. Lekin tortishuvni o'zi boshlatgani es yodida yo'q edi.

-Hozircha kovushimizni to'g'irlab qo'yishdi... Uning gapini Dilorom kesdi:

-Davomini aytmasangiz ham, tushundim. U kunlardan Xudo saqlasin.

-Ammo ba'zilarining ko'nglining tagidan bo'ladi.

-Insonlar biror narsaning uddasidan chiqolmaydigan holga tushsalar bir-birlarini chaqib olish bilan, bir-birlarining tagiga suv quyish bilan vaqt o'tkazadilar. Biz ham shu holga tushdik.

-Yo'q azizim, – dedi bamaylixtir shoir Obidjon. – Hozir to'ppa to'g'ri Karimovning devoniga boramiz. Kurash mana endi boshlandi.

Ular birgalashib yurib ketdilar. Go'yo fojealar ularni takror birlashtirganga o'xshardi.

O N A B O ' R I [6 1]

Mirtemir xuddi qamoqqa olish uchun keladigan mirshablarning yo'lini poylayotgan odamga o'xshab xavotir bilan tashqariga termulib o'tirarkan, derazaning ostidagi isitgichdan tarqalayotgan harorat uni eritdi. U derazaning tokchasiga boshini qo'yganча ko'zlarini yumdi. Inson ba'zan rohat qilib uxlaganda tush ko'rishni istasa-da, yo ko'rolmaydi yoki ko'rgan tushini “olib turolmaydi”. Lekin ba'zan bir shakarlama paytida qurilgan tush hayotning muhim bir voqeasi kabi hech esdan chiqmaydi. Mirtemir ham tush ko'rayotgandi.

...U birdan quduqqa tushib ketdi. Quduqning devorlari qizigandan-qizigan, qo'l tegizsang barmoqlaring yopishib qoladi. Quduqning osti qop-qorong'u edi. Bu qorong'ulik orasidan itlarning akillashi eshitilardi. Mirtemir qorong'ulikka nazar solgandi, itlarning yam-yashil bo'lib "yonib" turgan ko'zlarini ko'rdi. Bu qo'rqinchli "cho'g'"lar unga yaqinlasha boshladilar. Bir juft "cho'g'" uning yuzlariga qadar yaqinlashdi. Keyin uning yuzini tirnay boshladi. U itni uloqtirib tashlagandi, boshqalari unga tashlandi. Ular negadir tishlamas edilar. Faqat har tarafini tirnab, kiyimlaridan tortqilab, g'ingshinayotgandilar. Qorong'ulikda g'ingshigan itlarning tishlari yaraqlab turardi. Ular asrlar buyi och yotganlaru birdaniga egulik kelganidan shoshib qolib, nima qilarini bilmay qolgan holda edilar. Itlar bir-birining akillashini anglardi. Ularning eng oldindagisi akillaganda boshqalari saslarini ichiga yutib, orqaga chekinardilar. Oldindagi yana akillab orqaga ketganda qolganlar hujumga o'tardilar.

Itlarning oldindagisi "Etar, endi eyimiz", deya akkiladi, shekilli, itlarning hammasi birdaniga Mirtemirning ustiga yopirildilar. U og'riq iskanjasida ingranarkan, kutilmaganda quduq yorishib ketdi. Itlar quduqning bir burchagiga to'planib, g'ingshiy boshladilar. Mirtemir hayrat bilan atrofga alangaladi. Qarshisida bir jonzot turgandi. Oq, to'g'rirog'i, u qadar oq emas, bo'zrang. Ammo uning vujudidan atrofga nur yog'ilayotgan edi, uning ko'zlarida mehr bor edi. U Mirtemirga qaraganda, ko'zlaridan mehr oqardi, itlarga qaraganda esa, bu ko'zlardan qo'rqinch yog'ilardi. Itlar undan shu qadar qo'rqdilarki, g'inshigancha yolvora boshladilar. Mirtemir, bu qanday jonzot bo'ldi ekan, deya unga razm soldi. Bu bo'ri edi!

Shu payt Ona bo'ri afsonasini esladi. Ko'kturklar xitoylar bilan qaqshatkich urushlardan keyin bir muddat chekinishga qaror qilishibdi. Ular tog'larning orasidagi bir adirda tunashibdi. Ertalab uyg'onishsa, to'rt tomon tog', osmonga bog'langan qoyalar. Chiqadigan yo'l yo'q. Vahima, ochlik va o'lim qorishib ketibdi. Turklar suvsiz va ovqatsiz bir necha kun chidashibdi. Keyin hamma holsizlanib, birin-ketin

jon bera boshlabdi. Ana shunday paytda qoyalardan birining ustida Ona bo'ri uvlay boshlabdi. Uning nega uvlaganini hech kim tushunmabdi. Keyin u pastga tushib, turklardan birini tepaga qarab sudrabdi. Bir joyda biqirlab buloq qaynab turgan ekan. Suvdan ichib o'ziga kelgan navkarni Ona bo'ri qoyalar orasidan boshqa bir joyga boshlabdi. Qoyalardan birining temir ekanligini ko'rgan navkar ortga qaytibdi. Suv ichib o'ziga kelgan turklar, olov yoqib temir qoyani eritibdilar. Qilich, qurol-aslaha hozirlabdilar. Qoya bitib, yo'l ochilibdi. Qoyaning ortida bog'-rog'lar, go'zal maskanlar bor ekan. Shu-shu Ona bo'ri ularning yo'l ko'rsatuvchi do'stlariga aylanibdi. Kimdir uni Ona bo'ri desa, yana kimdir Bo'zqurt der ekan. U haqda she'rlar yozishibdi, dostonlar bitishibdi, qo'shiqlar kuylashibdi.

Mirtemir Ona bo'ri meni qutqarishga keldi, deb o'yladi va unga qarab talpindi. Bo'ri va Mirtemir yorug'likka qarab yurdilar. Orqada esa g'inshigan itlar to'dasi qoldi...

Eshikning qo'ng'irog'i chalinib, Mirtemir seskanib, uyg'ondi. Eshikni ochsa, ostonada Samandar turardi.

-Sizni olib ketishga keldim, – dedi u.

-Qaerga boramiz? Men mana bu maqolani Ahmadjon Muxtorovga etkazmoqchi edim.

-Yo'l -yo'lakay berib o'tarmiz. Ishxonamizning saunasi bor, o'sha yerda bir sho'rva ichamiz.

-Saunaga hojat yo'q, shunday ham terlab o'tiribmiz. Bugun kaminani qamoqqa olishadi.

-Sizni qamoqqa oladigan odamni hali onasi tuqqan emas,-dedi Samandar. – Saunada maishat yo'q. O'sha yerda o'tirib Talabalar shaharchasidagi voqealarni qog'ozga tushirasiz. Qolaversa, bu kecha uxlamaganingizni ham bilaman. G'ani aka bilan uchrashib kelayapman. Sizga qarshi qilingan fitnaning aynisini menga qarshi ham qilishgan. Sauna deb hazillashdim, chunki menga qarshi tayyorlangan hujjatlarda saunada sho'rva ichib yotgancha, pora oldi, deyishgan. Xullas, dardimiz bir, chorasini birga qidiramiz.

-Chorasi bor,-dedi Mirtemir.-Bizni Ona bo'ri qutqaradi.

Samandar hech narsa tushunmadi. Jilmayib qo'ydi, xolos. Ularning suhbatini Mirtemirning umr yo'ldoshi bo'ldi:

-Sahar keldilar. Boshlarini tokchaga qo'ygancha nimalarnidir o'yladilar. Gapirgan gaplarimni eshitmadilar ham. Somsa pishirgandim. Bir piyola issiq choy ichib, somsa eb ketinglar.

-Kelin, somsalarni bir qog'ozga o'rang. Olib ketamiz. Tashqarida boshqa do'stlarimiz kutib turishibdi. Bugun qiladigan ishlarimiz ko'p, – dedi Samandar.

Mirtemir Samandar bilan chiqib ketar ekan, derazadan uning umr yo'ldoshi Rohila mung bilan qarab turardi...

M U K O F O T [6 2]

Karimov ham ertalabgacha uxlamadi. Oliy o'quv yurtlarini viloyatlarga ko'chirish haqidagi farmonlarni imzoladi, o'nlab rahbarlarni ishdan olib, o'rniga yangilarini tayinladi. Ba'zi viloyat rahbarlarini esa saylovda Iso Xolisga ro'yxotirlik qildi, degan bahona bilan ishdan quvdi. Hatto Talabalar shaharchasini temir panjaralar bilan o'rab olish masalasidan to talabalarni avtobuslarga mindirib, uy-uylariga qadar etkazib qo'yishgacha – barcha tadbirlar bilan o'zi shug'ullandi. Shaharchani temir panjara bilan o'rab olish uchun byudjetdan maxsus pul ajratdi. Tong bo'zarib qolganda, Almatov bilan Urayimjonga:

-Mirshablarning maoshini ikki marta oshirdim. Mana uchinchi farmonga ham qo'l qo'yapman. Buni ovoza-darvoza qilmanglar,-dedi.-Shunday ham mirshablarning maoshi boshqalarnikidan besh-olti marta ko'p edi. Buning ustiga ular har bir daraxtdan pul terishadi. Tishlaridan ostonalarigacha oltin bo'ldi. Shunda ham sodiq bo'lishmasa, yo'qotib yuboraman hammasini.

-Hammasi sizga sodiq, – dedi Almatov. – Majlislarda ota-onalari sizni tinimsiz duo qilishganini aytishadi. Bizning oramizdan nonko'r chiqmaydi. Sizga xiyonat qilsak, ko'zimiz ko'r bo'ladi.

Suhbatni indamay tinglab o'tirgan Aliev ham qo'lidagi qog'ozni Karimovga uzatdi.

-Huquq-tartibot organlari bir vujud. Talabalar shaharchasida bizning xodimlarimiz ham fidoyilik ko'rsatdilar. Ularga ham bir otalik qiling,-dedi Milliy xavfsizlik qo'mitasi boshlig'i Aliev.- Mirshablar qatori maoshlarini oshirganingiz uchun, qulluq. Shu besh-olti kishiga mukofot bersak degandim.

Karimov qo'lidagi qog'ozni imzolarkan:

-Buni yaxshi eslatdingiz,-dedi. – Nafaqat Talabalar shaharchasida, balki saylovda ham hammangiz o'zingizni ko'rsatdingiz. Men mustaqil davlatning mustaqil rahbariman endi. Orqada xalqning kuchi bor. Siz ham ana shunga yarasha bo'lishingiz kerak. Bugun Almatov, Abdug'aniev, Aliev sizlarga general unvoni beraman.

Karimov shunday deb, Temir Alimovga darhol farmon loyihasi tayyorlashni buyurdi:

-Ruxsat etsangiz, bir taklifim bor edi. Urayimjon hali podpolkovnik. U kishiga polkovnik unvoni bersak. Birozdan keyin esa...

-Biroz-mirozi yo'q! Avval polkovnik unvonini, orqasidan esa generalni yozib keling. Ikkalasini birdan beramiz. Chunki xizmatlari juda katta. Vatan va millatga xizmat qilgan odam haqini olishi kerak.

-Bosh prokuror Bo'ritosh Mustafoevni ham shu ro'yxatga qo'shsak,-dedi indamay o'tirgan Mavlon.

-Ha-ya, uni esdan chiqaribmiz,-dedi Karimov. – Darvoqe, yana kim bor?

-Hammamizning boshimizni qovushtirib, sizning topshiriqlaringizni bizga etkazib turgan Temur akamizga ham berish kerak.

-Alimovning ilgari unvoni bormidi? Unvoningiz bor-mi?

-Bilasiz, ilgari biz zapasdagi askarlar edik. Men ham podpolkovnik bo'lgandim.

-Unday bo'lsa, men ham podpolkovnikman,-deya tirjaydi Karimov.

-Zotan, generallikni avval siz olmasangiz hech birimiz bu unvonni qabul qilmaymiz,-dedi Alimov xuddi Karimov unga ham general unvoni berilishi haqidagi farmonga imzo chekkan kishidek mamnun bir qiyofada. – To'g'rimi, yigitlar.

O'tirganlar oltin topib olgan g'ariblardlek sevinib, bu gapni qo'llab-quvvatlashdi.

-Sizlarga beramiz. Lekin men haqimda noto'g'ri tushunishlari mumkin, – dedi Karimov makkorona istihola bilan.

-Noto'g'ri tushunishsa, bizni tushunishadi. Siz esa qonunlarga ko'ra, oliy qo'mondonsiz. Zotan, generalsiz,-dedi Almatov.

-Ana esga solding, askarlarning boshlig'iga ham general unvoni beraylik. Xullas, yuringlar, o'rtoq generallar, narigi xonada unvonlarni yuvaylik,-dedi Karimov.

-Ho'p buladi, o'rtoq general! Ho'p bo'ladi, o'rtoq Oliy qo'mondon,-deyishdi ular bir ovozdan.

Mavlon xam xo'jalik ishlari mudiri Zelemxonga qo'shilib, generallarga xizmat qildi. Ular shishani bo'shatib bo'lganlaridan keyin Karimov Yo'ldoshevni so'radi.

Yo'ldoshev ikki daqiqada etib keldi.

-Davlat komissiyasi qanday ishlayapti?-so'radi undan Karimov.

-Ertalabgacha uxlaganimiz yo'q.

-Biz uxladik-mi? Nima gap? Hisob bering!

-Iso Xolis bilan janjallashib qoldik. Yoqmasa, iste'fongni ber, komissiyadan chiq, dedim.

-Yaxshi... unga ozgina dam ber hali kerak bo'ladi.

-Ana u Mirtemirning ishini nima qilding?

-U hamma idoralarga, deputatlaraga mana bu hujjatlarni tarqatib yuribdi,-deya Yo'ldoshev, qo'lidagi qog'ozlarni Karimovga uzatdi. Karimov qog'ozlardan birini o'qidi-da, o'rnidan turib ketdi.

-Senlarni general qilganni onasini... ,-deya baqira boshladi. – Pashshadek ishdan tuyadek muammo chiqarasizlar. Biror marta aytgan gapimni oxirigacha top-toza qilib bajarmadingizlar. Bitta bola hammangni mixning ustiga o'tqizib kuydi. Ol, mana bu qog'ozlarni, borib hojatxonada ishlat!

Karimov shunday deb qog'ozlarni Urayimjonning yuziga otdi. U ziyofat xonasidan chiqib ish xonasiga o'tarkan, hamma orqa eshikdan Kraynovning kulbasiga "qochdi". Faqat Yo'ldoshev Karimovning orqasidan yurdi.

-Bo'pti, bu ishni biroz orqaga tashlang. Aslida hamma ayb senda! Vaqtida o'sha jo'jxo'rozni Oliy kengashdan quvganingda, boshimizga bu qadar dard ochmasdi. Borib ana u general-eshaklarga ayt, hammasi tum-taraqay bo'lib qochmasin, Talabalar shaharchasi bo'yicha olgan topshiriqlarini bajarib, oqshom kelib hisob bersinlar. Alimovga va Mavlonga esa hamma farmonlarning maxfiy ekanligini ayt. Yana matbuotga berib qo'yishmasin. Bularning hammasi robot, aytganingni, buyurganingni qiladi. Aqlari chirib ketgan...

Karimov shunday dedi-da qabulxonaga chiqdi.

-Men shaharni aylanaman,-dedi keyin Kraynovga. – Sen shu yerda o'tirib, topshiriqlar bajarilishini nazorat qil.

“Shaharni aylanaman” degn ibora parol edi. Demak, Karimov shahar chetidagi bog'iga boradi, kun bo'yi uxlaydi.

B O Y M I R Z A H A Y I T [6 3]

Mirtemir iste'foga chiqqandan keyin xususiy “Turon” ijodkorlar uyushmasida ishlay boshladi. Uyushma xususiy bo'lgani uchun madrasaning bir xonaqohida faoliyat ko'rsatardi. Koshinlari nurab tushgan, muqarnaslaridan uzoq tarixning ko'zlari jovdirab turgan madrasa xonaqoxi zax, havosi biqiq bo'lsa-da, kishini ayri bir dunyolarga etaklardi. Rutubat Mirtemirning dushmani edi. Xonaqohga kirishi bilan oyoqlari zirqirab og'riy boshlasa-da, xayollari uni olis-olislariga etaklardi.

Bizga o'z tariximizni o'rgatmadilar, deb o'ylardi Mirtemir. Asosan boshqalarning tarixini o'rgandik. O'z tariximizni esa begonalar yozgan asarlardan o'qitdilar. Ularni asar deyish mumkinmikan?! Axir ularning aksariyati ma'lum bir manfaat uchun yozilmaganmi? Nazarimda biz tarix yozishni sevmaydigan xalqqa o'xshaymiz. Koshonalar tiklaymiz, savashlarda muzaffarlik qilichini ko'taramiz, lekin tarix yozishga qolganda hamdu sanodan nariga ketolmaymiz. Podsholarni maqtash tarixchilarimizning kalomi avvallaridir. Podsholarga hamdu sano o'qish tarixchilarimizning orzu-muddaolaridir. O'tmishini bilmagan kelajagini yo'qotadi. O'tmishini tanimagan kelajagini ham taniy olmaydi. Menimcha hamma ishni tarix yozishdan boshlash kerak.

Mirtemir ana shunday o'y-xayollar bilan “Yangi tariximiz” ruknida kitoblar nashr etishni mo'ljalladi. Ilk o'laroq Boymirza Hayitning chet ellarda nashr etilgan tarix kitoblarini chop etishni hadafladi. Qolaversa, shu kunlarda Boymirza Hayit Vatanga kelishi kerak edi. Oliy kengashd bir maktub imzolab, Boymirza Hayitni o'zi tug'ilib o'sgan Vatanga da'vat etishdi. Yarim asr Vatandan uzoqda qolgan va Vatanining mustaqilligi uchun kurashgan bu insonni “xoin”, “sotqin” deya ayblashdi.

Taklifnomani olgan Boymirza Hayit radio suhbatida Vatan haqida lo'nda qilib shunday degandi: “Vatan va hurriyat. Bu ikki kalima o'zini, o'zligini anglagan insonlar uchun muqaddas ma'no kasb etish bilan birga tog' kabi mas'uliyat yuklaydi. Vatan Alloh taollo tarafidan inson qalbiga joylashtirilgan jonning bir bo'lagidir. Vatanni sevganlar o'z jonini ham sevadilar. Vatanni sevmay, vatansevar bo'lib ko'ringanlar o'z jonlariga suiqasd qilganlardir.”

Aslida Vatanni sevmiq o'z joniga suiqasd qilmoqqa aylandi, deb o'yladi Mirtemir. Axir Boymirza Hayitning o'zi Vatanni sevgani uchun surgunda emasmi? Qancha- qancha Vatanim deganlar o'qqa tutilmadilarmi? Chunki shohlar Vatan degan qavramning ma'nosini o'zimda mujassamlashtirganman, deb o'ylaydilar. Shu boisdan o'zlarining qing'ir-qiyshiq ishlariga qarshi chiqqanlarga “Vatan xoini” tang'asini yopishtiradilar va o'zlarining Vatanni sevmaganlari sezilib qolmasligi uchun Vatanni sevganlardan qutilish yo'llarini izlaydilar.

Mirtemir xayol surib o'tirar ekan, telefon jiringladi:

-Boymirza Hayit rostdan ham ertaga kelar ekanlar, – dedi sim qoqqan o'rinbosari Isoqjon.

-Biz ham kutib olishga chiqamiz, – dedi Mirtemir.

Boymirza Hayitning Vatanga qaytishi katta voqea edi. Bu voqea fikrlarda qurilgan bir qancha “obidalar”ni vayronaga aylantirardi. Doim Ikkinchi Jahon Urushida Vatan uchun qon to'kdik, deya xayqirib keldik. Mana endi ma'lum bo'ldiki, biz boshqalarning vatani uchun qon to'kkan ekanmiz. Ishg'ol ostida bo'lganimiz uchun bizni xuddi qullardek jangohga yo'lladilar. Son-sanoqsiz yer yigitlar tuproqqa qorishdilar. Buni Vatan uchun, deya ongimizga singdirishdi. Qalblarda soxta obida qurdilar. Ota-bobolarimiz ruslar tarafida turib “Vatan uchun” deya ko'ragini o'qqa qarshi kerganda, Boymirza Hayitlar ularning qarshisida turgandi. Kim haq, kim nohaq edi? Mana bugun bu savolning javobi o'rtada. Shuningdek, Boymirza Hayitning kelishi biz iftixor etib ko'zimizga surgan tarixning yolg'on ekanini ham isbotlaydi. Avvaliga Karimov Boymirza Hayitning kelishiga ruxsat berar ekan, deputatlarning talabidan qutilishni mo'ljallagan edi. Masalaning ana shu “nozik” jihatlari ham tushuntirib berishgach, u bir zum o'yladi-da, maslahatchisi Baxtiyor Nazarovga yuzlandi:

-O'zing chiqib ana u boboyni kutib ol. Har yerda valaqlab yurmasin. Undan foydalanishimiz kerak. Televizorga chiqib, siyosatimizni qo'llasin!

Baxtiyor Nazarov chiqib ketgach, Karimov Milliy xavfsizlik xizmati boshlig'ini chaqirdi:

-Nazarovning aytishicha, Boymirza Hayitning kelishi Ulug' Vatan Urushi qatnashchilarini g'alayonga keltirar ekan. Shuningdek, tarixchi olimlarimiz ham bundan norozi ekanlar. Siz niima deysiz?

-Aslida Baxtiyor Nazarovga bu xususda maxsus hisobot tayyorlab bergandik, – dedi muloyim ohangda Aliev. – Biz bugun sobiq rahbarimiz Rashidovni oqladik. U kishi Boymirza Hayitga qarshi bir qancha maqolalar yozganlar. Taniqli olimlarimiz, bugun bizga yaqin bo'lgan qobiliyatli rahbarlar Boymirza Hayitni “xoin”, deb hisoblab kelganlar va hisoblaydilar. Ammo eng asosiysi, Moskva bizdan jiddiy norozi.

-Nega norozi bo'ladi?

-Sizlar chegaradan chiqib ketayapsizlar, deyishdi Moskovdan. Boymirza Hayitning qaytishi G'alaba bayramiga soya tushiradi, milliyatchi kuchlarni birlashtiradi.

-Ularni tinchlantirib qo'ying. Boboyni istaganimizdek sayrattiramiz. Kerak bo'lsa, qilmishlari uchun uzr ham so'ratamiz. Ertaga aeroportda olomon yig'ilmasin.

Kimlar kutib olishga chiqqanini ro'yxat qiling. Har qanday voqeani o'z foydamizga yo'naltirishimiz kerak. Do'stimiz kim, dushmanimiz kim, ana shunday voqealarda o'rta qadam chiqadi. Agar boboy televizorga chiqib, aytganlarimizni gapirsa, ana u jo'jaxyo'roz to'polonchilarning ham

popugini pasaytirib qo'yardik. Ular bizga emas, ana shunday boboylarga ishonishadi. Agar aytganimiz o'ngidan kelsa, boboyni men o'zim qabul qilaman va mustaqillik bayrog'ini qanday ko'tarishni jo'jaxyo'rozlarga ko'rsatib qo'yaman.

Ertalabdan qo'nalg'a atrofini mirshablar o'rab olishdi. O'tganga o'tmalab, ketganga ketmalab qaraydigan yo'lto'sarlar singari mirshablar har turli bahonalar bilan yo'llarni bekitdilar. Boymirza Hayitni kutib olish katta tantanaga aylanmagan bo'lsa-da, "yuqoridagilar" o'z rejalarini qadam-baqadam amalga oshirdilar.

Boymirza Hayitni avval qo'nalg'aning qahvaxonasiga olib kirishdi, keyin uning yoniga yaqinlashgan Baxtiyor Nazarov unga:

-Siz uchoqdan tushganda tiz cho'kib erni o'pibsiz, – dedi.

-Men Vatan tuprog'ini o'pdim, ozod Vatanimning tuprog'iga egildim,-deya javob qildi Boymirza Hayit.

-Bilasizmi, bizning televizorchilar uchoqning yonigacha borisholmaydi. Shu bois hozir shu yerda o'sha voqeani takrorlasak. Siz tiz cho'kib tuproqni o'psangiz, ular suvratga olib xalqqa ko'rsatishsa.

Boymirza Hayit seskanib tushdi:

-Yoshim etmishdan o'tganiga ancha bo'ldi,-dedi u. – Men haqimda minglab feletonlar yozildi, meni taxqirladilar, menga bo'hton uyushtirdilar, lekin xafa bo'lmadim. Ammo hozirgidek hech qachon tuyg'ularim toptalgan emas. Men artist emasman, men Vatan tuprog'ini birovga ko'rsatish uchun o'pmadim. U yuragimdan kelgan bir hisning tashqi ko'rinishi edi.

-To'g'ri, siz haqsiz, – dedi Baxtiyor Nazarov. – Lekin Sizni mustaqil Vatanimizning mustaqil yurtboshisi jasorat bilan taklif qildilar. Moskov g'azab bilan kuzatib turibdi. Shunday sharoitda bir-birimizni anglamasak, kulgili holga tushamiz.

-Men sizni anglayman. Lekin mening tuyg'ularim bilan o'ynamang!

-Bilasizmi, Siz kabi insonlar juda oz. Hamma ham Vatanning qadriga, bu tuproqning qadriga etavermaydi. Etmish yil davomida bizni Xudosizga, dinsizga, ateistga aylantirib yuborishdi. Bu tuproq uchun jon berish Allohning buyrug'i ekanligini hech kim bilmaydi. Siz kabi buyuk bir insonning bu tuproqni o'pishini ko'rgan xalq uyqudan uyg'onadi va o'z mustaqilligini anglaydi. Shunday ekan, bugunga qadar Vatan uchun aziyat chekdingiz. Yana bir marta cheksangiz bizni

xursand qilasiz.

Boymirza Hayitning qo'llari titray boshladi. So'ngra bu titroq butun vujudiga yoyildi. Ko'zlaridan nafrat pishqira boshladi.

-La'nat bo'lsin sun'iy tarixga! – dedi va tiz cho'kib peshonasini zaminga bosdi. Ancha vaqt shu holda “Suvsratga olinglar, qayta-qayta olinglar” degandek, bosh ko'tarmay turdi.

-Bu kadr mustaqillikning simvoli bo'ladi, – dedi Baxtiyor Nazarov atrofdagilarga. So'ngra Boymirza Hayitning qo'lidan tortib turg'azdi.

-Endi ikki og'iz xalqimizga murojaat qilsangiz, – dedi u hali nafasini rostlab olmagan mehmonga.

Boymirza ota qurib qolgan lablarini tili bilan namladi-da:

-Men ellik ikki yildan keyin Vatanga keldim. O'g'lim vafot etganda uzoqlarda dardim bilan yakkama-yakka qoldim. Agar ruxsat bersangizlar, avvalo qishlog'imga borsam, fотиha o'qisam, ana undan keyin televizorga chiqarmiz.

-Sizni oqsoqol bilan, ya'ni yurtboshimiz bilan uchrashtirmoqchi edik. Agar televizor masalasi keyinga qoladigan bo'lsa, bu masalani ham orqaga surishga majburmiz.

-Juda yaxshi, juda yaxshi, – dedi Boymirza Hayit bolalarcha samimiyat bilan. – Zotan davlat rahbarining ishi ko'p, biz u kishining vaqtini qadrlaymiz.

-Ammo oqsoqol qabul qilsalar, yo'limiz ochilib ketardi.

-Mayli uchrashamiz. Faqat qishloqqa borib marosimlarni o'tkazib qaytaylik, – dedi Boymirza ota yolvorgan ohangda.

Shu payt Tashqi ishlar vaziri kirib keldi va Boymirza otani quchoqladi. Ular biroz suhbatlashgandan keyin:

-Darhol ba'zi o'lkalarda elchixona ochilsa, mustaqillik devorlari qurilgan bo'ladi, – dedi Boymirza ota. – Chet elda yashagan vatandoshlar bu kunlarni ko'z yoshi, qalb og'rig'i bilan kutdilar. Ular uchun ham Vatan yo'llarini ochmoq kerak.

-To'g'ri,-dedi vazir.-Lekin hali Vatanimiz yangi tug'ilgan boladek, endi yurishni o'rganayapti. Buning ustiga pulimiz oz. Hozir xalqqa non topib berish bilan mashg'ulmiz. Chet eldagi muhojirlar esa faqat masjid qurish uchun kelmoqdalar. Ular Vatanni emas, o'zlarini o'ylamoqdalar. Masjid qursam nomimni abadiylashtiraman, deb o'ylayaptilar...

Boymirza ota vazirga qarab ma'nodor kulib qo'ydi. Bu kulgining ortida “Senlar odam bo'lishing uchun yana qancha daryolar oqishi kerak” degan ma'no bor edi.

Mirtemir Boymirza ota bilan ko'risharkan:

-Vaqtigiz bulsa, bizning madarasaga ham tashrif buyurarsiz. “Turon” ijodkorlar uyushmasining Sizga beradigan zarradek hadyasi bor,-dedi.

-Insholloh, kelimiz,-dedi Boymirza ota. – Hadya qabul qilish hissini ham bir yashab ko'rmoqchimiz.

-Bu hadya Siz o'ylagandek, qo'l bilan ushlab ko'riladigan emas, – hazillashdi Mirtemir. – U etmish yillik armonlarning mag'zini mujassamlashtirgan armug'on. Hozirdan aytib qo'ysam, qizig'i qolmaydi.

Boymirza ota oddiy narsaga ham quvonadigan, oddiy hazildan ham sevinadigan inson edi. Qah-qah otib kularkan, xuddi o'rnidan sakrayotgan odamga o'xshardi. Jussasining kattaligi, peshonasining kengligi, ko'zlarining darinligiga qaramay, u jajji bolakaylarni eslatardi. Balki uning bo'hronlar ichidan omon chiqishining siri ham ana shunda edi.

Mirtemir aytish kerakmidi, deb o'yladi. "Istiqlol Cho'lponlari" unvoni ta'sis qilingani va Boymirza otaning kitoblarini chop etish harakatlari boshlanganini aytish unga kuch berarmidi? Mayli, keyin aytarmiz. Agar qolgan ishga qor yog'masa?

Mirtemir ba'zan o'zi o'ylagan narsalardan o'zi qo'rqib ketardi. Chunki o'ylagani boshiga kelardi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Qolgan ishga qor yog'di.

Boymirza ota qishlog'ida ekan, Milliy xavfsizlik xizmati boshlig'i Karimovning huzuriga kirdi:

-Boymirza Hayitning qishlog'ida va atrofida ahvol og'irlashdi, – dedi u. – Har turli harakatlar mitinglar o'tkazmoqdalar. Bundan norozi bo'lgan qariyalar "Bu Vatan uchun biz bekorga jonimizni o'rtaga qo'ydikmi", deya namoyishga chiqishmoqchi.

-Men Sizga necha marotaba aytdim, gap olib kelmang, raport yozib keling...

-Raportni maslahatchiga bergandim, mana nusxasi. Maxsus raport Faqat Prezidentga.

Boymirza Hayit 12.07da soat 6.30da aeroportga keldi.

13.07da poytaxtni tomosha qildi. Muxolifat vakillari bilan uchrashdi. Yonidan qo'shiqchi Dadaxon Hasan ajralmadi.

14.07da qishlog'iga qarab yo'lga chiqdi. Viloyat hokimligi tarafidan karnay- surnay chalib, gullar bilan qabul qilindi. Mehmonxonada hokim muovini Dilshoda opa bilan janjallashib qoldi. Dilshoda opaning e'tiroziga qaramay, to'g'ri qishlog'iga bordi. U yerda muxolifat minglarcha ishsiz yoshlarni to'plab turgandi. Boymirza Hayit gapirar ekan, mikrofon o'rnatishdi. U "Boshimizga nima balo kelgan bo'lsa, kommunistlardan keldi, ulardan qutilmasak, mustaqil bo'lolmaymiz" dedi.

15.07.Ota-onasi va oilasidan vafot etganlar uchun diniy marosim o'tkazdi. Kelgan-ketganga Ikkinchi Jahon Urushi qatnashchilarini yomonladi.

16.07. Nevarasining sunnat to'yini o'tkazdi.

18.07.Sayohatga chiqdi. Pochaota daryosi boshlanadigan joyga qadar etib bordi. Keyin Arslonbobni ziyorat qildi.

19.07.Qo'shni viloyatlarga bordi. Hamma joyda odamlarni to'plab, targ'ibot ishlari yurgizdi.

20.07.Bizning e'tirozimizdan keyin hokimlikka chaqirildi. Biz Boymirza Hayitni yakkalab qo'yish, atrofida uymalab yurganlarni chetlashtirish uchun barcha tadbirlarni ko'rdik...

-Bu raport juda ham tor. Qolaversa, nima sababdan menga emas, maslahatchiga berildi, – dedi Karimov.

-Sizga etkazish uchun berilgandi. Batafsil yozilgan ikkinchi varianti ham bor. U ham maslahatchida.

Karimov jahl bilan qora telefonning dastagini oldida:

-Baxtiyor, quloq sol! – dedi. – Sening hajga borib, nima qilmishlar qilib kelganingni unutganim yo'q. Menga ikkiyuzlamachilik qilma! Nima saababdan KGB raportini yashirding? Nima sababdan ana u boboyning jilovini qo'yib yubording? Yigirma to'rt soat ichida mamlakatni tark etsin. Bu mamlakat "Vatan xoinlari"ning futbol maydonchasi emas. Uni quvib kelganingdan keyin, mening nomimga tushuntirish xati yoz, – deb, telefon dastagini yana o'rniga qo'ydi.

Boymirza Hayitning mamlakatdan qanday chiqib ketganligini hech kim bilmay qoldi. Nega degan savolga javob beradigan kishi yo'q edi. Chunki shu kunlarda Karimov qilichini yalong'ochlab, g'azab otiga mingandi. Ko'ziga yomon ko'ringan yoki nomi qulog'iga yomon eshittirilgan har qanday odamni jazoga tortayotgan edi.

E R K [6 4]

Karimov asta-asta zolim hukmdorga aylanib qoldi, deb o'yladi Mirtemir. Hali yaqindagina muxolifatdan hayiqardi, lekin endi muxolifatning liderlarini kaltaklayapti, qamoqqa tashlayapti, surgun qilayapti. U odimba-odim bosib kelayapti. Lekin muxolifat nega chekinayapti? Mirtemir o'zicha ana shu savolning javobini qidirdi.

Kunlarning birida Mirtemirga Shavkat Temur telefon qildi:

-Eshitishimcha, Siz Erk partiyasiga a'zo bo'libsiz,-dedi u. – Yuz berayotgan voqealarni ko'rayapsiz. Bizning oramizdagi voqealardan xabaringiz bo'lsa kerak, parchalanib ketayapmiz. Birlashmasak, holimiz voy bo'ladi.

-Men hali partiyaga a'zo bo'lganim yo'q, – dedi Mirtemir. – Lekin bugun bir bo'lib kurashmoq uchun partiyaga a'zo bo'lish kerak, deb hisoblayman. Qolaversa, Oliy kengashda muxolifat fraktsiyasini tuzishimiz kerak. Kuchga aylanmasak, bitta-bitta sindirishmoqda.

-Fikrlarimiz yaqin ekan. Bir uchrashib gaplashaylik, – dedi Shavkat Temur. Ular “Xalqlar do'stligi” metro stantsiyasi yonida uchrashdilar.

-Birlashish, butunlashishimiz kerak, – dedi Shavkat Temur. – Lekin kechagi xatolarimizga baho bergandan keyin birlashish kerak. Biz katta kuch edik. Hukumatning oramizga josuslar suqishi, ba'zi birlarimizni sotib olishi tufayli ikkiga bo'lindik. O'rta boshqa bahona otildi. Bizni “Ular avval demokratiya keyin mustaqillik” istashdi, deb ayblamoqda. O'zlarini esa “Biz avval mustaqillik keyin demokratiya dedik”, deya oqlashmoqda. Agar tariximiz va voqealar jiddiy tahlil qilinsa, bu bahona ekanligi o'rta chiqadi.

-Hozir ana shu tahlilga vaqt yo'q. Tezroq birlashib chora qidirmasak keyin tahlil u yoqda tursin, voqealarni eslashga ham vaqtimiz qolmaydi, – dedi Mirtemir.

-Yo'q, vaqtimiz qolmasa ham bu haqda gaplashish kerak. Agar Iso Xolis menga qo'shilsagina, men undan keyin boshqa narsalarni o'ylab ko'rishim mumkin.

Mirtemir ancha gaplashib ko'rdi va bu mijg'ov odamga faqat “xo'p” deb qutilishdan boshqa chora yo'qligini angladi:

-U holda men Iso Xolis bilan gaplashaman va hammamiz bir oraga kelib, qaysi shartlar doirasida kuchlarni birlashtirish masalasini muhokama qilamiz-dedi.

Shundan keyin Mirtemir Iso Xolis bilan uchrashdi. Iso Xolisning ikki oyog'i bir

etikka tiqilgandi. Karimov unga bergan va'dalarni unutgan va qilichini uning ham boshida aylantirayotgan edi. U qasos degan hisning qopqoniga ilingandi. Shuning uchun Mirtemirning taklifini darrov qabul etdi.

-Demokratik Kuchlar Forumi nomi bilan bir yig'ilish o'tkazaylik, – dedi Mirtemir.

– Muxolif qarashdagi barcha deputatlarni ham da'vat etamiz. Sobiq Bosh vazirni ham chaqiraylik.

-E, yo'q! Sobik Bosh vazir bilan yo'limiz boshqa-boshqa.

-Bugunga qadar boshqa-boshqa edi, lekin hozir bir yo'ldamiz. U ham Karimovning zulmiga uchradi. Zulmga qarshi zulmni his etganlar birlashishlari mumkin. Zulmni ko'rmaganlar esa uni kutib turaveradilar, – dedi Mirtemir.

O'sha kuni Birlik harakati va Erk partiyasi rahbarlari bir erga to'plandilar. Tortishuv uzoq davom etdi. Oxirida “Forum” masalasi qabul etildi. Erk partiyasining joyi bo'lgani uchun “Forum” shu yerda o'tkaziladigan bo'ldi. Lekin “Forum” da Shavkat Temur ishtirok etmadi.

-Iso Xolis va tarafdorlari mening kelishimni istashmapti. Demak, men borsam “Forum” buzilardi, – dedi u Mirtemirga.

Shunga qaramasdan, muxolifat kuchlarining bir butun holga kela boshlagani hukumatni cho'chitib qo'ydi.

Bir kuni muxolif deputatlar to'planib, Oliy kengash majlisida parlament raisini ishdan bo'shatish harakatini boshlashga qaror qildilar. Ular Karimovdan qutilishning birdan bir demokratik yo'li ana shu deb bilardilar. Rais keyingi paytda Karimovdan tinimsiz "kaltak" eyayotgandi. Karimov raisni almashtirish payida edi. Shunday paytda parlamentda deputatlar raisning masalasini kun tartibiga keltirsalar Karimov ham qarshi chiqmas edi. Agar raisning o'rniga adolatli bir kishini saylasalar, keyin Karimovning tanobini tortib qo'yish oson bo'lardi.

-Oliy kengash raisi Moskovdan katta hadyalar olib turgan, – dedi Mirtemir deputatlarga. – Mana qo'limizda unga hadya sifatida berilgan engil mashinalar va boshqa sovg'alar haqida hujjat bor. Bu mustaqillikka xiyonatdir. Biz bu masalani ko'tarsak, hech kim qarshimizga chiqa olmaydi.

-Birlik harakati shu kuni miting o'tkazib, bizni tashqaridan turib qo'llamoqchi, – dedi Ibod To'raev.

Shundan keyin majlisda kimning nima haqda gapirajagi kelishib olindi. Oliy Kengash raisini almashtirgunga qadar Karimov haqida lom-mim demaslikka kelishib olindi. Ammo majlis kuni Iso Xolisning mitingni bekor qilgani o'rtaga chiqdi.

Buni eshitgan deputatlarning xunobi oshdi. Majlisni Karimov kirish so'zi bilan ochdi. U so'zini tugatib, o'rniga o'tirar ekan kutilmaganda Iso Xolis "Savol bor", deya baqirdi. Mirtemir tushuna olmay qoldi. Kecha kechqurun Karimovga gapirmay turamiz, deb kelishgandik. Nega birdan Iso Xolis bu kelishuvni buzdi? Hozir arava boshqa tomonga yurib ketmasa bo'lgani.

Xuddi Mirtemir o'ylagandek bo'ldi. Jilovni kengash raisi Yo'ldoshev ushlab oldi:

-O'tiring o'rningizda, O'rtoq Muhammadboev! Sizning niyatingizni yaxshi bilamiz. Bugun bu yerda qanday o'yinlar ko'rsatishingizni ham yaxshi bilamiz, – dedi Yo'ldoshev.

Yo'ldoshev Iso Xolisning eng nozik joyiga niqtagandi. Iso Xolis uning taxallusi. Negadir u o'z familiyasidan nafratlanardi. Familiyasini aytgan odam qarshisidagi dushmanga aylanardi. Shu bois Yo'ldoshevning gapi sariqning joni sariq holvada degandek, uning jahlini chiqardi. Qog'ozga ikki satr nimalarnidir yozdi-da, raisning yoniga borib deputatlik vakolatnomasini topshirib, chiqib ketdi. Uning bu "o'jarligi" qimmatga tushdi. Yo'ldoshev imkoniyatdan foydalanib, muxolif millatvakillariga hujum qildi. Ulardan birortasiga so'z bermadi. Gapirmoqchi bo'lganlarni "buzg'unchilar", deb majlis zalidan chiqarib yubordi. Shu o'yin bilan u o'z umrini biroz uzatdi..

Iso Xolisni majlisdagi "pat-pat" tovuqdek harakati Erk partiyasini ham og'ir ahvolga soldi. Partiya kotiblari, faollari qamoqqa olina boshlandi. Partiya gazetasining ustidan tergov boshlandi. Bir kuni Mirtemir partiya binosiga kelsa, Iso Xolisdan boshqa hech kim yo'q edi. Iso Xolis suvga tushgan mushukdek, boshini elkasining ichiga tortgancha shumshayib o'tirardi.

-Shunaqa, – dedi u. – Og'ir kuningda hamma tashlab ketadi. Xayriyatki, ukalarim bor ekan. Gazetani ular bilan birga chiqarib turibman.

Mirtemirning unga rahmi keldi. Aslida ko'p narsa uning o'z xatosi bilan yuz berdi, uni o'yinchoqdek o'ynatishdi, deb o'yladi. Lekin bugun partiya hukumatga muxolifatda. Bugun demokratiyani himoya qilayapti. Agar uni ham Birlik singari yopib tashlashsa, undan keyin demokratiya uchun eshiklar ham uzoq yillarga yopiladi. Agar barcha muxolif millatvakillari hozir shu partiyaga o'tsalar, balki uni qutqazib qolish mumkindir? Lekin kuni kecha partiya kotibi Oripovni qamoqqa olishdi. Iso Xolisni har kun chaqirishayapti. Shunday sharoitda kim ham bu partiyaga o'tishga rozi bo'lardi. Aslida mardlik shunday paytda bilinadi. Bir sinab ko'rishim kerak.

-Men ertaga qadar deputat do'stlarimiz bilan gaplashaman. Kamida o'n kishi partiyaga a'zo bo'lib, Oliy kengashda partiya guruhini tuzsak, balki ta'qiblarni to'xtatarmiz.

-Bu ta'qiblarni Yo'ldoshev degan ho'kiz uyushtirayapti, – dedi Iso Xolis. – Men Karimovning maslahatchisi Mavlon bilan gaplashdim, bu ishlardan oqsoqolning xabari yo'q ekan.

-Menimcha faqat sizning emas ko'pchilikning xatosi ana shu yerda. O'tgan oy "Xalq so'zi" gazetasining muharririni ishdan olishdi. "Bu ishni Karimov boshqarayapti", deb hech kimni ishontirolnadim. Karimovning nomiga murojaatlar yozildi, o'rtaga odam qo'yildi, lekin natija bo'lmadi. Karimovsiz hech kim nafas ololmaydi. Karimovsiz biror bir rahbar odim otolmaydi. Karimovning mahorati shundaki, u boshqalarning qo'li bilan kaltaklaydi, o'zi panada qoladi.

-Bu hayajon masalasi, – dedi Iso Xolis "hayajonlanib ketdingiz" so'zlarini yumshatib. – Siyosatda sovuqqon bo'lish kerak. Bilaman, siz Karimovni yomon ko'rasiz. Shu sababdan u ko'zingizga hamma ishning aybdori bo'lib ko'rinadi.

-Biz endi demokratiya sharoitida emas, diktatura sharoitida yashayapmiz. Bunday paytda hamma mansabida qaltirab o'tiradi. Shunday ekan, bir partiyaning kotibini qamab qo'yishga kim jur'at etaoladi? Yoki bir gazetaning ustidan kim tergov boshlata oladi?

-Baribir ham Karimovga murojaat qilib ko'rish kerak. U tushunadigan odam.

Iso Xolis o'zini bunchalik go'llikka solishi Mirtemirni hayratlantirdi. U nimadandir cho'chiyotgandek edi. Orada qandaydir sir borgan o'xshaydi. Shuning uchun keskin ohangda gapira boshladi:

-Hali uch-to'rt yil o'tsin, siz o'zingiz o'rtaga chiqib, Karimov tushunmaydigan odam, deysiz. U kecha siz bilan juda muloyim gaplashdi, ertaga esa sizni yo'qotib ham yuborishi mumkin. Qachon bo'layotgan voqealar ortidagi kuchni ko'ra olsak, parda orqasidagi rejessyorni tanisak va tanibgina qolmay, buni ochiq-oydin gapirsak, o'shanda haqiqat o'rtaga chiqadi.

Iso Xolis tortishuvga nuqta qo'ymoqchi bo'ldi va:

-Ibrohim Haqqul gazetani tashlab qochdi. Shu ishni siz olsangiz, qani Karimovni qanday tanishingiz ma'lum bo'lardi, gap boshqa, ish boshqa, – dedi.

Shu nuqatda Mirtemir uni Karimovga o'xshatdi. Xuddi shunday gapni u Karimovdan ham eshitgan edi. Lekin u ham Karimov kabi Mirtemirning nafsoniyat nuqtasini topa oldi.

-Menimcha gazetaga rahbari masalasi Markaziy kengashning vakolatiga kirsak kerak. Agar Markaziy kengash lozim topsa, o'shanda o'ylab ko'raman, – dedi Mirtemir yumshab.

-Yangi yilning uchinchi kuni Markaziy kengashning majlisi bor. O'shanda bu masalani hal qilamiz.

Mirtemir Iso Xolis bilan xayrlashib chiqib ketgach, deputat do'stlari bilan gaplashdi. Har kimning har xil bahonasi bor edi.

-Yonayotgan olovning ichiga o'zimizni otamizmi? – dedi ulardan biri.

-Ba'zan bu ham olovni so'ndirishning bir yo'li bo'lishi mumkin, – javob qildi Mirtemir.

-Hammasi o'ydirma. Lekin Iso Xolis qandaydir tangani o'g'irlashda ayblanmoqda. Hatto Safar Bekjon degan qarindoshini tanga masalasida qamoqqa ham olishibdi.

-Bizning maqsadimiz Iso Xolisni qutqazish emas. Biz demokratiyani qutqazishimiz kerak. Hozir bu partiya demokratiyani himoya qiladigan maydonga aylandi. Biz ana shu maydonga tushib, demokratiya dushmanlariga qarshi mujodala etishimiz kerak yoki in-inimizga kirib bo'layotgan voqealarni tamosha qilib o'tirishimiz lozim. Oxirida inimizdan chiqarib olib ezg'ilab tashlashadi.

Mirtemirning bunday dashnomli gapidan keyin ham bor yo'g'i olti kishi partiyaga a'zo bo'lish uchun ariza yozib, uning qo'liga berdi.

Shunisiga ham shukur, deb o'yladi Mirtemir. Bugun olti kishi bo'lsak, ertaga oltmishga aylanamiz.

Yangi yilni tumov bilan o'tkazgan Mirtemir Erk partiyasi Markaziy kengashi majlisiga kelarkan, yo'lda nomersiz bir engil avtomashina birdan uning ustiga qarab yurdi. Arang chap berib qoldi. Mashina orqaga qayrilib, yana uning ustiga yurdi. U yugurgancha temir panjaralar orqasiga o'tib, ora so'qmoqdan partiya binosiga etib oldi. Voqeani eshitganlar darhol gazetalarga, huquq idoralariga xabar qilishdi.

Shu kuni Mirtemirni partiyaning mafkuraviy masalalar bo'yicha kotibi va gazeta Bosh muharriri etib saylashdi. Kengashda partiya kotibi Nur Muhammad so'z olib:

-Partiyamiz nomidan Oliy kengashda so'z aytmoq fikrini ham Mirtemirga beraylik, – dedi.

Xullas, bir ishga rozi bo'lgan Mirtemir uch ishni elkasiga oldi. Ertasigayoq Ibrohim Haqqulni da'vat etib, Davlat Matbuot qo'mitasiga borishdi. Rasmiyatga ko'ra, yangi muharrir albatta eskisi bilan birga Matbuot qo'mitasi raisining huzuriga borishi kerak edi. Qo'mita raisi Shog'ulomov Ibrohim Haqqulga yuzlanib:

-Haftalik gazetada ancha muncha qalam haqini o'zlashtirib qo'yibsizlar-ku, – dedi.

-O'zlashtirganimiz yo'q. Nishriyotingiz barcha ro'znomalarga plyonka berdi. Biz esa Boltiq bo'yi jumhuriyatlardan naqd pulga sotib oldik. Aks holda gazeta chiqmas edi. Eb yuborish nimasi? Biz o'z hisobimizdan harajat qildik.

-Bu yog'i bilan ishim yo'q. Baribir javob berasizlar.

-Yaqinda Ichki ishlar vazirligidan telefon qilib, Cho'lponning adresini so'rashdi. Gazetamizda uning she'ri bosilgandi. Adresini nima qilasizlar desam, "Chaqirib, tergov qilamiz, qalam haqi olgan olmaganini so'raymiz" deyishdi. Kulishni ham, yig'lashni ham bilmadim. Sizning ham gapingiz Cho'lponni qabrdan chiqarib olib kel, deganga o'xshab qolayapti.

Ibrohim Haqqulning bu gapi Shog'ulomovning jahlini chiqardi. Mirtemir orani yumshatmoqchi bo'ldi, lekin kor qilmadi.

-Bilasizmi, sizlar hovliqib ketdingizlar, – dedi u. – Ellik yilda ham hokimiyatga kelolmaysizlar.

-Biz hokimiyatga ertaga kelamiz dedikmi? – Ibrohim Haqqul ham tovushini balandlatdi.

-Bu odamdan boshqa bugun hech kim mamlakatni boshqarolmaydi, – Shog'ulomov shunday, deya devorga osib qo'yilgan portretni ko'rsatdi. Karimov uning boshi uzra jilmayib turgandek edi.

-Iso Xolis bor, – dedi Ibrohim.

-Iso Xolis... uni yaxshi taniysizmi? Biror joyda bir oydan ko'p ishlay olmaganini bilasizmi? Uch marta kommunistik partiyaga a'zo bo'laman, deya ariza yozganini va qabul qilinmaganini ham bilasizmi? Uning xotinbozliginichi? Umr yo'ldoshini qishloqi, madaniyatsiz, deya haydab yuborib, Moskvadan malla sochlilardan olib kelganini ham bilasizmi? G'arbdagi shoir, yozuvchilarning she'rlari, qatralarini tarjima qilib, qosh-ko'zini bo'yab, o'ziniki qilib olganini bilasizmi? Bilmaysiz! Yoki bilib bilmaslikka olasiz !

Xullas, Shog'ulomovning "bilasizmilari" hech tugamasdi. Oxiri:

-Menga o'ylab ko'rish uchun un kun muhlat beringlar. Oqsoqol bilan gaplashib olay, – dedi u.

O'n kun vaqt so'ragan vazirning o'n soatga ham toqati etmadi. Karimovning huzuriga kelib:

-Mirtemir muxolifatning gazetasiga bosh muharrir bo'libdi. Gazetaga tazyiq

o'tkazayapsizlar, masalani Oliy Kengash majlisida ko'taraman, deb tahdid qildi,- dedi.

-Men unga tahdidni ko'rsatib qo'yaman. Yo'ldoshevga ayting zudlik bilan uni deputatlikdan chaqirib olsin. – Karimov shunday, deb Shog'ulomovni chiqarib yuborar ekan avval maslahatchilariga, keyin yana Yo'ldoshevga sim qoqib:

-Uch kunda Mirtemirni deputatlikdan chiqarib olish masalasini hal qiling, – dedi. Yakshanba kuni Mirtemirning uyiga saylov okrugidan Nuriddin degan yigit keldi.

-Kechirasiz, noxush xabar olib keldim, – dedi u.

-Tinchlikmi?

-Payshanba-juma kunlari hokim Keldiyor aka kolxoz raislari, maktab direktorlari, brigadirlarni ishga solib, sizni deputatlikdan chaqirib olish haqida qog'oz to'pladi. Kecha qog'ozlarni shaxsan o'zi Oliy kengashga keltirdi.

-Odamlar hech narsa deyishmadimi? – so'radi Mirtemir.

-Bilasiz-ku, hozir hamma qo'rqib qolgan. Buning ustiga bu Karimovning, Jo'rabekov va Mavlonning topshirig'i ekan. Bu ismlarni eshitganlarning ahvolini tasavvur qilish qiyin emas. Qochganga qora ham Qoraboy bo'lib ko'rinadi.

Shu kuni Iso Xolisning uyiga Farangiston elchisi mehmonga kelishi kerak edi. Mirtemirni ham da'vat qilgandi. Mirtemir jomboylik mehmoni bilan xayrlashib, qor ustida asta-asta yurgancha Iso Xolisning uyiga bordi.

-Ertaga bir Jo'rabekovga, keyin Mavlonjonga uchrashing-chi, – dedi Iso Xolis.

-Qozining ustidan o'ziga arz qilgandek gap bo'lmaydimi?

-Qozi istasa, qarorini har turli chiqarishi mumkin. Ularning ko'ngliga yo'l topsangiz bu harakatni to'xtatishadi.

Mirtemir Iso Xolis yo juda ham sodda yoki juda ham ayyor, deb o'yladi. Tulkinining terisidan to'n kiygan odam do'stini ajdahoning og'ziga ro'baru qiladi. Karimov Jo'rabekov va Mavlonga bu ishni topshirgan bo'lsa, ularni Azroildan boshqa hech kim to'xtata olmaydi.

Mirtemirning xayolga cho'mganini ko'rgan Iso Xolis :

-Bugun Jo'rabekovni ko'rgandim. Sizni so'radi. Demak, gap bu yoqda ekan. Nima bo'lsa ham bir uchrashib qo'ying, – dedi.

Bu ishdan Iso Xolisning ham xabari bor, deb o'yladi Mirtemir. Chunki voqeani eshitib, hech qanday taajjub bildirmadi. Aksincha, hamma narsadan xabardor kishidek "chiqish yo'li"ni ko'rsatdi.

Mirtemir Iso Xolisning ham xabari bor yo'qligini o'rganmoqchi bo'ldi. Agar xabari bo'lsa, demak u bilan bir yo'lda yurib bo'lmaydi. Buni o'rganishning birdan bir manbai Jo'rabekov edi. Ertalab u Jo'rabekovning huzuriga keldi. Papiros chekmaydigan Jo'rabekov tinimsiz tutata boshladi.

-Menga ham bering, – dedi Mirtemir. Jo'rabekov bir quticha "Malbora"ni uzatdi. Keyin:

-O'limdan xabarim bor, lekin bundan xabarim yo'q, – dedi u.

-Xabaringiz bor, bilaman, – dedi Mirtemir o'chakishib. – Hatto Iso Xolisga ham aytibsiz.

-Iso Xolisni kecha ko'rdim. Faqat uzoqdan bosh iring'ab salomlashdik. Undan meni so'ramadingizmi?

-Siz kerak bo'lsangiz, qaerdan topishimni yaxshi bilaman. Qolaversa, bu masala Oliy kengashning ishi. Bilganimda ham unga aralasha olmayman.

-Axir hamma sessiyalarni Siz o'tkazasiz. Necha marta deputatlarni chaqirib do'qlagansiz. Hatto menga ham "qamalib ketasan", deb aytgansiz. Mayli, chaqirib olinglar. Lekin bu ish qonun talabi darajasida bo'lsin. Menga saylovchilar bilan uchrashuv uchun imkoniyat tanimasdan qaror chiqarib qo'yishlaringiz na tarozida turadi va na tavoqda.

-Bilasiz, Ettinchi sessiyada bosh ko'tarib, to'ntarish qilmoqchi bo'lganlarni tor- mor ettik. Bitta Yo'ldoshev qoldi, – dedi Jo'rabekov xuddi "Sizning ham ishingiz bitdi" degandek.

-Ha, omadlisiz. Lekin inson bir umr ham omadli bo'lavermaydi, – deb chiqib ketayotgan Mirtemirni Jo'rabekov to'xtatdi:

-Bilasizmi, poytaxtdan ketib viloyatingizda ishlasangiz, buni to'xtatish mumkin.

Mirtemir Jo'rabekovga qarab jilmaydi-da, eshikni yopib chiqib ketdi. Ertasiga ertalab yo'lga chiqdi. Saylovchilari bilan uchrashmoqchi edi.

Y O ' L D O S H [6 5]

Mirtemirni qo'nalg'ada yaqin do'sti Yo'ldosh Suyunov kutib oldi. U viloyat hokimiyatida tashkiliy-kadrlar bo'limining mudiri edi.

-Nima gap? – deb so'radi Mirtemir Yo'ldoshdan.

-Hozircha hech gap. Agar biror voqea bo'lsa Sizga men o'zim etkazaman, r... rostdan ham... – dedi Yo'ldosh "r"ni aytishga qiynalib.

-Oliy Kengash rayosati nomidan allaqachon qaror ham tayyorlab qo'yishibdi-ku?

-Bizga kelgan emas, aks taqdirda meni sizni kutib olishga chiqarisharmidi?

-Men hech kimga aytmadan yo'lga chiqqandim. Bular yo'talga qarab ismingni aytib beradilar...

-Shunaqami? – ajablendi Yo'ldosh.

-Sizning ajablanishingizni ko'rib men ham ajablanayapman, – dedi Mirtemir.

-Axir imzo to'plashibdi-ku?!

-Yo'g'e, men eshitishim kerak edi.

Mirtemir Yo'ldoshning gapiga ishondi. Chunki bu binoda ishlayotganlardan ikki nafariga ishonish mumkin bo'lsa, bulardan biri Yo'ldosh, deb o'ylardi bir paytlar. O'rusiyatdan jumhuriyatga kelgan "tozalovchi"larning qarmog'iga tushgan insonlar orasida Yo'ldosh ham bor edi. O'shanda Yo'ldosh viloyat ijroqo'mida umumiy ishlar bo'limining mudiri edi. Shahar partiya qo'mitasida a'zolikka qabul qilinuvchilardan pora istalganini majlisda aytib qo'ygani uchun ko'chaga quvildi.

Mirtemir uni anchadan buyon tanirdi. Yo'ldosh komsomol qo'mitasida ishlab yurganida viloyat ro'znomasiga xat-xabar olib kelardi. Hamma vaqt tirjayib turadigan, bo'yni egik bu yigitchaga doim yordam qo'lini cho'zardi. So'zlaridan halol, pok, vijdonli yigitga o'xshardi. Huquq oliygohini bitirgani uchun siyosatdan uncha-muncha xabari bor edi. Ishdan quvilgandan keyin ikki yil adolat izladi. Bosh suqmagan idora, taqillatmagan eshik qolmadi. Bu orada Mirtemir jumhuriyat ro'znomasiga ishga o'tdi. Bir kuni Yo'ldosh uning huzuriga keldi:

-Biz ishongan qayta qurish "ayta ko'rish", ya'ni gap ekan. Hamma tepadan kelgan "mehmon"lardan qo'rqadi. Kim bilan gaplashmayin "Siz haqsiz, lekin qo'limizdan hech narsa kelmaydi", deb aytadi, – dedi.

Yo'ldoshning sha'mador gapi Mirtemirga ta'sir qildi. Viloyat ro'znomasida uni himoya qilib yoza olmas edi. Bu yerda ham mushkul, deb o'yladi. Gazetamizning boshida tepadagilarga xushomadgo'ylik zaruriyati tug'lsa anqoning urug'ini ham topib keladigan kishi o'tiribdi. Yozganim bilan sahifadan olib tashlaydi. Balki sahifaga etib ham bormas, lekin bu yigitning eng so'nggi umidi bu. Ko'zlari mahzunlik qal'asiga aylanibdi, rangi so'lib, qaddi egila boshlabdi. Uning o'rniga boshqa odam bo'lganda to'nini elkasiga tashlab, biror joyda ishlab yuraverardi. U chekinmadi. Nima bo'lganda ham uning qo'ltig'idan ko'tarish kerak. Mirtemir xayollarini tizginladida, Yo'ldoshning ikki sumkaga siqqan qog'ozlarini qo'liga oldi.

"Bir inson taqdiri" sarlavhali maqolasi tayyor bo'lganda, bosh muharrir o'rinbosari Jo'raboy aka uni tabriklab:

-Bu "mehmon"larimizni tipirlatadigan ilk maqola. Bugunga qadar hech kim ularning mushugini "pisht" degan emas. Lekin "domla" bu maqolaning chiqishiga izn bermaydi, – dedi.

-Sizga yoqqan bo'lsa, balki "domla"ga ham yoqar, – dedi Mirtemir.

Ular bosh muharrirni "domla" deyishardi, chunki bosh muharrir Qayumov ilgari dorulfununda dars bergani uchun uni tahririyatda hamma shunday deb atardi.

Jo'ravoy aka maqolani oldi-da, Qayumovning kotibiga berdi. Bir haftadan keyin Qayumov Mirtemirni chaqirdi. Qayumov ho'l o'tinga o'xshardi, ustidan kerosin sepsangiz bir necha soniyada guvillab yonardi-da, keyin tutay boshlardi. Uning guvillab yonishidan tutashi yomon edi. Chunki ko'zlarni achitib yuborardi.

-Hov ukam, boshing nechta sening?! – Qayumov Mirtemirni sensirab gapirarkan, u xafa bo'lmadi. Chunki bir paytlar dorulfununda darsga kirganida hammani “sen”sirab gapirardi va bunga Mirtemir ham ko'nikkandi. Qayumovni odati shu, u hatto yoshi o'zidan katta bo'lsa-da o'rinbosarini ham sensirardi, chunki ularni talaba o'rnida ko'rardi.

-Domla..., – Mirtemir nimadir so'ramoqchi bo'ldi.

-Domlangning uyi kuysin!... – Qayumov Mirtemirning so'zini kesdi. – Hozirgina Markazkomdan keldim, Ra'noxon opang gazetamizga tashakkur bildirdi. Nima, sen boshimizdan qaynoq suv quymoqchimisan? Yuqoridan kelgan har bir mehmon halol, vijdonli, bizga yaxshilik istab kelgan. Ularni ming marta tekshirib bir marta yuborishgan. Oldingi okaxonlarning hammayoqni sichqon uya qilib, talon taroj etishdi. Xudogo shukur, markazdan yuborilganlar adolat kalavasining uchini topib berishdi...

Qayumov tutay boshlagandi. Bu kamida qirq besh daqiqa davom etishini Mirtemir

yaxshi bilardi. Lekin, nima bo'lganda ham domla-da. Ikki darsni qo'shib birdaniga tugatdi.

Mirtemir Jo'raboy akaning huzuriga kelganda, uni qah-qaha bilan qarshiladi:

-Domla yaxshi odam, ikki darsni qo'shib yuboradi. Talabasini limon deb o'ylaydi. Ezaveradi, ezaveradi. Hechqisi yo'q, uch kundan keyin ta'tilga ketayapti, ana o'shanda maqolani chiqarib yuboramiz, – dedi.

Mirtemir Ra'noxon opadan olingan tashakkurnoma sababini endi angladi. Demak, bosh muharrir Markazkomning mafkura bo'yicha kotibi Ra'no Abdullaevadan ta'tilga izn olgan.

Xullas, kun botdi, oy chiqdi bir kun ertalab gazeta sahifasida Mirtemirning maqolasi ko'rindi. Bu maqola uning boshida chaqilgan yong'oqqa aylandi. Har tarafdin toshbo'ronga tutishdi. Viloyat partiya qo'mitasida ishlayotgan va Yo'ldoshni badarg'a etgan “mehmon” Nikolay Fillipov basharasidagi niqob yirtilganidan talvasaga tushgandi. Qo'l ostida ishlayotgan Ne'matjon Mahmudovga shikoyat yozdirib, Komfirqa ikkinchi kotibi, “bosh tozalovchi” Anishchevdan “Muxbirning kimligi o'rganilsin” degan hukm chiqartirdi. O'shanda Ne'matjon Mahmudov Mirtemirning huzuriga keldi:

-Menga yoz deyishdi, yozdim. Bilaman, Yo'ldoshga nohaqlik qilindi. Lekin u ham yaxshi odam emas. Komsomolda ikkalamiz birga ishlaganmiz. U ijroqo'mga o'tgandan keyin oramizdan qora mushuk o'tdi. U majlisda tuman partiya qo'mitasidagilr pora olishadi, der ekan, maqsadi poraxo'rlikni fosh etish emas, balki meni u yerdan chetlatish edi, – dedi.

-Nima bo'lganda ham pora olingan, bu isbotlandi, – dedi o'shanda Mirtemir.

Komfirqaning topshirig'i bilan uch tomondan taftish guruhi tuzildi. Mirtemirni “Bobosi bosmachilar bilan aloqador” deb ayblay boshladilar. Partiya komissiyasi esa “Bir paytlar otasi qamalgan” degan bahonani ro'kach qildi. Ichki ishlar boshqarmasida “Mashina oluvchi odamga yordam qilgan” degan aybni o'ylab topishdi. Har kun dahanaki jang, har kun asabbuzarlik. Na

uyda, na ko'chada halovat. Nihoyat to'rt oylik tekshir-tekshirdan keyin partiya qo'mitasida muxbir masalasini muhokama qilishga majlis tayin etildi. Majlisni yangi tayinlangan birinchi kotib Nazir Rajabov boshqardi.

-Muxbirda ayb yo'q, – dedi u.

Bu gapni aytgan Rajabov baloga qoldi. Endi uni tekshira boshladilar. Rajabov Moskovga qadar bordi va Yo'ldoshni ishga tikladi. Shundan keyin Mirtemir Yo'ldosh bilan yaqin do'st bo'lib qoldi. Bir-birining uyiga borib keladigan bo'lishdi. Mirtemir deputatlikka saylanganda Yo'ldosh uning atrofida girdikapalak edi. Poytaxtdan

shaharga qaytsa, albatta qarshisida Yo'ldoshni ko'rardi.

-Yurtimizda ozodlik, birlik, erk g'alaba qiladi, demokratiya qaror topadi, – derdi u har safar.

Mana bugun Mirtemir uning huzurida. Uning xonasiga kirishdan oldin, yo'lda Po'lat Majidovichga ro'baro' kelib qoldi.

-Oliy Kengash rayosatining qarori keldi, ikki kun bo'ldi. Mashina yurib ketdi, – dedi u kinoya bilan.

Yo'ldosh bo'lsa "Xabarim yo'q" deyapti. Balki rostdan ham bexabardir? E, yo'q, umumiy ishlar bo'limining mudiri qanday qilib xabarsiz qoladi? Axir barcha xat- hujjat uning qo'lga kelib tushadi-ku? Yoki Po'lat Majidovich uni cho'chitish uchun shunday dedi-mi?

Mirtemir Yo'ldoshning xonasidan chiqar ekan:

-Agar bir noxush xabar eshitsam, albatta Sizga etkazaman, – dedi doimiy tirjayishini kanda qilmay.

Mirtemir o'zi saylangan tumanga keldi. Hokim Keldiyor Isroilov tinimsiz sigaret cheka boshladi.

-Xonangizda birov sigaret cheksa ruxsat bermas edingiz, endi o'zingiz boshlabsiz- ku? – dedi Mirtemir.

-E, o'sha kundan boshlab cheka boshladim, – dedi Keldiyor.

-Qaysi kun?

-Siz haqingizda masala ko'tarilgan kun-da!

-Meni deputatlikdan chaqirib olish masalasini biror-bir tashkilot yoki biror qishloq ahli ko'tardi-mi? – kinoya bilan so'radi Mirtemir.

-Qiziqsiz-a, tuman ahli sizni mendan ham yaxshi ko'radi-ku!

-Unday bo'lsa masala qaerdan ko'tarildi? – ataylab savolini takrorladi Mirtemir.

-Ikkalamiz do'stmiz, gap shu yerda qolsin, – dedi Keldiyor – Meni Po'lat Majidovich chaqirdi. Unga Karimovning o'zi sim qoqipti. Bu narsa bizga obro' keltirmasligini, xalq noto'g'ri tushunishini aytdim. Uzoq gaplashdik. Nihoyat: “Bo'pti, siz ta'tilga chiqing. O'zimiz bajaramiz”, dedi. Ariza yozdim, qo'l qo'ydi. Gapning ochig'i xursand bo'lib ketdim. Sizni mening qo'lim bilan o'ldirishmoqchi edilar. Oldingi

hokim bilan qancha olishganingizni butun jumhuriyat ko'rdi. U xoinni tumanimiz boshidan uzoqlashtirguncha qancha azob chekdingiz. Buni xalqimiz unutmadi. Shu bois Po'lat Majidovichga “Taklifimizni xalq qo'llamaydi” deb aytdim. U kuldi- da, qachondan buyon xalqdan so'raydigan bo'lib qoldingiz”, dedi. Tumanga etib kelmasimdan orqadan Alisher Mardiev va Yo'ldosh Suyunovlar etib kelishdi. Mana shu xonada o'tirib xalq nomidan talabnoma yozdik, keyin qaror matnini hozirladik, undan keyin poytaxtdan bu masalani ko'rib chiqishni iltimos qilib xat tayyorladik. Yo'ldosh Suyunov mening mashinamda poytaxtga olib bordi va o'sha kuniyoq u yerda chiqarilgan qarorni olib qaytdi...

-Kim, kim?! – Mirtemir titrab ketdi.

-Umumiy ishlar mudiri Yo'ldosh Suyunov. Iltimos, o'ziga aytmang, “Biz Mirtemir bilan do'stmiz, endi menga ham yomon ko'z bilan qarashadi”, deyayotgandi.

Keldiyorning qolgan gapi Mirtemirning qulog'iga kirmadi. Chunki uning quloqlari oldida boshqa bir hayqiriq jaranglayotgandi.

Yo'ldosh! Qani sening vijdoning, iymoning?! Qani kurashchiliging?! Sendagi do'stlik ruhi qaerga yo'qoldi?! Sening noming bugun qilichga aylandi. Tafakkurim, qarashlarim, ishonchimni chil-chil aylagan qilich!

Yo'ldosh! Men bu tumandagi dehqon, brigadir, hatto mana bu xonaga kelib sening guvohligingda qarorga imzo otirilgan raisdan xafa bo'lmayman U kurash nimaligini, azob-uqubat nimaligini, uyqusiz tunlar, adolat, haqiqat yo'lida jon fido qilish nimaligini yo biladi yo yo'q... Uni manqurt holiga solishgan, ham ovozi bor, ham ovozi yo'q. Gapiyadi-yu gapirolmaydi, o'ylaydi-yu fikrlarini qalbiga ko'madi. Iztirob chekadi-yu iztirobi bilan birga qovruladi. Lekin sen-chi?!

Yo'ldosh! Men Mardievdan xafa bo'lishga haqli emasman. U o'n yillar davomida sud raisi bo'ldi. Bu uning oddiy hayot tarzi, dunyoni pul deb baholadi va o'z mezoniga ko'ra go'yo to'g'ri qildi. Bugun viloyat hokimining birinchi o'rinbosari. U hali uzoq manzillarga etib boradi. Sobiq bosh vazirni deputatlikdan quvishda “mash'al”ga aylandi. Lekin hech kim bilmaydiki, Mirsaidov o'zi ariza yozib deputatlikni tark etdi. Mardievlar esa uni “qarsaklar” bilan chaqirib olishdi, uning o'rniga o'zi deputat bo'ldi. Men undan ranjimayman. Iflos jamiyatning eng iflos cho'qqilarida yurgan bunday “aqlli” kishilardan xafa bo'lish ahmoqlikdir.

Yo'ldosh! Men bugun Po'lat Majidovichni ham kechirdim. U ham bir jallod. Hukm kelsa, otasining boshini kesadi. U qondan, jirkanchlikdan seskanmaydi. Uning hayot tarzi bu. Ammo unga ham rahmim keladi, chunki bir kun shu Karimovning o'zi uning boshini uzadi. Shohlarning jallodlari hech qachon omon qolmagan. U bugungi gunohlari haqqi o'z hukumdoridan jazo oladi.

Yo'ldosh! Men hatto Keldiyordan ham xafa bo'lolmayman. U ham o'ziga xos shaxs. Lekin hech narsani yashirmasdan borini aytdi. O'z vijdoni oldida pok. Hatto "Men qarshi chiqib ishni tashlab ketsam ham, baribir Sizni deputatlikdan chaqirishadi. Chunki bu xalqning irodasi emas, bu Karimovning irodasidir. Qaror allaqachon chiqarilgan", dedi. U pisman emas, u maqsadini yashirmaydi. Ilgari kelganimda eshikka qadar kuzatib qo'ymagan bu yigit, bugun mana ko'chaga qadar chiqdi. Ketishim uchun mashina bermoqchi bo'layapti. O'tgan oy esa uchrashuvga kechikayotganimizda binoning orqa eshigidan qochgan bu "pahlavon" bugun o'zini hokisor qilib ko'rsatish bilan o'z gunohlarini engillatmoqchi. U meni "do'stim" deb alqayapti. Uning maqsadi bor: Meni xalq huzuriga chiqarmoqchi emas. Suhbatlashib o'tirar ekanmiz, boshqa xonadan kimgadir sim qoqdi. U balki sen eding, balki Mardievdir. So'ng "Tushuning, xalq bilan uchrashuvning foydasi yo'q. Faqat menga gap tegadi. Butun tuman xalqi qo'lga qurol olib chiqsa ham bu harakatni to'xtata olmaydi. Chunki bu harakat sarobdek gap. Qaerda ko'rinib, qaerda ko'rinmasligi noaniq. Hozir qonunga ko'ra, ba'zi qog'ozlar tayyorlanmoqda, ertaga esa "Chaqirib olindi, to'qson to'qqiz foiz xalq ovoz berdi" degan qaror yoziladi. Agar erkakchasiga aytsam bu ham yozib qo'yilgan. Bitta ish qoldi. U ham bo'lsa belgilangan kun matbuotda e'lon qilish" dedi.

U hech narsani yashirmaydi. Ochiqchasiga "Seni o'ldiraman" deydi. O'lishingni bilasan, yana bir necha lahzadan so'ng "paq" etib miltiq otiladi-yu mangu uyquga ketasan. Negadir bu qotillikdan xafa bo'lolmaysan.

Yo'ldosh! Hatto o'sha senlar sig'ingan Jo'rabekovga nisbatan qalbim yumshadi. U ham Xudoga emas, bandaga sig'inadi. Karimovning qarshisida hamma vaqt boshi egik, tili qisiq. Mozorda yotgan onasini, uyida o'tirgan xotinini haqoratlasa ham jim turaverardi. U xuddi lavozimlarini pullagandek o'z bolasini osongina sotib yuborishi mumkin. Unda na fikr va na qalb bor. Uning vijdoni pul, imoni mansab. Jo'rabekov, Mavlon, Alimovlardan xafa bo'lish o'zingni bepisand etish, xor-zor qilish bilan barobar. Ular dunyodagi eng badbaxt odamlar. Ularning buguni bor, u ham omonat, ertalari zulmat, kelajaklari esa yolg'iz Xudoga ayon.

Lekin sen-chi, Yo'ldosh? Sen kimsan? Sansiraganimga jahling chiqmasin. Sen deya Yo'ldosh Suyunov bilan emas, balki yo'ldoshlar bilan bahs ochmoq istadim. Sendagi adolatga ishonch qachon so'ndi? Sendagi kurashchanlik ruhi qachon sindi?! Sendagi umid daraxti qachon chiriy boshladi?! Qachon?! Agar bor haqiqatni anglab, sen haqsizlikka ko'nikkan bo'lsang, demak millatning taqdiri xavf ostida. Chunki millatni ushlab turadigan ildizlar uning botir, qo'rqmas, haqso'z o'g'lonlari.

Jo'rabekovlar, Alimovlar, Mardievlar... ularning son-sanog'i yo'q. Ularning ojizligi, qo'rqoqligi bois Turkistonni o'rislar bosib oldi., qatliom qildilar xalqni. Ular "Maratu"lardir. Rivoyatni esla. "Maratu"larning xoinligi bois millatning tilini kesdilar, shoirlarini o'ldirdilar, yozuvchilarini tiriklayin ko'mdilar, oydinlarini darbadar etdilar. Shu oydinlarning orasidan chiqqan "Maratu"larning qo'li bilan. "Maratu"larning mansabga sadoqati bois millionlab o'g'lonlarni "bosmachi" deya tavqi la'natga

qorishtirdilar. "Maratu"larning odam qiyofasidagi shaytonligi tufayli xalqning kiprigiga qulf, qo'llariga zanjir, tafakkuriga tikanzor solindi. Lekin "Maratu"larni oxir- oqibat Chor Rossiyasi ham ayamadi, dorga osdi. "Maratu"larni Lenin kechirmadi. Ochdan o'ldirdi! "Maratu"larni Stalin

otdi, lekin yo'ldoshlar qoldilar. Nega? Bu qanday sinoat?! Bu qanday sir?! Balki asl "Maratu" sensan, Yo'ldosh!

Endi Yo'ldosh Suyunovga ikkiog'izso'zimbor: Sizdanyordamso'rabborganimyo'q birodar. Dardlashmoq istadim. Siz bor haqiqatni yashirsangizda, hamtovoqlaringiz yashirmadilar. Lekin nega yashirdingiz? Nega jilmayib turib aldadingiz? Sizni qandaydir tuyg'u qiynoqqa soldimi? Agar bor gapni aytganingizda... Yo'q, siz meni yaxshi bilardingiz. Men mansab uchun do'stini sotganlardan hazar qilaman! Rahbarga sadoqatli ko'rinib, birodarlaridan kechganlar bilan suhbat qurishdan or qilaman! Shu bois ham yashirgansiz, Yo'ldosh Suyunovich!

Siz qo'lda qilich bilan men saylangan tumanga borgansiz. Kundaga mening boshim qo'yilgandi, kurashlardan tizzalab qolganingiz ko'z oldingizga keldi-mi? Ikki yil sarson-sargardon yurganingizni esga oldingiz-mi? Yoki shu holat sizga qilich ko'tarish uchun kuch berdi-mi? Lekin siz o'sha paytda yolg'iz qolmagan edingiz- ku?

O'h, qilichni urdingiz! U mening boshimga emas, umidimga, ishonchimga kurashimga sanchildi. Men o'zimning bugungi holatimni eng olmasam, qachondir qaysibir Yo'ldosh adolatsiz chorrahada yolg'iz qoladi. Balki bu holatimni engsam, men qo'llagan Yo'ldoshlar qachondir Mirtemirlarning boshini kesar! Ko'rdingizmi, nima qilib qo'ydingiz, Yo'ldosh Suyunovich!

Azaldan kishilar do'stlarning xiyonatidan ozor chekkanlar. Nafaqat kishilar, balki butun jonzotlarni ana shu dard qiynaydi.

Birdan Mirtemirning yodiga "Xonbaliq" haqidagi rivoyat tushdi: RIVOYAT

Endi urug'dan chiqqan ikki xonbaliq toza suvda gohida sakrab, gohida "uchib" o'sishardi. Noxos kelgan oqim ulardan birini o'z komiga tortdi. Uni sho'r suv – ummonga olib borib tashladi. U shiddat bilan orqaga urdi o'zini, to'lqin uni qayta uloqtirdi. U suv ostidan ortga suzmoqchi bo'ldi, mehnatlari zoe ketdi. U endi sakrab-sakrab oqimga qarshi suza boshladi. Sharillab oqayotgan suv uni toshlarga urdi, boshi zada bo'ldi. Yana sho'r suv – ummonga borib tushdi. U kuch to'plab ortga qaytdi. Goh toshga urildi, goh ortga uloqtirildi.

Vaqt uning foydasiga ishlardi. U chiniqardi va kuch yig'ardi, ulg'ayardi. Nihoyat u shiddatli oqimni, iztirob irmoqlarini asta-sekin eng boshladi. Uzoq kurashlar, olishuvlardan so'ng o'zi paydo bo'lgan musaffo ko'lga etib keldi. Sakrab, suv sachratib o'ynadi, quvnadi, so'ng do'st-yorini qidirdi. Izlab-izlab topdi. Do'sti undan

qochdi. U qancha yaqinlashmasin do'sti shunchalik qochib ketaverdi. So'ng u katta kuch bilan o'zini toshga urdi. O'lmadi. Yana borib urdi. Yana... yana... Uni suv qirg'oqqa olib chiqib tashladi. Shunda do'sti ham uning ortidan bu holni takrorladi.

Bu ikki baliq qolgan baliqlar falsafasidan yiroqda edilar. Dumingni likillatsang ilgari ketasan, degan qoidani qabul etmagandilar. Balki shuning uchun ularning nomlari Ilonbaliq emas, Cho'tirbaliq emas, ularning nomi Xonbaliq!

Mirtemir tumandan orqaga qaytar ekan, qo'lini silkab qolgan Keldiyorning g'ira- shira qiyofasi Yuldoshning qomati bilan qorishib ketdi. Qishning so'ng kunlaridagi suyaklarni kemiruvchi

xirchin shamol derazadan shiddat bilan ichkariga urdi-yu Mirtemirning xayollarini olib ketdi. U mashinaning oynasini bekitar ekan, xuddi o'tgan kunlariga parda tortgandek ko'ngli bo'm-bo'sh edi. Bu bo'm-bo'shlikni to'ldiradigan quvg'inlar hali oldinda ekanligini sezsa-da shu damda bu haqda o'ylamaslikka urinardi...